



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAHALLA VA
OILANI QO'LLAB-QUVVATLASH VAZIRLIGI**
"MAHALLA VA OILA" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

**"ZAMONAVIY OILADA, FARZAND TARBIYASIDA
MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI
SHAKLLANTIRISH MASALALARI"**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI TO'PLAMI
(30-sentabr, 2021-yil)

**"ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И
ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОЙ
СЕМЬЕ, ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ"**

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
(30 сентября 2021 года)

**"ISSUES OF FORMATION OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES
IN MODERN FAMILY AND UPBRINGING OF CHILDREN"**

COLLECTION OF MATERIALS OF THE REPUBLICAN
SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
(September 30, 2021)



«Mahalla va oila nashriyoti»

Toshkent – 2021

UO'K: 173(575.1)

17.023.5(575.1)

KBK: 87.7(5Ў)

71.04(5Ў)

Z-31

“Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami [Matn] – Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2021. – 200 b.

Tuzuvchi va tartib beruvchi:

Ismaylova R.

Tahrir hay’ati:

Egamberdiyeva N., Musurmanova O., Abduromanov X., Ismaylova R., Ходжаев С.,
Сайдвалиева X., Alimov S.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 367-qarori asosida mamlakatimizda “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilindi. Mazkur qarorda mahalla va oila institutlarini mustahkamlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni shakllantirishda ishtirok etish, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash sohasidagi dolzarb muammolarga bag‘ishlangan ilmiy, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar tashkil etish vazifalari belgilab berildi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 78-F-sonli farmoyishi asosida respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga binoan “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutida 2021-yil 30-sentabr kuni “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi. Mazkur to‘plam konferensiyada qilingan ma’ruzalar materiallarini o‘zida jamlaydi.

Mazkur to‘plam materiallaridan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda konferensiya to‘plamiga havola berilishi shart.

To‘plamga kiritilgan ma’ruzalar materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kengashining 2021-yil 6-oktabrdagi 10-son majlisida muhokama qilingan va nashrqa tavsiya etilgan.

KIRISH SO‘ZLARI



Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti direktori
pedagogika fanlari doktori, professor

HURMATLI ANJUMAN ISHTIROKCHILARI!

Mamlakatimizda jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk, har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas’uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir.

Ma’naviy-ruhiy sog‘lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog‘lom va ahil oila mehnatining samarasini sifatida qarab, oilada o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma’naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish bugungi kunda har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnii judayam katta.

Qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga o‘tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o‘zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida: *“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”*, – deb e’tirof etdilar.

Xo‘s sh qadriyatning o‘zi nima? Qadriyatlar deganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar tushuniladi. Qadriyatlarning mohiyati insonlarning tarixiy tajriba an‘analarini kelgusi avlodlarga to‘la-to‘kis yetkazish, o‘rgatish, ta’lim-tarbiya berish orqali izohlaymiz. Shuning uchun milliy ma’naviy qadriyatlarni e’zozlab, ardoqlab, chin dildan bajarish va ularni o‘z holida saqlash, shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni oila muhitiga uyg‘unlashtirish dolzarb masaladir. Qadriyatlar mazmunan xilma-xil turlarga bo‘linib, hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biror narsaning qadr-qimmati haqida so‘zlashga hojat ham yo‘q. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e’zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. Farzandlarimiz ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun:

- ✓ Vatanga, ota-onaga, o‘tgan avlodlariga hurmat, muhabbat tushunchalari va tasavvurlarini kengaytirish;
- ✓ burch, vijdon, insof, mas’uliyat haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish;
- ✓ do’stlik, o‘rtoqlik, qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish hal qilinishi kerak bo‘lgan dastlabki vazifadir.

Estetik qadriyatlar farzandlarimizning estetik sezgi va idrokini tarbiyalash, tashqi va ichki go‘zalligini shakllantirishdir. Ularda estetik qadriyatlarni shakllantirish uchun:

- ✓ bola ongida ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan amaliy, me’morchilik, musiqa va san’at asarlarini, shuningdek, turli xarakterdagi bayramlarni asrab-avaylash tuyg‘usini shakllantirish;
- ✓ go‘zallikka baho berish, haqiqiy go‘zallikni soxta go‘zallikdan ajrata olish;
- ✓ tabiatning nozik, nafis go‘zalliklarini ko‘rish, his etishni rivojlantirish talab etiladi.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko‘ra, milliy va umuminsoniy turlarga bo‘linadi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqida tasavvuri faqat g‘oyagina emas, balki tuyg‘u hamdir. Insonda milliy ong

va g‘urur bo‘lmasa, u o‘zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashini tasavvur qilish qiyin. Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz, ya’ni faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin.

Qadimdan bir ma’naviy ruhiy iqlimdan nafas olib kelgan xalqimizning, ayniqsa, bugungi mas’uliyatlidan davrda aql, zakovat va shioat, dunyoviy salohiyat va milliy g‘urur talab etiladigan bir pallada yana ham yaqinroq va yana ham mehr oqibatiroq bo‘lishlari lozimligini hayotning o‘zi taqozo qilmoqda.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatdan chuqur va keng bo‘lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar jahondagi barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlariga muvofiq keladi. Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan umumbashariy muammolar kiradi. Ulardan eng asosiyлари – yer yuzida ilm fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, xalqaro xavfsizlikni ta’minalash, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xomashyosi, energiya manbalari va oziq ovqat bilan ta’minalash, koinot va jahon okeani resurslarini o‘zlashtirish, dunyo miqyosida ahamiyatga ega bo‘lgan nodir san’at asarlari, xalq amaliy san’ati, me’morchilik va musiqiy asarlarni saqlash va kelgusi avlodga yetkazish kabi muammolar kiradi.

Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan badiiy, me’morchilik va ma’naviy asarlar har qanday dur-u javohirlardan ham qimmatliroq boylikdir. Ushbu boyliklar asrlar davomida unga xizmat qilyapti. Eramizdan oldin Afina demokratiyasi inqirozga uchraganida yunon faylasuflari qadriyat masalasini ko‘targan edi. Ular ijtimoiy-siyosiy, huquqiy tafakkur tarixida birinchi bor “inson – oliv qadriyat”, deb ko‘rsatdilar, olamdagagi barcha jihatlarni “insoniylik mezoni” bilan o‘lchashni targ‘ib etdi. Buyuk mutafakkir Suqrot esa “qadriyat nima?”, degan savolga “har bir insonning o‘zligini anglashi”, deb javob berdi.

Qadriyatlarning shakllanish makoni bo‘lgan oila va unga xos bo‘lgan qadriyatlar tizimi jamiyatning kelajagini belgilab beradi. Kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson o‘z farzandlarining baxt-u saodati, fazl-u kamolini ko‘rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi.

Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta’minalaydigan, muqaddas urf odatlarimizni sayqallaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday shaxs bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir. Oilaga xos an’alar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Mustaqil Respublikamiz Konstitutsiyasining XIV bobi Oilaga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek oilasi va munosabatlariga doir barcha masalalar to‘laligicha hamda asosli huquqiy himoyani o‘zida mujassam etgan. Konstitutsiyada o‘zbek oilasining shakllanishidan boshlab tomonlarning teng huquqliligi, nikoh tuzishdagi erkin roziliklari, ota-onalar tomonidan bolalarning ta’mnoti va tarbiyasi, farzandlar tomonidan o‘z ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilish kabi masalalar o‘z ifodasini topgan. Shuni g‘urur va faxr bilan ta’kidlashimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi 66-moddasida: “Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar”, – deb ko‘rsatilishi aynan milliy qadriyatimizning qonunda aks etishidir.

O‘zbek oilasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri oilada yoshi ulug‘ qariyalar – bobo va buvilarning yuksak mavqe va martabaga egaligi bo‘lib, ular hamisha izzat-ikrom qilinadi, barcha masalalarda ular bilan maslahatlashib, so‘ng ish boshlashga amal qilinadi. O‘zbek oilasiga xos mazkur xarakterli xususiyatlarni alohida e’tirof etib o‘tishdan maqsad shuki, “oila tarbiyasi”ning o‘ziga xos qirralari ana shundagina to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi. Bu tarbiya jarayonida milliy-madaniy merosning qanday o‘rin tutishi, salmog‘i, ahamiyati xususida asosliroq fikr yuritish imkoniyati paydo bo‘ladi. Jumladan, oilada arning mavqeyi balandligi, ayol ham o‘zining haq-huquqlariga egaligi, farzandlarning ota-onani hurmat qilishini olaylik. Ko‘p yillar davomida ota-bobolarimiz qalbiga singib ketgan ushbu qadriyatlarni bugun yanada sayqallash kerakligini zamon talab etmoqda. Ayniqsa, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamonda bema’ni ta’sirlar ko‘payib, ularning

“Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanı materialları to‘plami

inson va jamiyat hayotida salbiy oqibatlari misli ko‘rilmagan darajada kuchayib bormoqda. Ayni shu davrda oilaning jamiyatdagi o‘rnii juda muhimdir. Vatan tuprog‘i oiladan boshlanadi. Farzandlarimizning axloqiy qiyofasiga salbiy ta’sir etadigan ba’zi noxushliklarni ota-onalar sezaga bilmog‘i lozim. Farzandlar oilaviy axborot vositalari, matbuot, ilmiy anjuman yangiliklari, badiiy adabiyotlar turlaridan foydalanishlari uchun oilada kerakli shart-sharoit yaratilsak, oiladagi muhit yanada yaxshilanadi.

Bizningcha, Yangi O‘zbekiston barpo etilayotgan hozirgi sharoitda milliy oilaviy qadriyatlarning o‘rnii har qachongidan ham ortib bormoqda. Xulosa qilib aytganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni jamiyat rivojiga va uning negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi qudratli omildir. Shunday ekan, oilada farzandlarimiz bolalik, o‘smirlik, balog‘at sari borishlarida ibratli dovondan o‘tishi uchun farzandlarimizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi bir mayoq bo‘laylik.

Marufova Gulgona Maxmudovna,
*Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash
vazirining birinchi o‘rinbosari*

HURMATLI ANJUMAN ISHTIROKCHILARI!

O‘zbek xalqi azal-azaldan o‘z milliy qadriyatları va o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaga tayanib kelgan. Oilaning mustahkamligi, oilada ma’naviy muhitning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligini ta’minlash davlat va jamiyatning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’birlari bilan aytganda, “Oila –kichik vatan, oila tinch, baxtli bo‘lsa – vatan tinch bo‘ladi!”. Shu sababli ham bizning mamlakatimizda oila – muqaddas dargoh, nikoh esa buzilmas rishta sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag‘ishlangan. Bosh Qomusimizning 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deb ta’kidlangan. Shundan anglashimiz mumkinki, oilaning mustahkamligi, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishini ta’minlash davlatimizning asosiy hujjatida ham o‘z aksini topgan.

Oila murg‘ak vujud qalbiga eng pokiza tuyg‘ularning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoga kelgan farzand aynan oila bag‘rida bir qator dastlabki hayotiy ko‘nikmalarni egallaydi. Darhaqqiqat, qadimdan milliy urf-odat va an’analaramizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma’nан yetuk, mehr-oqibatlari, saxovatpesha, o‘zgalar dardini his qila oluvchi, yiqilganga tirdak bo‘la oladigan insonlar qilib tarbiyalashda sog‘lom oila muhiti muhim o‘rin kasb etadi. Bir so‘z bilan aytganda, oila azal-azaldan farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi maskan bo‘lib kelgan.

“Qadriyat” atamasi inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat yoki qaysidir ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat ne’matlari hisoblanadi. Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko‘plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va asrlar osha takomillashib boraveradi. Bugungi tezkor globallashuv sharoitida ham o‘z milliy va ma’naviy boyliklarini asrab-avaylayotgan, boyitib rivojlantirayotgan har qanday millat o‘ziga xos an’analari, urf-odatlari va o‘lmas qadriyatları bilan boshqa millatlardan ajralib turadi.

Qadriyatlar xalqimizning beباho boyligi sifatida madaniy-ma’rifiy hodisalar, urf-odatlari, an’analalar zamirida inson qadr-qimmatining oshishiga xizmat qiladi. Oilada bolaga salomlashishdan tortib to‘g‘ri ovqatlanish, kiyinish, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot, jamoatchilik ichida o‘zini tutish singari ma’naviy-ma’rifiy, yurish-turish bilan bog‘liq ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar singdirib boriladi.

Bola o‘zini anglash sari qadam qo‘yanidan tevarak-atrofni, yaqinlarini, unga g‘amxo‘rlik qilayotgan ota-onalarini tanishni va ularning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zlashtirishni boshlaydi. O‘zbek oilalariga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevmoqlik, adolat, poklik, to‘g‘rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-onadan farzandga bevosita singdiriladi. Urf-odat va an’analaramiz, madaniyatimizdan bahramand bo‘lgan o‘g‘il-qizlarimizning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko‘mak berish, so‘ngra esa o‘z oilalari uchun qayg‘urish hissi singib boradi.

Oilada farzand tarbiyasida nafaqat ota va ona, balki bobo va buvilarning ham o‘rni haqida ham unutmaslik kerak. O‘zbek oilalarida istiqomat qilayotgan keksa avlod vakillariga ko‘rsatilayotgan ehtirom zamirida pir-u badavlat onaxonlar-u otaxonlarimizni e’zozlash, ularning o‘gitlari, pand-nasihatlariga amal qilish, keksaygan chog‘larida tayanch bo‘la olish singari qadriyatlar mavjud. Dasturxon atrofidagi yig‘inlarda keksa avlod vakillari tomonidan xalqimizning nodir ijod namunalari maqol, matallar, rivoyatlar-u hikmatlar orqali turli xil maishiy masalalar va muammolarga yechimlar ko‘rsatiladi. Keksaygan ota-onalarga kiyim yoki pul emas, balki oila a‘zolarining shirin so‘zi va tasallisi, ruhiy daldasidan, e’tiboridan ortiqroq narsaning o‘zi yo‘q. Keksalarga ko‘rsatilayotgan mehr-oqibat va muruvvat oiladagi uchinchi avlod vakillariga o‘z ota-onalarining qarilik gashtini osoyishtalik va baxтиyorlikda o‘tkazishlarini ta’minlaydi. Zero, har birimiz

¹ <https://uz.a.uz/posts/oila-adriyatining-umri-bardavom-b-lmo-i-shart-14-05-2020>

kamolga yetkazgan va mislsiz muhabbat, beminnat non-tuzi bilan siylagan volida-yu padarimiz oldida bir umr qarzdormiz.

Buyuk ajdodimiz, yengilmas sarkarda Sohibqiron Amir Temur xonodonida o‘rnatilgan tartibga asosan, shahzodalar tarbiyasi ularning onalari zimmasida emas, balki buvi-bobolari zimmasida bo‘lgan. Bo‘lg‘usi olim Mirzo Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim hayot bo‘lsalar-da, uning oilaviy tarbiyasi bilan Saroymulkxonim shug‘ullanib kelgani tarixiy manbalarda keltirilgan. Amir Temur, o‘z navbatida, boba sifatida Mirzo Ulug‘bekning harbiy ish, davlatni idora qilish, ilm egallash borasidagi tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. Natijada Mirzo Ulug‘bek ma’rifatparvar davlat arbobi, butun dunyoga mashhur olim, yetuk falakiyotshunos bo‘lib yetishadi.

Keksalarning ibratli hayot yo‘li, o‘gitlari, yillar silsilasida toblangan chuqur hayotiy tajribasi yoshlarimizning o‘z yo‘lini to‘g‘ri tanlay olishida asrlar davomida mayoq vazifasini o‘tab kelmoqda.

Afsuski, hozirgi paytda oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish bilan bog‘liq ko‘plab qiyinchiliklar, muammolar yuzaga kelmoqda. Aksariyat oilalarda bugungi kunda oila a’zolarining bir-biridan tobora uzoqlashishi va begonalashuvining guvohi bo‘lamiz. Zamonaviy oila qiyofasi – har bir oila a’zosi televizor oldida soatlab band bo‘lib qolayotgan yoki qo‘lida uyali aloqa vositasi bilan o‘z hududiga berkinib olishi, o‘zaro sovuq munosabatlar, turli avlod vakillarining go‘yo bir-birini tushunmayotgani singari tasvirlarda namoyon bo‘lmoqda. Ba’zi oilalarda ota-onalabdan kechgacha ro‘zg‘or tashvishida jamiyatning turli jabhalarida ish bilan band bo‘ladi, ayrimlari maqsadsiz ko‘cha-ko‘yda yuradi va uyda bo‘lgan vaqtlarida ham o‘z ishlari bilan ovora bo‘lib farzandlariga deyarli vaqt ajrata olmaydi. Tashqi ko‘rinishdan agar “oila” deb atash mumkin bo‘lsa, bu dargohda oila ahlini shunchaki bir boshipana bog‘lab turadi, xolos. Deyarli bir-birini tushunmaydigan, samimi suhbatlar olib borish o‘rnini sovuqqina ijtimoiy, zaruriy savol-javoblar bilan yakun topuvchi dialoglar egallamoqda. To‘g‘ri, biz axborot texnologiyalari asrida yashayapmiz. Shuni unutmasligimiz lozimki, oiladagi bu kabi sovuq munosabatlar farzandlarimizni qo‘sh-qo‘llab yot oqimlar-u, begona madaniyatlar ta’siriga tushib qolishlariga tutki bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, oilalarda sog‘lom ma’naviy, axloqiy muhit hukmonron ekan – jamiyat mustahkam bo‘ladi, mustahkam jamiyatda esa tinchlik, farovonlik, osoyishtalik va to‘kinlikning barqarorligi ta’minlanadi. Jamiyatimizning osoyishtaligi va barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shish esa har bir vatandoshimizning vazifasidir.

YALPI MAJLIS MATERIALLARI



Nurmatova Mukaram Axmedovna,
*O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani
qo‘llab-quvvatlash vazirligi boshqarmasi boshlig‘i,
falsafa fanlari doktori, professor*

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI – ZAMONAVIY OILA MUSTAHKAMLIGINING MUHIM OMILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oila institutini mustahkamlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni, mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *qadriyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, oila, Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazi.*

Аннотация. В статье освещается роль национальных и общечеловеческих ценностей в укреплении семьи, содержание работы, проводимой в нашей стране в области укрепления семьи.

Ключевые слова: ценности, национальные и общечеловеческие ценности, семья, Центр подготовки молодежи к семейной жизни

Annotation. This article highlights the role of national and universal values in strengthening the family, the essence of the work carried out in our country in the field of strengthening the family.

Keywords: values, national and universal values, family, Center for Youth preparation for family life

Axborotlashgan dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvni jarayoni kuchaymoqda. Bu ijobjiy holat bo‘lib, uning natijasida odamlarning tasavvur dunyosi, ong va tafakkuri o‘zgaradi. Ammo, shu bilan birga, u yosh avlodning ma’lum qismida an’anaviy qadriyatdan, axloq-odobdan uzoqlashish holatlarini vujudga keltiradi. Zero, mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, madaniyati, qadriyatlari tarixini anglashga qiziqishi kuchaydi. O‘zbek xalqi asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelgan milliy qadriyatlari bugungi kunda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini keng qamrab oldi. Buning natijasida xalqimiz yaratgan o‘zbekona qadriyatlar rang-barang va beqiyosdir.

Qadriyat kishilar tafakkuriga singib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklardan iborat inson ma’naviy kamoloti sarchashmalaridan biri bo‘lib, u tufayli jamiyat ravnaq topadi, fuqarolarning baxt-saodat haqidagi orzu-umidlari ro‘yobga chiqadi. Qadriyatlар turli xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, mehnat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, e’tiqodi, psixologiyasi, diniy qarashlari, milliy manfaatlari, mafkurasi bilan bevosita bog‘liq. Bu esa qadriyatlар milliy, mintaqaviy qiyofa kasb etishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun turli xalqlarda qadriyatlarga, ularni belgilash mezonlariga yondashish, ularga amal qilish darjasini ham aynan bir xil bo‘lmaydi. Qadriyatlarning milliy jihatlari ana shu tariqa shakllanadi.

Har bir millat o‘z qadriyatlarning nafaqat yaratuvchisi, balki asrab-avaylovchisi va kelajak avlodlarga yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o‘zi mas’uldir. Ushbu mas’ullik milliy rivojlanish jarayonida shakllangan ma’naviy burchning alohida shaxslarga emas, butun millatga xos namoyon bo‘lishini anglatadi. Hatto mustamlakachilik sharoitida yashagan xalqlarda ham milliy qadriyatlар butunlay yo‘qolib ketmaydi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda oilalar mustahkamligini ta’minalash, ayniqsa, oilaviy ajralishlarning oldini olish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi ishlarni tamomila yangi bosqichga ko‘tarish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qarab kelinmoqda. Zotan, oilada qadriyatlар ulug‘lanib tarbiyalanayotgan oilalarning farzandlari mustahkam oila bunyodkorlari va jamiyatimiz egalaridir.

Davlat statistika Qo‘mitasining ma’lumotiga ko‘ra, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 8 871 412 ta oila yashamoqda. Eng ko‘p oilalar yashayotgan viloyatlar Farg‘ona viloyati bo‘lib, u yerda 1 023 042 ta, Samarqand viloyatida 935 265 ta oila. Oilalar soni eng kam Navoiy viloyati bo‘lib, unda

277 706 ta oila istiqomat qiladi. Farg‘ona viloyatida eng ko‘p oilalar istiqomat qilayotgan bo‘lsa-da, lekin Qashqadaryo viloyati serfarzand oilalari ko‘pligi, xususan, 784 635 ta oilaning 114 959 tasi 4 yoki undan ko‘proq farzandlari borligi bilan ajralib turadi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri yurtimizda oilalar mustahkamligini ta‘minlash, oila institutining tarixiy ildizlarini yuzaga chiqarish, oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishdan iborat. Shu ma’noda o‘tgan davr mobaynida davlatimiz tomonidan yurtimizdagi oilalar, ayniqsa, katta hayot ostonasiga endi qadam qo‘yayotgan yosh oilalar mustahkamligi, ularning jamiyatning bir bo‘lagi sifatida mustaqil shakllanib borishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Oilaviy qadriyatlar tarixiy sinovlarga bardosh bergan, xalqimizning milliy manfaatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, zamonaviy taraqqiyot talablariga to‘la javob bera oladigan, asrlar o‘tgani sayin qadr-qimmati yanada oshib, sayqallanib boradigan g‘oyalardir. Dunyodagi har bir xalq o‘z qadriyatlariga suyanib ularga amal qilib, asrab-avaylab yashar ekan, oilada bunday vazifani ado etishda ayollarning alohida o‘rnib bor. Zero, oila kishi tafakkuri, ma’naviyati shakllanadigan, uning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydigan, xalq qadriyatlarini asrab-avaylaydigan tabarruk maskan, muhim ijtimoiy institutdir. Har qanday mamlakat hayotida yuz beradigan ijobiy o‘zgarish, demokratik jarayonlar samarasi, ezgu umidlar, avvalo, oilalarda namoyon bo‘ladi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida soha rivojini, xususan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma’naviy-axloqiy negizlari va an’anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo‘yicha maqsadli ishlarni olib borish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan.

Shu munosabat bilan mazkur farmon asosida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Shuningdek, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko‘maklashish maqsadida 9251 ta mahallalarda “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi” tashkil etildi. Komissiyalar tarkibiga 45 810 nafar faollar tarbiyaviy ta’sir o‘tkaza oladigan 7 654 nafar psixolog, 7 154 nafar otinoyi va imom-xatiblar, 11 230 nafar nuroniy onaxon va otaxonlar, 19 772 nafar jamoatchi faollar jalb qilindi. Farmonning “Yo‘l xaritasi” asosida o‘tkazilgan “Ibratli oila” tanlovining mahallalararo, tuman (shahar) hamda viloyat bosqichlarida jami 23 941 ta oila ishtirot etdi.

“Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va inson hayotida oilaning o‘rnini yanada oshirish” yuzasidan nuroniy otaxonlar, onaxonlar va faol xotin-qizlarning O‘zbekiston yoshlariga Murojaati qabul qilindi. Har bir mahallada Shanba kuni “Ahil oila kuni” deb e‘lon qilindi. Oilada qadriyatlar ustuvorligi ma’naviy-axloqiy muhit barqarorligining ta‘minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, keksalarning o‘z tajribalari asosidagi pand-nasihatlari, ularning erishgan yutuqlari farzandlar va nabiralarning keng dunyoqarashli, irodali va mard jasur bo‘lib yetishishida, milliy iftixor, milliy g‘urur, ertangi kunga ishonch tuyg‘ularining shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy ajralishlar bo‘yicha statistika ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2021-yil avgust holatiga ko‘ra, Respublika bo‘yicha 25687 ta oilaviy ajralishlar bo‘lib, shundan yosh oilalar o‘rtasida bu ko‘rsatkich 7603 tani tashkil etadi. Ushbu oilalardagi voyaga yetmagan bolalar soni 17426 ta. Yarashtirilgan oilalar soni 17466 ta.

Bugungi kunda oilaviy ajralishlarning turli xil sabablari bor, xususan:

- tomonlarning o‘z huquq va burchlarini to‘la anglamasligi;
- oilada moddiy yetishmovchilik;
- uy-joy bilan bog‘liq muammolar;
- oilaviy munosabatlarga qaynona-qaynota va boshqa qarindoshlarning noo‘rin aralashuvi;
- er yoki xotinning zararli odatlarga (ichkilik, giyohvandlik va h.k.) ruju qo‘ygani;
- oila budjetining to‘g‘ri shakllantirmagani oqibatida paydo bo‘layotgan turli iqtisodiy muammolar;
- migratsiya bilan bog‘liq muammolar;
- farzandsizlik va h.k.

Shuningdek, yangi oila qurayotgan ko‘plab yoshlarimiz orasida oilaviy qadriyatlar, reproduktiv salomatlikni asrash borasidagi bilimlarning yetishmasligi ko‘plab ko‘ngilsiz holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Shu munosabat bilan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilalarmi mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish borasida yangi tizim joriy qilindi.

2020-yil 31-dekabr kuni “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-820-son qarori e‘lon qilindi. Ushbu Qaror asosida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan Respublikaning 206 ta tuman (shahar)larida “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari” tashkil etilgan bo‘lib, ularda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv kurslari olib borilmoqda:

- oilaviy hayot psixologiyasi;
- oila iqtisodi va budgeti;
- reproduktiv salomatlik asoslari;
- ma’naviy axloqiy qadriyatlar;
- oilalarda sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni yaratish;
- ibratli ota-onalik bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Vazirlilik huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ushbu markazlarning o‘quv dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi kunda institut tomonidan ushbu dastur asosida ko‘plab qo‘llanmalar ham yaratildi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari mohiyatan zamonaviy oilaning namunali shaklini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilgan bo‘lib, nikohlanuvchi yoshlar ongiga bugungi kun uchun juda muhim bo‘lgan ko‘plab hayotiy tamoyillarni singdirib boradi.

Markazlarda nikohlanuvchi shaxslar oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va budgeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, oilalarda sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni yaratish, ibratli ota-onalik bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari bo‘yicha o‘qitiladi. Hozirgi kunda 67958 nafar yoshlar ushbu markazlarda o‘qitildi.

Markazlar faoliyatini samarali tashkil etish, mashg‘ulotlarning sifatlari o‘tishini nazorat qilish Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy bo‘linmalari tomonidan olib boriladi. Shuningdek, vazirlilik huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o‘rgatish, shuningdek, oilaviy ajralishlarning oldini olishdagi muhim jihatlarni o‘z ichiga olgan o‘z takliflari bilan markazlar faoliyatiga doimiy ko‘mak berib, bu boradagi xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilgan holda, ularni o‘quv jarayonlari uchun mos metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlamoqda.

Ta’kidlash lozimki, mazkur markazlar sohada yangi va o‘ziga xos zamonaviy tendensiya hosil qilishi bilan bugungi kun talablariga to‘la javob bera oladi. Dars jarayonlarining zamonaviy shakl va uslubga egaligi, markazlarning ilg‘or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalar bilan jihozlanganligi, eng muhimi, o‘quv mashg‘ulotlarini malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi ish samaradorligini bir necha barobar oshirib borishiga munosib zamin yaratadi.

Lekin shu o‘rinda markazning asosiy vazifalaridan biri – yoshlarimizni oilaviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an‘analarni mohiyatini ularga tushuntirish, ularni o‘z oilalarida dunyoga keladigan farzandlariga ham ushbu ruhni singdira oladigan qilib saboq berishdan iborat ekanligini ham alohida e‘tirop etish joiz.

Ming afsuski, bugungi kunda oilaviy qadriyatlarni bepisandlik bilan qarayotgan odamlar ham talaygina. Ular har tomonlama qadriyatlarni o‘zgartirishga urinmoqdalar. Eng achinarlisi ular vaqt va makon tanlamaydi.

Qadriyatlarni qadrsizlanishining asosiy sabablari:

Birinchidan, yoshlarning oilaviy qadriyatlarni mohiyati va ahamiyatini anglab yetmasligi.

Ikkinchidan, nafaqat yoshlar, balki ayrim katta yoshli fuqarolarimizning o‘zlari ham oilaviy qadriyatlarni unutib qo‘yanligi.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlar orqali oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilinayotganligi.

To‘rtinchidan, oilaviy va milliy qadriyatlar, urf odatlar, an’analarning mazmun-mohiyati yosh avlod ongiga bolaligidan singdirib borilmayotganligi va hokazolar.

Yuqoridagilarni inobatga olib, ta’kidlash joizki oilalarni mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

* * *

Oynisa Musurmanova,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
direktori o‘rinbosari, p.f.d., professor

ZAMONAVIY OILANI BARPO ETISHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy oila va uning o‘ziga xos xususiyatlari, mazmunan uning ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy o‘zbek oilasi a’zolari kompetensiyasi komponentlari, tamoyillari, manbalari, samarali shakl va metodlari, salbiy ta’sir etadigan holatlar va ularning oqibatlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar o‘z aksini topgan bo‘lib, mazkur toifa oilalarni takomillashtirish borasida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: zamonaviy oila, omillar, ustuvor yo‘nalishlar, ma’naviy-axloqiy asoslar, zamonaviy oila andozasi, oila a’zolari kompetensiyasi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ma’naviy muhit, tamoyillar, ustuvor yo‘nalishlar, manbalar, ma’naviy-axloqiy mezonlar, innovatsion tarbiya texnologiyalari.

Аннотация. В статье отражены научно-теоретические взгляды на современную семью и ее особенности, ее приоритеты по содержанию, компоненты компетенции современных узбекских членов семьи, принципы, источники, эффективные формы и методы, неблагоприятные воздействия и их последствия. Разработаны выводы и рекомендации по оздоровлению данной категории семей.

Ключевые слова: современная семья, факторы, приоритеты, духовно-нравственные основы, современная модель семьи, компетентность членов семьи, духовно-нравственные ценности, духовная среда, принципы, приоритеты, ресурсы, духовно-нравственные критерии, инновационные образовательные технологии.

Annotation. The article reflects the scientific and theoretical views on the modern family and its specific features, its priorities in content, components of the competence of modern Uzbek family members, principles, sources, effective forms and methods, negative impact situations and their consequences. Conclusions and recommendations for the improvement of this category of families have been developed.

Keywords: modern family, factors, priorities, spiritual and moral foundations, modern family model, competence of family members, spiritual and moral values, spiritual environment, principles, priorities, resources, spiritual and moral criteria, innovative educational technologies.

Oila jamiyat tayanchi, insonning baxt qo‘rg‘onidir. Shu bois bugungi kunda mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Uning ijtimoiy-ma’naviy barkamolligi davlat va jamiyat farovonligining negizidir. Darhaqiqat, jamiyat va davlat farovonligi, gullab-yashnashi oilalarning zamonaviyligi va uning ma’naviy-axloqiy poydevorining mustahkamligiga bog‘liq. Shu boisdan ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar mazmunida oila manfaatlarini huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihatdan himoya qilish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli farmoni zamonaviy oilani

shakllantirishda va uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy asoslari samaradorligini oshirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda oila institutini takomillashtirishning asosiy maqsadi zamonaviy oilani barpo etishdan iboratdir. Qanday oila zamonaviy oila hisoblanadi? Avvalo, shu savolga javob topmoq lozim.

Bizning nazarimizda, oila kompetensiysi komponentlarini o‘zida to‘liq namoyon etadigan, umuminsoniy va milliy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, zamonaviy ilg‘or tajribalar, baxtlilik indeksi talablari asosida davlat va jamiyat rivojiga o‘z tinchligi, farovonligi va mustahkamligi bilan hissa qo‘sadigan oila zamonaviy oila demakdir.

Qaysi jamiyatda barpo etiladigan bo‘lsa, o‘sha jamiyat talablariga monand shakllanadigan oila zamonaviy oila hisoblanadi.

Bugungi kun zamonaviy oilasi quyidagi tamoyillarga javob bermog‘i lozim:

- o‘zaro muhabbat, biologik moslik asosida oila barpo etish; reproduktiv va jinsiy yetuklik;
- oila va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi, barqarorligi uchun fidokorlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik;
- milliy oilaviy qadriyatlarga sadoqatlilik;
- sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit yaratishning malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- kommunikativ kompetentlik mezonlariga rioya etish;
- oilaviy tarbirkorlik madaniyatiga ega bo‘lish;
- “O‘z bolangizni, o‘z uyingizni, o‘z Vataniningizni ko‘z qorachig‘idek asrang!” shioriga fidoyilik;
- “halollik vaksinasi” bilan emlangan bo‘lish va “jaholatga qarshi-ma’rifat” g‘oyasiga amal qilish;
- oilaparvarlik, mehnatsevarlik; xalqlararo, millatlararo totuvlikka rioya etish.

Shuningdek, tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, zamonaviy oilaning o‘ziga xos andozasi mayjud bo‘lib, u shaklan va mazmunan ko‘pqirrali va keng qamrovli bo‘lishi tabiiydir. O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans davri”ning shiddat bilan boshlanishi zamonaviy oilalarning ham shiddat bilan shakllanishi uchun zamin bo‘la oladi. Albatta, uning o‘ziga xos andozasi mayjud bo‘lib, u mazmunan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- oilaning jamiyat va davlat himoyasida ekanligi, uning huquqiy asoslari;
- oilaning iqtisodiy jihatdan farovonligi;
- oilaning ijtimoiy jihatdan barqarorligi;
- oilaning axloqiy-ma’naviy jihatdan shakllanganligi;
- oilaning to‘liq bo‘lishi;
- oilaning ta’limiy jihatdan qoniqarli darajasi;
- oilaning demografik jihatdan mustahkamligi;
- oilaning ma’naviy va jismoniy salomatligi.

Bo‘lajak kelin-kuyovlar mazkur ustuvor yo‘nalishlar zamirida zamonaviy oilaviy hayotga tayyorlanmog‘i zarur. Yoshlar zamonaviy oila qurishda “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat”, “Oila – jamiyat va davlat himoyasida”, “Farovon oila – farovon jamiyat asosi”, “Oila – ma’naviyat o‘chog‘i”, “Oila – jamiyat ko‘zgusi” kabi konseptual g‘oyalarga asoslanib o‘zbek oilasi andozasining tarkibiy qismlarining ustuvor yo‘nalishlari borasidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini yosh jihatdan bosqichma-bosqich shakllantirib borish talab etiladi. Shu bois Respublikamiz mahalla fuqarolar yig‘inlarida oilalardagi nizo, ziddiyat, tazyiq, notinchliklar hamda ajrimlarning oldini olish maqsadida Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari faoliyat olib bormoqdalar.

O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans davri”ning shiddat bilan boshlanishi zamonaviy oilalarning ham shiddat bilan shakllanishi uchun zamin yaratadi. Bu jarayonda dunyo xalqlari o‘zbek oilasining, o‘zbek xalqi esa dunyo xalqlari oilasining tajribasini bilishga qiziqishlari ortib bormoqda.

Darhaqiqat, dunyo miqqosida mayjud turli millat va xalqlarning oila qurish va uni mustahkamlashga oid qarashlari va munosabatlari turlicha bo‘lib, ular boshqa millat oilalariga o‘z ijobjiy yoki salbiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin.

Ayni zamonda ularda oila borasida oddiy holga aylangan ba’zi holatlar bizning zamonaviy oilalarimiz shakllanishiga salbiy ta’sir etish ehtimoli mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha turkumlash mumkin:

- oila muqaddas qo‘rg‘on ekanligiga nisbatan munosabatlarning yuzakiligi;
- yigit va qizlar munosabatlarida, turmush qurishda, oila bo‘lib yashash tarzida, ajrim holatlarida o‘ta erkinlik, ota-onas fikriga tayanmaslik;
- nikohga oliv qadriyat sifatida qaramaslik (aksariyat oilalar fuqarolik yoki shar‘iy nikoh asosida yashashadi);
- jinsiy munosabatning o‘smirlik yoshidan juda erta boshlanishi;
- yosh qizlarda bokiralikni saqlash majburiyatining yo‘qligi;
- erkin jinsiy aloqalarga yo‘l ochiqlik va ular uchun maxsus sharoitlar yaratilganlik;
- oila qurishga nisbatan milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan emas, balki boshqa xalqlar, millatlar urf-odatlariga qiyosiy taqlid qilish odathing paydo bo‘lishi;
- u yoki bu masala bo‘yicha qaror qabul qilishda er-xotinning o‘zaro kelishmasdan mustaqil qaror qabul qilishi;
- kiyinish, ota-onas bo‘lish, yashash tarzini tashkil etish, farzandlik, qarindosh-urug‘chilik burch hamda vazifalarini bajarishda sharqona odob-axloqdan keskin yiroqlik;
- oiladagi har bir shaxsning o‘zi uchun individual turmush tarzi asosida hayot kechirishi;
- bir jinsliklar turmushiga e’tiborsizlik;
- oila ma’naviy-axloqiy asoslarining qadrsizligi;
- guruhli jinsiy aloqalar;
- yoshlarni oilaviy hayotga tayyor bo‘lmasdan oila qurishi va boshqalar.

Darhaqiqat, bunday salbiy ta’sirlardan xoli zamonaviy oila qurishning asosiy mezoni uning ma’naviy-axloqiy poydevor asosiga qurilishi hisoblanadi. Shundagina u mustahkam va baxtli bo‘lishi mumkinligini tadqiqotlar va hayotiy tajriba ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy oilaning ma’naviy-axloqiy asoslari umuminsoniy va milliy qadriyatlar hisoblanadi. Chunki oilaning ma’naviy-axloqiy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliv qadriyatlarini asrab-avaylash va mustahkamlash zamirida jamiyatning ma’naviy takomillashuviga erishiladi. Oilada ma’naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo‘lgan turli xil zararli ta’sirlarga qarshi turish oilaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini yanada oshiradi. Uning asosiy manbalari quyidagilardan iboratdir:

- Sharq va G‘arb mutafakkirlari merosida bayon etilgan oila borasidagi qarashlari;
- xalq og‘zaki ijodi namunalari;
- milliy va umuminsoniy moddiy va ma’naviy qadriyatlar;
- oila ma’naviyatini takomillashtirish borasidagi huquqiy-me’yoriy hujjatlar (Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, ratifikatsiya qilingan xalqaro huquqiy-me’yoriy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirlik va idoralarning me’yoriy hujjatlari, mutaxassis-olimlarning ilmiy-metodik asarlari va boshqalar);
- adabiyot va san’at asarlari;
- OAV materiallari, tele-radio ko‘rsatuv va eshittirishlari;
- hayotiy ilg‘or xalqaro va milliy tajriba.

Mazkur manbalar asosida zamonaviy oilaning quyidagi ma’naviy-axloqiy mezonlari takomillashtiriladi: oilaning muqaddasligi, oilaviy-huquqiy madaniyat, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va budgeti, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash masalalari, ro‘zg‘orshunoslik sirlari, oila gigiyenasi, reproduktiv salomatlik va jinsiy tarbiya asoslari, sog‘lom turmush tarzi (kiyinish, ovqatlanish, shaxsiy gigiyena, jismoniy salomatlikni saqlash) qoidalariga amal qilish, kundalik hayot tartib-qoidalariga riosa etish, har qanday vaziyatda o‘zini tuta bilish, kamtarlik, sabr-toqatlilik, saranjom-sarishtalik, orastalik, sermulohazalik, odob doirasida so‘zlash, turli noaxloqiy illatlardan xolis bo‘lish, e’tiqodlilik, ongli intizom, milliy iftixon tuyg‘usiga ega bo‘lish, yurish-turish, xatti-harakat qoidalariga, milliy oilaviy qadriyatlarga muhabbat, ro‘zg‘or yuritish madaniyatiga amal qilish, kattalarga hurmatda va kichiklarga nisbatan izzatda bo‘lish, adabiyot va san’atga muhabbatini namoyon etish, turli millat urf-odatlari, an’analari, tili, dini va madaniyatiga hurmat, bag‘rikenglik, mehnat madaniyati, sog‘lom ma’naviy muhit tartib-qoidalari, kiyinish madaniyati, muloqot madaniyati, zamonaviy uy bekalari axloq-odob qoidalari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ota-onalikning ijtimoiy-ma’naviy jihatlari, erta turmush, erta tug‘uruq, qarindosh-urug‘lar

o‘rtasidagi nikoh, ajrimlar, oilada nizo, ziddiyat, zo‘ravonlik va tazyiqlarning sabablari va zararli oqibatlari, farzand tarbiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari, etimlik, shar’iy nikoh kabilarning salbiy oqibatlari va boshqalar.

Demak, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsning insoniyat tomonidan qabul qilingan umuminsoniy va milliy axloq-odob qoidalarini zamonaviy ma’naviy mezonlar bilan uyg‘un holda kundalik hayotda, amaliy faoliyatda yaxlit tarzda o‘z xatti-harakati, xulq-atvori orqali ongli ravishda namoyon etish demakdir.

Mazkur mezonlar ma’naviy muhiti sog‘lom yoki nosog‘lom; tinch yoki notinch; to‘liq yoki noto‘liq; ehtiyojmand; kam ta’milangan, boquvchisini yo‘qtgan; turli millatli, diniy e’tiqodli, ijtimoiy mavqega ega; ziyoli, ishchi-tadbirkorlar va boshqa toifa oilalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtiriladi. Albatta, bu o‘rinda ota-onalar, mahalla fuqarolar yig‘inlari mutasaddilar va boshqa mutasaddilarning tashkilotchilik kompetentligi muhim rol o‘ynaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamkorlikda oilalarda tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yakka, guruhli, jamoaviy, ommaviy shaklda tashkil etish, yoshlar, ota-onalar, tarbiyachi-o‘qituvchi, jamoatchilikning ijtimoiy ehtiyoji, talablari, ta’lim muassasasi xarakteri, mintaqalar hamda hududning ma’naviy-madaniy manfaatlari, geografik joylashuvi hamda demografik vaziyatni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Shunday qilib, zamonaviy oila va uning ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirishda innovatsion tarbiya texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, multimedia resurslari, o‘quv va badiiy adabiyotlar, elektron axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maxsus teleradio ruknlari va reportajlar, ijtimoiy loyihalar, ilmiy-ommabop, badiiy va multiplikatsiyaviy va hujjatli filmlar, elektron ta’lim resurslari, maxsus interaktiv veb loyihalar, audiovizual va boshqa vositalardan foydalanish o‘zining samarasini berishi muqarrar.

Zamonaviy oilani shakllantirish samaradorligini ta’minalashda foydalaniladigan tarbiya metodlarining rang-barangligi muhim rol o‘ynaydi. Olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning maqsadi, mazmuni, tematikasi va xarakteriga ko‘ra savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, hikoya, davra suhbat, munozara, klaster, aqliy hujum va boshqa metodlardan foydalanish ijobiy samaralar beradi.

Jumladan, jamoatchilik fikrini o‘rganish, ta’lim-tarbiya natijalarini monitoring qilish, uning mazmunini takomillashtirish, ishning shakl va metodlarini to‘g‘ri tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Buni o‘rganishning metodologik asosini aniqlash; mazmuni va tamoyillarini belgilash; samarali metodlarni tanlash; tahlil etish, xulosa chiqarish, tavsiyalar berish yo‘llarini aniq belgilab olmoq lozim.

Zamonaviy oilani rivojlantirish, oilada ichki munosabatlар, shaxslararo munosabatlarni, boy madaniy tarixiy meros va an'anaviy oilaviy qadriyatlar muammolari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni o‘tkazish, ularning ma’naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kabi ustuvor masalalar bo‘yicha muhim natijalarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сонли фармони.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 28 февралда қабул қилинган “Фуқароларнинг репродуктив саломатлигини сақлаш тўғрисида”ги қонуни.
3. Мусурманова О. Оила жамият таянчи: Монография /О.Мусурманова. –Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – Б. 252.
4. Фазилатли авлод. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. 3-кисм. [Матн]: 7-18 ёшли болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма. /Тузувчи муаллифлар: А.Қодиров, М.Қуронов, О.Мусурманова ва бошқалар. – Тошкент: “Muharrir” nashriyoti. 2019. – Б. 256. (2020 йил, январь)

5. Мусурманова А. The scientific and pedagogic foundation of training social activeness of youth. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнали. – Тошкент, 2017 йил, № 3. 168-172 pp.
6. Мусурманова А. Family reading as a factor of spiritual and moral development of the child. The Way of Science. International scientific journal (ISSN 2311-2158) 2018. № 1 (47). 70-72 pp.
7. Мусурманова А. Improving Mechanisms of interaction between Family institutions and Educational institutions in Devejoping Spirital Culture of Aloescents at Social and Right Risk Groups Eastern European scientific journal (ISSN 2199-7977) Ausgabe 2-2018.62-67 pp.
8. Мусурманова А. Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual cultute of adolescents of social and legal risk groups. “Проблемы педагогики” научно-методический журнал. № 1(33) февраль. – Москва, 2018 г. 5-7 pp.

* * *

Jo‘rayev Narzulla,
*O‘zDJTU kafedra mudiri,
siyosiy fanlar doktori, professor.*

OILA – MILLIY QADRIYATLAR BESHIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila fenomenining milliy qadriyatlar tizimini shakllantirishdagi o‘rni, oilaviy qadriyatlarning ijtimoiy hayot taraqqiyotida, yoshlarni milliy g‘oya, milliy va umuminsoniy axloq asosida tarbiyalashda oilaning roli yoritib berilgan. Muallif Sharqda oilaning o‘zi asosiy qadriyat ekanligiga e’tibor qaratgan.

Kalit so‘zlar: oila, Sharq, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyat.

Аннотация: В статье освещается роль феномена семьи в формировании системы национальных ценностей, роль семьи в формировании семейных ценностей в общественной жизни, воспитании молодежи на основе национальных идей, национальной и общечеловеческой морали. Автор отмечает, что на Востоке семья является основной ценностью.

Ключевые слова: семья, Восток, национальные ценности, воспитание молодежи, национальные и общечеловеческие ценности.

Annotation: This article highlights the role of the family phenomenon in the formation of the national value system, the role of the family in the development of family values in social life, educating young people on the basis of national ideas, national and universal morality. The author points out that in the East, the family itself is a core value.

Keywords: family, East, national values, youth upbringing, national and universal values.

Sharqda azaldan oila ijtimoiy mohiyati bilan o‘ziga xos qadriyat hisoblanadi. U avlodlar davomiyligining, shajalaralar uzyviligining o‘ziga xos ko‘rinishidir. Ayni paytda erkak va ayolning birgalikdagi hayotiy taqdiri, saodatli turmushi, hayot farog‘ati va orzu-umidlarning mo‘tabar maskani hamdir. Ana shu maskan qanchalik mehrli, muhabbatli, ezunguliklarga yondosh, yaxshiliklar, muruvvat va saxovatlarga asoslansa, u sog‘lom va mustahkam oila muhitini vujudga keltiradi. Bu muhit o‘zining ma’naviy-axloqiy yetukligi bilan erkak va ayolning o‘zaro munosabatlaridagi holatdan kelib chiqib, oilani muqaddas maskanga – avlodlar va sulolalar qo‘rg‘oniga aylantiradi.

Albatta, ikki yoshning qovushishidan iborat holat bu hali to‘laqonli oila emas. Muhabbatli hayotning, birgalikdagi turmushning dastlabki ko‘rinishi, xolos. Farzand tug‘ilgach tom ma’nodagi oila vujudga keladi. Farzand – oilaning mustahkam tayanchi. Uning butun og‘irligi-yu zavqli tomonlarini uyg‘unlashtirib turadigan, ota-onani keljakka qat‘iy ishonch bilan qarashga da‘vat etadigan qudratli kuchdir.

Bola kichkinaligida torgina makonning zavqi, ota-onaning kelajagi, saodatli hayotining mahsuligina, xolos. U yura boshlab, ostona hatlab ko‘chaga chiqqanidan keyin ijtmoylasha boshlaydi. Bolalarga qo‘shilib, ulkan jamiyatning kichik a’zosi bo‘lib qoladi. Ana shunda oilaning tarbiyaviy roli, ma’naviy-axloqiy roli oshadi.

Sharq turmush tarzi, asosan, axloqqa tayanganligi va yuksak ma’naviy ehtiyojlarni qadriyat darajasida ko‘targanligi bilan alohida ajralib turadi. Oila mas’uliyati, uning ijtimoiy mohiyati xuddi ana shu bilan belgilanadi. Oila katta bo‘ladimi, kichik bo‘ladimi, baribir, u sonidan qat’i nazar mustaqil ijtimoiy makon sifatida o‘z muhitiga, iqlimiga, ma’naviy, axloqiy ob-havosiga ega. Har bir oilaning o‘z aqidaları, turmush tarzi, hayotiy ehtiyojlari mavjud. Ana shu ehtiyojlar va aqidalar turmush tarzidagi an’analari, urf-odatlar va qadriyatlarini qay darajada qabul qilgani va uning asosida o‘z hayotini qurbanligini ko‘rsatadi.

Farzand – oila tayanchi. Demak, farzand sog‘lom, durkun, jismoniy biologik jihatdan benuqson tug‘ilishi zarur. Ota-onan bunga intilishi shart. Zotan, oilaning fayzi, tarovati, zavqli va mehr-muhabbatli jihatlari ayni ana shu bilan o‘lchanadi.

Atoqli adib Chingiz Aytmatovning xulosalariga ko‘ra, ikki haftalik embrion tashqi muhitni his qilar ekan. Hali odam shakliga kirmagan hujayra oila muhiti, hayot murakkabliklari, ziddiyatga to‘la olam, ayniqsa, inson degan nodir, shu bilan birga, ayanchli jonzot taqdiri, hayoti haqida fikr yuritar ekan. Ayrim holatlarda o‘n besh kunlik murtak odam bo‘lib tug‘ilsammikan yoki tug‘ilmassammikan, degan fikrga borar ekan. Bu – dramatizm. Bu – inson degan mubham olamning fojiaviy qismati. Oila esa ana shu dardli qismatni ezgulikka yo‘naltiruvchi mo‘jizaviy makon.

Darhaqiqat, inson hayoti hech qachon tugal bo‘lmagan, bo‘lmaydi ham. Shuning uchun donishmandlar bu dunyonı biri kam deb atashgan. Lekin ana shu biri kam, hech qachon tugal bo‘lmaydigan, muammolarga, kelishmovchiliklarga, iztiroblarga to‘la bu dunyoda hayotini mazmunli o‘tkazishga, o‘tayotgan kunidan rozi bo‘lib, hayot zavqi, shavqi va mehr-muhabbatli jihatlarini chuqur his qilgan oila baxtli oila hisoblanadi. Ana shu holatning butun mohiyati, ko‘lami va mazmunini anglashning o‘zi kishini saodatga eltguvchi buyuk qudrat, ma’rifiy kuch, ma’naviy rag‘batdir.

Azaldan Sharqda oila, ota-onan tushunchalari muhim qadriyatga aylangan. Ota – padari buzrukvor. Ona – volidayi muhtarama. Bunday sifatlar faqat ulargagina munosib. Ularning oiladagi, butun jamiyatdagi mavqeyini belgilaydi. Ota-onan o‘zaro munosabatlari oila muhitini shakllantiradi. Darhaqiqat, har bir oila alohida ma’naviy, ruhiy makon. Bu makondagi ob-havo, kayfiyat ota-onanining munosabatidan kelib chiqadi. Farzand dunyoga kelib, ayni ana shu muhitda rivojlanadi, kamol topadi. Shakllangan tarbiya muhitidan oziqlanadi, havosidan nafas oladi.

Insонning dunyoga kelib, odam bo‘lib shakllanishida ota-onaning roli oila muhiti bilan bog‘lanib ketgan murakkab psixologik va tarbiyaviy jarayon. Afsuski, biz ba‘zan bunga e’tibor bermaymiz. Ota, asosan, moddiyat bilan shug‘ullanadi. Topganini uyiga tashiydi, bolalarining rizqi butun bo‘lsin, deb eladi-yuguradi, xolos. Ona esa bolasini yuvib-tarab oziqlantiradi. Afsuski, bu kamlik qiladi. Bunday holatda ota ham, ona ham faqat yuzaki, yashash uchun zarur bo‘lgan vazifani bajargan bo‘ladi. Mehr, qalb qo‘ri, yurak harorati, fikrlash imkoniyatlariga kamroq e’tibor beriladi. Aslida esa tarbiya ana shundan boshlanadi. Qalb uyg‘onmog‘i lozim, ruhiyat uyg‘oq bo‘lmog‘i shart.

Rivoyatlarga ko‘ra, bir odam farzandi uch yoshlik bo‘lganda Aflatunning oldiga boradi: “Taqsisir, farzandim uch yoshga to‘ldi, endi uni qanday tarbiyalasam ekan, maslahat bersangiz”, – deydi. Aflatun esa “Afsus, farzandingiz tarbiyasiga uch yil kechikibsiz”, – deb javob beradi. Demak, donishmandlarning xulosalariga ko‘ra, farzand dunyoga kelgan kundan boshlab tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Boshqacha qilib aytganda, farzand tarbiyasi u dunyoga kelgan kundan boshlanadi. Ota-onan buni juda chuqur tushunishi, anglab olmog‘i lozim. Balki, tug‘ilmasidan oldin, ona qormidanoq tarbiya bilan shug‘ullanmoq kerakdir. Shuning uchundir, ayrim mutaxassislar homilador onaga ko‘proq mayin, sokin musiqa tinglashni, shovqin-suronlardan, baqir-chaqirlardan uzoqroq bo‘lishni tavsiya etadilar.

Pedagoglarning xulosalariga ko‘ra, bolaga to‘rt-sakkiz yoshlarida ko‘pdan ko‘p ijobiy ma’lumotlar berish kerak. Aytaylik, oila, ota-onan, qarindosh-urug‘, Vatan, tarixiy qahramonlar, ulug‘ donishmandlar, shoirlar, sarkardalar haqidagi latifalarni, voqealar va hodisalarini tushuntirib borish kerak. Toki bolaning murg‘ak qalbida ezgulikka, yaxshilikka moyillik hislari kuchayib, uning fe'l-atvorini, xarakter xususiyatlarini shakllantirsin. Bolaning to‘rt-sakkiz yoshlarida to‘plagan ma’lumotlar bazasi qandayligidan kelib chiqib

uning bir umrlik hayot yo‘lini, inson sifatidagi fazilat-u nuqsonlarini belgilab berar ekan. Demak, ota-onan farzand tarbiysi uchun mas’ul, to‘la javobgar shaxs.

Ota-onaning farzandlari oldidagi asosiy vazifasi ularni katta hayotga, serg‘alva, tashvishli olamda yashashga tayyorlash hisoblanadi. Bolaning tabiiy imkoniyatlari, qobiliyati, ma’naviy-ruhiy ehtiyojlardan kelib chiqib ma’lum bir sohaga yo‘naltirish, uning qiziqishini hisobga olib kasb tanlashiga yordam berish, avvalambor, oiladan boshlanadi. Bu ota-onaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktab yoshida esa oila va mакtab, ota-onan va ustoz hamkorligi muammozi kelib chiqadi. Bunda ham, albatta, ota-onaning roli hamisha baland bo‘ladi. Chunki oila muhiti, oila psixologiyasi ota-onan munosabatlarining mahsuli sifatida murg‘akkina bolaning odamga aylanish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Buning ilmiy-genetik asoslari, irsiy ildizlari ham bor.

Inson – fazilatlar va illatlar olami. Dunyoda mutlaq ideal odam bo‘lmagan, bo‘lmaydi ham. Faqat ideal bo‘lishga, komil insonga aylanishga intilish har bir insonning ham ilohiy, ham dunyoviy burchi hisoblanadi.

Inson yuz yashasa, yuz yil tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Demak, hammamizning jismimizda illatlar-u fazilatlar jamuljam. Qonimizda yuzlab bag‘rikenglik, shafqatlilik, mehrlilik, muruvvatilik, sadoqat singari fazilatlar bilan birga sotqinlik, munofiqlik, hasad, ko‘rolmaslik, g‘ayirlik singari illatlar ham parallel ravishda yashaydi. Faqat kimlardadir fazilatlar, kimlardadir illatlar ko‘proq.

Inson tabiatan manfaatlar olami. U hamma narsa o‘ziniki bo‘lishini, unga qanchalik erkinlik bersangiz, undan ham ko‘proq erkinlikni istaydigan, qanchalik farovonlik sharoitini yaratsangiz, undan ham farovonroq yashashga intiladigan olam. Uning ehtiyojlarini hech qachon qondirib bo‘lmaydi. Inson ehtiyojlarini hayot ne’matlaridan ko‘ra ko‘proq va kengroq. Ana shunday kayfiyatda xudbinlik, manfaatparastlik illatlari kuchayib boradi. Natijada “gunoh”, deb ataladigan tavqi la’natga munosib yo‘lga kiriladi.

Ulug‘ bobokalonimiz Forobiyning xulosalariga ko‘ra, qonunlari barkamol bo‘lmagan jamiyatda axloqsizlik kuchayadi. Axloqsizlik esa jamiyatni parokandalikka olib keladi. Buyuk nemis faylasufi Osvald Shpengler: “Qayerda madaniyat yo‘qolsa, o‘sha yerda zoologiya kuchayadi”, – deydi. Demak, madaniyat, ma’naviyat, axloq yo‘qolsa, odamdagи insoniy instinktlar so‘nib boradi. Aksincha, hayvoniy instinktlar kuchayadi. Inson odam shaklidagi maxluqqa aylanadi. Ma’naviyatga ehtiyoj unutiladi. Bu esa oxir-oqibatda jamiyatni abgor qiladi.

Keyingi yillarda ma’naviyatga, ma’rifatga, inson tarbiyasiga e’tibor tobora oshib bormoqda. Demak, bunga ehtiyoj bor. Odamning insonga, insonning shaxsga aylanish jarayonlarining samaradorligini oshirish zaruratga aylanmoqda. Bunday zarurat va ehtiyojni ijtimoiy fanlar qondirishi mumkin. Afsuski, oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar keskin qisqartirib yuborildi. O‘zining tor mutaxassisligi doirasida yashaydigan va bu biqiq qobiqdan tashqaridagi keng olamni, uning rang-barangligini, jozibasini, hayotiy ehtiyojini anglamay yashaydigan kadrlar yuzaga kelmoqda. Haqli savol tug‘iladi: zamonaviy, oliy universitet ta’limini olgan agronom yoki muhandis adabiyotni bilmasa, she’r o‘qimasa, Navoiyni tushunmasa, uni to‘laqonli inson deb atash mumkinmi? Yuqori malakali tibbiyot xodimi falsafiy fikrlashni bilmasa, mantiqiy xulosa chiqarishni eplolmasa, uni zamonaviy sivilizatsiya talablariga mos kadr deb atash mumkinmi? Bunday odamning oilaviy muhiti qanday bo‘ladi? Murg‘ak bolalar tor tushunchalar asosida shakllanib, mexanik yashaydigan robotlarga aylanmaydimi? Bu kasbiy bilim, professional mahoratgina insonni to‘laqonli shaxsga aylantiradi, degan fikr qanchalik noto‘g‘riligini ko‘rsatmaydimi?

Masalaning ikkinchi tomoni bor. Inson – qalb va ruhiyat olami. Odam o‘zini jamiyatda to‘laqonli namoyon etishi uchun faqat iste’dodning o‘zi kamlik qiladi. U iste’dod bilan birga yuksak ma’naviyatga, yetuk axloqiy asoslarga ega bo‘lmog‘i lozim. Unga falsafiy tafakkur, mantiqiy tahlil, jozibador va go‘zal ifoda, yetarli darajadagi so‘z boyligi kerak bo‘ladi. Bular esa qalbni tarbiyalaydi. Qalbning buyukligi, pokligi, tozaligi ruh tozaligiga olib keladi. Ruh qalbdan oziq oladi. Ruhnii esa aql boshqaradi. Ana shu formulaning yechimi – komil inson degan qadriyatga olib keladi. Bizning qalbimiz so‘qirlashib bormoqda, ruhiyatimiz ozurda, shikasta, nimjon, aqlimiz esa zaif, noshud, notavon. “Gunoh” degan tavqi la’nat ochko‘z qurt kabi qalbimizni, jism-u jonimizni kemirmoqda. Bu ketishda manqurtlar, fikrlamaydigan, belgilangan dastur asosida yashaydigan robotlar jamiyatini yaratamiz.

Demak, biz yangilanishlar jarayonida yangi O‘zbekistonning yangi barkamol qiyofadagi fuqarolarini tarbiyalashimiz, shakllantirishimiz uchun qalb tarbiyasiga, ruhiyat tarbiyasiga jiddiy e’tibor bermog‘imiz

kerak. Hayotiy tajriba, insoniyat taraqqiyotining bir necha ming yillik mohiyati shuni ko’rsatadiki, o‘z sohasini puxta egallagan, yetuk va noyob qobiliyatga ega bo‘lgan axloqsiz, ma’naviy jihatdan qashshoq mutaxassisidan ko‘ra qalbi toza, ruhiyati pokiza, aqliy sog‘lom, g‘oyaviy chiniqqan o‘rtamiyona mutaxassis jamiyatga ko‘proq foyda keltiradi. Chunki u jamiyat boyliklarini o‘marmaydi, talon-toroj qilmaydi, korrupsiyadan uzoqroqda yashaydi. Insof, diyonat, vijdon, iymon singari Ilohiy olam o‘lchovlari va mezonzlari dunyosida yashaydi. Ana shunda “gunoh” degan tavqi la’natdan poklangan jamiyatni yuzaga keltirishimiz mumkin bo‘ladi. Buning asosiy tayanchi – Oila! Millatning xaloskori, jamiyatni barkamol etuvchi mo‘tabar maskan – Oila!

* * *

Ismoilova J.X.,

*O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori,
tarix fanlari doktori, professor*

SHARQ ALLOMALARI OILA VA TARBIYA HAQIDA

Annotatsiya. Magolada Sharq allomalarining oila, uning axloqiy mazmun-mohiyati, oila va nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch hamda vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi fikrlari yoritib berilgan. Muallif Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso at-Termizi, ad-Dorimiyy as-Samarqandiy, Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg‘oniyy, Bahauddin Naqshband, Mirzo Ulug‘bek kabi mutafakkirlarimizning oila haqidagi qarashlarini tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: Sharq, oila, tarbiya, milliy qahramonlar, “Avesto”, qanoat, vijdonlilik.

Аннотация. В статье описаны взгляды восточных ученых о семье, ее нравственное содержание, семейный и брачный этикет, отношения между родителями и детьми, их обязанности и ответственность, брак и выбор невесты. Автор анализирует взгляды таких мыслителей, как Исаил аль-Бухари, Абу Иса ат-Термизи, ад-Дарими ас-Самарканди, Беруни, Ибн Сино, Хорезми, Фергани, Бахауддин Накшбанда, Мирзо Улугбек.

Ключевые слова: Восток, семья, воспитание, народные герои, «Авесто», удовлетворение, совестность.

Annotation: The article describes the views of Eastern scholars on the family, its moral content, family and marriage etiquette, the relationship between parents and children, their duties and responsibilities, marriage and the choice of the bride. The author analyzes the views of such thinkers as Ismail al-Bukhari, Abu Isa at-Termizi, ad-Darimi as-Samarkandi, Beruni, Ibn Sino, Khorezmi, Fergani, Bahauddin Naqshband, Mirzo Ulugbek about the family.

Keywords: East, family, upbringing, national heroes, “Avesto”, contentment, conscientiousness

Ta’lim-tarbiya masalasi jamiyatda insonning paydo bo‘lishi davridanoq shakllana boshlagan va o‘zining turli-tuman shakllari va yo‘nalishlari asosida rivojlangan. Tarixga nazar solsak, o‘zbek xalqi o‘zining axloqiy-estetik madaniyatini qadimdanoq afsonaviy obrazlarda ifodalab kelganiga guvoh bo‘lamiz. Milliy qahramonlarimiz – Shiroq, To‘maris, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi kabi obrazlar orqali o‘z xalqiga fidokorlik, vatanga mehr-muhabbat, mardlik va fidokorlik, do‘stlik va sadoqat kabi xislatlar hayotiy tajribalar asosida xalqning ma’naviyatiga singdirib kelingan.

Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib kelinayotgan deyarli barcha asarlarda ta’lim, tarbiya va odob-axloq uning asosiy mazmunini tashkil etib kelgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da keltirilgan oila va shar’iy nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g‘oyatda qimmatli

fikrlar bugunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuningdek, “Avesto”da oila-nikoh munosabatlari, oilaviy burch va farzand tarbiyasi xususida bir qator fikrlar bayon qilingan².

Xalqimiz uchun ma’naviyat elchilari hisoblanmish Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termizi, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiyy as-Samarqandiy Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg‘oniy kabi ko‘plab muhaddislar etishib chiqqan.

Buyuk allomalarining yaratgan asarlarida odob-axloq va ilmgaga munosabatga alohida e’tibor berilgan. Ajdodlarimizning nafaqat asarlari, balki ularning o‘zлari ham ta’lim va tarbiyada barchaga o‘rnak bo‘la oladigan insonlar sifatida mashhur bo‘lganlar.

Bu insonlarning buyuk allomalar sifatida shakllanishida, albatta, ularning oilaviy muhiti asosiy rol o‘ynagan. Allomalarining ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari buyuk insonlarni yoshligidanoq ilm olamiga olib kirishda asosiy sababchi bo‘lgan.

Manbalarda yozilishicha, Imom Buxoriyning (810-870) onasi nihoyatda oqila, diyonatli va fozila ayol bo‘lib, o‘g‘lining ko‘zi zaifligidan qattiq tashvishga tushgan va doimo uning ko‘rish qobiliyatini qaytarish uchun duoda bo‘lgan. Otasidan erta ayrılgan Imom Buxoriyning asosiy tarbiyachisi va ilm yo‘liga boshlovchisi onasi bo‘lgan. U farzand sifatida onasini juda hurmat qilgan va boshqalarni ham ota-onasini qadrlashga da’vat qilgan.

Imom al-Buxoriy ahamiyatiga ko‘ra Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi ma’naviy manba deb e’tirof etilgan “Al-Jome’ as-Sahih” va undan keyingi “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) asarlarida axloq, odob, farzandlarni ota-onaga hurmatda bo‘lishga, onani e’zozlashga, mehr-oqibatli, ilm o‘rganishga, pok va iymonli bo‘lishga da’vat etgan. Imom al-Buxoriy madrasada toliblarga dars berish bilan bir qatorda, ularga maoshlar ham belgilagan. Manbalarda miskinlar va ilm ahlini doimo moddiy tomonidan qo‘llab-quvvatlaganligi alohida qayd etilgan. Uning pokiza va diyonatli inson sifatidagi tavsifi ko‘plab zamondoshlari tomonidan e’tirof etilgan. Shuningdek, o‘zining shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va behuda sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymagani va nihoyatda sabr-toqatli inson ekanligi alohida qayd etilgan.³

Imom Buxoriyning shoh asari “Al-Jome’ as-Sahih” bashariyatga qoldirilgan tengsiz ma’naviy meros bo‘lib, islom dinida Qur’oni Karimdan keyin e’zozlanadigan ikkinchi manbadir. “Al-Jome’ as-Sahih” ham diniy, ham dunyoviy ahamiyatga molik asardir. U har bir insonni o‘zi va mahzabidan qat’i nazar iymon-e’tiqodli bo‘lishga, halollik, poklik, rostgo‘ylik fazilatlarini qalbiga singdirishga, hayotini ezbilik, savob ishlarga bag‘ishlashga, o‘zidan yaxshi nom qoldirishga da’vat etadi. Oila, farzand tarbiyasi, ota-onalar hurmatini joyiga qo‘yish, ilm-ma’rifatli bo‘lish, Vatanni sevish xususida shunday ajoyib g‘oyalar va ta’limotlarga boyki, ular o‘z ahamiyatiga ko‘ra umumbashariy qimmatga egadir. Unda kundalik turmush muammolari, odob-axloq, kiyinish, muomala, rasm-rusmlar, savdo-tijorat singari inson bolasi har kun duch keladigan, jamiyatni yuksaltirishga ko‘maklashadigan masalalar ifodalangan⁴.

Bu qisqa ma’lumotlar Imom Buxoriyning beباho asarlari haqida emas, balki uni iqtidorli talaba, yuksak saviyali ustoz, pokiza va olivjanob inson sifatidagi qirralarini ochib beradi. Uning bunday beباho xislatlari dunyoda buyuk alloma sifatida shakllanishiga zamin bo‘lib xizmat qilgan bo‘lib, zamonamizning bugungi kundagi yoshlariga ibrat vazifasini o‘taydi.

Manbalarda Al-Hakim at-Termizi (820-932) oilasi haqida bir qancha ma’lumotlar uchraydi. Uning onasi va bobosi hadis ilmining yetuk bilimdonlari hisoblangan. Otasi Ali ibn al-Hasan esa o‘z davrida hadis ilmining taniqli olimlaridan biri bo‘lib, Hakim at-Termizi: “Alloh taolo mening ustozim-volidimdan judo qilganda men sakkiz yoshda edim. Uning sa’y-harakatlari bois men ilm olishga shunday berilib ketgandimki, kitob mutolaa qilish men uchun asosiy mashg‘ulot bo‘lib qolgan edi. Vaholanki, mening tengqurlarim o‘yin-kulgu va vaqtixushlik bilan band bo‘lar edilar. Volidimning ijтиҳодлари тufayli men shu yoshimda “Ilm al-osor”(hadis ilmi) va “Ilm ar-ray” (xanafiy mazhabi fiqh) bilimlarini to‘liq egallab oлgan edim”, – degan so‘zлari uning ilm cho‘qqilarini egallashda otasining o‘rni qay darajada ekanligidan dalolat beradi.

² Арапбаева Д.К., Арапбаева В.К. Шарқ мутафаккирларининг оила ва тарбия ҳақидаги карашлари. Журнал Замонавий таълим. 2015. №7., – Б. 66.

³ Уватов У. Имом ал-Бухорий. Буюк юрг алломалари. – Тошкент, 2016. – Б. 13-14.

⁴ Ҳадисларда одоб-ахлоқ масалалари ва уларнинг бугунги таълим-тарбиядаги ўрни. <https://kzref.org/kategoriya-pedagogika>.

⁵ Уватов У. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Буюк юрг алломалари. – Тошкент. 2016. – Б. 53

Hakim at-Termiziy ota-onasining yolg‘iz farzandi bo‘lib, 27 yoshida do‘satlari bilan Bag‘dodga o‘z ilmini mukamallashtirish maqsadida safarga otlanadi. Lekin onasining betobligi tufayli uni tashlab keta olmaydi. Manbalarda uning oilaparvar va insoniylit xususiyatlari, oltita farzandi, fozila va oqila ayoli haqida ma’lumotlar keltirilgan⁶.

Abu Nasr Forobi (873-950) O‘rtal Osiyoning buyuk mutafakkiri, islom falsafasining yirik vakili, insonparvarlik va axloq ta’limotini yaratgan allomadir. Faylasufning falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy qarashlarida insonparvarlik ruhi sezilib turadi. Ayniqsa, uning “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fuqarolik siyosati”, “Buyuk kishilarning naqlari”, “Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola” kabi asarlarda insonparvarlik haqida qimmatli fikrlarni ilgari surgan.

Forobiya ta’lim faqat so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalgalashirishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga o‘rganishdan iborat, deb hisoblaydi.

“Baxt-saodatga erishishning birdan bir yo‘li barcha ezgu ishlarni xayrli niyatlar ila bajarish, fazilatli amallarga tayanish barobarida razolat va baxtsizlik kelib chiqarish mumkin bo‘lgan ishlardan o‘zini tiya bilishidir”⁷, – deydi mutafakkir.

Abu-l-Lays as-Samarqandiy (911-985) fiqh ilmida yuksak martabaga erishgan alloma bo‘lib, u ma’rifatli oilada tavallud topgan. Uni ilmga bo‘lgan qiziqishini dastlab otasi uyg‘otgan. Abu-l-Lays avlodlari ham ilm ahillaridan tashkil topgan. Oiladagi ilmiy muhit uni kelajakda 30 dan ortiq islom ilmlarining barchasini o‘zida qamrab olgan fiqh, tafsir, hadis, zuhd bo‘yicha asarlar yaratishiga zamin bo‘lib xizmat qilgan⁸.

Ibn Sino ta’lim-tarbiya va axloqqa oid “Tadbir al-manozil” (“Turar joyni boshqarish choralar”), “Risola fi ilm al-axloq” (“Axloqqa oid risola”), “Risola fi al-ahd” (“Burch haqida risola”), “Risola fi tazkiyat an-nafs” (“Nafsni pokiza tutish to‘g‘risida risola”), “Siyosat al-badan” (“Badanni boshqarish”), “Kitob al-ansof” (“Adolat haqida kitob”). “Al-urjuza fit-tibb” (“Tibbiy urjuza”) asarlari mavjud.

Ibn Sinoning “Axloq haqida risola” asarining qo‘l yozmalaridan biri O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining kitob fondida mavjud bo‘lib, bu asar 1908-yili Misrda Ibn Sinoning “Hikmat va tabiatga oid to‘qqiz risolasi” kitobi ichida (152-156-betlar) nashr qilingan.

Ibn Sino o‘zining “Axloq haqidagi risola”sida axloqiy xislatlardan or-nomus, sha’n, qadr-qimmat, qanoat, saxiylik, g‘ayratlilik, sabr-toqat, halimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma’rifatli bo‘lish, ochiqlik, vijdonlilik, do‘silik, sadoqatlilik, kamtarlik, saxiylik,adolatlilik kabi shaxs ma’naviyatining toifalariga ta’rif berib chiqadi. Masalan, “G‘ayratlilik” g‘azabiy quvvatga mansub, bunda inson har qanday og‘riq va alamlarga befarq qaraydi. “Qanoat”, ya’ni mo‘tadillikka ta’rif berib, Ibn Sino uni tana uchun normadan ortiq ozuqani iste’mol qilishdan saqlanish yoki xulq normalariga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik deb tushuntridi. “Sabr” insondagi shunday quvvatdirki, u orqali inson boshiga tushgan yomonlikdan xoli bo‘ladi. “Vijdonlilik” tez fahmlash, his orqali berilgan biror narsaning haqiqiy ma’nosiga tez etishdir va turli xil yomon ishlardan o‘zini tiyib turishdir. “Rahmdillilik” – omadsizlikka uchragan yoki boshqa og‘ir kulfat tushgan insonlarga hamdard bo‘lish.

Ibn Sinoning axloq va odob borasidagi qarashlari uning shoh asarları bo‘lmish “Tib qonunlari”, “Ash-Shifo”larning deyarli barcha qismlarida, shuningdek, uning badiiy asarlarida, ayniqsa, tibbiy poemasi “Hayy ibn Yaqzon”, “Qush risolasi”da ham o‘z aksini topgan.

Ibn Sino o‘zining “Uy-joy tutish tadbiri” haqidagi asarida ayollarning o‘n etti xislatini sanab ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, dastlab ayol oqila va imonli, sharm-hayoli va or-nomusli, didli va farosatli, orasta, o‘z eriga sadoqatli, itoatkor, dilkash, bexarxasha, pokiza, vazmin, muloyim va o‘zini tutib olgan jiddiy va ulug‘vor, har bir xatti-harakatida yaxshi xislatlari sezilib turadigan tejamkor, erining og‘ir damlarida unga malham bo‘la oladigan mushfiq-u mehribon bo‘lishi kerak. Demak, Ibn Sino bu yerda ayollarning donoligini maqtaydi. Uningcha, agar ayol oqila bo‘lsa, o‘z erining ishonchli do‘sti va hamdardi bo‘la oladi, u bevafolikni qoralaydi, oilani halokatga olib boradigan narsa, o‘sha bevafolik, deydi

⁶ Ўша жойда, – Б. 54.

⁷ Абу Наср Фаробий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот хақида. – Тошкент: “Ёзувчи”. 2002. – Б. 12.

⁸ А.Абдулаев. Абу-л-Лайс ас-Самарқандий. Буюк юрт алломалари. – Б. 62

⁹ “Тиб қонунлари”. ЎЗР ФА ШИ кўлёзма фондида сакланади.(№3316. 97 85)

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) fan olamida, tafakkur xazinasida alohida o‘ringa ega bo‘lgan ilmiy meros qoldirgan olimlardan hisoblanib, uning “Minerologiya”, “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi asarlarida tafakkurga, ilmgaga, falsafaga, ta’lim-tarbiyaga, mehnatga oid hamda kasb-hunarlarlarni egallashning ahamiyati to‘g‘risida fikrlari bayon qilingan.

Abu Rayhon Beruniy butun umrini ilmiga bag‘ishladi. “Aql va ma’rifatda hali unga o‘xshash biror kishi davron yarata olgani yo‘q”, – deb yozgan edi XIII asr tarixshunosi Yoqut. Abu Rayhon Beruniy doimo mehnat va ilm insonni ulug‘laydi degan fikrni ta’kidlab kelgan. Jumladan, o‘zining “Minerologiya” asarida: “Mehnatsiz shon-shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqli? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi farog‘at soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug‘lik libosidan mahrum, yalang‘ochdir”, – degan edi.

Agar biz allomalar hayotiga nazar solsak ularning yana bir namunali xislatiga duch kelamiz. Bu ularning bir necha tillarni mukammal o‘zlashtirgani, shu bilan bir qatorda bir necha madrasalar va ko‘plab ustozlar qo‘lida ta’lim olganligidir. Ta’lim olish va ilmiy izlanishda ular uchun hech qanday masofa yoki hududning ahamiyati bo‘lmagan. Mashxur ustozlar yashagan har qanday hudud ilm ahlini doimo o‘z bag‘riga tortgan.

Abu Abdulloh Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy butun dunyo ilm-fanini zabit etgan qomusiy olimdir. Uning riyoziyot va falakiyot faniga asos solgani o‘z zamonasida ham, hozir ham barcha olimlar tomonidan tan olinmoqda. Bo‘lg‘usi yirik olim oldin mantiqiy fikrlash malakasini oshirgan, asosiy e’tiborini til o‘rganishga qaratgan. Natijada Xorazmiy o‘z tili bilan bir qator turk, arab, fors va yahudiylar tillarini puxta egallagan. Uning bir qancha tillarni mukammal bilishi dunyo olimlarining asarlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Yana shunday allomalardan biri islom huquqi, ayniqsa, xanafiy mazhabi rivoji yo‘lida bebafo ilmiy meros qoldirgan Burhoniddin Marg‘inoniy (1123-1197) bo‘lib, Marg‘inoniy iste’dodi tufayli buyuk faqih darajasiga ko‘tarildi va shayxulislom nomiga sazovor bo‘ldi. Bu alloma nafaqat o‘zi, balki o‘g‘li Imoduddin ibn Burhoniddin al-Marg‘inoniyi yetuk faqih va she’riy iste’dod egasi bo‘lishiga hamda neverasi Muhammad Abdulfath Jaloluddin al-Farg‘oniyi ilm sohasi bilan shug‘ullanishiga sabab bo‘ldi (u 1253-yilda Samarqand shahrida sud mahkamalariga doir asarini yozgan)¹⁰.

Alouddin as-Samarqandiy o‘z davrining etuk faqiji bo‘lib, ilm-fan rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. U haqidagi ma’lumotlar judo oz bo‘lishiga qaramasdan, uning asarları Mavarounnahrda fiqh sohasiga katta hissa qo‘shganligi va o‘z maktabini yarata olganligiga guvoh bo‘lamiz. U o‘z asarlarida hadislardan ham asos sifatida foydalanganligi qayd etadi. Bu allomaning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘z qizi Fotimani yoshlik chog‘laridanoq ilmiga o‘rgatgan. Qiroat, arab grammatikasi, fiqh dan dars berib, uning buyuk faqiba olima bo‘lib etishishiga sabab bo‘lgan¹¹. Fotimaning biron ta yozma asarları haqida ma’lumot bo‘lmasa-da, u o‘z davrining ilmiga chanqoq ayol timsolini yaratdi. Bu ma’lumotlar o‘rtalarda Mavarounnahrda ayollar va ilm-fanga bo‘lgan munosabatlari qay darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Allomalar yurtining yana bir farzandi Xoja Bahouddin Naqshband (1318-1389) valiy inson bo‘lib, o‘z davrida ko‘plab yuksak xislatli odamlarni tarbiyalagan va bebafo ma’naviy meros qoldirgan ulug‘ zotdir. Naqshbandiy asosiy tarbiya usulini suhbat deb bilib, suhbat orqali inson qalbiga kirib borish mumkin, deb hisoblagan. U odamlar ichra xilvatda bo‘lishni rad etgan holda, biror bir kasb-hunar bilan mashg‘ul bo‘lib, Ollohnning nomini qalbda ushslashni targ‘ib etgan.

Uning “Dil – ba yor-u, dast – ba kor”, ya’ni Ollohn qalbingda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin, degan shiori ham aynan shu mazmunni o‘zida mujassamlashtirgan.

Allomalarning hayoti o‘zining ko‘p qirrali xususiyatlari bilan keyingi avlodlarga doimo o‘rnak bo‘lib kelgan. Ular mehnatsiz hayotni va kasb-hunarsiz insonlarni qadrlamaganlar va o‘zlarini ham hunarning biror turi bilan shug‘ullangan. Masalan, Ali Romitaniy – to‘qimachi, Muhammad Bobo Samosiy – bog‘bon, Bahouddin Naqshband – naqqosh, to‘qimachi va chorvador, Xoja Ubaydulloh Ahror chorvador va savdogar, Amir kulol – kulol, uning o‘g‘li Amir Hamza esa ovchi bo‘lgan.¹² Ular hunarsiz kishilarni, hatto shogirdlikka ham qabul qilmaganlar.

¹⁰ Бурхониддин Марғиноний. Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Буюқ юрт алломалари. – Б. 101-102.

¹¹ Комилов М. Алоуддин ас-Самарқандий. – Тошкент, 2016 й. – Б. 238.

¹² Рахимов К. Хожа Баҳоуддин Накшбанд. – Тошкент, 2016. – Б. 294.

Xoja Bahouddin Naqshband: “Elning yukini yengillashtiring, elga yuk bo‘lmang”, – degan hikmatli so‘zlari insonlarga o‘z xalqiga ortiqcha yuk bo‘lmaslik, aksincha, unga madadkor bo‘lib, jamiyat rivojiga o‘z hissasini qo‘sishga da’vat etgan.

Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar ancha yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan. Sohibqiron Temur yosh avlodni tarbiyalashdagi maorifning beqiyos ahamiyatini anglab, masjid qoshidagi maktablar va madrasalarga keng o‘rin berildi. U diniy tarbiyaga o‘ziga xos bo‘lgan islohotchi sifatida yondashdi va maktab tizimiga katta e’tibor berdi. Mirzo Ulug‘bek o‘z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog‘lom, xarbiy xunarni puxta egallagan, jasur, mard bo‘lib yetishuviga alohida ahamiyat beradi. Uning fikricha, ta’lim-tarbiyada matematika, falakiyot fanlari bolaning aqliy qudrati va qobiliyatini o‘stirishda muhim vosita bo‘lsa, tarix va adabiyot fanlari esa bolalarning vatanparvar bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy qarashlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, balki qayta-qayta asarlarni mutolaa qilishni talab qilmoqda. Chunki, birinchidan, mashhur allomalarining shaxsiy hayoti, buyuk insoniy fazilatlari, ikkinchidan, mehnatni ulug‘lovchi, halollik, insonparvarlik, ilmga chanqoqolik, kasb-hunar egallah va komillikka intilish kabi g‘oyalari bilan sug‘orilgan asarlarining tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

Ular jahondagi globallashuv jarayonida milliy urf-odatlar, qadriyatlarni saqlab qolish va jaholatga qarshi ma’rifat sifatida to‘g‘ri yo‘l tanlashda bebaho ma’naviy meros bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Арапбаева Д.К., Арапбаева В.К. Шарқ мутафаккирларининг оила ва тарбия ҳақидаги қарашлари. Журнал Замонавий таълим. 2015. №7., – Б. 66
2. Уватов У. Имом ал Бухорий. Буюк юрт алломалари. – Тошкент, 2016. 13-14 бетлар.
3. Ҳадисларда одоб-ахлоқ масалалари ва уларнинг бугунги таълим-тарбиядаги ўрни. <https://kzref.org/kategoriya-pedagogika>.
4. Уватов У. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Буюк юрт алломалари. – Тошкент, 2016. – Б. 53.
5. Абу Наср Фаробий. Фазилат, баҳт–саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: “Ёзувчи”, 2002. – Б. 12.
6. А.Абдуллаев. Абу-л-Лайс ас-Самарқандий. Буюк юрт алломалари. – Б. 62.
7. “Тиб қонунлари”. ЎзР ФА ШИ қўлёзма фондида сақланади. (№3316. 97 85)
8. Бурхониддин Марғиноний. Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Буюк юрт алломалари. 101-102 бетлар.
9. Комилов М. Алоуддин ас-Самарқандий. – Тошкент, 2016. – Б. 238.
10. Рахимов К. Ҳожа Баҳоуддин Нақшбанд . – Тошкент, 2016. – Б. 294.



Карамян Мариэтта Хачатуровна,
Национальный университет Узбекистана,
И.о.проф., докт.психол.наук

ЦЕННОСТНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ ПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ С СЕМЬЕЙ

Аннотация. В статье рассматривается ценностное измерение психосоциальной работы с семьей. Анализируются семейные ценности с учетом социокультурной трансформации института семьи, профессиональные ценности специалистов социальной сферы, влияющие на оказание услуг семье. Приводятся результаты изучения семейных ценностей у представителей разных поколений.

Ключевые слова: семья, психосоциальная работа, ценность, профессиональные ценности и этика.

Annotatsiya. Maqolada oila bilan psixosotsial ishning qadriyat o‘lchovlari ko‘rib chiqilgan. Oilaviy qadriyatlar oila institutining ijtimoiy-madaniy o‘zgarishi, oilaga xizmat ko‘rsatishga ta’sir etuvchi ijtimoiy soha mutaxassislarning kasbiy qadriyatlarini hisobga olgan holda tahlil qilingan. Turli avlod vakillari o‘rtasida oilaviy qadriyatlarni o‘rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oila, psixosotsial ish, qadriyat, kasbiy qadriyatlar va axloq.

Annotation. The article considers the value dimension of psychosocial work with the family. The family values are analyzed taking into account the socio-cultural transformation of the family institution, professional values of social sphere specialists that affect the provision of services to the family. The results of the study of family values among representatives of different generations are presented.

Keywords: family, psychosocial work, value, professional values and ethics.

Пристальное внимание международных организаций и государств к вопросам семьи связано с той ролью, которую играет семья для устойчивого развития общества и личности. Другими словами, семья представляет собой важный социальный институт, в функции которого входит обеспечение как общественных, так и индивидуальных потребностей. В Резолюции, принятой Генеральной Ассамблеей Организации Объединенных Наций, подчеркивается, что «семьи как основные ячейки общества являются важным фактором устойчивого развития на всех уровнях общества и что их вклад в этот процесс имеет решающее значение для его успешного осуществления» [7]. В связи с этим значение приобретает организация психосоциальной работы с семьями.

В глобальном плане поддержка семьи рассматривается как механизм достижения целей в области устойчивого развития, в том числе ликвидации нищеты, обеспечения хорошего здоровья и благополучия, расширения возможностей женщин и защиты их прав, уменьшения неравенства [9]. Глобальность многочисленных вызовов, с которыми сталкивается современная семья, связана с необходимостью обеспечения социальной защиты семей с учетом гендерного фактора, баланса между трудовой деятельностью и семейной жизнью, жильем бездомных семей [4]. В частности, ключевыми, с позиций Организации Объединенных Наций, являются действия государств по решению вопросов расширения спектра услуг по уходу за ребенком, равной оплаты труда для мужчин и женщин, преодоления семейного насилия.

Системный подход Узбекистана в области социальной политики находит свое выражение в действиях по укреплению института семьи, в том числе совершенствованию нормативно-правовой базы, развитию инфраструктуры, реализации программ по поддержке семьи. Так, в Узбекистане действует ряд нормативно-правовых актов [например, 1], в 2018 году была принята Концепция укрепления института семьи в Республике Узбекистан [2] и разработаны меры по совершенствованию системы социальной реабилитации и адаптации, а также профилактики семейно-бытового насилия [3].

Таким образом, в свете реализуемых государством нормативно-правовых и социально-экономических мер по укреплению семьи и формированию здоровой семьи без дискриминации,

угроз и насилия представляется целесообразным рассмотрение особенностей психосоциальной работы с семьей.

В научной литературе сложно найти единый подход к пониманию сущности психосоциальной работы с семьей, так как это понятие, во-первых, включает в себя оказание широкого спектра услуг семье и детям, во-вторых, содержательно связано с профессиональной социальной работой, в-третьих, отражает сложность и многогранность социальных проблем современной семьи и соответственно методов, которые могут быть использованы в случае ее поддержки в трудной жизненной ситуации.

Анализ особенностей психосоциальной работы с семьей позволяет выделить ученым ключевые параметры для ее описания, к которым относят: семью как клиента, нормативно-правовое обеспечение оказания помощи, ключевые ее этапы и направления, ресурсы, включая финансовые, инфраструктурные, кадровые, информационные. Сущность этих параметров и их взаимодействие раскрываются в едином ценностном пространстве психосоциальной работы с семьей.

Целью данной статьи выступает анализ ценностного измерения психосоциальной работы с семьей. Реализация этой цели требует обсуждения следующих ключевых вопросов: 1) семейных ценностей в условиях трансформации современного института семьи; 2) ценностного контекста, определяющего принципы, этапы и направления психосоциальной работы с семьей; 3) контекста оказания помощи семье с позиций этики и ценностей социальной работы; 4) оказания влияния семейных ценностей специалистов социальной сферы на их практику работы с семьей.

Обсуждение семейных ценностей в условиях трансформации современного института семьи показывает, что его состояние можно объяснить в рамках двух парадигм:

1) парадигмы модернизации, согласно которой все изменения семьи и ее ценностей объясняются как специфические проявления общего процесса модернизации всего общества;

2) парадигмы кризиса семьи, суть которой в рассмотрении семейных изменений как выражения глобального системного кризиса семьи, вызванного индустриально-рыночной цивилизацией [10].

В научной литературе принято выделять виды семейных ценностей, ориентируясь на определение семьи:

1) ценности, связанные с супружеством (например, ценность брака, ценность равноправия супругов, ценности различных половых ролей в семье, ценность межличностных коммуникаций между супружами, отношений взаимоподдержки и взаимопонимания супругов);

2) ценности, связанные с родительством (например, ценность детей, включающая в себя ценность многодетности или малодетности, ценность воспитания и социализации детей в семье);

3) ценности, связанные с родством (например, ценность наличия родственников, ценность взаимодействия и взаимопомощи между родственниками, ценность расширенной или нуклеарной семьи) [6, 10].

Анализируя особенности трансформации института семьи в постиндустриальном обществе, Г.И.Капнина (2016) приводит доказательства изменений функций семьи в европейских странах. Например, в Дании в последние десятилетия в семье происходит замещение материальных ценностей нравственными, в Испании современную семью объединяет не имущество, а связи между личностями, воспитание детей и установление эмоциональных связей между ее членами [5].

Исследование, выполненное в рамках деятельности научно-исследовательского института «Махалля ва оила» в 2021 году, показало, что женщины чаще, чем мужчины, ориентированы на поддержание в семье трудовых, профессиональных и национально-религиозных традиций. Для женщин более характерно внимание к свадебным ритуалам, ритуалам рождения и развития ребенка, ритуалам прощения с умершими родственниками, к празднованию основных религиозных и национальных праздников.

Было выявлено, что представители поколения Z (18-22 года) указывали чаще на соблюдение в их семьях национально-религиозных традиций, т.е. ритуалов сватовства, свадеб, ритуалов рождения и развития ребенка, ритуалов прощения с умершими родственниками, празднования основных религиозных и национальных праздников. Представители поколения Y (23-37 лет) менее следуют бытовым традициям, выраженным в традициях приема гостей, общей трапезы, посещения родных мест, постоянного контакта с родными. Представители поколения X (38-57 лет) более ориентированы

на соблюдение трудовых традиций, связанных с помощью детей в выполнении домашних дел, их вовлечением в уборку дома, поощрением их трудовой активности.

Таким образом, понимание ценностного измерения психосоциальной работы с семьей возможно при условии содержательного анализа ценностей, выступающих в качестве доминирующих ориентиров для реализации ее функций.

Обсуждение ценностного контекста оказания помощи семье возможно при анализе принципов, этапов и направлений работы с семьей, этики и ценностей, лежащих в ее основе. Именно экосистемный подход и ключевые принципы кейс-менеджмента составляют ценностный каркас реализации психосоциальных услуг семьи.

Оценка потребностей семьи, разработка плана действий, его осуществление и мониторинг его реализации основываются на идеях экосистемного подхода:

- 1) приверженность идеи о наличии у семьи сильных сторон и ресурсов;
- 2) понимание того, что акцент на сильных сторонах не уменьшает важности выявления проблем риска и безопасности и поиска способов защиты семьи от вреда и причинения вреда;
- 3) отказ от дефицитарного подхода, т.е. рассмотрения дисфункциональности семьи и игнорирования способности ее членов к решению проблем;
- 4) рассмотрение обращения за помощью в позитивном ключе, т.е. как точки отсчета для изменений при установлении партнерских отношений между семьей и социальными работниками;
- 5) поиск ресурсов на микро-, мезо- и макроуровнях [13].

Кейс-менеджмент в работе с семьей предполагает учет потребностей и интересов семьи как клиента, мотивирование ее членов на изменение поведения и формирование запроса на получение помощи, комплексность рассмотрения проблем и потребностей семьи с учетом особенностей социального окружения, межведомственный подход к ведению случая [8].

Психосоциальная работа реализуется в рамках деятельности социальных служб. Системное видение проблем семьи, их оценка, планирование и оказание помощи стали важными элементами деятельности социальных служб по поддержке семьи и детей. Важным компонентом их деятельности является оценка, на разработку стандартов которой было обращено особое внимание. Интересен подход к процессу оценки в деятельности социальных служб Новой Зеландии. Этот подход ориентирован на ребенка, на поиск доказательств и сильных сторон семьи и ребенка, учет культурных особенностей семьи [12].

Другим, не менее важным компонентом в деятельности социальных служб является процесс принятия решения о судьбе ребенка, возможностях семьи в осуществлении заботы о нем. К примеру, в Англии сотрудникам социальных служб рекомендуется обращать внимание на факторы, выступающие своеобразными барьерами на пути к качеству принятого решения. К ним относят участие в этом процессе специалистов, знания которых о конкретном случае ограниченны; недостаточная оценка всех особенностей случая; недостаточный учет мнений людей, которые знают больше о случае, но которые обладают низким профессиональным статусом [11].

Одним из базисных принципов работы социальных служб является принцип наделения пользователей услуг возможностями, их активизация, работа с ними в тесном сотрудничестве. Особый интерес представляет норвежская модель сотрудничества пользователей услуг и профессионалов, сотрудников социальных служб. Она выражается в организации и проведении конференций по случаю или обзорных групп, основной идеей которых выступает свободное и открытое общение, равное партнерство и координация услуг. Модель, используемая в социальных службах Норвегии, ориентирована на принятие такого решения, которое действительно будет отражать «наилучшие интересы ребенка». Для ее применения в практике необходимо соблюдение четырех требований – вовлечение в процесс принятия решения всех заинтересованных сторон; наличие места для проведения встреч; обеспечение условий для выражения взглядов каждого, особенно ребенка; принятые решения должны быть приняты обществом [15].

Обсуждение влияния семейных ценностей специалистов социальной сферы на их практику работы с семьей приобретает значение в случаях необходимости развития у них навыков рефлексии и осознания стереотипов своего отношения к клиентам. К примеру, более прогрессивные семейные

ценности (например, о возможности трудовой деятельности для женщин с маленькими детьми) свойственны скорее опытным и более взрослым социальным работникам, чем молодым [14].

Подводя итоги, важно отметить, что психосоциальная работа с семьей должна с необходимостью учитывать происходящие с данным социальным институтом изменения. В связи с этим изучение ценностного измерения психосоциальной работы является актуальным для обеспечения ее эффективности.

Список литературы

1. Закон Республики Узбекистан от 02.09.2019 г. № ЗРУ-561 «О защите женщин от притеснения и насилия».
2. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции укрепления института семьи в Республике Узбекистан» № ПП-3808 от 27 июня 2018 г.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию системы социальной реабилитации и адаптации, а также профилактики семейно-бытового насилия» №ПП-3827 от 02.07.2018 г.
4. Доклад «Реализация целей Международного года семьи и связанных с ним последующих процессов». 26.11.2019. Генеральная Ассамблея и Экономический и Социальный Совет Организации Объединенных Наций. URL: <http://undocs.org/ru/A/75/61%E2%80%93E/2020/4> (дата обращения: 10.09.2021).
5. Капнина Г.И. Трансформации в восприятии функций семьи в постиндустриальном обществе [Электронный ресурс] // Перспективы науки и образования. 2016. № 2. – С. 34-39. URL: https://psyjournals.ru/science_and_education/2016/n2/kapnina.shtml (дата обращения: 02.01.2021).
6. Лотова И. П. Системный подход к изучению семейных ценностей в современном российском обществе // Статистика и экономика. 2015. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sistemnyy-podhod-k-izucheniyu-semeynyh-tsennostey-v-sovremennom-rossiyskom-obschestve> (дата обращения: 07.01.2021).
7. Резолюция Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций 47/237 «Международный год семьи» от 8.10.1993. URL: <https://undocs.org/ru/A/RES/47/237> (дата обращения: 5.09.2021).
8. Руководство по оценке и междисциплинарному ведению случая для оказания помощи детям и семьям, находящимся в социально опасном положении или в трудной жизненной ситуации. – Санкт-Петербург: «Врачи детям», 2008. – 120 с.
9. Цели в области устойчивого развития//Сайт Организации Объединенных Наций: URL: <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals> (дата обращения: 5.05.2021).
10. Шаваева О.А. Трансформация системы семейных ценностей в современную эпоху // Научный журнал КубГАУ - Scientific Journal of KubSAU. 2014. №99. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-sistemy-semeynyh-tsennostey-v-sovremennuyueroihu> (дата обращения: 10.09.2021).
11. Beckett C., McKeigue B., Taylor H. Coming to conclusions: social workers’ perceptions of the decision-making process in care proceedings// Child and Family Social Work. 2007, 12. P. 54-63.
12. Connolly M. Practice Frameworks: Conceptual Maps to Guide Interventions in Child Welfare// British Journal of Social Work, 2007, 37. P. 825–837.
13. Holosko M. J., Dulmus C.N. Sowers K.M. Social work practice with individuals and families: evidence-informed assessments and interventions. John Wiley & Sons, Inc., 2013. 338 p.
14. Miller C.R., Smith A.R., Kliewer C., Rosenthal J.A., Wedel K.R. An Online Survey of Social Workers’ Family Values//Journal of Social Work Values & Ethics. Spring 2016, Vol. 13, No. 1. – P. 59-72.
15. Willumsen E, Skivenes M. Collaboration between service users and professionals: Legitimate decisions in child protection – a Norwegian model // Child and Family Social Work. 2005, 10. – P. 197-206.



Toshpo‘lat Matibayev,
Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputati,
sotsiologiya fanlari doktori, professor;
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
loyiha rahbari

MUSTAQIL VA FARAVON OILANING SHAKLLANISHIGA ER-XOTIN MUNOSOBATLARIDAGI NIZOLAR SALBIY TA’SIR ETUVCHI OMILLAR SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil va farovon oilaning shakllanishiga er-xotin munosobatlaridagi nizolar salbiy ta’sir etuvchi omillar sifatida qaralgan. Agarda shaxsning shakllanishida biologik, tabiiy va madaniy muhit, ijtimoiy tajriba, odamlar bilan munosabat kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olsak, bularning barchasi oilada mujassamlashgandir. Zero, shaxs ma’naviyati, uning dunyoqarashi, e’tiqodi, hayotiy tamoyillari, ideallari, qadriyatlari, ko’nikmalar majmuyi, asosan, oilada shakllanadi. Shu munosabat bilan bugungi kunda yoshlarning oila muhitiga moslashuvi masalalarini o’rganish dolzarb ahamiyat kasb etidi.

Kalit so‘zlar: mustaqil, farovon oila, munosobatlar, er-xotin, shaxsning shakllanishi, shaxs ma’naviyati.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется факторам, негативно влияющим на формирование независимой и благополучной семьи, выступающим конфликтам в отношениях супружеской пары. Если принять во внимание тот факт, что такие факторы, как биологическая, природная и культурная среда, социальный опыт, взаимоотношения с людьми, играют важную роль в формировании личности, то все это воплощается в семье. Ведь духовность человека, его мировоззрение, темперамент, набор жизненных принципов, идеалов, ценностей, навыков формируются в основном в семье. В связи с этим изучение адаптации молодежи к семейной среде сегодня имеет первостепенное значение.

Ключевые слова: независимая, благополучная семья, конфликт, супружеская пара, формирование личности, духовность человека.

Annotation: This article focuses on the factors that negatively affect the formation of independent and prosperous family, the conflicts in the relations of married couple. If we consider the fact that such factors as the biological, natural, and cultural environment, social experience, relationships with people play an important role in the formation of personality, then all this is embodied in the family. After all, a person’s spirituality, his worldview, temperament, a set of life principles, ideals, values, skills are formed mainly in the family. In this regard, the study of adaptation of young people to the family environment is of paramount importance today.

Keywords: independent, prosperous family, conflict, married couple, formation of personality, person’s spirituality.

“Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo‘lsin! Oila kichik Vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, Vatan tinch bo‘ladi. O‘sha baxtli kunlarni, Vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko‘rish hammamizga nasib etsin!”¹³

Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Keyingi yillarda keng jamoatchilik va olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelayotgan masalalardan biri shaxs va oila, oilaviy munosabatlar muammosidir. Inson ma’naviyatini shakllantirishning eng maqbul maskani oiladir. Oila qaysi millatga mansub bo‘lsa, o‘sha xalqning ma’naviyatini o‘zida mujassamlashtirib,

¹³ <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>

bir necha asrlik tarixga ega bo‘lgan an’analarni, ma’naviyatni avloddan avlodga yetkazadi. Agarda shaxsning shakllanishida biologik, tabiiy va madaniy muhit, ijtimoiy tajriba, odamlar bilan munosabat kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olsak, bularning barchasi oilada mujassamlashgandir. Zero, shaxs ma’naviyati, uning dunyoqarashi, e’tiqodi, hayotiy tamoyillari, ideallari, qadriyatlari, ko‘nikmalar majmuyi, asosan, oilada shakllanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, “...to‘liqsiz oilalar, ajralishlar, nikohsiz tug‘ilgan bolalar sonining ortishi, bir jinsli oilalarning legallahuvi kabi salbiy holatlar mavjudligini, masalan, Fransiyada nikohsiz tug‘ilgan bolalar 55%, ajralishlar 55%, to‘liqsiz oilalar 23% ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar Angliya va Amerika Qo‘shma Shtatlarida ham shunga yaqin: mos ravishda 47,3%, 46%, 28% va 39,8%, 46%, 27%”¹⁴ bunday holat iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois bilan bugungi kunda yoshlarning oila muhitiga moslashuvi masalalarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuni inobatga olgan holda, bugungi kunda oilalar orasida vujudga kelayotgan muammolarga to‘xtalib o‘tsak.


Er-xotin o‘rtasida oiladagi rol va majburiyatlar taqsimoti bilan bog‘liq muammolar:

Er-xotinlarning o‘zaro oiladagi roli va majburiyatlar taqsimoti bilan bog‘liq nizolar va tushunmovchiliklar konsultatsiyaga yordam so‘rab murojaat qiluvchi juftliklar orasida eng ko‘p tarqalgan sabablardan biridir. Rollar bilan bog‘liq nizolar er-xotinning oiladagi rol tushunchasiga oid tasavvur, stereotiplari qay darajada shakllanganligi bilan bog‘liq¹⁵.

Ko‘pchilikda “Odatda bunday muammolar munosabatlari endi shakllanayotgan yosh oilalarga xos”, degan fikr yuzaga kelishi mumkin, lekin aslida bunday emas. Bunday muammo bilan uzoq yillar birga hayot kechirgan er-xotinlar ham murojaat qilishlari ehtimoli bor. Oilada shunday turdag'i muammoning kuchayishi, natijada er-xotin konsultatsiyaga murojaat qilishlari umuman tasodify emas. Munozaraning chuqurlashuviga oilaviy hayotda allaqachon bo‘lib o‘tgan yoki yaqin vaqtlarda bo‘lishi kutilayotgan o‘zgarishlar sabab bo‘lishi mumkin. Bunday o‘zgarishlarga farzandlarning tug‘ilishi, ularning bog‘chaga yoki maktabga qatnay boshlashi, kichik yoshdagi farzandining tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan ayollarning ta’tildan so‘ng ishga chiqishlari, oila a‘zolaridan birining jiddiy kasalligi, yosh oilaning ota-onalaridan ajralib chiqishlari yoki ularning uyiga ko‘chib o‘tishlari, farzandlarni uylantirish yoki turmushga berish muammosining mavjudligi, er-xotinlardan birining nafaqaga chiqishi va hokazolar kiradi. Ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin, lekin undagi sabablarning hammasini ma’lum bir umumiylig bog‘lab turadi, u ham bo‘lsa oilada yuzaga kelgan va oilaviy yumushlarni, majburiyatlarni qaytadan taqsimlashni talab etadigan o‘zgarishlardir.

Oilaviy majburiyatlarni nisbatan adolatli taqsimlash uchun er-xotinning har biri turmush o‘rtog‘i undan nima xohlashini va kutishini bilishi shart, qolaversa, ularning oilada nimalarini amalga oshirishlari, nimalarini qilmasliklari to‘g‘risidagi tasavvurlarini aniqlashtirish samarali natija beradi.

Butun dunyoda oila va nikoh instituti deformatsiyasi yuz berayotgan bugungi kunda haqli savol tug‘iladi: oila institutini saqlash uchun nima qilish kerak? Shu bois Toshkent viloyatining turli hududlarda oila mustahkamligini ta’minalashda omillari borasida sotsiologik so‘rovnomalari o‘tkazilgan.



1- rasm. Oila mustahkamligini ta’minalashda qonuniy nikoh rasmiylashtirishning zarurligi

¹⁴ Divorce demographie. <https://en.wikipedia.com>

¹⁵ Nye F.J. Role structure and analysis of the family. London, 1976

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 300 nafar oila qurmagan yoshlarning 272 nafari (90,7%) oila mustahkamligini ta’minlashda qonuniy nikohning zarur ekanligini, 16 nafari (5,3%) rasmiy nikohdan o‘tmay, faqatgina shar’iy nikoh ham oilani mustahkamligini ta’minlashini ta’kidladi, 12 nafar (4%) respondentlar “bilmayman” degan javob bilan bu masalani hali o‘ylab ko‘rmaganligini bildirishdi. Bu tadqiqot natijasiga ko‘ra, yoshlarning huquqiy savodxonligini yanada oshirishimiz va oila-nikoh munosabatlari nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim. Shu bilan birga oila qadrlanishini va shu sababli oilani qadimdan qadriyat sifatida e’zozlanishini ularning ruhiyatiga singdirishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi¹⁶.

Oilaviy majburiyatlarni taqsimlashda tenglik muammosi

Oiladagi o‘rnini belgilash bilan bog‘liq nisbatan keng tarqalgan bunday nizolar ayol kishida turmush o‘rtog‘ining unga xo‘jalik, uy-ro‘zg‘or ishlarini yuritishda va turli xildagi kundalik yumushlarni bajarishda beradigan yordamidan qoniqmaslik hissini keltirib chiqarishi mumkin. Bunda ayol kishining noroziligi turmush o‘rtog‘i u xohlayotgan, talab qilayotgan ishlarni bajarmasligi yoki bajargan taqdirda ham vazifalariga sustkashlik, beparvolik bilan istar-istamas yondashishi (erning xotini talab qilayotgan hamma ishlarni bajarishi, biroq mustaqil faollik, tashabbus ko‘rsatmasligi)dan kelib chiqadi. Bu muammoni hal etishda murojaat usulini topish kerakki, unda ayolning xohish-istiklari ham o‘z ifodasini topsin, erkak kishi shaxsiyatining hurmat qilinishi ham ta’milansin. Masalan, “Agar ozgina bo‘lsa ham sizni ro‘zg‘or qiziqtirganida edi, kartoshka olayotganingizda, u bilan birga sabzi va piyoz ham olish kerakligiga farosatingiz etgan bo‘lar edi”, jumlasini “Qanday yaxshi, kartoshka olib kelibsiz. Lekin keyingi safar kartoshka olayotganingizda piyoz va sabzi olishni ham esdan chiqarmang”, tarzida nisbatan konstruktiv mazmundagi jumla bilan almashtirish samarali natija beradi.

Er-xotinlarning bir-birlariga nisbatan bajarib bo‘lmaydigan talablari:

Ba’zi hollarda er-xotinning bir-biriga qo‘ygan talab, istaklarini bajarish imkoniyati umuman mavjud bo‘lmaydi, lekin shunga qaramay, bu talablarning doimo takrorlanaverishi natijasida oilaviy nizolar kelib chiqadi. Aslida, bunday nizolarning tub mohiyatini yanada jiddiyoq shikoyatlar tashkil etadi. Misol o‘rnida quyidagi vaziyatlarni ko‘rib chiqamiz. Ayol erining farzandini bog‘chadan olish uchun borishni xohlamasligidan shikoyat qiladi. Suhbat davomida ma’lum bo‘ladiki, ernenish ish vaqtini ancha kech tugaydi, ayol esa bog‘chaga yaqinroq joyda ishlaydi, bolani bog‘chadan olish unga qulay va engil bo‘lishiga qaramay, ushbu talabni qo‘yishda muttasil davom etadi. Konsultant mijozdan nima uchun eri uchun bu yumushni bajarish noqulayligini bilsa ham amalga oshirishni hadeb qat’iy talab qilishi sababini so‘raganida, u shunday javob qiladi: **“Qo‘yavering, u ham oilasi uchun nimadir qilsin. U ham ota sifatida bola bilan biroz bo‘lsa-da birga vaqt o‘tkazishga majbur!”** Ko‘rinib turibdiki, ayolning fikr-mulohazalari mutlaqo sog‘lom mantiqqa asoslanmagan, chunki otaning farzandi bilan birga vaqt o‘tkazishining boshqa usullari ham mavjud, qolaversa, er oilasi uchun bundan boshqa ishlarni ham qilishi zarur. Balki, bunday nizolarning zamirida boshqa sabab, masalan, qachonlardir bo‘lib o‘tgan dilxiraliklar uchun alamzadalik va bunga javob tariqasida, o‘ch olish uchun atayin bajarish mushkul bo‘lgan talablarni qo‘yish orqali jazolash maqsadi turgan bo‘lishi mumkin.

Er va xotin qarashlari, yo‘l-yo‘riqlari o‘rtasidagi farqlar: Aksar oilaviy yumushlar va majburiyatlar taqsimoti yuzasidan kelib chiqadigan muammolar er-xotinlarning qarashlari va nuqtayi nazarlari o‘rtasidagi farqlar bilan mustahkam aloqadorlikka ega bo‘ladi. Masalan, er oshxona polini haftada to‘rt marotaba yuvish kerak, degan qat’iy fikrda bo‘lsa, xotin mulohazasiga ko‘ra esa bir marotaba yuvish kifoya. Oshxona poli haftada bir marotaba yuvilishi natijasida nizoli vaziyat kelib chiqadi. Albatta, bu arzimagan sabab tuyulsada, lekin ba’zan qarashlardagi farqlar natijasida jiddiy muammolar ham kelib chiqadi. Masalan, bolani necha yoshdan bog‘cha yoki maktabga berish, mehnat ta‘tilini qanday o‘tkazish, jamg‘arilgan pulga nima sotib olish va hokazo masalalar borasida er-xotin orasida ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Bunday qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar oilaviy hayotda ko‘plab topiladi.


Aslida bunday nizolarning tub sababi er-xotinlarning bir-birlarini eshitishni, bir bitimga kelishni bilmasliklaridadir.

¹⁶ Кулбекова Насиба Закировна. “Ёш эр-хотинларнинг оила мухитига мослашувида социо-маданий таъсир омиларининг социологик таҳлили” диссертацияси авторефератдан. – Тошкент, 2021. – Б.13.

Er-xotin munosabatlarida o‘zaro ishonch va yaqinlik tuyg‘usining etishmasligi:

Er-xotin o‘rtasidagi munosabatning o‘zaro ishonch asosida qurilishi oilaviy baxtning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Muloqot – murakkab va ko‘p o‘lchamli jarayon hisoblanadi, shuning uchun ham muloqotdagi qiyinchiliklar haqida gap ochishdan oldin uning ba’zi xususiyatlari haqida mulohaza yuritish lozim. Muloqot jarayonida aytilgan gaplarni tushunish bevosita muloqot darajasi hisoblanadi, lekin aytilgan gapning asl mohiyati “Nima uchun bu gap aytildi?” tarzida kengroq mulohaza qilingandagina ayon bo‘ladi. Er-xotin muloqotining chuqur tahlil etilishida subyektivizmga yo‘l qo‘yilishi ular o‘rtasida tushunmovchiliklar va shubha-gumonlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday vaziyatlar bo‘ladiki, er yoki xotin turmush o‘rtog‘iga nimani, qanday qilish kerakligi haqida o‘z fikrlarini doimiy ravishda uqtirishga harakat qiladi va bu harakatlari uning ishlarni yanada yaxshi va tez bajarishiga yordam beradi deb, hisoblaydi. Turmush o‘rtog‘i esa uning bu xatti-harakatlarini hukmronlikka, ustunlikka intilish sifatida idrok etadi va shunga mos ravishda reaksiya ko‘rsatadi, masalan, uning talablarini atayin bajarmaydi, talablar noo‘rin ekanligi haqida e’tiroz bildiradi va h.k. Bunday vaziyatning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillardan biri esa bildirilayotgan fikrning faqat mazmunini nazarda tutgan holda uning aytishli ohangiga e’tibor qaratmaslikdir¹⁷.

Er-xotinning muloqot jarayonida yo‘l qo‘yayotgan xatolari va kamchiliklarini aniqlash maqsadida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim: ular aslida o‘z gap-so‘zlari orqali nima demoqchi bo‘lgan; turmush o‘rtog‘i uning gaplarini qanday idrok etgan; o‘z fikr va xohish-istikclarini to‘g‘ri ifodalashning yana qanday samarali usullari mavjud va h.k. Ushbu masalalarni muhokama etish jarayonida er-xotinning o‘zaro munosabati ijobiy ko‘rinishda bo‘lmog‘i lozim¹⁸.



2-rasm. Oila va nikoh munosabatlari barqarorligini ta’minalashda ijtimoiy vaqtning ta’siri¹⁹

Oilaviy muhitni ijobiy tomonga o‘zgartirish jarayonida “ijtimoiy vaqt” sotsiologik kategoriya sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy vaqt inson faoliyati orqali jamiyat muhitini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan muddat hajmini ifodalaydi. U voqealar rivoji sur’atiga qarab tezlashish yoki sekinlashish ehtimoli bilan

¹⁷ Шаумаров F, Кодиров У, Хожибоев И. “Оилага психологик ёрдам кўрсатиш асослари”. – Тошкент, 2014. – Б. 1-234.

¹⁸ Liberman R.P. Behavioral approaches to family and couple therapy // American Journal of Orthopsychiatry. 1970. – V. 40.

¹⁹ Кулбекова Н.З. “Ёш эр-хотинларнинг оила мухитига мослашувида социомаданий таъсир омилларининг социологик таҳлили” дис. ... автореферат. – Тошкент. 2021. – Б. 17.

tavsiflanadi. Astronomik vaqtdan farq qiladigan “ijtimoiy vaqt” tushunchasi sotsiologlar E.Jak, T.Xagerstrand, P.A.Sorokin va R.Mertonlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, bu jarayonda, asosan, kishilarning jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi ijtimoiy funksiyalarini bajarish vaqtiga to‘g‘ri keladi²⁰.

E.Jak “ijtimoiy vaqt”ni “kuzatishlar” vaqtidan farqli o‘laroq, “niyatlar davri” deb ta’riflagan²¹. T.Xagerstrand ijtimoiy vaqtini voqealar, narsalar, sharoitlarda vujudga kelgan vaqt sifatida tavsiflaydi²². Ijtimoiy vaqtini hisobga olgan holda P.Shtomka bir necha jihatlarni, xususan, vaqtini anglash darajasi va chuqurligini, uning shakli, o‘tmish yoki kelajakka yo‘nalishini belgilaydi²³.

Bizning fikrimizcha, oila ma’naviyatiga erishish uchun ijtimoiy vaqt ta’sirida ibrat omiliga tayanish zarur. Oilaning kasbiy-intellektual moslashuvi asosidagi yuksalishiga esa, albatta, har bir oila a’zosi o‘zini rivojlantirish orqali erishadi. Bu jarayonda ham har bir inson ijtimoiy vaqt ta’sirida aniq maqsad bilan intilishi zarur. Buning natijasida oilada o‘zgargan oilaviy muhit vujudga keladi va oila mustahkamligiga ichki hamda tashqi salbiy omillarning ta’siri kamayadi, oila barqarorligiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>
2. Кулбекова Н.З. “Ёш эр-хотинларнинг оила муҳитига мослашувида социомаданий таъсир омилларининг социологик таҳлили” диссертацияси авторефератдан. – Тошкент, 2021
3. Шаумаров Ф., Қодиров У., Хожибоев И. “Оиласга психологияк ёрдам кўрсатиш асослари”. – Тошкент, 2014
4. Сорокин П.А., Мертон Р.К. Социальное время: опыт методологического и функционального анализа / Сорокин П.А. // Социологические исследования – 2004
5. Nye F.J. Role structure and analysis of the family. London, 1976.
6. Liberman R.P. Behavioral approaches to family and couple therapy // American Journal of Orthopsychiatry. 1970. V. 40.
7. Wikipedia. The free encyclopedia (2021): <<https://ru.m.wikipedia.org>>

* * *

Pulatova Malohat Rixsibayevna,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasasi o‘qituvchisi

HADISLARDA AXLOQIY QARASHLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq xalqlari adabiyoti tarixida arba‘in asarlar yozish an’ana bo‘lganligi va bu an’ananing o‘ziga xosligi yoritib berilgan. Jumladan, ar’bain an’ansi, uning janr xususiyatlari, nasr va nazmda yaratilgan arba‘inlarning badiiyati uning arab, fors-tojik, turkiy xalqlar orasida keng tarqalganligi arba‘in janrining adabiy an’ana darajasiga ko‘tarilganligi, uning Qur’on va hadislar bilan uzviy bog‘liqligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: “Qur’on” oyatlari, hadislar, arba‘in, “Arba‘in” – “Chihil hadis”, arab, fors, turkiy tillar, an’ana, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy.

Аннотация. В данной статье освещаются традиции написания произведений арбаин в истории литературы народов Востока и их особенности. В данной статье освещаются традиции написания произведений “арбаин” в истории восточной литературы и их особенности. В частности, раскрыты

²⁰ Сорокин П.А., Мертон Р.К. Социальное время: опыт методологического и функционального анализа/ Сорокин П.А. // Социологические исследования. 2004 г. – С. 112-119.

²¹ <https://ru.m.wikipedia.org>.

²² <https://ru.m.wikipedia.org>.

²³ <https://ru.m.wikipedia.org>.

популярность традиции “арбаин”, его жанровые особенности, проза и поэзия среди арабских, персидско-таджикских и тюркских народов, их возведение в литературную традицию, а также показана ее связь с Кораном и хадисами.

Ключевые слова: Аяты Корана, хадисы, арбаин, “Арбаин” – “Чихил хадис”, арабский, персидский, турецкий языки, традиция, Абдурахман Жами, Алишер Навай, Мухаммад Физути.

Annotation. This article highlights the traditions of writing the Arbain's works in the history of Eastern literature and their features. In particular, the popularity of the Arbain's tradition, its genre features, prose and poetry among the Arab, Persian-Tajik and Turkic people, their elevation to the literary tradition, as well as its relationship with the Qur'an and Hadith are revealed.

Keywords: The verses of the Qur'an, Hadith, Arbain, “Arbain” – “Chihil Hadith”, Arabic, Persian, Turkish languages, tradition, Jami, Navai, Fusuli.

Jahon xalqlari bir-birlarining san'ati, adabiyoti, ilm-fani va madaniyati yutuqlaridan bahramand bo'lishi umuminsoniy ma'naviy hamda madaniy qadriyatlarning shakllanishi, insoniyatning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda keng ko'lamli islohotlar olib borilayotgan bugungi kunda barcha sohalar qatori ilmiy merosimizning tarkibiy qismi bo'lgan mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining diniy, ma'naviy, badiiy asarlarini o'rganishda yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. Sharq mumtoz adabiyotida o'ziga xos an'anaga ega bo'lgan buyuk allomalarimizning badiiy-ma'rifiy, diniy merosiga oid ko'p asrlik arba'in qo'lyozma manbalarini, jumladan, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy “Arba'in” – “Chihil hadis” asarlarini o'rganish bugungi avlodlarning ta'lif-tarbiysi va ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom dini o'z taraqqiyoti hamda butun Sharq hududiga keng va chuqur kirib borishi natijasida islom mintaqasi madaniyati doirasidagi xalqlarning tafakkurini ma'naviy qadriyatlarni asosida birlashtirib, mohiyatan barcha musulmon xalqlari uchun yagona bo'lgan yaxlit madaniyatning, xususan, yaxlit falsafa, ilm-fan, badiiy adabiyotning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Islom ensiklopediyasida qayd etilishiga ko'ra, “islom dini dunyo dinlarining biri sifatida insoniyat tamadduni tarixida juda katta rol o'ynadi hamda hozirgacha ijtimoiy hayotning barcha sohalarida dunyo bo'ylab ta'sir o'tkazib kelmoqda. Shu bois ham musulmon davlatlari xalqlarining madaniy merosi va mafkuraviy-ma'naviy qadriyatlari nisbatan qiziqish kundan kun ortib bormoqda”²⁴.

Islom dinining xalqimiz tarixi, madaniyati, urf-odatida tutgan o'rnini xolis baholash maqsadida milliy o'zlikni anglash va ajdodlarimizning boy ilmiy-falsafiy va madaniy-ma'rifiy me'rosini qayta tiklash borasida izchil davlat siyosati olib borilmoqda. Chunki din inson mafkurasi va e'tiqodida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, diniy e'tiqod odamlar uchun zarur ma'naviy ehtiyojdir.

Din insonlarning ma'naviy poklanishi, axloqiy tarbiysi, insoniy komilligi, hayot zarbalariga qarshi kurashidagi tayanchi, xalqlar va millatlar ma'naviy boyligi va boy madaniyatining ajralmas bir bo'lagi, inson ijtimoiy taraqqiyotining uzviy tarkibiy qismi hisoblangan. Din inson ma'naviy shakllanishida uning tabiatida chuqur ildiz otgan insoniy etuklik va barkamollik, insonparvarlik me'yorlaridan biridir.

Islom dini arkonlarini keng targ'ib va tashviq etish maqsadi XII asrga kelib, musulmon sharq xalqlari mumtoz adabiyotida “Arba'in” – “Chihil hadis” asar yozish, ya'ni qirqta hadisni bir erga jamlab, uning ma'nosini avom xalqqa tushuntirib berish, unga sharh yozish an'anaga aylanib bordi.

Qo'lyozma manbalarda barcha arba'inlarning kelib chiqishiga sabab qilib quyidagi hadis keltiriladi: “Mening ummatimdan kimki din amri bilan qirq hadisni yod olsa, oxirat kunida allomalar va faqihlar jamoasidan o'rin oladi”.

Shunga ko'ra, Sharq mumtoz adabiyotida mayjud an'analardan biri bu –muayyan qirqta hadisga nasr yoki nazmda sharh yozish an'anasi. Sharq xalqlari adabiyoti tarixida Puroniy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Muhyayir, Mahmudxon Mahdum, Anvar Hojiaemedov, Shukur Qurbon kabilarning qirq hadis sharhiga bag'ishlangan she'riy “Arba'in” asarlari keng shuhrat qozongan. Adabiy an'ana badiiy asar mavzusi, g'oyasi, uning tuzilishi, janr, vazn, syujet, kompozitsion qurilish kriteriyalariga doir mutazam takrorlanuvchi xususiyatlar majmuyining normaga aylanishi, qonuniyat darajasida amal qila boshlashi negizida shakllanadi.

²⁴ Ислам: Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991. – С. 3-315.

Arba’in ham mumtoz adabiyot davrida, ham zamonaviy davrda an’ana darajasida amal qilgan adabiy shakllardan biridir.

Arba’in – muallif estetik tasavvuri asosidagi hadislarning badiiy talqiniga bag‘ishlangan asar bo‘lib, muallif o‘z mahorati orqali hadislar mazmuni va mohiyatini qayta yaratishga urinadi.

“Arba’in hadis”, “Chihil hadis”, “Qirq hadis” nomi bilan mashhur bo‘lgan hamda diniy arkonlar mazmunini tushuntirishga bag‘ishlangan asarlar ko‘philik Sharq xalqlari shoirlari ijodidan o‘rin olgan.

Mana shunday vazifani bajargan, ya’ni adabiy tarzda shunday solih baholanuvchi amalni bajarib, musulmon ummatiga hadislar mazmunini anglatgan inson mavqeyi e’zozlanib, uning faoliyatiga alohida e’tibor va hurmat bilan qaralgan, uning martabasi ko‘tarilgan va ulug‘langan.

Sharq mumtoz adabiyotida Qur’on va hadislarning mazmun-mohiyati ijodkorlarni qiziqtirgan, ular muqaddas manbalardan ilhomlangan, muqaddas manbalarda keltirilgan g‘oyalar va qarashlar ijodkorlarni yangi asarlar yaratishga undagan va shu tariqa keyinchalik ijod vakillarining axloqiy g‘oyalar aks etgan maxsus asarlari, ya’ni “Arba’in”lar vujudga kelgan. Payg‘ambar (s.a.v.) hadislari va ularga bitilgan badiiy sharhlar sharq adabiyotida qadimdan mavjud bo‘lib, masalan, Adib Ahmad “Hibat ul-haqoyiq” asarida jami 21 hadisning turkiy tildagi she’riy sharhini keltirgan²⁵.

Biz tadqiq qilayotgan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliylarning “Arba’in”lari o‘rta asrlar sharq mumtoz adabiyotida hadislarning she’riy talqini sifatida o‘ziga xos o‘rin egallaganligini namoyon etadi. Ularda mazkur she’riy “Arba’in”larning asoschisi – Abdurahmon Jomiy, deb keltiriladi.

Jomiy tanlagan hadislari Qur’on oyatlari bilan mushtarak ma’noda bo‘lib, qisqa va ravonligi, o‘quvchining yodlashi va tushunishiga qulaylik keltiradi.

Hadislarni sharhlashda, uning ma’no-mohiyatini keng ommaga osonroq etkazishda adabiyotning turli janrlaridan, chunonchi, nazmdan samarali foydalanganlar. Musulmon olamining muqaddas kitobi Qur’on va unga asoslangan hadis kitoblari turli davrlarda katta qiziqish uyg‘otgani bois ularning axloqiy negizi badiiy adabiyotga singdirilib kelingan. Ularning talqin va sharhlari klassik adabiyotda keng o‘rin tutadi. Shu sabab hadislarning she’riy talqinlari o’sha davrdagi arba’in an’analariga xos ravishda mustaqil asarlarga aylandi. Bu “Arba’in”lar adabiyotshunoslikda ko‘p marotaba tadqiq qilingan bo‘lsa-da, har bir hadisning arabiy, forsiy va turkiy matnlari birgalikda tahlil etilmagan.

Hadislarning she’riy sharhini talqin etish asliyat tilini va Qur’on oyatlarining tafsirini mukammal bilgan kishilar tomonidan amalga oshirilgan. Hadislarni to‘g‘ri sharhlashda tafsir ilmini bilish nihoyatda muhim hisoblanadi. Shu bois biz o‘z tadqiqotimizda har bir hadisni quvvatlovchi oyatlarni ham (ko‘rsatib) keltirib o‘tdik.

“Arbain”dagi hadislar o‘zgarmaydi, qo‘lyozmalarda avval asliyatdagagi arab tilidagi hadis keltirilib, undan keyin uning she’riy sharhi qit’a shaklida talqin etilgan.

Birinchi hadis:

النَّظَرُ إِلَى الْمَرْأَةِ إِلَّا جَنِيَّةٌ سَهْمٌ مَسْمُومٌ مِنْ سَهَامِ أَبْلِيسِ

(tarj.: Begona ayollarga tashlangan har bir nazar shaytonning zaharli o‘qlaridan bir o‘qdir).

Jomiyda:

دیدن زلف و خال نامحرم
دانه کید دام ابلیس است
هر نظر نا و کیست ز هر آلد
که زشست کمان ابلیس است

(ya’ni Nomahramning zulf-u holiga qarash iblis tuzog‘idagi hiyla donining urug‘idir. Har bir nazar shayton kamonining otilajak zaharli o‘qidir).

Jomiy hadis mazmunini 4 misrada shunday beradiki, arab tilidagi so‘zlar ketma-ketligi buzilmaydi, birinchi jumladagi “nomahramga qarash” ifodasi qit’aning 1- va 2-misralarida juda chiroyli sharhanadi, ya’ni ayollarning ko‘rki bo‘lgan sochi va xoliga qarash shayton tuzog‘ining hiyla urug‘idir, – deb tamsil

²⁵ Адіб Ахмад Юғнакий. “Хибат-ул-ҳақойик”. Қосимжон Содиков транскрипцияси, талқини ва таҳлилида. – Тошкент: Академнашр, 2019. – Б. 71-104.

san’atidan mohirona foydalaniлади va hadisдаги birinchi jumlada anglashiladigan ma’noning yorqin badiiy tasviriga erishiladi. Bunda ifodalanayotgan ayol yuzidagi “xol” iblisning hiyla urug‘i (don) bo‘lsa, uning “zulfi” iblisning tuzog‘idir. Demak, zulf iblisning tuzog‘i bo‘lsa, unga qo‘yilgan don – ayol zulfi yonidagi dona xolidir. Jomiy bu ikki misra orqali hadis ta’sirini oshiradi va o‘quvchi qalbiga yanada yaqinroq kirib boradi. So‘ngra “har nazar shayton kamonining zaharli o‘qidir”, –deya, arab tilidagi matnning ikkinchi jumlesi hech qanday o‘xshatishlarsiz, nazmiy tarjimada bayon qilinadi. Hadisning asl mohiyati va ta’sir kuchi yuqori saviyada ochib beriladi.

Navoiyda:

Solma ko‘z kimki bo‘lsa nomahram,

Garchi nafsing nazorada sud,

Ki nazarkim harom shaytonning

Novakidur va lek zahrolud.

(ya’ni nomahramga nazar solmagin, bundan nafsing foyda ko‘rsa ham, bu nazar shayton kamonining zaharli o‘qidir).

Navoiy Jomiy talqinidagi uslubni takrorlaydi, biroq birinchi baytni o‘zgacha talqin qiladi va “nomahram ayollarga qarashdan ko‘ngil nafsing bahra olsa ham, ularga qarama”, – deya, “nafs” va “sud” so‘zlarini qo‘llagan holda qit’aning 1–2-misralaridagi badiiy ifodaning Jomiy talqinidan farq qilishiga erishadi. Oxirgi ikki misra esa, Jomiy talqinidagi so‘nggi baytni takrorlaydi.

Fuzuliyda:

Achma ko‘z mahram olmajan juzuna

Ki, bu sevdada hasil olmaz sud.

Bil ki, iblisin oxlarindandir

Har nazar bir xadanki-zahralud.

(ya’ni nomahram yuziga boqmaginki, bu savdodan foyda bo‘lmas. Bilginki, har bir nazar iblis kamonining zaharli o‘qidir).

Fuzuliy hadisni sharhlashda Jomiy va Navoiy talqinidan unumli foydalangani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Fuzuliy ham Jomiy yo‘lidan borib, arab tilidagi matn ketma-ketligini saqlaydi, biroq hadisning badiiy talqinini o‘zgacha ifoda etadi. Fuzuliy ham “sud” so‘zini qo‘llaydi, ammo Navoiydan farqli ravishda “bu sevdada hasil olmaz sud”, – deya sud so‘zining inkor shaklini beradi va bunda “senga mahram bo‘lmagan, begona ayollarga ko‘z tashlama, bu savdodan²⁶ foyda bo‘lmas”, – degan chuqur ma’no anglashiladi. Natijada, Fuzuliy hadis mazmunini 1- va 2-misralarda kengroq ochib berishga erishadi. Arab tilidagi matnning keyingi jumlalari mazmuni qit’aning so‘nggi baytalarida keltiriladi. Demak, Fuzuliy bu she’riy tarjima sharhida Jomiy va Navoiy talqinidagi so‘nggi misralarni takrorlaydi, xolos.

Bir hadisning uch shoir tomonidan amalga oshirilgan she’riy sharhlar tarjimasi uch tilda o‘ziga xos ohangda jaranglagan. Asl matnda, ya’ni hadisda keltirilgan “iblis” so‘zi Jomiy va Fuzuliy tarjima sharhida ham “iblis” deb berilgan, Navoiy esa “shayton” so‘zini beradi. “Iblis” ham, “shayton” ham arabiyo so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’no jihatdan biroz farq qiladi²⁷. Hadisdagi ”المرأة لا جنيبة“ iborasini Jomiy va Navoiy o‘z talqinlarida “nomahram”, Fuzuliy “mahram bo‘lmagan” deb beradilar. Bunda milliy til xususiyatlari o‘z aksini topgan. Bu hadis talqinida Navoiy umumiylukka e’tibor qaratgan bo‘lsa, Jomiy badiiy timsollar yordamida talqinni jonlantirgan, Fuzuliy talqinni keng ma’noda bergen.

Yuqoridagi hadisda bayon etilayotgan ma’noni chuqurroq anglash uchun Qur’onning Nur surasi, 30-oyati mazmunini bilishimiz kerak. Unda “(Ey, Muhammad alayhissalom), mo‘minlarga aytинг, ko‘zlarini (nomahram ayollarga tikishdan) to‘sxinlar”, – deyiladi.

Keyingi hadis:

الجنة تحت اقدام الامهات

(tarj.: Jannat onalar oyog‘i ostidadir).

²⁶ Савдо – 1. кучли эхтирос, берилиш, ишқ, шайдолик; 2. истак, хавас, орзу.

²⁷ X.K. Баранов X.K. – ایلس – شیطان – дьявол; – чёрт, сатана, дьявол, бес, демон. – С.22. Каранг: Ислом энциклопедияси. – Тошкент, 2004. – Б. 265-266.

Bu mashhur hadisni Jomiy shunday talqin qiladi:

سر ز مادر مکش که تاج شرف
کرد از راه مادران باشد
خاک شو زیربای او که بهشت
در قدم های مادران باشد

ya’ni onaga bee’tibor bo‘lma, shon-sharaf toji onaning oyog‘i gardidadir, uning oyog‘i ostidagi tufroq bo‘lginki, jannat onalar qadami ostidadir.

Jomiy hadis mazmunini juda go‘zal tarzda ifodalaydi. Qit‘aning biringchi bayti farzandga nasihat ohangida bo‘lib, “sen onangdan bosh tovlama, chunki sening shon-u sharafing, sog‘-omonliging, kamoling onangning bosgan qadami izining gardidandir deya, tazod san’atidan mohirona foydalanadi. Baytda toj-gard, bosh-oyoq kabi qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, ta’sirchan badiiy timsollarni aks ettirgan. Jomiy 3-4-misralarda biringchi baytdagi ta’sirchanlikni oshirgan holda: “Onang oyog‘i tagidagi tufroq bo‘l, jannat onalar oyog‘i ostidadir,” – deb, hadisning she’riy tarjimasini nozik iboralar orqali beradi.

Navoiyda:

Onalarning oyog‘i ostidadur,
Ravzayi jannat-u jinon bog‘i.
Ravza bog‘i visolin istar esang,
Bo‘l anoning oyog‘i tufrog‘i.

Navoiy hadisning she’riy tarjimasini 1-2-misralarda beradi. Bunda ravzayi jannat, jinon bog‘i kabi arabiylar va turkiy iboralar orqali ta’did san’atini qo‘llab, hadisning badiiy ifodasini kuchaytiradi. 3-4-misralar esa bir qarashda Jomiy talqinining tarjimasidek tuyuladi, biroq Navoiy: “Jannatning eng go‘zal bog‘laridan biri – ravza bog‘ini istasang, onaning oyog‘i ostidagi tufroq bo‘l”, – deydi.

Fuzuliyda:

Analar hurmatin duytun ki, mudam
Gabili-rahmati-ilah olaciz.
Ictak anlar ajag‘i altinda
Kar dilersiz ki, jannati bulasiz,
ya’ni onalarning hurmatini doim joyigi qo‘ying, Alloh rahmatiga erishasiz. Jannatiy bo‘lishni istasangiz, bu istagingiz onaning oyog‘i tagidadir.

Fuzuliy bu hadis ma’nosini juda chiroqli talqin qiladi: “Onalarni hurmat qilgan Alloh rahmatiga muyassar bo‘ladi”, – deya Jomiy va Navoiy talqinida qo‘llangan timsollardan foydalanmaydi, balki “Alloh rahmati” va “istak” kabi o‘zga timsollar orqali hadis mazmunini ochib berishga harakat qiladi. Qit‘aning so‘nggi ikki misrasi Jomiy va Navoiy talqiniga hamohangdir.

Jomiy, Navoiy va Fuzuliy yuqoridaq hadisning she’riy tarjima sharhlarini o‘z ona tillarida talqin qilar ekanlar, unda ifodalangan axloqiy g‘oyaning mohiyatini badiiy timsollar orqali jilolantirib, hadisning ta’sir doirasini kengaytira olganlar.

Bu hadisning ta’siri islom ta’limotidagi ayol – ona timsolida nihoyatda ulug‘lanishi “Biz insonga otanasi (rozi qilishni) amr etdik...!”²⁸ – degan, ilohiy hukm bilan izohlanadi. Ona homiladorlik vaqtidan to farzand dunyoga kelgunga qadar bir qancha mashaqqatlarni boshidan kechiradi. Shu vajdan payg‘ambarimiz (s.a.v.) yuqoridaq hadislari orqali jannatni onalar oyog‘i ostiga to‘shab qo‘yadilar. Demak, Jomiy bu hadisga besabab murojaat etmagan. Musulmon olamida onalarning hurmati farz darajasiga ko‘tarilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislari va ularning mazmun-mohiyati davrlar osha xalq e’tiborining markazida bo‘lib kelgan. Shu sabab oyat va hadislar mazmuni asrlar davomida musulmon xalqlarining milliy adabiyotiga singdirib kelindi. Natijada diniy va milliy ta’limotlar uyg‘unlashib, adabiyotlar mushtarakligi vujudga keldi. Musulmon xalqlari adabiyotining bir-biriga uzviy bog‘liqligi sharq mumtoz adabiyoti rivojiga juda katta hissa qo‘shtan mushtarak asarlar misolida o‘z ifodasini topadi.

“Arba’in” janri badiiy uslubining yuzaga kelganligi badiiy tafakkur va estetik qarashning shakllanishi va rivojiga katta ta’sir ko‘rsatganligini, jumladan, arba’inlar mintaqasi adabiyotida din arkonlari bilan badiiy tafakkur uyg‘unligini vujudga keltirgan tarixiy-adabiy voqelik sifatida o‘zligini namoyon qiladi.

²⁸ “Лукмон” сураси. 14-оят.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ARAYANA Vol. XXIV, 1-2, Jan-Feb. Kabul. P. 1996.
2. Жабборов Н. Алишер Навоийнинг “Арбаъин” асарида маърифий мазмун ва бадиий шакл уйғуллиги // “Алишер Навоий ва XXI аср”: Республика амалий-назарий анжуман материаллари, – Тошкент, 2019. – Б. 556.
3. Имом Муҳиддин Закарий ибн Шараф Нававий. Қирқ ҳадис. – Тошкент: “Моварауннахр”, 2005. – Б.116.
4. Имом Фаззолий. Қирқ ҳадиси Қудсий. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2008. – Б. 44.
5. Мухаммад Фузулий асарлари. II-жилд. – Баку, 1958.
6. Мирзаев А. “Жомий, Навоий, Фузулий яратган 40 ҳадис”. – Баку: “Озан”, 1997. – Б. 90.
7. Наджафов А. Подарок к сороколетию (Опыт исследования поэтического толкования хадисов Джами и Наваи) // Звезда Востока, 2003. – №2.
8. Рустамов Алибек. Шарҳ ва изоҳлар. – Алишер Навоий. Арбаъин. – Тошкент: Мерос, 1991, – Б. 32.
9. Каюмов А., Хасанов Б. Жемчужины мудrosti и tайны «Семи морей». – Тошкент: Abdulla Qodiriy, 2002. – Б. 108.

* * *

Maxmudova M.M.,
*Samarqand davlat chet tillar instituti
pedagogika fanlari doktori, professor*

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH

Annotatsiya. *Oila beqiyos milliy va umumbashariy qadriyatlardandir. Oila mustahkamligini ta’minalash jamiyat asoslarini mustahkamlash bilan barobardir. Global o’zgarishlar asosida so’nggi vaqtarda o’zbek oilasida ma’lum o’zgarishlar yuz bermoqda. Mazkur ta’sirning o’ziga xos ijobiliy va salbiy oqibatlari mavjud. Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik, ruhiy, jismoniy, jinsiy tomonidan to’liq tayyorlash masalalari ma’lum bilim va ko’nikmalarni shakllantirishni taqozo etadi.*

Kalit so‘zlar: *oila, qadriyat, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, yoshlar.*

Аннотация. Семья – одна из уникальных национальных и общечеловеческих ценностей. Обеспечение стабильности семьи равносилен укреплению основ общества. На основе глобальных изменений в последнее время в узбекской семье произошли определенные изменения. Этот эффект имеет свои положительные и отрицательные последствия. Вопросы психологической, умственной, физической, сексуальной подготовки молодежи к семейной жизни требуют формирования определенных знаний и навыков.

Ключевые слова: семья, ценность, национальная ценность, общечеловеческая ценность, молодежь.

Annotation. Family is one of the unique national and values of human. Ensuring family stability is tantamount to strengthening the foundations of society. On the basis of global changes, the certain changes have taken place in the Uzbek family recently. This effect has both positive and negative consequences. Questions of psychological, mental, physical, sexual preparation of young people for family life is require the formation of certain knowledge and skills.

Keywords: family, value, national value, universal value, youth.

Oila beqiyos milliy va umumbashariy qadriyatlardandir. Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy birligi, uning asosi hisoblanadi. Shu bilan birga, oila insoniy qadriyatlar tizimini yuksak darajada shakllantiruvchi institut va ma’naviy axloqiy tarbiya o’chog’i hamdir. Aynan oilada ko’pchilik gumanitar qadriyatlar tarbiyalanadi, o’stiriladi va targ’ib qilinadi.

Oila muqaddasligini ta’minalash jamiyat asoslarini mustahkamlash bilan barobardir. Shu bois O’zbekiston Respublikasida oila asoslarini mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik vazifalardan hisoblanadi.

Har bir xalq va milliy an'analar tarkibida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ammo zamonaviy jamiyatlardagi keskin o'sish sur'atlari, turli ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy inqirozlarning avj olishi, inson zimmasiga yuklatilayotgan rang-barang ijtimoiy vazifalarning ortib borayotganligi oilada juda katta faollik taqozo etadi hamda zamonaviy jamiyatlarda oilaning o'rni hamda vazifalari ko'lami masalasiga ma'lum o'zgarishlar kiritadi.

Oila milliy qadriyatlar maskani hisoblanadi. Yoshlarni oilaga tayyorlash jarayoni har bir millatning madaniy va ma'naviy, ruhiy qadriyatlaridan hisoblanib, xususan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash insoniyat tarixida xalq ma'naviy takomilining eng ulug' va oliv yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Oilaviy madaniyat, oilaviy hayotga ongli kirib borish, oilaviy vazifalarni bajarishga tayyorgarlik, hayotda oila o'rniyuksak qadrlash, oilaga mas'uliyat bilan qarash, xalq ma'naviy merosidagi oila qadriyatlarini o'z zamoni talablari bilan uyg'unlashtirib rivojlantirish har vaqt insonning hayotiy mezoni va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalaridan biri sifatida tan olingen.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasining pedagogik aspektlari mustaqillikning ilk yillardanoq tadqiqotchilarining diqqatini tortib keldi. Yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash tafakkuri aynan mustaqillik yillardida keng rivoj topdi, aholi o'rtasida targ'ib va tashviq etila boshlandi, davlat dasturlarining bosh mohiyatini tashkil qildi.

Mamlakat aholisining yarmidan ko'proq qismimi yoshlarni tashkil qilishi, o'sib borayotgan yosh avlodni jamiyatda mustaqil yashashga tayyorlash vazifasining dolzarbliyi yoshlarni jamiyat hayotiga va oilaviy turmushga tayyorlash ishlarinijadallashtirishni va yangicha mazmunda qayta qurishni talab etdi. Insonlarning o'zaro munosabatlarida keskinliklarning o'sib borayotganligi, zamonaviy ziddiyatlarning inson tafakkuri va ongiga ta'sir etish orqali uning psixologik holatida salbiy va asabiy oqibatlarning vujudga kelayotganligi kabi muammolar yoshlarni oilaga tayyorlash vazifasini to'laqonli olib borish talabini kun tartibiga qo'yadi.

Oilaga nisbatan insoniyat tarixida asrlar davomida shakllanib, e'zozlangan ma'naviy ehtiyojlar tizimi, oilani shaxs ma'naviyatini asrab-avaylaydigan, uning barkamolligi mezonlaridan biri, deb tan oladigan qonun-qoidalar majmuyi sifatida anglash, oilani butun jamiyat va millat taqdirlari hamda taraqqiyotiga bevosita oidligini chuqur idrok etish shaxsning ma'naviy yetukligini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblangan. Chunki oilani muqaddas deb bilmagan inson ma'naviy qashshoq insondir. Oilani muqaddas deb anglash har bir jamiyat a'zosining o'z vijdoni, o'z oilasi va farzandlari oldidagi burchidir.

Global o'zgarishlar asosida so'nggi vaqtarda o'zbek oilasida va oila a'zolari munosabatlarida ma'lum o'zgarishlar yuz bermoqda. Mazkur ta'sirning o'ziga xos ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud. Ijobiy tomoni shundaki, mavjud global shart-sharoitlar va talablar o'zbek oilasining funksionallik jihatdan o'sishi hamda o'z mas'uliyatidagi vazifalarga tayyorligini oshiradi, o'zbek oilasining dunyo hamjamiyati bilan bo'lgan turli aloqadorligini, uning jahon bozori va texnogen o'sishga nisbatan bo'lgan integratsiyasini ta'minlaydi, shu nuqtayi nazaridan o'zbek oilasining davr va zamonga hozirjavobligini oshiradi, oilaning ijtimoiy o'rni nuqtayi nazaridan ma'lum ijobiy transformatsiyaga sabab bo'ladi. Salbiy ta'sir esa globallashuv oqibatida yuzaga kelgan ommaviy madaniyat, turli mafkuraviy tahdidlar, diniy va boshqa turdag'i ekstremizim, rangli inqiloblarning avj olishi, ksenofobiya, mehnat resurslari migratsiyasi va boshqa o'nlab tazyiqlar oilalar tinchligi, ravnaqi, osudaligini buzishi, milliy oilaviy mentalitetning qo'porilishida namoyon bo'ladi. Shu bois bugungi kunda milliy an'analarni oilaviy turmush borasida umumbashariy nazariy bilimlar bilan qo'shib olib borish talab etiladi. Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik, ruhiy, jismoniy, jinsiy tomonidan to'liq tayyorlash masalalari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lum bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni taqozo etadi:

1. Oila salomatligi: oila a'zolari salomatligi bo'yicha birlamchi bilimlarga ega bo'lish, salomatlikni saqlash omillarini bilish, salomatlikni saqlash va umrni uzaytirish usullarini va milliy qadriyatlarni oila hayotiga singdira bilish, milliy tabobatdan xabardor bo'lish, reproduktiv salomatlik mezonlariga amal qilish, to'g'ri ovqatlanish me'yorlariga rioya qilish, salomatlikni saqlashning fuqarolik burchi ekanligini anglash, qariyalar salomatligiga e'tiborli bo'lish, go'dak va emizikli bolalar salomatligi, bolalarni yuqumli kasalliklardan asray olish, oilada tibbiy bilimlarga hurmat va e'tiborning shakllantirilishi, farzandlarni zamonaviy tibbiy tahdidlardan asrash, ularga tibbiy tahdidlar bo'yicha zarur bilimlarni berib borish, bolani ona suti bilan boqish mazmunini anglash, hayotga fiziologik-gigiyenik jihatdan tayyor bo'lish, oilaning ijtimoiy ahvolini yaxshi va ravon saqlash, uni yaxshilash omillarini o'rganish.

2. Oiladagi jinslararo munosabatlar: jinsiy tarbiya asoslari, jinslar psixologiyasi va salomatligi bo'yicha bilimlarni egallah, nikohni ulug'lash, nikohdagi halollik va sadoqat, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni an'anaga aylantirish, ona salomatligiga muqaddas munosabat, farzand tug'ilishi va

uning salomatligi, o’zini va oila a’zolarini zararli ko‘nikmalardan asrash, ma’naviy barkamollik sog‘lom turmush tarzi asosidagi axloq normalari inson psixologiyasi bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lish; psixologik turlarni ajrata bilish, psixologik ta’sir o‘tkazish omillarini egallash, psixologik muvozanat sirlarini egallash.

3. Oila axloqi va estetikasi: oilada o‘zaro munosabatlar va muloqot madaniyati tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, tibbiy va ma’naviy sog‘lomlik, jismoniy va ruhiy barkamollik, yetakchilik va tadbirdorlik, o‘zaro muhabbat,adolat, insonparvarlik, insoniylik, to‘g‘rilik, kamtarlik, samimiylilik, ota-onaga hurmat, mehr-muruvvat, saxovat, bag‘rikenglik, sadoqat, vafodorlik, gunoh ishlardan qochish, sabr-toqat, o‘z va’dasi ustidan chiqish, ilmli bo‘lish, ayollarni qadrlash, iffat, rostgo‘ylik, pokizalik, halollik, himmat va bardoshlilik, xushxulqlilik, shukur, hayo, tejamkorlik, halimlik, viqor, rahm-shafqat, onalik mehri, ma’naviy barkamollik, axloqiy poklik va vafodorlik, mehr va muruvvatga asoslangan oilaviy muloqot madaniyati, jamoat ishlari va oila taraqqiyotida tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, ma’naviy-mafkuraviy sog‘lomlik, inson erkini hurmatlash, har bir insonning takrorlanmasligini tan olish va e’zozlash.

4. Oila a’zolari o‘rtasida oilaviy majburiyatlar taqsimoti va tomonlar huquqlari: oila va oilaviy majburiyatlar, ayol va erkak majburiyatlariga doir zamonaviy stereotiplar, zamonaviy oila va oila a’zolari majburiyatları, oilada kim pul topishi kerakligi, oila mablag‘larini qanday taqsimlash zarur, oila va ovqatlanish talablari, oila a’zolarining huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri anglash, er va xotin huquqlari kafolatlarini bilish, oila huquqi bo‘yicha qonunchilik tizimi bergan imtiyozlardan to‘g‘ri foydalana olish, din, oila va inson huquqlari masalasi, turmush qurayotgan yoshlarning oilalari o‘zaro muvofiq bo‘lishiga erishish, oila qurishda tomonlar erkinligi huquqini to‘g‘ri anglash, ayolning mehnat, dam olish, onalik va bolalik muhofazasi, erkak va ayol mehnat muhofazasi, ayolning homiladorlik bo‘yicha muhofazasi, oila qurish tartibi, shuningdek, ajrim huquqi, ajrim holatidagi tomonlar huquqlari bo‘yicha qonun hujjalarni bilish va amalda qo‘llay olish, oilada gender tenglik, jinslar o‘rtasidagi farqlarni anglash, gender tarbiya masalalarini bilish, gender muhofazasi qonunlarini tatbiq eta bilish.

5. Oilaviy inqirozlar va ularning oldini ola bilish, oilaviy konfliktlar echimiga tayyorlik: oila va konfliktlar, konfliktlar inson hayotining tabiiy xususiyati ekanligi, konflikt oilaviy va ijtimoiy hodisa sifatida, konfliktga nisbatan yoshlarda to‘g‘ri munosabatni shakllantirish, oilaviy inqirozlar va ularga to‘g‘ri munosabat, oilaviy inqirozlarning oldini olish chorralari, konfliktning yaratuvchanlik va buzg‘unchilik xususiyati, oilaviy konfliktlardan chiqib ketish, ularni yengish usullari, konfliktlarni boshqarish, g‘azab va jahlni yengish usullarini bilish, shaxs va oila, oilaning har bir a’zosiga hurmat va e’tibor me’yorlari, shaxs erkinligi, egoizm, egoizmdan qutulish omillari, oilada uning a’zolari munosabatlaridagi uyg‘unlik, shaxs va jamoa munosabatlari, shaxs va oila manfaatlari birligi, oila manfaatlarining ustunligi, shaxsning muloqot madaniyati va ichki dunyosining yetukligi omillari.

6. Oiladagi sog‘lom muhit va oilaviy muloqot: oila va uning osoyishtaligi, oiladagi sog‘lom muhitni muhofaza qilishda barcha tomonlarning mas’ul ekanligi, shaxsiy huquqlarni oila huquqi bilan mutanosib olib bora olish tartiblari, oila a’zolari o‘rtasidagi muloqot, oila boshlig‘i va uning mavqeysi, oila boshlig‘i kim bo‘lishi lozimligi, oila boshlig‘i borasidagi stereotiplar, arning o‘z xotiniga bo‘lgan munosabati tamoyillari, ayolning o‘z eriga to‘g‘ri munosabati tamoyillari, arning kamchiliklari, xotinning kamchiliklari, o‘z kamchiliklaridan qutulish tartiblari, oila va jamiyat munosabatlari, jamiyatda oila mavqeyini saqlash, jamiyat a’zolari bilan bo‘ladigan muloqtlarni to‘g‘ri olib borish, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi mehr-muhabbat tuyg‘ularini rivojlantirishga harakat qilish, oilada muloqot madaniyati, oila ma’rifati, bilim va kitobga muhabbat, oilada shaxs erkinligi, ota-ona va farzand munosabatlaridagi samimiylilik va bir-birini to‘ldirish, oilada ota-ona va farzandga muhabbat qirralari hamda muammolari, mehmon kutish va mehmonga borish odobi, suhbatlashish odobi, farzandlarni jamoada yashashga va jamoada yashash qonun-qoidalariga o‘rgatish, oilaviy hayotga estetik munosabatda bo‘lishga tayyorlash, oila iqtisodiyoti asoslarini tashkil qila bilish, iqtisodiyotni to‘g‘ri yuritishga o‘rgatish, oilani ijtimoiy muhofaza qilish choralarini ko‘ra bilish, oiladagi sog‘lom psixologik va tibbiy muhitning shakllanishida oila a’zolarining majburiyatları va huquqlarini mutanosib belgilash va tashkil qilishga o‘rganish.

7. Oila an’analari va ularga nisbatan yangicha qarash: oila an’analarning kelib chiqish sirlari, oila an’analarni yaratish va ularni ta’minalash, oilaviy an’analarni avlodlarga o‘tkazish, oila an’analarda shaxs barkamolligi o‘rni, oila an’analarda sog‘lom turmush tarzi, sport, jismoniy tarbiya va jinsiy halollik masalalari, oilada bayramlarni nishonlash tartibi, oilaviy an’analarni saqlashga farzandlarni o‘rgatish, oila va sayohat, oila va o‘z o‘lkasi tarixi, geografiyasi, milliy urf-odatlarini o‘rganish, oila an’analardan farzand tarbiyasida foydalanish.

BIRINCHI SHO‘BA.

**ZAMONAVIY OILA
INSTITUTINING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI**



Ismailova Z.,

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti
xotin-qizlar masalalari bo‘yicha
maslahat kengashi raisi, p.f.d., professor*

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGI VA TASHABBUSKORLIGI ASOSIDA MA’NAVIY- AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada axloqiy tarbiya, oliy ta’limda talabalarni tarbiyalashning metod va shakllarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar; ta’lim-tarbiya sohasida tarixda ta’limiy-axloqiy yo‘nalishda yozilgan ko‘plab asarlar tahlili, ularning mazmun-mohiyatini talabalarga singdirish, shu bilan birga, talabalarning Vatanga muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash, mehnatni qadrlashga o‘rgatish, tengdoshlariga bo‘lgan madaniy munosabatlarni rivojlantirish, shaxs sifatidagi nuqtayi nazarini qaror toptirish yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, tarbiya, axloq, odob, ta’limiy-axloqiy yo‘nalish, metod, shakl, tadqiqotlar, oila, oliy ta’lim muassasasi, madaniy munosabatlar, tarix sarchashmalari.

Аннотация. Статья включает исследование нравственного воспитания, методов и форм воспитания студентов в высшей школе, анализ многих работ в области воспитания, образования и этики, их содержания, а также воспитания у студентов любви к Родине, обучение ценить труд, развитие культурных отношений со сверстниками, определены направления принятия решений с точки зрения человека.

Ключевые слова: образование, воспитание, этика, этикет, учебно-этическое направление, метод, форма, исследование, семья, вуз, культурные отношения, история.

Annotation. The article includes research on moral education, methods and forms of educating students in higher education, analysis of many works in the field of education and ethics, their content, as well as cultivating students’ love for the motherland, teaching to appreciate work, developing cultural relationships with peers, the directions of decision-making from the point of view of the person are defined.

Keywords: Education, upbringing, ethics, etiquette, educational-ethical direction, method, form, research, family, higher education institution, cultural relations, history.

Kirish. Jahon ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikalari, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmlari, talabalarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o‘qitish modellari texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilgan interfaol dasturlar ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “XXI asrning Oliy ta’limi” Butunjahon Deklaratsiyasi, UNESCOning “Oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirish” dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, modulli ta’limni tashkil etishga, o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berilgan.

Jahon oliy ta’lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSH, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talabalarning tafakkurini o‘stirish, qobiliyatlarini erta namoyon etish, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o‘qitish, “blended learning” (“aralash o‘qitish”), mahorat darslari, vebinlarlar, evristik usullardan foydalilaniladi. Respublikamizda ko‘pgina olimlar tomonidan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining turli jihatlari o‘rganilgan hamda ushbu tadqiqotlar natijalarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash imkoniyatlari tavsiya etilgan. Bu tadqiqotlarning ba’zilari keng qamrovli bo‘lgan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining ma’lum bir qirrasini tahlil etishga

qaratilgan bo‘lsa, boshqalari ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitishga va turli o‘quv kurslarida yangi usullarini qo‘llashga yo‘naltirilgan, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Ilmiy tahlil. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonini rivojlantirish borasida milliy qadriyatlardan foydalanish yo‘llari va milliy tarbiya asoslari, ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, oliv ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi, ayniqsa, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etish va “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan o‘qitish tizimini takomillashtirish masalalari bo‘yicha V.Karimova [9], N.Dj.Mahmudova [8], O.Musurmanova [10], Sh.Sh.Olimov [11], M.Quronov [12], N.X.Oripova [10], Z.Q.Ismoilova [9], N.A.Muslimov [7], N.M.Ochilova [13], Y.P.Azarov [7], Z.E.Asimova [8]larning ilmiy ishlarida oliv ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi tahlil qilingan.

Binobarin, professor O.Musurmanova tomonidan ishlab chiqilgan hukm-xulosalar ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lsa-da, ularni amalga oishirish metodlariga oid tavsiyalaridagi izchillikka e’tibor qaratish lozim. Talaba-yoshlar ma’naviy madaniyatini shakllantirishga doir shakl va metodlar (konferensiya darslari, seminar dars, munozara darsi, amaliy dars, o‘yin darsi, sayohat darslari, rolli darslar, tarbiyaviy tadbirlar, ekskursiya, davra suhbatlari, kichik guruhlarda ishslash; ma’naviy madaniyatni shakllantirish metodlaridan: muammoli-munozarali vaziyat, qiyosiy-izohli tahlil, badiiy-ma’rifiy asarlar ustida ishslash, ijodiy ish, tushunchali tahlil, mantiqiy tahlil, timsollar tahlili, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni sharhlab o‘rganish, mustaqil ish va h.k.) [10] tizimi ma’naviy-axloqiy tarbiya metodikasi taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Shunisi e’tiborlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya yo‘nalishlarini ta’lim bosqichlari bo‘yicha tasniflash mustaqillik davridagi pedagogik tadqiqotlarning etakchi xususiyatidir. Jumladan, Sh.Sh.Olimov tomonidan kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, shakl va metodlarini nazariy jihatdan takomillashtirish va amaliyotga joriy etishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan yangi tadqiqotda [11] muallifning kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda imkoniyati yuqori bo‘lgan fanlarga e’tibor qaratish, har bir fanning mazmuni va malaka talablari asosida tarbiya usullarini tanlash, dars mashg‘ulotlarida noan’anaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, darsdan tashqari ishlar jarayonida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalari ilmiy-metodik jihatdan ilm-fanning so‘nggi yutuqlari asosida yoritilganligi bilan ajralib turadi.

Z.Ismailovaning ma’naviy-ma’rifiy ishlarida talaba-yoshlar shaxsini axloqiy tarbiyalash masalasiga doir ilmiy ishida [9] Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi asosi g‘oyalar talaba shaxsini axloqiy shakllantirish mezoni sifatida belgilangan. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning asosiy xususiyatlari bo‘lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi, ota-on, mahalla-ko‘y, umuman, jamiyatga yuksak hurmat-e’tibor, millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tiliga muhabbat, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik kabilalar talaba-yoshlar shaxsini axloqiy shakllantirishning asosiy omillari ekanligi e’tirof etilgan. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talaba-yoshlar shaxsini axloqiy shakllantirish modeli ishlab chiqilganligini mazkur dissertatsianing muhim jihatlaridan biri deyish mumkin.


Yosh avlod tarbiyasi, avvalo, pedagogning kasbiy mahoratiga bog‘liq. Shu o‘rinda yurt kelajagi va istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga, uning savyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqligini qayd etish mumkin. O‘qituvchi kasbiy axloq va odob normalarini mukammal egallasagina, o‘z kasbining fidoyisi bo‘la oladi. Bugungi kunda ana shunday fidoyilik har qachongidan ham muhim ekanligi ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini yanada oshiradi.

N.M.Ochilovaning talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish alohida obyekt sifatida o‘rganilgan dissertatsion ishida muammoning nazariy asoslari va xususiyatlari tahlil qilingan hamda bu borada qo‘llanilgan samarali yondashuvlar taqdim etilgan. Tadqiqotda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish modeli ishlab chiqilgan. Bundan tashqari ishda talabalarning axloqiy tarbiyalanganligining joriy holati, pedagogik faoliyat uchun zarur axloqiy fazilatlarning namoyon bo‘lishi masalalari o‘rganilgan bo‘lib, “O‘qituvchi odobi” nomli maxsus kurs tashkil etib, unda “Jamiyatning o‘qituvchi shaxsiga munosabati”,

“O‘qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati”, “Vatanga munosabat”, “O‘z-o‘ziga munosabat”, “Mehnatga munosabat”, “Insonlarga munosabat” mavzulari doirasida pedagog odobi xususiyatlari, munosabatlarda kasb odobi fazilatlarining aks etishi va uning o‘ziga xosligi mavzusida ma’ruzalar tashkil etish g‘oyasi ilgari surilgan.

Bu borada Z.Q.Ismoilovaning “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” nomli ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy eksperimental metodik asoslariga doir ilmiy tadqiqot ishi alohida o‘rin tutadi. Muallif tomonidan barkamol shaxsni tarbiyalash metodlarining xususiy axloqni tarbiyalash metodlari, jamoatchilik orqali xulq-atvorni shakllantirish metodlari, ijtimoiy ong va axloqni shakllantirish metodlari, o‘z-o‘zini boshqarish va tarbiyalash metodlari, rag‘batlantirish metodlariga bo‘linishi tarbiya metodikasining tub mohiyatini tashkil etish orqali talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini alohida qayd qilish mumkin. [9, 31].

O‘zaro fikr almashish. Ilmiy tahlil. Tahlillar asosida talabalarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi orqali ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy bilimlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, ma’naviy faoliyat kabi komponentlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi (1-rasmga qarang).




1-rasm. Ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish komponentlari

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibi sifatida ma’naviy-axloqiy bilimlarning shakllanishi natijasida talabalarda baxt, vijdon, burch, adolat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, shon-sharaf, e’tiqod, sadoqat kabi bir qancha axloqiy kategoriyalar shakllanadi. Ma’naviy-axloqiy bilimlarni o‘zlashtirgan talabada tashabbuskorlik, ijtimoiy faoliyk, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar qaror topa boshlaydi. Ushbu fazilatlarga ega talaba axloqiy me’yorlar talablarini ongli bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar sanalmish ma’naviy meros, urf-odat va an’analarga nisbatan hurmatda bo‘ladi. Ammo ma’naviy-axloqiy me’yorlar haqida bilimga ega bo‘lish, uni tushunish, ezgu fazilatlarni tarkib toptirish hali talabaning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganini anglatmaydi. Insoniylik fazilatları, qachonki, hayotiy tajribalarda aks etib, shaxsning munosabatlarga kirishish faoliyatida yorqin namoyon bo‘lsa, bu uning tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun, avvalo, ma’naviy-axloqiy kompetentli, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, asosiy e’tiborni yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasiga qaratish zarur. Negaki ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan shaxslarsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo‘lmaydi. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda, eng avvalo, millatimiz tarixi va ma’naviyati ildizlariga e’tibor qaratish taqozo etiladi. Turonzaminda azal-azaldan inson ma’naviy kamoloti, axloqiy fazilatlar tarbiyasi ajdodlarimiz diqqat markazida bo‘lib kelganligini yoshlarning chuqur tasavvur qilishlariga erishish zarur.

Ta’lim metodlaridan foydalanish. O’tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlillariga tayangan holda pedagogika oliy ta’lim muassasalarini talabalarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish bosqichlarini quyidagi ko‘rinishda izohlash lozim topildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish bosqichlari

Yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish o‘ziga xos bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda, avvalo, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini to‘g‘ri qo‘ya bilish, ish mazmunini aniqlash, maqsadga erishish uchun tizimli yondashuvni tashkil etish zarur.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi quyidagicha belgilandi: oliy ta’lim muassasalarida izchillik asosida olib boriladigan ta’lim-tarbiya natijasida ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan kasbiy kompetentli mutaxassis tayyorlash.

Yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

1) uzluksiz ta’lim-tarbiyaning har bir bo‘g‘inida ma’naviy-axloqiy tarbiya maqsadiga erishish yo‘llarini izlab topish;

2) ta’lim-tarbiya jarayonida turli ta’sir vositalari orqali yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash;

3) ma’naviy-axloqiy tarbiyada shaxsga yo‘naltirilgan metod va vositalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;

4) yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida anketa so‘rovlarini o‘tkazib, natijalarini qayd etib borish;

5) ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, kompetentli ijtimoiy faol mutaxassis tayyorlashga erishish.

Yoshlarda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni, tashabbuskorlikni, faollikni tashkil etish uchun oliy ta’lim muassasalarida “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanini o‘qitish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya texnologiyalarini hamda hamkorlik ta’limini amalga oshirish muhim sanaladi. Mazkur ta’lim-tarbiya texnologiyalari orqali talaba shaxsini ijtimoiylashtirishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa. Demak, yoshlarda aynan ijtimoiy munosabatlarga kirishish uchun lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy kategoriylar, normalar, qadriyatlar tizimi haqida bilim hosil qilish hamda ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko‘nikmalarining takomillashtirilishi muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanida ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari (suhbat, babs-munozara, muammoli ta’lim) dan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy sifatlarining rivojlanganligini baholash namunali, yaxshi, qoniqarli mezonlari orqali aniqlab boriladi, past ko‘rsatkich aniqlansa, korreksiyalash ishlari amalga oshiriladi, buning uchun talaba bilan individual-psixologik ishlar olib boriladi hamda natijaga erishish uchun harakat qilinadi.

Bu esa, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarini talaba-yoshlarining ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning mantiqiy-tuzilmaviy modelini yaratishga imkon beradi. Bunday zamonaviy ta’lim modeli talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, ma’naviy-axloqiy kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda muhim hisoblanadi. Chunki talaba-yoshlarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish uchun, avvalo, pedagogning o‘zida kompetentlilik rivojlangan bo‘lishi lozim.

Tayanch kompetensiyalar inson kim va qanday kasb egasi bo‘lishidan qat’i nazar, shaxs hayotida, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun egallashi lozim bo‘lgan layoqatlar, qobiliyatlar, hayotiy ko‘nikma va malakalar majmuyidan iborat. Bunda har bir shaxs kommunikativ bo‘lishi, axborot bilan ishlay olishi, shaxs sifatida o‘zini o‘zi rivojlantirishi, ijtimoiy faol fuqaro bo‘lishi, umummadaniy xislatlarga ega va fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lishi nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлнимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз (1-жилд). – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б. 592.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б. 48.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – Б. 56.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б. 488.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшлиарни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жихатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907 қарори.
6. Фарсанхона Д.Р. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларини маънавий-ахлоқий тарбиялаш механизmlари // Ta’lim, fan va innovatsiya, 2019. №1. – Б. 77-81.
7. Азаров Ю.П. Тарбиявий ишлар методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 67.
8. Азимова Н.Э. Бўлажак касб таълими ўқитувчини маънавий-ахлоқий тарбиялаш технологияси (Педагогик йўналишдаги фанларни ўқитиш мисолида). Пед. фан. фал. док. (PhD). ... дис. – Тошкент, 2012. – Б. 178.
9. Исмоилова З.Қ. Маънавий-ахлоқий тарбиянинг назарий ва экспериментал-методик асослари (Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар). – Пед. фан. док. ...дис. автореф. – Тошкент: ЎзПФИТИ, 2006. – Б. 46.
10. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори. ...дис. – Тошкент, 1993. – Б. 364.
11. Олимов Ш.Ш. Касб-хунар коллежлари ўқувчиларини маънавий-ахлоқий тарбиялаш назарияси ва амалиёти. – Пед. фан. докт. ... дис. – Бухоро, 2012. – Б. 286.
12. Қуровон М. Миллий тарбия. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б. 240.
13. Karabayevna I.Z., Riskulova K., Ubaydullayevich A.M., Turayevna I., & Ravshanovna P.N. (2020). The role of electronic pedagogical tools in higher education. Journal of Critical Reviews. Innovare Academics Sciences Pvt. Ltd.
14. Ismailova Z., & Ergashev B. (2019). New information and communication technologies in education system. In E3S Web of Conferences (Vol.135). EDP Sciences.
15. Karabayevna Z., & Raximovich B. (2019). The use of innovation technologies in the formation of students' professional competences. International Journal of Engineering and Advanced Technology.
16. Karabayevna, Z., Musurmanova, A., & Xamroyevich, R. (2019). Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education. International Journal of Engineering and Advanced Technology.
17. Исмаилова З. ва бошқалар. Педагогика. – Тошкент: “Чинор файзи баланд”, 2020. – Б. 334.



Norqulov Xusniddin Dusbekovich,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
katta ilmiy xodimi, ped.fan.nom., dotsent

Jumayev Sherzod Salayevich,
Samargand davlat chet tillar instituti doktoranti

ZAMONAVIY OILA TARBIYASI MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi zamon oilalarida o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashning barcha vositalari, shakl va usullari, bolalar tarbiyasida ota-onalarning er va ayol sifatidagi faollik darajasi hamda zamonaviy oila tarbiyasi natijasida oilaning moddiy, ijtimoiy va barcha mulkiy munosabatlari rivojlanayotganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy oila tarbiyasi, oila, tarbiya, ota-onsa, farzand, pedagogik-psixologik munosabatlar, oila mustahkamligi.

Аннотация. В данной статье описаны все средства, формы и методы всестороннего воспитания подрастающего поколения в современных семьях, уровень родительской активности в воспитании детей в качестве мужа и жены, а также развитие материальных, социальных и имущественных отношений.

Ключевые слова: современное семейное воспитание, семья, воспитание, родитель, ребенок, педагогико-психологические отношения, стабильность семьи.

Annotation. This article describes all the means, forms and methods of comprehensive upbringing of the younger generation in modern families, the level of parental activity as a husband and wife in the upbringing of children and the development of material, social and all property relations of the family as a result of modern family upbringing.

Keywords: modern family upbringing, family, upbringing, parent, child, pedagogical-psychological relations, family stability.

Hozirgi zamon taraqqiyoti har bir shaxsdan vogelikni to‘g‘ri tushunishni, xulosa chiqarishni, axloqiy poklikni va hissiy-asabiy chidamlilikni, jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida mustahkam va faol bo‘lishni talab etmoqda. Ma’lumki, shaxsning bunday ijtimoiy, emotsiyonal, xulqiy va boshqa sifatlariga oila asos soladi, shakllantiradi va kamol toptiradi.

Zamonaviy oilalar mavjud jamiyat bilan uzviy bog‘langandir. Shaharlarning o‘sishi, yashash sharoitlarining yaxshilanishi, xalqning moddiy va madaniy turmush saviyasining oshishi yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashga ta’sir qiladi.

Ma’lumki, iymonlilik, insonparvarlik, diyonat, e’tiqodlilik kabi shaxs mafkuraviy tasavvurlarining asosida yotgan fazilatlar o‘smining, eng avvalo, oilaviy munosabatlar tizimida tutgan o‘rnidan, ota-onsa, oiladagi boshqa katta avlod vakillarining ijtimoiy mavqelari va roli mazmunidan kelib chiqadi. Zero, mafkuraviy tasavvurlar hamda ular asosida shakllanuvchi insoniy fazilatlar shaxsning yaxlit strukturasidagi muhim omillardan hisoblanadi.

Milliy g‘oyani oila muhitida bolaning ongi, qalbiga singdirishning muhim vositasi – bu oilaviy qadriyatlarni saqlash va ilg‘or oilaviy an’analarni kundalik tarbiya tizimiga joriy etish, turmush tarzining bir bo‘lagiga aylantirishdir. Bunda ota-onaning o‘rni va roli bevosita xarakterga ega bo‘lib, faqat sog‘lom muomala va samimiyat muhitigina o‘smining dunyoqarashi shakllanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zero, har bir oilaning muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o‘stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma’naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya’ni ham ma’naviy, ham jismoniy jihatdan sog‘lom, barkamol inson faqat sog‘lom oilada shakllanadi. Oiladagi sog‘lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma’naviy takomilining asosidir.

Zamonaviy oilada bola uch avlod vakillari: ota-onas, buvi-buvalar, ularning qarindosh-urug‘ va tanishbilish, yor-u do‘sstlarining murakkab o‘zaro munosabatlari kechadigan muhitda o‘sib-ulg‘ayadi.

Ma’lumki, zamonaviy-namunali oilalar qonuniy nikohdan o‘tganligi, oilaning to‘liqligi (ota ham, ona ham bor), uch nafardan kam bo‘lmagan farzandga egaligi, ota-onalar va farzandlarning oliv ma’lumotga va ishga egaligi, bobo va buvi bilan istiqomat qilishi, farovon turmush sharoitiga egaligi, jismonan sog‘lom bo‘lishga e’tiborli ekanligi, ma’naviy-psixologik sog‘lom muhitning shakllanganligi, farzandlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash kerakligi kabi mezonzlarga javob berishlari kerak bo‘ladi.

Mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan oila siyosatining tom ma’nosini XXI asr oilasining istiqboldagi rivojlanishi va taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari jamiyat taraqqiyotining kafolatlari to‘g‘risidagi ezgu g‘oyalarimizga hamohangdir. Shunga tayangan holda zamonaviy oilalar rivojlanishiga asos bo‘luvchi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy va tibbiy omillar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- zamonaviy oila jamiyatda ustuvor bo‘lgan demografik tamoyillarga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchlarning subyektiv xohish-irodasiga qaram bo‘lmaydigan, jamiyatning olg‘a rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo‘lgan maskan rolini o‘ynaydi;

- zamonaviy oila milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlar, an‘analar va udumlarning jamiyat rivoji va oila barqarorligiga xizmat qiluvchi jihatlarini ilg‘or, insoniyat taraqqiyotiga aloqador an‘analar bilan uyg‘unlashtiruvchi tabiiy makondir;

- zamonaviy oila insonparvarlik va demokratiya tamoyillarining tom ma’noda jamiyatda ustuvor bo‘lishi va har bir jamiyat a’zosi bo‘lgan fuqaro tomonidan ongli tarzda idrok qilinishi uchun ma’rifat maktabini o‘ynaydi;

- zamonaviy oila umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakatda tinchlik va xavfsizlikning ta’minlanishi uchun ma’naviy qo‘rg‘on rolini o‘ynaydigan ijtimoiy institutdir;

- zamonaviy oila “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi renessans” degan g‘oyalarni o‘z a’zolari ongiga singdirish uchun qulay bo‘lgan mafkuraviy muhitdir;

- zamonaviy oila xalqimizning ma’naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasining eng ilg‘or yutuqlarini o‘zida mujassamlashtiradigan va shu asnodha har tomonlama barkamol sog‘lom avlodni tarbiyalovchi maskandir;

- zamonaviy oila, har bir fuqaroning kuch va iqtidorini o‘z halol va safarbar mehnati orqali ro‘zg‘orning iqtisodiy takomilini ta’minalash, shu orqali jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining samaradorligi va qudratini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlarni makondir. Oila iqtisodini barqarorlashtirishda oilaviy tadbirkorlik, ijara, oilaviy ishlab chiqarish, kasanachilik shakllaridan oqilona foydalanish va oila budgetini yaxshilash, turmush tarzini farovonlashtirish uchun zamonaviy texnika va texnologiyalardan, maishiy xizmat shoxobchalaridan unumli va o‘rinli foydalanadi;

- zamonaviy oila o‘z fuqarolarida yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali insonlarga berilgan huquq va erkinliklarga ongli munosabatini ta’minlovchi, bunda milliy, umuminsoniy va demokratik tamoyillar ma’no-mohiyatini etkazuvchi ijtimoiy institutdir;

- zamonaviy oila o‘zining intellektual salohiyati, aql-zakovati va iqtidori bilan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanish orqali innovatsion kashfiyotlar hamda yuksak texnologiyalarni oila barqarorligiga yo‘naltiruvchi, san‘at sohasidagi sog‘lom ijodiy muhitni ta’minlovchi makondir;

- zamonaviy oila onalar va bolalar reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimi mavjudligini hamda uni takomillashganligini tushunib, sog‘lom tibbiy muhitni yarata olganligidir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tarbiyada buniyodkorlik g‘oyalari bilan birga buzg‘unchi g‘oyalarning ta’siri ham kuchli bo‘ladi. Nazarimizda, zamonaviy informatsion xurujlarning mualliflarida aynan egotsentrizm kuzatiladi va ular o‘zlariga o‘xshash faqat o‘z manfaatinigina ko‘zlaydigan avlod ongini qamrab olishga harakat qiladi. Shuning uchun ham shaxsga psixologik himoya zarur. Psixologik himoya bo‘lishi uchun shaxsda mustaqil fikr bo‘lishi lozim.

Afsuski, zamonaviy yoshlarda G‘arb madaniyatiga qiziqish, milliy urf-odatlarimizga zid bo‘lsa-da, moda ketidan quvishga moyilliik bor. Shu sababli ular Internet va boshqa OAV orqali uzatiladigan turli xil ma’lumotlarni psixologik ekspertizasiz qabul qiladilar. G‘arb madaniyatiga taqlid, mafkuraviy tahdidlarning asl ma’nosini tushunib yetmaslik, umuman, global lashuvning salbiy ta’siri yoshlarda o‘ziga xos gedonistik

psixologiyaning shakllanishi uchun shart-sharoit yaratadi. Gedonizm – bu shaxs va uning xulq-atvori motivlarida faqat nimalardandir lazzatlanish, qoniqish olish va o‘zidagi ichki ruhiy iztiroblardan holi bo‘lishga intilish ustuvor bo‘ladi.

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, hozirgi zamon oilasida emotsiyal va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish funksiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Hatto sof moddiy xarakterga ega bo‘lgan funksiyalarda ham hissiylik ko‘proq tus olib bormoqda. Hissiy, emotsiyal kontaktlarning ahamiyati shahar oilalarida kuchliroq anglanilmoqda. Qishloq oilalari esa uy hayvonlari va tomorqa erlarining borligi evaziga shahar oilalariga qaraganda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchi va ishlab chiqaruvchilik funksiyasini ko‘proq saqlab qolmoqda.

Zamonaviy oila tarbiyasining pedagogik-psixologik asosi o‘zida insonparvarlik, hamkorlik g‘oyalarini ifodalab, bu tom ma’noda mohiyatan o‘zbek oilalarida o‘z ifodasini saqlab qolgan. Bu qadriyat “oilaviy burch”, “hamjihatlik ruhi”, “fidoyilik”, “vatanparvarlik”, “oilaviy qadriyatlarga sadoqat”, “kattalarga hurmat”, “kichikka g‘amxo‘rlik” kabi tushunchalarga asoslanadi.

Hozirgi davrning mohiyatidan kelib chiqib oilalarning ijtimoiy tarkibi ham o‘zgarmoqda, bu esa, o‘z navbatida, oila tarkibida, turmushi va uning qiyofasida jiddiy o‘zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek oilalarida bunday tarkibiy o‘zgarish, yangicha munosabatlar tarixiy tarkib topgan milliy o‘ziga xoslikni yo‘qotishga emas, balki oilalardagi munosabatlarning har tomonlama pedagogik nuqtayi nazardan rivojlanishiga, ko‘p millatli respublikamiz aholisining urf-odatlari, an’analarining uyg‘unlashuviga, mazmunan boyishiga sabab bo‘lmoqda.

Kattalarga hurmat va bo‘ysunish o‘zbek oilalaridagi an’anaviy tarbiya uslullaridan biridir. Oilada bolalarni to‘g‘ri tarbiyalash, ota-onalarning va katta yoshdagи barcha kishilarning namunasi bola shaxsini shakllantiruvchi, uning dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, jamoa orasida o‘zini tuta bilishiga tayyorlovchi omildir. Aynan oila bolani qadam qo‘ydiradi, uning o‘ziga xos xususiyati va ma’naviy qiyofasining shakllanishiga asos soladi. Yosh avlodning qiziqish va tirishqoqligi, mehnatsevarligi, birinchi navbatda, ota-onaga va oiladagi tarbiyaviy holatlarga bog‘liqidir.

Professor O.Musurmanova: **“Oilaning asosi er-xotin yoxud ota-onadir. Modomiki, er-xotin oilaning tamal toshlarini mustahkam bunyod etishga mas’ul ekanlar, ular unda uchraydigan turmush qiyinchiliklari, hayot quvonchlari-yu, tashvishlarini boshdan kechirishda, oilani idora etishda, farzand tarbiyasida mas’uldirlar”** [2],– deb keltiradi.

Hozirgi zamon o‘zbek oilalarining tarbiya jabhalaridagi umumiy va xususiy tomonlarini, vazifalarini bilish nihoyatda ahamiyatlidir. Chunki biz bolalarning bog‘cha va maktabda olayotgan bilimlarini, aqliy qiziqishlarini hisobga olganimizdagina oilaviy tarbiya ishi samaradorligini ta’minlashimiz mumkin. Biz tarbiyaviy vazifalarimiz xususiyatlaridan kelib chiqib, bolalar kamolotiga yakka holda yondashish, aqliy, axloqiy, mehnat, jinsiy tarbiya ehtiyojini shakllantirish, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish malakasi, maishiy mehnat, ijtimoiy mehnatga ma’naviy-ruhiy tayyorlash kabi mezon va qoidalarni hisobga olib ish tutishimiz maqsadga muvofiqdir. Busiz tarbiya jarayonini ijobjiy hal qila olmaymiz.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, zamonaviy oilaviy tarbiya kamchiliklarini keltirib chiqaruvchi sabablar quyidagicha:

- bolalarga kattalar tomonidan diqqat-e’tiborning yetishmasligi, ular bilan muloqotda bo‘lish istagini yo‘qligi;
- ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, hamjihatlik yo‘qligi va unga har ikki tomonlama intilishning yetishmasligi;
- ota-onalarning farzandlarga nisbatan qo‘pol, avtoritar munosabatda bo‘lishi.
- oila muhitida doimiy janjallarning qaror topganligi va ularni kamaytirish uchun harakat va intilish yo‘qligi.
- ota-onalarning beqaror his-tuyg‘ulari, mas’uliyatsizligi, ularning tartibsiz, tasodifiy xarakterga ega ekanligi, ularning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarining o‘zaro mos kelmasligi va tubdan bir-biriga qarama-qarshiligi;
- farzandlar davrasida ota-onalarning salbiy xulq-atvorlari, ularda ichkilik, giyohvandlik va kashandalik kabi illatlarning namoyon bo‘lishi;

- oila muhitidaadolatsizlik, ikkiyuzlamachilik, o‘g‘rilik, poraxo‘rlik, ta’magirlik illatlarining namoyon bo‘lishi;
- ota-onalarning bilim savyalari va madaniy-ma’naviy darajalarining pastligi yoki qarama-qarshiligi;
- oila a’zolarini birlashtiruvchi an’analar, urf-odatlarga amal qilinmasligi;
- ota-onalarining surunkali ko‘rinishga ega bo‘lishi.
- ota va ona o’rtasidagi yoki ota-onalarining surunkali ko‘rinishga ega bo‘lishi.

Hozirgi zamon oilalarida o’sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashning barcha vositalari, shakl va uslublari keng qo’llanilmoqda. Olib borilgan kuzatishlar natijasida bolalar tarbiyasida ota-onalarning er va ayol sifatidagi faollik darajasi turlicha ekanligining guvohi bo‘ldik.

Umuman olganda, hamma oilalar tarbiyasi uchun yaroqli umumiyl formula topish mumkin emas, lekin bolalar tarbiyasi bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalar asosida oilaning umumiyl xususiyatlaridan kelib chiqib, kelajakda kutilishi mumkin bo‘lgan tarbiya natijalarini hisobga olib, maslahat berish mumkin. Masalan, bolalar tarbiyasida oilaviy muhit maxsus ta’sir kuchiga ega. Muhit deyilganda, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, bolalarga ta’sir ko‘rsatish usullari, oilada mayjud bo‘lgan boshqa shakl va uslublar yig‘indisiga aytildi. Oila muhitining mazmuni ota-onalarning, katta yoshdagilari a’zolarining g‘oyaviy-siyosiy ongliliklarida namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, farzandga zamonaviy tarbiya berishda ota-onalarning o‘rnini beqiyos. Demak, ota-onalarga pedagogik bilim berish, oilaviy tarbiya bo‘yicha tajriba almashish, ota-onalarning tarbiyalash ishlariga qizg‘in jalb qilish uchun ularni maktabga, mahallalariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarning bu boradagi eng muhim vazifalari bolalari kamolotini oldindan tasavvur eta olishlari, tarbiya maqsadini aniqlashlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Taфakkur” журнали. 2002 йил, феврал сони.
2. Мусурманова О. Оила маънавияти – миллый ғурур. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2000. – Б. 60.

* * *

Akramova Feruza Akmalovna,

*Nizomiy nomidagi TDPU
“Psixologiya” kafedrasi dotsenti
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

ZAMONAVIY OILA – JAMIYAT RAVNAQINING ASOSI SIFATIDA: IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLAR

Annotatsiya. Maqola zamonaviy oilani rivojlantirishning ijtimoiy- psixologik masalalariga bag‘ishlangan. Zamonaviy oila shakllanishining mezonlari sifatida ma’naviy-axloqiy sog‘lomlik, psixologik sog‘lomlik, ijtimoiy-iqtisodiy sog‘lomlik va jismoniy sog‘lomlikning tarkiblari keltirilgan. Zamonaviy oilalarni ko‘paytirishga xizmat qiladigan zarur tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, zamonaviy oila, namunali oila, oila muhiti, oila muammolari, oila tarbiyasi, oilaviy munosabatlardagi nosog‘lomlik.

Аннотация: Данная статья посвящена социально-психологическим вопросам развития современной семьи. Приведены такие критерии формирования современной семьи как духовно-нравственное здоровье, психологическое здоровье, социально-экономическое здоровье и физическое здоровье. Предложены необходимые рекомендации для развития современной семьи.

Ключевые слова: семья, современная семья, климат семьи, проблемы семьи, семейное воспитание, нездоровые отношения в семье.

Annotation: This article is devoted to the socio-psychological issues of the development of the modern family. Criteria for the formation of a modern family such as spiritual and moral health, psychological health, socio-economic health and physical health are given. The necessary recommendations for the development of a modern family are offered.

Keywords: family, modern family, family climate, family problems, family upbringing, unhealthy relationships in the family.

Taniqli psixolog va psixoterapevt Virdjiniya Satir: “Oila – butun olam mikrokoinoti²⁹. Uni tushunish uchun oilani o‘rganish yetarli. Oilada mavjud bo‘lgan hokimiyat, sirdoshlik, mustaqillik, ishonch, muloqot ko‘nikmalari – hayotdagi ko‘pgina hodisalar kaliti. Agar biz dunyoni o‘zgartirmoqchi bo‘lsak, oilani o‘zgartirishimiz zarur”, – degan fikrlarni bildiradi.

Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” va “Baxt-saodatga erishuv haqida” asarlarida oiladagi muhit hamda baxtga erishish yo‘llari sifatida keraksiz urf-odatlardan, yomon illatlardan voz kechish to‘g‘risida bayon etadi³⁰. Shuningdek, “Baxt-saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (bilim, odob-axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur”ligini ta’kidlaydi. Shu ma’noda oila maskaniga zamonaviy va namunali sifatida qarash jamiyatning asosiy vazifalaridandir.

Yurtimizda zamonaviy oilani rivojlantirish, oilani mustahkamlash borasidagi davlat siyosatining afzalligi shundaki, eng avvalo, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” konseptual g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilganligidir. Bu orqali oilalar manfaatlarini himoya qilinishi ta’minlanadi.

O‘zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o‘xshash tomonlari ko‘p, lekin shu bilan birga, uning o‘ziga xos jihatlari ham yo‘q emas. “Zamonaviy oila modeli”da oila a’zosi bo‘lgan shaxsning erkak yoki ayolligidan qat’i nazar, ularning iqtisodiy va ijtimoiy maqomini oshirish, ota-onalar kasb karyeralarini va oilaviy majburiyatlarini birgalikda olib borish, farzandlariga esa tadbirkorlik va mustaqillikka intilishni singdirib borish kerak bo‘ladi.

Zamonaviy, namunali oilalar ushbu 4 toifa mezonlar asosida shakllantiriladi:

1-mezon. Ma’naviy-axloqiy sog‘lomlik:

- sodiqlik;
- an’analarni davom ettirish va takomillashtirish;
- umuminsoniy va milliy qadriyatlarning uyg‘unligi;
- o‘zaro hurmat, ishonchning mavjudligi;
- odob, andisha, sharm-hayo hislarining shakllanganligi;
- qon-qarindoshlik rishtalarini e’zozlash;
- muomala va kiyinish odobida milliylikning saqlanganligi.

2-mezon. Psixologik sog‘lomlik:

- psixologik bilimdonlik;
- o‘zaro bir-birini tushunish;
- bir-birini qo‘llab-quvvatlash;
- mehr-oqibatlik;
- nizoli vaziyatlarda o‘zini o‘zi boshqara olishi;
- farzandlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash;
- dunyoqarash, e’tiqod va qiziqishlarning mustahkamligi;
- boshqalarning kamchiliklariga nisbatan tolerantlik (bag‘rikenglik);
- boqimandalikni bartaraf etish.

3-mezon. Ijtimoiy-iqtisodiy sog‘lomlik:

- moddiy ta’minotning barqarorligi;
- oila a’zolarining oila budgetiga hissa qo‘sha olishi;

²⁹ Сатир В. Как строить себя и свою семью / Пер. с англ. – Москва: Педагогика-пресс, 1992. – С. 190.

³⁰ Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 224.

- oila a’zolarini to‘g’ri kasb tanlashga yo‘naltirish;
- tejamkorlik va tadbirkorlik, izlanuvchanlik, moslashuvchanlikni shakllantirish orqali mehnatsevarlikni tarbiyalanganligi;
- oiladagi ichki imkoniyatlardan to‘g’ri foydalana olish;
- ijtimoiy faollik;
- moliyaviy resurslarni to‘g’ri rejalshtirish, taqsimlash, yo‘naltirish usullarini bilsish;
- yoshlarni oilaviy hayotga iqtisodiy tayyorlash (turli xil kurslarga jalb etish kabilalar).
- oila a’zolarida kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishning shakllanganligi.

4-mezon. Jismoniy sog‘lomlik:

- har bir mahallada sog‘lomlashtirish punktlarining tashkil etilganligi;
- tibbiy bilimdonligi, savodxonligining shakllanganligi;
- reproduktiv salomatlik haqida tasavvurlarning shakllanganligi;
- sog‘lom turmush tarziga rioya qilinganligi;
- oilaning sanitariya-gigiyena holatining yaxshiligi;
- muntazam tibbiy ko‘riddan o‘tganligi.

Demak, oiladagi sog‘lom va barqaror, osoyishta psixologik muhit; yuksak ma’naviy-axloqiy tarbiya; etarli darajadagi iqtisodiy va maishiy sharoitlar; oila a’zolarining ta’lim yo‘nalishida oliv ma’lumotlilik darjasasi; sihat-salomatlikka alohida e’tibor qaratish zamonaviy namunali oilaning asosiy mezonlari qatoriga kiradi.

Zamonaviy oilalarni tarkib toptirish orqali jamiyatni barqarorlashtirish, yuksaltirishga erishiladi.

Ammo keyingi paytlarda xalqimizga xos bo‘lmagan ayrim illatlar – oilaviy ajrashishlar, turli nizoli vaziyatlar, ishsizlik, oiladagi nosog‘lom muhit, ma’naviy tushkunlik, ehtiyojmandlik, jinoyatga qo‘l urish holatlari kabi omillar notinch, noqobil, kemtik oilalar va qator ijtimoiy-ma’naviy muammolarni kuzatamiz. Ayniqsa, ajrashishlar sonining kamaymayotgani kishida jiddiy tashvish uyg‘otadi. Oilalar barbod bo‘lishiga quyidagi omillar asosiy sabab bo‘lmoqda:

1. *Psixologik omil* – oiladagi og‘ir psixologik muhit, o‘zaro tushunishning yo‘qligi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qo‘yish, bir-biriga befarqlik;

2. *Ijtimoiy omil* – ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotin salomatligining yaxshi emasligi;

3. *Ma’naviy-axloqiy omil* – er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohdan tashqari aloqalari;

4. *Iqtisodiy omil* – turar joy sharoitlarining qoniqarli emasligi, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, ernen oilani ta’milmasligi, mehnat migranti sifatida chet elga ketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilgani, qarzlarni uzolmaslik.

Bunday noxush holatlarni bartaraf etishda oilalar bilan ishslash, farovon oilani jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko‘rish uchun “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tizimi qoshida tashkil qilingan kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlarini yanada optimallashtirish ishlarini olib borish muhim, albatta.

Respublikada 2019-2020-yillarda oilalar bilan ishlaydigan mutaxassislar oila ilmiga maxsus o‘rgatildi. Oilaning ijtimoiy-psixologik muammolarini bartaraf etish orqali oilalarni zamonaviy namunali mezonlar asosida tavsiflash maqsadida kuzatish, so‘rov ishlari olib borildi. Olib borgan tadqiqotlarimiz asosida ma’lum darajada xulosaga kelindi: o‘zbek oilalari o‘z oilalarini zamonaviy, namunali oilalar safida bo‘lishini xohlaydilar. Ammo ayrim shart-sharoitlar, turli omillar bunday xohish amalga oshishining kamayishiga ta’sir etishidan xavotirlanadilar.

Shu bois tadqiqotimizda ba’zi usul va vositalar yordamida zamonaviy oilalar safini kengaytirish bo‘yicha takliflarni o‘rgandik. So‘rov natijalariga ko‘ra, ushbu tavsiyalar olindi:

1. Buyuk allomalar: Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobi, Alisher Navoiy va boshqalar; ma’rifatparvarlar: Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida oila tarbiyasiga oid berilgan g‘oyalardan foydalanish (odob-axloqi go‘zal, jismonan va ma’nan etuk avlodni tarbiyalashning yagona yo‘li barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo‘lmasligini ta’kidlashgan).

2. Oiladagi ijtimoiy-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni barvaqt aniqlash, oilalarga o‘z vaqtida ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish, natijalarini tahlil etib borish.

3. Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, saqlash va rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiya, iqtisodiy, huquqiy bilimlar, tibbiy madaniyatni oshirish, oilaviy munosabatlar psixologiyasi bo‘yicha hududlardagi eng namunali, ibratli oilalarni keng ommalashtirish.

4. Yoshlarni nikohga tayyorlash yuzasidan ochiq muloqotlar, sayyor qabullar va davra suhbatlarini muntazam ravishda tashkil etib borish.

5. Er-xotin, ota-onा, qaynona-qaynota va qudalar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, oilaviy nizolarning oldini olish masalasida joylardagi tashkilotlarning uzviy hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

6. Mahallalarda oilalar bilan ishlovchi mutaxassislarning bilim-ko‘nikmalarini oshirishda huquqiy va psixologik bilimlarga o‘rgatish, oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari faoliyatini samarali tashkil etish.

7. Oila va nikoh, reproduktiv salomatlik, shuningdek, oilalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazib borish.

8. Namunali, ibratli, zamonaviy oilalarni ommaviy axborot vositalarida targ‘ib qilishni tizimli yo‘lga qo‘yish.

Yuqorida qayd etilgan tavsiyalar yurtimizda namunali, zamonaviy oilalarni ko‘paytirish, nochor oilalarni nochorlikdan chiqarish, notinch oilalarni tinch oilalarga aylantirish, yoshlarni oilaviy munosabatlarga har tomonlama tayyorlash kabi muhim vazifalarning bajarilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Нарбаева Т.К. Мустаҳкам оила – миллат таянчи. “Болалар ва ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда оиланинг ўрни”. Халқаро илмий-амалий конференция. – Тошкент, 2018 йил 15 ноябр. – Б. 5.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июнданги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПҚ-3808-сон карори.

* * *

Abdusamatov X.U.,

*“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
ilmiy kotibi, PhD, dotsent*

BOLA SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mакtab yoshigacha bo‘lgan bolalarining oilada shaxs sifatida shakllanishida tarbiyaning ahamiyati, bolada “Men” tushunchasining paydo bo‘lishiga oid psixologik muammolar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: bola, o‘zini anglash, “Men” konsepsiysi, “Men” obrazi, o‘zini o‘zi anglash genezisi, emotsiya.

Аннотация: В статье подчеркивается важность семейного воспитания в формировании личности детей дошкольного возраста, психологические проблемы, связанные с возникновением у ребенка понятия «Я».

Ключевые слова: ребенок, самосознание, концепция «Я», образ «Я», генезис самосознания, эмоции.

Annotation: This article highlights the importance of family upbringing in the formation of the personality of children of preschool age, the psychological problems associated with the emergence of the concept of “I” in the child.

Keywords: child, self-awareness, the concept of “I”, the image of “I”, the genesis of self-awareness, emotion.

Maktabgacha yoshda bo‘lgan bolaning shaxs sifatida rivojlanish jarayoni va uning oilaviy munosabatlar bilan aloqalarini tadqiq etish shuni ko‘rsatadi, maktabgacha yoshda bo‘lgan bolaning o‘zini o‘zi anglash jarayoni juda faol bo‘lib, uning “Men” konsepsiysi shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, D.B.Elkonin, M.I.Lisina, V.S.Muxina va b.). Biroq o‘zini anglash, “Men” konsepsiysi, “Men” obrazi tizimi kabi atama va tushunchalar o‘rtasidagi farqlar bizni aynan nimani tadqiq etayotganligimizni tushunish uchun, umuman, o‘zini o‘zi anglash muammosiga murojaat etishga majbur qiladi. Bizni qiziqtitrayotgan o‘zini o‘zi anglash genezisi muammolarini chuqur ko‘rib chiqishga yaqinroq (yaqindan) yondashish uchun oxirgi paytlarda tobora ommalashib borayotgan fanlararo (transdissiplinar) yondashuvni qo‘llash hamda kelgusi nazariy va eksperimental tadqiqotlarimiz uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi asosiy tushuncha va farazlarning tizimli tahlilini qilishga to‘g‘ri keladi.

O‘zini o‘zi anglash masalasi dolzarb bo‘lib, insonning borliqqa bo‘lgan munosabati, ongi, o‘zini anglashining ijtimoiy, falsafiy asoslari psixologiyadan tashqari sotsiologiya, falsafa fanlarida ham o‘rganiladi. Biz dissertatsiya maqsadlaridan kelib chiqib, uning ijtimoiy borliqqa aloqador xususiyatlari o‘rganilgan ayrim tadqiqotlarga e’tiborni qaratamiz. Psixologiya nuqtayi nazaridan ong insongagina xos bo‘lgan ruhiy aks ettirishning oliy darajasidir. U faolligi, intiluvchanligi, refleksivligi, motivatsion-qimmatli xarakteri va aniqlik darajasi bilan tavsiflanadi, shuningdek, hamkorlikdagi faoliyat ongning tarkibini shakllantiruvchi interiorizatsiya jarayoni tufayli ontogenezning dastlabki bosqichlarida shakllanuvchi, beto‘xtov o‘zgarib turuvchi sensor axborot oqimiga (I.Kantga borib taqaluvchi g‘oya) quyiluvchi barqaror va invariant sxema yoki tuzilmalarini tashkil qiladi. Shu tariqa uning ichki nutqi, predmetlilik va belgili tuzilmalar vositasida ifodalanuvchi ijtimoiy xarakteri kabi asosiy xislatlari bilan belgilanadi (A.V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy).

B.G.Ananyev insonning shaxs sifatida tizimli rivojlanishini to‘rt xil – individ, individual, subyekt va obyekt tavsifnomalariga taqsimlagan. Bunda insonning shaxs sifatida shakllanishi individuatsiya, individualizatsiya, subyektivatsiya va obyektivatsiyadan iborat, ularning mahsuli va shartlari esa shaxsdagi temperament, xarakter, motivatsiya va qobiliyatlarda namoyon bo‘ladi. Bu tuzilmalarning birgalikda mavjud bo‘lishi shaxs shakllanishi jarayonining xususiyatlarini, ulardan birontasining ustunlik qilishi esa – shaxsnинг yo‘nalganlik xususiyatlarini belgilab beradi. Ta’kidlab o‘tamizki, ong o‘zini anglash jabhalari tizimida

insonning shaxs sifatida rivojlanish jarayonini tushunish uchun ba’zida o‘zini o‘zi anglashni ifodalovchi internallik va ongi ifodalovchi eksternallikdan foydalanishi mumkin, bunda ularning birinchisi tashqaridan ichkariga, ya’ni tashqi ijtimoiy muhitdan ichki ruhiyatga yo‘nalgan bo‘lsa, ikkinchisi tashqariga qaragan bo‘ladi. Internallik insonning ko‘ngilli ravishda o‘zi va jamiyat oldiga qo‘yuvchi mas’uliyatini, eksternallik esa uning ijtimoiylashuv, ijtimoiy borliqqa qo‘shilish jarayonlarini aks ettiradi. Bunda internal o‘zini o‘zi anglash his-tuyg‘ular bilan birgalikda tashqi madaniyat ta’siri ostida shakllanadi, eksternal ong faolligi esa nutq va ehtiyoj shakllarida namoyon bo‘lувчи ekstravertlikda ifodalanadi.

Shunday qilib, insonning o‘zini-o‘zi anglashi, o‘zini bilib olishi murakkab muammolardan biri bo‘lib, ilk bora Suqrot tomonidan faqat shaxs ichki dunyosini bilish tamoyili nuqtayi nazaridan o‘rganilgan edi. Shaxsning ongli hayotida o‘zini o‘zi anglashining ahamiyati shundaki, ushbu fenomen odamni amaliy faoliyatga kirishishdan oldin “o‘zingni boshqarishni o‘rganish uchun o‘zingni bilib olishing lozim”, degan tamoyil asosida yashashga o‘rgatadi. R.Dekart ong tushunchasini tashqi dunyonи emas, faqat o‘zinigina aks ettirishga qodir dunyo sifatida ta’riflab, o‘zini bilib olish, ya’ni o‘zini anglash tushunchasini kiritdi. O‘zini o‘zi anglash o‘sha paytda atrof-muhitdan ajralib, o‘zini izolyatsiyalagan holda o‘zini o‘zi kuzatish (introspeksiya)ga teng hisoblangan. Keyinroq V.Vundt o‘zini anglashni his-tuyg‘u elementlaridan tarkib topuvchi va ong mazmunidan ajralib turuvchi ongning bir holati sifatida belgilagan.

Yuqorida nomi qayd etib o‘tilgan mualliflardan tashqari, o‘zini anglash muammolari falsafa va psixologiyaning turli yo‘nalishlari vakillarining asarlarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, bu qatorda Gegel, L.Feyerbax, U.Djems, K.Rodgers, E.Erikson, R.Berns, M.L.Raust fon Vrixt, K.Xorni, M.Kun, T.Makpartlend, Y.Diksteyn, D.M.Bolduin, Ch.X.Kuli, D.G.Mid, P.Jane, I.S.Kon, L.N.Leontev, S.R.Rubinshteyn, B.V.Zeygarnik, V.V.Stolin, A.A.Bodalev, A.B.Orlov, I.I.Chesnokova, V.A.Petrovskiy va boshqalarning ilmiy izlanishlarini ta’kidlash mumkin.

Shuningdek, Sharq mumtoz adabiyotida ham o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi tarbiyalash bilan komillik darajasiga erishish masalasiga jiddiy e’tibor berilgan. Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino: “O‘zimni qanchalik izlasam ham, hech topa olmadim”, – deb yozadi.

O‘rtasrarda yashagan faylasuf, ilohiyotshunos olim Abu Homid G‘azzoliy “Kimiyyo saodat” (“Ruh haqqati”) asarida bir necha boblarni o‘zini anglashning inson uchun ahamiyati haqida yozadi: “Hech narsa o‘zingga o‘zingdan yaqinroq ermas. O‘zingni tanimasang, o‘zgani nechuk tanig‘aysan?” Olim o‘zini tanish, anglash bilan, o‘z kamchiliklarini (nafsimi) yo‘qotish komillik yo‘lidagi dastlabki bosqich deb biladi.

Sharq va G‘arb dunyosi tanigan faylasuf, shoir Jaloliddin Rumiying ta’kidlashicha, “Zamonamiz olimlari (hamma narsani biladilar) o‘zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin bo‘lgan borliq, bu – ularning menligi”, – deb yozishida chuqur ma’no mavjuddir.

G‘azal mulkining sultonini hazrat Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarida ramziy ma’nolarda hamma narsa insonning o‘zida yashiringanligi, o‘zligini izlagan kishi uni topishi mumkinligi ta’kidlanadi.

O‘zini o‘zi anglash muammosi Umar Xayyom, Jaloliddin Rumiy, A.G‘ijduvoniy, A.Yassaviy va boshqalarning asarlaridagi bosh g‘oyani tashkil etsa, A.Qahhor, Oybek, E.Vohidov va boshqa zamonaviy adiblarning ijodlarida ham o‘zlikni anglash motivlarining ahamiyatiga e’tibor qaratiladi. Ularning har biri o‘z asarlarida insonning o‘z mohiyatiga kirib borish jarayonlari mexanizmini o‘rganishga katta e’tibor qaratgan. Bu ilmiy ish va asarlardagi tushunchalarni jamlab umumlashtirgan holda biz o‘zini o‘zi anglash tushunchasini ta’riflash va tavsiflashga harakat qilib ko‘ramiz.

Ilk bolalik davrida bola shaxsining rivojlanishi: Bu davrdagi bolalar, asosan, o‘z xatti-harakatlarni o‘ylab o‘tirmaydilar. Bu xatti-harakatlarni ularning xohish va hissiyotlari asosida bo‘ladi. Bu yoshdagи bolalarning xatti-harakatlari juda o‘zgaruvchan bo‘ladi. Masalan, bolaning yig‘lashi ham, yig‘idan to‘xtashi ham juda oson. Ilk davrda bolada o‘z yaqinlariga – onasi, otasi, buvi-buvalari, tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi. Ilk bolalik davrida bu muhabbat boshqa shaklga o‘tadi.

Endi bola o‘z yaqinlaridan maqtov, erkash olishga harakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobjiy emotsiyonal baholari ularda o‘ziga nisbatan, o‘z layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchni shakllantiradi. U o‘z ota-onasiga nihoyatda qattiq bog‘langan bo‘lib, intizomli va itoatkor bo‘ladi. Ana shu bog‘liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo‘lgan bolalar ko‘proq harakat qiladilar va atrof-muhitni o‘rganishga intiladilar.

Bu davrda bola o‘z ismini juda yaxshi o‘zlashtiradi. Bola doimo o‘z ismini himoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala munosabati uni o‘zini alohida shaxs sifatida anglashni boshlashga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi.

Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab o‘z “Men”ini anglay boshlashi vaqtliroq yoki birmuncha kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o‘zini o‘z xohish va ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo‘lgan manba, deb biladi va bu uning “Menga bering”, “Ko‘taring”, “Men ham boraman” kabi talablarida ko‘rinadi. Uch yoshli bolalar o‘zlarini o‘zgalar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o‘z-o‘zini baholash vujudga keladi.

Shu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo‘lish ehtiyoji yuzaga keladi va bu ularning “o‘zim qilaman” qabilidagi so‘zlaridan namoyon bo‘ladi. 3 yosh krizisi: 3 yoshga kelib bola o‘zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo‘lgan (huquqi bo‘lgan), shuningdek, ular bajara oladigan harakatlarni qilishni xohlaydi. “Men katta bo‘lsam mashina haydayman”, “Men sizga katta tort olib kelaman”, “Mening yuzta qo‘g‘irchog‘im bo‘ladi” kabi xohishlarini o‘z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham barcha xohishlarini bugunoq amalga oshirishga harakat qiladi. Bu ko‘pincha qat’iylik va qaysarlik bilan namoyon bo‘ladi. Bu qaysarlik, asosan, kattalarga qaratilgan salbiy xatti-harakat bo‘ladi. Bola o‘zini mustaqil harakat qila olishini anglagan vaqtdan boshlab unda “O‘zim qilaman” boshlanadi va bu yana qaysarlik hamda o‘jarlik bilan ko‘rinadi. 3 yosh krizisi bola shaxsining ma’lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-harakatlarni qila olmayotganini bilishining natijasi hisoblanadi. Krizis davrida yuzaga keladigan xususiyatlar iroda, layoqatlar va boshqalar uni shaxs bo‘lib shakllanishiga tayyorlaydi.

3-7 yoshgacha bo‘lgan davr bog‘cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga kichik maktabgacha davri (3-4 yosh), kichik bog‘cha yoshi (4-5 yosh), o‘rta maktabgacha davr (o‘rta bog‘cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog‘cha yoshlarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o‘tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarining o‘sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordami orqali amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan, mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog‘cha yoshdagagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqini o‘stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davridir.

Mashhur rus pedagoglaridan biri Lesgaftning fikricha, insonning bog‘cha yoshdagagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog‘cha yoshdagagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzlusiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so‘zlardan bog‘cha yoshidagi bola tabiatining asosiy qonuni bo‘lmish serharakatligini ortiq cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyuştirish kerakligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlanma boshlaydi.

Maktabgacha yoshda bo‘lgan bolaning rivojlanishida emotsiyal jabha muhim omil hisoblanadi. Har qanday xatti-harakat, agar u emotsiya bilan, o‘zaro bir-birining emotsiyal holatini o‘qiy olmasa, o‘z emotsiyasini boshqara olmasa, samarali tarzda namoyon bo‘lmaydi. O‘zining emotsiyasini tushunish va his etish insonning shaxs sifatida o‘sishida, rivojlanishida muhim jarayon hisoblanadi. Emotsiyani anglash hamda uni etkazib berish qiyin jarayon bo‘lib, boladan ma’lum darajada bilim va rivojlanishni talab etadi. Psixologik tadqiqotimizdan ma’lum bo‘lishicha, 95 % 4-5 yoshli bolalar insonning emotsiyal holatini to‘g‘ri idrok eta olishadi.

Shu bilan birga, bolalar osonlik bilan xursandchilikni, hayratlanishni, qayg‘uni anglashadi. Faqatgina 7 % bolalar hayratlanishni yaxshi ilg‘ar ekan. Bolalar birinchi bo‘lib yuzdagi ifodaga diqqatlarini qaratishadi (pantomimikaga nisbatan), keyin esa qo‘l xatti-harakatlariiga e’tibor berishadi. Bola uchun siqilish manbayi hamma narsa hisoblanadi. Ya’ni nima narsaga tegsa, nima narsaga qiziqish bilan qarasa, e’tibor qaratsa, barchasi bolaning bezovtalanishiga olib keladi. Hattoki insonlar bilan o‘zaro munosabatga kirishish (avval yaqin insonlari bilan, keyin bolalar bilan). Bola erkakashni juda yaxshi his etadi vaadolatsizlikni farqlay oladi. Yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, xafagarchilikka g‘azab bilan javob qaytarishni ham biladi. Ertaklarga bolalar real hayotda yashagandek ishonishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исаев И. Алхимия эмоций: немного о природе чувств и страстей. –Москва: Беловодье, 2009.
2. Вайнер М.Э. Профилактика, диагностика и коррекция недостатков эмоционального развития дошкольников. Учебно-методическое пособие. –Москва: Педагогическое общество России, 2006.
3. Пазухина И.А. Давай познакомимся! Тренинговое развитие и коррекция эмоционального мира дошкольников 4-6 лет.: Пособие для практических работников детских садов? – Санкт-Петербург: «ДЕТСТВО – ПРЕСС», 2008.
4. Епанчинцева О.Ю. Роль песочной терапии в развитии эмоциональной сферы детей дошкольного возраста. – Санкт-Петербург: «Детство-Пресс», 2010.
5. Изотова Е.И., Никифорова Е.В. Эмоциональная сфера ребёнка: Теория и практика: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2004.
6. Крюкова С.В., Слободянник Н.П. Удивляюсь, злюсь, боюсь, хвастаюсь и радуюсь. Программы эмоционального развития детей дошкольного и младшего школьного возраста: Практическое пособие. – Москва: Генезис, 2002.
7. Лешли Д. Работать с маленькими детьми, поощрять их развитие и решать проблемы. – Москва: Просвещение, 1991.
8. Жучкова Г.Н. Нравственные беседы с детьми 4-6 лет. Занятия с элементами психогимнастики: практическое пособие для психологов, воспитателей, педагогов. – Москва: «Издательство ГНОМ и Д», 2008.
9. Роджерс К. Р. Консультирование и психотерапия. – Москва, 2000.
10. Сорин А.В. «Практика использования методов песочной терапии». Справочник педагога – психолога. Детский сад. № 7 2012.
11. Т.Д. Зинкевич – Евстигнеева. Основы сказкотерапии. – Санкт-Петербург: Речь, 2007.
12. Юнг К.Г. Конфликты детской души. – Москва, 1997.

* * *

Baratova Shohsanam,
Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabning yuqori sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish, ulardagi kasb tanlash bilan bog‘liq muammolariga echim topish, ularni kelajakka, kasbiy o‘z taqdirini belgilashga tayyorlash masalalari ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: kasb, kasbiy faoliyat, kelajak, mutaxassislik, kasbga yo‘naltirish, kadrlar masalasi.

Аннотация. Данная статья посвящена профориентации старшеклассников, поиску решений их проблем при выборе карьеры, подготовке их к будущему, определению их профессиональной судьбы.

Ключевые слова: профессия, профессиональная деятельность, будущее, специализация, профориентация, кадровые вопросы.

Annotation. This article is devoted to vocational guidance for high school students, finding solutions to their problems when choosing a career, preparing them for the future, determining their professional fate.

Keywords: profession, professional activity, future, specialization, career guidance, personnel issues.

Kasb-hunarga yo‘naltirish muammosi davlat ahamiyatiga ega vazifadir, chunki aynan shu narsa jamiyatning rivojlanishi va taraqqiyotini, mehnat bozorining barqaror mavjudligini, shuning uchun muvaffaqiyatli bandlik va fuqarolarning moddiy farovonligini belgilaydi. O‘z vaqtida kasb-hunarga yo‘naltirish yoshlarning qobiliyatini, moyilligini va iste’dodini o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi, bu ularning xodim sifatida va shaxs sifatida o‘zini o‘zi belgilashi va o‘zini anglashi uchun muhimdir. Kasb-hunarga yo‘naltirish yana bir muhim funksiyani bajaradi –jamiyatning kadrlarga bo‘lgan obyektiv ehtiyojlari va yillar davomida shakllangan yoshlarning subyektiv kasbiy istaklari va intilishlari o‘rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni, yoshlarning mehnat bozoridagi zamonaviy kasblar va tendensiyalar haqida bilimning etarli emasligi va eski qoliplar asosida kasb tanlashiga asoslangan fikrini bartaraf etish yoki minimallashtirish. Bunday hodisalar mehnat faoliyatining turli sohalarida kasb-hunarga bo‘lgan talab va taklifning nomutanosibligini keltirib chiqaradi, bu esa ortiqcha ishlab chiqarish yoki mutaxassislar yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Bu ishsizlik darajasining o‘sishi va professional kadrlar yetishmaydigan sohalarning paydo bo‘lishi va sohalarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bolalar bog‘chasidan oliy ta’limgacha bo‘lgan har qanday ta’lim muassasasining faoliyati, o‘quv jarayonining qurilishi, uning mazmuni, tashkil etilishi va ta’lim berish texnologiyalarini o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning samarali tizimini yaratishga, professional shaxsning yaxlit va uyg‘un shakllanishini ta’milashga qaratilgan.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning boshlang‘ich bosqichi – bu umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinfi bo‘lib, u yosh avlodni ular yashaydigan va ishlaydigan ijtimoiy sharoitlarini maksimal darajada hisobga olgan holda tarbiyalash va o‘qitishga mo‘ljallangan. Maktab sharoitida 1-9-sinfgacha o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalarni shakllantirishi, bolaning ongli ravishda kasb tanlashi uchun sharoit yaratishi, olgan bilimlari asosida ularni ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi bilan tanishtirishi zarur. Kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha o‘quv faoliyati davomida o‘quvchilar kasblar olami bilan tanishadilar [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-son farmonida uzlucksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim xizmatlarining mavjudligi va sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, o‘z-o‘zini o‘qitish

va tizimli malaka oshirish orqali ularning kasbiy mahoratini muttasil oshirib boorish ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida talab qilinishini ta’minlaydi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyul kuni “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-sonli qarori kasbga yo‘naltirish va kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha davlat siyosatining yetakchi yo‘nalishlarini ko‘rsatadi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 11-iyulda PF-5763-son Farmonida quyidagilar oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan:

– zamonaviy axborot -kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarini chuqur o‘zlashtirgan kadrlarni sifatli va yuqori darajada tayyorlashni ta’minalash;

– barcha oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish, mutaxassislar tayyorlash sifati, ta’lim mazmuni va darajasi davlat ta’lim standartlari va malaka talablariga muvofiqligini ta’minalash;

– sanoat va boshqa korxonalarda talabalarning amaliyotini tashkil etish;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali jahon ta’lim resurslaridan, ilmiy adabiyotlar va ma’lumotlar bazalarining elektron kataloglaridan foydalanish;

– xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi hamkorligining qo‘shma dasturlarini amalga oshirish, sohadagi yutuqlarni xalqaro darajada keng yoritish;

– ish beruvchilarning talab va takliflari, ilg‘or xorijiy tajriba, iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o‘zgarishlar asosida mehnat bozorida talab qilinadigan kasb-hunar kollejlarida mutaxassislar tayyorlash uchun o‘quv rejalarini va dasturlarini ishlab chiqishni tashkil etish.

Insonni kelajakka, kasbiy o‘z taqdirini belgilashga tayyorlash bu ta’limning asosiy maqsadi va etakchi vazifasi bo‘lib, uning kelajakdagи taqdiri va uning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq zamonaviy tendensiyalar, yangi texnologiyalar, professional faoliyat talablari va mezonlaridir.

Mutaxassislik va kasb tanlash bu – insonning kelajakdagи hayotining mazmuni va sifatini belgilaydigan muhim qarorlardan biridir.

Shuni ta’kidlash kerakki, kasb tanlash va kasbga yo‘naltirish muammosi nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan. Ko‘p asrlar davomida, an’anaviy ravishda (kamdan kam holatlar bundan mustasno) kam ta’minlangan oilalarda bolalar o‘z ota-onalarining kasblarini o‘zlashtirdilar va davom ettirdilar. O‘zgarishlar faqat mavjud holatlar, noan’anaviy vaziyatlar yoki ijtimoiy to‘ntarishlar yuz berganda, jamiyat tuzilishining jiddiy o‘zgarishi natijasida ba’zi kasblar eskirgan va keraksiz holga kelganida sodir bo‘lgan.

Hozirgi vaqtida ham shuni kuzatishimiz mumkinki, yoshlarning kasb tanlashi kasbga bo‘lgan layoqati yoki ongli qarori asosida, ma’qul kasbning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib, o‘zlari uchun “sinab ko‘rishda” emas, balki moda- tendensiyalari, qisqa muddatli qiziqish asosida, ota-onalarning bosimi yoki do’st va tanishlarning fikrlari asnosida tanlanmoqda.

Biroq ko‘p narsa kasb tanlashning mas’uliyatliligi va jiddiyligiga bog‘liq –mакtabda va universitetdagi motivatsiya va qiziqish, ish joyida muvaffaqiyatli moslashish, ta’lim va keyingi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati, martabaning o‘sish jarayoni, kasbiy faoliyatidan qoniqishi va natijalarga erishishi. Shu o‘rinda o‘z qobiliyatini to‘g‘ri baholash va kasb tanlashda bir qaror qabul qilish juda muhim ahamiyatga ega. Bu kelajak hayotda, mutaxassislikda o‘z o‘rnini topish imkoniyatini oshiradi.

Kasb tanlashda o‘quvchi o‘z qibiliyatini to‘g‘ri baholashi va qaror qabul qilishi juda muhimdir. Bu kelajak hayotda, o‘z ixtisosligi bo‘yicha o‘z o‘rnini topish imkoniyatini oshiradi: bu ularga xato qilish, professional moslashish huquqini beradi. Bu tanlov eng muhim hisoblanib, shaxsning professional taqdirini belgilash jarayonining bosqichidir.

Insonni kelajakka tayyorlashga, kasbiy o‘z taqdirini o‘zi belgilashga va rivojlantirishga yo‘naltirish ta’limning ishlab chiqarish faoliyati va uning tez o‘zgarishi bilan bog‘liq rivojlangan funksiyasini ta’minalashning ajralmas sharti bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu fikrga asoslangan holda ishonch bilan aytish mumkinki, ta’lim va tarbiya, xususan, “kasbga yo‘naltish” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq, chunki o‘qitish natijasida inson o‘z imkoniyatlariga keng ko‘lamda qo‘llashga ega bo‘ladi. Kasbiy faoliyatning tanlangan sohasidagi qiziqishlarini, qobiliyatlarini, moyilliklarini ro‘yobga chiqarishga ega bo‘ladi

Ko‘rinib turibdiki, yoshlarni kasblar olami bilan tanishtiradigan tadbirlar tizimi yoshlар bilan ishlashning ma’lum bir tizimining bir qismi bo‘lib, bu sohadagi psixologik, pedagogik va tibbiy xizmatlar majmuasidir. Kasbni tanlashning o‘z taqdirini o‘zi belgilash va hayot uchun ahamiyati muammosi E.F.Zeyer tomonidan ko‘rib chiqilgan. Klimov, I.S.Kon, D.A.Leontev E.Y.Pryajnikova, A.P.Chernyavskaya va boshqalarning ta’kidlashlaricha, munosib kasb tanlash kelajakda ijtimoiy moslashuvning kafolati bo‘lib, yuqori mehnat unumdarligi ko‘rsatkichini ko‘rsatishi hamda insonning kelajakda o‘zini muvaffaqiyatlari namoyon qila olish shartidir. Shu bilan birga, kasbni noto‘g‘ri tanlash kasbiy sohada ham, inson hayotining boshqa sohalarida ham istalmagan oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi: kasbdan norozilik, ishning tez-tez o‘zgarishi, mehnat unumdarligining pastligi, umuman, hayotdan umidsizlik, oiladagi muammolar, shaxslararo muloqotda, o‘z-o‘zini anglash imkoniyatining yo‘qligi va hokazo. Shuning uchun ham ongli ravishda kasb tanlash muammosini tadqiq etishning ahamiyati juda katta.

Ammo hozirgi vaqtida kasbga yo‘naltirish jarayonini sekinlashtiradigan bir qator muammolar mavjud:

1. Maktab o‘quvchilari, talabalar, hatto xodimlarning o‘zлари orasida kasbiy yutuqlar va muvaffaqiyatlarga noaniq, ko‘pincha soddalashtirilgan, pragmatik nuqtayi nazar.

2. Mehnat faoliyati o‘zini o‘zi anglash tushunchalari bilan bog‘liq emas.

3. Davlat, ta’lim organlari va o‘quv yurtlarining kasbga yo‘naltirish sohasi bilan deyarli kam yoki qisman aloqasi mavjud emasligi.

4. Maktab va bolalar bog‘chalarida bolalarni kasblar olami, mehnat bozori va mehnatga o‘rgatish bilan tanishtirishning puxta o‘ylangan tizimi yo‘q.

5. O‘qish davomida bolalar bilan kasbga yo‘naltirish ishlarining metod va usullari to‘g‘risida ota-onalar, hamda boshqa manfaatdor shaxslarda ma’lumotlarning etishmasligi.

6. Kasb-hunarga yo‘naltirishdagi muammolarni aniqlash va bartaraf etishda turli ijtimoiy institutlarning ko‘rsatmasi va uslubiy yordaming yo‘qligi.

7. Kasbiy faoliyatning ba’zi eskirgan turlariga e’tibor qaratilishi sababli davlat milliy ko‘rsatma va buyurtmalari o‘rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar. Natijada bitiruvchilarni boshqa mutaxassisliklar bo‘yicha ishga joylashtirish, mehnat bozori talablarini qondirmaslik.

Yuqoridaagi kamchiliklarni bartaraf etish va respublikada kasbga yo‘naltirish ishlari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

1. O‘z samarasini namoyon etgan xalqaro tajribadan foydalanish, mahalliy o‘ziga xosliklarni inobatga ilgan holda fanlarning (pedagogik, psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy) kasbga yo‘naltirish jarayoni bilan aloqasini amalga oshirish.

2. O‘qituvchi va mutaxassislarni, individual mutaxassislarni o‘quvchilar va talabalarga kasbiy yo‘naltirish bo‘yicha maxsus kurslar, o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida o‘qitishni tashkil etish.

3. Kadrlar siyosatini takomillashtirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq har xil mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim kvotalarini taqsimlashga yanada ehtiyyotkorlik bilan yondashish.

Bugungi kunda, bozor munosabatlarda asosiy vazifa – maktab o‘quvchilarini ma’lum bir mutaxassislik bo‘yicha ishlashga tayyorlash, kasbni to‘g‘ri tanlashga tayyor shaxsni shakllantirish, ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida kasbiy funksiyalarning harakatchanligi muhimligini anglash va raqobat.

Ishlab chiqilgan va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan tizimli kasbga yo‘naltirish barcha yuzaga keladigan muammolarni hal qilishi va kadrlar taqsimotiga, ularning qobiliyatiga qarab maqbul kasblarni aniqlashga, mehnat resurslarini olingan mutaxassislikka muvaffaqiyatlari moslashtirishga va mehnat ta’limi bilan shug‘ullanishiga katta hissa qo‘shishi kerak.



Shermanova F.D.,

*Qori Niyoziy nomidagi ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktaranti*

ZAMONAVIY OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MEDIATA’LIM MUHITIGA TAYYORLASH

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy oilada maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida mediatexnologiyalarning o‘rni, ahamiyati, sabab va oqibatlari. Ota-onalar mediasavodxonligini shakllantirish va maktabgacha yoshdagi bolalarni mediata’lim muhitiga ijobiy tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy oila, ma’naviy axloqiy tarbiya, zamonaviy ota-onsa, mediata’lim, mediaaxborot, mediamadaniyat, mediamavfsizlik, mediabozor.

Аннотация. В статье, причины и последствия медиатехнологий в воспитании дошкольников в современной семье. Разработаны рекомендации по формированию родительской медиаграмотности и позитивной подготовке дошкольников к среднеобразовательной среде.

Ключевые слова: современная семья, духовно-нравственное воспитание, современные родители, медиаобразование, медиаинформация, медиакультура, медиа безопасность, медиарынок.

Annotation. The article discusses the causes and consequences of media technologies in the upbringing of preschool children in the modern family. Recommendations for the formation of media literacy of parents and positive preparation of preschool children for the media education environment have been developed.

Keywords: Modern family, spiritual and moral education, modern parents, media education, media information, media culture, media security, media market.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq oila institutini mustahkamlashni o‘zining ichki siyosati qilib belgiladi. Ushbu masalaning dolzarbligi taraqqiyotning bugungi bosqichida ham yanada oshib bormoqda. “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur” [1]. Bu vazifalarni amalga oshirishda esa “Oila” ilmiy-amaliy markazi, “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutida alohida tadqiqotlar olib borilmoqda

Oila jamiyatning tayanchi, uning birinchi va birlamchi yadrosi hamda zarrasidir. Har bir bolaning voyaga etishi, shakllanishi va rivojlanishida so‘zsiz oila asosiy o‘rin tutadi. Ongli oila bo‘lib yashash, dunyodagi barcha maxluqot va jonzotlar orasida faqat inson zotiga xosdir [2]. Shunday ekan, uning jamiyatdagi o‘rni, ahamiyati ham muhimdir. Farzandlarning dunyoga kelishi va kamol topishi, oilada olib borilayotgan tarbiya mazmuni jamiyat uchun munosib vorislar bo‘lib etishlari oilaning jamiyatdagi o‘rni beqiyos ekanligidan dalolatdir. Demak, jamiyatning mustahkam bo‘lishi sog‘lom muhitda, tarbiyalari va bilimli ota-onsa bag‘rida voyaga etayotgan munosib barkamol avlodlarga bog‘liq.

Bugungi kunda oila markazlari tomonidan zamonaviy oila tushunchasi ommaga targ‘ib etilmoqda. “Zamonaviy oila modeli”da ayloning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy maqomi oshishi oila ichidagi rollar va oila hayoti me’yorlarining o‘zgarishiga olib keladi. Ota-onsa professional karyerasini va oilaviy majburiyatlarini mutanosib ravishda (tengma-teng) olib boradi. Farzandlarga tadbirkorlik ko‘nikmalari va mustaqil bo‘lish fikri singdirib boriladi. Bu borada Oila institutini mustahkamlash, zamonaviy, farovon va sog‘lom oilalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan farzandlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi va ta’lim olish mezonlari keyinchalik birinchi o‘ringa chiqadi [3].

Global axborot makonida har qanday mediaaxborotga ochiq kira oladigan resurslarga to‘lib-toshgan jamiyatda bolalarimizning asosiy vaqtлari oila davrasida kechar ekan, har bir ota-onsa o‘z farzandlarning axborot asri muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan mediaga nisbatan o‘z munosabati, ularning xizmatlaridan foydalanish holatlari, darajasi (uzoq yoki kam vaqt), shuningdek, ularning aynan qanday axborot, teleko‘rsatuv

va internet xabarlari yoki xizmatlari qiziqtirayotganliklaridan xabardor bo‘lishlari zarur [4]. Shunday ekan, har bir ota-onadan o‘z farzandining media bilan munosabatini to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha ta’lim muassasalaridan amaliy-metodik yordam olish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Axborot asrida har qanday zamonaviy ota-onasi o‘z farzandi tarbiyasi bilan muntazam shug‘ullanishi uchun:

- oilaviy tarbiyaning o‘ziga xos zamonaviy va ta’sirchan metodlari haqida bilimlarning etishmasligi;
- farzand tarbiyasidagi pedagogik va psixologik bilimlarning etishmasligi;
- ota-onalarning “mediamadaniyat”, “mediabozor”, “mediatexnologiya” va “mediaxavfsizlik” bo‘yicha bilimlarining yetishmasligi.

Aksariyat oilalarimizdagi ota-onalarimizda ushbu bilim, ko‘nikma va malaka etarli darajada shakllanmaganligi bois yoshlarimizni kundalik media hayotdan qay darajada foydalanishi bo‘yicha ularga to‘g‘ri ko‘rsatma berishda muammolarga duch kelmoqda.

Turli axborot vositalari orqali kirib kelayotgan ma’lumotlarning barchasi ham tarbiyalanuvchining qobiliyatlarini, ma’naviy darajasi, madaniyatini yuksaltirishga xizmat qila olmaydi. “Bolalarni bizning gap-so‘zlarimiz emas, balki xatti-harakatlarimiz tarbiyalaydi”, – degan Makarenko ayni haqiqatni so‘zlagan edi [5].

Zamonaviy axborot asrida bolalar ilk bolalik davridanoq kompyuter, planshet, smartfon kabi mediavositalardan foydalanishni o‘zlashtirib olishgan. Ayniqsa, hozirgi kunda, murg‘ak go‘dakning qo‘liga uyali telefon tutqazishni odat qilgan “shuni ko‘rsa jim o‘tiradi, to‘polon qilmaydi”, “qo‘shnimning ikki yoshli bolasi telefonni bemalol ishlatadi”, “bu zamon talabi, bilmasa orqada qolib ketadi”, deb fikrlovchi zamonaviy ota-onalarimiz juda ko‘p uchraydi. Farzandga ortiqcha mehr ko‘rsatish, uning barcha istaklarini muhayyo qilish, aksincha, unga butkul e’tiborsiz bo‘lish, uning yurish-turishi bilan qiziqmaslik bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirib virtual olamga kirib ketishlariga olib kelmoqda.

Ota-onaning farzandlarga ta’siri quyidagicha:

- ota-onalar hayotiy tajribaning asosiy manbayidir;
- ota-onalar farzandining xulq-atvoriga jazolash yoki rag‘batlantirish usullari orqali ta’sir qiladilar;
- farzand jamiyatda o‘zini tutish asoslarini ota-onasidan o‘rganadi;
- oila bolaning tashqi dunyoda va uni o‘zlashtirishida xavfsizlik tuyg‘usini ta’minlaydi;
- oiladagi muloqot bolaning o‘z qarashlari, me’yorlari, qoidalari va g‘oyalari shakllanishida asosiy omil hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadi, maktabgacha yoshdagagi bolalarning ota-onalarning tashabbusi bilan 2 yoshdan boshlab mediavositalarning faol foydalanuvchilari bo‘lib, 3yoshdan boshlab mustaqil o‘zlarini tanlash huquqiga ega, 5 yoshdan boshlab kompyuter va internet tarmog‘ini o‘rganmoqdalar.

Bugungi kunda farzandlarimiz hayotini mediatexnologiyalarsiz tasavvur etib ham, bu vositalardan ularni taqiqlab ham bo‘lmaydi. Ko‘zlangan maqsad bolalarni pedagoglar va ota-onalari tomonidan axborotga ega bo‘lishlari, samarali va to‘g‘ri foydalanishlari, zamonaviy oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mediata’lim muhitini ijobjiy yo‘lga qo‘yish, bolalarning mediata’lim texnologiyalari asosida intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etmoqda.

Buning uchun esa biz:

- oilada ota-onalarning mediasavodxonligini aniqlash;
- mediabilimlarini shakllantirish uchun maqsadli va manzilli chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi va pedagoglarning mediasavodxonlik darajasini aniqlash;
- tarbiyachi va pedagoglarning mediakompetentligini oshirishda pedagogik asoslarini ishlab chiqish;
- oilada ota-onalar farzandlari bilan global tarmoq mediavositalaridan qay darajada, nima maqsadda foydalanayotganliklarini aniqlash;
- mazkur masalalarda pedagogik-psixologik ko‘rsatmalarni ishlab chiqishimiz muhim hisoblanadi.

Mutaxassislarining fikricha, mediata’lim o‘quvchi, bolalarni mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Ta’lim jarayonida mediata’lim qanchalik mukammal bo‘lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mediata’lim ko‘rish va tinglash orqali o‘qitish (eski usul)ning yangi shakli, chunki bu texnologiya bir vaqtning o‘zida ma’lumotlarni taqdim etishning turli usullarini: matn, grafika, raqamlar, animatsiya, video, musiqa va ovozdan foydalanishga imkon beradi. [6]

Maktabgacha yoshdagagi bolalarga media vositalari orqali ta’lim va tarbiya berish uchun, I.Donina va A.Gopkinaning fikriga ko‘ra, keng qamrovli tayyorgarlik zarur bo‘lib, ushbu jarayon uch bosqichdan iborat [7]:

Texnik bosqich – kompyuterda ishslashning asosiy ko‘nikmalarini shakllantirish;

Metodik bosqich – elektron ta’lim resurslarining didaktik xususiyatlarini o‘rganish, pedagogni yangi texnologiyalardan o‘quv jarayonida foydalanishga o‘rgatish;

Falsafiy-dunyoqarashli bosqich – pedagogning mediaaxborot texnologiyalariga nisbatan munosabatini o‘zgartirish, mavjud qo‘rquv va yangiliklarni qabul qilmaslik hissini engib o‘tish.

Oilada maktabgacha yoshdagagi bolalarni tarbiyalashda ularning mediasavodxonligini oshirishda otonalarga quyidagi tavsiyalarni beramiz:

- Farzandlaringiz bilan suhbatlashib ko‘ring. Siz uyda bo‘limgan paytingiz nima ishlar bilan shug‘ullanadi, qancha payt televizor ko‘radi, ularni nimalar qiziqtiradi va hokazo.

- O‘zingiz o‘rganing va farzandlaringizga ham o‘rgating.

- Internetdan foydalanish tartibini o‘rgating.

- Farzandlaringizga taqiqlangan ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat bermang.

- Farzandlaringizga ehtiyojkor bo‘lishni o‘rgating.

Bolalarning mediatexnologiyalarga qaram bo‘lib qolmasliklari uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- Bolalar xonasiga imkon qadar televizor qo‘ymaslik.

- Bolalar ma’lum bir dasturni tomosha qilgandan so‘ng uni o‘chirib qo‘yish. Ayniqsa, ovqatlanayotganda va uy vazifasini bajarayotgan vaqtida.

- Bolalarga multfilm, kino yoki ko‘rsatuvlarni tanlashda yordam berish.

- Ekran vaqtini cheklash.

- Kompyuterni bilim olish vositasi sifatida singdirish.

- Kompyuter yoki uyali telefonda imkonlari boricha o‘yin o‘ynashni taqiqlash, mantiqiy, arifmetik va nutqni o‘stiruvchi o‘yinlardan foydalanish hamda o‘yin vaqtini cheklash.

- Bolani yorqin qiziqarli voqealar bilan ta’minalash (kitoblar o‘qib berish, bolalar tomoshalariga, istirohat bog‘lariga, teatr, muzeylarga olib borish).

Yuqorida fikrlarimizni ilmiy asoslashda, ya’ni bugungi kunda mediata’lim texnologiyalarning dolzarbliji haqida pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov [8] ta’biri bilan aytganda, ba’zan “internet”, “media”, “mediatexnologiya” deyilganda qovog‘imiz solinadi. Bular, albatta, yomon-da, deymiz. Aslida ham shundaymi? “Media” lotinchada vosita, o‘rtada turuvchi degan ma’nolarni beradi. U – *ma’naviy* (axborot, bilim) *ehtiyojlarini* qondirish vosita. Pichoq, olov, suv kabi xolis vosita. Vrachning qo‘lidagi pichoq bemorni sog‘ qiladi. JinoLatchining qo‘lidagi pichoq esa sog‘ni bemor qiladi. Olovning yo‘g‘i odamni muzlatsa, ko‘pi kuydiradi. Ko‘p suv g‘arq qilsa, suvsizlik qaqratadi. Media ham shunday. Agar me’yorda, kompetentli foydalanilsa, media donolar uchun – bilimlar manbayi. Nodonlar uchun – balolar manbayi. Demak, gap mediada emas, undan foydalanuvchilarda, aniqrog‘i har bir yigit-qizning mediamama’naviyatiga bog‘liq bo‘lib chiqyapti.

Britaniyalik mediapedagog D.Bukingemning fikrida jon bor. U “axborotlashgan jamiyatda” yoshlar, albatta, mediamahsulotlarni passiv qabul qilishadi va mediamateriallarning qurbanlariga aylanishadi”, deyishadi. Biroq mediapedagogika bolaning o‘zini markazga qo‘yadi. Boladagi mediabilim va tajribaga tayanadi”, deydi.

Xorijiy tadqiqotlar mediata’lim asosida maktabgacha katta yoshdagagi bolalarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, talqin va tahlil qilish, baholash, xulosa, qaror, hukm chiqarish kabi ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslab berishdi. Mediata’lim bolalarda axborotni turli shakllar va janrlar asosida tahlil qilish, baholash va shunday axborotlarni yaratish imkonini yaratadi. Bunda bola mediamatnlarni tahlil qilib, rostni yolg‘ondan, muhimni nomuhimdan, tor yondashuvni keng yondashuvdan ajratish qobiliyatini qo‘lga kiritadi.

Shunday ekan, yoshlarga media mahsulotlarni tanlash va foydalanishni o’rgatish bugungi kunning asosiy shartlaridan biriga aylandi. Biroq muammo shundaki, ota-onalar, hatto ba’zi o‘qituvchilar ham o‘z bolalariga mediamadaniyatni (kattalarga salom berish, choy quyib uzatish, sochni turmaklash kabi) o‘rgata olmaydilar. Buning ustiga axborot texnologiyalarining shitobi shunchalar tezki, unga yoshlarning o‘zlari ham zo‘rg‘a etib olishayotir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi axborot asrida har bir ota-onan o‘z farzandini mediamadaniyatini shakllantirishi, mediabozorga tayyorlashi, mediaxavfsizligini ta’minlashi va mediatexnologiyalardan unumli foydalana olishi kabi kompetentlikka ega bo‘lishi juda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Qolaversa, bolalarda mediasavodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish muammosi bo‘yicha O‘zbekiston sharoitida ham bir qator ijtimoiy institutlar va oila markazlarida alohida tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq bizning kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, oilalarda, maktabgacha yoshdagি bolalalarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalar asosida rivojlantirish kabi pedagogik omillar esa ushbu tadqiqotlarning eng dolzarb yo‘nalishiligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев М.Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 ж. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б. 281
2. Нажмиддинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. – Тошкент: “Адолат”, 2016.
3. Ташмуҳамедова Д., Д.Каримова, Б.Мавлонов. Ўзбекистонда замонавий оила.
4. (Ижтимоий тадқиқотлар натижалари асосида). / Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент: “Yurist-media markazi”, 2019.
5. Рустамова Н. “Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари медиамаданиятини ривожлантириш” мавзусидаги дис. автореф. – Тошкент, 2019.
6. Фатьянов В.М. Роль Интернета в современном коммуникативном пространстве Российской молодежи: социокультурный аспект// Ежеквартальный научный журнал «Вестник АГУ», Выпуск 2(199), 2017.
7. Федоров А.Б. Медиаобразование в зарубежных странах. – Таганрог: Изд-во:Кучма, 2003. – С. 238.
8. Донина И.А., Гопкина А.Н. Модель формирования готовности педагогов дошкольной образовательной организации к продвижению образовательных услуг // Санкт-Петербургский образовательный вестник. 2018. № 4-5 (20-21)
9. М.Қурунов. Интернет содда ёшларни қопқонга тушириш, медиа фирибгарлик майдони ҳамдир. “Психология” журнали, 2019. 3-сон. – Б. 47-48.



Bayjonov Furqat Baxramovich,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

O‘SPIRINLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada keyingi yillarda o‘spirlarda kasb tanlash motivatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan ulkan islohotlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: motiv, o‘spirlar, kasb, model, maorif, bilimlar, ko‘nikmalar, malaka.

Аннотация: В статье предоставлена информация об огромных реформах, которые были проведены за последние годы для изучения специфики карьерной мотивации подростков.

Ключевые слова: мотив, подросток, профессия, модель, образование, знания, умения, квалификация.

Annotation: The article provides information about the huge reforms that have been carried out in recent years to study the specifics of career motivation for adolescents.

Keywords: motive, teenager, profession, model, education, knowledge, skills, qualifications.

Hozirgi kunda juda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog‘ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o‘z ustida ishlashi, o‘z mukammalligi xususida qayg‘urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Bunday dolzarb masalani har tomonlama hal etishda yoshlarni kasbga yo‘naltirishning ahamiyati katta hisoblanadi. Yoshlarni kasbga yo‘naltirish uchun yoshlar psixologiyasini bilish, o‘z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorgarlikni ta’minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro‘y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to‘g‘ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari suradi.

Pedagogika va psixologiya fanlarida o‘quv hamda kasbiy faoliyatning motivlari tarkibi yetarlicha ishlab chiqilgan. Lekin o‘quvchilar va ishlayotgan yosh mutaxassislarining ijtimoiy-kasbiy yo‘naltirish bilan bog‘liq kasbiy motivatsiyaning mazmuniy tomonlari hozirgacha yetarlicha o‘rganilmagan.

Adabiyotlar va tadqiqotlar natijalari quydagi kasbiy-ahamiyatli sabablarni ajratib olish imkonini beradi:

- kasb va o‘quv muassasasini tanlash sabablari;
- o‘qish, o‘quv kasbiy faoliyat sabablari;
- ish joyini tanlash sabablari;
- mehnat (kasbiy faoliyat) sabablari;
- kasbiy o‘sish va martabasining oshish sabablari [1].

Kollej o‘quvchilarining motivatsiyalash tizimining shakllanishi ko‘proq maktabda shakllangan o‘qishga, bilimlarni egallashga bo‘lgan munosabatga, bo‘lajak, kasbga va kasbiy faoliyat vazifalari va mohiyatini tushunishga bo‘lgan munosabatga bog‘liq. Kollejda o‘qish davomida kasb tanlash va “kasbiy motivatsiyaning” shakllanishi o‘quvchilar ongida aks etgan aniq ijtimoiy-kasbiy yo‘nalish ta’sirida ham shartlanadi, ya’ni:

- jamoatchilik fikri bo‘yicha kasbning nufuzi;
- mazkur kasb bo‘yicha iste’molchilar uchun mehnat natijalarining (mahsulotlar, xizmatlar) ahamiyati;
- mehnat bozorida kasbga (nomutaxassislikka) bo‘lgan talab;
- katta maosh olish imkoniyati;
- kasbiy faoliyatning ijodiy xususiyati;
- mazkur kasbga bo‘lgan qiziqish va yaxshi mutaxassis bo‘lishga intilishi;
- kasbiy o‘sish, mehnatda martaba oshirish istiqbollari [2].

Yoshlarni kasbga yo‘naltirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligidan kelib chiqqan Sharq mutafakkirlari (Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar)ning qarashlari alohida ahamiyatga ega.

N.P.Krilov tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, o‘z niyatlarini amalga oshirish maqsadida oliv o‘quv yurtlariga kirgan talabalarning ko‘pchiligi o‘zining kim bo‘lishini oxirigacha hal qila olmaydi. Bunga sabab matabnini bitirgan o‘smirlarni mazkur oliv o‘quv yurtiga olib kirgan kasb haqidagi tasavvurlari bilan bu kasbning haqiqiy mazmuni o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir [3].

Tabiiyki, bugungi yoshlarning ko‘pchiligidagi o‘zlarining kasbiy taqdirlarini tasodifan hal etishlari ma’lum ma’noda murakkab kechinmalarga, tanlagan kasb sohasi yuzasidan ikkilanishlarga, ichki nizolarga olib kelmoqda. Jumladan, A.N.Leontev talqinidagi shaxs, faoliyat, ong va ijtimoiy faoliyoti o‘rtasidagi psixologik mutanosiblikning mavjudligi shaxs munosabatlari tizimining psixologik mexanizmlari yaratilishida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. V.D.Shadrikov esa munosabat motivatsiyasi jarayonini faoliyat tizimining funksional psixologik modeliga bog‘lagan holda faoliyatli yondashuv motivatsiyasi kasbiy tayyorgarlikning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik istiqbollarini ochib berishini ta’kidlaydi [4].

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Holbuki, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatiga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda, birinchi navbatda, shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish darkor. Aks holda, umumiyligi xususiyatli yo‘llanma, ko‘rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o‘ziga xos talablarni taqozo etadi. Hatto oddiy kasb maorifi turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin, uni qondirmasdan turib tub maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Kasb maorifi – o‘quvchilarni kasbning mohiyati bilan, har bir kasbning shaxs oldiga qo‘yadigan talablari bilan tanishtirishdan iborat ta’sirchan axborotlar majmuasidir. Ma’lumotlarning aniqligi, to‘liqligi, xususiy va ijtimoiy ahamiyati ifodalanganligi bilan boshqa tarkiblardan ajralib turadi.

Kasb maorifi insonning yoshi, jinsi, saviyasiga ko‘ra xilma-xil tarzda amalga oshiriladi, shakllari esa verbal va noverbal, kuzatuv va tanishuv, ko‘rgazmali va grafik, uchrashuv kabi tadqiqotlarga ega.

Kasbiy maslahat yo‘llashning mohiyatini inson ongiga chuqurroq singdirish uchun, shaxning ishtiyoqi va qibiliyatlariga mos kasb-hunar (ixtisos) tanlashi uchun muhim obyektiv va subyektiv shart-sharoit yaratish jarayonidir. Kasb egalllovchi (tanlovchi) ehtiyoji, o‘qituvchi (murabbiy)ning kasbiy mas’uliyatidan kelib chiqqan holda ilmiy-amaliy yo‘llanmalar berish jarayonidir.

Maslahat o‘zining maqsadga yo‘llanganligi, izchilligi, obyektivligi, axborotlar bilan to‘yinganligi bilan boshqa asosiy qismlardan keskin ajralib turadi.

Kasbiy saralash muayyan kasbni muvaffaqiyatli ravishda egallab, o‘z oldiga qo‘ygan fuqarolik (xususiy) burchini yuqori saviyada ado eta biladigan shaxslarni ajrata olishdan iborat jarayondir [5].

Kasbiy bilimlar, shakllangan ma’lum ko‘nikmalar, malakalarga asoslangan holda tekshirish mezonlariga suyanib omilkorlik bilan oqilona saralash o‘tkaziladi.

Saralash jarayoni o‘tkazilgandan keyin kasbiy moslashish davri boshlanadi. Odatda kasbiy moslashish deganda, yosh kasb egalarining, mutaxassislarining kasbiy faoliyatiga, uning shart-sharoitlariga, talablariga muvaffaqiyatli ravishda moslashish (bir necha bosqichlardan iborat) jarayoni tushuniladi.

Kasb mohiyatiga kirishish, bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar bilan tanishish, ularni egallash uchun oqilona usullar tanlash, ulardan amaliyotda unumli foydalanish, shart-sharoitlarga odatlanish, mahorat qirralarini o‘zlashtirish kabi muhim qismlar moslashish tarkiblarini tashkil qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Карадашев В.Н. Психология введения в профессию. 2-е изд. – Москва: Смысл, 2003. – С. 22
2. Jumayev U.S. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. // Buxoro, 2002. – В. 98-99.
3. Клинов Е.А. Как выбирать профессию. – Москва: “Просвещение”, 1990 – С. 37.
4. Клинов Е.А. Как выбирать профессию. – Москва: “Просвещение”, 1990. – С. 46.
5. Sunnatova R.I., Parpiyev U. Kasbga yo‘naltirish maslahatlari: metodlar, muammolar, imkoniyatlar. – Toshkent: “Fan”, 2001. – Б. 88.



Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti,
mustaqil izlanuvchisi

OILADA BARQAROR IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNING FARZAND TARBIYASIGA TA’SIR ETISHI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada keyingi yillarda oilalar barqarorligini ta’minlashdagi farzand tarbiyasi, ijtimoiy-ma’naviy muhitning qanchalik ahamiyatli ekanligi bo‘yicha olib borilayotgan ulkan islohotlar hamda farzand tarbiyasida mahalla va oila hamkorligi yuzasidan olib borilgan ishlar xususida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, muhit, xotin-qizlar, tarbiya, ijtimoiy-ma’naviy qadriyat.

Аннотация: В статье представлена информация о проведенных в последние годы масштабных реформах о значении социально-эмоциональной среды для воспитания детей в семье, а также о работе общества и семьи по воспитанию детей.

Ключевые слова: семья, окружающая среда, женщины, воспитание, социально-духовные ценности.

Annotation: The article provides information on the large-scale reforms carried out in recent years on the importance of the social and emotional environment for raising children in a family, as well as on the work of society and families in raising children.

Keywords: family, environment, women, upbringing, social and spiritual, values.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rify ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qarori qabul qilingan edi. Unga ko‘ra respublikamizda oilalarimiz farovonligida yoshlarimizni ijtimoiy-ma’naviy muhitda keng dunyoqarashli etib tarbiyalashga qaratilgan bir qancha ustuvor vazifalar amalga oshirildi.

Azal-azaldan oila farovonligi – milliy farovonlik asosi sanalib kelingan. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar oilada shakllangan.

Oila jamiyatning asosiy negizi. Oilalarimizda sog‘lom, barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaratish, ona va bola salomatligini, tinchligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirish asosiy ustuvor vazifalardan biri sanalib kelingandir.

Oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, oila, mahalla-yurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Mehr-oqibat va hamjihatlik ota-onalardan farzandlarga ham qon-qarindoshlik, ham kundalik ijtimoiy-ma’naviy munosabatlar jarayonida o‘tuvchi his-tuyg‘ulardir. Oilada ota va onaning bir-biriga ko‘rsatgan hurmat-ehtiromi, mehr-muhabbati ibrat namunasi sifatida farzandlarga yillar davomida singib boradi. Binobarin, farzandlar mehr-oqibatni, eng avvalo, oila tarbiyasidan o‘zlashtiradi. Olamga kelgan chaqaloq ilk bor tevaragini o‘rab turgan voqelik bilan oilasida tanishadi. Farzand uchun dunyodagi eng yetuk, komil, ulug‘ martabali inson ota-onasi hisoblanadi. Tabiiyki, eng go‘zal, yorug‘, baxtli xonardon ham o‘z uyi bo‘lib tuyuladi. Farzand oila tarbiyasidan jamoa hayoti sari asta-sekinlik bilan kirib kela boshlaydi, demak, uning katta hayot sari odimlari ota-onasi homiyligida oila muhitida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ham ana shu an’analarni davom ettirib, o’zbek oilalari oilaning barqarorligini ta’minlashda uning sog‘lom iqlimi, ota-onaning bir-biriga mehri va hurmati sharoitida, oila bag‘rida farzandlarini el-yurtining munosib o‘g‘il-qizlari, Vatanining haqiqiy sodiq fuqarosi bo‘lib voyaga yetishlarida jon kuydirmoqdalar. Shuning uchun ham o’zbek xalqida “qush o‘z uyasida ko‘rganini qiladi” deb, bejizga aytildagan, bunda chuqur ma’no-mazmun bor. Muqaddas dinimiz islomda “oila” mavzusiga katta e’tibor berilib, uni qanday tashkil qilish, oila a’zolarining huquqlari, farzandlar tarbiyasi, oilada chiqadigan kelishmovchiliklarni bartaraf etish, umuman, oilaviy hayotning ijtimoiy-ma’naviy barqarorligini ta’minlashga oid barcha masalalariga javob topish mumkin. Alloh taolo Qur’oni karimda marhamat qiladiki: “Uning alomatlaridan (yana biri) – sizlar (nafsni qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o’zlariningizdan juftlar yaratgani va o’rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir”. Oilali bo‘lish insoniyat naslining ko‘payishi va qiyomat kunigacha boqiy bo‘lishi uchun lozim bo‘lgan haqiqiy yo‘ldir. Islom dinida nikoh – bu Allohnинг amri, Payg‘ambar (s.a.v.)ning sunnatlari bilan, mo‘min-musulmonlar guvohligida bog‘lanadigan muqaddas aloqa vositasidir. Umr yo‘ldoshini tanlashda har ikki tomon ham teng huquqqa egadir. Nasl qoldirish vazifasi ham o‘zining andoza va qoidalari asosida amalga oshirilishi kerak. Bunda juftlarning har biri o‘zida xotirjamilik, sokinlik, nafsoniy rohat hosil qilishi bilan birga, ikkinchi tomonga nisbatan o‘z zimmasida oiladagi burch va vazifalarini ham idrok etishi lozim. Ayniqsa, ikkisidan dunyoga keladigan naslning istiqboli to‘g‘risida ko‘proq qayg‘urishlari talab etiladi. Oila hayotning abadiyligini, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir.

Bugungi kunda oilalarda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni qaror toptirish uchun oilalarga nazar solib ko‘rdik. Bugungi kunda ayrim oilalarda ma’naviy muhitni buzilishi, mehr-oqibat, hamjihatlikni yo‘qolib borishi, o‘zaro munosabatlarda salbiy tendensiyalarning kuchayib borishi farzand tarbiyasida nimalarda oqsoqlanib qolayotganligimiz sabablarini o‘rganishimiz jarayonida quyidagi holatlar aniqlanganliginia ko‘rshimiz mumkin.

Oila a’zolari, avvalo, inson bolasi tug‘ilgan kunidan ona oq o‘rab, oq tarashiga, otasining ta’minotiga va boshqa hayot talablariga ehtiyojli ekanligini unutmoqdalar yoki mazkur masalaga befarq bo‘lib borishmoqda. Yana er va xotin nikohlanib, oilali bo‘lgandan keyin ularning har biri ikkinchisi oldida bir qancha vazifani o‘z zimmasiga olish mas’uliyatini anglamayotgani yoki suiste’mol qilayotgani va ba’zi oilalarda erkak kishining mas’uliyati, o‘z ahli ayoli oldidagi ham ijtimoiy, ham jismoniy, ham moliyaviy ham ma’naviy burchiga, farzandlar tarbiyasidagi ulushi va ta’siri, oila muhitining barqarorlashuvidan ibrat va namunaning holati, oilada erkakning mavqeyi pasayib borayotgani, bundan tashqari, ayol kishining oiladagi o‘rni, maqeyi, itoati va go‘zal xulqi, nafosati ro‘zg‘or boshqaruvidagi didi, farosati, farzandlar tarbiyasidagi mas’uliyati va salohiyati yetishmayotgani oilalarda barqaror muhit yaratilmayotganiga asosiy sabab bo‘layotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Bu esa achinarli holat. Bizning vatanimiz urf-odatlar, muqaddas oilaviy qadriyatlar asosida farzand tarbiyalashga asoslagan zamin sifatida e’tirof etib kelingan. Bularni sof holda saqlash go‘zal an’ana va urf-odatlar asosida farzandlarni tarbiyalash bizning vatan oldidagi burchimizdir.

Oila hayotning abadiyligini, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i sanaladi.

Oilada ota-onsa farzand tarbiyasi jarayonini o‘z holiga tashlab qo‘ymasligi kerak. Farzandini go‘dakligidan parvarish qilib, uni oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazib, uning kamoloti yo‘lida jon kuydirib, kasb-korli, uyli-joyli qilishgacha bosh-qosh bo‘lishi ota-onaning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalaridan biri emasmi?

Tariximizga nazar soladigan bo‘lsak, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvaloq, ona qornidan boshlaboq shug‘ullanish lozim, deb javob bergen. Yana shu so‘zga qo‘shimcha qilib taniqli pedagog A. S. Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o‘tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan o‘g‘il-qizlarning go‘zal xulqli, odobli bo‘lishiga katta ahamiyat bergenlar. Binobarin, islom dinida ham axloq imon qatoriga qo‘yilgani to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Oilada farzand tarbiya qilganda, odatda, o‘g‘il bolalar tarbiyasi bilan ko‘proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug‘ullanadi. Albatta, bunda farzandning savyasini inobatga olish muhim hisoblanadi. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko‘rishga shoshmaslik kerak. Masalan, ikki yoshgacha faqat shirin so‘z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o‘rganadi, asosiy ma’lumotni shu yosh oralig‘ida egallaydi. Bu davrda biz ko‘proq amaliy jihatdan namuna bo‘lishga urinishimiz, ma’naviy-marify oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo‘ladi. Oilada otaning bolalariga loqayd bo‘lishi oxiri xunuk oqibatlarga sabab bo‘ladi. Loqaydlik yomon illat bo‘lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo‘l ochadi. Ota sustkashlik qilib, burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni o‘rgatmagani oqibatida o‘z farzandida zarur ijobji xislatlarni shakllantira ololmaydi, farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum bo‘lib o‘sishiga olib keladi. Keyingi davr esa bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o‘smirlik payti bo‘lib, bola oq-qoranı ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichdan o‘rganadi. Bu davrda farzand (tashqi va ichki muhit) to‘g‘ri yo‘lga solinsa, tarbiyalı do‘stlarga hamroh qilinsa, uning odobli va yaxshi inson bo‘lishi uchun muhim qadam qo‘yiladi. Odatda, onalar o‘z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo‘l qo‘ygan xatolari, qo‘l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda, bola o‘z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo‘rmasdan qilaverishiga sabab bo‘lib qoladi.

Oilada ota-onalar farzandiga mehr-muhabbat berishda ham me'yorni saqlay bilishlari kerak. Bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to‘g‘ri-noto‘g‘ri xatti-harakatlarini ma’qullah yoki hatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo‘lib o‘sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo‘yadi, mehr ko‘rsatish esa uni yanada faol bo‘lishga undaydi. Erka o‘sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko‘zlaydigan, mas’uliyatsiz bo‘lib voyaga yetadi. Shuning uchun farzandning barkamol, ma’nан yetuk inson bo‘lib yetishishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir. Bolalik chog‘ida farzandning qalbi o‘ta yumshoq va ta’sirga beriluvchan bo‘ladi. Shuning uchun ehtiyojkorlik bilan tarbiya jarayonini amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Bizda azaldan ota adolatli fikri, haq so‘zi, ibrati bilan oilaning ustuni, vijdoni bo‘lib kelgan. Bejiz xalqimiz “Ota rozi – Xudo rozi” demagan. Bugun ayrim oilalarda otalar o‘rni, hikmati sezilmayapti. Oilaviy munosabatlarda ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy muvozanatning buzilayotgani, oilaviy ajrashishlar, jinoyatlar, mulkiy mojarolar ko‘payib borayotgani hammamizni tashvishlantiradi. Shunday ekan, oilaning butunligida otaning roli o‘ziga xos o‘rin tutadi. Chunki, ona bolalariga har qancha mehribon bo‘lmasin, u ro‘zg‘or tebratishda, bola tarbiyalashda ota o‘rnini egallay olmaydi. Inson irodasi, his-tuyg‘ularining shunday qirralari borki, ular faqat ota o‘gitlari, ota tarbiyasi orqali vujudga keladi. Ayniqsa, o‘g‘il bolalar tarbiyasida birso‘zlilik, mehnat qilib rizq-ro‘z topish, oilani boshqarish, fidoyilik, sabr-toqatlilik xislatlarini tarkib toptirishda otalar ta’siri yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. “Faqat otalargina bolalarini hayotdagi barcha og‘irliklarni aql-idrok, sabr-chidam, g‘ayrat va iroda bilan yengib o‘tishga o‘rgata oladi. Ota irodasi farzandlarni biror mushkul ahvolda qolsa, ikkilanmaslikka, sarosimaga tushmaslikka o‘rgatadi”³¹. Tarixiy manbalarga murojaat qilinsa, Sharqda otaning oila va jamoada tutgan mavqeysi g‘oyat katta o‘rin egallaganligining guvohi bo‘lamiz. Avvalo, hadisi shariflarda, qolaversa, og‘zaki va yozma adabiyot namunalarida otaning sinchkov, sermulohaza, vazmin, birkesar, oqilona va odilonha hukmi, talabchanlikka asoslangan tarbiyasi hamisha ko‘pchilikning diqqat-nazarida bo‘lganiga ishonch hosil qilamiz. Dono xalqimizda “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi”, “Ota rozi – Xudo rozi”, “Ota amri – vojib” kabi hikmatli so‘zlar jamiyatda otalar mavqeyining nechog‘lik yuqori ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ota bosh bo‘lgan oilalarda tarbiyalangan bolalarda otadan ijobjiy ma’noda hayiqish, uni hurmat qilish hissi shakllangan bo‘ladi. Mana shu narsa uni “chizilgan chiziq” dan nariga o‘tishidan, hayotimizda qabul qilingan turli ijtimoiy me’yorlarni buzishidan va o‘z navbatida turli ijtimoiy sanksiyalarga duchor bo‘lishidan saqlab turadi.

Ota farzndlarni iqtisodiy jihatdan ta’minlashi, ularning moddiy ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Ammo ma’naviy jihatdan tarbiyalashga faqat onaning o‘zi ojizlik qiladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, otaning tarbiyasi, ayniqsa, o‘g‘il bola uchun muhim. Pulga zoriqmaslik yoki nufuzli ta’lim muassasasi

³¹ Юсупов Э., Юсупов Ў. Оила – маънавият булоғи. Тўплам, Ўзбек миллый қадриятлари илмий-тадқикот Маркази. – Тошкент, 2003. – Б. 64.

talabasi bo‘lish ham ota tarbiyasining o‘rnini bosolmaydi. Turli tashvishlar bilan ovora bo‘lib, bolalari bilan muntazam muloqotdan uzilib qolgan otalarning farzandlari tarbiyasida muayyan nuqsonlar paydo bo‘ladi. Bola hayotda to‘g‘ri maqsadni belgilay olmay tentirashi, to‘g‘ri yo‘ldan toyishi mumkin. Ba’zida bolaning nazoratsizlik oqibatida uyidan ketib qolishi yoxud turli salbiy ta’sirlar domiga tushib qolishi ham kuzatiladi. Bu esa nafaqat farzand, ota-onasi yoki oila, balki butun jamiyat uchun ham noxush holatdir.

Axloqiy tarbiya “insonni komil, chiroyli axloq egasi, jamiyatga foydasi tegadigan a’zo qilib shakllantirish”³² jarayoni bo‘lib, uni amalgaga oshirishda quyidagi tizimga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- bolaga hikoyatlar vositasida axloq qoidalarini tushuntirish;
- tarbiyachining o‘zi ibrat bo‘lishi lozimligi. Tarbiyachining so‘zi bilan xatti-harakati uyg‘un bo‘lib, u xatti-harakati orqali barchaga ibrat, o‘rnak namuna bo‘lmog‘i lozim;
- yomonlarning yomonligini ko‘rsatib, yaxshilarning yaxshiligin uqtirib borishda muayyan ijtimoiy tuzum va muhitni hisobga olish, ya’ni axloqiy tarbiya real voqelik va amaliy jihatlari bilan ma’naviy-axloqiy muhitni muayyan darajada barqarorlashtiradi.

Mahallalar va oilalarda mehr-oqibat va hamjihatlikni mustahkamlash, turli illatlarga barham berish, oilaviy ajrashishlar va jinoyatchilikning oldini olish, shuningdek, boshqa dolzarb masalalarda davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kerak.

- oila qadriyatini mustahkamlash, oila muqaddasligini targ‘ib etish, yoshlarni oilaga tayyorlash, nizoli oilalardagi muhitni mo‘tadillashtirish, o‘zaro munosabatlarni sog‘lomlashtirishda yangicha yondashuvlarni qo‘llash;
- ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash va oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish;
- oilada sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv salomatlik, onalik va bolalikni himoya qilish;
- milliy hamda oilaviy qadriyatlarimiz va ma’naviyatimizga nisbatan tahdidlarga qarshi tizimli ishlarni amalga oshirish;
- oilada farzandlar va ayniqsa, qizlar tarbiyasiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish;
- oilaviy tadbirdorlik hamda xotin-qizlar tadbirdorligi va bandligi masalalarini tizimli amalga oshirish;
- Islomda oila, nikoh, farzand tarbiyasi, erkak mas’uliyati va boshqa ijtimoiy masalalarning talqinini targ‘ib etish.

Oilada, odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga e’tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-onasi” degan ibratli maqol ham, aynan, xalqimizga xos. Mana shu maqolning o‘zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog‘lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa, keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiyoy tanbeh berib to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan. Oiladagi muhit ota-onasi o‘z mas’uliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo‘ladi. Bolalarning odobi bo‘lib ulg‘ayishi uchun ota-onasi bilan bir qatorda mahalla-ko‘y ham katta ibrat maktabidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, farzand tarbiyasida mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy, ma’naviy muhitni qaror toptirish uchun quyidagilarni inobatga olsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bular:

- birinchidan, ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar zimmasida, ota esa bu ishdan o‘zini chetga oladi. Go‘yo farzandini bog‘cha, maktab tarbiyalab berishi shart. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qadimdan o‘g‘il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bola tarbiyasi bilan onalar shug‘ullanganlar, ammo ular, asosan, erkaklar nazoratida bo‘lgan;
- ikkinchidan, ota-onalar bolalarga birdek munosabatda, bir xil mehribon va g‘amxo‘r, talabchan va qattiqqo‘l bo‘lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo‘ladi. Biri talab qilganda ikkinchisi yonini olsa, tarbiya buziladi. Bolalariga haddan tashqari mehribonchilik qilayotgan ota-onalar ularni hurmat qilishdan oldin o‘zlarini ham hurmat qilishni o‘rgatishlari zarur;
- uchinchidan, oilaning barqaror hayotini to‘g‘ri tashkil qilish, oilada sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy, axloqiy muhitni yaratish lozim. Har bir narsa bolaga ta’sir qiladi. Ana shu ta’sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar paydo bo‘ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar kuzatib turadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb nasihat qabilidagi o‘rgatish yo‘li bilan tarbiyalayman, deb o‘ylamaslik kerak;

³² Абдурауф Фитрат. Нажот йўли / Ш.Вохидов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 157.

– to‘rtinchidan, har bir ota-onasining barkamol inson bo‘lishini istaydi. Farzandining ana shunday inson bo‘lishidan nafaqat ularning o‘zi, balki jamiyat ham manfaatdordir. Ota-onaning fuqarolik burchi ham shuni taqozo etadi. Shunga ko‘ra har bir ota-onas, eng avvalo, mamlakat uchun bo‘lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmasligi lozim va hokazolar.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 18-fevraldaggi PF-5938-sonli farmoni. www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
4. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. – Тошкент: “Алишер Навоий” номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.
5. Юсупов Э., Юсупов Ў. Оила – маънавият булоғи. Тўплам, Ўзбек миллӣ қадриятлари илмий-тадқиқот Маркази. – Тошкент, 2003. – Б. 64.
6. Zunnunov A. Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.
7. Musurmanova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.
8. Najmuddinova K. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rnini. – Toshkent: “Adolat”, 2016.
9. Komilov T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. O‘zR FA. “Fan”, 2000. – B. 20.
10. Qaxxorova M. va boshqalar. Mahallada ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyot matbaa-uyi, 2021. – B. 60.
11. Абдурауф Фитрат. Нажот йўли / III. Воҳидов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.157.

* * *

Xodjayorova Baxora Akramovna,
Samarqand davlat universiteti
Mustaqil izlanuvchisi

O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA INSONIY MUNOSABATLARIGA URG‘U BERISH AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada ta’lim muassasalari, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari hamkorligida o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishda o‘qituvchilar va ota-onalarning insoniy munosabatlari yoritiladi. Ushbu maqolada kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning pedagogik faoliyat masalalari bo‘yicha ota-onalar ishtiroki, o‘quvchilarni ijtimoiy moslashtirishning asosiy jihatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiylashuv, ijodkorlik, ota-onsa, muhit, ta’lim, tarbiya, xulq-atvor, g‘amxo‘rlik, oila, mahalla.

Аннотация. В статье рассматриваются человеческие отношения учителей и родителей в процессе социализации их учащихся в сотрудничестве с образовательными учреждениями, семьей, махаллей, общественными организациями. В данной статье описаны основные аспекты социализации учащихся на основе творческого подхода, активность родителей по вопросам педагогической деятельности, социальная адаптация учащихся.

Ключевые слова: социализация, творчество, родитель, окружающая среда, образование, воспитание, манеры, забота, семья, махалля.

Annotation. The article covers the human relations of teachers and parents in the socialization of their students in cooperation with educational institutions, family, makhalla, public organizations. The main aspects of socialization of pupils on the basis of a creative approach, the activity of parents on the issues of pedagogical activity, the social adaptation of pupils, are described in this article.

Keywords: socialization, creativity, parent, environment, education, upbringing, manners, care, family, makhalla.

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish”³³ kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish, o‘smirlar ijtimoiylashuvi mazmunini takomillashtirishni taqozo etadi.

Globallashuv jarayoni shaxsni ochiq ijtimoiy muhitda, jamiyatning barcha tarbiyaviy tuzilmalari – umumiy o‘rta ta’lim maktabi, oila, mehnat jamoalari va jamoatchilikning bir-biri bilan ijodiy uzviy aloqa qilish asosida tarbiyalashni muhimlashtirmoqda. Ijtimoiy muhitning ta’sirida shaxs shakllanib borar ekan, bu jarayonni tavsiflash uchun “ijtimoiylashuv” tushunchasi ishlatalidi.

Ijtimoiylashuv shaxsning hayoti mobaynida o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatning ijtimoiy me’yorlari va madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. O‘smirlik davri o‘ziga xos bo‘lib, o‘smir hayotida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi, uning ruhiyati qayta shakllanishiga, tengdoshlari o‘rtasida munosabatlarning yangi shakllari paydo bo‘lishiga olib keladi. Unga nisbatan katta avlod vakillari tomonidan yanada jiddiyroq talablar qo‘yila boshlaydi. O‘smirlik yoshida o‘z-o‘zini anglashga ehtiyoj paydo bo‘ladi. “Men kimman?”savoliga javob berish uni tez-tez bezovta qiladi. Unda o‘z-o‘ziga qiziqish paydo bo‘ladi. U yoki bu faktlarga unda shaxsiy qarash, mulohaza yuritish, o‘z bahosini berish kabi xususiyatlар shakllanadi. Bu yoshda vaqtinchalik oila va maktabdan psixologik uzoqlashish holatlari bo‘lib turadi.

³³ “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантариш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон фармони

Ijtimoiy moslashish ijtimoiylashuv mexanizmlaridan biri sifatida, muammoli vaziyatlarni bartaraf etish esa yangi ijtimoiy tajriba – o‘quvchilik maqomini o‘zlashtirish mexanizmi sifatida tadqiq etildi. Ijtimoiy moslashuvga ehtiyoj muayyan tizim bilan o‘zaro ta’sir negizida, ziddiyatl mutosabat sharoitida vujudga kelishi asoslandi va o‘z navbatida, ziddiyatlarni bartaraf etish bilan bog‘liq o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab qilishi yoritib berildi. Mazkur o‘zgarishlar shaxs yoki tizim bilan, yoxud har ikkovi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tavsifi bilan aloqador bo‘lishi mumkin. Ya’ni, yangi muhit sharoitida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengish zarurati shaxs ijtimoiy moslashuvining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday vaziyatda shaxsnинг oldingi xulq-atvor darajasi samarasiz yoki kam samarali bo‘lib qoladi. Ijtimoiy moslashuv o‘quvchining o‘z yangi maqomiga muvofiq holda, ijtimoiy muhit tomonidan qo‘yiladigan talablarni qabul qilishi hamda ularga samarali javob qaytarishi demakdir. Ya’ni, adaptatsiya qarorlarni oqilona qabul qilish, tashabbus bildirish va o‘z kelajagi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish kabilarni qamrab oladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta’minalash muhim muammo ekanligini ilmiy nuqtayi nazardan asoslashda ijtimoiy-psixologik moslashuvga alohida e’tibor qaratib, uni psixologik jihatlarini ham yoritish va moslashuv jarayoni o‘zlikni anglash, shaxs sifatida o‘z “Men”ini baholash jarayoni ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim. Ijtimoiylashuv tashqi muhit bilan o‘zaro faol aloqa muhitida, ta’lim-tarbiya hamda o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida, o‘quvchi o‘z maqsadlarini mustaqil aniqlab, ularga erishish yo‘llarini belgilay olganida, o‘z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o‘z o‘rniga munosib baho bergenida amalga oshadi va optimal tarzda rivojlanadi.

Shaxslararo munosabat sohasiga moslashish, bunda kishilar bilan chuqur emotsiyonaloqa o‘rnatish, samarali ijtimoiy moslashishga qaratilgan xulq-atvor motivlari, shaxs sifati va xarakteri, xulq-avtor tizimi kabilarni samarali ijtimoiylashuvning belgilari sifatida qayd etish mumkin.

Moslashuv jarayoni bir tomonidan individ va ikkinchi tomonidan muhit ehtiyojlarining to‘liq qondirilishi asosida ug‘unlikka erishish jarayoni yoki individ va ijtimoiy muhit orasidagi o‘zaro uyg‘unlikning vujudga kelishi uchun vosita bo‘lib xizmat qiladigan jarayondir.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘quvchilarini ijtimoiy moslashtirish muhim muammo ekanligini asoslash haqida gap borar ekan, mazkur holatda “ijtimoiy moslashtirish” tushunchasining pedagogik talqinini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aksariyat tadqiqotlarda moslashuvning o‘ziga xos turi sifatida “ijtimoiy-psixologik moslashuv”ga alohida e’tibor qaratilib, uning psixologik jihatlarini yoritib berish bilan cheklaniladi. Bizningcha, ijtimoiylashuv inson o‘zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayoni ekan. Bu tarbiya, ta’lim, o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o‘z maqsadlarini mustaqil aniqlab, ularga erishish yo‘llarini belgilay olganida, o‘z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o‘z o‘rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi.

Pedagogik yordam o‘z ichiga ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ikki yo‘nalishini oladi: ta’lim olishda va tarbiya olishda yordam. Ta’lim olishda yordam oilada vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va ota-onalarning pedagogik-madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning pedagogik faoliyati quyidagi masalalar bo‘yicha ota-onalarni har tomonlama o‘rganishni ko‘zda tutadi:

- ota-onalarning bo‘lajak farzandlarini tarbiyalashlari uchun pedagogik va ijtimoiy-biologik tayyorgarligi;
- o‘quvchilarda tengdoshlariga nisbatan munosabatni shakllantirishda ota-onaning o‘rni;
- shaxs tarbiyasida shaxsiy namuna, ijodkorlik;
- ota-onalar ijtimoiy maqomining ahamiyati;
- oilada turli avlodlarning o‘zaro munosabati;
- oilada pedagogik va psixologik ta’sir usullari, o‘quvchilar va kattalar orasida ijobiy munosabatning shakllanganligi.

Ijtimoiylashtirish xulq-atvorini nazorat qilishdan iborat. Bunday nazorat insonga yomon xatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorining axloqiyligi haqida qayg‘ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo‘ladi. Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o‘rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi. Shaxs o‘zini egotsentrik emas, balki tarbiyalı tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag‘batlantirilishi kerak? Tarbiya o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy jihatdan

ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishidir. Agar ta’lim shaxsning ongini shakllantirish bo‘lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta’sir etishdir. Bolalar va ularni tarbiyalaydiganlar orasida hissiy yaqinlik xos. Odatda, 6 oylik bolalar unga g‘amxo‘rlik qiladigan ota-onasiga bog‘lanib qoladilar. Ota-onaning oldida va ular bilan muloqotda bo‘lish bolalarga juda yoqadi, ularning yo‘qligi bolaga yoqmaydi. Ota-onsa g‘amxo‘rligini bildiradigan so‘zlar, xatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o‘rganish jarayoni orqali sodir bo‘lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g‘amxo‘rlik va e’tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo‘llab-quvvatlanmaydi. Yaxshi xulq-atvorni rag‘batlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko‘rib chiqqan xulq-atvor hamma shaxslarga ham taalluqli emas. insonning har tomonlama rivojlanishi, atrof-muhit sharoitida yashay olish qobiliyatini ifoda etadi va jamiyat madaniyatini o‘zida aks ettiradi. Jamiyat madaniyati tarkibiga esa barcha obyektlar, qadriyatlar, bilim, estetik ongning ko‘rinishlari, odamlar faoliyati va ularning natijalari, shaxs hayotiy faoliyatidagi madaniy munosabatlar, o‘ziga xosliklar ham kiradi.

Ijtimoiylashuv masalalarini o‘rganishning falsafiy, pedagogik, sotsiologik va ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlarini ajratish mumkin. Sotsiologik yo‘nalish individning ijtimoiylashuvini, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishish uchun ma’lum bir ijtimoiy xususiyatlarni o‘zlashtirish bilan aloqadorlikda, ijtimoiy-psixologik yo‘nalish esa, ijtimoiylashuvda ontogenet davrida ijtimoiy me’yor, madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonida aks etishini ifoda etadi. Ijtimoiylashuv insonning ta’lim, madaniyat, kommunikatsiya ta’siri ostida shakllanish jarayoni bo‘lib insonlarning bir-birlari bilan muloqotda bo‘lishlarini ifodalab, jamiyatning muvaffaqiyatlari rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashuv jarayoni o‘zining xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo‘lishiga ko‘ra o‘ta murakkab jarayondir.

Ta’lim va tarbiya haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv insonning dunyoga kelgan vaqtidan boshlab ijtimoiy belgilangan qadriyatlar, yangidan shakllanuvchi tajribalarni, ya’ni tarbiyalanganlik, ta’lim olganlik, ma’lumotlilik, rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o‘zgarib borishi jarayoni va yuzaga kelish natijasidir. Bu holda shaxsga ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekti sifatida, tajriba egallahsha faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o‘z-o‘zini shakllantiruvchi, shu bilan birga, o‘z hayot yo‘li uchun javobgarlikni his etuvchi subyekt sifatida qaraladi.

Shuningdek, ba’zi olimlar “ijtimoiylashuv” va “ijtimoiy moslashuv” tushunchasini alohida-alohida talqin qilishga harakat qilishsa, ba’zilari ularni bir tushuncha sifatida baholashadi. Birinchi guruh nazariyasi tarafdarlarining fikricha, ijtimoiylashuv ijtimoiy me’yor, xulq-atvor tamoyillari va qadriyatlarni uzatish, uni inson tomonidan egallanishiga qaratilgan murakkab jarayon bo‘lib, u alohida shaxsga ma’lum bir jamiyat fuqarosi sifatida o‘zini namoyon etish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy moslashuv esa, shaxsga jamiyat tomonidan berilgan mazkur imkoniyatlarning amalga oshirilish jarayonini o‘zida ifoda etadi.

O‘quvchilarni ijtimoiy moslashtirishning quyidagi jihatlarini alohida ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuv jarayonining kechishi murakkab dinamiklikka ega bo‘lib, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega qadriyatlari tasavvurlarni o‘zaro uyg‘unlashuvini talab etadi;
- o‘quvchilar uchun o‘qishning birinchi va ayrim hollarda ikkinchi yili murakkab vaziyatlar bilan birga kechadi;
- o‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi rivojlanadi, atrof-olam va borliqqa doir qadriyatlari munosabatlar tizimining rivojlanishi davom etadi;
- o‘quvchilarda bazaviy o‘quv ustanonkalari shakllanadi.

Shaxsni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an’ana va urf-odatlarning roli katta. Xalq urf-odatlari, an’analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do’stlik-birodarlik his-tuyg‘ularini rivojlantiradi. Bular o‘z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o‘taydi.

Mustaqil jamiyatning baxt-saodati yo‘lida halol mehnat qilish: jamiyat boyligini saqlash va ko‘paytirish yo‘lida har bir kishining timmay g‘amxo‘rlik qilishi, ijtimoiy burchni yaxshi anglash; jamiyat hayotida

va shaxsiy hayotda halollik va rostgo‘ylik, axloqiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovatlarga aslo yo‘l qo‘ymaslik va shu kabilar tarbiya jarayonining muhim xislatlaridir. Tarbiya jarayonida g‘amxo‘rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g‘amxo‘r ota-onaga ko‘proq taqlid qiladilar. G‘amxo‘r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo‘llab-quvvatlamaganda, bola o‘z xatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi. Tarbiyaviy jarayonni amalgga oshirishda g‘amxo‘rlik bilan bir qatorda yaxshi ko‘rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni, tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og‘zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvori uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharhlash mumkin:

1. Tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim. Uning ehtiyojlari strukturasini aniqlash kerak.

2. Ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak. Ong ham, iroda ham motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir ehtiyojning o‘rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin.

3. Shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi.

Maktablarda o‘quvchi-o‘smirlarni, kasbga yo‘naltirish ishlari olib boriladi, mashg‘ulotlar o‘tkaziladi, ayrim yirik maktablarda kasb-hunar xonalari, tikuvchilik, duradgorlik, metal ishlari bo‘yicha ustaxonalar ham mavjud. Biroq kasb-hunar ta‘limining samarasi past, chunki mакtabda o‘rganiladigan kasb-hunarlar amaliyot bilan bog‘lanmagan bo‘lib, eski asbob-uskunalar bilan jihozlangan ustaxonalarda o‘rgatiladi. O‘quvchilar amaliyotga borganda, u yerdagi rahbarlar ularga murabbiylar biriktirmsandan kasb-hunarni yaxshi o‘rganishlariga loqaydlik bilan qarashlari kuzatiladi.

Ta’lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo‘mitalari, jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro puxta hamkorlik qilishlariga alohida e’tibor berilgan. Ota-onaning oldida, ular bilan muloqotda bo‘lish o‘quvchilarga juda yoqib, ularning yo‘qligi yoqmaydi. Ota-onaning g‘amxo‘rligini bildiradigan so‘zlar, xatti-harakatlar shaxs ijtimoiylashuvi uchun juda katta ahamiyatga ega.

Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o‘rganish jarayoni orqali sodir bo‘lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g‘amxo‘rlik va e’tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo‘llab-quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni rag‘batlantirish va yomon xulq-atvori uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko‘rib chiqqan xulq-atvori hamma shaxslarga ham taalluqli emas.

Turli davrlarni o‘rganish natijalariga ko‘ra, shaxsning ijodiy tafakkuri rivojlanishi atrof-muhit ta’siriga duchor bo‘ladi: ijodiy odamlar bilan muloqot, ularga taqlid qilish, oiladagi demokratik qadriyatlar va ayniqsa ota-ona bilan munosabatlarda, oilada paydo bo‘lgan his-tuyg‘ular aks etadi. Ta’lim muassasalari va oila, mahalla, jamoat tashkilotlari hamkorlikigida o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishda o‘qituvchilar va ota-onalarning insoniy munosabatlariga urg‘u berish muhim ahamiyatga ega.

* * *

Abdurasulova F.R.,
Nizomiy nomidagi TDPU
“Ijtimoiy pedagogika” kafedrasи o‘qituvchisi

Muxsumova Z.Z.,
I-bosqich pedagogika va psixologiya
Ta’lim yo‘nalishi talabasi

OILA – MA’NAVIY TARBIYA O‘CHOG‘I

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila, oila haqidagi turli xil fikrlar; oilaning asosiy jihatlari, tarbiyaning turli xil tomonlari, hozirgi zamon oilalarining farqli jihatlari, ajrim muammolari va ularni bartaraf etish usullari, farzand tarbiyasi muhimligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oila bardavomligi, qadriyat, komil inson, zardushtiylik, Avesto, Amir Temur, tarbiya, farzand, ota-on, Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub”.

Аннотация. В данной статье освещаются понятие семьи, различные представления о семье, об основных аспектах семьи, различных особенностях воспитания, различиях между современными и историческими семьями, разводе и методах его предотвращения, о важности воспитания детей.

Ключевые слова: семья, семейное благополучие, ценность, совершенный человек, зороастризм, Авеста, Амир Темур, воспитание, ребенок, родители, Алишер Навои, Махбуб уль-Кулуб.

Annotation. This article covers the concept of the family, various ideas about the family, the main aspects of the family, the various features of upbringing, the differences between modern and historical families, divorce and methods of preventing it, and the importance of raising children.

Keywords: family, family well-being, value, perfect person, Zoroastrianism, Avesta, Amir Temur, upbringing, child, parents, Alisher Navoi, Mahbub ul-Kulub.

Oila bu hayot va kelajak poydevoridir. Yangi oila paydo bo‘layotgan davrda, qaysi zamon bo‘lishidan qat‘i nazar, ularning bu jihatlari o‘zgarmay qoladi. Chunki o‘tmish va kelajakni oilasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, aks holda hayot oilasiz tanazzulga yuz tutgan bo‘lar edi. Oilaning bardavomligi – bu birinchi navbatda, oila qurayotgan insonlar ko‘p yillar davomida birga hayot kechirib, hayotning qiyinchiliklarini birga yengib o‘tishlari kerakligi bo‘lsa, ikkinchidan, oila milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o‘zida mujassamlashtirganligidadir. Milliy qadriyatlarimiz, barcha ajdodlarimizning o‘gitlari, pand-nasihatlari, o‘zbekona tarbiyaning ildizlarini o‘z ichiga oladi.

Oilada tarbiyaga azaldan katta e’tibor qaratilgan, buni turli tarixiy manbalar va qo‘lyozmalarda keltirilgan oila borasidagi qarashlarda ko‘rishimiz mumkin. Qadimgi zardushtiylik dini muqaddas kitobi “Avesto”ning oltin qoidalaridan biri oila muqaddasligi hisoblanadi. Bundan tashqari mazkur kitobda ota-onaga bo‘lgan hurmatning muhimligi va ayollarning axloq-odoblariga alohida to‘xtab o‘tilgan. Bizga ma’lumki, Islom dinida ham oila masalasiga doir ko‘p oyat va hadislar mavjud. Dinimizda oilada ayol kishi juda ardoqlanadi, shuningdek, oilani pokligini, mustahkamligini saqlashda ayol kishining o‘rnii muhim ahamiyatga egaligi ko‘pgina hadislarda keltirib o‘tilgan. Erkak kishi esa oilaning boshi bo‘lib, unga oilaning har tomonlama mustahkamligini, hamda iqtisodiy tomondan ta’minalash mas’uliyati berilgan. Shuningdek, ota-onaning oilada naqadar muhim o‘ringa ega ekanliklarini “Ota rozi – Xudo rozi”, “Jannat onalarning oyog‘i ostida” degan so‘zlardan anglashimiz va ularning ko‘ngillarini og‘ritish juda katta gunohligi ko‘p marotaba takrorlanishidan tushunishimiz mumkin.

Buyuk tarixiy shaxslardan biri Amir Temur ham oilaga davlat darajasidagi masala deb qaragan. Biz buni uning o‘z farzandlari va nabiralariga kelin tanlashdagi qo‘ygan talablarini quyidagi fikrlaridan bilishimiz mumkin: “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoqchi tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini

surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo‘lmish naslnasabi, odob-axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo‘lsagina, el-yurtga katta to‘y tomosha berib, kelin tushurdim”³⁴. Amir Temur bunday yuqori talabchanlik bilan kelin tanlashining asosiy sababi, mamlakat kelajagini ta‘minlovchi sog‘lom va yetuk kelajak avlodni yaratish istagidir.

“Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish, buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo‘lsa ham kam bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismning sadaqa qilsang arziydi!”. Mazkur go‘zal fikr buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlar haqidagi purma’no so‘zlaridir. Navoiy ushbu majburiyatlarni yoshlar chuqur anglashlari va ularning ota-onalarini hurmat qilishlari kerakligi, bu ularning farzandlik vazifalari ekanligini ta‘kidlagan. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” ya’ni “qalblarning sevgani” asari turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat borasida o‘ziga xos fikrlarni jamlagan.

Hozirgi davrga kelib, oila va turmush haqidagi fikr va qarashlar bir muncha o‘zgargan, ammo albatta, o‘z o‘zagida, aynan, shu mulohaza va jihatlarni saqlaydi. Qarashlarning o‘zgarganligiga yorqin misol sifatida hozirda qizlarning ta‘lim olishi individual rivojlanishiga katta e’tibor qaratilib, bugungi davr ayollari mustaqil hayot kechirishi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi oddiy holatga aylangan. Hozirgi zamon oilalarida qadriyatlarga bo‘lgan munosabat va tarbiya usullarida o‘zgarishlar mayjud. Qadriyatlarga munosabatning o‘zgarishi deganda, oilalarning ajrashish holatlari nazarda tutilib, bunda oldingi davr bilan solishtirilganda katta farqni ko‘rish mumkin. Unga ko‘ra, olti oy davomida 12 ming 810 ta, o‘tgan yilning shu vaqtiga nisbatan 3 ming 151 ta kam oilaviy ajralishlar ro‘yxatga olingan. Mamlakatimizdagi mayjud oilalardan 0,03 foizining taqdiri ajralish bilan yakun topgan. Yuzaga kelgan mazkur ajrimlar natijasida joriy yilning o‘zida Respublika bo‘yicha 8 ming 725 nafardan ortiq voyaga yetmagan bolalar ota yoki ona mehridan mahrum bo‘lgan. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan joriy yilning shu vaqtiga qadar 15 ming 413 ta ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning 9 ming 980 tasi ya’ni, 60 foizi yarashtirildi. Shuningdek, 11 ming 985 ta nikohi qonuniy rasmiylashtirilmagan oilalar aniqlanib, ulardan 5 ming 960 tasi yoki 57,8 foizining nikohi qonuniy rasmiylashtirildi³⁵. Mazkur 2020-yil statistikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu holatning sababi, aynan, oila muqaddasligiga va oila qurishga bo‘lgan yengil munosabatni olsak bo‘ladi. Bu sonlarning kamayishi uchun qurilayotgan yosh oilalar bilan to‘liq tushuntirish ishlari olib borilishi, bunga mahallalardagi raislarning mas’ul bo‘lishi darkor. Aynan, shu sababdan bugungi kunda yangi oila qurish ostonasida bo‘lgan yoshlar FHDY bo‘limiga ariza topshirish uchun borgan vaqtlarida ular bilan psixolog uchrashuv o‘tkazishi va ularning mosligini tekshirgandan so‘ng nikoh qurishga ruhsat berishi yo‘lga qo‘yilgan.

Oilada farzand tarbiyasi dolzarb va asosiy masala hisoblanadi. Chunki bir farzandni voyaga yetkazib, uning o‘z hayotiga ma’suliyat bilan yondashishi, elga xizmat qiladigan mustaqil fikr egasi bo‘lishi uchun har tomonlama tarbiyalanib, puxta ta‘lim olishi mushkul vazifadir.

Prezidentimiz aytganlaridek: “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qayerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo‘lishidan qat’i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo‘lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e’tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o‘zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman”³⁶. Darhaqiqat, har bir farzand bu alohida hech kimga o‘xshamaydigan dunyo egasidir, shu sababdan eng ma’qul tarbiya uslubi, muqaddas Islom dinimiz va milliy qadriyatlarimizga ko‘ra tanlangandagina katta samara beradi.

Oila tushunchasi qanchalik chuqur ildizlarga ega bo‘lmasin, hozirgi davrga kelib bu tushunchani har xil o‘lkalarda turlicha talqin qilimoqda. Oilaning muhimligi yoki uning normalari turlicha. AQSH kuchli kapital davlat bo‘lgani sabab, oila bizning yurtimizdan farqli. Oila boshi, umumiyl budget, ayol kishini ardoqlash degan tushunchalar o‘z ma’nosini yo‘qotgan. Turmush qurishdan oldin oilada barcha holatlar, xarajatlar kelishilgan va bo‘lishib olingan hujjat tuziladi. Bunga sabab Amerika ajrimlar soni bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turishidir. Farzand tarbiyasiga kelganda esa bolalarning huquqlari kattalar bilan bir xil bo‘lib, ularning fikri va so‘zları katta kuchga ega. Shu sababdan ota-onalar bolalarini tarbiyalashda tanbeh berish yoki jazolashlari qat’yan taqiqlanib, bunga qamoq jazosi berilishi mumkin. Oilaviy muammolarni hal qilish uchun oilaning

³⁴ Alqarov I.Sh., Mamatqulova R.Sh. Oila tarbiyasining pedagogikasi. – Toshkent, 2007. – B. 13.

³⁵ <https://zarnews.uz/uz/f86>

³⁶ <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>

har bir a’zosi o‘z psixologiga ega. Oilaga bo‘lgan bunday munosabat ko‘pgina g‘arb davlatlari uchun oddiy holatga aylangan. Qonuniy nikoh qurish esa ko‘p davlatlar uchun ortiqcha marosimga aylanib, aksariyat aholi buni zamondan orqada qolish deb hisoblaydi.

Sharq davlatlarida oila qurishga e’tibor kuchli bo‘lib, uning qadriyatlari asrlar davomida saqlanib kelinadi. Farzand tarbiyasiga esa bobo va buvilar nasihatiga qulq solinib, ko‘p hollarda bolalar ularning tarbiyalarini olishadi. Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki bunday hayot Yaponiya, Xitoy kabi davlatlarning rivojlanishiga to‘siq bo‘limgan ya’ni zamon bilan hamjihat bo‘lish uchun oila qurishdan voz kechish kerak emas.

O‘zbek xalqi g‘arb xalqlaridan farqli ravishda har doim oilani birinchi o‘ringa qo‘yadi va hech qachon kasbiy yuksalish oiladan uzoqda yashashga, farzandlarning o‘sishini kuzatishdan ustun tura olmaydi. Shu omil sabab o‘zbek xalqi eng bolajon va mehr-oqibatlari xalqlardan birdir.

Xulosa qilib aytganda, oilani bir go‘zal bog‘ga, farzandlarni esa uning bir-biridan shirin-shakar mevalariga o‘xshatish mumkin. So‘lim bog‘ aro pishib-yetilgan, ko‘zni quvontiradigan ne’matlarni ko‘rganda inson qalbi yayraydi, bahri dili ochiladi. Sog‘lom oila jamiyatning mustahkam poydevori. Ma’naviyat va ma’rifat, salomatlik nuqtayi nazaridan, oila insoniyat naslini pok saqlovchi, sha’ni va odamiyligini ta’minlovchi asosiy vosita, yuksak tarbiya o‘chog‘idir. Oila rishtasining asosini esa, albatta, oila a’zolarining bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alqarov I.Sh., Mamatqulova R.Sh. Oila tarbiyasining pedagogikasi. – Toshkent, 2007.
2. <https://zarnews.uz/uz/f86>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>

* * *

Xakimova Anora Karimovna,
O‘zMU magistranti

YOSHLARNING AXLOQIY VA IJTIMOIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI

Annotatsiya: Ushbu maqolada oiladagi ma’naviy muhit, uning farzand tarbiyasiga ta’siri, Sharq va G‘arb mamlakatlari oilalarining bir-biridan farqi, mahallaning farzand tarbiyasiga ta’siri maslalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Oila, tarbiya, ma’naviy muhit, mentalitet, axloq, Sharq va G‘arb oilasi.

Аннотация: В данной статье анализируется духовная среда в семье, ее влияние на воспитание детей, разница между семьями Восточных и Западных стран, влияния махалли на воспитание детей.

Ключевые слова: семья, воспитание, духовная среда, ментальитет, нравственность, семья Востока и Запада.

Annotation: This article analyzes the spiritual environment in the family, its influence on the upbringing of children, the difference between families of Eastern and Western countries, the influence of the makhalla on the upbringing of children.

Keywords: family, upbringing, spiritual environment, mentality, morality, family of the East and West

Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi.
Sh.Mirziyoyev

Bugungi kunda sotsiologik yo‘nalishlardan biri bo‘lgan oila sotsiologiyasi o‘z mazmuniga ko‘ra juda keng ko‘lamga ega bo‘lib, hozirgi zamon oila-nikoh munosabatlarining barcha jihatlarini o‘ziga qamrab oladi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi oila-nikoh munosabatlarida ham jiddiy

o‘zgarishlarni, oilaviy munosabatlarda vujudga kelayotgan yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, ularning ichida oila-nikoh munosabatlarining axloqiy, estetik, oila va islom dini, oila va aholi salomatligini himoya qilish muammosi, oila soni, tarkibi, tuzilishi, oiladagi moddiy mojarolar va ajralishlar, ularni keltirib chiqaradigan sabablar, yosh oilalar va ularning ahvoli kabi yo‘nalishlar sotsiologik tadqiqot obyekti bo‘lib qolmoqda.

Oila yoshlarga ta’sir etuvchi asosiy subyektlardandir. Oila jamiyat va davlatning muhim bo‘g‘ini, shaxs ma’naviyatini shakllantiruvchi dastlabki va eng asosiy maskan hisoblanadi. Chunki oilada jamiyat a’zolari – fuqarolar kamol topadi. Oilada singdirilgan tarbiya: yuksak insoniy fazilatlar, milliy-ma’naviy qadriyatlar, axloqiy mezonlar mas’uliyat va burchdorlik tuyg‘usi inson qalbida abadiy muhrlanib qoladi.

Oila – umuminsoniy qadriyat. Oila va nikoh munosabatlari, er-xotin, ota-onva farzandlar o‘rtasidagi burch va mas’uliyat turli xalq va millatlarda ularning turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari, qadriyatlar milliy mentalitetidan kelib chiqib turlicha namoyon bo‘ladi. G‘arb oilasida ota-onva farzandlar o‘rtasida munosabat o‘ta erkinlik asosida qaror topgani holda, Sharqda voyaga yetgan farzandlar ham ota-onalari bilan munosabatda sharqona odob-axloq qoidalariga rioya etadilar. Bu ertalab ishga ketayotib ota-onva duosini olish, kechqurun ishdan kelgach hol-ahvol so‘rash, ota-onadan oldin dasturxonga qo‘l uzatmaslik, ota-onaning ko‘ziga tik qaramaslik, gap qaytarmaslik, ularning gapini bo‘lmaslik, ularning oldida ovozini baland chiqarib qapirmaslik kabilarda namoyon bo‘ladi.

Oilada farzandlarning ham o‘z ota-onalari oldida burchlari bor. Sharqda ota- onalarni e’zozlashning quyidagi talablari avloddan-avlodga meros bo‘lib kelmoqda. Bular ota-onaning hurmatini doim joyiga qo‘yish, ular uchun shirin taomlar pishirib berish, salomatliklari haqida qayg‘urish, ularni norozi qiladigan harakatlarni sodir etmaslik, ota-onalarning nasihatlariga amal qilish, ularning holidan doimo xabardor bo‘lish, ularning roziligi bilan turmush qurish va boshqalar.

Oilaga bo‘lgan e’tibor davlat siyosatining diqqat markazida turadi. Davlat va oila hamkorligining asosida ham farzandlar tarbiyasiga bo‘lgan e’tibor yotadi. Shaxs ijtimoiylashuvining agenti sifatida oila globallashuv jarayonida har qanday holatda ham farzandlar tarbiysi, ularni to‘g‘ri yo‘ldan borishi, vatanparvar, halol, insofli, hayoli, mehrli, diyonatli, e’tiqodli, sodiq bo‘lishi kabi fazilatlarni ularning ongiga singdirish va shu ezgu maqsad yo‘lida doimo harakatda bo‘lish lozim. Demak, oila birlamchi agent sifatida o‘z faoliyati bilan farzandlarimizning axloqiy tafakkurini shakllantiruvchi poydevor hisoblanadi.

G‘arb uchun voyaga yetgan farzandlarning ota-onalardan alohida mustaqil yashashi xos bo‘lsa, Sharqda bir xonadonda 2-3 oila (farzandlarning oilasi ham) birgalikda istiqomat qiladi. Sharqda G‘arb mentalitetiga xos bo‘lmagan ijtimoiy institut – mahallaning ham shaxs ma’naviyatini rivojlantirishda o‘rnii beqiyos. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-onan”, deb bejizga aytilmagan. Mahalla – tarbiya o‘chog‘i. Insondagi bag‘rikenglik, mehr-oqibat, yurtparvarlik, oriyat, sharm-u hayo, andisha, kamsuqumlik kabi ma’naviy fazilatlar aynan mahalla ta’sirida shakllanadi.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov yozganidek, “Bolaning ongi, asosan, 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi”³⁷.

Inson oladigan barcha informatsiyalarning 70%ini 5 yoshgacha oladi, deyiladi. Bu degani esa, 5 yoshgacha bola ijtimoiylashuv davrini bosib o‘tib bo‘ldi, deganidir. Ijtimoiylashuvning ilk qadami oiladan ro‘y beradi. Bola o‘z xatti-harakatini ota-onasining munosabatiga asoslanib shakllantirib boradi. Undagi ijobjiy va salbiy xususiyatlarning paydo bo‘lishiga oiladagi yashash tarzi turtki bo‘ladi. Bolaning qiziqishi va savollari ota-onaning e’tiboridan chetda qolmasligi lozim. Maqsadlar birligi yakdillikda tashkil qilinishi lozim. Farzandning ongi, tafakkur dunyosi boyib borishi, insoniylikka xos fazilatlar o‘zida namoyon qilish qobiliyati va komillikka erishish shu insonlarning qo‘lida. Zeroki, oila tarbiyaning ilk maskanidir.

Oilada ikki narsaga e’tibor berish lozim. Bular: insonning boshqalar bilan muloqotda o‘zligini namoyon qilish holatlari; insoniy munosabatlarning odob-axloqda aks etish imkoniyat va xususiyatlari. Barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning ahamiyati beqiyosdir. Oilada yoshlikdan shaxs shakllana boradi. Oiladagi muhit, tarbiya, e’tibor o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy kamolotini belgilaydi. Shu bois barkamol avlod tarbiyasi o‘ta nozik va ayni vaqtida mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Bunda farzand tarbiyasi millat va xalqning kelajagiga ta’sir etishini yoddan chiqarmaslik kerak.

³⁷ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 53.

Zero, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxt-u saodati, ularning yorug‘ kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin, baxt-u saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilmidon va aqlii, mehnatsevar, iymone-tiqodli farzand, n afaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning katta boyligidir.

Oila a’zolari, ya’ni yoshi ulug‘ insonlar, ota-onasi farzandda hayot, jamiyat haqidagi birlamchi eng umumiyyat qarashlarni shakllantiradilar. Zero, xalqimizda bir naql bor: “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”. Demak, oiladagi mavjud ijtimoiy muhit bolaning jamiyatda o‘z o‘rnini topishda, ma’lum bir qiziqishlar asosida kasb-hunarni egallab, kelajakka ishonch bilan harakat qilishda insonlararo muloqotga kirishganda axloqiy nuqtayi nazardan yondashishida muhim rol o‘ynaydi. Har bir oilaning o‘ziga xos an’ana va qadriyatlarga munosabati turlicha bo‘ladi.

Insonning dunyoga kelishi, yangi avlod paydo bo‘lishi – avlodlar almashuvi, asosan, oilada sodir bo‘ladi. “Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlari, urs-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy muhit maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his qiladi”³⁸. Farzand tug‘ilib, kamolga yetib, shaxs sifatida shakllangunga qadar lozim bo‘lgan barcha ta’lim, tarbiya oila muhitida beriladi.

Insonning ota-onasi, qarindosh-urug‘iga, qariyalarga, atrof-muhitga va tabiatga bo‘lgan munosabatlari dastlab oilada shakllanadi. Shu bilan birga oila urs-odatlarini, qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi sotsial institut hisoblanadi. Oila jamiyat bag‘rida tashkil topib, taraqqiy etib borar ekan, o‘zi ham ana shu jamiyatning kichik bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar oila taraqqiyotiga ta’sir etadi. Oiladagi ta’lim-tarbiya xususiyatlari esa jamiyatda o‘z aksini topadi.

Shuning uchun ham oila va jamiyat o‘zaro bog‘liq holda taraqqiy etib, rivojlanadi. Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti esa, oila a’zolarining ma’lumotlilik darajasi, ijtimoiy mavqeyi salomatligi borasida o‘zgarishi hamda ularning ta’lim-tarbiya, urs-odat, fan va madaniyat tabiatga va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini takomillashib borishidir.

Chinakam zamonaviy oilada ma’naviy-axloqiy qadriyatlari saqlanib, har bir oila a’zosining kitob mutolaa qilishiga, ilm o‘rganishiga, ijodkorlik qilishi uchun muhit yaratib beriladi. Har kimning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda munosabat bildiriladi. Oilaning mustahkam bo‘lishi, oila a’zolarining axloqiy darajasi undagi muhitga bog‘liq. Qaysi oilada sog‘lom muhit, hukm sursa, uning ravnaqi ta’minlangan bo‘ladi. Sog‘lom muhit deganda faqat oilada insonparvarlik, vatanparvarlik, ziyorilik, halollik, rostgo‘ylik kabi tamoyillar va me’yorlarga amal qilinishigina emas, balki uning eskicha an’anaviylik yoki yangicha zamonaviyligini ham tushunish lozim. Zero, aynan ana shu ikki xil turmush tarzi oila kelajagi bilan bog‘liq³⁹.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, oila necha ming yil, zamonlar osha jamiyatning eng muhim sotsial institutlaridan biri sifatida jamiyat istiqbolini belgilashda, uning rivojlanish bosqichlarini tezlashtirishda va fuqarolar o‘rtasidagi birlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda oilaning mustahkam bo‘lishi iqtisodiy, siyosiy va axloqiy-ma’naviy hayot sohalariga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazadi hamda mamlakat barqororligini ta’minlaydi. Mamlakat barqaror bo‘lsa, o‘z navbatida, har bir oilada turmush farovonligi ta’minlanadi, natijada fuqarolarning tinchlik, erkinlik haqida orzu-umidlari ro‘ybga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 53.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 4.
3. Шер А. Ахлоқшунослик. Дарслик. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлар жамиияти” наширёти, 2012. – Б. 295.

³⁸ Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 4.

³⁹ Шер А. Ахлоқшунослик. Дарслик. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлар жамиияти” наширёти, 2012. – Б. 295.

IKKINCHI SHO‘BA.

**ZAMONAVIY OILALARDA
YOSHLARNI MILLIY
VA UMUMINSONIY
QADRIYATLAR VOSITASIDA
TARBIYALASHNING DOLZARB
MASALALARI**



To’chiyeva Gulxumor Umatovna,
Filologiya fanlari doktori

Rashidova Shaxzoda Raimovna,
*O’zbekiston xalqaro islam
akademiyasi doktoranti*

**ZAMONAVIY O’ZBEK OILASIDA FARZAND TARBIYASI UCHUN
MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI
ISLOM TA’LIMOTINING O’RNI**

Annotatsiya. *Islam qadriyatlarini shakllantirish jarayoni masalasi bola kim, uni qanday tarbiya qilish zarur, islam qadriyatlari nimalardan iborat, qaysi qadriyatlarni qanday va qachon tarbiya qilish kerak kabi dolzarb muammolarning yengilsingdirishni anglatadi. Bola va uning kamol topishi, xususan, bolani uning hayoti davomida oilaviy hamda ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish O’zbekistonda azaliy shakllantirilgan. U milliy tafakkur doirasida rivojlantirilgan. Maqolada islam qadriyatlarning o’zbek oilasi, xususan, ta’lim va tarbiya jarayonidagi, shaxs shakllanishidagi o’rni muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *islom, tarbiya, qadriyatlari, e’tiqod, bola, oila, oilaviy va ijtimoiy tarbiya, ta’lim, milliy tafakkur.*

Аннотация. Процесс формирования исламских ценностей требует ответа на такие основополагающие вопросы, как кем является ребенок, как его надо воспитывать, в чем состоит суть исламских ценностей, когда и какие ценности нужно воспитывать. Для формирования глубоко убежденного человека нужно в нем воспитывать исламские ценности. В Узбекистане испокон веков формировались ценности, относящие к процессу формирования ребенка, к защите ребенка в семье и обществе. Эти ценности развивались в национальном сознании. Поэтому, вопрос о формировании исламских ценностей в узбекской семье рассматривается в ракурсе процесса воспитания и образования, формирования личности.

Ключевые слова: ислам, воспитание, ценности, ребенок, семья, образование, семейное и социальное воспитание, национальное сознание.

Annotation. *The process of forming Islamic values requires an answer to such fundamental questions as who the child is, how to educate him, what is the essence of Islamic values, when and what values need to be educated. To form a deeply convinced person, Islamic values must be educated in him. From time immemorial, values have been formed in Uzbekistan related to the process of forming a child, protecting the child in the family and society. These values developed in the national consciousness. Therefore, the issue of the formation of Islamic values in the Uzbek family is considered from the perspective of the process of upbringing and education, from the perspective of personality formation.*

Keywords: *islam, education, values, child, family, education, family and social education, national consciousness.*

Mustaqillik yillarda oilaviy tarbiya masalasi tub o’zgarishlarni boshdan kechirdi. Bir tomondan milliy tarbiya jarayonining mazmuni, maqsadlari, usullari hamda strategiyasi o’zgargan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tarbiyaning milliy mohiyatini tub modernizatsiya qilish, qayta qurish, qayta anglash jarayonlari boshlandi. Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bu oilaviy tarbiyada islam ta’limotiga ham asoslanishdan iboratdir.

Zero, “...oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog‘lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda ulkan ahamiyat kasb etmoqda”⁴⁰.

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, мукаддас динимизнинг соғлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжумандаги нутқи // Халқ сўзи, № 119. 2017 йил 16 июнь.

Movarounnahrlik ko‘pchilik islom hadisshunos, fiqhshunos allomalar asarlarida, jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar to‘plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g‘ofiliyn” kitobi, Abu Mansur al-Moturudiy, Imom ad-Dorimiy, Abu Hafs Nasafiy, Abu Zayd ad-Dabusiy, Abdulhamid Keshiy v.b. olimlar asarlarida farzandlarda yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan⁴¹. Islom manbalari, falsafasi va ijtimoiy qarashlari tizimida bolani aynan e’tiqodli qilib tarbiyalash muhimligi ukdirilgan bo‘lib, xususan, bola va uning ijtimoiy mavqeyi quyidagicha belgilanadi⁴²:

1. Islom dini bo‘yicha, farzand Allohnинг омонати, Uning ne’мати, Yaratgan hadysi, uning inoyatidir. Bola Allohnинг bergen qazoyu qadaridir. Bola Allohnинг qaroridir. Bola yaratilishiga ko‘ra muqaddasdir. Bolalar Allohnинг yerdagi farishtalari sifatdir, bunday sifat va o‘xshatish bola qalbining farishtadek pokligi bilan belgilanadi. Qur’oni karimning Oli Imron surasi 38-oyatida “**Rabbim, menga O‘z huzuringdan yaxshi surriyot berin**”⁴³, deyiladi. Shuuru surasining 49-50-oyatlarida aytlishicha, “**49. Osmonlaru yerning mulki Allohnikidir. U Zot xohlagan narsasini yaratatur. U Zot xohlagan kishisiga qizlar hadya etur va xohlagan kishisiga o‘g‘illar hadya etur. 50. Yoki ularni juftlab – o‘g‘il-qiz qilib berur**”⁴⁴. Binobarin, Allohnинг insonga bergen narsalari ichida farzand eng oliy ne’matdir. Hadisda keltirilishicha, “*Rasululloh huzurlariga bir odam farzandi bilan keldi. Ufarzandini quchoqlab erkaladi. Rasululloh: “Yaxshi ko‘rasanmi?”, dedilar. U esa “Ha”, dedi. Rasululloh (s.a.v): “Alloh buni sendan ham yaxshi ko‘radi”, dedilar*⁴⁵.

2. Islom dinida embrion to‘laqonli odam deb baholanadi, ya’ni embrion o‘zining homilasi paydo bo‘lganidan keyingi 120 kunidan boshlab inson sifatida baholanadi. Shunga ko‘ra, ona qornidagi bola, xuddi shuningdek tug‘ilgan bola shaxs sifatida hurmat va e’tiborga loyiqligi aytildi. Ona qornidagi davridayoq u faqat unga xos xarakter, iste’dod, layoqat, ma’lum bir ovoz, tana tuzilishiga ega bo‘ladi. Ya’ni bola shaxsning ma’lum shaxsiy ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan holda bunyod bo‘ladi va tug‘iladi. Binobarin, bola ona qornida bo‘lganidayoq unga nisbatan tug‘ilgan chaqaloqqa bo‘lgani kabi uning barcha ehtiyojlarini qondirish yo‘lidan bormoq zarur.

3. Islom ta’limotida bolalik davri baxt-saodat, go‘zallik, orzu-havas va hayotning ajoyib olami sifatida tavsiflanadi. Bolalar balog‘at yoshiga to‘limgunga qadar shariat hukmlari zimmalariga yuklanmaydi, gunohlardan pok va ma’sum hisoblanadi. Bolaga tegishli barcha haq-huquqlarning aksariyati islom huquqi manbalari bilan ham himoyalangan. Muhammad payg‘ambar “*Bolalar – jannat gullaridir*”⁴⁶ deb ta’kidlagan. “*Bolalar biz hidlaydigan jannat rayhonlaridir*”, deya murg‘ak bolalarni e’zozlaganlar⁴⁷.

⁴¹ Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Исмоил Бухорий. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ. Олтин силсила: 1-жуз. – Тошкент: Hilol-nashr, 2013. – Б. 159; Комилов М.М. Мовароуннахр фикъ илми ривожида Алоуддин ас-Самарқандийнинг ўрни ва “Тұхфат ал-фуқаҳо” асарининг аҳамияти. Тар. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: ТИУ, 2000; Эшонжонов Б.И. IX аср Мовароуннахр маданий ҳаётида Имом ал-Бухорийнинг мавқейи ва унинг “ал-Жомиъ ас-саҳиҳ” асаридаги фикъий масалалар. Тар. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: ТИУ, 2001; Зиёдов Ш.Ю. Абу Мансур ал-Мотурудий ёзма мероси ва унинг “Китоб атта‘вилот” асари. Тар. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: “Абу Райхон Беруний” номидаги Шарқшунослик институти, 2003; Алимова М.Ф. Имом ад-Доримийнинг ҳадис илми ривожига құшган ҳиссаси. Т.ф.н. ... дис. – Тошкент, 2009. – Б. 27.

⁴² Түйчиева Г.У. Роль ислама в духовно-нравственном воспитании детей и молодежи. // Международная научно-практическая конференция на тему «Роль семьи в духовно-нравственном воспитании детей и молодежи». Тезисы. – Ташкент, 2018. – С. 88-92; Юсупова Н.Ж. Исломда оила ҳукуки / ўқув-услубий кўлланма. – Тошкент: «Тошкент ислом университети», 2008. – Б. 74; Юсупова Н.Ж. Мовароуннахр ҳанафий фақихлари асарларида оиласи муносабатларни мустахкамлашга оид қарашларнинг моҳияти. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2018; Юсупова Н.Ж. Ислом оила ҳукуки: пайдо бўлиши, ривожланиши, манбалари ва институтлари. – Тошкент: Истиқол нашриёти, 2019.

⁴³ Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Биринчи жуз. Тузатилган ва тўлдирилган қайта нашр. – Тошкент: “Hilol Nashr”, 2018. – Б. 321.

⁴⁴ Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Бешинчи жуз. Тузатилган ва тўлдирилган қайта нашр. – Тошкент: “Hilol Nashr”, 2018. – Б. 359.

⁴⁵ Раҳмонов Р. Исломда фарзанд ҳукуқлари. – Тошкент: «Мовароуннахр», 2011. – Б. 46.

⁴⁶ Усмонов И., Шермуҳамедов К., Жўраев Ш., Насруллаев Н., Алимова М., Нажмиддинов Ж., Турдиева Д., Каримов Ж., Алимов А., Тўйчиева Н., Ҳакимова Н., Каримова Д., Эрназаров О. Исломда соғлом бола тарбияси. Масъул мухаррир И.Усмонов. – Тошкент: Мовароуннахр, 2014. – Б. 160.

⁴⁷ Ал-Уструшаний Абу-л-Фатҳ Мұхаммад ибн Маҳмуд ибн Ҳусайн. Жомиъ аҳқом ас-сифор / Муфтий Усмонхон Алимов ва Мұслим Ризки Ато таҳрири остида. – Тошкент: ТИУ, 2010. – Б. 8; Алимов, Усмонхон. Оиласи фарзанд тарбияси. – Тошкент: Мовароуннахр, 2017. – Б. 42; Агаев М.Р. Маждууддин ал-Уструшанийнинг Мовароуннахр фикъ илми тарихида тутган ўрни. Тар. фан. ном. ... дис. – Тошкент: ТИУ, 2011. – Б. 202.

4. Allohma tegishli bo‘lgan mavjudot sifatida farzandni yaxshi ko‘rish, uni mehr bilan tarbiya qilish joiz. Farzandni yaxshi ko‘rish uchun mehr qudrati otaga ham, onaga ham Alloh tomonidan in’om etiladi. Islom diniga ota, umuman, hayot tebratish uchun mas’ul, shu jumladan, oilaviy tarbiya uchun ham mas’ul sanaladi⁴⁸. Binobarin, ota farzandni islom ta’limoti bo‘yicha tarbiya qilish uchun ham mas’uldir. Ota farzand boquvchisidir. Ota bolani shakllantiruvchi insondir. Ota bolani musulmon kishisiga aylantiruvchi asosdir. Shu bois, otaga Alloh bola uchun rizq in’om etadi. “*Ota-onasiga go’zal odobdan afzal narsa bera olmaydi*”, deyiladi hadislarda⁴⁹ (Imom Buxoriy va imom Termiziyy rivoyati).

5. Har bir farzand o‘z qazoyu qadariga ega bo‘lib dunyoga keladi. Ilmiy til bilan ifodalansa, har bir tug‘ilajak bolaning o‘z missiyasi mavjud. Har bir bolaning dunyoga kelishi va hayot kechirishida Yaratgan tomonidan ato etilgan o‘z missiyasi, ya’ni hayotdagi maqsadi va vazifalari bor. Shu bois uning rizqi ham, uning hayotdagi o‘rnii va missiyasi ham faqat mana shu bolaniki bo‘ladi. Hayot, rizq, mavqe va missiya ham Allohdan beriladi. Shunga ko‘ra, Allohnинг farzandga bergen aql-u idroki, iste’dodi, missiyasi va rizqini o‘z vaqtida to‘g‘ri anglash, uni mana shu taqdir yo‘nalishida, mana shu missiya tomon tarbiya qilish zarur. Bolaning missiyasini hurmat qilish, e’zozlash va uni Alloh tomonidan bola taqdiriga boylanganligini anglash zurur. Hadislarda aytishiga ko‘ra, “*Kimning yosh bolasi bo‘lsa, u uchun o‘zini bolalarcha tutsin*” (Muoviyat rivoyati)⁵⁰.

6. Bolaning muhofazasi, rizqi, hayoti Allohnинг qo‘lidadir. Alloh bola to‘g‘risida qayg‘uradi, unga o‘z mehrini ayamaydi, balolardan asraydi. Islom e’tiqodi bo‘yicha, har bir bola nasabi pok bo‘lib tug‘iladi. Bolaning mana shunday muhofazasi uning qonuniy yo‘l bilan, yoki noqonuniy, ya’ni nikohsiz bonyod bo‘lgani bilan belgilanmaydi. Qonuniy tug‘ilgan va noqonuniy tug‘ilgan chaqaloqlar o‘z erklari va huquqlarida tengdirlar. Noqonuniy tug‘ilgan chaqaloqlarga jazo berilmaydi, jazo ularning ota-onalariga tegishlidir. Agar chaqaloq noqonuniy tug‘ilgan bo‘lsa-yu, keyin uning ota-onasi nikoh o‘qigan bo‘lsa, bu farzand qonuniy maqomga ega bo‘ladi. Noqonuniy bolaning tug‘ilishi bu bolaga gunoh sifatida yozilmaydi (“**Qiyomat kunida hech bir ko‘targuvchi (gunohkor jon) o‘zga jonning yukini (ya’niy gunohini) ko‘tarmas**”⁵¹). (Qur’on, 35: 18)

7. Islom dini talablari bo‘yicha bolaning tug‘ilishi bilanoq ba’zi bir huquqlari amalga kiradi. Bu bolaning chirolyi ismga ega bo‘lish huquqidir. Islomda ota-onaning farzand oldidagi eng asosiy vazifalaridan biri bolaga chirolyi ism qo‘yish hisoblanadi. “*Farzandlaringizga chirolyi ism va yaxshi tarbiya beringlar*”⁵². Bundan tashqari, oxirat kuni hamma o‘z ismi va otasining ismi bilan chaqirilishimi, shu tufayli ismni e’tibor bilan tanlash lozimligi ta’kidlangan. Muhammad (s.a.v.) ba’zi odamlarga o‘zlariga yoqmagan ismlarini boshqa chirolyi ismlarga o‘zgartirib berganlar. Shu jumladan, ismi urush (harb) bo‘lgan odamning otini Silm (tinchlik) ga o‘zgartirib berganlar. Bir viloyatning nomi iflos (afira) bo‘lgan, bu nom xadira (yashnab gullagan) vodiyligi nomiga o‘zgartirilgan⁵³.

8. Bolaga nisbatan mehr oqibatli munosabat ko‘rsatish, bola bilan bolalarcha muloqot olib borish, bolaning bolalik davrini hurmat qilish va unga turli o‘yinlar, xususan koptok, bekinmachoq, quvlashmachoq, kim birinchi yetib keladi, yugurish, kamon otish kabilarda ular bilan musobaqalashmoq buyurilgan. Bu haqda Payg‘ambar: “*Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni o‘rgatinglar*”, deganlar (Bayhaqiy rivoyati)⁵⁴. Muhammad (s.a.v.) ham o‘z nabiralari bilan har xil o‘yinlar o‘ynashni juda xush ko‘rganlar. Umar ibn Xattob rivoyat qilishicha: “*Bir kuni men Payg‘ambarning huzurlariga borganimda, ularning nabiralari Hasan va Husayn bilan o‘yin o‘ynayotganlarini ko‘rdim. Ular nabiralalarini orqalariga*

⁴⁸ Холмўминов Ж. Оилада сиз масъулсиз. – Тошкент: Мовароуннахр, 2015. – Б. 56.

⁴⁹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. Яхшилик ва ахлоқ китоби. – Тошкент: “Hilol Nashr”, 2019. – Б. 456. Яна қаранг:: <https://islom.uz/maqola/5210>; <http://muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/2311-biz-ukhlasak-ular-uj-onadi>

⁵⁰ Абдуллоҳ Н.У. Тарбият ал-авлад фил ислам. – Байрут: Дарус-салом, 1981. – Б. 259; Children in Islam. Their Care, Upbringing and Protection. – Al-Azhar University in cooperation with the UNICEF. 2005. – Р. 123.

⁵¹ Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсири муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: «Тошкент ислом университети», 2012. – Б. 624; Яна қаранг: Куръони карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур // Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 316.

⁵² Усмонхон Алимов. Оилада фарзанд тарбияси. – Тошкент: Мовароуннахр, 2017. – Б. 42.

⁵³ Сахих ал-Бухари. Имом Абдул-Аббас Ахмад бин Абдул-Латиф аз-Зубайди тузган / А.Нирша таржимаси. 1959 (6192). – Москва. Умма. 2008. – Б. 775.

⁵⁴ Усмонхон Алимов. Оилада фарзанд тарбияси. Тошкент: Мовароуннахр, 2017. – Б. 42 (420)

mindirib olib, ularga “Qaranglar qanday yaxshi otingiz bor, sizlar esa qanday yaxshi chavandozsizlar”, deb aytayotgan edilar”.

9. Bolani og‘ir mehnatdan muhofaza qilmoq, bola ta’limi jarayonini mehr asosiga qurish zarurligi va sabr bilan, jazo choralarini ko‘rmay tarbiya qilish kerakligi uqtirilgan. Payg‘ambar minbarda xutba kilgan vaqtlarida, nevaralari Hasan va Husaynni qo‘llariga olish uchun minbardan tushib, keyin yana xutbani davom ettirganlar. Payg‘ambar namozda sadja qilib turganlarida nevaralari Hasan u kishining ustilariga, yelkalariga chiqib oladi. Payg‘ambar bolaga ehtirom ko‘rsatib, uni avaylab, sajdalarini buzmaganlar, sajdada qolganlar va sajda qilishni davom ettirib, bolaning ustilarida o‘ynashlari uchun imkon bergenlar⁵⁵. Namoz vaqtida bolani haydmaslik, “Mening namozimni buzzinglar” deb ularni koyishdan to‘xtatganlar.

10. Islomda bolani ilmga rag‘bat etish sunnatdir. Farzandlarga ta’lim olishlarini ta’minalash ota-onaning burchi hisoblanadi. Ta’lim berish uslubiga kelsak, u bola o‘zlashtiradigan darajada bolaning yoshi va ongiga mos hamda qadr-qimmatini kamsitmaydigan bo‘lishi lozim. Agarda bolaning ilmga layoqati va rag‘bati yo‘q ekanini sezsa, biroq unda bahodirlik va ot minish, o‘q otish, nayza o‘ynatish kabi ishlarga qobiliyat ko‘rinsa, unga shu soha bilan shug‘ullanish va mashq qilish maslahat beriladi⁵⁶. Islom e’tiqodi bo‘yicha, bolalarga bir necha yo‘nalishda ta’lim berish zarur, ular:

- 1) Qur’oni karimdan ta’lim berish;
- 2) jismoniy mashg‘ulotlar (kamon otish, suzish, chavandozlik va h.k.);
- 3) zamonaviy bilim va tajribalar.

Hazrat Alining so‘zlariga qaraganda, ham “*Farzandlaringizga o‘zingiz yashagan zamonga moslab emas, o‘z zamonlariga munosib ilm bering. Zero, ular sizning zamoniningizda emas, o‘z zamonlarida yashaydilar*”⁵⁷.

11. Har doim bola bilan muloqot qilganda bolaning qalbiga murojaat qilish zarurligi ta’kidlangan. Tarbiyada faqat bolaning qalbiga murojaat qilish orqaligina samaraga erishish mumkinligi va bolani yaxshi amallarga undash, uni rag‘batlantirish mumkinligi ta’kidlangan. Qur’onning Moida surasi, 2-oyatida ta’kidlanganiga ko‘ra, “**Yaxshilik va taqvo yo‘lida hamkorlik qiling, gunoh va haddan oshish yo‘lida hamkorlik qilmang!**”⁵⁸. “**Odamlarga yaxshi gaplar ayting**”, deyiladi Qur’oni karimning Baqara surasi, 83-oyatida. Yaxshi gap esa, imom Hasan Basriyning fikriga ko‘ra, “amri ma’ruf, nahiya munkar, hilm-u avf, kechirim va shirin so‘zlardan” iboratdir⁵⁹.

12. O‘z bolasini, xususan, qizlarni, shuningdek o‘zgalar bolasini o‘ldirish qat’iyan man qilinadi. Umuman, biror bir bolaga, ayniqsa, yetimlarga zarar yetkazishlik qoralanadi va Alloh tomonidan jazolanadi. Bolaga hatto kambag‘allikdan qo‘rqib, ya’ni uni boqishdan qo‘rqib voz kechish qat’iyan man qilinadi. Chunki mana shu bolaning rizqi Allohnинг qo‘lidadir. Rizqni Alloh beradi, bandasi, ya’ni bolaning ota-onasi emas. Agar ne’matlar va nasiba nuqtayi nazardan qiyinchilik vujudga kelgan bo‘lsa, boladan voz kechish emas, balki Allohdan chiroyli nasiba so‘rash va bolani duo qilish zarur. Shunda Alloh oilani ham, uning kattalarini ham, ularning qo‘lidagi farzandlarni ham muhofaza qiladi. “**Ey insonlar, bolalaringizni yo‘qchilikdan qo‘rqib o‘ldirmangizlar – ularga ham, sizlarga ham Biz o‘zimiz rizh berurmiz. Ularni o‘ldirmoq, shak-shubhasiz, katta xatodir**” (Qur’on, 17: 31).

13. Bolani aldab bo‘lmasligi Qur’onda ham, hadislarda ham ta’kidlanadi. Bolani yolg‘ondan ham aldab bo‘lmaydi. Agar ona, yoki ota og‘zidan biror bir va’da berildimi, uni bajarish joiz. Bu bolaga kattalar tomonidan ko‘rsatilgan chin insoniy va adolatl mutosabat belgisi sanaladi.

Rasululloh eslatadilarki, “*Bolalaringizni seving va ularga mehribon bo‘ling. Ularga biror narsa va ‘da qilsangiz, va ‘dangizga vafo qiling. Chunki ular siz va ‘da qilgan narsani kutishadi*”⁶⁰.

14. Bolani hayotga tayyorlash tarbiyaning asosi sifatida belgilanadi. Hayotda bola o‘z xislatlari, avvalo, Allohn ni taniganligi, to‘g‘ri so‘zligi, adolatpeshaligi, mehnatkashligi bois, shuningdek kasb-u kori, halolligi

⁵⁵ Усмонхон Алимов. Оилада фарзанд тарбияси. Тошкент: Мовароуннарх, 2017. – Б. 273-274

⁵⁶ Каримова Д.Р. Ўзбекистон худудида бола хуқуклари генезиси, эволюцияси ва унинг истиқболлари. Юрид. фан. докт. (DSc) дис.авт. – Тошкент, 2017.

⁵⁷ Пайғамбаримизнинг Ҳазрат Алига насиҳатлари ва Ҳазрат Алидан ҳикматлар. Нашрга тайёрловчи: Дилфуз Шойзоқова, Сумайро Холмуродова. – “Sharq” нашриёт-матбаа акциодорлик компанияси, 2015. – Б. 223.

⁵⁸ Куръон карим. Таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур. // Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 73.

⁵⁹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири хилол. Биринчи жуз. Тузатилган ва тўлдирилган қайта нашр. – Тошкент: “Hilol Nashr”, 2018. – Б. 68 (640).

⁶⁰ Ахмад Тавфиқ, Маиса Ҳамид. Исломда болалар тўғрисида ғамхўрлик. ЮНИСЕФ Қохира: “Ал-Азҳар” университети, 1985. – Б. 28.

va e’tiqodining butunligi bois turli ne’matlarga sazovor bo‘ladi. Bolani, avvalo, Allohma tavakkal qilib yashashga o‘rgatish joiz. Allohma tavakkal esa, barcha ne’matlarning egasi Alloha ekanligini tan olishdan va Unga umidvor bo‘lishdan boshlanadi.

15. Bolaning hayotdagi barcha yutuq va kamchiliklariga ham sabrli munosabat ko‘rsatish kerakligi islom dinida ta’kidlanadi. Bolaga adolatli munosabat ko‘rsatish insonning bezagidir. Bolani har kuni quchoqlash va o‘pish bu sunnat. Abu Hurayradan rivoyat qilinadi: “*Rasululloh o‘z huzurlarida al-Aqra’ ibn Hobis Taymiy o‘tirganida Hasan ibn Alini o‘pdilar. Shunda u: “Mening o‘nta bolam bor. Ulardan birortasini o‘pganim yo‘q”, dedi. Bas, Rasululloh unga nazar soldilar va: “Rahm qilmaganga rahm qilinmas”, dedilar*” (Buxoriy rivoyati)⁶¹.

16. Oiladagi barcha bolalarni o‘zaro teng ko‘rish, ularni ayirmaslik, birini ikkinchisidan ustun qo‘ymaslik, boy bo‘lgan bolaga yaxshi munosabat ko‘rsatib, kambag‘al bolaning ko‘ksini cho‘ktirish, uning kamchiliklarini ochiq aytib, haqorat qilish mumkin emas. Agar bolaning ishi yurishmayotgan bo‘lsa, buni Allohnинг sinovi sifatida qabul qilish va bolani yaxshi duolar bilan sidqidildan Alloha oldida duo qilish zarur. Otaning duosi va onanining duosi bolaning taqdirini o‘zgartirishi mumkin. Har bir farzand ota va ona mehriga bir xilda munosib bo‘lib, birining ikkinchisi oldida ustunligi yo‘qdir. Ota-onu o‘z bolasining yaxshi taqdiriga ishonishi zarur, bu narsa aslida ularning Alloha mehriga ishonishlarini anglatadi. Allohnинг ne’matidan bahra olishlariga umid qilishga o‘rgatadi. Hadislarda: “Allohdan qo‘rqinglar va bolalaringizga adolatli bo‘linglar. Shunda ular sizni hurmat qiladi hamda sizga itoat qiladi” deyilgan⁶². Islom dinida, “Agar ota farzandlaridan biriga biror narsa tortiq qilsa, toki bo‘lak farzandlariga ham adolat qilib, o‘sancha tortiq qilmas ekan, joiz bo‘lmay, unga guvohlik qilinmas”, deb ta’kidlanadi. Rasululloh: “Farzandlaringizni teng ko‘ringizlar!”, deb ta’kidlaganlar⁶³.

Qur’он oyatlari va hadislarda keltirilgan mazkur qadriyatlар farzand va uni tarbiya qilinishi tartiblariga bevosita aloqadordir. Eng qadimgi davrlardan boshlab “*bola*” tangrining qudrati va in’omi, hayotning bosh maqsadi va mag‘zi, ruhiy ne’mat, oilaviy baxt va uning sarhisobi, ma’naviy ozuqa, xursandlik nishonasi, avlod an’analaring davomchisi, umuman, o‘zbek xalqining milliy-ma’naviy qadriyatlarining muhim asoslardan biri sifatida tavsif qilingan. Bola muhofazasi, bolani maqsadli tarbiya qilish zarurligi, uni ta’lim bilan ta’minalash bizning hududimiz uchun tarixiy-ijtimoiy hodisa sanaladi. Biz yuqorida ta’kidlangan mana shu insoniy qadriyatlarni bilishimiz va ularda keltirilgan ma’naviy boylikni tarbiya, xususan oilaviy tarbiya jarayoniga tatbiq etishimiz, keltirilgan tamoyillarga esa o‘z hayot tartibimiz va turmush tarzimizda itoat etishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжумандаги нутқи // Халқ сўзи, № 119. 2017 йил 16 июнь.
2. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил Бухорий. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ. Олтин силсила: 1-жуз. – Тошкент: Hilol Nashr, 2013. – Б. 159.
3. Комилов М.М. Мовароуннаҳр фикҳ илми ривожида Алоуддин ас-Самарқандийнинг ўрни ва “Тухфат ал-Фуқаҳо” асарининг аҳамияти. Тар. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: ТИУ, 2000.
4. Эшонжонов Б.И. IX аср Мовароуннаҳр маданий ҳаётида Имом ал-Бухорийнинг мавқеи ва унинг “ал-Жомиъ ас-саҳиҳ” асаридаги фикҳий масалалар. Тар. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: ТИУ, 2001.
5. Зиёдов Ш.Ю. Абу Мансур ал-Мотурудий ёзма мероси ва унинг “Китоб ат-таъвилот” асари. Тар. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, 2003.

⁶¹ Саҳиҳ ал-Бухари. Имом Абдул-Аббас Ахмад бин Абдул-Латиф аз-Зубайди тузган / А.Нирша таржимаси. 1959 (6192). – Москва: Умма. 2008. – Б. 775; Фанибоева Ш.К. Ўзбекистон Республикасида бола хукуклари тўғрисидаги конвенцияни амалга оширилишининг халқаро-хукукий масалалари (назария ва амалиёт муаммолари): Юрид. фан. номз. дис. ... автореф. – Тошкент: ТДЮУ, 2009. - 26 б.

⁶² Бурхониддин ал-Марғиноний. “Ҳидоя”. – Тошкент: “Адолат”, 2000. – Б. 844.

⁶³ Атаев М. Имом Уструшаний. – Тошкент: “Тошкент ислом университети”, 2010. – Б. 46.

6. Алимова М.Ф. Имом ад-Доримиининг ҳадис илми ривожига қўшган ҳиссаси. Тар. ф.н. .. дисс. – Тошкент: 2009. – Б. 27.
7. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири хилол. Биринчи жуз. Тузатилган ва тўлдирилган қайта нашр. – Тошкент: “Hilol Nashr”, 2018. – Б. 321.
8. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири хилол. Бешинчи жуз. Тузатилган ва тўлдирилган қайта нашр. – Тошкент: “Hilol Nashr”, 2018. – Б. 359.
9. Раҳмонов Р. Исломда фарзанд ҳуқуқлари. – Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2011. – Б. 46.
10. Усмонов И., Шермуҳамедов К., Жўраев Ш., Насруллаев Н., Алимова М., Нажмиддинов Ж., Турдиева Д., Каримов Ж., Алимов А., Тўйчиева Н., Ҳакимова Н., Каримова Д., Эрназаров О. Исломда соғлом бола тарбияси. Масъул муҳаррир И.Усмонов. — Тошкент: Мовароуннаҳр, 2014. – Б. 160.
11. Ал-Уструшаний Абу-л-Фатҳ Муҳаммад ибн Маҳмуд ибн Ҳусайн. Жомиъ аҳком ас-сиғор / Муфтий Усмонхон Алимов ва Муслим Ризқи Ато таҳрири остида. – Тошкент: ТИУ, 2010. – Б. 8.
12. Алинов, Усмонхон. Оилада фарзанд тарбияси. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2017. – Б. 42.
13. Атаев М.Р. Маждуддин ал-Уструшанийнинг Мовароуннаҳр фиқҳ илми тарихида тутган ўрни. Тар. фан. ном. ... дис. – Тошкент: ТИУ, 2011. – Б. 202.
14. Холмўминов Ж. Оилада сиз масъулсиз. – Тошкент: Мовароуннаҳр. 2015. – Б. 56.
15. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. Яхшилик ва ахлоқ китоби. – Тошкент: “Hilol Nashr”, 2019. – Б. 456.
16. Абдуллоҳ Н.У. Тарбият ал-авлад фил ислам. — Байрут: Дарус-салом, 1981. – Б. 259.
17. Children in Islam. Their Care, Upbringing and Protection. – Al-Azhar University in cooperation with the UNICEF. 2005. – Р. 123.
18. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: «Тошкент ислом университети», 2012. – Б. 624.

* * *

Begmatova Dilnoza Muxtarovna,
SamDChTI, p.f.f.d. (PhD), dotsent

O‘ZBEK MILLIY AN’ANA VA QADRIYATLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Hozirgi zamonda ilg‘or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog‘li yuksaklikka ko‘tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tub o‘zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog‘lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: tarbiya, an’alar, qadriyatlar, “ommaviy madaniyat”, zamon qahramoni.

Аннотация. В настоящее время демократические принципы жизни развитых государств также оцениваются по тому, насколько высоко человек может поднять свою ценность. Фундаментальные изменения в нашей стране, суть реформ также проис текают из этого принципа. В реализации этого принципа большое значение имеет формирование нового мировоззрения, здорового мышления, основанного на гармонии национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: воспитание, традиции, ценности, «массовая культура», герой времени.

Annotation. Currently, the democratic principles of life in developed countries are also evaluated by how high a person can raise his value. Fundamental changes in our country, the essence of reforms also

stem from this principle. In the implementation of this principle, the formation of a new worldview, healthy thinking based on the harmony of national and universal values is of great importance.

Keywords: upbringing, traditions, values, “mass culture”, the hero of the time

Yoshlar tarbiyasi hamma vaqt va har qanday jamiyatda muhim ahamiyat kasb etgan. Buni ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniying “**Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir**”, degan so‘zleri tasdiqlab turibdi.

Hozirgi shiddat bilan o‘tayotgan davrimizda o‘ziga xos va mos milliy, diniy qadriyatlarga asoslangan xalqimizning tarbiya borasidagi azaliy an’analari “ommaviy madaniyat”, milliy, diniy qadriyatlarmizga yet g‘oya va qarashlar ta’sirida asl mohiyatini yo‘qotib borayotgani barchamizni tashvishga soladi. Shuning uchun ham tarbiyaviy masalalarga e’tibor qaratmasak, ertaga kech bo‘lishi va xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy:

Oldiga qo‘yganni yemak – hayvon ishi,

Og‘ziga kelganni demak – nodon ishi, – degan misralari bejizga emas.

Hazrati Navoiyning ushbu misralarida har qanday narsani milliy-diniy qadriyatlarga to‘g‘ri keladimi yo‘qmi, ko‘r-ko‘rona amal qilish va targ‘ib qilish insoniylik fazilatidan yiroqdaligi aytayotganday.

O‘tmishga, bobo-buvilarimizning hayot tarziga nazar tashlasak, oilada o‘g‘il bola tarbiyasi bo‘yicha alohida shug‘ullanilgan. Yoshligidan oilaning suyanchi, oila kattasi, opa-singillarining himoyachisi bo‘lishini, qolaversa, Vatanning tayanchi va ota-onha orzu-havasi ekanini ongiga singdirilib, shu asosda tarbiya berilgan.

Qizlarimiz oilaning sha’ni, iqobi. Farzandlarining tarbiyasi ularga bog‘liq. Shuning uchun bobo-buvilarimiz qizlarimizni namunali ona, vafodor yor va iboli-hayoli qizlar bo‘lishlarini ko‘zlab tarbiyalashgan.

Yoshlarimizni Ona vatanga muhabbat, milliy-diniy qadriyatlarmizga hurmat ruhida, yuksak ma’naviyatli va salohiyatli qilib tarbiyalash har birimizning vazifamizdir. Farzandlarimiz o‘z ota-bobolariga, tariximiz, Vatanimiz, ona tilimizga sodiq va milliy qadriyatlarmizga, muqaddas dinimiz an’analariga amal qilguvchilardan bo‘lsin.

Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalarga qadriyatlar deyiladi. Qadriyatlar – narsa va voqealar, jamiyat, moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo‘llanadigan tushuncha. Demak, “Qadriyat” tushunchasi - juda keng tushuncha bo‘lib, uning bir qismi – ma’naviy qadriyatlardir. Milliy-ma’naviy qadriyatlari – “milliylik”, “ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarini o‘z ichiga oladi.

“Milliy-ma’naviy qadriyatlari” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo‘lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma’naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g‘oyalar va me’yorlar milliy-ma’naviy qadriyatlardir. Har bir xalqning o‘zi uchun e’zozli, qimmatli bo‘lgan ma’naviy boyliklari bo‘ladi. Bular asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelgan, hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyati va qadrini yo‘qotmagan, shu xalqning iftixon manbayiga aylangan durdonalardir. Masalan, qirg‘iz xalqi “Manas” dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o‘zbeklar Samarcand-u Buxoro va Xiva shaharlari bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Millat va elatlarning o‘ziga xos tarixiy merosi, san’ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlari tizimiga kiradi. Bular xalqning o‘ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o‘ynaydi. Milliy qadriyatlari xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o‘ziga xos mezon vazifasini o‘taydi. Ushbu qadriyatlari vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo‘layotgan faoliyat turlari va rasm-rusmlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo‘ljallari, “zamon qahramoni” haqidagi tasavvurlari ham ma’naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi. Milliy g‘oyani obyektiv anglashda qadriyatlari va ma’naviyat olamini bilish va uni amaliy o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Qadriyatlarning quyidagi turlarini ta’kidlab o‘tish lozim:

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar.
2. An’analor, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo‘ladigan axloqiy qadriyatlar.
3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko‘nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste’dodlarida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar.
4. Odamlar o‘rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, xayrixohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan qadriyatlar.
5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar.

Qadriyatlarning xilma-xil shakllari mavjud: moddiy va ma’naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy qadriyatlar jamiyat hayotining sohalari bo‘yicha: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar haqiqiy qadriyatlarning namoyon bo‘lish vositalaridir (masalan, hayotda kerak bo‘ladigan turli buyumlar). Insoniyat tarixi unga xizmat qiladigan, o‘zi yaratgan, suyanadigan va qo‘llab-quvvatlaydigan qadriyatlar dunyosining kengayishi, boyish va takomillashish tarixidir. Insoniyat o‘zining kundalik mehnati bilan yaratayotgan sun’iy narsalar dunyosida yashaydi. Biz yaratayotgan ushbu moddiy va ma’naviy boyliklar olamining gultoji, sarasi qadriyatlardir. Milliy g‘oyaga asoslangan qadriyatlar va qadriyat mezonlari kishilarga, ularning xulq-atvorini tartibga solish va to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi. Bunday o‘ziga xos boshqarishning samaradorligi kishilarimizning milliy g‘oya bilan bog‘liq qadriyatlar olamini bilishiga bog‘liq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma’naviy immunitetli, o‘zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-onas, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o‘zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, iyemon-e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o‘z ota-bobolariga, o‘z tarixi, vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’nalariga sodiq bo‘lib kamol topishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулла Авлоний. “Туркӣ гулистон ёхуд ахлоқ”. – Тошкент: “Шарқ”, 1994.
2. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар, – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2001. 136-150-бетлар.
3. Муродов М., Қорабоев У., Рустамова Р. Этномаданият. – Тошкент: Адолат, 2003.
4. Бекмуродов А.Ш. Маънавий-маърифий фаолият: устувор масалалар ва инновациялар. – Тошкент: ТДИУ, 2005.
5. Абдурахмонов А. Саодатга элтувчи билим. – Тошкент. “Ўзбекистон”, 2004.

* * *

Jabborov Xazrat Xusenovich,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti v.b,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ZAMONAVIY OILALARDA YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy oilalarda yoshlarni milliy qadriyatlar vositasida tarbiyalashning psixologik omillari, oilada farzand tarbiyasiga bo'lgan munosabatlar, ota-onalarning farzand tarbiyasi metodlarini bilish darajasi kabi masalalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy oila, milliy tarbiya, fazilat, xususiyat, axloq, illat, tahdid, ma’naviyat, ma’rifat, milliy qadriyat.*

Аннотация. В этой статье вы можете познакомиться с исследованиями психологических факторов воспитания молодежи в современных семьях через национальные ценности, отношение к воспитанию детей в семье, уровень знаний родителей о методах воспитания.

Ключевые слова: современная семья, национальное воспитание, добродетель, характер, мораль, пороки, угроза, духовность, просвещение, национальные ценности.

Annotation. In this article you can get acquainted with the research of psychological factors in the upbringing of young people in modern families through national values, attitudes towards raising children in a family, the level of parents' knowledge of upbringing methods.

Keywords: modern family, national education, virtue, character, morality, vices, threat, spirituality, enlightenment, national values.

O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta’lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma’naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzlusiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, olyi ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlardan ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlarini bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

Masala yuzasidan adabiyotlar tahlili milliy va ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, shu jumladan, milliy va ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligini ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan bugungi globallashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq qilish orqali oilada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish, ko‘rsatish, o‘rgatish, namuna bo‘lish kabi ta’sirchan usullarni isloh qilish va shu orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Oilada milliy tarbiya va farzand tarbiyasi haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” [1] degan chuqr ma’noli so‘zлari inson e’tiborini tortadi. Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma’naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma’lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e’tiborsizdek tuyuladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya’ni oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati millatning ma’naviy tanazzulining asosi desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xo‘sh nega bugun ota-onalar farzand tarbiyasiga e’tiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishga qanday omillar to‘sqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizni masala yuzasidan hamma uchun bir tildagi optimal yechim topish vazifasini qo‘ymoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo‘lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda bizda farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illat va tahdidi kuchayib bormoqda.

Oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati bir qator qarorlarda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldaggi PQ-3160-sonli [2], 2019-yil 3-maydaggi PQ-4307-sonli[3], 2021-yil 26-martdaggi PQ-5040-sonli Qarorlari[4] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli[5] qarorida ichki tahdid sifatida qayd qilinib, mazkur tahdidlarni yuzaga keltiruvchi pedagogik, psixologik omillar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, mazkur tahdidlarga nisbatan psixologikg‘oyaviy kurash olib borish vazifasi qo‘yildi.

Yuqoridagi masalani nechog‘lik xavotirli va dolzarbli to‘g‘risidagi mulohazalarni asoslashda biz tomonimizdan bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroficha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish va zarur maqsadli va manzilli psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari mavzusi bo‘yicha joylarda tekshiriluvchilar bilan suhbat, ekspert-intervyu, so‘rovlar (ijtimoiy-psixologik), kuzatish, kontent tahlil, modellashtirish, matematik statistika (spss dasturi), gipotetik-deduksiya, vizualizatsiya, longityud monitoring va ma’naviy marketing kabi metodlar orqali o‘rganishlar olib borildi va quyidagicha empirik natijalar qayd qilindi(1-jadval).

I-jadval

Respondentlardan “Ota-onalarning farzandiga yaxshi tarbiya berishi uchun nima xalaqit beryapti”, deb o‘ylaysiz?” deb berilgan so‘rovnomalarini natijalari

Mezonlar	Hududlar kesimida					
	Navoiy vil.	Jizzax vil.	Sirdaryo vil.	Samarqand vil.	Buxoro vil.	Toshkent shahri
Ota-onalar tarbiya metodlarini bilmaydi va tarbiyadagi mas’uliyatini anglamaydi	60%	57,4%	57%	53%	44%	50%


Bizning taqiqotimiz davomida milliy tarbiyada tayanch ma’naviy fazilatlarni shakllanganlik darajalari va aholining ichki va tashqi tahdidlardan habardorlik darajalarini aniqlashtirishga qaratilgan o‘rganishlarimiz quyidagicha empirik ko‘rsatkichlarni qayd qildi (2-jadval).

2-jadval

Aholining ichki va tashqi tahdidlardan xabardorlik darajasi

Nº	Tahdidlar nomi	<u>past</u>	<u>o’rtacha</u>	<u>yaxshi</u>
1	Oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik	55%	22, 2%	22,8%
2	El-yurt taqdiriga loqaydlik	49%	31%	20%
3	Milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik	47%	22%	31%
4	OITS	43,3%	27,1%	28,8%
5	Erta turmush qurish	42,2%	35,5%	22,3%
6	Terrorizm, Diniy ekstremizm	41,5%	26,6%	31,8%
7	Oilaviy ajralishlar	41,2%	35,5%	23,3%
8	Narkobiznes	40,6%	33,4%	26%
9	O’z joniga qasd qilish	40,4%	23,4%	36,2%
10	“Ommaviy madaniyat”	39 %	29,3%	31,7%
11	Odam savdosи	38,8%	28,8%	32,4%
12	Mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik	36,6%	31,2%	32%

O’rganishlarda ma’lum bo‘ldiki, tekshiriluvchilarning aksariyati barcha tahidlardan yetarlicha ogoh va xabardor emas. Tahidlarni tanimaslik, uning oqibatlaridan ogoh emaslik unga chalinishni tezlashtiradi. Bu kabi holatlar esa muayyan tarbiyaviy bo‘shliqni paydo qilmoqda. Demak milliy tarbiyamizda o‘ziga xos ma’naviy qusurlar namayon bo‘lmoqda, ya’ni aholimizda kerakli tayanch ma’naviy fazilatlar shakllanmagan. O‘z-o‘zidan mazkur ko‘rsatkichlar mazkur masalaga daxldor profilaktika ishlarimizni ta’sirchan metodlarga ega emasligini ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Respondentlar orasida oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik tahdididan habardorlik darajasi bo‘yicha o‘rganishlarning epmirik natijalari

Oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik tahdidi aholi orasida boshqa tahidlarga nisbatan xabardorligi pastligi bo‘yicha 55% ya’ni salbiy ko‘rsatkichiga ega. Bu aholining oilada yoshlar tarbiysi, milliy tarbiya bilan bog‘liq ishlarda sustkashliklar ko‘p ekanligini, yoki tarbiya masalasiga past munosabatda ekanligini ko‘rsatadi. Bu illatning salbiy oqibatlaridan ko‘pchilik bexabar.


Milliy tarbiyaning shakllanishida milliy qadriyatlarning o‘rni ham alohida o‘ziga xos asosli psixologik omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham biz mazkur masala bo‘yicha o‘rganishlarni amalga oshirdik (2-rasm).



2-rasm. Respondentlar orasida milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik tahdididan xabardorlik darajasi bo‘yicha o‘rganishlarning epmirik natijalari

Masala yuzasidan o‘rganishlar, ya’ni aksariyat respondentlarning fikricha, yosh ota-onalar o‘z farzandlariga milliy qadriyatlarni o‘rgatmayapti, shu sababli yoshlarimiz milliy qadriyatlarni hurmat qilmayapti, aksincha, “ommaviy madaniyat”ga zamonaviy madaniyat deb taqlid qilish kabi salbiy jihatlar ko‘payib bormoqda, deb ta‘kidlandi.

Oilada milliy tarbiya funksiyasining ishlamasligi oilaviy nizolar va oilaviy ajrimlarni ko‘paytirayotganligi ko‘pchiligidan sir emas va biz shu sababli ham mazkur farazga aniqlik kiritish uchun ushbu masalani ham o‘rgandik (3-rasm).




3-rasm. Respondentlar orasida oilaviy ajrimlar tahdididan xabardorlik darajasi bo‘yicha o‘rganishlarning epmirik natijalari

Biz tadqiqotimiz davomida yoshlar orasidagi jinoyatchilik omillarini ham yetarlicha tarbiya topmaganlik omili bilan bog‘liq deb o‘yladik va mazkur farazimizni ham tekshirib ko‘rish uchun respondentlar orasida o‘rganishlar olib bordik va quyidagicha qiziq va xavotirli empirik natijalarni qo‘lga kiritdik (4-rasm).



4-rasm. Respondentlar orasida “Sizningcha yoshlar orasidagi jinoyatchilikni yuzaga keltirayotgan asosiy omillar nimalardan iborat”, deb so‘ralgan so‘rovning empirik natijalari

Tadqiqotimiz davomida oilada farzand tarbiyasini uchun ajratilayotgan vaqt, ya’ni ota-onalar bir kunda o‘z farzandi bilan tarbiya bo‘yicha qancha vaqt muloqotda bo‘ladi, shuni ham o‘rgandik va quyidagicha empirik natijalar qayd qilindi (5-rasm).



■ Онланий мулокотларнинг уюштирилиши ■ Онланий мулокотларнинг камлиги

5-rasm. Respondentlar orasida “Siz o‘z farzandingiz bilan tarbiya borasida muloqot uyushtirasizmi”, deb so‘ralgan so‘rovning empirik natijalari

Aslida mazkur qayd qilingan holat yoshlar orasidagi jinoyatchilikka sabab bo‘layotgan omillardan biri hisoblanadi, ya’ni ikki avlod orasidagi o‘zaro **muloqotning uyushtirilmasligi** oqibatida ota-onalar va farzand bir-birida kechayotgan kechinmalar, o‘zgarishlardan bexabar qoladi.

Biz tadqiqotimiz davomida ota-onalar o‘z farzandini pedagogik nazorat qilayaptimi yoki yo‘qmi, shu kabi holatlarni ham o‘rgandik va quyidagicha holatlarni aniqladik (6-rasm).



6-rasm. Ota-onalar tomonidan farzandlarning pedagogik nazorat qilinishi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovlar natijalari

Demak, biz oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik ichki tahdidini mazmun mohiyati, uning inson, xalq, millat uchun ayanchli oqibatlari to‘g‘risida aholi orasida keng ko‘lamdagi maqsadli va manzilli profilaktika tadbirlarni olib borishimiz maqsadga muvofiq. Zero, buyuk vatandoshimiz Imom G‘azzoliy aytganidek “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi.

Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu bilan o‘sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi”.

Tarbiya masalalariga e’tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko‘ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizni ogohlikka da’vat qilmog‘i lozim.

Ammo bugun qaysidir davrada shu haqda fikr bildirilsa, aksariyat ota-onalarda masalaga daxldorlik bilan emas, aksincha, o‘z loqaydliklarini xaspo’shslash uchun sizga: “Hozir zamon juda qiyin bo‘lyapti, tirikchilik uchun yugurmasang bo‘lmasa!”, “Nima qilay bolalarim yeyman, ichaman deydi, kiyim kechagini aytmaysizmi, bizga oson emas...”, “Ha endi o‘zi omon bo‘lsa, tarbiyasi bir gap bo‘lar...” deb javob berishadi.

“Ha endi o‘zi omon bo‘lsa, tarbiyasi bir gap bo‘lar...” aynan mana shunday beparvolik, e’tiborsizlikning ortida butun bir millatning ma’naviy tanazzuli naqd. Shunday ekan bugun mazkur masalani har bir ota-onabu borada olib borayotgan ishlariiga bir nazar tashlab ko‘rishlari lozim. Zero, bugun ilm-fan va ta’lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda shak-shubhasiz tarbiya ta’limning asosida turishi shartdir. Shu sababli ilm-fan ta’lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Qolaversa, ota-onalarni farzand tarbiyasi mas’uliyati to‘g‘risida Konstitutsiyamizning 64-moddasida ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar **boqish** va **tarbiyalashga** majburdirlar, degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, farzandining tarbiyasi bilan qiziqmagan, yetarlicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatmagan ota-onalar O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasi bilan ayblanadilar.

E’tibor qilib qaraladigan bo‘lsa, “*ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar*”, deyilgan moddaga bu yerda ikki majburiyat borligini ko‘rasiz. Biri – **boqish**, ikkinchisi – **tarbiyalash**. Bizda bola boqish muammosi, ya’ni bolamga nima yedirib-ichirsam ekan, degan muammo yo‘q. Buning tasdig‘iga mamlakatimizda har ikkinchi oilada mashina turgani; AQSHning Kaliforniya universiteti olimlari o‘tkazgan tadqiqotlarda jahonning eng baxtli 158 ta mamlakati orasida O‘zbekistonimizning 44-o‘ringa chiqqanining o‘zi javob.

Biroq ikkinchi majburiyat – tarbiyaviy majburiyatni ta’minlashda ota-onalar muammoga duch kelmoqda. Ya’ni, puli ko‘p, biroq **bolani qanday tarbiyalash kerak**, degan savollarga javoblari – kam. Ularda pedagogik kompetentlik – bilim, ko‘nikma, malaka, xohish yetishmayotgani sezilmoxda deb takidlaydi pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov o‘zining “Bugun har bir ota-ona pedagog bo‘lishi kerak” deb nomlangan maqolasida.

Demak bugungi kunda ota-onalar ko‘proq tarbiyalash mezonlari va metodlari haqida o‘ylashlari lozim.

XXI asrda barkamol farzand tarbiyasining negizi sifatida oila (ota-ona), maktab (pedagog), mahalla (qo‘ni-qo‘shni, nuroniylar, mahala faollari), ijtimoiy muhit (tengqurlari, atrofidagi insonlar) o‘z mavqeyini saqlab qolaveradi.

Shaxsni tarbiyalash quyidagi manbalar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- ❖ muayyan tizimli, uzlusiz milliy tarbiyaviy, dasturiy ta’sir orqali;
- ❖ ideal, namuna timsolida o‘z-o‘zini tarbiyalash, takomillashtirish;
- ❖ ijtimoiy muhitdagi shaxslararo munosabatda tahlil qilish, ibrat olish vositalari yordami bilan xulqodob, fikrlash malakalarini egallah;
- ❖ ajodolarimiz yaratgan badiiy, falsafiy, san’at asarlarini o‘zlashtirish orqali yangi xislatlarni o‘zlashtirish kabilar.

Bugun har bir ota-ona pedagog bo‘lishi lozim, tarbiya metodlarini puxta o‘zlashtirmog‘i lozim, chunki farzand ta’lim-tarbiyasiga tikilgan sarmoya eng yaxshi sarmoyadir.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov [6] o‘zining “Bugungi har bir ota-ona pedagog bo‘lishi kerak” deb nomlangan maqolasida bugungi ota-onalarning farzand tarbiyalashdagi ta’sirchan metodlar to‘g‘risida quyidagi qarashlarini ilgari suradi. Jumladan, olimning ta’kidlashicha farzand tarbiyasidagi eng ta’sirchan metod bu – **o‘rgatish** metodi. Chunki uning ichida **tushuntirish** ham bor, **suhbat** ham bor, **ko‘rsatish** ham bor, **aytish** ham bor, **namuna** ham bor.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liqidir. Shu sababli har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, oilada farzand tarbiyasi – oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota-onaning sa’y-harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiat, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi.

Farzandlarimizni ilm-fan va ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o‘z o‘rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo‘g‘rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqidir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida esa milliy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga etiborli bo‘laylik, aynan shu mezon bolalarimizni ma’nан, ruhan sog‘lom, o‘z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o‘z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo‘lib o‘sib unishining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шавкат Мирзиёев раислигида 2019 йил 23 август куни халқ таълими тизимини ривожлантириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфузини оширишга бағишлиланган видеоселектор йиғилиши. <https://www.xabar.uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-qanday>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани янги босқичга қўтариш тўғрисида”ти ПҚ-3160-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/3360950>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ти ПҚ-4307-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4320700>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 марта даги “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти ПҚ-5040 қарори. <https://lex.uz/docs/5344692>
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти 1059-сонли қарори
6. Куронов М. “Ҳар бир ота-она педагог бўлиш керак” мақола. <http://www.adolatnashr.uz/uploads/17.Oila.2016.pdf>.

* * *

Akramova Feruza Akmalovna,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Nizomiy nomidagi TDPU
“Psixologiya” kafedrasи dotsenti

Ummatova Sitora Shavkatulloyevna,
SamDU o‘qituvchisi

ZAMONAVIY OILANING ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy oilaning asosiy omillari sifatida oila institutini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish; yoshlarni tarbiyalash va oilaga tayyorlash; ota-onalarning oila tarbiyasi sohasidagi savodxonlik darajasini oshirish masalalari keltirilgan. Zamonaviy oila omillariga oid zarur tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, zamonaviy oila, oila omillari, yoshlarni oilaga tayyorlash, oila tarbiyasi.

Аннотация. Данная статья посвящена основным факторам современной семьи. Приведены такие факторы как, научно-практическое изучение института семьи, подготовка молодёжи к семье и усиление грамотности родителей в сфере семейного воспитания. Предложены необходимые рекомендации для развития факторов современной семьи.

Ключевые слова: семья, современная семья, факторы семьи, подготовка молодёжи к семье, семейное воспитание.

Abstract: This article focuses on the main factors of the modern family. Such factors as the scientific and practical study of the institution of the family, the preparation of young people for the family and the strengthening of parents' literacy in the field of family education are given. The necessary recommendations for the development of the factors of the modern family are offered.

Keywords: family, modern family, family factors, preparing young people for a family, family education.

Zamonaviy oila – hayotda sog‘lom turmush tarzi, yuksak madaniyati, kasb darajasi va ijtimoiy faoliyati bilan aholi o‘rtasida namuna ko‘rsatadigan oiladir.

Har bir jamiyatning dastlabki ilk ijtimoiy bo‘g‘ini hisoblangan oila shaxs shakllanishida eng asosiy maskandir. Shaxs kamoloti o‘z navbatida oilaviy munosabatlar bilan bevosita bog‘liqdir. Jamiyat oiladan

boshlanadi. Oilaning sog‘lomligi va oilaviy muhitning qanday darajada bo‘lishi jamiyat rivojiga, undagi mavjud muammolarni hal etishga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuning uchun ham oilani mustahkamlash, uni sog‘lomlashtirish muammolari jamoatchilikning e’tiboridagi muhim muammolardandir.

Zamonaviy oila qurishning asosiy omillari orasida oila institutini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish masalasi muhim hisoblanadi, chunki aynan bu omil oilani mustahkamlashga zamin yaratadi.

Qadim zamondan mutafakkir va oilashunos olimlar tomonidan ushbu muammolar muayyan darajada o‘rganilgan. Jumladan, oila muammolari, shaxslararo munosabatlarning insoniyat jamiyatni kabi qadimiyligi va dolzarbliги bois o‘tmish mutafakkirlaridan tortib to hozirgi zamon tadqiqotchilarini ham oila va oilaviy muammolarni hal etish masalalariga o‘z e’tiborlarini qaratganlar. Sharqning buyuk allomalaridan Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Kaykovus, Xotam ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin va boshqalar oilaviy munosabatlarning shaxsga ta’sirini uqtirib o‘tg'anlar.

Xorij olimlaridan D.Adams, A.Gary, A.King, A.Lynda, W.Daniellar tomonidan oila muhitining inson hayoti va faoliyatiga ta’siri empirik jihatdan o‘rganilgan. Oilasi bilan yashaydigan 163 nafar ishchi-xodimlarda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, ularning hayotdan qoniqishi, xizmat sohasida mavqeyining ortishi, oiladagi rollarini to‘g‘ri bajarishida uning oilasidagi munosabatlar ta’sir ko‘rsatadi. Yaxshi munosabatlar ta’sirida shaxsning oilasida his etadigan emotsiyon dalda omili shu oilaning mustahkam bo‘lishi bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Psixologiya fanlari doktori, professor G’.Shoumarovning ilmiy maqola, risola va uslubiy ishlari, xususan, “Oila psixologiyasi” darsligida oila psixologiyasining umumiyligi asoslari, oila tasniflanishi, nikoh oldi omillari xususiyatlari va ularning nikohning mustahkamligiga ta’siri, oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi, oilaviy nizolar, ajralish, uning sabab va oqibatlari, o‘zbek oilasining o‘ziga xos psixologik jihatlari ko‘rsatib berilgan. Bizning fikrimizcha, o‘zbek oilasiga xos psixologik xususiyatlarning ijobjiyligi tomonlarini zamonaviy oila modelini shakllantirish ishida qo‘llash maqsadlidir.

Psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimova tadqiqotlarida o‘zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruh vakillarida namoyon bo‘lishi empirik jihatdan tadqiq etilgan va oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarning nazariy modeli asosida oila a’zolari orasidagi munosabatlarning oila mustahkamligiga ta’siri, shart-sharoitlari va sotsial-psixologik omillari yoritilgan. Bu nazariy model asosida zamonaviy oilani yaratish va oilani rivojlantirish mumkin.

Pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmanova “Oila manaviyati – milliy g‘urur” ilmiy qu‘llanmalarida oilaning muqaddasligi uning jamiyat hayotidagi o‘rnini, oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bilan bog‘liq muammolar yetarlicha o‘rganilgan, bu orqali zamonaviy oilada oilaning yashash shart-sharoitiga, tarbiyaviy, ma’naviy, tibbiy omillariga e’tibor ko‘rsatish muhim ekanligini inobatga olish zarur ekanligini ko‘ramiz.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Maxmudova “Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi” mavzusidagi ilmiy ishida mamlakatimizning kelajagi oilalarda kamol topayotgan yoshlardan tarbiyasiga bog‘liqligi ilmiy va ishonchli dalillar asosida yoritib berilgan. Bizning nazarimizda, bu borada yoshlarning oila qurish muammosiga jiddiy qarash kelajakda ular oilasining namunali, mustahkam bo‘lishiga asos yaratadi.

Pedagog olima M.Inomova “Oilada bolalarni manaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari” mavzusidagi ilmiy izlanishida oilada bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari yetarlicha yoritib berilgan.

Pedagog olima A.Muxsiyeva “Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari” mavzusidagi ishida oilada farzandlarni tarbiyalashda milliy tarbiyaning o‘rnini va ahamiyatini hamda milliy tarbiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqqan.

Darhaqiqat, barcha davrlarda olimlar oilaning jamiyatdagi o‘rniga katta ahamiyat bergenlar. Chunki jamiyatning eng katta boyligi oiladir. Oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va farovonlik hukm suradi.

Demak, zamonaviy oilani rivojlantirish, yaratishda asosiy omillardan biri sifatida yuqoridagi ilmiy-amaliy tavsiyalardan foydalanish maqsadli bo‘ladi.

Bizning nazarimizda, navbatdagi omil – yoshlarni tarbiyalash va oilaga tayyorlash hisoblanadi.

Zamonaviy va mustahkam oilalarni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu yoshlarni hayotga tayyorlashda ularda nikoh hamda oilaviy hayot, shuningdek, ikki jins o‘rtasidagi munosabatlar mohiyati borasida to‘g‘ri tushunchalar hosil bo‘lishiga yordam berish lozim, bu esa ularni nikoh hamda oilaviy hayotni tashkil etish jarayoniga psixologik jihatdan tayyorlaydi, yoshlarda nikohga kirishish hamda oilaviy hayotni tashkil etish borasida amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi.

Oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab jarayon sanalib, mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi bu boradagi muayyan kamchilik va muammolarning bartaraf etilishi bilan belgilanadi. Ayni vaqtida esa zamonaviy oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalasida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

birinchidan, ota-onalarning oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyati xususida to‘la ma’lumotga ega emasliklari;

ikkinchidan, ota-onalarning o‘z farzandlari bilan ma’lum masalalarda ochiq oydin muloqotda bo‘la olmasliklari;

uchinchidan, ota-onalar tomonidan yoshlarni oilada mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash uchun nazariy va amaliy bilimlarni o‘rganish imkonini beruvchi manbalarining yetarli darajada mavjud emasligi;

to‘rtinchidan, kelin va kuyov munosabatlarining mazmunini ularga anglatish vazifasini qizning yanga (kelin oyi)lari, yigitning oshnalari zimmasiga yuklash an’alarining mavjudligi ota-onalarda oila sharoitida yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyatini to‘la tushunmasliklariga sabab ekanligini inkor eta olmaymiz.

Buning uchun esa oila quruvchi yoshlar quyidagi tavsiyalarga alohida e’tiborlarini qaratsalar, maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

Birinchidan, yoshlar oila qurishdan oldin har bir millatning o‘ziga xos milliy mentaliteti va turmush tarzi o‘rtasida ichki aloqadorlik mavjudligini yaxshi o‘rganishlari lozim. Chunki ayrim turli millat vakillarining faqatgina sevgi-muhabbat asosida oila qurishlari keyinchalik oilaning barbod bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, oilada ota-onsa farzandiga milliy turmush tarzini chuqur singdirishi, ularni oila qurishga tayyorligiga ishonch hosil qilib to‘y qilishlari lozim. Vaholangki, ayrim oilalarda moddiylik birinchi o‘ringa chiqishi yangi oilalarning kelishmovchiliklar asosida ajralishiga olib keladi.

Uchinchidan, yoshlarni jismonan va ruhan, ya’ni har tomonlama, sog‘lom qilib voyaga yetkazish kerak. Chunki oilaning ma’naviy asoslarini sog‘lomlashtirishda ko‘proq yoshi kattalarning nasihatlari va qonunlarga amal qilish mexanizmlari joylarda to‘liq joriy etilmayapti.

To‘rtinchidan, farzandlarning ongiga yoshligidan boshlab estetik va axloqiy tarbiya berishda xalqning urf-odatlari, an’analari, kishilarning fikrlash tarzini singdirish kerak.

Beshinchidan, O‘zbekistonning bugungi globallashuv jarayonlarida geosiyosiy mavqeyidan kelib chiqib, farzandlarni xorijiy davlatlar fuqarolari bilan turmush qurishidagi aloqalarni ham chuqur mushohada qilish, farzandning baxti farovon bo‘lishi omillarini o‘ylash lozim.

Oltinchidan, davlatimiz tomonidan yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalanish yuzasidan joylarda doimiy ravishda targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish kerak.

Yoshlarni oila va oila munosabatlariga tayyorlab borish, ota-onsa, jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Bolalik davridan o‘smirlik davriga o‘tgunga qadar axloqiy va sotsial qadriyatlар bilan bola tarbiya qilib bormog‘i lozim. Mana shu o‘tish davrida bola shaxs sifatida takomillashib boradi, bola o‘tish davri boshlanganda o‘zini balog‘atga yetganligini sezmasdan, balki oilada bolalik davrida asta-sekin balog‘atga yetilishini sezib boradi. Jinsiy tarbiyaga alohida e’tibor berish milliy maktablar, o‘zbek oilalari uchun dolzarb masalalardandir. Binobarin, yosh avlodni axloqiy, jismoniy, estetik va ma’naviy jihatdan voyaga yetkazishda jinsiy tarbiya katta ahamiyatga ega. Biroq, bu sohada samara beradigan barcha tarbiyaviy norma va tadbirlarni ishga solmasdan turib mavaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. O‘siprinlik davrida yuzaga keladigan his-tuyg‘ularni to‘g‘ri idora etish, sevgi, muhabbat, rashk munosabatlarining naqadar nozik bo‘lishi, bo‘lajak oilaning baxti uchun g‘amxo‘rlik qilish haqidagi tushunchalarni ular ongiga singdirish, yaxshi natija beradi, deb o‘ylaymiz.

Har bir oilaning ma’naviy sog‘lom, baxtli va xotirjam hayot kechirishi oila muhitida tarbiyalanayotgan farzandlarning komil inson sifatida voyaga yetishiga, davlatning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo‘sadi. Zero, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekan, uning mustahkam bo‘lishi, davlat va jamiyat ravnaciga xizmat qilishi, shubhasizdir. Shu jihatdan jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo‘lgan talabi kun sayin ortib bormoqda. Yosh avlodning sog‘lig‘i, axloqi, e’tiqodi kelajakda uning o‘z oilasiga nisbatan munosabati ko‘p jihatdan oilada olib boriladigan tarbiyaga bog‘liq.

Bugungi kunda zamonaviy oilaning asosiy omillaridan biri sifatida farzandlarning ma’nan va jismonan barkamol insonlar bo‘lib yetishishi, ya’ni, ota-onalarning tarbiya sohasidagi savodxonlik darajasi masalasi ham muhim ekanligi ahamiyatlidir. Shuning uchun bizning fikrimizcha, ota-onalarning ma’naviy, psixologik, huquqiy, tibbiy-biologik va iqtisodiy savodxonligiga e’tiborni kuchaytirish, ularni mazkur bilimlarni egallashlari uchun turli usul va metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun yoshlarni oila tarbiyasini amalga oshirishda psixologlar, pedagoglar, shifokorlar, oila va jamoatchilikning faol ishtirok etishlari talab qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan zamonaviy oila omillari jamiyat oilalarining rivojlanishi va yuksalishiga xizmat qiladi. Zero, sog‘lom oiladan sog‘lom jamiyat barpo etiladi.

* * *

Abdurahmonova Zuhra,
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti,
Psixologiya kafedrasи dotsent v.b,
Psixologiya fanlari bo‘yicha PhD*

OILADA YOSHLARNI SANOGEN TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ ALLOMALARINING ILMYQ QARASHLARI

Annotatsiya. *ushbu maqolada shaxs tarbiyasida va uning xulqida tafakkur qilishning dolzarbliji, hayotda fikr qilib ish yuritishining ahamiyati, allomalarimizning sog‘lom tafakkur yuritishga oid insonni komillikka yetaklashi haqidagi ilg‘or g‘oyalari, qarashlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, tafakkur, fikr yuritish, qadriyat, insoniy fazilatlar.*

Аннотация. В статье представлена актуальность мышления в воспитании человека и его поведения, важность мышления и действия в жизни, передовые идеи и взгляды наших ученых на развитие здорового мышления, ведущего человека к совершенству.

Ключевые слова: личность, мышление, рассуждение, ценность, человеческие качества.

Annotation. The article presents the relevance of thinking in the upbringing of a person and his behavior; the importance of thinking and acting in life, the advanced ideas and views of our scientists on the development of healthy thinking, leading a person to perfection.

Keywords: personality, thinking, reasoning, value, human qualities.

Inson ma’naviyatini yuksaltirishga bo‘lgan ehtiyoj keng qamrovli tushuncha sifatida “sanogen tafakkur” mohiyatini tahlil qilishga undab, ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olmoqda hamda “tafakkur va sog‘lom tafakkur” kategoriyalarini chambarchas bog‘liq tushunchalar sifatida aqliy-mantiqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o‘lchov sifatida maydonga chiqarmoqda.

Yosh avlodning mamlakatimiz barqarorligiga, uning ijtimoiy, ma’naviy yuksalishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ekstremistik va terroristik oqimlar, patogen g‘oyalari ta’siriga tushib qolmasligi uchun muayyan ijtimoiy-psixologik asosni yaratish, takomillashtirish hozirgi kunda psixologiya fani oldida turgan

muhim vazifalardandır. Mazkur masala, yoshlarning sanogen tafakkuri genezisi, mohiyati va mazmuniga mavjud ilmiy nazariyalarga suyangan holda ta’rif berish, tasniflash, tahsil oluvchilarning sog‘lom tafakkurini rivojlantirishga bag‘ishlangan ijtimoiy-psixologik, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Hozirgi vaqtida patogen g‘oyalar va destabillashtiruvchi guruhlarning paydo bo‘lish sabablari, faoliyat doirasi kengayishining oldini olish maqsadida yoshlarning sanogen tafakkurini o‘stirish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, bu sohada ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni olib borish dolzarb vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Insonning sog‘lom fikrlashga undovchi manbalardan biri “Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib, ajdodlarimiz yaratgan eng qadimiy, noyob bilimlarning xazinasidir. Jumladan “Avesto”da yaxshi fikr, tarbiyasi haqida quyidagi mulohazalar uchraydi: “Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi tayanchi bo‘lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avval yaxshi o‘qishni, so‘ngra yozishni o‘rganishi bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin”. “Yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman”.

Avestoda Odamning tanasi ham, so‘zi ham ishi-yu tafakkuri ham pok bo‘lmog‘i lozim, deyiladi..., Ahuramazda dedi: “O‘zgalarga ro‘shnolik istagan odamning yo‘li, albatta, hamisha nurafshon bo‘lgay!” Odamning tanasi ham, so‘zi ham ishi-yu tafakkuri ham pok bo‘lmog‘i lozim, deyiladi fargardlardan birida. Demak, “Avesto” manaviyatimizning ilk sarchashmalaridan biridir. Unda iymon, e’tiqodda sobitlik, ilm-fan, kasb-kor egallash, xalqniadolat, marifat, insondo‘stlik, vatanparvarlik, ona sayyorani e’zozlashga, hidoyat etishga da’vat bosh masala hisoblanadi.

Alloh taolo Qur’oni Karimda tafakkur va mushohadaga buyurib, tafakkur kishilarini maqtab, shunday deydi: “Ular turib ham, o‘tirib ham, yotib ham Alloho zikr etadilar va osmonlar-u Yerning yaratilishi haqida fikr yuritadilar (va duo qiladilar...)” (191-oyat). “Alloh bir kishining ichida ikki qalb yaratgan emas”(Ahzob surasi, 4-oyat) ya’ni “Fikrlar turli tomonga sochilgani sayin, narsaning haqiqatini bilish qiyinlashaveradi. Shuning uchun hukamolar: “Sen o‘zingni ilmgaga to‘la bag‘ishlamaguningcha ilm senga biror narsasini bermaydi...”, – deyishgan. Har tarafga sochilgan fikr, xayol ko‘plab ariqlarga tarqalib ketgan suvga o‘xshaydi. Uning bir qismini yer shimadi, qolgani havoda bug‘lanadi, ekinga hech narsa yetib bormaydi”, – deb, fikrning teranligi, sog‘lom tafakkurga ega bo‘lish uchun inson ilm talabida bo‘lib, ma’rifatga intilib, o‘qib o‘rganib muayyan sohani egallashi zarurligiga ishora qilishgan.

Payg‘ambarimiz alayhissalom: “Bir soatlik tafakkur bir yil ibodat qilgandan xayrliroq”, deb marhamat qilganlar. Sir emaski, fikr nurlar kaliti va bilish uchun harakat asosidir. Shuningdek, fikr ilmlarni o‘zida tutib qoladigan to‘r, maqsad va tushuncha tuzog‘idir. Ko‘pchilik ilmning fazl va martabasini bilsa ham, uning haqiqati, samarasi, masdari, makoni, paydo bo‘lish joyi, yo‘li va kayfiyatidan xabardor emas. Shu bilan birga, inson qanday tafakkur qilish, nima to‘g‘risida va nima uchun tafakkur qilishni, talab etilgan narsa ayni maqsad yoki maqsad emasligini ham to‘g‘ri hal qilib ololmagan.

Ibn Abbos: “Yaxshiliklarni fikrlab ko‘rish yaxshilik qilishga undaydi, yomonliklardan afsuslanish undan voz kechishga boshlaydi”, degan. Rivoyat qilinishicha, Allah taolo kitoblaridan birida aytadiki: “Har bir hikmat sohibining so‘zini qabul qilavermayman, uning o‘y-fikr va ishtiyoqiga qarayman. Agar uning o‘y-fikr va ishtiyoqi men uchun bo‘isa, sukutini tafakkur, so‘zini hamdga aylantirib qo‘yaman”.

Shofe‘iy rahimahulloh aytadilar: “Sukut saqlash bilan gapirishga, fikrlash bilan xulosa chiqarishga yordam beringlar”. Tag‘in u zot: “Masalaga to‘g‘ri nazar g‘ururdan saqlaydi, bir fikrga qaror qilish xato va nadomatdan xalos etadi: ko‘rish va fikrlash jazm va fatonat(farosat)ni kashf etadi. Hikmat ahli bilan maslahatda bo‘lish nafsga sabot va aqlga quvvat beradi. Bir qarorga kelishdan oldin fikrlab ko‘r, hujumga o‘tishdan oldin tadbir qil, oldinga yurishdan ilgari maslahatlash”. “Tafakkur”ning foydasi esa ilmni ko‘paytirish va hosil bo‘lmagan ilmni jalb qilishdan iborat.

Tasavvuf allomalaridan biri Azizuddin Nasafiy “Komil inson” nomli kitobida yozadi: “Bilgilki, komil inson quyidagi to‘rt narsaga mukammal shaklda ega bo‘lgan insondir. Ularning *birinchisi*, yaxshi so‘z, *ikkinchisi*, ezgu faoliyat, *uchinchisi*, go‘zal axloq, *to‘rtinchisi*, ilm. Bu to‘rt narsaga erishgan kishi komil bo‘lishi mumkin”, o‘z fikrini davom ettirib: “Komil inson bo‘lish uchun mukammallikka intilmok lozim. Ya’ni, yaxshi aql, yaxshi so‘z, yaxshi fikr, yaxshi axlok, yaxshi bilim va yaxshi amallarni ado etmoq, kishilarni izzat-hurmat qilmoq, yaxshi axloq bilan o‘rnak bo‘lmoq,adolatli, qanoatli, oriyatli, ma’rifatli

bo‘lmoq, ilm-bilimni chuqr egallamoq, olamni balo-fitna, g‘iybatlardan saqlamoq, kishilar mushkulini oson qilmoq lozim” – deganlar.

Ilm ikkiga bo‘linadi badan va qalb salomatligi. Imom al-G‘azzoliy qalb salomatligini quyidagicha izohlaydi: “Qalb deganda bizga ko‘rinadigan bir parcha go‘shtni nazarda tutayotganim yo‘q. Balki u hissiy a’zolar bilan idrok qilib bo‘lmaydigan ilohiy sirlardan bir sirning, yashirin ne’matlardan bir ne’matning nomidir. Gohida u “ruh”, gohida esa “nafsi mutmainna” (xotirjam nafs), deyiladi. Shariat uni “qalb” deb nomlaydi, chunki u o’sha ilohiy sirning ulovidir. Uning vositasi ila butun badan o’sha latofatga bir bosqich vazifani o‘taydi. Bu sirning vazifasi faqatgina mukoshafa ilmi bilan ochiladi. “Qalb qimmatbaho javhar, butun ko‘z oldimizda namoyon narsalar orasida eng aziz va sharafli durdir. Va u ilohiy ishdir. Ruhning nisbati inson jasadidagi boshqa a’zolardan ko‘ra sharafliroq. Allohning omonati yuklangan qimmatbaho javhar mana shu ruhdir”.

Buyuk alloma Abu Nasr Farobiy (873-950) aql va tafakkur yordami bilan bilim olishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan. “Forobiy ta’limotida o‘z zamonasidagi fozil, ideal jamoa, axloq, ma’rifat, aql-idrok, ishonch, hamma uchun baxt-saodat tantana qilgan sog‘lom jamiyat haqidagi orzu-istik va intilishlarning nazariy ifodasi edi”. “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir. U o‘z ruhining g‘ururi va vijdonini qadrlaydigan bo‘lsin, uning ruhi o‘z tabiatini bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo‘lsin. Forobiy fozil shaharda baxt-saodatga erishishni istagan har bir inson fozillikka intilib yashashi darkor”, deb hisoblagan. “Inson birdamlik, yakdillik, adolat va haqiqatgo‘ylik xushmuomalalik, ezgu niyatlar orqaligina baxt-u saodatga erishadi”.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) dunyoda insonning tutgan o‘rni, istiqboli masalasiga katta e’tibor bilan qarab, ongli hayotiy faoliyat odamni hayvonning ongsiz hayotiy faoliyatidan farqlantiradigan muhim jihatlaridan biri ekanligini uqtiradi. Uning “Mineralogiya” asarida: “Odamda tafakkur qudrati bo‘limganda edi, uning ahvoli hayvonlar holatidan ham tubanroq bo‘lgan bo‘lardi, chunki odam kuch jihatidan hayvonlardan zaif, kuchli tabiiy himoya vositalaridan mahrumdir”, – deb yozadi.

Beruniy ta’limotiga ko‘ra, tabiatni bilish jarayoni sezgilardan boshlanib tafakkurga ko‘tariladi, ma’lum narsalardan noma’lum narsalarga va hodisalarni bilishga tomon rivojlanib boradi. Bilish jarayonida hissiy bilish sezgi, idrok, xotira kabilarga Beruniy katta e’tibor beradi va ularsiz tabiat hodisalari haqida tasavvur hosil qilish mumkin emasligini ta’kidlaydi. Binobarin, “Jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarish darajasi kishilar ongingin o‘sishi, uning tafakkur madaniyati yetukligi bilan uzviy bog‘liqdir. Beruniy ijtimoiy adolat va yaxshi fazilatlar haqida gapirib, rostguylik, ya’ni haqiqatgo‘ylikning adolat bilan uyg‘unligi, bilim va ma’rifat egasi bo‘lish, ijodiy mehnat va yaxshilik insonlarni kamolotga, birdamlik va adolatlari bo‘lishga yetaklaydi”, deb ta’kidlagan.

Umar Xayyom o‘z ijtimoiy va axloqiy qarashlarida shaxsiy baxtni jamoa baxti bilan bog‘lab, uning asosini adolat, insonparvarlik, hurfikrlilik, insoniy burch tashkil egishini, shundagina hayotning baxtli damlariga erishish mumkinligini yozgandi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037) o‘zining axloq haqidagi risolasida yozishicha, ijtimoiy adolat inson xatti-harakatlarining eng muhim bezagidir. Adolat – ruhiy lazzatning bosh o‘lchovi. Adolat odamga xos sabr, jasurlik, donolik kabi xislatlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu fazilatlarga ega inson, vijdon amri bilan o‘zini yomon xulq-odob, munosabatlardan saqlaydi. Ezgulik, ruhiy poklik, yaxshilikni o‘zida mujassam etishga harakat qiladi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari, ruhiy poklanish, adolat haqidagi g‘oyalari uning ijtimoiy va ma’naviy-tarbiyaviy qarashlaridan kelib chiqadi.

Amir Temur (1336-1405) “Har kimdan kengash oldim. Har kimdan fikr o‘rgandim, qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, uni ko‘ngil xazinasida saqlab, ishlata bildim”, – deya ta’kidlagan. Amir Temurning ushbu fikrlaridan ma’lum bo‘ladiki, har bir jamiyat a’zosi fikr-mulohaza yuritib, o‘zaro fikr almashib, jamiyatni takomillashtirishi mumkinligini tushunish mumkin. “Barcha ishlarimni to‘qqiz ulushin kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushin esa qilich bilan bajo keltirdim”, – deydi va “Men hayotim mobaynida besh narsaga qat’iy e’tiqod qo‘ydim va hamishalig‘ ularga amal qildim. Ular ushbularidir: Alloh – ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig‘insang istagan murod-u maqsudingga yetkazadi. Tafakkur – fikrlash va mushohada qobiliyati, quvvayı hafizasi kuchli inson har qanday mushkulu mushkulodni oson qilish yo‘lini topa oladi. Qilich – ul yigitning yo‘ldoshi, el-yurt osoyishtaligining posboni, har qanday dushmani mavh etish quroli, aning qudrati ila

dinsizlarni dinga solmoq mumkin. Imon – ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turguvchi xususiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug‘lari, el-u xalqning or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat biladi. Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir”, – deb ta’kidlaydi.

Biyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) ta’biri bilan aytganda, dunyoda insondan ulug‘roq kamolot yo‘q, chunki unga “bebaho marvarid” – aql-zakovat, tafakkur ne’mati, kuchi hadya etilganki, unda “sir-asrorlarni va yuksak cho‘qqilarni bilish qobiliyati bo‘lib, uning ko‘magida inson ulug‘ zafarlarni bajo keltiradi. Inson o‘zining tafakkur quvvati, dahosi, mehnati bilan tabiat va jamiyatni o‘z ehtiyojlari yo‘lida o‘zgartiradi”.

Husayn Koshify (1440-1505) o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini “Axloqi Muxsiniy” kitobida bayon etadi. Uning ta’kidlashicha, sog‘lom fikr, vijdonlilik, adolatlilik, axloqiy kamolot, insonparvarlik insonni nazorat qiluvchi tuyg‘udir. Vijdonsizlik tufayli inson dunyoda bo‘lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir. Buning oldini olish uchun bolaga yaxshi tarbiya berish, unda yaxshi sifatlarni o‘stirish, mustaqil va sog‘lom fikrlash qobiliyatini o‘stirish masalasiga alohida e’tibor berish lozim. Bola to‘g‘ri so‘zli, va’daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalanishi kerak. Koshify til va fikr odobi haqida so‘zlar ekan, yaxshi fikrni ifodalashni, yomon gapni aytmaslikni, g‘iybat va bo‘xton qilishdan saqlanishni maslahat beradi.

Muhammadrizo Ogahiy (1809-1874) fikricha til va fikrlash insonni boshqa mavjudotlardan farq qilib turadigan asosiy belgidir, fikr va til “takallum” qilishga “fasohat va nafosatga”, “ko‘ngil mahzanidan javohir sochish” uchun berilgandir. Inson bilan tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, tabiat go‘zalligi inson tafakkuri, ma’naviy dunyosi rivojida g‘oyat muhimdir. Olim fikricha, tafakkurning rivoji narsa va hodisalarни chuqur va har tomonlama bilish imkonini beradi. Aqli inson narsa va hodisalarning tub mohiyatiga yetadi, ularni to‘g‘ri baholab, aniq xulosa chiqara oladi.

Ma’rifatparvar Abdulla Avloniy (1878-1934) o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida inson tafakkurining amaliy va hayotiy ahamiyatini bayon etib, shunday yozadi: “Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayirib berur. To‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas’ud bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur”.

Abdurauf Fitrat (1886-1938) fikriga ko‘ra, “Fikr bilan aql insonni kamolotga yetkazuvchi omil bo‘lib, o‘qish, ta’lim olish, o‘rganish shaxsni saodatga yetkazadi”. Olim yoshlar ma’naviyati, ularning kelajagi haqida qayg‘urib, ularni ham ma’naviy ham jismoniy sog‘lom, ilm-fan sohibi qilib kamol toptirish xususida ilg‘or fikrlar bildirgan. Fitrat yoshlarni o‘z vatandoshlarini aziz Vatanini sevishga, uni asrashga chorlab, shu Vatan hamda millat saodati, baxti, ravnaqi uchun fidoyilik ko‘rsatishga, sog‘lom fikrlashga, jasoratli bo‘lishga da’vat etgan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, inson tafakkurini va ularning insonparvarlik qadriyatlariiga munosabatini tubdan o‘zgartirish uchun ularda sanogen tafakkurni rivojlantirish muhim ijtimoiy-psixologik vazifa sifatida o‘rganilishini taqoza etadi. Binobarin, insonning sog‘lom tafakkuri, mustahkam iroda va e’tiqodi, halollik va adolat bilan hayot kechirishi, inson va ijtimoiy hayotga xos barcha xislat, fazilat, xususiyatlarga ega bo‘lish, unga amal qilish kabi ma’naviy boylik majmuyi bo‘lib hisoblanadi.



Alimjanova D.,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot
instituti bo‘lim boshlig‘i

OILAVIY TARBIYADA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya. Hozirgi zamonda ilg‘or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog‘li yuksaklikka ko‘tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tub o‘zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog‘lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: tarbiya, qadriyatlar, “ommaviy madaniyat”, zamон qahramoni

Аннотация. В настоящее время демократические принципы жизни развитых государств также оцениваются по тому, насколько высоко человек может поднять свою ценность. Фундаментальные изменения в нашей стране, суть реформ также происходят из этого принципа. В реализации этого принципа большое значение имеет формирование нового мировоззрения, здорового мышления, основанного на гармонии национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: воспитание, ценности, «массовая культура», герой времени.

Annotation. Currently, the democratic principles of life in developed countries are also evaluated by how high a person can raise his value. Fundamental changes in our country, the essence of reforms also stem from this principle. In the implementation of this principle, the formation of a new worldview, healthy thinking based on the harmony of national and universal values is of great importance.

Keywords: upbringing, values, “mass culture”, the hero of the time

Sharqda, jumladan, O‘zbekistonda oila chinakam oila bo‘lib shakllanganidan boshlab hozirgi davrga qadar ko‘p qirrali va murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Har bir tarixiy davrda oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari xilma-xil mazmun bilan boyib bordi hamda oila davrning chigalli sinovlaridan omon o‘tib, jamiyatning negizi sifatidagi xususiyatini saqlab qoldi.

Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, ularni ma’rifat-u madaniyatga yetaklash muammolariga alohida e’tibor berganlar.

Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go‘zal axloqning inson kamolotiga sabab bo‘luvchi yuksak fazilat ekanini ta’kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad” hadislari to‘plami, Abu Lays Samarcandiyning “Tanbe ul g‘ofiliyn” asarlarida farzandlar ongida yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish masalalari tarannum etilgan.

Yurtimiz ulamolari o‘z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-onas, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo‘lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta’kidlaganlar:

– farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso‘z, muloyim, bosiq va kamtar bo‘lishiga e’tibor qarating;

– odamlar xursandchiliginibaham ko‘rish, g‘am-anduhidan qayg‘urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo‘ling;

– farzandingizga o‘zgalar bilan muomala chog‘ida boshqalarni g‘iybat qilish, o‘zgalarni mensimaslik, obro‘sisi, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

– yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarishni ham bolalar qalbiga jo qilishga e’tibor bering.

Ota-bobolarimiz azaldan o‘g‘il qizlarning go‘zal xulqli, odobli bo‘lishiga katta ahamiyat bergenlar. Binobarin, islam dinida ham axloq imon qatoriga qo‘yiladi.

Farzand tarbiya qilganda, odatda, o‘g‘il bola tarbiyasi bilan ko‘proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug‘ullanadi. Albatta, bunda farzandning dunyoqarashini inobatga olish muhim. Bolaning biror-bir yutuqqa erishishida natijani ko‘rishga oshiqmaslik kerak. Masalan, ikki yoshgacha faqat shirin so‘z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o‘rganadi, asosiy ma‘lumotni shu yosh oralig‘ida egallaydi. Bu davrda biz ko‘proq amaliy jihatdan namuna bo‘lishga urinishimiz, sog‘lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo‘ladi.

Oilada otaning bolalariga loqayd bo‘lishi oxiri xunuk oqibatlarga sabab bo‘ladi. Loqaydlik yomon illat bo‘lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo‘l ochadi. Ota sustkashlik qilib, burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni o‘rgatmagani oqibatida o‘z farzandida zarur ijobji xislatlarni shakllantira olmagan. Farzand ham otasining namunali tarbiyasidan mahrum bo‘lib o‘sadi. Keyingi davr esa, bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o‘smirlilik payti bo‘lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichdan o‘rganadi. Bu davrda farzand to‘g‘ri yo‘lga solinsa, tarbiyalı do‘stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo‘lib, yaxshi inson bo‘lishi uchun muhim qadam qo‘yiladi.

Odatda onalar o‘z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo‘l qo‘yan xatolari, qo‘l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o‘z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo‘rmasdan qilaverishi mumkin.

Mehr-muhabbat berishda ham me’yorni saqlay bilish kerak. Bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to‘g‘ri-noto‘g‘ri xatti-harakatlarini ma‘qullash yoki bunga indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz o‘sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo‘yadi, mehr ko‘rsatish esa uni yanada faol bo‘lishga undaydi. Erka o‘sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko‘zlaydigan, mas’uliyatsiz bo‘lib voyaga yetadi.

Shuning uchun farzandning barkamol inson bo‘lib yetishishida onaning o‘rni va roli juda zarur va muhimdir.

Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirin so‘zlikdir. Bu ikki vosita bir bo‘lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta’limni ham g‘azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma‘qul. Zero, zo‘rlab berilgan ta’lim bola xotirasidan tezda o‘chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so‘nishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, ta’limning avvali ham to‘g‘ri va oqilona tarbiyadan boshlanadi.

Bugungi kunda farzand tarbiyasiga ijtimoiy tarmoqlardagi tajovuzkorliklar, internetdagi turli yot va g‘ayriaxloqiy g‘oyalar, uyali telefonlar orqali tarqatilayotgan behayoliklar kabi ijtimoiy muammolar jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari muhim aloqa vositalari bo‘lishi bilan birga, ba‘zi ma‘naviyati to‘liq shakllanmagan yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, ijtimoiy tarmoq ta’siriga tushib qolgan farzandlarga ota-onalar, o‘quv muassasalari, mahalla faollari hamkorlikda ta’sir o‘tkazib, ularda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishga harakat qilish lozim.

Zero, tarbiyaga tashqaridan bo‘ladigan salbiy ta’sir bu eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo‘l qo‘yilmagach, u o‘z qiziqish va rag‘batlarini qondiradigan sabablarni chetdan izlay boshlaydi. Demak, ota-onalari farzandining tashqi hayotiga ham katta e’tibor qaratishi talab etiladi. Ya’ni, ular farzandi maktabdan keyin qayerga borishi, nimalar bilan shug‘ullanishini doimiy nazorat qilishlari lozim.

Yosh avlod yetuk va komil shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun yana bir muhim omil hayot tarziga aylanishi zarur. U ham bo‘lsa – kitobxonlik. Buning uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Ommaviy, ilmiy kutubxonalar, “Aybuk” tarzidagi kitob-kafe do‘konlari va boshqalar so‘zimizning yaqqol misolidir.

Ota-onalari farzandiga vaqtini unumli o‘tkazishni o‘rgatishida vosita sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan usullardan yana biri – zamonaviy axborot-tehnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishdir.

Ota-onalari bolada estetik tarbiya, go‘zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o‘zi bilan birga tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go‘zallik latofatini singdirishi muhim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma‘naviy immunitetli, o‘zining fikrlarini teran ifodalay oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-onalari, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma‘naviy dunyosini

zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o‘zining kimligini, qanday bebahos meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi.

Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o‘z ajdodlariga, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’analalariga sodiq bo‘lib kamol topishsin.

* * *

Safoyeva Ra’no,
“Mahalla va oila”
ilmiy-tadqiqot instituti

YOSHLAR TARBIYASIDA OILAVIY BURCH VA MUHITNING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada farzandlar tarbiyasida oilaviy burch va yoshlar xulqidagi ma’naviy muhitning o‘rni.*

Tayanch tushunchalar: *oila, oilaviy burch, ma’naviy muhit, ta’lim-tarbiya, axloq, odob.*

Аннотация. В статье рассматривается роль семейных обязанностей и духовной среды в воспитании молодежи.

Ключевые слова: семья, семейная обязанность, духовная среда, воспитание, этика.

Annotation. The article discusses the role of family responsibilities and the spiritual environment in the upbringing of young people.

Keywords: family, family responsibilities, spiritual environment, ethics.

Sharq xalqlarida qadimdan kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzatda bo‘lish, insofli bo‘lish, rostgo‘ylik, xushmuomalalik, mehmondo‘stlik kishining odob-axloqini ko‘rsatib beruvchi qoidalar sifatida amal qilinib keladi. Bu axloq qoidalari har bir shaxsda to‘liq namoyon bo‘lgan taqdirdagina u ma’naviy barkamol shaxs hisoblanadi. Demakki, u jamiyat oldidagi, kishilar oldidagi insoniylik burchini ado etgan hisoblanadi. Burch muhim axloqiy-ma’naviy qadriyat hisoblanib, har bir shaxsning jamiyat oldidagi fuqarolik, ota-onalidagi farzandlik, xalq, millat oldidagi insonparvarlik, jamoatchilik oldidagi odamiylik vazifalarini bajarish demakdir.

Burch – ado etilishi majburiy bo‘lgan insoniy vazifalar va insoniylik yuzasidan bajarilishi mumkin bo‘lgan axloqiy qoidalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Ota-onaning farzand oldidagi, jamiyat oldidagi burchi, farzandning ota-onalidagi burchi, insoniyatning o‘tmish merosini asrash va kelgusi avlodlarga etkazish burchi, millat oldidagi, kelajak avlod oldidagi burchi, tabiatni asrash burchi, vatan oldidagi burch majburiy vazifalaridir.

Ota-onaning farzand oldidagi burchlari “Qobusnama”da zikr etilishicha, “...farzandga yaxshi ot qo‘yish, farzandni yaxshi doyaga topshirish, sunnat qilish, to‘y-tomosha berish, ilm va kasb-hunar o‘rgatishdan iboratadir”.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ota-onalidagi farzand tarbiyasida jamiyat oldida ham javobgardirlar. Har tomonlama yetuk farzandni tarbiyalash ota-onaning asosiy, majburiy burchidir.

Ota-onani hurmat va izzat qilish, keksayganda moddiy ta’minalash, ular nasihatiga qulqutish va uni so‘zsiz ado etish farzandning ota-onalidagi burchi hisoblanadi. Farzand el-yurt oldida ota-onalidagi obro‘sni, qadr-qimmatini ko‘tarishi lozim.

Farzand, ayniqsa, otani hurmat qilishga, topshiriqlarini bekam-u ko‘st bajarishga majbur. Uning ko‘nglini og‘ritish aslo mumkin emas. Oqil farzand ota qadrini yuksak tutadi. Xalqimiz “Ota qarg‘ishi o‘q” deb bejiz aytmagan.

Ulamo-yu fuzalolarimiz fikriga ko‘ra: ota farzand uyidagi istagan narsani olishi mumkin ekan. Farzand esa ota uyidan uning ruxsatsiz hech narsani olishga haqqi yo‘q ekan.

Mana, farzandning ota-onasi oldidagi burchi, haqi nima bilan belgilanadi?

Ulamolarning bayon qilishicha: “Ota-onaning farzandiga nisbatan saksonta haqi bor ekan. Ularning qirqtasi tiriklik vaqtida va qolgan qirqtasi o‘lgandan keyin amalga oshiriladi. Tiriklik chog‘idagi qirqta haqning o‘ntasi tanga, o‘ntasi tilga, o‘ntasi dilga va o‘ntasi molga taalluqlidir”⁶⁴.

Oilada kelinning ham qaynona-qaynota oldidagi burchi farzand burchi demakdir.

Xalqimizning ma’naviy merosi hisoblanadigan mehnatsevarlik, mehr-oqibatlilik, birodarlik, insonparvarlik, mardlik, halollik, iymon-e’tiqodlilik kabi fazilatlarni, Abu Rayhon Beruniy, Najmuddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Bahouddin Naqshband va shu kabi mutafakkirlarimizning ma’naviy merosini avaylab-asrash, asrlar davomida qadriyat darajasiga ko‘tarilgan milliy ma’naviy merosni kelajak avlodga etkazish har birimizning jamiyat oldidagi, insoniyat oldidagi, kelajak avlod oldidagi burchimizdir.

Vatan – bu har bir kishining tug‘ilib o‘sgan muborak joyi, mahallasi, qishlog‘i, shahri, ona yurtidir. U yashayotgan zamindir. Mana shu vatanni himoya qilish, vatanning gullab-yashnashi uchun halol mehnat qilish, kerak bo‘lsa, vatan himoyasi uchun jonini fido qilish O‘zbekistonda yashayotgan har bir fuqaroning burchidir.

Insonning eng katta boyligi bu – Vatandir. Vatanni sevish deganda, Vatanning milliy tilini sevish, davlat ramzlarini sevish, milliy qadriyat va urf-odatlarni qadrlash, tinchligi va osoyishtaligi uchun jon kuydirish kabilalar tushuniladi.

Darhaqiqat, Vatanni sevmoq iymondandir. Ya’ni, iymoni but, ongli, Vatan tushunchasini to‘la anglab etgan, Vatan uchun butun kuch-g‘ayratini bag‘ishlagan, Vatan ilm-ma‘rifati yo‘lida mehnat qilayotgan, o‘z Vatani bilan g‘ururlanadigan insongina Vatan oldidagi burchini ado etgan bo‘ladi.

Marhumlarni xotirlash bugungi avlodning farzandlik burchidir. Vatan tarixini bilish, boyliklarini ko‘z qorachig‘iday saqlash, Vatan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish, halol mehnat qilish, ma’naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini o‘rganish va avaylab-asrash asosiy vazifasidir. O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo‘shishda bor kuch-imkoniyatlarini sarf etish har bir fuqaroning burchidir. Ota-onasi, jamoatchilik va ustoz-murabbiylarning asosiy burchi bugungi jamiyat talablariga mos ma’naviy va jismoniy barkamol, milliy ong va tafakkuri shakllangan shaxslarni tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir.

Balog‘at yoshidagi yigitlarning asosiy burchi mamlakatimizning milliy armiyasida xizmat qilib, Vatan tinchligi, osoyishtaligini saqlash, uni har qanday tajovuzlardan, ichki va tashqi dushmanidan asrashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Vatan oldidagi asosiy burchlari mamlakatimiz Qomusi – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48, 49, 50, 51, 52-moddalarida belgilab berilgan. Ya’ni, ular “Fuqarolar Konstitutsiya va Qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar. Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir, fuqarolar Qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar”,⁶⁵¹ – deyilgan.

Farzandlik burchi yoshlikdan bilim olib, hunar o‘rganib, mehnat qilib o‘zini, oilasini, bola chaqasini, qarigan ota-onasini ta’minlashdir. Ota-onasi dunyoda abadiy yashamaydi, ota-onadan qolgan meros qancha ko‘p bo‘lsa ham bir umr ishlamay, tekinxo‘rlik bilan hayot kechirishga yetmaydi. Hayotda eng ko‘p qadrlanadigan narsa halol mehnat bilan topilgan boylikdir. Ota-onaning hurmatini joyiga qo‘yib, obro‘sini baland tutish ham milliy ma’naviy qadriyatlarimizdan biridir. Axil oilada hal qiluvchi so‘zni ota aytadi. Ota, albatta, oila a’zolarining fikrini va manfaatini e’tiborga oladi. Shu sababli ham milliy an’analarimizda otadan oldin yoki ota o‘rnida so‘zlash, so‘zini bo‘lish beodoblik hisoblangan.

Ota-onasi qilgan pand-u nasihatlarning faqat bitta maqsadi bor. Bu – farzandlar haqida g‘amxo‘rlik, ularning kelajagini o‘ylashdir.

⁶⁴ Абдулла Авлоний. Одоб бўстони ва аҳлоқ гулистани. – Тошкент: “Фан”, 1994, – Б. 30.

⁶⁵ 1 Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: “Адолат”, 2018. – Б. 19-20.

Otaning so‘ziga qulq solish katta hayot maktabidir. Bu maktabda farzandlargina emas, ularning bolalari ham ta’lim oladi.

Ota-onani hurmat qilish barcha farzandlar ularning gapiga so‘zsiz qulq solish, irodasiga to‘la bo‘ysunish degani emas. Oilada farzadlarning ham fikr mulohazasi katta ahamiyatga ega

Xulosa sifatida aytish joizki, yoshlar ma’naviyatining birinchi poydevorini qo‘yadigan me’mor ota-onadir, oiladagi muhit va tarbiyadir. Yoshlar tarbiyasiga qarindosh urug‘lar, mahalla-ko‘y, qo‘ni-qo‘snilar ham katta ta’sir o‘tkazadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент”: “Адолат”, 2018. – Б. 19-20.
2. Абдулла Авлоний. Одоб бўстони ва аҳлоқ гулистони. – Тошкент: “Фан”, 1994. – Б. 30.

* * *

Abduazimova Zarina Amirovna,
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Etika va estetika” kafedrasini katta o‘qituvchisi

ZAMONAVIY OILALARDA YOSHLARNI EKOLOGIK VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR VOSITASIDA TARBIYALASHNING MUHIM OMILLARI

Annotatsiya. Maqolada bugungi zamonaviy oilalarda uchraydigan ijtimoiy muammolardan biri qadriyat masalasi alohida o‘rin egallagan. Oila, oiladagi ekologik va axloqiy tarbiyaning muhim jihatlariga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga ekologik tarbiyaning umuminsoniy manfaatlar nuqtayi nazaridan asoslashga bo‘lgan intilish maqolaning asosiy mazmunini kashf etgan. Zamonaviy oilalarda qadriyat masalasining muhimligi bugunda o‘z ifodasini topib borayotgani ekologik axloqiy dunyoqarashni shakllantirishga bo‘lgan zaruratni ifoda etmoqda.

Kalit so‘zlar: dunyoqarash, axloq, tarbiya, zamon, oila madaniyat qadriyat, maskan, ekologik ong, ekologik borliq, ekologik uyg‘unlik.

Аннотация. Статья посвящена проблеме ценности – одной из социальных проблем, с которыми сталкиваются современные семьи. Семья делает акцент на важных аспектах экологического и нравственного воспитания в семье. Вместе с тем, стремление обосновать экологическое образование общечеловеческими интересами обнаружило основное содержание статьи. Актуальность проблемы ценностей в современных семьях, которая отражается сегодня, дает необходимость формирования экологического этического мировоззрения.

Ключевые слова: мировоззрение, нравственность, воспитание, время, семейная культура, ценности, среда обитания, экологическое сознание, экологическое бытие, экологическая гармония.

Annotation. The article is devoted to the problem of value – one of the social problems faced by modern families. The family focuses on important aspects of environmental and moral education in the family. At the same time, the desire to substantiate ecological education with general human interests revealed the main content of the article. The relevance of the problem of values in modern families, which is reflected today, makes it necessary to form an ecological ethical worldview.

Keywords: worldview, morality, upbringing, time, family culture, values, habitat, ecological consciousness, ecological existence, ecological harmony.

Odatda, inson hayot evolyutsiyasining tirik tabiat dunyosini inson madaniyati va tarixi dunyosidan ajratib turadigan chegarasi deb tushuniladi. Bizning birortamiz uchun inson hayot tarzida tabiat zarur sharoit bo‘lganini uqtirish shart bo‘lmasa kerak. Inson ham xuddi boshqa barcha jonivorlar singari o‘ziga qulay

bo‘lgan atrof tabiat muhitida unga kerakli havo, oziq-ovqat, suv, issiqlik, xom ashyo, energiya va axborot bo‘lgan sharoitlardagina yashashi mumkin. Biroq, boshqa barcha tirik mavjudotlardan farqli ravishda inson o‘zi uchun sun’iy dunyosini – madaniyat dunyosini yaratish imkoniga egadir. Aynan madaniyat dunyosigina odam bilan tabiat munosabatida vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uzoq vaqtlar oralig‘ida odamlar tabiiy yashash muhitida bo‘lganlari holda sun’iy muhitni yaratib keldilar, bu muhit ularning turmush tarzlarini sezilarli o‘zgartirib yubordi. Hozir insonning inson bo‘lish uchun bosib o‘tgan uzundan-uzoq madaniytarixiy yo‘lini tasavvur qilish mushkul ishdir. Shunchaki odamlar buni o‘ylab ham o‘tirmaydilar. Tug‘ilgan har bir inson dastlab o‘z oila a’zolari munosabatlari ichida bo‘ladi, o‘z tilini, muomala ko‘nikmalari, qaror topgan an‘analarni o‘rgangachgina, o‘z jamiyatini bilan madaniy aloqalarga kirishadi. O‘zining butun hayoti davomida har bir inson moslashadi, o‘qiysi, o‘rganadi, mehnat qiladi, atrofidagilarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va o‘z madaniyat dunyosini yaratadi. Madaniyat va jamiyatning turli-tuman dunyolari bilan duch kelib, ularning ta’sirini sezadi va o‘zgaradi. Biroq insonlardan birortasi o‘z hayotining mazmuni to‘g‘risida o‘ylab ko‘rganda ham o‘zini avval o‘tgan va kelgusi avlodlar bilan bog‘lovchi bir bo‘g‘in sifatida ko‘rishi qiyin. Alovida inson umrining qisqa muddatligi bir-birining o‘rnini oluvchi o‘zaro bog‘langan avlodlarning madaniy-tarixiy birligi bo‘lgan insoniyat hayoti bilan taqqoslashni qiyinlashtiradi.

“Ekologik ta’lim-tarbiya” hamda “ekologik axloqiy madaniyat” tushunchalar bir yaxlit qismiga ega bo‘lgan progressiv jarayonlardan biridir. Sintez va analiz qilish jarayonida shunday xulosa qilish mumkinki, ekologik ta’lim-tarbiya negizida ekologik axloq, ekologik madaniyat barqarorlashuvi natijasida integratsiyalashadi. Zero, ekologik axloqning funksional tizimlari ekologik madaniyat amaliy faoliyati asosida yuzaga keladi. Ya’ni, tabiat va jamiyat birligining mavjudlik holatini isbotlay oladi. Ekologik ta’limning harakatlantiruvchi mexanizmlaridan biri sifatida rivojlantiruvchi omilga aylanadi.

Keyingi yillarda ekologik ta’lim-tarbiya muammosiga bag‘ishlangan qator ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatdiki, ekologik ta’lim-tarbiya tizimi sifatida aniq hamda tabiiy ilmiy yo‘nalishlarni o‘rganish jarayonida ekologik madaniyat va ekologik axloqiy munosabatlarning kesishuvi hamda ularning uzuksizligi zarur omilga aylandi. Ekologik axloqiy va madaniy munosabatlarni ifodalash jarayonida ekologik ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifalaridan biriga aylangan mezon, ya’ni o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lgan jismoniy va ma’naviy jihatdan komil insonni voyaga yetkazish va tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlarni jamiyat hayotida tatbiq etishga yo‘naltirgan bosh maqsadni amalda namoyon etilishidir.

Endilikda sivilizatsiyada mavjud axloqiy mezonlarni tegishli ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq ekani ta’kidlanmoqda. Ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi dunyoqarash prinsiplari ham, bog‘liq axloqiy mezonlarning o‘zgarishiga olib keladi, deb qaraladi. Masalan, sivilizatsiya shakllanishining ilk davrlarida ruhoniylardan tashkil topgan ierarxiya qatlamanidan, ehromlar, muqaddas davlatchilik urflari, jamiyatni bu dunyodan, tabiatdan yuqori turuvchi olam tomonidan boshqarilishi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan tashkillashtirish strukturalari intizomi kabi jarayonlardir. Sivilizatsiyaning keyingi bosqichlarida ma’lumotli yuqori qatlam tomonidan maxsus tartibga solingan axloqiy me’yorlar ishlab chiqiladi. Jamiyat strukturasida sodir bo‘lgan yangi o‘zgarishlar natijasida yangi axloqiy qadriyatlarni qaratiladi.

O‘zbek oilalarida bolalarni faqat ota-onagina emas, balki qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-ko‘y tarbiyalaydi, degan gap bor. “Avesto”da axloqiy barkamol inson faqat axloqiy yo‘l-yo‘riqlarnigina emas, balki yaxshi yor, aqli farzand, chinakam baxtli oilaviy turmush to‘g‘risida ham o‘ylashi zarurligi alovida ta’kidlanadi. Darhaqiqat, sog‘lom turmush tarzi – bu oilada insonning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, huquqiy hamda ma’naviy, estetik va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Bunda oila masalasi ham turmush tarzining barqaror kechishida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Turmush tarzi tushunchasining mazmunini to‘laroq idrok etishda u bilan jinsdosh “turush darajasi”, “ukladi”, “sifati”, “stili” kabi kategoriyalarning mazmunini aniqlab olish zarur. Bu tushuncha alovida individ, ijtimoiy qatlam yoki, umuman, jamiyatning moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarini minimal va maksimal darajasini baholash uchun ishlataladi. Demak, “sog‘lom turmush tarzi” jamiyat, ijtimoiy guruhlar, individlarning real hayotiy faoliyatlarni moddiy va estetik rang-barangligi ko‘lamini chuqur ifodalaydigan, insonni farovon va obod turmush sari eltvuvchi falsafiy tushunchadir. Sog‘lom turmush tarzi bu individning xususiyatlari va sotsio-madaniy omillar bilan shartlanadigan hayotiy faoliyat shaklidir. Sog‘lom turmush tarzi barcha darajadagi, ya’ni jismoniy, ruhiy, ma’naviy, shu bilan birga, tashqi muhit, borliq bilan uyg‘unlashish holatidir.

Jamiyatda sog‘lom hayot, sog‘lom turmush estetikasini qaror toptirish, obod hayotni barpo etishda ta’lim va tarbiyaning rolini oshirish, mahallaning mavqeyini yanada kuchaytirish bugungi islohotlarimizning bosh maqsadiga aylangan. Bu esa, o‘z navbatida, oiladagi sog‘lom turmush tarzini jahondagi mavjud oilalardan farqli jihatlarini olib berishga xizmat qiladi. “Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi islohotlar oilada sog‘lom va obod turmush tarzini shakllantirishning obyektiv va subyektiv omillari sifatida” jamiyatda sog‘lom turmush tarzi murakkab, ziddiyatli estetik hayotiy jarayon sifatida shakllanib, rivojlanib borishi va o‘zida ham. subyektiv, ham obyektiv omillar uyg‘unligini ifoda etishi haqida munosabat mavjud Ijtimoiy-madaniy shart-sharoit inson hayoti va faoliyati kechadigan obyektiv makondir. Inson va estetik muhit, inson va olam mavzusi azaliy muammodir. Inson tug‘ilib, o‘zining tor muhitidan tashqari chiqolmay o‘tib ketishi ham mumkin. Lekin bunda uning chinakam insoniyligi namoyon bo‘lmaydi. Insonning sog‘lomligi nafaqat tibbiy, ijtimoiy va biologik, shu bilan birga, eng avvalo, sotsial xususiyati hisoblanadi va niyoyat u yuzaga kelgan ijtimoiy jarayonlar bilan uning ko‘rinishi va xarakteri, tabiiy, ijtimoiy omillar assosida yuzaga chiqariladi. Falsafiy adabiyotlarda sog‘lomlikni belgilashda bir necha xil yondashuvlar mavjudligini ta’kidlashimiz mumkin. “Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning axloqiy-estetik omillari” muhim tushunchalar, xususan, “g‘ayrat”, “shijoat”, “fidoyilik”, “mehnatsevarlik” kabi mohiyati jihatdan bir-biri bilan uzviy bog‘liq insoniy fazilatlarga asosiy e’tibor qaratish mumkin. Darhaqiqat, mana shu to‘rtta tushuncha: “g‘ayrat”, “shijoat”, “fidoyilik”, “mehnatsevarlik” asosida gavdalanadigan insoniy faoliyat ulkan ijtimoiy-ma’naviy o‘zgartiruvchanlik qudratiga egadir. Tabiiyki, bu ijobiy xislatlarni bir-biri bilan bog‘lab, ularni amalga oshirishga safarbar qildigan asosiy ma’naviy omil bu – inson ongi tushunchasi, ya’ni dunyoqarashi va tafakkuridir. Zamonaviy oilalarda yoshlarni ekologik va umuminsoniy qadriyatlar vositasida tarbiyalashning muhim omillari oilada sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda ham, erkin, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirishda ham hal qiluvchi omillarga qaratilgan. Ana shulardan biri inson ehtiyojidir. Ehtiyojlar moddiy, ma’naviy, ijtimoiy ko‘rinishlarga ega. Biz faqat moddiy ehtiyojlar bilan sog‘lom turmush tarzini o‘zgartirish degan fikrlarga qo‘shilmaymiz. Chunki faqat moddiy ehtiyojlar sog‘lom turmush tarziga ham ijodiy bunyodkorlik, ham dag‘al vayronkorlik kiritish xususiyatiga egadir. Shuning uchun oilada sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojlar muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib, har qanday insonning olamda alohida yashashi sodda bo‘lib ko‘rinsada, aslida uning tana va psixik tuzilishi, hayot tarzining evolyutsiyasidan tortib to uning xulq-odobi niyoyatda uzoq muddatli va murakkabligini kuzatish mumkin. Ayni shu ma’noda, hozirgi vaqtida insonning hayotiy evolyutsiya bilan bir qatorda uning axloqiy madaniyatini hisobga olmaydigan inson haqidagi ta’limotni ko‘rsatish qiyin. Axloqiy madaniyat strukturasi xususida gapirishdan oldin etika fanining axloq, axloqiy madaniyat kategoriyalariga ta’rif bersak. Axloqiy madaniyat – insonning axloq qonunlarini, qoidalarini, me’yorlarini, fazilatlarini bilishi, egallashi va ularga boshqa insonlar bilan bo‘lgan munosabatlarda rioya etish darajasi. Axloqiy madaniyatni amaliy axloq deyish mumkin. Oilada shakllangan o‘ziga xos axloqiy madaniyat unda muayyan milliy qadriyatlar tizimining shakllanishida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, xalqimiz juda qadim zamonlardanoq oilani muqaddas hisoblab kelgan. Oilaviy munosabatlarga asos bo‘lgan odob-axloq me’yorlari hozirgi diniy me’yorlar kelib chiqmasidan oldinroq shakllangan. Oilaviy tarbiya hozir mavjud bo‘lgan axloqiy qarashlarning amaliy jihatdan namoyon bo‘lishi hamdir. Oiladagi axloqiy madaniyat er va xotin o‘rtasidagi munosabatnigina ifodalab qolmasdan, balki bolalar uchun ham ular yetuk inson sifatida shakllanishining muhim ma’naviy omillaridan hisoblanadi. Binobarin, ma’naviy boy, axloqan pok va jismongan sog‘lom farzandlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish aynan oilada axloqiy madaniyatni qaror toptirish orqali amalga oshiriladi. Yuksak axloqiy madaniyatga egalik kishida ezgulik, yaxshilik, yaratuvchanlik, fidoyilik, sadoqat, mardlik kabi insoniy fazilatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Ayni chog‘da ekologik muammolarni hal etishda tejamkor, ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini izchil olib borish yoki sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish borasidagi sa’y-harakatlar ularni hal etishda yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga oqilonqa munosabatda bo‘lish, tabiat ne’matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta’sirlarning oldini olishda asosiy omillardandir. Bunda ekologik ta’lim-tarbiyaning ahamiyati ham niyoyatda yuqori. Zero, ekologik ta’lim-tarbiya tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga egadir.

Shuningdek, ekologik ta’lim-tarbiya yoshlarni tabiatdan ongli ravishda foydalanish va ular qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otish, tejamkorlikka o‘rgatishda qo‘l keladi. Albatta, yosh avlod qalbida tabiatga nisbatan hurmat hissini shakllantirish va rivojlantirish muhim masalalardan sanaladi. Bu, o‘z navbatida, pedagog kadrlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Эрматов X. Инсоният дард қидирмоқдами, дармон? // Мулоқот, 2000, 6-сон. – Б. 6.
2. Бўриев О., Усмонов М. Ўзбек оиласи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 6.
3. Назаров К. Жаҳон фалсафаси комуси. 2-китоб. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2016. – Б.125.
4. Каримов С., Шарқ ижтимоий тафаккури тарихидан – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2016. – Б. 81.

* * *

Tovbayeva Muqaddam Safarovna,

*SamDU Psixologiya nazariyasi
va amaliyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi*

OILAVIY MUNOSABATLARDA YOSHLAR SHAXSINI TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada oilaviy munosabatlar orqali shaxsga psixik ta’sir ko‘rsatish, odob-axloq, urf-odatlar, yoshlarda aql va idrokning mutanosibligini ta’minlashga bo‘lgan ehtiyoj haqida ma’lumot berilgan. Oilaviy munosabatlarda yoshlar shaxsini tarbiyalashning psixologik asoslari ilmiy yoritilgan.

Kalit so‘zlar: odob-axloq, urf-odatlar, intellektual yoshlar, aql, idrok.

Аннотация. В статье приводится информация о психологическом воздействии на личность через семейные отношения, о необходимости обеспечения баланса морали, обычая, интеллекта и восприятия у молодежи. Научно освещены психологические основы обучения молодых к семейным отношениям.

Ключевые слова: этикет, обычаи, интеллектуальная молодёжь, интеллект, восприятие.

Annotation. The article provides information on the need to influence the human psyche through family relations, the need to ensure the balance of morality, customs, intelligence and intelligence in young people. The psychological foundations of teaching young people family relations are scientifically highlighted.

Keywords: etiquette, customs, intellectual youth, intellect, perception.

Yoshlarimizning aksariyat qismi davr ruhini to‘g‘ri his etmoqda. Hozirgi zamon intellektual yoshlar asridir. Yigit-qizlardagi yangi g‘oyalari, texnika, texnologiyani egallahsha bo‘lgan intilish, ularni yaratish yo‘lidagi harakatlar ko‘nglimizni to‘ldirmoqda. Ayni paytda, yoshlarda aql va farosatning mutanosibligini ta’minlashga bo‘lgan ehtiyoj jamiyat barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida baholanishi mumkin. Shuningdek, yoshlarda ijtimoiy-siyosiy faollikning ortib borayotgani, ijtimoiy mo‘ljal fenomeniga bo‘lgan intilishning kuchayishi, jamiyatdagagi ayrim salbiy nuqsonlarni bartaraf etish yo‘lidagi sa’y-harakatlar mamlakat va millat taraqqiyotining omili sifatida tan olinmoqda.

“Tur mush qurban yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlari ham, afsuski, uchrab turibdi. Yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajralishlar ko‘payib bormoqda. Begunoh bolalar yetim bo‘lib, mehr va e’tiborga eng tashna vaqtida ota-onas tarbiyasidan chetda qolmoqda.” Sh.Mirziyoyev.

Darhaqiqat, oila muhitida shaxsning har jihatdan barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur bo‘lgan omillar, chunonchi, oila xo‘jaligini boshqarish jarayonida oila a’zolari o‘rtasida yuzaga keluvchi huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ekologik, estetik va hokazo mazmundagi oilaviy munosabat, muomala, aloqa aralashuvi uning ijtimoiylashuvi, ya’ni, ijtimoiy munosabatlarni yuritish jarayonida erkin, mustaqil harakat qilish layoqatini, qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar mavjuddir.

Inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Mamlakatimizning jahon miqyosida tutgan o‘rni, uning iqtisodiy va intellektual salohiyati, fan va madaniyat taraqqiyotiga qo‘shtan hissasi xalqimizning turmush darajasi bilan belgilanadi. Xalq turmush darajasining asosiy negizi esa oiladir. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo‘yish bilan cheklanmasdan, balki uning so‘nggi g‘ishti qo‘yilguncha javobgardir. Ota-onasini san’atkor, bola san’at asari, tarbiya jarayoni esa san’atning o‘zidir.

Ma’naviy boy va axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, chuqur bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxs ham, avvalo, sog‘lom turmush tarzi qaror topgan oilada shakllanadi.

Oilaning jamiyat va ijtimoiy hayotdagi mavqeysi shu oila tarbiyachisi – ayol bilan belgilanadi. Zero, yangi avlod tarbiyachisi sanalgan ayol uning ongi, tafakkuri oilada shakllanib, milliy mafkuraning ilk tushunchalari ham ulg‘ayib voyaga yetgan oilada tarkib topadi. Shuni nazarda tutgan holda, oilada onaning ma’naviy-ruhiy odobi, namunali xulq-atvori, yaxshi tarbiya ko‘rganliklari, bolaga tarbiya berishdagi tajriba va talabchanliklari bolalarning yoshligidanoq baodob bo‘lib o‘sishida muhim o‘rin tutadi. Bunda ayniqsa, onaning roli va vazifasi juda muhim. O‘z bolasi oldida uning kelajagi uchun bevosita mas’uliyatini, javobgarligini ham aqlan, ham ruhan his yetishi lozim. Ona eng avvalo bola tarbiyasi bilan bog‘liq bilimlarni egallagan bo‘lishi, sabr-toqatli, saranjom-sarishta, ilmli, farosatli va fidoyi qalb fazilatlarga ega bo‘lishi zarur. Ona o‘z mehrini, qalb-qo‘rini to‘g‘ri singdira olsagina bolaning keljakda komil inson bo‘lib tarbiya topishiga imkon yaratiladi. Ba’zan onalarning e’tiborsizligi, farzandlariga to‘g‘ri tarbiya bera olmaslik tarbiyada nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Bu xususda Rizouddin Ibn Faxruddinning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Bolalarga tarbiya bera olmagan xotindan foyda o‘rniga ulug‘ zararlar ko‘rilur. Zero, bunday xotinlar xalq orasida vabo urug‘laridan zararli bo‘lgan insonlar yetishtirur”.

Haqiqatan ham, bunday onalar xalq uchun, jamiyat uchun zararli bo‘lgan insonlarning yetishib chiqishiga sababchi bo‘ladilar. Bunday oilalarda tarbiya topgan farzandlar keljakda oilasiga, mahallasiga, jamiyatga moddiy va manaviy ziyon yetkazadi va ko‘plab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bularning oldini olish uchun esa onalarning bola tarbiyasidagi tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘stirish va yanada takomillashtirish hamda pedagogik bilimlarni singdirish lozim.

O‘zbek oilasida ayol oqilaligi, donoligi, er bilan munosabatda bosiqligi, nazokati, tadbirkorligi, shirinso‘zligi, ziyrakligi, keskin vaziyatni anglab, ixtiyoflarning oldini ola bilishi, tejamkorligi, bolajonligi bilan qadrlanadi. Oilada muhitni ko‘pincha ayol belgilaydi. Tadbirkor, nazokatli ayol johil erni ham to‘g‘ri yo‘lga solib ro‘zg‘orga fayz-u baraka, osoyishta muhit, pokizalik baxsh yetadi. Er oilani iqtisodiy ta’minalashdan tortib, barcha og‘ir yumushlarni bo‘yniga olar ekan, xotin zimmasiga ovqat pishirishdan tortib, bola parvarishigacha bo‘lgan juda nozik did talab qiladigan ishlar tushadi va bajarishni o‘z burchi deb biladi. O‘zbek oilalarida er-xotin orasidagi bunday munosabat ortiqcha shov-shuvsiz, tabiy ravishda amalga oshiriladi.

O‘zbek xalqida qiz bolani go‘zal axloqli qilib tarbiyalash oilaning muhim vazifasi hisoblangan va bu an’ana sifatida avloddan avlodga o‘tib kelgan. Qiz bola yoki xotin tomonidan qilingan noo‘rin harakat nafaqat oila a’zolari, balki jamoa tomonidan ham qoralangan. Maishiy turmushga oid an’analar juda tor ma’noga ega bo‘lib ko‘rinsa-da, xalqning milliy xarakteri, madaniyat darajasi, turmush sharoitlariga jiddiy ta’sir etishi mumkin. Shuningdek, kiyinish madaniyati va pazandachilikka xos bo‘lgan an’analar, turli marosimlar, to‘y-hashamlar bilan bog‘liq bo‘lgan an’analar ham shunday ta’sirchadir. Zotan, bu an’analar oilada farzandlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim vosita sifatida xizmat qilib keladi. Ayniqsa, insonparvarlik an’anasi o‘ziga xos mavqe va fazilat kasb etib, o‘zbekona, sharqona tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, bu ota-onasiz yetim bolalarni asrab olish, ularga oliy insoniylik g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ota-onalik mehr-u muhabbat bilan parvarish qilib, kasal va xastalarni borib ko‘rish, ko‘ngli o‘ksik yetimlarga g‘amxo‘rlik qilish, azador oilalarga ta’ziya bildirish kabilarda ko‘rinadi. Bunday o‘ziga xoslikni boshqa xalqlarda uchratish qiyin. Zero, bunday xususiyatlar bolalar tarbiyasiga ham o‘zining ijjobiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda.

Qadimda ham ota-oná oldida o‘z farzandlarini har tomonlama tarbiyalash vazifasi turgan. Ayniqsa, oilada qiz bola tarbiyasiga e’tiborliroq bo‘lishga to‘g‘ri kelgan. O‘sha davrda ham oilada qizlar tarbiyasi uchun eng kerakligi pazandalik, saranjom-sarishtalik, bichish-tikishni bilishlik, mehmon kuzatish va muomala qilishni bilishdan iborat bo‘lgan. Qizlarning bu boradagi tarbiyasida ona namunasidan yaxshirog‘i bo‘lmaidan.

Mana shunday tarbiyaviy ahamiyatga ega hikoyalardan birida bo‘yiga yetgan qizini turmushga berishdan avval onasi quyidagi nasihatlarni beradi: “Ey mening jigaporam, suykli qizim, ko‘zimning nuri, bolajonim. Senga shularni aytaman. Sen ul zotga (eringga) shunday xizmat qilki, ul ham senga qul bo‘lsin. Sen unga yer bo‘lginki, u senga osmon bo‘lsin. Endi senga ba’zi bir mezonlarni aytib o‘tamanki, ularga yaxshi e’tibor bergin, ular yodingdan ko‘tarilmasin, ulardan doimo foydalangin. Bu aytganlarimga amal qilsang, ering bilan go‘zal hayot kechirasizlar. Ma’sud, baxtiyor va saodatli turmush ko‘rasizlar. Aks holda har ikkala oilada huzur-halovat bo‘lmaydi. Sen o‘zing bir jahannamda yashaganday bo‘lasan”, – deb o‘zining o‘n o‘gitini qiziga aytadi: “Qanoat sohibasi bo‘l. Unga itoat qil. Ering ko‘zi tushadigan joylarga yaxshi e’tibor ber. Uyning ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut. Ust-boshini toza tut. Ovqatini vaqtida tayyorla. Uyqu vaqtini, uyg‘onish vaqtini yaxshi bilib ol. Eringning moli va ashyosiga juda e’tiborli bo‘l. Ering yaqinlariga va qarindoshlariga hurmatda bo‘l. Ering sirini boshqalarga aytma. Ering diliga to‘g‘ri keladigan barcha buyruqlarni ado qil”. Bu jihatdan ko‘rinib turibdiki, o‘tmishda onalar o‘z qizlarini kelajakdagi hayotlarini sermazmun qilib, barchaga ibrat bo‘ladigan, oila qurishga, iffat va hayo sohibasi bo‘lishga o‘rgatganlar. Shuning bilan birgalikda o‘zlari ham bevosita o‘z turmushlarida ushbu qoidalarga amal qilib, oilalarining jannatmakon bo‘lishini ta’minlaganlar. Bugun ham bu hikmat o‘z qadrini yo‘qotgani yo‘q, har bir ayol bunga amal qilishni o‘z oldiga maqsad qilishi lozim.

Oilaga yangi tushgan kelinlarning ko‘pchiligi yuzaga keladigan ba’zi qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib, kelinlik vazifalarini ko‘ngildagiday eplab ketadilar, qaynonalarini ro‘zg‘or tashvishlaridan xalos qiladilar, tezda ularning mehriga sazovor bo‘ladilar. Qaynonalar ham bunday kelinni “qizim” deb bag‘irlariga oladilar, bilmaganini o‘rgatadilar, qynalganida yordam beradilar, hayotiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadilar. Ularga uy-ro‘zg‘or ishlarida va bolalar tarbiyasida yaqin ko‘makdoshga aylanadilar. Biroq hayotda qaynona-kelin orasida turli to‘qnashuvlar ham sodir bo‘lib turadi. Gap qaynona-kelin o‘rtasida borar ekan, shuni aytib o‘tishimiz lozimki, bu masala azal-azaldan odamlarning, insoniyatning atoqli namoyondalarning diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan muammolardan biridir. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Sharq mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish o‘zining “Navodir ul-vaqoe” (Nodir voqealar) nomli kitobida qaynona-kelin nizolari haqida yozar ekan shunday deydi: “Qaynona-kelin nizolari bundan oldingi oilalarda ham bo‘lgan, hozir ham bor va bundan keyin ham bo‘ladi. Ular doimo urishaveradilar. Ular nima uchun urushadilar? Chunki ular nima uchun urushishayotganliklarini o‘zlari ham bilmaydilar. Shuning uchun urushadilar”. Demak, bu o‘rinda qaynona-kelin nizolari, sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish alohida ahamiyatga molik masala ekanligi ko‘rinib turibdi. Bunday kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

1. Ba’zi qizlarda nikohgacha oilaviy hayotga, qaynonaga, qaynona-kelin munosabatlariiga nisbatan salbiy tasavvur shakllangan bo‘ladi. Ayniqsa, yoshlar qaynonani oldindan faqat salbiy qiyofa sifatida tasavvur qiladilar.

2. Qaynona-kelinning dunyoqarashlari va uy-ro‘zg‘or tutishlari orasida kelishmovchilik paydo bo‘ladi va keskinlashadi.

3. Ba’zi kelinlar kelinlik va onalik vazifalarini bajarishga tayyor bo‘lmaydilar.

4. Ayrim hollarda qaynona-kelin bolalar tarbiyasi masalasida kelisha olmay qoladilar.

5. Ba’zan katta xonadonda ovsinlar qaynona iltifotini qozonish yo‘lida bir-birilaridan rashk qilishlari asosida kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

6. Ba’zi hollarda qaynona kelinning yosh xususiyatlarini, qiziqishini, orzu-havaslarini, ishlashi yoki o‘qishini hisobga olmaydi.

7. Ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyin bo‘ladi, oqibatda qaynona-kelin orasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Bu jihatdan ko‘rinib turibdiki, onalar o‘z qizlarini kelajakdagi hayotlarini sermazmun qilib, barchaga ibrat bo‘ladigan, oila qurishga, iffat va hayo sohibasi bo‘lishga o‘rgatishlari zarur. Shuning bilan birgalikda

o‘zлари ham bevosa о‘з turmushlarida ushbu qoidalarga amal qilib, oilalarining jannatmakon bo‘lishini ta’minlashlari kerak.

Xalqimizda kelin bo‘layotgan qizlarning nasl-nasabi, yetti pushtini surishtirishdek odat mavjud bo‘lib, Amir Temur ham bu odatga doimo amal qilib yashadi.

Amur Temur o‘zining “Tuzuki Temuriy” asarida shunday yozadi: “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin so‘rmoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat ishlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabi, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘lik-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabi, odob-axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan boshqa qusurlardan xoli bo‘lsa, el-yurtga katta to‘y-tomosha berib, kelin tushirdim”⁶⁶.

Ma’lumki, qizlarning o‘smir yoshi eng mas’uliyatlari davor hisoblanadi. O‘smirlilik davrida qizlar ham o‘g‘il bolalar singari o‘z fe’l-atvoriga, o‘z nuqtayi nazariga ega bo‘ladi, atrofida sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarga o‘zicha bera bera boshlaydi, katta yoshlilarning o‘zaro munosabatlari va bir-birlariga muomalalarini ko‘rib, kuzata boradi, o‘zicha fikr-mulohaza yuritadi, organizmdagi fiziologik o‘zgarishlar esa uning ruhiyatiga ham ta’sir etadi.

O‘smirlilik yoshida paydo bo‘lgan nuqsonlar keyinchalik butun umrga saqlanib qolib, u ham jamiyat va oila ma’naviyatiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Shuning uchun ham o‘smirlarni, ayniqsa, qizlarni, oilaviy hayotga ma’naviy tayyorlash muhim pedagogik muammo sanaladi.

Demak, biz oilada qizlarni tarbiyalashda quyidagi masalalarga e’tibor berishimiz lozim ekan:

- odob-axloq, sharm-hayo, ibo, muloyimlik, yurish-turish, kiyinish madaniyati, tejamkorlik, sabr-chidam masalalarida tushuncha berib borish, ortiqcha erkalatmaslik, ranjitmaslik, yomon so‘zlar bilan haqoratlamaslik;
- qizlarimizga yoshlidan o‘zimizning urf-odatlarimizni singdirib borish;
- oilada qizlarimizga o‘zining vazifasini, huquqini tushuntirib borish, yengil koyish bilan birga yaxshi ishlarini rag‘batlantirib borish, qiz bolaga katta bo‘lgan sari oila, turmush o‘rtog‘i, unga munosabat, farzand tarbiyasi masalasida bosqichma-bosqich tushunchalar berib borish;
- qiz bolani san’atga, adabiyotga, shariatga havasini orttirib borishdan iborat deb o‘ylaymiz.

Oilada qizlarni har jihatdan yetuk qilib tarbiyalash ancha murakkab ishdir. Xalqimizning eng ajoyib milliy an’analari oilada qiz bolalarni har tomonlama tarbiyalashda hayot maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Qimmatli urf-odatlarimiz bobolarimizdan qolgan meros sifatida ulardan muntazam foydalanishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimizki, o‘zligimizni anglash muhim bo‘lgan hozirgi davrda oiladagi yoshlarni axloqiy shakllantirishda, ularga bisotimizdagい mavjud bo‘lgan odob-axloq qoidalalarini, sharqona udumlarimizni o‘rgatishimiz zarur. Bola tarbiyasi haqidagi bilimlarga ega bo‘lmoq va ajodolarimiz qoldirgan manbalardan tarbiya vositasi sifatida foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akramova F.A. “Oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratishning ijtimoiy-psixologik asoslari”. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2014.
2. Амир Темур. Тузуки Темурий. – Б. 7-8.
3. Каримова В. Оила химояси давлат сиёсатининг устувор йўналиши // HUQUQ BA BURCH. – №5. – Тошкент, 2007. – Б. 31.
4. Кадирова А.Т. Ўсмирларда оилавий низолар тўғрисида ижтимоий тасаввурларнинг шаклланиши. Психол. фан. ном. дис. – Тошкент: 2007. –Б. 36.
5. Шоумаров F.Б. Оила психологияси. – Тошкент, – Б. 151.

* * *

⁶⁶ Амир Темур. Тузуки Темурий. – Б. 7-8.

Djurayeva Buvsara Abdumannonovna,
*T.N.Qori Niyoziy nomidagi
O’zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

ZAMONAVIY OILADA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MEDIAMADANIYATNING O’RNI

Annotatsiya. *Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun oilada beriladigan tarbiyaning mazmuni, insoniyatning ma’naviy rivojlanishi bilan farzand tarbiyasining uyg'unligi, tarbiyada mahorat va madaniyatga amal qilish. Oilada farzand tarbiyasiga doir Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlarini o’rganish hamda milliy va umuminsoniy qadriyarlarini shakllantirishda mediamadaniyatning o’rni yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *Oila, ota, ona, farzand, ta’lim, tarbiya, mahorat, madaniyat, pedagogika, qadriyat, mutafakkir, media, mediamadaniyat, ommaviy madaniyat, ommaviy axborot vositalari.*

Аннотация. Содержание воспитания, которое дается в семье для воспитания подрастающего поколения гармоничной личностью, гармония воспитания ребенка с духовным развитием человечества, овладение и следование культуре в воспитании. Освещена роль медиакультуры в изучении философских взглядов восточных мыслителей и формировании национальных и общечеловеческих ценностей в воспитании детей в семье.

Ключевые слова: семья, отец, мать, ребенок, образование, воспитание, мастерство, культура, педагогика, ценность, мыслитель, СМИ, медиакультура, массовая культура, СМИ.

Annotation. *The content of education that is given in the family for the upbringing of the younger generation by a harmonious personality, the harmony of the child’s upbringing with the spiritual development of humanity, mastering and following culture in education. The role of media culture in the study of the philosophical views of Eastern thinkers and the formation of national and universal values in the upbringing of children in the family is highlighted.*

Keywords: *family, father; mother; child, education, upbringing, skill, culture, pedagogy, value, thinker, mass media, media culture, mass culture, mass media.*

Oila – nikoh munosabatlarini, urug’chilik munosabatlari va urug’lararo munosabatlarni tartibga solish zaruriyati bilan yuzaga keladi. Oila jamiyatning tayanchi, uning birinchi va birlamchi yadrosi, zarrasidir. Ongli oila bo‘lib yashash dunyodagi barcha mahluqot va jonzotlar orasida faqat inson zotiga xosdir. Oila tarixining Odam Ato va Momo Havodan boshlangani rivoyat qilinadi. Barcha muqaddas kitoblarda keltirilgan ushbu ko‘hna naql zamonaviy ilm-fan tomonidan ham o‘z tasdig’ini topmoqda. Binobarin, muhabbat tarixi ham shu ko‘hna rivoyatga tutashadi. “Sevgi ham Odam Atodan qolgan inson qonida”, deb yozganda shoir E. Vohidov haq edi. Genetika, biologiya fanlari qonunlariga ko‘ra, har bir insonning o‘zi bir olam, ular aslo bir-birini takrorlamaydi. Ana shu biri ikkinchisiga o‘xshamaydigan odamlarning, ya’ni er va xotinning ixtiyoriy ittifoqidan oila deb ataluvchi yangi bir olam, bu olamda o‘z navbatida yana “yangi odam”lar – farzandlar vujudga keladi. Jamiyat shu tariqa barpo bo‘ladi, rivoj topadi, ijtimoiy taraqqiyot vujudga keladi. “Bola tug’ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi”. Shuning uchun ham oila muammolari, unda yuritiladigan ta’lim-tarbiya masalalari azal-azaldan ilmu ijod ahlining diqqat-e’tiborini jaib etib keladi. Oila qanday barpo etilmog’i lozim, uning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy asoslarini nima tashkil etadi, oila tarbiyasi qanday qonuniyatlar asosida vujudga keladi, singari savollar kishilik tarixinining barcha davrlarida dolzarb masala bo‘lib kelgan, desak xato qilmaymiz[1, 4].

Shunga qaramay, oila institutida kuzatilayotgan har qanday o‘zgarishlari odatda eng avvalo, ayolning – xotin-qizlarning jamiyat va oilada tutgan maqomlarining o‘zgarib borayotganligi, ular malakalarining oshib borayotganligi va kasb-hunar, lavozim pog‘onalarida erkaklardan qolishmaslikka intilayotganligi bilan

izohlanadi. Qayd etilgan holat bevosita oila hayotida ro‘y berayotgan turli xil o‘zgarishlarga, ham salbiy, ham ijobji hodisalarga sabab bo‘lmoqda.

Ikkala jins vakillari haq-huquqlarining amalda tenglashib borayotganligi xotin-qizlarning erkaklar – yigitlar oldida o‘zini tutishi va o‘z navbatida yigitlarning qizlarga, erkaklarning ayoliga bo‘lgan munosabatlari, xushomad qilishlarida o‘z aksini topmoqda. Ayniqsa, Yevropa xalqlarida nikoh oldi sovchilik instituti yo‘qolib, uning o‘rniga o‘z xohishi bilan o‘ziga nikoh sherigini tanlash an’anasi barqarorlashdi. Lekin ayni holat saqlanib qolgan mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda oila institutiga munosabat boshqacharoq, ya’ni an’analarga sodiqlik saqlanib qolgan. Sovchilikning ahamiyati shundaki, bunda o‘rtada turganlar, kelinkuyov oilasini tanigan, bilgan, surishtirgan odamlar bo‘lgani sababli ham ular yosh oilaning mustahkam bo‘lishidan juda manfaatdordirlar, shuning uchun haqiqiy o‘zbekona mezonlar, “teng-tengi bilan” tamoyili asosida, sovchilar yordamida qurilgan nikohlar aksariyat holatlarda mustahkam bo‘ladi.

Islomda oilaviy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari ham ko‘rsatib o‘tiladi. Bu xususiyatlar musulmonchilik talablaridan kelib chiqqan bo‘lib, insonni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash haqidagi umumiyy g‘oya bilan bog‘liq. Musulmon oilalarida kuyov va kelinning avlod-ajodollarining kelib chiqishini o‘rganish, jismoniy va ma’naviy poklikka e’tibor berish an’anaga aylangan. Islomiy ma’naviyatda bolani oilada axloqiy tarbiyalash haqidagi qarashlar insoniylik, ezhgulik va yaxshlikka da’vat etgani uchun ham umuminsoniy mazmunga egadir. Shunga ko‘ra, islom musulmonlargagina xos diniy qadriyat bo‘lib qolmay, balki umuminsoniy qadriyatdir. Milliy mustaqillik natijasida dinga va diniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi va u oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning muhim omillaridan biriga aylanib, oilada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Sharq mutafakkirlari o‘z ilmiy meroslarida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e’tibor bergenlar[2.32b].

Oiladagi sog‘lom muhit ham muhim o‘rin egallaydi.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, “Ota-onalar ikki xil: tug‘ilish otasi va ta’lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli”. Shunga ko‘ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so‘zları anchayin ibratlidir: “Zamondan yaxshiroq ta’lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta’lim oladigan o‘quvchini ko‘rmadim”. Uning bu so‘zlaridan bir tomonidan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta’sirini anglasak, ikkinchi tomonidan inson shaxsi ta’lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig‘i otaning roliga alohida e’tibor beradi. “Agar oilada – deydi u, oila boshlig‘i tajribasizlik, no‘noqliq qilsa, u oila a’zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin”. Bola yaxshi yo‘lga qo‘yilsa, oila baxtli bo‘ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota-onsa kim bo‘lishidan qat’iy nazar, bu vazifani mas’uliyat bilan ado etishi lozim. Ibn Sino “Tadbiri al-manozil” asarida er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o‘tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o‘rnak bo‘lib, kelajak taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida uqtiriladi. Ibn Sino oilada bolani ma’naviy – axloqiy tarbiyalashda mehnatsevarlikning roliga alohida urg‘u berib, ota-onalarni farzandlariga kasb-hunar o‘rgatishga chaqiradi, mehnatni ulug‘laydi. Mehmatsiz hayot kechirishning bolaga bo‘lgan salbiy ta’sirini ko‘rsatib beradi.

Voyaga yetmagan farzandlarini hali oq-qoranı yaxshi ajrata olmaydigan, paytda uni o‘z xoliga tashlab qo‘yish, tarbiyasiga e’tiborsizlik xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ularning yashash sharoiti, ta’lim-tarbiya olishi, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi bilan bog‘liq masalalarga jiddiy e’tibor qaratishi lozim bo‘ladi. Bo‘sh vaqtning bir qismi ekran qarshisida o‘tar ekan, ularga turli milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni o‘zida jo qilgan o‘zbek Sharq mutafakkirlari Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarini ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etib borilsa, bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalasiga ijobji ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning zamonaviy bilim va taraqqiyot cho‘qilarini egallashi, o‘z qobiliyat va iqtidorini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu jarayonda o‘sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish, ularni xalqimizning

milliy an’ana va qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy olamini yuksaltirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqt o‘quv dargohlarida, balki radio-televiedeniya, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Juhon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsadlarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi”, – deb uqtiradi.

Ayni vaqtida mediya – televiedeniya, radio, kinematografiya, ommaviy nashrlar (gazeta, jurnal), internet va uning ijtimoiy tarmoqlari kundan-kunga rivojlanib borayotgan bir vaqtida ularning minglab targ‘ibotchisilari shart bo‘lmay qoldi. Ba’zan “internet”, “media” kabi atamalarni qiyinchilik bilan qabul qilamiz. Bular, albatta, murakkab va bizga judayam ma’qul emasday tuyuladi. Aslida ham shundaymi? “Media” lotinchada “vosita”, “o‘rtada turuvchi” degan ma’nolarni beradi. U ma’naviy (axborot, bilim) ehtiyojlarni qondirish vositasi. Pichoq, olov, suv kabi xolis vosita. Jarrohni qo‘lidagi pichoq bemorni hayotga qaytaradi, jinoyatchining qo‘lidagi pichoq esa sog‘ni bemor yoki nobud qiladi. Olov kam bo‘lsa odam sovuq qotadi, ko‘p bo‘lsa kuyadi. Ko‘p suv g‘arq qiladi, suvsizlik qaqratadi. Mediya ham shunday. Agar me’yorida oqilona foydalanilsa, mediya donolar uchun bilimlar manbayi. Nodonlar uchun baloyi ofat. Demak, gap mediada emas, undan foydalanuvchilarda, aniqrog‘i, har bir yigit-qizning mediamadaniyatiga bog‘liq[3.4b].

Media – ma’naviy mahsulotlarning virtual bozori. Bu bozorda hech kim “molim yomon”, demaydi. Buzg‘unchilar, jinoyatchi, johillar ham o‘z g‘oya-mahsulotini “eng yaxshi”, deydi. Unda bunyodkorlik, taraqqiyot uchun zarur manbalar ham ko‘p. Gap yoshlarning ana shu virtual bozor taklif etayotgan mahsulotlardan foydalanishda adashmasligida. Bugungi tilda aytadigan bo‘lsak mediamadaniyatida.

Qo‘l telefonini bor bolalarning turli-tuman qo‘shiqlar kliplar, filmlarni tomosha qilganini guvohi bo‘lamiz. Ota-onalari ularga dakki bermoqchi bo‘ladi. Afsuski unda ota-onadan bilag‘on ota-onadan madaniyatli degan fikr qat’iylashgan bo‘ladi. Shuning uchun farzandlar tarbiyasi o‘ta nozik masala ekanini unutmasligimiz kerak.

Bugungi butun dunyoda axborotlashuv va globallashuv jarayoni avj olgan paytda turli kurashlar ham tobora kuchayib bormoqda.

Ayrimlar buni yigirma birinchi asrning yangiligi deb, “madaniyat”ga o‘xshatayotgan bo‘lsa-da, bu jarayonlar o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbiga, ong-u shuuriga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini aslo unutmasligimiz kerak.

Bugungi kunda hech bir xalqning milliy va ma’naviy an’anasi, odatlariga to‘g‘ri kelmaydigan turli “urf-odatlar” ko‘paymoqda. Achinarli jihat shundaki, ko‘pchilik, xususan, ayrim yoshlarni ta’siriga tushib qolmoqda. Bu narsa yoshlarning yurish-turishida, kiyinishida, o‘zini tutishi-yu boshqalar bilan bo‘ladigan suhbatlarida ko‘zga tashlanadi.

“Ommaviy madaniyat” g’arb dunyosida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandı. Uni g’arbda “popular” yoki qisqartirilgan holda, “pop-kultura” (ya’ni “ommaviy madaniyat”) deb atashadi. Garchi, “madaniyat” deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma’nosiga, maqsad-niyatiga ko‘ra “ommaviy madaniyat” chinakam madaniyatning kushandasidir.

Albatta, bunday yot g’oyalar ta’siriga tushib qolgan ayrim yoshlarni hayotga faqat bir tomonlama boqadigan, yengil hayotga intiluvchan bo‘lib voyaga yetishadi. Bu esa ularda buzg‘unchilik, zo‘ravonlik, faqat o‘z manfaati uchun harakat qilish kabi illatlarni rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik g‘oyalarini tarqatish, shuning hisobidan boylik orttirish, milliy an’ana hamda qadriyatlarni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi. Bugun yoshlarning o‘ziga xos “tushunchalar urushi” sharoitida yashamoqdalar. “Ommaviy madaniyat” ota-bobolarimiz “qora” degan narsalarini “oq”, “oq” degan narsalarini “qora” deb uqtirmoqda. Milliy-ma’naviy madaniyatimiz va diniy qadriyatlarning mazmun-mohiyatani juda go‘zal. Bu milliy madaniyatimizdan begona ruhiyatda voyaga yetadigan yoshlarni tabiiy ravishda turli yot kuchlar qurbaniga aylanmoqdalar. Bizning milliy madaniyatimizda hayo, andisha, ibo kabi axloqiy fazilatlarga qat’iy ravishda amal qilinib kelinadi. “Ommaviy madaniyat”, aynan, milliy qadriyatlarning asosi bo‘lgan hayo, andisha, oqibat,

mehr-muhabbat kabi go‘zal axloqiy qadriyatlarimizga qarshi bo‘lgan axloqsizlik va yovuzlikni o‘zida aks ettirgan harakatdir.

Ayni paytda keng tarqalgan axloqsizlikni “madaniyat” deb atalishi, yoinki, ming yillik ma’naviy qadriyat va an’analarni bepisandlik bilan “eskilik sarqiti” deyilishi yoshlarning tarbiyasiga jiddiy xavf solmoqda.

Aslida xalqimizdan boshqalar o‘rnak olsa arzigelikdir. Ming yillik odob-axloq qonimizga singgan ezgu qadriyatlarni boshqa an’analalar bilan almashtirish ongli insonga xos bo‘lmagan odatdir.

Taniqli o‘zbek adibi Muso Toshmuhammad o‘g’li Oybek shunday degan ekan: “O‘zbek xalqi azaldan buyon madaniyat bulog’ining boshida bo‘lgan”.

Donishmand xalqimizda “kasalni davolashdan ko‘ra, uni oldini olgan ma’qul” degan naql bor. Bu bejiz aytilmagan, yoshlarni noto‘g’ri yo‘lga kirib ketgandan so‘ng uni qaytarishdan ko‘ra, o‘sha yo‘lga kirishidan oldin asrab qolish kerak degan xulosa chiqadi. Ya’ni, yoshlarning ongida g’oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ularni foydali mashg’ulotlarga, ilmiy to‘garaklarga jalb qilish, sport bilan shug’ullanishi uchun zamin yaratish, yaxshiliklar qilishga o‘rgatish, muhim Xudoni tanitish ana shunday illatlar-u buzg’unchi g’oyalardan yiroq bo‘lishini ta’minlaydi.

Biz asli kimmiz, kimning farzandlarimiz, kimning avlodimiz, ajdodlarimiz qanday buyuk insonlar bo‘lishgan... bularning barchasini har bir o‘g’il-qizlarning ongiga singishi lozimki, biz o‘zgalarning madaniyatiga qiziqmaylik, aksincha ular bizning odob-axloqimizni o‘rgansinlar!

Xulosa qilib aytganda, oilaviy tarbiya – yuksak axloqiy urf-odatlar va an’analarga asoslangan bo‘lib, barkamol, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish, aynan, oiladan boshlanadi.

Milliy va insoniy qadriyatlar turli yo‘nalishlarga ega: an’analalar, marosimlar, urf-odatlar, ta’limot qoidalari, qarashlarni qamrab oladigan falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy, adabiy, me’moriy, san’at tarixi, diniy urf-odatlar, aqidaviy qoidalari, qarashlar, fikrlar, maqollar, matallar, so‘zlar va boshqa milliy va umumbashariy durdonalardir.

Shu jihatdan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘z ichiga har bir tarixiy davrning shiori, murojaati, nizomi, ko‘rsatmalari hamma uchun majburiy bo‘lgan qonun va tartib sifatida xizmat qilgan. Ular tartib intizomlilikni, go‘zallikni va yaxshi fazilatlarni inson hayotiga va umum jamiyatga olib kirgan.

Milliy va umumbashariy qadriyatlar insonni ilmli qiladigan, poklaydigan, haqiqat yo‘liga yo‘naltiradigan, donolikka chorlaydigan, qadrli, ta’sirchan, hamma uchun foydali, betakror, o‘rnak va muqaddas bo‘ladigan hamma narsani o‘z ichiga oladi. Kelajakda inson hayotiga va jamiyatiga ajoyib durdonalarni yaratish uchun go‘zallik va yaxshilik olib keladi. Oilaning barqarorligini va mustahkamligini ta’minlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 4.
2. Ishanov M. Oila pedagogikasi. – Andijon, 2019. – B. 32-37.
3. “Ma’rifat” gazetasi. 2015-yil 6-iyun 45-son, – B. 4.
4. <https://surxondaryo.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=32616>

* * *

Namazbayeva Lola Zakirovna,

*T.N.Qori Niyoziy nomidagi
ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktaranti*

BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA OILA, OTA-ONA, MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING MUHIM O‘RNI

Annotatsiya. *Bolalarni tabiat, atrof-olam bilan tanishtirishda oila, ota-ona, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning muhim o‘rni bayon etilgan. Ilk tabiat tushunchalari farzandda birinchi bo‘lib, oilada ota-ona tamonidan berilishi o‘ta muhimdir. Muqaddas kitob “Avesto”da tabiatga bo‘lgan umuminsoniy munosabatlar o‘z aksini topgan.*

Kalit so‘zlar: ota-ona, oila, tabiat tushunchalari, atrof-olamni asrash, ekologiya.

Аннотация. В статье описывается важная роль семьи, родителей, национальных и общечеловеческих ценностей в знакомстве детей с природой и окружающей средой. Очень важно, чтобы первые представления о природе давались в первую очередь ребенку, в семье – родителями. Книга Авесто, отражает универсальное отношение к природе.

Ключевые слова: родители, семья, природа, охрана, экология.

Annotation. In this article described about importance of family, parents, national and universal values in introducing children with nature. It is very important that the first concepts of nature are given to the child first, and in the family by the parents. In the holy book “Avesto”, shown about the universal relationship to nature.

Keywords: parents, family, nature, conservation, ecology.

Tabiat – g‘oyat xilma-xil shakllari, tarkibiy qismlari bilan insoniyatni qurshab turgan organik va anorganik olam, o‘simgilik va hayvonot dunyosidir. Insoniyat esa undan paydo bo‘lib, ajralib chiqqan mavjudotdir. Tabiat tushunchasi ko‘proq keng va qisman tor ma’nolarda ishlataladi. Keng ma’noda tabiat butun obyektiv borliq, real voqelik, turli-tuman ko‘rinishlardagi olamdir. Tor ma’noda tabiat fan, asosan tabiiy fanlar tabiatshunoslik o‘rganadigan obyektdir. Tabiatning adabiyotlarda ikki darajasi ajratib ko‘rsatiladi: birlamchi va ikkilamchi. Bularning birinchisi insoniyatdan xoli, mustasno tarzda, sof tabiiy holda mavjud bo‘lgan tabiatdir; ikkinchisi insoniyat ishtirokida hosil etilgan tabiiy ne’matlar – tuproq, suv havzalari va kanallar, daraxtzorlar, ekinzor-u mevazorlar, aholi maskanlari– shahar, qishloq va boshqalar.

O‘simgiliklari dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to‘g‘ri o‘sib shakllanishida, tabiatda bo‘ladigan voqeal-hodisalarining sir-asrorini o‘rganib voyaga etishida katta manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq; jonli tabiatga esa o‘simgiliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o’smaydi, ko‘paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas.

Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o‘sadilar va ko‘payadilar. Jonli tabiat vakillari o‘simgilik, havo, suv, yorug‘lik, issiqlik va ozuqa bo‘lmasa yashay olmaydi.

Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng oliy qudratlisi insondir.

Oilada insonning ma’naviy va madaniy qiyofasining asoslari uning odatlari shakllanadi. Olimlar bir ovozdan: ayni ota-onalarining so‘zлari va xatti-harakatlari bolalarga katta ta’sir ko‘rsatadi, axloqning, xulq-atvorning, qadriyatlar dunyosining, bolalar shaxsiyatining rivojlanishida va shakllanishida ularning o‘rni benihoya katta deb ta’kidlashadi.

Ekologik mazmundagi qadriyatlar esa tabiat, jamiyat hodisalariga ongli munosabatni shakllantirish, o‘simgilik va hayvonot olamiga, tabiat va jamiyat boyliklariga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishdan iboratdir. Yer-bu foydali qazilmalar manbayigina emas, balki bizning Vatanimiz, kindik qonimiz to‘kilgan joy ekanligini ham tushunamiz. Yer kurramiz nechog‘lik go‘zal, ana shu go‘zallikni buzish emas, asrash,

avaylash va ko‘paytirish burchimiz ekanligini, tabiatni avaylab-asrash tirik muhitni va insoniyatning o‘zini saqlab qolishning yagona yo‘li ekanligini bolalar ongiga singdirish lozim.

Qadim-qadim zamonlardan boshlab, atrof-olamni muhofaza qilish, ona tabiatimizni e’zozlash O‘rtal Osiyo xalqlariga xos xususiyat bo‘lgan. Bu haqda qadimgi qo‘lyozmalar va ulug‘ allomalarimizning asarlari guvohlik beradi. Ularda suv, tabiat, o‘simgiliklar, hayvonlar va ularning atrof-muhit, tabiat bilan o‘zaro munosabatlari, aloqalari va boshqalar borasida qimmatli fikrlar yozib qoldirilgan, Garchand, u vaqtarda ekologiya fan sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, lekin o‘sha davrlardayoq tabiat va undagi tabiiy muvozanat, tozalikning ahamiyati, o‘simgilik va hayvonot dunyosi, tabiatni e’zozlash zarurligi ta’kidlab o‘tilgan.

Eng mo‘tabar, qadimgi qo‘lyozmamiz “Avesto” xalqimizning beba ho mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o‘ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma’naviy tarixiy merosidir. “Avesto”, ayni zamonda, bu qadim o‘lkada buyuk davlat, yuksak ma’naviyat va madaniyat bo‘ganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir.

“Avesto” tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni ma’naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg‘unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o‘rganishga chorlaguvchi falsafadir.

“Avesto”da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to‘g‘risida tavsiyalar berilgan. Atrof-muhit, ko‘chalarini, butazorlar-u o‘tloqlarni, yerni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko‘mib tashlash buyurilgan. Asarda uy hayvonlarini to‘g‘ri parvarish qilish yo‘llari ham ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, kitobda 17 xil suvning ta’rifi berilgan. Unda barcha suvlarning birikishi natijasida vujud mavjudligi ta’milanadi, deyiladi. Albatta har bir davrning o‘z udumlari bo‘lgan. Chunonchi, Zardusht zamonidagi udumlardan biri “Sidranushlik” udumidir. Bu udumga ko‘ra, qiz bolalar 15 yoshda, o‘g‘il bolalar esa 17 yoshda dindorlarning maxsus tikilgan harir oq libosida yakka tangri Axuramazda nomi ila suv va otash yonida qasamyod etganlar. Bunday holatda qasamyod etganlar hargiz gustohlikka berilmaganlar, ona tabiat bag‘ridagi jonivor va o‘simgiklarga ozor berishmagan va qo‘shnisining omonatiga xiyonat qilishmagan. Demak, zardushtlarda suv olov singari yorug‘lik, poklik, hayot, unib-o‘sish ramzi bo‘lgan.

Ular Xudoning asosiy vazifasi suvni noplaklikdan asrash va uning doimiy oqib turishini ta’minalashdan iborat deb tushunishgan. Shuning uchun ham ularda har qanday holatda tabiatni va suvni pok saqlash, asrab-avaylash, tejab sarflash haqidagi da’vatlar tez-tez uchrab turadi. Unda “Inson butun umri davomida suv, otash, er, havoni, umuman, dunyodagi jamiki narsani, pok, bus-butun va pokiza asrashga majburdir. Yer, suv, olov, havoni e’zozlash qoidalarini buzgan har bir inson 400 qamchi urilib kaltaklanish jazosiga mahkum etilajak”, – deb yozilgan.

Ayrim milliy qadriyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlarga aylanib boradi. Atrof-olamni, hayvon va o‘simgiklarni, qush va hasharotlarni asrash faqatgina insonning o‘zini hududigina emas, balki butun yer kurrasida yashovchi insonlarga tegishlidir. Albatta, buning uchun ona tabiat bilan yaqinroq tanishib olish maqsadga muvofiq.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ota-onalar o‘rni o‘ta muhimdir. Ular bilan birgalikda olib borilgan tarbiyaviy ishlar samarali natija beradi. Shuning uchun tabiat haqidagi ta’limotni va ilk tushunchalarni ota-onalar bolalarda yoshligidan boshlash kerak. Agar ota-onalar va tarbiyachi-pedagoglar hamkorlikda va o‘zaro aloqada bo‘lsa, bolalarni atrof-olamni asrash madaniyatini sezilarli ijobji natija beradi.

Ota-onalarning tabiat haqidagi qarashlari va tushunchalari o‘sib kelayotgan farzand uchun atrof-olamni asrash madaniyatini shakllantirishda asosiy va muhim o‘rin tutadi. Afsuski, ko‘pgina oilalarda, asosan, iqtisodiy va shaxsiy manfaatlar birinchi o‘rinda bo‘lib, tabiatga va atrof-olamga nisbatan befarq yoki umuman e’tibor qaratmaydilar. Ota-onalarning tabiat haqidagi qarashlari va tushunchalari o‘sib kelayotgan farzand uchun atrof-olamni asrash madaniyatini shakllantirishda asosiy va muhim o‘rin tutadi.

Oilaning tabiatga yuqori axloqiy munosabatini rivojlantirishda oiladagi ekologik tarbiya alohida ahamiyatga ega. Sekin-asta bolalarda tabiat haqidagi tushunchalar shakllanadi, shaxsiy fazilatlar rivojlanadi. Bunda uzlusiz ekologik ta’limning asosi shakllanadi va ta’limning keyingi bosqichlarda mustahkamlanib boradi.

So‘nggi paytlarda ekologiya mavzusi tobora dolzarb bo‘lib, ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Biz tez-tez ekologik ofatlar, muammolar, ularning oqibatlari va sabablari haqida eshitamiz. Biroq, ko‘pchilik uchun

tabiatni, atrof-olamni asrash tushunchalari anchagina mavhum va biroz ahamiyatsiz tushunchadir. Odamlar tabiat va atrof-olamni asrash faqatgina maxsus mas’ul tashkilotlar tamonidan amalga oshirilishi kerak deb o’ylashadi. Biroq bu tushuncha mutlaqo xato, chunki har bir inson tabiat bilan chambarchas bog’liqidir. Ona tabiat bizlarni qornimizni to‘q, ustimizni but qiladi va biz ham tabiat in’omlaridan oqilona foydalanishimiz va asrashimiz lozim.

Hozirgi kunda zamonaviy inson ongidagi eng muhim muammolardan biri bu tabiatni idrok eta olishni bilişdir. Ayrim insonlar hattoki, “Tabiat o’zi qayerda, u nima”, deb hayron bo’lishadi. Tabiiyki, hatto tabiat tushunchasini, atrof-olamni asrash, inson tabiatning bir qismi ekanligini bilmaydi. Bu esa sayyoramizga va albatta, insoniyatga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Masalan, toqqa sayr uchun chiqqanda sigareta qoldiqlarini, axlatlarni, bir martalik ishlatiladigan idishlarni, plastik, selofan qopchalarini har tamonga tashlab ketishadi. Bu ahlatlarni hayvonlar, qushlar, sut emizuvchilar, hasharotlar iste’ mol qilib qoyishadi va ular nobud bo’lishadi. Bunday misollarni cheksiz keltirish mumkin. Bu salbiy holat avloddan avlodga o’tib kelmoqda.

Agar ota-onalar va tarbiychilar bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib, o’zaro hamkorlik qilsalar, bolalarda tabiatga va atrof-olamga nisbatan mehr-shafqat, rahmdilllik kabi hislatlar uyg’onadi va katta samara beradi. Dastlabki bosqichda tarbiyachining vazifasi ota-onalarning e’tiborini muammoga qaratib, birinchi navbatda, bolalarning o’zları bilan hamkorlik qilishga undashdir va ularni asta-sekin hal qilmoq kerak. Tog’ bag’riga, tabiat qo‘yniga sayrga chiqganlarida ota-ona farzand va tabiat o’rtasida bog’lovchi vosita ekanliklarini unutmasliklari kerak. Albatta, manzilga yetib kelgandan so‘ng kattalar birinchi bo’lib nur taratayotgan bobo quyoshga, musaffo osmonimizga, ona tabiatimizga, daraxt va gullarga, jonivor va qushlarga salom berishdan boshlashimiz kerak. So‘ng diqqat bilan kuzatib, qiziqarli savol-javob, bahs-munozara kabi usullardan foydalaniб o’tkazishimiz lozim. Agar mos topishmoq va ertaklardan foydalansak, maqsadga muvofiq bo’ldi. Chumolilar uyumini kuzatib, ular juda ham mehnatkash hasharotlar ekanligini va qishning g’amini ko’rayotganini ko’rsata olish, qushlarning uyalarini, kapalaklarning xilma-xilligini, kichik jonivorlarning insonlarning yordamiga muhtoj ekanligini misollar bilan tushuntirish, kichik tajribalar o’tkazish maqsadga muvofiқdir (kamalakning hosil bo’lishini, suvning quyosh nuri, issiqlik ta’sirida bug’ tomchilariga aylanishini, suvning xususiyatlarini, holatini, xillarini ko’rsatish). Imkon qadar bola tajribalarni o’zi ham mustaqil ravishda amaliyatda ko’rsatishi muhim ahamiyatga ega. Bunday mazmunli sayrlar bolalarning bilimlarini boyitishning juda qulay imkoniyatidir.

Bolalarda yoshlidan o’simliklarga va jonivorlarga mehr uyg’otish o’miga, ularga nisbatan qo’rquv uyg’otamiz. Masalan, mushuk va kuchukni parvarish qilishga ruhsat bermaymiz. Mumkin emas, burga, bit, gjijalari bor, deb man qilamiz, hatto yaqiniga yo’latmaymiz. Jonivorlar bilan vaqt o’tkazish va ularni o’ynatish insonni stressdan, hattoki depressiyadan olib chiqib ketadi.

Xonadonda tuvaklarda gul o’sirish, hovliga rayhon, har xil turdagи gullarni ekib parvarivlash va bu go’zallikdan bahramand bo’lish insonning kayfiyatini ko’tarib, bosh og’rig’idan xalos etadi.

Ona tabiatimizning go’zalligidan bahramand bo’lishni o’rganishimiz va albatta, bolalarimizga buni ko’rsata olishimiz lozim. Har bir fasl o’ziga xos go’zallikka ega. Kuzda barglarning sargayishi, xazonrezgilik hodisasi, yomg’irning yog’ishi; qishda qorning pag’a-pag’a osmondan tushishi, qor parchalarining bir-biriga o’xshamagan go’zal shakllarini, suvning muzga aylanishi, ayozning go’zalliklaridan; bahorning ilk belgisi bo’lgan chuchmoma, boychechakning ko’rinish birishini, daraxtlarning kurtak otishini, oppoq qiyg’os gullashini, asalarilarning guldana gullarga qo’nib changlatishini, hayvonlarning uyg’onishini, qushlarning sayrashini; yozda esa quyoshning nur sochishini, meva-sabzavotlarning birin-ketin pishishini kuzatish va ona tabiatning mo’jizasidan bahramand bo’lmoq va albatta, bolalarga bu tabiat mo’jizalarini ko’rsatmoq kerak.

“Eng ishonchli va samarali dars – bu ota-onalarning farzandga bergen bilimlari va nasihatlaridir!” Farzandingiz tabiat qo‘ynida vahshiyona xatti-harakatlarni bajarishiga yo’l qo‘ymang! O’t-o’lan, gullarning payhon bo’lishiga, ariqlardagi suvning ifloslanishiga, jonivorlarning o’ldirilishiga yoki ozor berishlariga, shox-shabbalarni sindirishlariga, mevalarni pishmasdan olishlariga va yon-atrofga uloqtirishlariga aslo bu odatlarni bajarmasliklari uchun harakat qilmog’ingiz kerak. Lekin Siz o’zingiz amal qilsangizgina, buni bolalardan talab qilishingiz mumkin, ularga sabr-toqatlik bilan bolalikdan tabiat qo‘ynida inson o’zini qanday tutmoqligini o’rgating!

Kattalar ko’pincha bolalarga ba’zi jonivorlarga qurtlar, o’rgimchak, qurbaqalarga nisbatan jirkanish tuyg’usini uyg’otadilar. Bunga aslo yo’l qoymang! Aksincha, bolalarning e’tiborini ularning ojizligiga, qurban

bo‘lishiga, omon qolishi va naslga g‘amxo‘rlik qilishiga qarating. Tabiatdagi barcha jonivorlar, o‘simliklar bir-birlari bilan chambarchas aylanma ozuqaviy zanjir bilan bog‘langan. Bu zanjirni uzish, (ya’ni o‘simlik va jonivorlarni o‘ldirish) tabiatda biror-bir turning yo‘qolib ketishiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Esda tutingki, tabiat boyliklariga hurmat bolalikdan tarbiyalanishi kerak, bu tarbiyani har qanday yoshda boshlash hech qachon kech emas!

Tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbat, har qanday muhabbat singari, shubhasiz, bolalikdan paydo bo‘lgan. Bola – oilaning ko‘zgusi; tomchida quyosh aks etgandek, ota-onaning axloqiy tarbiyasi farzandlarda aks etadi. Bolalik inson hayotida o‘ta muhim bosqich sanaladi: tabiat, atrof-olam bilan tanishadi, jonivor va o‘simliklar bilan ilk bor aloqa o‘rnataladi. Bu aloqaning ijobiy yoki salbiy bo‘lishi ko‘p jihatdan ota-onalarga bog‘liq bo‘ladi. Ota-onsa bola uchun andoza kabitdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sodiqova Sh. A., Rasulxo‘jaeva M. A. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. – Toshkent. Fan va texnologiya, 2012.
2. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 2005.
3. Воронкевич О.А. «Добро пожаловать в экологию» (часть 2)
4. Каменева Л.А., Кондратева Н.Н., Маневсева Л.М., Терентева Е.Ф. Мир природы и ребенок (Методика экологического воспитания дошкольников): Учеб. Пособие для педагогических училищ по специальности «Дошкольное образование»; Маренсова Л.М., Саморукова П.Г. Под. ред., – Санкт-Петербург, 1998.
5. Николаева С.Н. Воспитание экологической культуры в дошкольном детстве. – Москва, 1995.
6. Николаева С.Н. Экологическое воспитание дошкольников. – Москва, 1998.
7. Рийжива Н.А. Экологическое образование в дошкольных учреждениях: теория и практика: 2000.
8. Торохтий Б.С. Психология социальной работы с семьей. – Москва. 1996. Т. 3. – С. 224.
9. Николаева С.Н. Экологическое воспитание дошкольников: Пособие для специалистов дошкольного воспитания. – Москва, 1998.
10. Ortiqov N. Ma’naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997. – B. 48.



Galdiyeva Mehribon Durdiyevna,
Toshkent davlat texnika universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasи o‘qituvchisi

YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH JAMIYATNING YUKSALISH GAROVI

Annototsiya. *Ushbu maqola yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash jamiyatni yuksalish garovi asosiga bag‘ishlangan. Maqolada milliy tarbiya, ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, o‘quvchilarning bilimini oshirishda milliy tarbiya masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, mehr-oqibat, shaxs, milliy qadriyat, komil inson, ota-onas, yosh avlod, oila, mahalla.*

Аннотация. Статья посвящена воспитанию молодежи в национальном духе, как залог прогресса общества. В статье анализируются факторы, влияющие на эффективность отечественного образования, воспитательной работы, вопросы национального образования в повышении уровня знаний учащихся.

Ключевые слова: национальное воспитание, доброта, личность, национальные ценности, совершенный человек, родители, молодое поколение, семья, сообщество.

Annotation. This article is dedicated to education of young people in the national spirit as a guarantee of the progress of society. The article analyzes the factors influencing the effectiveness of national education, education, educational work, issues of national education in improving the knowledge of students.

Keywords: national upbringing, kindness, personality, national values, perfect person, parents, young generation, family, community

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, shubhasiz, oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari, avvalambor, oila bag‘rida, so‘ngra mahallada shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiat va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezzulik, olivjanoblik, mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori ham oila sharoitida qaror topishi, tabiiydir.

Bolajonlik – xalqimizga xos azaliy qadriyat bo‘lib, farzand dunyoga kelishi ota-onaga ham, qarindoshurug‘larga ham katta quvonch baxsh etadi. Kelgan kishilar uy egalarini yangi mehmon bilan qutlab: “umri bilan bergen bo‘lsin”, “baxtini ko‘ring”, deya yaxshi tilaklar bildirishadi.

Ota-onal farzandiga yaxshi niyat bilan ism qo‘yadi, shu kundan boshlab uning kelajagi va baxtini o‘ylaydi. Farzandini axloq-odobga o‘rgatish, o‘qitish, katta bo‘lganda biror kasb-hunar egasi bo‘lishiga ko‘maklashish ota-onaning zimmasidagi burchidir.

Qadimdan o‘g‘il bolalar ota yonida dastyor bo‘lib, uning hunarini egallagan, qizlar esa ona rusumini tutib kelishgan. Sharqona tarbiyaga ko‘ra qiz bolalar bilan gaplashganda nafosat bilan sekin so‘zlashga o‘rgatiladi. Kattalarga tik qarash humatsizlik, beodoblik sanalgan. Uyda keksalar yig‘ilganda ayollar yarim ovozda so‘zlashishgan. Yoshi ulug‘larning hurmatini bajo keltirish esa ularga ko‘r-ko‘rona itoat qilish emas, balki ularning turmush tajribalariga, bilimlariga hurmat belgisidir.

Qadimdan xalqimizning eng olijanob oilaviy an‘analaridan biri kechalari ota-onalar bolalari bilan tancha atrofida o‘tirib, tarbiya, odob-axloq haqida maroqli suhbatlar o‘tkazishlari bo‘lgan. Bunda ular o‘zbek xalq ertaklari, dostonlari orqali, farzandlarini to‘g‘ri yo‘lga boshlaganlar. O‘zbek xalqining turmush tarziga singib ketgan urf-odatlarimizning aksariyati kishini jismonan sog‘lom, e’tiqodli shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Milliy tarbiya ko‘p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Odatda, bolaning fe’l-atvori, yurish-turishiga, muomala madaniyatiga qarab ota-onasi kim, oilada qanaqa tarbiya ko‘rgani haqida hukm chiqariladi.

Hayotning ko‘rki ham, chiroyi ham ayollardir. Ayol bor yerda mehr-vafo, orastalik, ezhgulik bor. Qiz bola – hayosi bilan go‘zal. Go‘zallik bu faqat tashqi qiyofada emas, balki odob-axloq, farosat, pokizalik, oljanoblik, sharm-hayo, iffat, g‘urur, latofat, mehnatsevarlik kabi chin insoniy fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Mana shular mujassamlashgandagina inson haqiqiy go‘zal bo‘la oladi. Go‘zallik dilni ravshan qila oladigan bir nurki, inson har vaqt shu nur tomon intildi.

Qiz bola tarbiyasi jiddiy masala ekanligini inobatga olgan holda har bir inson bunga jiddiy yondoshib harakat qilmog‘i lozim. Ayniqsa, maktab, litsey va kollej o‘qituvchilarining galdagi mas’uliyatli vazifalaridir. Bizga ma’lumki, har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagini mavjud bo‘ladi. Chunki, ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ma’naviy-axloqiy sifatlar qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilm-u ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar.

Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma’naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma’lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e’tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, jaholatga olib boradigan bir omil, ya’ni oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati millatning ma’naviy tanazzulining asosi, desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xo‘s, nega bugun ota-onalar farzand tarbiyasiga e’tiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishiga qanday omillar to‘sqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizni masala yuzasidan hamma uchun bir tildagi optimal yechim topish vazifasini qo‘ymoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo‘lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda bizda farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illat va tahdidi kuchayib bormoqda.

Oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldaggi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarorida ichki tahdid sifatida qayd qilinib, mazkur tahdidiga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish vazifasi qo‘yildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23- avgust kuni bo‘lib o‘tgan xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so‘z bordi. Mazkur yig‘ilishda Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to‘xtalib, **“Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi”**, – deya alohida ta‘kidladi.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi. Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyanining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur ul-Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshify, Abu Nasr Farobi, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning ma’naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi.

“... hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat yo-falokat masalasidur”, degan edi milliy pedagogikamizning buyuk darg‘asi Abdulla Avloniy. Konsepsiya ana shu hikmatga hamohang bo‘lib, unda farzandlarimizda milliy yuksalishimiz uchun eng zarur fazilatlar: Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi.

Voyaga yetgan o‘g‘il-qizlarimiz mustaqil hayotga ana shu fazilatlari bilan kirib boradilar. Bu fazilatlari ularning o‘zlarini ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qiladi.

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiylar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliv ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tariladi. O‘quvchilarmizni nafaqat yaxshi mutaxassis, balki inson bo‘lishlari uchun ta’limni tarbiya bilan uzviy bog‘lagan holda olib borishmoqda. Ota-onaga hurmat, ular oldida umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash, har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlar ham oila muhitida shakllanadi. Ma’lumki, Sharqda, oila tushunchasi, oila qurish va uning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta’minalash insonning o‘z millati, avlod-ajdodlari, jamiyat oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas.

O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining qarindoshurug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘snilarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliv darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir. Har bir oila ijtimoiy munosabatlarni o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Oilaviy munosabatlar alohida olingan har bir holatda o‘ziga xos tomonlarga ega bo‘ladi. Chunki, bu munosabatlar o‘ziga xos ma’naviy qiyofaga ega bo‘lgan kishilarning o‘zaro ta’siri natijasidir. Shunga ko‘ra, oilaning bolaga ta’siri spetsifik, o‘ziga xos bo‘lgani uchun, uning ma’naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishi ham o‘ziga xos va takrorlanmasdir.

Ikkinchidan, bola o‘z ota-onalarining xatti-harakatlari, butun hayotiy faoliyatlarini kuzatib yuradi. Shu tufayli narsa va hodisalarga ta’sir qilishga qodir bo‘lgan faoliyatning subyekti sifatida o‘z-o‘zini anglay boshlaydi.

Uchinchidan, oila o‘ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo‘lib, unda ijobiy va ba’zan salbiy histuyg‘ular jamuljam bo‘ladi. Ana shu boisdan bola hissiyotini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar oilada o‘zaro hurmat va ishonch bilan birga, yaxshi kayfiyat asosidagi sog‘lom muhit qaror topgan bo‘lsa, bu bola ruhiyatiga, uning hissiyotiga ijobiy ta’sir etishi tabiiyidir.

To‘rtinchidan, oila sharoitida bolalarda o‘zgalarga nisbatan hamandardlik tuyg‘ulari ham tarbiyananadi. Chunki bola yoshligidanoq hayotda g‘am-tashvishlar bilan quvonch-sevinchlar birga yurishligini anglab borishi kerak. Ota-onalar bolalarida jamiyatda va oilada kerakli ekanliklarini ilk bor his qilishni uyg‘ota olsalar, insondagi bebaho xislat bo‘lgan mehnat qilish quvonchidan bolani bahramand qilgan bo‘ladilar.

Beshinchidan, oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. Chunki bola hayoti, asosan, uy sharoitida o‘tadi. Oila a’zolari o‘rtasida muomala madaniyati oilaviy tarbiyada muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar ma’naviy jihatdan qanchalik boy bo‘lsa, ular o‘z farzandlariga nisbatan shu qadar jiddiy va mas’uliyatlari munosabatda bo‘ladilar. O‘zlaridagi mavjud ma’naviy-axloqiy fazilatlarni farzandlari timsolida ko‘rishni har qanday ota-ona orzu qiladi. Oilada milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi. Agar ota-onalar jamiyatimiz tomonidan oilaga, o‘sib borayotgan avlod tarbiyasiga qo‘yiladigan talabni bilsa, axloqiy tarbiya samarali bo‘ladi; milliy tarbiyalash jarayonida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy o‘zbek an’analardan foydalananadi; ota-onalar pedagogika va psixologiyaning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda va oilaviy tarbiya masalalari bo‘yicha sharq mutafakkirlarining boy madaniy me’rosidan foydalangani holda o‘zining pedagogik ma’lumotini doimo oshirib boradi.

Ma’lumki, mamlakatimizda ta’lim va tarbiya o‘zaro uzviy bog‘liq sharqona tushunchalar sifatida qaraladi. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmasligi davlatimizning ta’lim sohasidagi siyosatida ham ustuvor tamoyil hisoblanadi. Inson tarbiyasining barcha jihatlari, tarkibiy qismlari farzandlar ruhiyati va ma’naviyat olamiga oila davrasidagi suhabatlarda, o‘git-nasihatlarda, yaqqol xatti-harakatlar vositasida singdirib boriladi. Mehr-muhabbat, ahillik, kamtarlik, hotamtoylilik, mehmondo‘stlik singari milliy xislatlar oila bag‘rida nish uradi va asta-sekin har bir oila a’zosining xulq-atvorida mujassamlashadi. Bu borada mazkur tuzilmaning alohida faoliyat yo‘nalishi mavjud. Oiladagi nosog‘lom psixologik muhit

va oilaviy tarbiyadagi yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar hamda ta’lim jarayonida kuzatilayotgan nuqsonlar, bolalar va o‘smlilar yashayotgan mahallalar hayoti, ularning psixologik muhiti voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Ma’lumki, obyektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy muhit voqeа-hodisalari o‘smirning ongi, xohish-irodasiga bo‘ysunmagan holda ta’sir etadi va uning ongi, dunyoqarashi, shaxs sifatida shakllanish va xulq-atvori mazmunini belgilab beradi. I.Pavlovning ta’kidlashicha, inson va hayvon xulq-atvori mazmuni nafaqat nerv sistemasining tug‘ma xususiyatlari, balki organizmga doimo ta’sir etib turuvchi tashqi ta’sirlar, ya’ni doimiy ravishda berib boriladigan tarbiya yoki ta’lim jarayoniga ham bog‘liq bo‘ladi. Bir qator tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, inson odobli yoki odobsiz, ollyjanob yoki egoist, jinoyatchi yoki sog‘lom xulqli bo‘lib tug‘ilmaydi. Shaxsdagi u yoki bu xildagi xususiyatlар va ustanovkalar kishining ijtimoiy hayot faoliyati, uni qurshab olgan obyektiv shart-sharoitlar va voqeа-hodisalar ta’sirida vujudga keladi. Ushbu shart-sharoitlar va obyektiv munosabatlar xarakteri individning shaxs sifatida shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Demak, aytish mumkinki, shaxs xususiyatlarining shakllanishi nafaqat inson organizmining nasliy xususiyatlariga, balki, eng avvalo, u aloqada bo‘lgan ijtimoiy muhitga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy turmush shart-sharoitlari pirovard natijada inson xulq-atvorining shakl va tamoyilini belgilab beradi. Ma’lumki, voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishining kelib chiqishi va ijtimoiy muhit o‘rtasida o‘ziga xos ta’sir doirasi mavjuddir. Ushbu o‘zaro ta’sir mexanizmi nazarmizda uch xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, nosog‘lom ijtimoiy muhit bilan shaxsnинг o‘zaro aloqalari o‘smirlarda ijobiy qarashlarning salbiylashuviga olib kelsa, ikkinchidan, shaxs va nosog‘lom ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqa kishiga ijtimoiy me’yorlarga to‘g‘ri kelmaydigan muayyan yo‘l-yo‘riqni, xususan, g‘ayriqonuniy vazifalarni bajarish bo‘yicha rollarni taqsim etadi. Uchinchidan esa, g‘ayriqonuniy yo‘l-yo‘riqlar va rollar taqsimoti o‘smirda asta-sekin ijtimoiy muhit talab va me’yorlariga nisbatan deformatsiyalashuvning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ushbu deformatsiyalashuv shaxs xulqida o‘ziga xos o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning aksariyat qismi ijtimoiy muhitga nisbatan deformatsiyalashuv pog‘onasida bo‘ladilar. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasi ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, mamlakatda uning bir qator mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ta’lim tizimida uzluksiz olib borilayotgan islohotlar esa yoshlar ijtimoiy faolligini ta’minalashga xizmat qiladi. Ular orasida boshqaruvning milliy mexanizmi bo‘lgan mahalla, jamiyatning asosi oila va ta’lim muassasi hamkorlikdagi faoliyati va uning muvofiqlashtirib turuvchi – Oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligini mustahkamlash va jamoat kengashining alohida o‘rni bor. Birinchi Prizdentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda, avvalo, ko‘plab islohotlar amalga oshirilayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak, bu borada hali o‘z yechimini kutayotgan masalalar ham mayjud. O‘z o‘rnida ushbu masalalarni hal etishda buyuk ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan nodir qo‘lyozmalarda yozilgan ilmiy meroslardan to‘g‘ri va samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Zero, bizning bosh maqsadimiz yoshlarmizni shu yurt, shu millat taqdiri bilan yashaydigan yetuk insonlar qilib tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. А.Авлоний “Туркй гулистан ёхуд ахлоқ”. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1992. – Б. 15.
2. Зуннунов А., Хайруллаев М. Педагогика тарихи. Дарслик. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – Б. 237.
3. Куронов М. Ўзбекистон умумтаълим ўрта мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари. П.ф.д. ...дис. – Тошкент, 1998. – Б. 316.
4. Каримова В.М. Ёшларда ўзбек оиласи тўғрисидаги ижтиомий тасаввурлар: Психол. фан. докт. ... дис. – Тошкент: ТошДУ, 1994. – Б. 309.
5. Р. С. Немов. «Психология. Книга 2. Психология образования» 2007. –Б. 52.



Toshmatov Boboxon Egamshukurovich,
Nizomiy nomidagi TDPU
“Psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

ZAMONAVIY OILA QADRIYATLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqola zamonaviy oila qadriyati masalalariga bag‘ishlangan. Zamonaviy oilani shakllantirishda qadriyatlarning o‘rni muhim ekanligi va bu, asosan, oila munosabatlarida tarkib topishi asoslab berilgan. Oiladagi sog ‘lom muhit, ma’naviy, psixologik va axloqiy me’yorlardan iborat qadriyatlar zamonaviy oilalarni shakllanishidagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: qadriyatlar, oila qadriyatlari, zamonaviy oila, oilaviy tarbiya, sog ‘lom muhit.

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам семейных ценностей современной семьи. Показана значимость здорового климата, обосновано значение ценностей в духовном, нравственном и психологическом развитии современной семьи.

Ключевые слова: ценности, семейные ценности, современная семья, семейное воспитание, здоровая среда.

Annotation. This article is devoted to the issues of family values of the modern family. The importance of a healthy climate is shown, the importance of values in the spiritual, moral and psychological development of a modern family is substantiated.

Keywords: values, family values, modern family, family education, healthy climate.

Qadriyat inson va insoniyat uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy va nomoddiy boyliklar, tarixiy va madaniy meros namunalari, an’analari, urf-odatlar, insoniy fazilatlardir. Har qanday inson hayotini qadriyatlardan ayri holda tasavvur qilish mumkin emas.

Qadriyatlar bir-ikki yilda shakllanmaydi, balki o‘n yillar, asrlar mobaynida kishilarning turmush tarziga aylanib, qaror topadi, muayyan bir xalq hayotining mazmuniga aylanadi. Shuning uchun qadriyatlar xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagini, boshqa xalqlardan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Oilaviy qadriyatlar ham milliy qadriyatlarning uzviy tarkibiy qismi sifatida jamiyatda hamjihatlik va o‘zaro hurmat muhitini qaror toptirishga xizmat qiladi. Aholining keng qatlamlari o‘rtasida oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish xalqimizni ma’naviy yuksaltirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xalqimizning milliy an’analari va qadriyatları oilaviy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Oilaviy munosabatlar tufayli o‘zaro hamfikrlilik, bir-birini to‘ldirish, o‘zaro hamkorlik, maqsadlar sari birga intilish, bir-biriga yon bosish, farzandlarni birga tarbiya qilish, farzandlarni jamiyat hayotiga tayyorgarligi masalalarini bahamjihat hal etish kabi bir qator milliy va azaliy qadriyatlar saqlanadi, avloddan avlodga uzatiladi.

Oila insonning ma’naviyati va ijtimoiylashuvining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynar ekan, mutafakkir Abu Ali Ibn Sino inson kamolotida irsiyat, muhit, tarbiya asosiy omil deb ko‘rsatadi. Olimlar bu uch omilni alohida ta’kidlab, shaxsga singdirilgan oila qadriyatini ham muhim deb hisoblaydi.

Oila, o‘z ijtimoiy mazmuniga qarab, uch tarkibiy qism birligidan tashkil topadi. Ular: oila asosi sifatida nikoh, nikohning natijasi sifatida er va xotin munosabatlari, hamda er-xotin munosabatlarining oqibati sifatida farzandlardan tashkil topadi. Bizda azal-azaldan oila eng muqaddas va mo‘tabar maskan hisoblanib, jamiyat uchun yetuk va komil shaxslarni tarbiyalash ajdodlarimizning yuksak burchi va mas’uliyati sanalgan. Oilada farzand tarbiyasiga alohida ahamiyat berish masalasiga asrlar mobaynida xalqimiz hech qachon befarq qaramagan.

Ammo turli hayot tarzlari va g‘oyalar keskin raqobatga kirishgan bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan shiddatli axboriy o‘zgarishlar, hayotimizga kirib kelayotgan kommunikatsion yangilanishlar ta’sir qilib, bunday murakkab vaziyatda oilalarimizdagи asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan yuksak insoniy an’analarmizni hozirgi davr an’analari bilan boyitgan holda bola tarbiyasida qo‘llashimiz, ular qalbida vatanparvarlik, odamiylik, iymon-e’tiqod tuyg‘ularini uyg‘otib, oila qarshisidagi mas’uliyatni his qila bilish, oilaviy hayotning murakkab jihatlarini anglash, har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishga tayyorlashga o‘rgatishimiz lozim.

Darhaqiqat, bola tarbiyasida milliy qadriyatlarimizdan ustun qonuniyat yo‘q ekan ming yillar mobaynida sinovdan o‘tgan. Shundan kelib chiqish aytish mumkinki, oilada arning o‘z o‘rni va xotinning o‘z o‘rni bo‘lganidek, farzand tarbiyasida ham otaning o‘z o‘rni va onaning o‘z o‘rni bor. Agar bu tamoyilga amal qilinmasa, ya’ni biri ikkinchisini inkor etib, har biri o‘z bilganicha harakat qilsa, bola nafaqat odobsiz, dangasa, qo‘rs va toshmehr bo‘lib o‘sadi, balki xudbin, xiyonatkor, faqat o‘zi uchun yashaydigan kimsa bo‘lib voyaga yetadi. Muxtasar aytganda, bolada sog‘lom ongni shakllantirish imkoniyati boy berilsa, u voyaga yetganidan so‘ng oiladagi va jamiyatdagi hayot qonuniyatlariga zid xatti-harakatlar qiladi. Bunday paytda hech narsa, afsuski, foyda bermaydi. O‘zbekchilik, milliy va ma’naviy qadriyatlar, avlod-ajdodlar, o‘tmish va kelajak haqidagi pand-nasihatlarimiz endi unga ta’sir qilmaydi. Shu bois ham buyuk alloma Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug‘ullanish lozim, degan edi.

Mutaxassislarning fikricha, tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi. Demak, biz farzandimizga besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsak, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi. Keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi. Ana shu jarayonda bola tarbiyasiga o‘ta e’tiborli bo‘lishimiz lozim. O‘g‘il-qizlarimizning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini shakllantirish, ularni har jihatdan barkamol etib tarbiyalash maqsadga muvofiq.

O‘z navbatida, farzand tarbiyasida onaning mehri otaning talabchanligi, lozim bo‘lganda qattiqqa‘lligi bilan mushtarak bo‘lmog‘i kerak. Oilada ayniqsa otaning o‘rni beqiyos. Markazimiz tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda ko‘pgina oilalarda otaning mavqeyi ikkinchi darajaga tushib qolgan. Onaning o‘z erini mensimay qo‘yishi, bolalar oldida uni kamsitish, g‘ururini yerga urish hollariga tez-tez duch kelmoqdamiz. Bunday hollar farzandlar tarbiyasiga o‘ta salbiy ta’sir etishi aniq. Otaning hurmat-izzatini joyiga qo‘ymaydigan farzand uyda ham, ko‘chada ham xohlagan noma‘qulchilagini qilaveradi. Shu sababli ham bizda qadim-qadimdan bola tarbiyasida otaning mavqeyi va obro‘si har doim juda baland bo‘lib kelgan.

O‘z o‘rnida, farzand tarbiyasida onaning ham o‘ziga xos o‘rni borligini inkor etib bo‘lmaydi. Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘z onasi tarbiyasini olgan, uning g‘amxo‘rligi, mehrini doimo his etib turgan bolalar butunlay o‘zlarini jamoat ishlariga baxshida qilib, farzandlaridan uzilib qolgan onalarning bolalariga qaraganda sog‘lom, aqli, tarbiyali va ko‘ngilchan bo‘lib ulg‘ayishar ekan. AQSHda o‘tkazilgan tadqiqotlarda qamalganlarning yarmidan ko‘pi ona mehriga to‘ymagan yoshlar ekani ma’lum bo‘lgan. Farzandga mehr degan ulug‘ tuyg‘uni onadan boshqa hech kim bera olmasligi ushbu misoldan ham yaqqol ko‘rinib turibdi.

Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, oilada farzand tarbiyalashda bobo va buvilarning tajribalariga tayanish an‘anaviy qadriyatlarimizning uzviy qismi bo‘lib kelgan. Yoshi ulug‘ otaxon-onaxonlarimizning o‘z nevaralariga bergen: suvgaga tupurma, nonni ko‘zingga surt, kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘l, haromdan hazar qil, odob-axloqli bo‘l singari hayotiy o‘gitlari, pand-nasihatlari ularning kelgusida har tomonlama yetuk, ma’naviy barkamol, komil shaxslar bo‘lib yetishishiga sabab bo‘lganiga tarixda misollar juda ko‘p. Bu o‘rinda birgina Mirzo Ulug‘bekni buvisi Bibixonim tarbiyalagani haqida to‘xtalish kifoya.

Biroq keyingi vaqtarda ota-onalar ham, bobo-buvilar ham tarbiyada bu kabi qadriyatlarimizni unutib qo‘yishayotgandek, nazarimizda. 2020-yili “Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda ayrim ota-onalar turli sabablar tufayli farzand tarbiyasiga yetarlicha e’tibor berishmayotgani va bu masalaga mas‘uliyat bilan yondashishmayotgani ma’lum bo‘ldi. Ishtirokchilarning to‘rtdan bir qismi farzandi mакtabda darsga qatnashmayotganini tan olgan va buni ularning o‘qishga qiziqishi yo‘qligi yoki oilaviy ahvoli yaxshi emasligi bilan izohlagan. Har o‘ninchisi ota-ona farzandi bo‘sh vaqtini qanday o‘tkazayotgani, mobil telefonidan qanday maqsadlarda foydalanayotgani bilan qiziqmaydi va bu borada bolasiga ishonishini qayd etgan.

Vaholanki, bola tarbiyasi o‘ta murakkab va mas‘uliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishslashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan xabardor bo‘lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko‘rsatma va bilimlar jamlanmasi emas. U o‘z ichiga ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy, tibbiyot, etika, diniy-axloqiy, psixologiya, pedagogika kabi sohalarga oid bilimlarni qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ham ortib bormoqda. Bu esa, oilada bolaga psixologik, estetik, axloqiy, diniy-ma’rifiy, jinsiy tarbiya berish

sifati va ko‘lmini oshirishni taqozo etmoqda. Farzand tarbiyasida bola huquqlari hech qachon kamsitilmasligi kerak. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg‘ulariga chuqr ta’sir ko‘rsatadi. Qisqa qilib aytganda, ajdodlarimizning uzoq davr mobaynida tarbiya sohasida orttirgan tajribalari asosidagi ta’limotlar negizida shu ma’no anglashiladiki, tarbiyachining o‘zi hamisha o‘rnak bo‘lishi zarur.

Prezidentimiz qarori bilan tashkil etilgan Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligiga qarashli Mahalla va oila ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan oilalarini, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga muhim masala sifatida alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas.

Jumladan, mazkur hujjatda an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviy oila modelini shakllantirish uchun tarixiy-madaniy shart-sharoitlarni kompleks tadqiq etish, ularni keng targ‘ib qilish va hayotga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish belgilangan. Bu borada yosh avlodda ma’naviy-axloqiy, odob qadriyatlarni va ota-onaga hamda katta yoshdagi insonlarga hurmatni shakllantirish, oilaning tarbiyaviy va madaniy-ilmiy salohiyatini oshirish, oilada avlodlar o‘rtasidagi o‘zarо aloqani saqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan oilaviy an’analarni rivojlantirish, bolalarning nazoratsizligi va qarovsizligi, ular orasidagi huquqbazarliklar va jinoyatlarning oldini olishga doir samarali mexanizmlarni joriy qilish, farzand tarbiyasida oilaning javobgarligini oshirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, saqlash va rivojlantirish, oila a’zolarining huquqlariga rioya qilish, bolaning oilada yashash va tarbiya olish huquqini ta’minalash, barkamol avlodni tarbiyalash omillariga alohida e’tibor qaratish nazarda tutilgan.

Bugun yurtimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, qabul qilinayotgan qaror va farmonlarning zamirida ham biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonardonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zarо hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdek hamda zamonaviy oilalarini shakllantirishdek oliy maqsadlar mujassamdir. Inson uchun zarur bo‘lgan olijanob insoniy tuyg‘u va fazilatlar, inson kamoloti oiladan, uning sog‘lom turmush tarzidan boshlanadi. Har bir yurtning buguni va kelajagi, Vatan taraqqiyoti, millat istiqboli tom ma’noda, mamlakat kelajagi bo‘lmish yoshlarga, ularning jisman sog‘lom, ma’naviy, barkamol va aqlan yetuk bo‘lishi masalalariga bog‘liq. Oiladan boshlangan mehr-muruvvat, tinchlik-osoyishtalik kabi qator xatti-harakatlar o‘zarо munosabatlarda davom etadi, unadi, o‘sadi, meva beradi. Bu esa oiladagi sog‘lom muhit, ma’naviy, ruhiy va axloqiy tamoyil hamda me’yorlar asosida shakllanadi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida yangi mazmun-mohiyat kasb etadi, takomillaшиб boradi va zamonaviy, namunali oilalarini shakllanishida asosiy omil bo‘ladi.

Shulardan kelib chiqib, har birimiz farzandlarimiz tarbiyasiga o‘ta e’tiborli bo‘lishimiz, bu muhim masalada loqaydlik va beparvolikka yo‘l qo‘ymasligimiz zarur. Bu borada, ayniqsa, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish, eng avvalo, ota-onalarning oldida turgan ustuvor vazifadir. Boshqacha aytganda, har bir inson milliy qadriyatlarmizga ahamiyat qaratib, o‘z farzandi ongida axloqiy qadriyatlarni bolaligidanoq shakllantirib borishi lozim.

Xulosa o‘rnida aytganda, oilada bola tarbiyasi har qanday zamon va makonda ham davlat va jamiyat ahamiyatiga molik bo‘lgan ustuvor masala hisoblangan. Bu borada zamonaviy oilada voyaga yetayotgan farzandni oila qadriyatlarni yo‘qtomagan holda jamiyatning faol fuqarosiga aylantirish, nafaqat ota-ona, balki har bir inson o‘z burchi va mas’uliyatini chuqr his etishi maqsadga muvofiqdir.



Xolmurodov G‘ulom,
*O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy ish kafedrasи o‘qituvchisi*

Abdusalamova Sarvinoz Baxodir qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

OILADAGI FARZAND TARBIYASIDA QADRIYATLAR O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda oilalarning ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy hamda huquqiy tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligi, bevosita davlatimiz rahbari tomonidan keng ko‘lamda ishlar olib borilayotgani, oilada farzand tarbiyasiga e’tibor qaratilishi kabi jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, oila instituti, kam ta’minlangan oilalar, Harakatlar strategiyasi, “ma’naviy kasal”

Аннотация. В статье освещается социальная, духовная, моральная и правовая поддержка семьи в годы независимости в Республике Узбекистан, масштабная работа, проводимая непосредственно главой государства, ориентированная на воспитание детей в семье.

Ключевые слова: независимость, институт семьи, малообеспеченные семьи, стратегия действий, “моральная болезнь”.

Annotation. This article highlights the social, spiritual, moral and legal support of families in the ears of independence in the Republic of Uzbekistan, the large-scale work carried out directly by the head of state, the focus on raising children in the family.

Keywords: independence, family institution, low-income families, Action strategy, “moral illness”

Mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik yangilanishning bugungi bosqichidagi eng muhim yo‘nalishlardan biri – bu qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir.⁶⁷

Mazkur jarayon mamlakatimiz mustaqillikka erishgach ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda keng qamrovli, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlarda o‘z ifodasini topadi. Ushbu islohotlar natijasida jamiyatda oila institutining o‘rni va nufuzini yuksaltirish hamda shaxs hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza etishga qaratilgan ishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi. Jumladan, oilani jamiyatning ravnaq topishidagi tutgan o‘rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilash, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta’minlash, oilaga g‘amxo‘rlik qilish, yoshlarni oila qurishga tayyorlash, yosh oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kam ta’minlangan oilalarga hukumatimiz tomonidan moddiy va ma’naviy jihatdan yordam berish tizimini takomillashtirish bugungi kundagi eng ustuvor va dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Xususan, mamlakatimizda 2012-yil “Mustahkam oila” yili, 2013-yil “Obod turmush” yili, 2014-yil “Sog‘lom bola yili”, deb e’lon qilinganligi bevosita oilalarning jamiyatdagi nufuzini yuksaltirish hamda qo‘llab-quvvatlashga qaratilayotgan e’tiborning namunasidir. Zero, “Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir”⁶⁸. Shu bois mamlakatimizda oilaga, uning jamiyatdagi o‘rni va rolini mustahkamlashga, milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrash hamda kelgusi avlodlarga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu mustaqil ishda hozirgi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “2017-2021-yillarga qaratilgan Harakatlar strategiyasi” da bizning mavzuga oid ijtimoiy himoya bandi haqida,

⁶⁷ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент, 2010. – Б. 15.

⁶⁸ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, 2008. – Б. 58.

shu jumladan, ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan oilalarga beg‘araz moddiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida gap boradi. Ayniqsa kam ta’minlangan oilalarga har tomonlama yordam berish bizning insoniy burchimiz hisoblanadi. Shu o‘rinda yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Aholining barcha toifalari bilan doimiy muloqotda bo‘lish, fuqarolarning qonuniy talab va ehtiyojlarini nafaqat o‘rganish, balki ularni ta’minlashdan iborat”⁶⁹ degan fikrlarida ham juda katta ma’no mujassam hisoblanadi. Kam ta’minlangan oilalar manfaatlarini himoya qilish va qolgan aholi qatlamlari bilan ularning ahvolini yaxshilashga birgalikda harakat qilinsa maqsadga muofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bu – oiladir”.

Birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rnii hamda ta’siri beqiyos ekanligini alohida ta’kidlaganlar. Darhaqiqat, insondagi ilk hayotiy tushunchalar, dunyoqarash, bokira tuyg‘ular, avvalo, oilaviy muhitda shakllanadi. Xalqimizda keng tarqalgan “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqolning mazmun-mohiyati ham shunga ishora. Azal-azaldan oilaga muqaddas qo‘rg‘on sifatida qarashgan. Chunki inson oilada dunyoga keladi, ulg‘ayib kamol topadi. Afsuski, jamiyatimizda oilaning mustahkam va faravon bo‘lib shakllanishiga to‘sinqilik qiluvchi omillar ham yo‘q emas. Oiladagi muhit, ta’lim-tarbiya, ota-onalarning o‘zaro munosabatlari yosh avlod ulg‘ayishida o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Ko‘philik zamonaviy oilalarda xalqimizga xos bo‘lgan qadriyatlar yoshi ulug‘larga hurmat, mehnatsevarlik, kamtarlik, o‘zini jamiyatda munosib tutish hamda keksa avlodga e’tiborning, ota-onaga hurmat, o‘zaro munosabatlardagi ishonch, yaqinlik, farzandlarning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatlari yo‘qolib borayotganligiga ham yo‘qolib borayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu esa o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma’naviy kasal” insonlar shakllanadi.

XXI asr – globallashuv davrida turli axborotlarning tez tarqalishi ham yoshlарimiz ongiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Yoshlarning g‘arb madaniyatiga tez o‘rganishiga, ularga tanqid qilib “ommaviy madaniyat” ta’siriga kirishiga ham sabab bo‘lmoqda, desak adashmaymiz. Ba’zi yoshlарimiz esa o‘zлari ta’kidlaganidek, “zamonaviylik” niqobi ostida hattoki milliy, umuminsoniy qadriyatlarmizga eskilik sarqiti sifatida qarashmoqda. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham oilalarda axloq me’yorlari shakllanishiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan omillar sifatida oila, mahalla, ta’lim muassasalari, ijtimoiy muhit hamda televideniyaning ustuvor ta’siri haqidagi qarash yurtdoshlarimiz tafakkurida barqaror bo‘lib qolayotgani o‘z ifodasini topdi. Demak, tashqi muhit yoshlарimiz tarbiyasidagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Televideniya orqali berilayotgan kinolar va seriallar ham yoshlar ongiga ta’sir etmasdan qolmayapti. Bunda ko‘philik yoshlar real hayotdan uzoqlashib, ular ta’siriga tushib qolmoqdalar va turmush qurishganlaridan so‘ng ajrimlar soni ortmoqda. Ular esa jamiyat ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ham hozirda farzandlar tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Zero, har bir farzand kelajakda jamiyatimizda kerakli mutaxassis bo‘lib yetishiga, ularning har tomonlama ham ma’nan, ham jismonan kamol topishiga bor diqqat-e’tibor qaratilmoqdi. Umuman olganda, barchamizning nafaqat asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz ham barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar, avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug‘ kelajagini ta’minlash maqsadida amalga oshirilmоqda. Zero, oila sog‘lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Bolalar tarbiyasiga nafaqat oila, ta’lim-tarbiya muassasalari balki mahalla ham ma’suldir. Chunki, farzand tarbiyasi ko‘p omillarga, avvalo, axloqiy-ma’naviy muhitga ham bog‘liq. Ta’lim-tarbiya muassasalari bilan oila hamkorligi bunda muhim ahamiyatga ega. Ona yurtiga muhabbatni shakllantirish, ma’rifatli va ma’naviyatli shaxs sifatida voyaga yetishlarini ta’minlash, bolalarning ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom bo‘lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma’naviy immunitetli, o‘zining fikrlarini ravon aytaladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb

⁶⁹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017 йил, – Б. 14.

etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o‘zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, iymone-tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o‘z ota-bobolariga, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’nalariga sodiq bo‘lib kamol topishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент, 2010. – Б. 15.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, 2008. – Б. 58.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017 йил. – Б. 14.

* * *

Tashpulatova Dilorom Mukimovna,
TVCHDPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasasi o‘qituvchisi

Baxtiyorova Sevara Elyor qizi,
TVCHDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI TASHKIL ETISH VA TA’MINLASHGA TAYYORLASH

Annotatsiya. Maqolada kelajakda o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga o‘rgatish muammolari muhokama qilinadi. Mavzu respublika va xorijda ishlab chiqilganligi tahlil qilinadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining innovatsion malakasi (innovatsion tayyorligi) mazmunini ko‘rib chiqishga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy tarbiya, ma’naviy tiklanish, kelajakda o‘qituvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga tayyorlash modeli, innovatsion yetuklik, innovatsion yetuklikning tarkibiy qismlari.

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы обучения будущих учителей в духовно-нравственном воспитании школьников. Анализируются разработки тем в республике и за рубежом. Особое внимание уделяется вопросу рассмотрения содержания инновационной квалификации (инновационной готовности) выпускников высших педагогических учебных заведений.

Ключевые слова: духовно-нравственное воспитание, духовное возрождение, модель подготовки педагогов к духовно-нравственному воспитанию в будущем, инновационная зрелость, компоненты инновационной зрелости.

Annotation. The article discusses the problems of educating future teachers on the moral and moral education of schoolchildren. The subject is analyzed by the fact that it is developed in the Republic and abroad. Particular attention is paid to the review of the content of innovative qualification (innovative readiness) of graduates of pedagogical universities.

Key words: spiritual-moral upbringing, spiritual recovery, model of training future teachers for spiritual-moral upbringing, innovative maturity, components of innovative.

Mustaqil O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishi, mamlakatimizning keng tashqi siyosiya va tashqi iqtisodiy faoliyati o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari va salohiyatini tiklashga

qo’shimcha turtki bo’ldi. Bugun biz mamlakatimizning ma’naviy tiklanishida guvoh va ishtirokchilarmiz. O’zbekistonda ro’y berayotgan o’zgarishlar nafaqat ijtimoiy-madaniy hayotning turli jihatlariga, balki odamlarning, ayniqsa, yosh avlodning ongiga ham ta’sir qiladi.

Mazkur shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, ma’naviy sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash ustuvor, davlat ahamiyatiga, vazifasiga aylanmoqda. Kelajakda o’qituvchilarni ta’lim ishlariga tayyorlash mazmunini tahsil qilib, bugungi kunda ma’naviy-axloqiy tarbiya va zamonaviy pedagogik oliv o‘quv yurtlarining bunday mutaxassislarni tayyorlashga tayyor emasligi, talabalarning (bo’lajak pedagoglarning) qiziqishi o’rtasida kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishga qodir bo‘lgan pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj o’rtasida ziddiyat yuzaga kelgan, degan xulosaga keldik. Ularning ma’naviy va axloqiy o’sishida va bu jarayonni amalga oshirishga qodir emasligi. Bundan tashqari, pedagogik ta’limning milliy metodikasida bo’lajak pedagoglarning o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga tayyorligi mezonlari va darajalarini aniqlash, bo’lajak mutaxassislarni tarbiyaviy ishlarni olib borishga tayyorlash modelini yaratish va shaxsning kasbiy shakllanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa qator masalalar hal etilmay qolmoqda.

Bugungi kun adabiyotlarida (O.Musurmanova, M.Kuronov, A.Erkayev, B.Ziyomuhamedov va boshqalar) kelajakda o’qituvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga tayyorgarlikning mohiyati haqida yagona, tizimli tushuncha mavjud emas, bu faoliyat uchun zarur bo‘lgan sifatlarni aks ettirish, ularning ma’naviy-axloqiy sohasini tushunish, o’z-o’zini takomillashtirish, o’qituvchining mas’uliyatini anglash, o’quvchining psixologik xususiyatlarini bilish kabi holatlarda namoyon bo‘ladi. Davlat ta’lim standartida ma’naviy-axloqiy tarbiya sohasidagi mutaxassisning pedagogik vakolatiga doir qoidalar ham yetarli darajada shakllantirilmagan.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya uchun tayyorgarlikning xorijiy modellari (mualliflar: E.A.Lixanov, A.A.Melik, Pashayev, T.M.Gorbacheva, T.A.Florenskaya) kamchiliklardan xoli emas, xususan, kelajakda o’qituvchilarda ta’lim ishiga tayyorgarlik ko‘rishning ko‘plab rus konsepsiylarida muqaddas (pravoslav) pedagogik merosni professional o’qitish amaliyotida qo’llashga yetarlicha e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan modellardan biri – tegishli metodik takomillashtirish bilan mahalliy o’xhashlikni ishlab chiqishda asos sifatida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan “T” modeli haqida gapiramiz.

Ushbu modelga ko‘ra, o’qituvchining o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga psixologik va pedagogik tayyorgarligi sifat va malakalarning rivojlanish darajasini ifodalovchi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tayyorgarlik to’plamidir:

- shaxsning qiymat yo‘nalishlari va ma’nolarining tegishli darajasi sifatida qiymat-semantic tayyorlik;
- shaxsning zarur ehtiyojlari, intilishlari va niyatlarini shakllantirish uchun motivatsion tayyorgarlik;
- pedagogik muloqotning zarur fazilatlari va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun kommunikativ tayyorlik;
- o’z-o’zini anglash, o’z-o’zini hurmat qilish va o’qituvchining Holistik I-konsepsiyasini rivojlanirishning zarur darajasi sifatida refleksiv tayyorgarlik;
- kasbiy bilim, dunyoqarash, axloqiy tushunchalar tizimi sifatida bilimga tayyor bo‘lish;
- ma’naviy-axloqiy tayyorgarlik uning ma’naviyatini va ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlarini tavsiflovchi o’qituvchi-murabbiy shaxsiyatining ajralmas xususiyati sifatida.

Psixologik va pedagogik tayyorgarlikning tasvirlangan modeli kelajakdagi o’qituvchining professional pedagogik va maxsus psixologik tayyorgarligi natijasidir. Bizning fikrimizcha, T.M.Gorbachevaning modeli jamiyatning zamonaviy pedagogik haqiqatlari va talablariga to‘liq mos kelmaydi va, shu asosda, qo’shimcha elementni – innovatsion tayyorgarlikni (innovatsion vakolatni) tavsiya etamiz. Ma’naviy-axloqiy tarbiya, shuningdek, tarbiyaviy ishlarning boshqa yo‘nalishlari “shabloniga ko‘ra”, ishni bir marta va, umuman, tasdiqlangan metodik tavsiyalar bilan o’z ichiga olmaydi, aksincha, o’quvchilarning ehtiyojlariga, ularning yaqin rivojlanish zonasiga mos kelishi, shaxsni shakllantirishning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olishi va natijada doimo rivojlanib, takomillashib, zamonaviy pedagogik tajribaning eng yaxshisini o‘ziga singdirishi kerak. Bunday yondashuv shuni anglatadiki, respublika oliv mакtabida bilim olish yondashuvidan ta’lim natijalariga amaliy yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tish kerak. Shunday qilib, an’anaviy bilimlar, ko‘nikmalar, ko‘rniga vakolatlar birinchı o‘rinda turadi.

“Innovatsion yetuklik” tushunchasi bugungi kunda O’zbekistonda ilmiy qo’llanishda keng tarqalmagan. Xorijiy tadqiqotlarda bu ta’rif, asosan, menejmentga nisbatan qo’llaniladi. Ushbu konsepsiyanı talqin qilishning pedagogik sohasiga yanada yaqinroq bo‘lgan E.S.Simbirsk, Y.B.Suvorov: “innovatsion qobiliyat”

– mutaxassis [3] tomonidan innovatsiyalarni tez va samarali rivojlantirishga yordam beradigan qobiliyatlar, fazilatlar va ko‘nikmalar majmuyi. Zamonaviy ta’lim fanida innovatsion malakaning tarkibiy qismlari allaqachon aniq belgilangan. Birgalikda ushbu komponentlar har bir o‘qituvchi uchun, samarali innovatsion pedagogik faoliyat uchun, ayniqsa, ta’lim ishlarida zarur bo‘lgan shaxsning muhim fazilatlari va aqliy xususiyatlarini tashkil etadi.

Innovatsion mahorat qanday shakllantirilishi kerak? Ushbu masalaning echimi aniq emas va har bir olyi ta’lim muassasasi sharoitida innovatsion vakolatni shakllantirishning o‘z yo‘llari topiladi.

Shu bilan birga, ushbu muammoning universal echimi ta’lim texnologiyalaridan foydalanishdir. Belgilangan maqsadlarga erishishda faol va interaktiv ta’lim shakllari va usullari muhim rol o‘ynaydi. Faol o‘qitishda talaba passiv o‘rganishdan ko‘ra, o‘qituvchi bilan muloqotga kirishadi, ijodiy, qidiruv, muammoli vazifalarni bajarib, bilim jarayonida faol ishtirok etadi. Innovatsion vakolatni shakllantirish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shoniyozi K.Sh. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: “Sharq”, 2001.
2. Зимняя И.А. Компетентностный подход. Каково его место в системе современных подходов к проблемам образования? (Теоретико-методологический аспект) // Высшее образование сегодня. 2006. – № 8. – С. 20-26
3. Kuronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
4. Gorbachev, T. M. O‘qituvchining ma’naviy murabbiy sifatida professional faoliyatining tarkibi [matn]/ T. M.Gorbachev // Fan va gumanitar ta’limning dolzarb muammolari: universitetlararo ilmiy ishlar to‘plami. 2004. – B. 65-75.

* * *

Narimbetova Zaxiya Axmedovna,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Sitina Natalya Vladimirovna,
Baxrombekova Laylo Farkod qizi,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari

TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING OQILONA MAQSAD MEZONLARI

Annotatsiya. Maqolada pedagogik jarayon o‘zining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qat’i nazar, u, eng avvalo, maqsadni aniqlashdan boshlanishi kerakligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, murakkablik, davomiylik, maqsadni aniqlash.

Аннотация. В статье подчеркивается, что независимо от сложности и продолжительности педагогического процесса, начинать его следует с определения цели.

Ключевые слова: педагогика, сложность, продолжительность, постановка цели.

Annotation. The article emphasizes that regardless of the complexity and duration of the pedagogical process, it should begin with the definition of the goal.

Key words: pedagogy, complexity, duration, goal setting.

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash, o‘qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta’lim usullarini har bir darsning didaktik vazifalaridan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shakllarini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan

boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasini ko’tarishga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib ularning ta’lim jarayonida faolligini muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni ommaviy mashqlarini mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirot etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirot etadi. Interfaol usullarni qo’llash bo‘yicha umumiy metodik tavsiyalar:

Birinchi qoida: ishslash uchun joyni tayyorlashga jiddiy qarash kerak. Bu avvaliga bekorchi ko‘ringandek oddiy masala emas. Sinfxonasi yoki auditoriyani shunday tayyorlash kerakki, bunda ishtirotokchilar kichik yoki katta guruhlarda ishslash uchun o’tirishga oson bo‘lishi kerak. Ya’ni ta’lim oluvchilarga jismonan qulay sharoit yaratilishi kerak. Mashg‘ulotda kimdir guruhgaga teskari o’tirib qolib, boshqalarga boshini yonboshga burib o’tirishi noqulay. Shuning uchun stolni shunday qo‘yish kerakki, ular o‘ziga kerak vaziyatda kichik guruh bilan oson munosabatda bo‘lishi kerak. Ijodiy ish uchun materiallar oldindan tayyorlangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchchi qoida: jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo‘lish lozim. Bu haqida boshidan kelishib olish kerak va uni buzmaslik lozim. Masalan, hamma tinglovchilar har bir nuqtayi nazarga sabrli bo‘lib, so‘z erkinligini, uning qadrini hurmat qilishlari kerak.

Uchinchi qoida: o‘quvchilarning guruhlarga bo‘linishiga jiddiy e’tibor bering. Avvaliga u o‘z xohishiga ko‘ra bo‘linishi kerak. Keyin tasodifan tanlash tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchchi qoida: o‘quvchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo‘lishi kerak.

Beshinchchi qoida: o‘quvchilarning ruhan tayyorgarligiga ko‘maklashish lozim. Gap shundaki, mashg‘ulotga kelganlarning hammasi ham u yoki bu ish shakliga bevosita kirishishga ruhan tayyor emaslar, bunga ma’lum darajada xulqning an’anaviyligi ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim, oluvchilarning ishda faol ishtirokleri uchun doimiy rag‘batlantirishlar, ta’lim oluvchining o‘zini namoyon etish uchun imkoniyat yaratish foydali bo‘ladi.

Oltinchi qoida: interfaol usullar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazilganda guruhda ta’lim oluvchilar soni ko‘p bo‘lmasligi kerak. Ishtirotokchilar soni va o‘qitish sifati bir-biriga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi. Odatda agarda ishda ishtirotokchilar soni 30 kishidan oshmasagina, ish samarali bo‘ladi. Faqat shu shart bajarilganda, eng maqbul tarkibi 4-6 kishidan iborat. Kichik guruhlarda samarali ish olib borish mumkin. Interfaol o‘qitish ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘zda tutadi va shuning uchun u auditoriya bilan o‘zaro munosabat o‘rnatishni bilishi kerak.

Oqilona maqsad mezonlari:

- aniqlik;
- hisoblash imkoniyati;
- erishish;
- bajarish ehtimoli;
- vaqtda chegaralanganlik;

Ta’limning har bir alohida qismi yakunida ishtirotokchilarni aynan nimaga o‘qitishni xohlashingizni aniqlab oling. Hatto ta’lim maqsadlari berilgan darslik asosida ishlayotgan bo‘lsangiz ham aniq rejalariningizni yana bir bor o‘ylab ko‘rish va ishtirotokchilar ta’limini turli qismlar bilan qanchalik bog‘liq ekanligini ko‘rib chiqish kerak.

Mavjud ta’lim maqsadlari ta’riflariga ijodiy yondashing. Ba’zan ta’riflar kitobxon yoki ishtirotchi uchun tushunarsiz tilda tuzilgan bo‘ladi va asosan ta’lim jarayoni bilan emas fanni o‘qitish bilan bog‘liq bo‘ladi. Maqsadlar ishtirotokchilar uchun yanada tushunarli bo‘lishi kerak. Buning uchun siz ta’riflar shaklini o‘zgartirishingizga to‘g‘ri keladi. Ta’lim maqsadlari dasturingizni “yo‘l davomida bosqichlar” vazifasini bajarishi kerak. Dastur, ehtiyoj va intilishlarga javob berish, bermasligini aniqlash uchun ishtirotokchilar maqsadlarga o‘z e’tiborlarini qaratadilar.

“Nima uchun” degan savolga javob berishga tayyor bo‘ling. Har bir maqsadni nima uchun dasturga kiritilganligini izohlashga tayyor bo‘ling. “Xo‘sish, nima bo‘pti?” kabi javobga ham tayyor bo‘ling. Ishtirotokchilar, hamkasblar yoki tashqi kuzatuvchilar biror-bir maqsad mazmunini hech kim tushunmayotgan

bo‘lsa, barcha ushbu maqsadga erishishga etarli darajada jiddiylik bilan yondashish uchun siz qo‘srimcha ravishda tushuntirishingizga to‘g‘ri keladi.

“Buni menga qanday foydasi bor” degan savolga o‘z javobingizni o‘ylab qo‘ying. O‘quvchilar u yoki bu ko‘nikma va qobiliyatga ega bo‘lishdan o‘zi uchun qisqa va uzoq muddatli foydani ko‘ra bilsa, ular ushbu maqsadga erishishga ko‘proq intiladilar. Bajara olmaydigan ishlarni va’da qilmang. “Tushunish va bilish” so‘zlarini ishlatmang. Ular uni tushunganligini qanday bilamiz? Ular uni tushunayotganliklarini qanday namoyon qilishlari mumkin? Ushbu savollarning so‘nggisiga javob, ta’lim maqsadlarini yanada samarali ifodalash usullarini belgilash masalasiga aniqlik kiritadi.

Baholash mezonlarini oldindan o‘ylab qo‘ying. Qanday qilib o‘lhash mumkinligini tushunish oson bo‘lsa, maqsadlarni ta’riflashni boshlappingiz mumkin. Maqsad – ta’riflarini oldindan tekshirish. Siz maqsadlarni etarli darajada ravshan qilib tushuntirganingizga ishonch hosil qilish uchun, guruh ishtirokchilariga quyidagi savolni bering: “bu erda nima haqida gap ketmoqda?”, shuningdek, “maqsadlarining ta’rifini hamkasblaringizda sinab ko‘ring”. O‘zingiz ta’limning yakuniy maqsadini aniq tasavvur qilmasangiz biror narsani o‘rgatishga urinmang. Baholash mumkin bo‘lmagan maqsadlarni belgilamang. Biror-bir ta’lim maqsadini belgilashga etarli asos mavjud bo‘lsa, demak unga erishish ehtimoli va baholashning biror-bir usuli, albatta, mavjud bo‘lishi kerak.

Xulosa shuki, yuqoridagilardan o‘quv maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarning eng muhimi, yetakchisi ekanligi ko‘rinib turibdi. Pedagogik jarayon o‘zining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qat’i nazar, u, eng avvalo, maqsadni aniqlashdan boshlanadi.

* * *

Gimazutdinov Radik Galimovich,
TVChDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi

Muxitdinov Ilyos Elyor o‘g‘li,
*TVChDPI “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda
jismoniy tarbiya va sport” talabasi*

SPORT – YOSHLAR VA MILLAT RUHIYATIDA

Annotatsiya. *Maqolada yoshlarning bo‘sh vaqtlarini zararli mashg‘ulotlar bilan o‘tkazishidan himoya qilish, shuningdek, ularni sportga jalb qilish g‘alabaga eltuvchi yo‘l ekanligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *sport, kelajak avlod, g‘alaba.*

Аннотация. В статье утверждается, что защита подростающего поколения от вредных занятий и залог успеха – привлечение их занятию спорта.

Ключевые слова: спорт, будущее поколение, победа.

Annotation. The article argues that protecting the younger generation from harmful activities and attracting them to sports is the key to success.

Key words: sport, future generation, victory.

Bolalar sporti yurtboshimizning otalarcha g‘amxo‘rligi ostida quloch yoymoqda. Chunki O‘zbekiston o‘zining baxtini farzandlari salomatligida ko‘radi. Mustaqil vatanimizning birinchi ordeni “Sog‘lom avlod uchun”, deb atalishi, “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro jamg‘armasining tuzilishi, qolaversa, 2000-yilning mamlakatimizda “Sog‘lom avlod yili”, deb e’lon qilingani buning yaqqol tasdig‘idir.

“Sog‘lom avlod deganda nimani tasavvur qilish kerak”, – degan savolni o‘rtaga tashlar ekan, davlat rahbari bu savolga javobni shunday ifodalagandi: “Sog‘lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo, sog‘lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga, ruhi, fikri sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimli,

ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman. Buyuk davlatni faqat sog‘lom millat, sog‘lom avlodgina qura oladi”. O‘ylab qaralsa, buning qat-qat hikmati ochilaveradi:

Birinchidan, sport bilan shug‘ullangan yigit-qizlar hisobiga millatimizda rostgo‘y, halol, g‘irromlikka qarshi turuvchi, dushmanqa qiron keltiruvchi yigit-qizlar ko‘payaveradi.

Ikkinchidan, bolalar va fuqarolarning bo‘sh vaqtbekor vaqtadan unumli vaqtga aylanadi.

Uchinchidan, sport bilan shug‘ullanish yoshlarimizning ko‘zi, qulog‘i orqali miyaga o‘rmalab kirmoqchi bo‘lib gir aylanayotgan informatsion xurujlarga vaqt qoldirmaydi. Demak, sport, ayniqsa, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini zararli vaqtga aylanishidan himoya qiladi. Bu g‘alaba sport bo‘yicha olib borilayotgan siyosatimizning navbatdagi tantanasi bo‘ldi.

Sport yigit-qizlarni baxtli bo‘lishga o‘rgatadi (demak, baxtli qiladi). Qanday qilib? U odamga o‘zi sevgan sohasida muttasil mashq qilib, chiniqib, qiynalib, aniq maqsadga erishishni o‘rgatadi. Chunki qiyalmagan odam baxtni his qila olmaydi. Chunki baxt – qozonilgan g‘alabadan keyin yuradi. Demak, baxtning formulasini maqsad-mashq-chiniqish-g‘alaba-baxt deb tuzsak bo‘ladi. Bu formulani fan, qishloq xo‘jaligi, biznes, kompyuter texnologiyalari, jurnalistika – istagan sohaga qo‘llash mumkin. Oddiy bir misol sport haqida gap chiqib, mas’ul lavozimda ishlayotgan bir yurtdoshimiz shunday dedi:

“Sportda gap ko‘p. 6-sinfgacha juda yomon o‘qiydigan, bebosha bola bo‘lganman. 6-sinfdan boshlab erkin kurash seksiyasiga qatnasha boshladim. Trenerimiz juda qattiqko‘ledi. Mashg‘ulotni boshlashdan oldin har birimizning kundaligimizni tekshirardi. Bir-ikki marta “2”, “3” baho olib kelgan edim, mashg‘ulotdan chiqarib yubordi. Menga esa kurash juda yoqar edi. Shu-shu bo‘ldi-yu, 7-sinfdan boshlab “4” va “5”ga o‘qiy boshladim. Sport meni mas’uliyatga o‘rgatdi. Maktabni a’lo baholar bilan bitirib, shu yili institutga kirib, uni qizil diplom bilan bitirdim. Ha, sport bilan shug‘ullanish odamni o‘z kuchini to‘g‘ri baholashga, to‘g‘ri ishlatishga o‘rgatsa, sportni tomosha qilish odamni xudbinlikdan davolaydi. Odam boshqa bir odam uchun muxlislik qila boshlaydi. Uni “biz”, “biznikilar”, deb o‘ylashga, jamoada fikrlashga o‘rgatadi. Men shaxsan buning guvohi bo‘lganman.

Bir sohada matonat ko‘rsatgan kishi uni hamma sohada qo‘llaydi. Matonatli odamlari qancha ko‘p bo‘lsa, ularni ko‘rayotgan millatda ham matonatga moyillik (o‘zi bilmagan holda) orta boradi. Chunki sport o‘z muxlislariga g‘alaba ruhini, g‘alaba uchun kurash ruhini yuqtiradi. Demak, sport bu – faqat muskulning emas, balki g‘oya, fikrning massaji hamdir.

Sportchi tanishlaringiz bor. Ularning xarakterlarini bir umumlashtirib ko‘ring-a. Ular optimist. Xarakteri, gapi, so‘zi tanti. Qiyinchiliklarga munosabati boshqacha, g‘oliblarnikiday, fikrlari olg‘a ko‘tarilgan qadamdek shaxdam. Ular muammolardan nolishmaydi, aksincha, ularni hal qiladilar. Chunki shunga qodir ruh, qudrat, irodani ular sportdan olishgan. Biroz qaysarlik qilsalar, ranjimang. Bu ulardagi mustaqil fikr, qarashning ochiq, sodda, halol ifodasi. Sportchilar “Ha” dedimi, shu ishni oxiriga etkazadi. “Yo‘q” dedimi, shu ishni qilmaydi. Sportchiga kurashda hech kim yordam bermaydi. U o‘z haqqi, solimini o‘z qo‘llari bilan kuchanib, tortishib oladi. O‘z baxtini o‘zi yaratadi.

Dunyoning ko‘zi, qulog‘i “O‘zbek”, “kurash” degan so‘zlarga o‘rgandi. Albatta, biz sport bilan boshqalarni tan oldirish uchun emas, avvalo, o‘zimiz uchun, o‘zimizni kuchli, irodali, sog‘lom qilish uchun shug‘ullanamiz. Asta-sekin o‘zbek sporti ham kengaya boradi. O‘zbek azaldan bolalarini adolatli, jasur, epchil, chaqqon qilib kamol toptirish, mardlik ruhida tarbiyalashda o‘yinlardan, milliy sport turlaridan foydalanib kelgan. To‘p o‘yin, chillak, qulogcho‘zma, tupalak, varrak uchirish va hokazolar shular jumlasidandir.

Yevropa texnokratlashgan hayotdan zerika boshladidi. Uning Sharqdagi insoniy turmush tarziga, san‘at, musiqa, falsafasi, an‘analariga qiziqishi orta bormoqda. Darvoqe, jahon o‘zbek kurashini nega sevib qoldi? Chunki kurash boshqa kurash turlaridan insoniy tushunchalarga qurilganligi bilan inson zotiga issiqroq, yaqinroq turadi. O‘zbek kurashida ikki inson, ikki polvon bellashadi. Boshqa yakka kurashlarda harakatlar uchun ochko berilsa, kurashda ular “mardlik”, “halol”, “chala”, deb baholanadi. Birida baholar raqamlar bilan berilsa, kurashda ma’naviy-axloqiy tushunchalar bilan baholanadi: halol, chala va hokazo. Agar biz o‘zimizga o‘zimiz sodiq bo‘lib mahkam tursak, ko‘p o‘tmay Yevropa O‘zbekning insonparvar sport an‘analarini o‘rganishga ruju qo‘yadi.

Yapon do‘stlarimiz ham o‘z farzandlarining kiberludomaniyaga berilib, harakatsizlikdan sog‘liklarini yo‘qotayotganligini ko‘rib, chora qidira boshladilar. Yosh yaponlar sog‘ligini saqlab qolish davosini qidirib-

qidirib... O‘zbekistondan, Jizzaxdan, Forishdan topdilar. Qishloqdagi bolalarimiz “zamonaviy emas”, deb o‘ynamay qo‘ygan harakatlari o‘yinlarni o‘rganib, to‘plib olib ketib, o‘zlarining superzamonaviy bolalariga o‘rgatmoqdalar. Chunki bolalarni sport bilan shug‘ullanishga majbur qilib bo‘lmaydi. Zamonaviy sport o‘yinlarida insoniy ruh, joziba, zavq kamligi uchun bolalar qiziqmayotgan emish. Bularning barisi – insoniy ruh, joziba, zavq o‘zbek milliy sport o‘yinlarida mujassam emish. Bu – Yaponiyalik pedagoglarning fikri.

* * *

**Narimbayeva Lola Kuzebayevna,
Maxmudova Oqila Anvarjon qizi,
MBJT 20/2 talabasi**

BOG‘CHA YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha tarbiyaning to‘g‘ri tashkil qilinishi va olib borilishi inson hayotining keyingi bosqichlarida tutgan o‘rni va ahamiyati haqidagi fikrlar bilidirilgan.*

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, bola, sensor, aqliy, irodaviy jihatlar.

Аннотация. В статье рассматривается роль, значение и влияние правильной организации и проведения дошкольного образования на дальнейших этапах жизни человека.

Ключевые слова: дошкольное образование, ребенок, сенсорные, психические и волевые аспекты.

Annotation. The article examines the role, significance and influence of the correct organization and conduct of preschool education at the further stages of human life.

Key words: preschool education, child, sensory, mental and volitional aspects.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagagi 528-son qaroriga asosan, Davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risida Nizom qabul qilindi. Nizomda maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatini maqsad va vazifalari, moddiy-texnik ta’minoti aniq belgilab berilgan va ko‘rsatilgan. Mazkur Nizomning ahamiyatli tomoni shundaki, maktabgacha tarbiyaning to‘g‘ri tashkil qilinishi va olib borilishi inson hayotining keyingi bosqichlari uchun nihoyatda ahamiyatli va dolzarbdir.

Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishni amalga oshirish uchun tarbiyachilarining malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ldi. Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli farmoni, 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarori va yuqoridagi farmonlar asosida maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarini malakasini oshirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi.

Maktabgacha tarbiya muassasasida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir xodim, tarbiyachi, eng avvalo, yosh davrlari va bolalar psixologiyasini yaxshi bilishi lozim. Rivojlanish psixologiyasi, bolalar psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi kabi fanlarning asosiy tushuncha va tamoyillarini to‘g‘ri tushunib olish, bu tushunchalarni to‘g‘ri idrok etish bolalar bilan ishlashda ularning psixik rivojlanish qonuniyatlarini to‘g‘ri, to‘liq, tizimli tushunishga imkon beradi.

Rivojlanish – hozirgi holatdan yangi bosqichga o‘tish, oddiydan murakkabiga, quyidan yuqoriga o‘tish.

“Psixikani rivojlanishi” – psixik jarayonlarning miqdor, sifat va tuzilishi bo‘yicha qayta o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladigan vaqt bo‘yicha qonuniy o‘zgarishidir⁷⁰.

Rivojlanish va psixikani rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik va umumiy qonuniyatlar har bir yosh bosqichining o‘ziga xos miqdor va sifat o‘zgarishlarini, shuningdek, krizislarini ham ifodalaydi.

⁷⁰ Нишонова З.Т. “Ривожланиш психологияси”. – Тошкент: Шарқ, 2010. – В.3.

Shaxsning har bir yosh bosqichiga xos bo‘lgan sensor, aqliy, irodaviy tomonlari bo‘ladi; ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ham o‘zgaradi, bunday o‘zgarish umumiyligi rivojlanishga, xulqni boshqarishga ta’sir ko‘rsatadi. Har bir yoshda ham, insonning rivojlanishida, ayniqsa, bolalikda ta’lim va tarbiya tizimi, shaxsning faolligi hal etuvchi rol o‘ynaydi⁷¹.

Inson qancha yil umr ko‘rib yashashidan qat’i nazar uning psixologik shakllanishiga maktabgacha yosh davri stimul vazifasini bajaradi. Aynan rivojlanishning mazkur bosqichida ota-onva tarbiyachilar tomonidan ko‘rsatilgan psixologik va tarbiyaviy ta’sir keyinchalik insondagi xarakter xususiyatlarining rivojlanishiga, axloqiy sifatlarni tarkib topishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Psixologik ta’sir bolaning xarakteri va xulqiga ta’sir ko‘rsatish bo‘lsa, tarbiyaviy ta’sir orqali bolalarning bilish jarayonlari, qobiliyat va iste’dodini, dunyoqarashlarini o‘stirishga harakat qiladilar. Bog‘cha yoshidagi bolalarning yana bir muhim xususiyatlari shundaki, juda qiziquvchan bo‘lishadi, qiziqqan narsasini chuqurroq bilishga tirishadi, qiziqarli mashg‘uloti bilan shug‘ullanishdan zerikmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, bolaning diqqati, idroki, irodasi kabi muhim psixik jarayonlarning rivojlanishiga hamda mustahkamlanishiga yordam beradi.

Bola predmetlar bilan muloqotga kirishar ekan, dunyoni anglay boshlaydi va bu o‘z-o‘zidan bilish jarayonlarini jadal rivojlanishiga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu davrda bolada tafakkur va nutqning ham jadal rivojlanishi kuzatiladi. Bilish jarayonlari ham differensiyalashgan (farqlangan, ajratilgan) bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarga xos bo‘lgan “nimaga?”, “qachon?”, “nima uchun?”, “qayerda?” kabi savollar ularning atrofdagi predmetlar va dinamikadagi hodisalarini kuzatayotganlarini va shu orqali fikr bildirayotganini bildiradi. Aynan mazkur davrdagi bolalarning etakchi faoliyati syujetli-rolli o‘yinlar bo‘lgani uchun ham ularning o‘yin faoliyatida kattalarga taqlid, ota-onva oila a’zolarining rollarini o‘yin faoliyatida namoyon qilish hollari uchraydi. Bolaning shaxs sifatida shakllanayotganini uning xatti-harakatlari va fe’l-atvori bildirib turadi.

Aynan tarbiyachilarining tarbiyasi va oila muhitini ta’sirida bola o‘z xohish va istaklarini ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltiradi, o‘zining va o‘rtoqlarining xulq-atvorini baholashga harakat qiladi. Bunda kattalarning kitob, ertak, hikoyalar o‘qib eshittirishi, bolalarga ham sodda hikoyalar tuzishlari uchun topshiriqlar berishi, sayrlarni to‘g‘ri tashkil qilishi, rasm chizishga, boshlang‘ich o‘quv faoliyatiga jalb qilishi alohida ahamiyatga egadir. Chunki aynan faoliyatni to‘g‘ri bajarishga yo‘naltirish orqali bola shaxsida, dunyoqarashida, bilish jarayonlarida o‘ziga xos taraqqiyot, ijtimoiy normalarni qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar psixologik xususiyatlarining rivojlanishida oila va bog‘cha muhitidagi to‘g‘ri tashkil qilingan ta’lim-tarbiya jarayoni, tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlari alohida ahamiyatga egadir. Bu davrda bolalar turli tushunchalarni anglashni boshlaydilar. O‘yin faoliyatida, bog‘chadagi turli tarbiyaviy mashg‘ulotlarda irodaviy sifatlar bola xulqida namoyon bo‘la boshlaydi. Bolada onglilikning, dunyoqarashning o‘sishi orqali o‘ziga qo‘yilgan talablarning mohiyatini tushuna boshlaydilar. Kattalarning xatti-harakatlarni kuzatish orqali turli vaziyatlarni solishtirish va sodda xulosalar chiqarish ko‘nikmasiga ega bo‘la boshlaydilar. Aynan bog‘cha yoshi davri insondagi mavjud umumiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar davridir.

Tarbiyachilar tomonidan to‘g‘ri tashkil qilingan shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar bola psixikasiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatib, ularda mashg‘ulotlarga qiziqishni yanada oshiradi. Bunda turli ko‘rgazmalardan, qo‘l-barmoqlarining nozik harakatlarini (motorikani) rivojlantiruvchi mashg‘ulotlardan, masalan: plastilindan buyumlar yasash, ortiqchasini topish, turli motorik harakatlari mashqlarni bajarish, taqlid usulini qo‘llash orqali (nutq va eshitish tizimini rivojlanishiga yordam beruvchi) bola ruhiyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatish mumkin. Har bir o‘z kasbini yaxshi ko‘rgan tarbiyachi, eng avvalo, bolalarni yaxshi ko‘rsagina, ular bilan tez til topishadi va, albatta, ularning ruhiy olamiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa har bir tarbiyachidan kasbiy kompetentlikni oshirishni, o‘z ustida mutazam ishlashni talab etadi. Ertangi kunimiz egasi bo‘lgan farzandlarimizning psixologik xususiyatlarini bilsak, ularga ta’limning boshlang‘ich bosqichi hisoblangan bog‘cha ta’limida to‘g‘ri ta’lim-tarbiya bersak, kelajakda ulardan buyuk insonlar etishib chiqishi uchun zamin yaratgan bo‘lamiz.

⁷¹ Юсупова П. “Мактабгача тарбия педагогикаси”. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – B.26.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Илм-фан ютуклари – тараққиётнинг муҳим омили”. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2016 йил 30 декабрь куни мамлакатимизнинг етакчи илм-фан номоёндалари билан учрашувдаги маъruzasi. // Халқ сўзи. 2016 йил 31 декабрь.
2. Нишонова З.Т. “Ривожланиш психологияси”. – Тошкент: Шарқ, 2010. – В.438.
3. Нуркелдиева Да.А., Чичерина Я.Е. “Илк мактабгача ва кичик мактаб ёшидаги болаларни психологик, педагогик ва логопедик текшириш”. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – В.103.
4. Юсупова П. “Мактабгача тарбия педагогикаси”. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – В.264.

* * *

Muxitdinova Dildora Alisher qizi,

*“London School of Business and Finance” magistranti,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi*

**YOSHLARNI IJTIMOIY HAYOTGA IZCHIL TAYYORLASHDA
MAHALLA VA OILA HAMKORLIGI**

Annotatsiya. Maqolada yoshlarni ijtimoiy hayotga izchil tayyorlash jamiyatimizning muhim vazifalaridan biri ekani ta’kidlanadi, yoshlar hayotida mahalla va oilaning tutgan o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Bugungi kun yoshlarning zamonga yarasha ilg‘or, tezkor, aqli, ilmli, intellektual jihatdan yetuk, vatanparvar, insonparvar bo‘lib voyaga etishishlarida mahalla va oila hamkorligi oldida turgan qator vazifalar yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston yoshlari, yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, mahalla va oila hamkorligi, ota-onas mas’uliyati, tarbiya, muammolar echimi, yangicha qarashlar, ilg‘or fikrli yoshlar.

Аннотация. В статье подчеркивается, что систематическая подготовка молодежи к социальной жизни является важной задачей общества, обращается внимание на место и значение махалли и семьи в жизни молодежи. Раскрывается сущность задач, стоящих перед махаллей и семьей по воспитанию современной молодежи активной, быстрой, умной, знающей, совершенной в интеллектуальном отношении, патриотами, гуманными людьми.

Ключевые слова: молодежь Узбекистана, подготовка молодежи к социальной жизни, сотрудничество махалли и семьи, ответственность родителей, воспитание, решения проблем, новые точки зрения, креативно мыслящая молодежь.

Annotation. The article emphasizes that the systematic preparation of young people for social life is an important task of society; attention is drawn to the place and significance of the mahalla and the family in the life of young people. The essence of the tasks facing makhallas and families in educating modern youth as active, fast, smart, knowledgeable, intellectually perfect, patriots, humane people is revealed.

Key words: youth of Uzbekistan, preparation of youth for social life, cooperation of makhalla and family, parental responsibility, upbringing, problem solving, new points of view, creative thinking youth.

O‘sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy hayotga izchil tayyorlash doim dolzarb masala bo‘lib kelgan. Yoshlar masalasi, yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning tarbiyasi, bilim olishi, shaxs sifatida shakllanishida faqat davlatimiz, balki dunyo hamjamiyatining asosiy e’tibori qaratiladigan mavzusidir. Yoshlar tarbiyasi barcha davrlarda muhim masala bo‘lgan. Aynan shu jihatdan yoshlarni hayotga tayyorlash o‘zining ko‘p ming yillik tarixiga, tajribasiga ega. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha 15 yoshdan to 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 1,2 milliardni tashkil qiladi. Demak, dunyo aholisining 16 foizini yoshlar tashkil qiladi. Hisob bo‘yicha 2030-yilga borib bu raqam yana 7 foizga oshadi va dunyo yoshlarning soni 1,3 milliardga borib etadi. Bu

raqamlar shunchaki sonlar emas, balki juda katta kuchga ega. Yoshlarga komil shaxs bo‘lib yetishishlari uchun imkon yaratib berilgan taqdirda, ular dunyoni gullatishga qodir ulkan kuchga aylanadi.

Mamlakatimizning iqtisodiy o‘sishi, ijtimoiy tenglikka erishishi, tolerantligi, sog‘lom turmush tarzining keng targ‘ib etilishi – bularning bari yoshlar imkoniyatidan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston davlati butun dunyo hamjamiyatining bir bo‘lagi sifatida o‘z yurti farzandlarining komil inson bo‘lib etishishlariga katta e’tibor beradi. Bugun O‘zbekiston muhim rivojlanish bosqichini boshidan kechirmoqda. Yaqin yigirma yil ichida bugungi bolalar va o‘smir-yoshlar O‘zbekistonning asosiy rivojlantiruvchi kuchiga aylanadilar. Yoshlar O‘zbekistonni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yangi pog‘onaga olib chiquvchi avlod bo‘ladi.

Aynan ana shu nuqtayi nazardan mamlakatimiz Prezidentining 2019-yilning 8-oktabridagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yilning 18-yanvaridagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23-sonli qarori, 2021-yilni “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, deb e’lon qilinishi katta voqeа bo‘ldi. Bu qarorlar mamlakatimizning har bir fuqarosi oldiga, ayniqsa, yoshlar bilan ish olib boruvchi tashkilotlar – oliv va o‘rtा maxsus ta’lim muassasalari, mahalla va oila zimmasiga katta mas’uliyat yukladi. “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti oldiga qator vazifalarni qo‘ydi.

Davlatimiz rahbari “O‘zbekiston yoshlariga oid davlat siyosatining 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdaqlash to‘g‘risida”gi qaror haqida to‘xtalar ekan, yoshlarni ijtimoiy hayotga to‘g‘ri tayyorlashda ta’lim-tarbiya muassasalari, ota-onasi va mahallaning uzviy bog‘liqligi masalasiga alohida urg‘u beradi. Darhaqiqat, bu borada chuqr mulohaza yuritib, izchil dasturlar bo‘yicha ish olib borish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri, ta’lim-tarbiya jarayoni jamiyat boshqaruvining muhim bo‘g‘inidir. Bu borada uzil-kesil ishlab chiqilgan qolip mavjud emas. Ta’lim-tarbiya masalasi doimiy va tinimsiz izlanishni, rivojlantirilishni taqozo etadi. Bu sohada bog‘cha, maktab, oliv va o‘rtा maxsus ta’lim muassasalari, ta’lim-tarbiya dasturlari bo‘yicha shug‘ullanuvchi institutlar, mahalla, ota-onasi barobar va hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Bu borada yuqorida qayd etilgan har bir jamoa ham o‘z yo‘nalishida, ham boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Biroq yoshlar tarbiyasini amalga oshirishda ma’lum muammolar mavjudligi va yoshlarni hayotga to‘g‘ri tayyorlashda ularning sezilarli darajadi to‘siq bo‘lib kelishi ham bor gap. Jamiyat tashkilotlari yoshlar tarbiyasi bilan o‘z vaqtida o‘ziga xos ravishda shug‘ullanishlari darkor. Biroq buning o‘rniga mas’uliyatdan chetlashib, bu muhim masalani bir-biriga solsa, ya’ni bog‘cha maktabga, maktab mahallaga, mahalla ota-onaga ishonib qolsa, katta muammolar kelib chiqadi. Yuqorida qayd etilganidek, har bir tashkilot, muassasa, ota-onasi o‘z burchi va mas’uliyatini sidqidildan ado etgan taqdirda va hamkorlikda ish olib borgandagina bu muammolar echim topadi.

Shu o‘rinda yoshlar tarbiyasi borasidagi ba’zi muammolarga urg‘u berib o‘tishni o‘rinli deb topdik:

1. Tarbiyada ota-onaning roli muammosi. Ko‘p hollarda ota-onalar farzandlari oldidagi mas’uliyatlarini bog‘cha va maktabga yuklab qo‘yadilar. Ota-onalar ishi ko‘pligini, farzandiga vaqt ajrata olmayotganini bahona qiladilar. Ba’zi hollarda esa bolani qanday to‘g‘ri tarbiya qilishni bilmaydilar yoki o‘z bolalariga to‘g‘ri tarbiya berishga ruhan tayyor emasdirlar. Biroq barcha insoniy qadriyatlarni go‘dakka tug‘ilgan daqiqalaridan boshlaboq singdirilishi lozim. Bu jihatdan bolaga eng komil o‘rnak, albatta, ota-onadir.

2. Maktab esa turli yuklamalarga ko‘milib qolib, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishni istamaydi.

3. Bolaga ota-onaning to‘g‘ri tarbiyasi muhimligi asos bo‘lsa, tashqi dunyodan oladigan taassurotlar ta’siri ham juda muhim. Bugungi kunda bolalarning dunyoni internet, reklama, sotsial tarmoqlar orqali bilishi, o‘rganishi ularning hayotiga ijobiy yo salbiy ta’sir o‘tkazishini belgilab beradi. Aynan ana shu erda bolalar tarbiyasiga putur etkazuvchi noto‘g‘ri informatsiyalar uzatilishi katta muammodir. Yangilikning barchasi ham foydali bo‘lavermaydi, degan aqidaga muvofiq ota-onalar o‘z farzandlarining qiziqishlarini nazorat qilishlari darkor.

4. Kompyuter orqali bilish. Albatta, kompyuter juda muhim va kerakli ma’lumotlarni o‘rganish imkoniyatidir. U ko‘plab bilimlarga kalit bo‘la oladi, vaqtimiz tejamkorligini ta’minlaydi, dunyoni bilishga yordam beradi. Bugun multimedya texnikasisiz, elektron prezentsiyalarsiz, kompyuter texnologiyalarisiz bilim olish mumkin emasdek hisoblanadi. Biroq, jonli muloqot, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida

o‘zaro dildan suhbatlashish, o‘quvchilarning o‘z qo‘llari bilan chizgan rasmlariga baho berish yoki berilgan mavzuda yozilgan bayon yoxud inshoni o‘qib, fikr-munozara bildirish orqa planga o‘tib qolgandek. Asosiy ish dasturlarimiz hisobotida “innovatsion” texnologiyalarning tarbiyaga beruvchi “effekt”i haqida gapiramiz. Nazarimda, bugun tarbiyachi va o‘qituvchilarning “... falonchi muallifning ... shu nomli asarini topib o‘qing....” deyishining o‘rniga “...falon mavzu haqida internetdan ma’lumot topib keling....”, “...prezentatsiya tayyorlang...” deyishi yoshlarning emas, balki tarbiyachilarning, o‘qituvchilarning muammosidir.

5. Mahalla bilan ota-onal hamkorligining sustligi muammosi. Ba’zi oilalar o‘z oilasi ichidagi muammolarni mahallaga ko‘tarib chiqishdan or qiladilar. Mahalla katta kuch ekanini anglab etmaydilar. Oila jamiyatning bir bo‘lagi sifatida doim mahallaga suyanishi, mahalladan ko‘mak olishi mumkinligini tushunib etmaydilar. Bu holatlar mahalla faollari aholi o‘rtasida tushuntirish, targ‘ibot ishlarini etarli darajada olib bormasliklaridan dalolat beradi.

O‘zbekiston yoshlari mamlakatimizning kelajagini, taqdirini hal qiluvchi kuch ekan, davlat taqdirini bemalol ishonib topshira oladigan yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir. Bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz va O‘zbekiston davlati yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga katta e’tibor qaratmoqda.

Prezidentimiz farmoniga asosan, “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatining tashkil etilganligi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti zimmasiga yuklatilgan ko‘p qirrali vazifalardan biri, albatta, yosh avlod hayoti bilan bog‘liq masalalardir.

Yoshlarda fuqarolik tushunchasining rivojlanishida mahalla va oilaning roli nihoyatda katta. Shu nuqtayi nazardan yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda mahalla va oila o‘z faoliyati bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mahalla va oila dasturlarida asosiy urg‘u ijtimoiy munosabatlar, yangi qadriyatlar, yangi talablar va me’yorlar majmuasi asosida yoshlarning dunyoqarashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga qaratiladi.

Yoshlarni ijtimoiy hayotga izchil tayyorlashda mahalla va oila oldida turgan muhim masalalardan biri ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ish olib borib, yoshlardagi insoniy munosabatlar va qarashlarni to‘g‘ri rivojlanirishdan iboratdir. Bu borada amalga oshiriladigan ishlar yoshlarning hayotini izchil o‘rganish, tahlil qilish, solishtirish, ularning muammolarini, qiziqishlarini, talablarini hisobga olgan holda hal etiladi, albatta. Bu borada asos bo‘lib hisoblanuvchi omillar:

- yoshlarni ajdodlar merosini qadrlashga o‘rgatish;
- umuminsoniy qadriyatlarni anglash va qadrlashga o‘rgatish;
- yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash;
- milliy qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatish;
- ilmiy va diniy bilimlar majmuasini barobar singdirish;
- innovatsion texnik bilimlar majmuasi;
- iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlar ilg‘orligini oshirish;
- irqiylar, diniy tenglik tushunchasini singdirish;
- tabiat bilan inson uyg‘unligi tushunchasini singdirish.

Mahalla va oilaning ta’lim muassasalari hamkorligida yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda to‘sinq bo‘ladigan muammolarni o‘rganib chiqish va ularni bartaraf etish yo‘llari:

- savodsizlikka barham berish;
- turli diniy-ekstremistik oqimlarga qarshi kurashish;
- madaniy ongsizlik va huquqiy ongsizlikka barham berish;
- yoshlarni kattalar tomonidan tahqirlanishiga barham berish;
- kichik va o‘smir yoshdagagi qizlarning kamsitilishiga, tahqirlanishiga barham berish;
- ta’lim va tarbiya muassasalaridagi tartibsizliklarga barham berish;
- irqiylar, diniy tengsizliklarga barham berish;
- huquqiy tengsizlikka barham berish.

Talimiyy-tarbiyaviy yo‘nalishlardagi yangi dasturlar asosida yoshlarni tarbiyalashda mahalla va oilaning ta’lim muassasalari bilan hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiq:

- ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish;
- ta’lim-tarbiya muassasalari xodimlari va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish;
- muntazam ravishda psixolog ko‘rigini o‘tkazib turish;

- ta’limning kasbiy yo‘naltirilganligiga e’tibor berish;
- tarbiyasi og‘ir yoshlar bilan alohida shug‘ullanuvchi guruh – pedogologlar, psixologlar, mahalla faollari, ota-onalar komiteti hamkorligini oshirish;
- kam ta’minlangan oilalardagi yoshlarga g‘amxo‘rlikni kuchaytirish;
- ta’lim olishga imkoniyati bo‘lmagan yoshlar bilan shug‘ullanish, imkoniyatlar yaratish;
- ota-onasi chet ellarda bo‘lgan yoshlar bilan alohida shug‘ullanish.

Bundan tashqari, mahalla, oila, oliy va o‘rta ta’lim muassasalari hamkorlikda quyidagilarga e’tibor qaratadi:

- yoshlarni o‘quv jarayonidan tashqaridagi bo‘sh vaqtidan unumli foydalanishlarini ularning qiziqishlaridan kelib chiqib tashkillashtirish;
- adiblar, olimlar, xalq qahramonlari, mehnat qahramonlari, xizmat ko‘rsatgan davlat arboblari, biznesmenlar bilan suhbatlar uyuştirish, ularning namunali hayotlaridan o‘rnak olishga o‘rgatish;
- yoshlarning iqtisodiy, siyosiy qarashlarini shakllantirish uchun ilmiy izlanishlar uyuştirish;
- jahon madaniyati namoyondalarining asarlari bilan tanishtirish va sahna asarlarini tashkillashtirish;
- ta’lim jarayonida rag‘batlantiruvchi ko‘rik-tanlovlar, o‘zaro bellashuvlar uyuştirish;
- ota-onalar, mahalla vakillari, o‘quv muassasa tashkilotlarining yoshlar bilan birgalikda sayohatlar, xayriya kechalarini uyuştirish.

Bugungi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy portlashlar, yangilanishlar, evrilishlar davrida kuzatilayotgan o‘zgarishlar yoshlar hayotida ijobji natija berishida, albatta, mahallaning, oilaning ta’siri, ularning hamkorligi, ishtiroki, qo‘llab-quvvatlashi nihoyatda zarur va muhimligi muqarrardir.

Xulosa qilib aytganda, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish eng muhim talabdir. Yosh avlodni har tomonlama etuk va barkamol, intellektual salohiyatlari, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurt kelajagi uchun munosib farzand bo‘la oladigan, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib berish ham ota- ona, ham mahalla, ham ta’lim-tarbiya muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

O‘zbekiston davlati yoshlarga oid davlat siyosatini aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda, bosqichma-bosqich olib borar ekan, bu borada mahalla va oila hamkorligiga suyanadi. Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, ruhan va aqlan sog‘lom qilib tarbiyalash mahalla va oila hamkorligi zimmasidagi eng dolzarb, shu bilan birga, eng sharafli vazifadir.

Ko‘pmingyillik tarixga ega bo‘lgan O‘zbekistonning bugungi yoshlari dunyoqarashida yangicha qarashlar, yangicha qadriyatlar, yangicha intilishlar o‘z aksini topmoqda. Bugungi kun yoshlari jonli hayotga chanqoq, o‘ziga ishongan, o‘z maqsadi sari intiluvchan, ijtimoiy tezkor fikrlovchidirlar. Shu bugungacha mamlakatimizda parlament tomonidan yoshlar hayotini mukammallashtirishga oid 40 dan ortiq qonun hujjatlarining qabul qilinishi, 30 dan ortiq xalqaro hujjatlarning ratifikatsiya qilinganligi yoshlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini yanada teranroq belgilab berilganining yorqin misolidir. Mamlakatimiz ravnaqi yoshlarimiz qo‘lida ekan, davlatimizning yoshlar hayoti borasidagi jonkuyarligi, g‘amxo‘rligi, rahnamoligi o‘zining samarali mevalarini berishiga katta umid qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Таълим, фан ва ишлаб чиқаришда интеллектуал салоҳиятли ёшларнинг ўрни” мавзусидаги ёш олимлар, магистрант ва талabalarning анъанавий XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaси materiallari. – Samarkand, 2015.
2. Организация работы с молодежью. Учебное пособие. – Москва-Берлин, 2015.
3. Актуальные проблемы социологии молодежи, культуры, образования и управления. – Екатеренбург, 2014.
4. “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 23-сон қарор. 18.01.2021.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 июндаги 367-сонли қарори.



Xudoyorova Oysoat,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Muradov Ikrom,
A.Avloniy nomidagi XTMO ‘IBITI ilmiy xodimi

Muradova Feruza,
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

YOSH AVLODGA TA’LIM VA TARBIYA BERISHDA O’QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Zamonaviy o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rnini va ta’siri, texnologik xaritasi aks etgan. Shuningdek, o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning asosiy tamoyillari, yo‘llari, usullari, shakllari, vositalari aniqlangan. Eng muhim o‘qituvchining innovatsion faoliyati va ta’lim texnologiyalari yuzasidan ilmiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, axloqiy barkamollik, kompetentlik, innovatsion faoliyat, raqobat, yaratuvchanlik, vatanparvarlik, aqliy salohiyat, ijodkorlik.

Аннотация. В статье отражены особенности современного обучения, интерактивные методы, место и влияние инновационных технологий, технологическая карта. Также определены основные принципы, пути, методы, формы, средства эффективной организации образовательного процесса. Наиболее важными являются научные рекомендации по инновационной деятельности учителя и технологии обучения.

Ключевые слова: педагог, нравственное совершенство, компетентность, инновационная деятельность, соревнование, творчество, патриотизм, интеллектуальный потенциал, творчество.

Annotation. The article reflects the characteristics of modern teaching, interactive techniques, the role and impact of innovative technologies, technological map. Also, the basic principles, ways, methods, forms, means of effective organization of the educational process are identified. The most important thing is given scientific recommendations on the innovative activity of the teacher and educational technology.

Key words: teacher, ethical perfection, competence, innovative activity, competition, creativity, patriotism, intellectual potential, creativity.

Yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishni muvaffaqiyatlari hal etish o‘qituvchiga, uning g‘oyaviy e’tiqodi, kasb mahorati, iste’dodi va madaniyatiga bog‘liq. Bu g‘oyat murakkab va mas’uliyatli vazifani amalga oshirishda o‘qituvchi qanday o‘qitish kerakligini nazariy-amaliy jihatdan bilishi lozim. Ma’lumki, o‘qituvchining pedagogik mahorati, asosan, darsda ko‘rinadi. O‘qituvchilik – katta san’at. Bu san’atga –o‘qituvchilik kasbiga, chinakam murabbiy bo‘lishga havasi, ishtiyoqi zo‘r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o‘zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasi, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g‘oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollangan haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar insonlargina erisha oladilar. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari: axloqiy barkamollik, ya’ni saxovatpeshalik, mehrbonlik, talabchanlik, ma’naviy poklik, qanoatlik, rostgo‘ylik, sadoqatlik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshliligi bilan birga uning kasbiy fazilatlari: o‘z sohasining puxta bilimdoni bo‘lib, o‘zining nutq madaniyatiga ko‘ra tevarak-atrofdagi insonlarga namuna bo‘la olishi muhimdir.

Tabiiyki, mohir o‘qituvchi o‘zining shaxsiy faoliyatini o‘zi tahlil etib boradi. Pedagogik kompetentligini rivojlantirish uchun faoliyati davomida pedagogik vazifa va maqsadlarini o‘zgartirib, yangi vazifalarni qo‘llash asosida o‘quvchi shaxsiga mohirlik, donolik, ijodiy dadillik, chuqur ilmiy tafakkur bilan yondashadi. Pedagogik mahorat va kompetentlik o‘qituvchidan qat’iyat, tirishqoqlik, tadqiqotlarni olib borishga intilish, yangi vaziyatga moslashish, samimiylilik, to‘g‘rilik, halollik, kuch, o‘tkir aql-idrok talab etadi.

“Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi⁷².

Bugungi kunda o‘qituvchi ma’naviy jihatdan sog‘lom va keng fikrlay oladigan, o‘z milliy qadriyatlari, urf-odatlari va millatimizning buyuk siymolari hayoti va ijodiy merosini teran bilishi lozim. Ayniqsa, milliy an‘analarimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo‘lgan yosh avlodga chuqur bilim berishda o‘qituvchi yuksak qobiliyat va ishchanlik bilan ongli, ijodiy yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayoniga metodik bilimlarini samarali qo‘llay olishi kerak. Buning uchun o‘qituvchidan quyidagi burch va mas‘uliyatlar talab etiladi:

- eng avvalo, o‘qituvchi yuksak his-tuyg‘u va tajriba, notiqlik san‘atiga ega madaniyatli, ma’rifatli, ijodkor, ta’lim-tarbiya faoliyatida tashabbuskor va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxs bo‘lishi;
- o‘qituvchi o‘z mehri, estetik his-tuyg‘ularini har lahzada yoshlar ichki dunyosi bilan bog‘lay olishi va ularning mehri, hurmatiga sazovor bo‘lishi;
- o‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho bera olishi;
- zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalar yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lib, barcha fanlar integratsiyasini o‘zlashtirishi va hokazo.

O‘qituvchilar unutmashliklari kerakki, kuchli bilim, kasbiy metodika va oddiy insoniy fazilatlardan iborat uchta xususiyat birlashib o‘qitish jarayonining pirovard natijasini belgilaydi. O‘qituvchi har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilishi va uni tasavvur etishi uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi hamda texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmashin, unda dars jarayonini tashkil etish texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak.

Pedagogning innovatsion faoliyati – bu o‘z ichiga yangilikni tahlil etish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish demakdir. Innovatsion faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, ta’lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, hal etish, unga doir qaror qabul qilish hamda tanlab olingan qarorni amalga oshirish va uni baholash imkonini yaratadi, muammolarni esa samarali hal etadi. Yangi pedagogik texnologiyalarning xislati shundaki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Innovatsion ta’lim o‘qituvchi faoliyatini yangilash, ta’lim-tarbiya jarayonini maqbul qurishga, yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quv jarayonini samarali tashkil etilishi o‘qituvchining innovatsion faoliyati, g‘oyaviy e’tiqodi, kasb mahorati, iste’dodi va madaniyatiga bevosita bog‘liq. Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamon har birimizdan doimo izlanib, tashabbus ko‘rsatib, yangicha ishlashni talab etmoqda. “Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliyoh domlesi ta’lim va ilm fan sohasidagi eng so‘nggi ijobjiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak⁷³”.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri – o‘qituvchi shaxsidir. O‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda yangiliklarni idrok etishga innovatsion shaylikni shakllantirish va yangicha harakat qila olishga o‘rgatish yo‘nalishlari muhimdir. Innovatsion faoliyat – pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Innovatsiya o‘quv jarayoniga

⁷² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (30.12.2020).

⁷³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишиланган тантанали маросимдаги нутки. “Ўқитувчи ва мураббийлар – Янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суюнчимиздир”. 30 сентябрь 2020 йил.

yangilik olib kirish, o‘quv jarayonini o‘quvchi ehtiyoji, xohishi va istaklariga moslashtirish, o‘quvchini mustaqil mutolaaga o‘rgatish demakdir. Innovatsiya – amaliyat va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimida shakllangan yangicha yondashuvdir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘iladi va ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi va ta’lim tizimi rivojiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsiya – ma’lum bir faoliyat maydonidagi muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natija sifatida o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta’lim jarayonini loyihalashdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, bozor munosabatlarini joriy etishni o‘zining strategik vazifalaridan biriga aylantirdi. “Bugungi kunda dunyoda innovatsion g‘oyasiz, ilm fan yutuqlarisiz biron ta sohaning rivojlanishi mumkin emas⁷⁴”. Shu nuqtayi nazardan shaxsda innovatsion tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish usullarini ijtimoiy falsafiy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalarни ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ma’lumki, innovatsiyaning maqsadi – sarflangan mablag‘ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagи faqat ba’zi elementlarini o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz innovatsiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz. Agar faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o‘zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: innovatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyat subyektlari pozitsiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo‘nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 30.12.2020.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутки. “Ўқитувчи ва мураббийлар – Янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир” 30.09.2020.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 том. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.

* * *

⁷⁴ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз 1 том – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ2017 . – Б.85

Xurramov Eshmaxmat Eshqulovich,
TVChDPI Maktabgacha ta'lif kafedrası o'qituvchisi

Madiyorova Muhabbat Sharfiddin qizi,
Temirova Dilsoz Zafarjon qizi,
TVChDPI Maktabgacha ta'lif fakulteti talabalari

KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARDA MAKTABGA CHIQISH QO'RQUVI VA XAVOTIRINING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. Maqolada yoshga bog'liq qo'rquvlar, hissiyotlar, aqliy va shaxsiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: psixologiya, qo'rquv, hissiyot

Аннотация. В статье обсуждаются возрастные страхи, эмоциональное, умственное и личностное развитие.

Ключевые слова: психология, страх, эмоция.

Annotation. The article discusses age-related fears, emotional, mental and personal development.

Key words: psychology, fear, emotion.

Bolaning mакtabga qабул qилинishi eng muhim shaxsiy yangilanish – o'quvchining ichki pozitsiyasining paydo bo'lishi bilan bo'liq.

Ichki pozitsiya – bu bolaning bilim olishga yo'naltirilganligini, uning mакtabga bo'lgan hissiy ijobiy munosabatini, yaxshi talaba qiyofasiga mos kelishga intilishini ta'minlaydigan motivatsion markaz. Bolaning mакtab o'quvchisi sifatidagi ichki pozitsiyasini aks ettiruvchi eng muhim ehtiyojlari qondirilmagan hollarda, u doimiy hissiy tanglikni boshdan kechirishi mumkin. Masalan, mакtabdagи muvaffaqiyatsizlik, doimiy kutishlar, o'qituvchilar va sinfdoshlarning o'ziga nisbatan yomon munosabati, mакtabga borishni, darslarga qatnashishni istamasligi va qo'rquv.

Qo'rquv – bu insonning ongida uning hayoti va farovonligi uchun o'ziga xos tahdidni samarali aks ettirish bo'lsa, tashvish – bu yaqinlashib kelayotgan tahhidni hissiy jihatdan kuchaytirgan tuyg'usi. Qo'rquvdan farqli o'laroq, tashvish har doim ham salbiy qabul qilinadigan tuyg'u emas, chunki bu quvonchli hayajon, hayajonli kutishlar shaklida bo'lishi mumkin. Shaxsiyatning aqliy tuzilishi, hayotiy tajribasi, ota-onalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlariga qarab, hissiy jihatdan bola xavotir va qo'rquvni boshdan kechirishi mumkin. Hisobga olinmaydigan, noaniq tashvish holati tashvish, ba'zi narsalar yoki fikrlardan qo'rqish hissini tug'diradi.

Qo'rquv va xavotir uchun birlashtiruvchi prinsip bu – tashvish hissi. Bu holat bolani savol-javob qilganda yo'qolib qolishi, savolga javob beradigan to'g'ri so'zlarni topa olmasligi, titroq ovozida gapirishi yoki umuman jim bo'lib qolishida namoyon bo'ladi. Ichkarida hamma narsa sovib ketganday tuyuladi, tanasi "qo'rgoshin bilan to'ldiriladi", yurak sohasidagi og'riqlar, palmalar namylanadi. Suhbatdagи talaba juda ko'p keraksiz harakatlarni amalga oshiradi yoki aksincha, harakatsiz, cheklangan bo'ladi. Bunday alomatlar tananing psixofiziologik funksiyalarining haddan tashqari kuchlanishini ko'rsatadi. Qo'rquv yoshga bog'liq va nevrotikdir. Yoshga bog'liq qo'rquvlar hissiy sezgir bolalarda aqliy va shaxsiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Ular quyidagi omillar ta'siri ostida, qoida tariqasida paydo bo'ladi: ota-onalardan qo'rquvlarning mavjudligi, bola bilan munosabatlarda bezovtalik, xavf-xatarlardan ortiqcha himoya qilish va tengdoshlari bilan muloqot izolyatsiyasi, ota-onalar tomonidan ko'p taqiqlar, oilada barcha kattalar uchun ko'p ro'yogga tahidilar, shu jins bir ota-onal bilan rol aniqlash uchun imkoniyatlar yo'qligi (asosan o'g'il bolalar), ota-onalar o'rtasidagi mojaro-munosabatlar, qo'rqinchli turdagи ruhiy travma, tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qilish jarayonida qo'rquvlar bilan psixologik infeksiya. Nevrotik qo'rquvlar katta hissiy intensivligi va keskinlik bilan ifodalanadi, uzoq muddatli kurs yoki qat'iylik, belgi va shaxsning

shakllanishiga salbiy ta’sir, boshqa nevrotik kasalliklar va tajribalar bilan munosabatlar, qo‘rquv obyektini oldini olish, shuningdek, yangi va noma’lum narsalar, qo‘rquvni bartaraf etishda nisbiy qiyinchilik.

Neurotik qo‘rquv uzoq muddatli va hal qilinmaydigan tajribalarning natijasi bo‘lishi mumkin. Bu bolalarning ota-onalari bilan munosabatlarda sezgir, hissiy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganida sodir bo‘ladi, ularning oilaviy qiyofasi oiladagi hissiy tajribalar yoki nizolar tufayli buziladi. Bunday bolalar xavfsizlik, hokimiyyat va muhabbat uchun kattalarga ishonishlari mumkin emas. Talabaning ijtimoiy roli, unga mas’uliyat, burch, burch hissini yuklash, “bitta bo‘lmaslik” qo‘rquvi paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bola o‘z vaqtida bo‘lmaslik, kechikish, noto‘g‘ri ish qilish, qoralanish va jazolanishdan qo‘rqadi. Boshlang‘ich maktab yoshida “bitta bo‘lmaslik” qo‘rquvi maksimal darajada rivojlanib boradi, chunki bolalar yangi bilimlarni olishga, o‘quv vazifalariga jiddiy munosabatda bo‘lishlariga va olgan baholari haqida qayg‘urishga harakat qilishadi.

Turli sabablarga ko‘ra, akademik yuk bilan kurasha olmaydigan birinchi sinf o‘quvchilari oxir-oqibat underachievers toifasiga kiradi, bu esa o‘z navbatida nevrozlariga va maktab fobiyasiga olib keladi.

Bu qo‘rquvning qalbida xato qilish, ahmoqona ish qilish va masxara qilish qo‘rquvi bor. Eng muhim, bunday bolalar doskaga chiqib javob berishdan qo‘rqishadi. Bu kengashda ularning himoyasizligi to‘la namoyon bo‘ladi⁷⁵.

Ba’zilar dars tayyorlashda xato qilishdan dahshatga tushadilar. Bu ota-onalar ularni sinchiklab tekshirishi, shu bilan birga, xatolar haqida juda dramatik bo‘lgan hollarda sodir bo‘ladi. Ota-onalari bolani jazolamasa ham, psixologik jazo hali ham mayjud. U subyektiv ravishda bola tomonidan uning butun shaxsiyatiga baho sifatida qabul qilinadi. “Yaxshi o‘rganmaganing uchun yomonsan”, – deyishadi bolaga.

Ba’zi hollarda maktab qo‘rquvi tengdoshlari bilan to‘qnashish, ular tomonidan jismoniy tajovuzdan qo‘rqish oqibatida kelib chiqadi. Bu hissiy sezgir sotsiokultural va pedagogik jihatdan qarovsiz bolalar uchun xosdir. Ko‘pincha, bunday qo‘rquv bolani yoshi o‘zgarganda o‘zgaradi va o‘z xarakterini o‘zgartiradi, ba’zan u butunlay yo‘qoladi.

Shunday qilib, yosh talabalardagi qo‘rquvlarning aksariyati o‘quv faoliyati sohasida yotadi: “noto‘g‘ri bo‘lish” qo‘rquvi, xato qilishdan qo‘rqish, yomon iz olishdan qo‘rqish, tengdoshlari bilan ziddiyatdan qo‘rqish.

Maktab qo‘rquvlari bolani nafaqat psixologik qulaylikdan, ta’lim quvvatidan ayiradi, balki bolalar nevrozlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xavfsizlik – bolaning emotsiyal kamchiligi namoyon bo‘lishining nisbatan yo‘lsiz shaklidir. U tashvishlar, yuqori tashvishlar, o‘ziga nisbatan yomon munosabatni kutish, o‘qituvchilar tomonidan salbiy baholanishdan iborat. Bolaning doimiy ravishsizligi, to‘liq emasligi hisoblanadi, o‘z harakati, qarorlari to‘g‘ri ekaniga ishonmaydi.

Psixologlar bolalarning xavfsizligini bartaraf etishning ikkita usulini ajratmoqda.

– farzandlar uchun og‘ir vaziyatlarda harakat qilishning konstruktiv usullarini ishlab chiqish va bundan tashqari, tashvishlar, tashvishlar bilan shug‘ullanish imkonini beradigan amallarni egallash;

– o‘ziga ishonchni mustahkamlash, o‘ziga nisbatan baholash va o‘z fikrini rivojlantirish, insonning “shaxsiy o‘sishi” hamda kam ko‘rish.

* * *

⁷⁵ Дусавицкий А.К., Портная Е.А. Об особенностях развития мотивов учения младших школьников. – Москва, 1979.
– С. 69-100

Xudoyorova Oysoat,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O’tanova Umida,
MRDI falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Aliqulov Xusniddin,
DSQ huzuridagi Fiskal instituti bosh mutaxassisi

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA OILA VA MAKTABNING MAS’ULIYAT TUYG’USINI OSHIRISH YO’LLARI

Annotatsiya. Bolalar tarbiyasida oila, muktab hayotining o’rni, ta’siri va mas’uliyati masalari aks ettirilgan. Shuningdek, bolalarning odobi, o’quv tarbiyaviy ishlariga mas’uliyat bilan qarashning eng muhim jihatlari, usullari, yo’llari va vositalari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: ilm, aql, qobiliyat, ijodkorlik, mas’uliyat, hayot, muktab, oila, ijod, sog’lom turmush tarzi, farzand tarbiyasi, mutahkam oila, Vatan tuyg’usi, ezgu niyat, yaratuvchanlik.

Аннотация. В статье отражена роль семьи, школьной жизни, влияния и ответственности в воспитании детей. Также определены важнейшие аспекты, методы, способы и средства детского этикета, ответственный подход к воспитательной работе.

Ключевые слова: наука, интеллект, способности, творчество, ответственность, жизнь, школа, семья, творчество, здоровый образ жизни, воспитание детей, крепкая семья, чувство родины, добрые намерения, творчество.

Annotation. The role of family, school life, influence and responsibility in the upbringing of children are reflected in this article. It also identifies the most important aspects, methods, ways and means of children’s etiquette, responsible approach to educational work.

Key words: science, intelligence, ability, creativity, responsibility, life, school, family, creativity, healthy lifestyle, strong family, sense of homeland, good intentions, creativity.

Go’zal hayot kechirayotgan va sog’lom turmush tarziga ega bo’lgan mustahkam oilalar jamiyatimiz va uning yorqin kelajagi uchun xizmat qiladi. Oila muqaddas dargoh. Unda hayotning davomiyligini ta’minlovchi avlod shakllanadi. Insonga xos chinakam farovon, baxtli hayot davom etadi. Bolalar tarbiyasida oila, muktabning o’rni, ta’siri va mas’uliyati beqiyosdir. Ma’lumki, hayotda mas’uliyat tarbiyasi eng zalvorli masaladir. Ilm berish va uni egallash hamda hayotga mas’uliyat bilan yondashishda ota-onalar, tarbiyachilar, o’qituvchilarning farzand tarbiyasiga to‘g’ri yondashuvi, hayotiy tajribalarga tayangan holda munosabatda bo’lishi, hayotdagi o’z vazifalarini chuqr tushunib etishi talab etiladi. Bunda farzandlar mas’uliyatlari, mustaqil fikr va e’tiqodli, ongli dunyoqarash, iroda va ma’naviyali inson bo’lib etishadilar. Oila va muktabda bolalarning odobi, o’quv tarbiyaviy ishlariga mas’uliyat bilan qarashda quyidagi jihatlarga e’tibor beriladi:

– bolalarning xulqi, fe’l-atvoriidagi o’zgarishlar, muomala munosabati, tengdoshlari va ularning o’zarotasi’rini o’rganish;

– bolaning o’quv mehnat ko’nikmalarini hosil qilish, topshiriqlarni bajarish va o’zlashtirishida faoliyatli yondashuv tamoyillar asosida innovatsion ta’lim texnologiyalardan keng foydalanish orqali mustaqil ijodiy faolligini oshirish;

– oilaning ma’naviy, iqtisodiy ta’milanishi, sog’lom turmush tarzini qaror topishida bolalarning bo’sh vaqtini unumli o’tkazish, ularning aql-zakovatini bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlariga yo’naltirish orqali yuksak natijalarga erishish;

– bolalar tarbiyasida ota ona va o’qituvchilar hamkorligi, ilg’or ish tajribalari natijasi va mehnatining samarasini ta’minalash, o’zlashtirish, umumlashtirish, amaliyotga tatbiq etish orqali ulkan muvaffaqiyatlarga

ega bo‘lish zarur hisoblanadi. Xuddi shu yo‘nalishdagi ishlarni mufappaqiyatli amalgalashish yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida bildirilgan fikrlari e’tiborga loyiqa.

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”.

Birinchidan, yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatlari ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga etkazamiz.

Uchinchidan, o‘g‘il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o‘rgatish, ularda tadbirkorlik ko‘nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta’minalashga ustuvor ahamiyat qaratamiz⁷⁶.

Haqiqatan ham farzandlarni to‘laqonli kamol toptirib o‘stirish uchun ularga ko‘p tarkibli ta’lim tarbiya berish muhimdir. Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama etuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bolalarni qat’iy intizomga o‘rgatish oila mustahkamligiga asos bo‘ladi. Ma’lumki, har qanday farzand uchun ota-onaning mehribonligi, e’tibori zarur. Bu borada quyidagi savol-javob usulidan foydalinish mumkin:

Savol: Har bir ota onaning ezgu orzusi nima?

Javob: Komil farzandni voyaga etkazish.

Savol: Komil insonni tarbiyalashga qanday erishiladi?

Javob: Asosan to‘rt narsa halol va mehribon ota-ona, qattiqqo‘l va talabchan ustoz, samimiy va sodiq do‘st, ma’rifat va ilm orqali erishiladi.

Savol: Eng baxtli ota-ona kim?

Javob: Turmushda, komil inson tarbiyasida nafaqat o‘z farzandiga, balki o‘zgalarga ham ibrat bo‘la olganlar.

Savol: Komil ustoz kim? Javob: O‘zida zohiriyligi va botiniy go‘zallikni mujassam etgan zot.

Savol: Nimadan yumshoq va nimadan qattiqroq narsa yo‘q bu dunyoda?

Javob: Ona mehridan va ota qahridan.

Savol: Tarbiyachi kim?

Javob: Avvalo, bolalarni sevuvchi, ma’rifatli va fidoiy inson.

Savol: Aksariyat ota ona yo‘l qo‘yadigan xato nima?

Javob: Farzandidan uning imkoniyatidan ortiqcha bo‘lgan narsani talab qilish yoki aytarli hech narsani talab qilmaslik.

Savol: Inson uchun eng yaxshi narsa nima?

Javob: Go‘zal axloq, tarbiya, go‘zal xislat bilan nom chiqarish.

Savol: Inson uchun eng yomon narsa nima?

Javob: Axloqsizlik, tarbiyasizlik, yalqovlikdir.

Savol: Qanday odamni aqli odam deb atash mumkin?

Javob: Bir ishga kirishmasdan avval uning oqibatini yaxshi o‘ylab, so‘ngra shu ishga kirishgan odam.

Savol: Yashashdan maqsad nima?

Javob: Avvalo, Alloh roziliga erishish, Alloh bergen amallarni bajarish va Alloh rozi bo‘ladigan tarzda yashash, qaytarganlardan qaytish, so‘ngra el yurt bilan hamohang yashash, unga sadoqatli bo‘lish, ona Vataniga munosib xizmat orqali o‘zini mamnun, baxtli his etish.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy ta’limoti misolida qaraganda: “Insonning yashashdan asl maqsadi zavqli, lazzatli, huzur halovatli, baxtli saodatli umr kechirishdan iboratdir, degan g‘oya uning falsafiy ta’limotida ustuvorlik qiladi. Shu bois ul zot “Insonning mohiyati haqiqiy baxt saodatga erishuv ekani, inson bu maqsadni o‘zining olyi g‘oyasi va istagiga aylantirib, bu yo‘lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt va saodatga erishadi” deb uqtirgan edi⁷⁷.

⁷⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 30.12.2020.

⁷⁷ Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. . 188.

Xulosa shuki, oila deb atalmish qo‘rg‘onda avlodlar kamol topadi. Bu qo‘rg‘onning mustahkam va barqaror bo‘lishiga erishish mamlakat va dunyo miqyosida muhim ahamiyatga egadir. Sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lgan mustahkam oilalar jamiyatimizning yorqin kelajagi uchun xizmat qiladi. Har jihatdan tarbiyalı va ibratli ota onalar oila barqarorligini ta’minlaydilar. Bu yo‘nalishda ko‘plab vazifalarni hal etish taqozo etiladi. Aynan oila mas’uliyatini oshirishda quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim:

– oilada ota-onalarning bilim saviyasini oshirish, ularning bolalarga ma’naviy- psixologik ta’sir ko‘rsata olish tajribasini takomillashtirish;

– oilada milliy qadriyatlar asosida o‘zbekona axloq qoidalariga ko‘ra, sog‘lom, ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratish, oilani muqaddas deb bilish va uning mustahkamligi uchun kurashish, “Mustahkam oila mahalla tayanchi”, “Mustahkam oila jamiyat taraqqiyoti garovi” mavzusida seminar treninglar o‘tkazish, “Oila jamiyatning muhim bo‘g‘ini”, “Ma’naviyat oiladan boshlanadi”, “Oilaning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati”, “Vatan ravnaqi oiladan boshlanadi” kabi mavzularda videokonferensiylar, ijodiy kecha, tanlov va tadbirdurni samarali tashkil etish;

– “Oilam mening qutlug‘ bog‘im”, “Mening oilam” mavzularida she’rlar ko‘rigi hamda rasmlar fotosuratlar tanlovini o‘tkazish, “Baxtli oila”, “Oila bolalar nigohida” mavzularida ko‘chma fotoko‘rgazmalar tashkil etish;

– “Mustahkam oilani barpo etishda ota onalar burchi”, “Ota onalarning farzandlar oldidagi burchi”, “Biz yagona jamoamiz, biz yagona oilamiz” kabi mavzular bo‘yicha teatrlashtirilgan ko‘rinishlarni tashkil etish orqali bolalarning bo‘sh vaqtlarini foydali o‘tkazish;

– Oilada sog‘lom, barkamol avlod tarbiyasining samarali va zamonaviy yo’llarini topish, “Men buyuk va muqaddas Vatan farzandiman” mavzusida ko‘plab maxsus ishlangan filmlarni yoshlar hukmiga havola etish, “Oila muqaddas” mavzusida suhbatlar uyuşhtirish;

– “Siz oilangizda farzandlaringiz tarbiysi uchun mas’ulsiz” mavzusida bukletlar, maqolalar va broshyuralar tayyorlash va ulardan keng foydalanish va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 30.12.2020.
2. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
3. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006.



Musurmanova Oynisa,
*O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani
go‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
direktori o‘rinnbosari, p.f.d., professor*

ZAMONAVIY OILA VA UNING MA’NAVIY-AXLOQIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy oila va uning o‘ziga xos xususiyatlari, mazmunan uning ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy o‘zbek oilasi a‘zolari kompetensiyasining komponentlari, tamoyillari, manbalari, samarali shakl va metodlari, salbiy ta’sir etadigan holatlar va ularning oqibatlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar o‘z aksini topgan bo‘lib, mazkur toifa oilalarni takomillashtirish borasida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: zamonaviy oila, omillar, zamonaviy oila andozasi, oila a‘zolari kompetensiyasi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va mezonlar, ma’naviy muhit, innovatsion tarbiya texnologiyalari.

Аннотация. В статье отражены особенности современной семьи, ее приоритетные направления, компоненты компетенций, принципы, источники, эффективные формы и методы, отрицательные ситуации и научно-теоретические взгляды членов современной узбекской семьи, а также выводы и рекомендации по усовершенствованию этих семей.

Ключевые слова: современная семья, проект современной семьи, компетенции членов семьи, духовно-нравственные ценности и критерии, духовная среда, инновационные воспитательные технологии.

Annotation. The article reflects the features of a modern family, its priority areas, components of competencies, principles, sources, effective forms and methods, the negative impact situations and their consequences and scientific and theoretical views of members of a modern Uzbek family, as well as conclusions and recommendations for the improvement of this category of families are developed.

Key words: modern family, project of a modern family, competencies of family members, spiritual and moral values and criteria, spiritual environment, innovative educational technologies.

Oila jamiyat tayanchi, insonning baxt qo‘rg‘onidir. Shu bois bugungi kunda mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Uning ijtimoiy-ma’naviy barkamolligi davlat va jamiyat farovonligining negizidir. Darhaqiqat, jamiyat va davlat farovonligi, gullab-yashnashi oilalarning zamonaviyligi va uning ma’naviy-axloqiy poydevorining mustahkamligiga bog‘liq. Shu boisdan ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar mazmunida oila manfaatlarini huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihaddan himoya qilish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanda qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son farmoni zamonaviy oilani shakllantirishda va uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy asoslari samaradorligini oshirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda oila institutini takomillashtirishning asosiy maqsadi – zamonaviy oilani barpo etishdan iboratdir. Qanday oila zamonaviy oila hisoblanadi? Avvalo, shu savolga javob topmoq lozim.

Bizning nazarimizda, oila kompetensiyasi komponentlarini o‘zida to‘liq namoyon etadigan, umuminsoniy va milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, zamonaviy ilg‘or tajribalar, baxtlilik indeksi talablari asosida davlat va jamiyat rivojiga o‘z tinchligi, farovonligi va mustahkamligi bilan ulush qo‘shadigan oila – zamonaviy oila demakdir. Qaysi jamiyatda barpo etiladigan bo‘lsa o‘sha jamiyat talablariga monand shakllanadigan oila – zamonaviy oila hisoblanadi.

Buguni kun zamonaviy oilasi quyidagi tamoyillarga javob bermog‘i lozim:

- o‘zaro muhabbat, biologik moslik asosida oila barpo etish;
- reproduktiv va jinsiy etuklik; oila va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi, barqarorligi uchun fidokorlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik;
- milliy oilaviy qadriyatlarga sadoqatlilik;
- sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit yaratish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- kommunikativ kompetentlik mezonlariga rioya etish;
- oilaviy tarbirkorlik madaniyatiga ega bo‘lish;
- “O‘z bolangizni, o‘z uyingizni, o‘z Vataningizni ko‘z qorachig‘idek asrang!” shioriga fidoyilik;
- “halollik vaksinasi” bilan emlangan bo‘lish va “jaholatga qarshi-ma’rifat” g‘oyasiga amal qilish;
- oilaparvarlik, mehnatsevarlik; xalqlararo, millatlararo totuvlikka rioya etish.

Shuningdek, tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, zamonaviy oilaning o‘ziga xos andozasi mavjud bo‘lib, u shaklan va mazmunan ko‘pqirrali va kengqamrovli bo‘lishi tabiiydir. O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans davri”ning shiddat bilan boshlanishi zamonaviy oilalarning ham shiddat bilan shakllanishi uchun zamin hisoblanadi. Albatta, **oilaning** o‘ziga xos andozasi mavjud bo‘lib, u mazmunan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- jamiyat va davlat himoyasida ekanligi, uning huquqiy asoslari;
- iqtisodiy jihatdan farovonligi;
- ijtimoiy jihatdan barqarorligi;
- axloqiy-ma’naviy jihatdan shakllanganligi;
- to‘liq bo‘lishi;
- ta’limiy jihatdan qoniqarli darajasi;
- demografik jihatdan mustahkamligi;
- ma’naviy va jismoniy salomatligi.

Bo‘lajak kelin-kuyovlar mazkur ustuvor yo‘nalishlar zamirida zamonaviy oilaviy hayotga tayyorlanmoqlari zarur. Yoshlar zamonaviy oila qurishda “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat”, “Oila – jamiyat va davlat himoyasida”, “Farovon oila – farovon jamiyat asosi”, “Oila – ma’naviyat o‘chog‘i”, “Oila – jamiyat kuzgusi” kabi konseptual g‘oyalarga asoslanib o‘zbek oilasi andozasining tarkibiy qismlarining ustuvor yo‘nalishlari borasidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini yosh jihatdan bosqichma-bosqich shakllantirib borish talab etiladi. Shu bois, Respublika mahalla fuqarolar yig‘inlarida oilalardagi nizo, ziddiyat, tazyiq, notinchliklar hamda ajrimlarning oldini olish maqsadida Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari faoliyat olib bormoqdalar.

O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans davri”ning shiddat bilan boshlanishi zamonaviy oilalarning ham shiddat bilan shakllanishi uchun zamin hisoblanadi. Bu jarayonda dunyo xalqlarining o‘zbek oilasiga, o‘zbek xalqining esa dunyo xalqlari oilasi tajribasini bilishga qiziqishlari ortib bormoqda. Darhaqiqat, dunyo miqyosida mavjud turli millat va xalqlarning oila qurish, uni mustahkamlashga nisbatan qarashlari va munosabatlari turlicha bo‘lib, ular boshqa millat oilalariga o‘zining ijobjiy yoki salbiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin.

Ayni zamonda ularning oila borasida oddiy holga aylangan ba’zi holatlarining bizning zamonaviy oilalarimiz shakllanishiga salbiy ta’sir etish ehtimoli mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha turkumlash mumkin:

- oila muqaddas qo‘rg‘on ekanligiga nisbatan munosabatlarning yuzakiligi;
- yigit va qizlar munosabatlarida, turmush qurishda, oila bo‘lib yashash tarzida, ajrim holatlarida o‘ta erkinlik, ota-onha fikriga tayanmaslik;
- nikohga oly qadriyat sifatida qaramaslik (aksariyat oilalar fuqarolik yoki shar’iy nikoh asosida yashashadi);
- jinsiy munosabatning o‘smirlik yoshidan juda erta boshlanishi;
- yosh qizlarda bokiralikni saqlash majburiyatining yo‘qligi;
- erkin seksual aloqalarga yo‘l ochiqlik va ular uchun maxsus sharoitlar yaratilganlik;
- oila qurishga nisbatan milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan emas, balki boshqa xalqlar, millatlar urf-odatlariga qiyosiy taqlid qilish odathing paydo bo‘lishi;
- u yoki bu masala bo‘yicha qaror qabul qilishda er-xotinning o‘zaro kelishmasdan mustaqil qaror qabul qilishi;

- kiyinish, ota-onas bo‘lish, yashash tarzini tashkil etish, farzandlik, qarindosh-urug‘chilik burch va vazifalarini bajarishda sharqona odob-axloqdan keskin yiroqlik;
- oiladagi har bir shaxsning o‘zi uchun individual turmush tarzi asosida hayot kechirishi;
- bir jinsliklar turmushiga e’tiborsizlik;
- oilalarning ma’naviy-axloqiy asoslarining qadrsizligi;
- guruhli jinsiy aloqalar;
- yoshlarni oilaviy hayotga tayyor bo‘lmasdan oila qurishi va boshqalar.

Darhaqiqat, bunday salbiy ta’sirlardan xoli zamonaviy oila qurishning asosiy mezoni uning ma’naviy-axloqiy poydevor asosiga qurilishi hisoblanadi. Shundagina u mustahkam va baxtli bo‘lishi mumkinligini tadqiqotlar va hayotiy tajriba ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy oilaning ma’naviy-axloqiy asoslari umuminsoniy va milliy qadriyatlar hisoblanadi. Chunki oilaning ma’naviy-axloqiy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va mustahkamlash zamirida jamiyatning ma’naviy takomilligiga erishiladi. Oilada ma’naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yet bo‘lgan turli xil zararli ta’sirlarga qarshi turish oilaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini yanada oshiradi. Uning asosiy manbalari quyidagilardan iboratdir:

- Sharq va G‘arb mutafakkirlari merosida bayon etilgan oila borasidagi qarashlari;
- xalq og‘zaki ijodi namunalari;
- milliy va umuminsoniy moddiy va ma’naviy qadriyatlar;
- oila ma’naviyatini takomillashtirish borasidagi huquqiy-me’yoriy hujjatlar (Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, ratifikatsiya qilingan xalqaro huquqiy-me’yoriy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirlik va idoralarning me’yoriy hujjatlari, mutaxassis-olimlarning ilmiy-metodik asarlari va b.);
- adabiyot va san’at asarlari;
- OAV materiallari, teleradio ko‘rsatuv va eshittirishlari;
- hayotiy ilg‘or xalqaro va milliy tajriba.

Mazkur manbalar asosida zamonaviy oilaning quyidagi ma’naviy-axloqiy mezonlari takomillashtiriladi: oilaning muqaddasligi, oilaviy-huquqiy madaniyat, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va budgeti, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari, ro‘zg‘orshunoslik sirlari, oila gigiyenasi, reproduktiv salomatlik va jinsiy tarbiya asoslari, sog‘lom turmush tarzi (kiyinish, ovqatlanish, shaxsiy gigiyena, jismoniy salomatlikni saqlash) qoidalariga amal qilish, kundalik hayot tartib-qoidalariga riosa etish, har qanday vaziyatda o‘zini tuta bilish, kamtarlik, sabr-toqatlilik, saranjom-sarishtalilik, orastalilik, sermulohazalilik, odob doirasida so‘zlash, turli noaxloqiy illatlardan xolis bo‘lish, e’tiqodlilik, ongli intizom, milliy iftixon tuyg‘usiga ega bo‘lish, yurish-turish, xatti-harakat qoidalariga, milliy oilaviy qadriyatlarga muhabbat, ro‘g‘orshunoslik madaniyatiga amal qilish, kattalarga izzatda va kichiklarga nisbatan e’tiborda bo‘lish, adabiyot va san’atga muhabbatni namoyon etish, turli millat urf-odatlari, an’analari, tili, dini va madaniyatiga hurmat, bag‘rikenglik, mehnat madaniyati, sog‘lom ma’naviy muhit tartib-qoidalari, kiyinish madaniyati, muloqot madaniyati, zamonaviy uy bekalari odob-axloq qoidalari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ota-onalikning ijtimoiy-ma’naviy jihatlari, erta turmush, erta tug‘uruq, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi nikoh, ajrimlar, oilada nizo, ziddiyat, zo‘ravonlik va tazyiqlarning sabablari va zararli oqibatlari, farzand tarbiyasini va uning o‘ziga xos xususiyatlari, etimlik, shar‘iy nikoh kabilarning salbiy oqibatlari va boshqalar.

Demak, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsning insoniyat tomonidan qabul qilingan umuminsoniy va milliy odob-axloq qoidalarni zamonaviy ma’naviy mezonlar bilan uyg‘un holda kundalik hayotda, amaliy faoliyatda yaxlit tarzda o‘z xatti-harakati, xulq-atvori orqali ongli ravishda namoyon etish demakdir.

Mazkur mezonlar ma’naviy muhiti sog‘lom yoki nosog‘lom; tinch yoki notinch; to‘liq yoki noto‘liq; ehtiyojmand; kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan; turli millatli, diniy e’tiqodli, ijtimoiy mavqega ega; ziyoli, ishchi-tadbirkorlar va boshqa toifa oilalarning o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda takomillashtiriladi. Albatta, bu o‘rinda ota-onalar, mahalla fuqarolar yig‘inlari mutasaddilar va boshqa mutasaddilarning tashkilotchilik kompetentligi muhim rol o‘ynaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamkorlikda oilalarda tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yakka, guruqli, jamoavy, ommavy shaklda tashkil etish, yoshlar, ota-onalar, tarbiyachi-o‘qituvchi, jamoatchilikning ijtimoiy ehtiyoji, talablari, ta’lim muassasasi xarakteri, mintaqalar hamda hududning ma’naviy-madaniy manfaatlari, geografik joylashuvi hamda demografik vaziyatni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Shunday qilib, zamonaviy oila va uning ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirishda innovatsion tarbiya texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, multimedia resurslari, o‘quv va badiiy adabiyotlar, elektron axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, maxsus teleradio rukunlari va reportajlar, ijtimoiy loyihamalar, ilmiy-ommabop, badiiy va multiplikatsiyaviy va hujjatli filmlar, elektron ta’lim resurslari, ma’sus interaktiv veb loyihamalar, audivizual va boshqa vositalaridan foydalanish o‘zining samarasini berishi muqarrar.

Zamonaviy oilani shakllantirish samaradorligini ta’minlashda foydalaniladigan tarbiya metodlarining rang-barangligi muhim rol o‘ynaydi. Olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning maqsadi, mazmuni, tematikasi va xarakteriga ko‘ra savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, hikoya, davra suhbati, munozara, klaster, aqliy hujum va boshqa metodlarlardan foydalanish ijobiy samaralar beradi.

Jumladan, jamoatchilik fikrini o‘rganish, ta’lim-tarbiya natijalarini monitoring qilish, uning mazmunini takomillashtirish, ish shakl va metodlarini to‘g‘ri tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Buni o‘rganishning metodologik asosini aniqlash; mazmunini va tamoyillarini belgilash; samarali metodlarni tanlash; tahlil etish, xulosa chiqarish, tavsiyalar berish yo‘llarini aniq belgilab olmoq lozim.

Zamonaviy oilani rivojlantirish, oilada ichki munosabatlari, shaxslararo munosabatlarni, boy madaniy tarixiy meros va an’anaviy oilaviy qadriyatlar muammolari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni o‘tkazish, ularning ma’naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kabi ustuvor masalalar bo‘yicha muhim natijalarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сон фармони.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 28 февралда қабул қилинган “Фуқароларнинг репродуктив саломатлигини сақлаш тўғрисида”ги қонуни.
3. Мусурманова О. Оила жамият таянчи: Монография /О.Мусурманова. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – 252 б.
4. Фазилатли авлод. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. 3-қисм. [Матн]: 7-18 ёшли болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма. / Тузувчи муаллифлар: А.Қодиров, М.Қуронов, О.Мусурманова ва бошқалар. – Тошкент: “Muhaarir” nashriyoti, 2019. – 256 б. (2020 йил, январь)
5. Мусурманова A. The scientific and pedagogic foundation of training social activeness of youth. Fledu. pdf. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал. – Тошкент, 2017 йил, № 3. 168-172 Р.
6. Musurmanova A. Family reading as a factor of spiritual and moral development of the child The Way of Science. International scientific journal (ISSN 2311-2158) 2018. № 1 (47). 70-72 P.
7. Musurmanova A. Improving Mechanisms of interaction between Family institutions and Educational institutions in Devejoping Spirital Culture of Aloescents at Social and Right Risk Groups Eastern European scientifik journal (ISSN 2199-7977) Ausgabe 2-2018.62-67 P.
8. Musurmanova A. Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual cultute of adolescents of social and legal risk groups. “Проблемы педагогики” научно-методический журнал. № 1(33) февраль. – Москва, 2018. p.5-7.

UCHINCHI SHO‘BA.

**YANGI O‘ZBEKISTON VA UCHINCHI
RENESSANSNI BARPO ETISHDA
OILA-MAHALLA VA NNTLARNING
MAHALLA VA OILA INSTITUTLARINI
MUSTAHKAMLASHDAGI
HAMKORLIGI**



Xoliqova Mohira,

*O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani
qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla
va oila” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
falsafa fanlari doktori, dotsent*

MAHALLA VA OILA TIZIMI MUTAXASSISLARINING NIZOLARNI SAMARALI BOSHQARISH BO‘YICHA KONFLIKT-MENEJMENT HAMDA MEDIATIV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy axborot jamiyatni kontekstida mahalla va oila tizimi mutaxassislarining nizolarni samarali boshqarish bo‘yicha konflikt-menejment hamda mediativ kompetensiylarini takomillashtirish masalalariga oid dolzarb muammolar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: eksponensial taraqqiyot, paradigm, kompetensiya, mediatsiya, konflikt-menejment.

Аннотация. В данной статье в контексте современного информационного общества анализируются актуальные проблемы формирования компетенций по эффективному управлению конфликтами и медиации специалистов махалли и семьи.

Ключевые слова: экспоненциальное развитие, парадигма, компетенции, медиация, управление конфликтами.

Annotation. In this article, in the context of the modern information society, are analyzed the current problems of the formation of competencies for effective conflict management and mediation of makhalla and family specialists.

Keywords: exponential development, paradigm, competencies, mediation, conflict management.

Yod olingani emas, foyda beradigani ilmdir.

Imom Shofe’iy

Inson uchun bilim olishning o‘zi kifoya emas,
bilimni taraqqiyot yo‘lida sarflamoq kerak.

Iogann Gyote

Audiatur et altera pars
(Ikkinchi tomon ham eshitilmog‘i darkor)
Qadimgi yunon aforizmi

Eksponensial taraqqiyot, murakkab ijtimoiy xususiyatga ega informatsion jamiyat, to‘rtinchi sanoat inqilobi, yuqori sur’atlarda axborot almashinuvi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni transformatsiyasi, siyosiy va ekologik xatarlar – XXI asrning evolyutsion paradigmasi inson, jamiyat hamda ta’lim oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi, xususan, ta’lim nazariyasi va metodologiyasini qayta ko‘rib chiqish, gumanistik g‘oyalarni generatsiya qilish, postmodernistik jamiyatda yashash ko‘nikmalarini egallash, shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishni taqozo etdi. “Lifelong learning” – “umr davomida ta’lim olish” konsepsiyasining paydo bo‘lgani bejiz emas.

XXI asr ko‘nikmalarini yo‘lida hamkorlik tashkiloti (Partnership for 21st Century Skills) tomonidan XXI asrda insoniyatning barcha sohada muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar qatorida quyidagi ijtimoiy kompetensiylar sanab o‘tilgan.

- *liderlik (peshqadamlik) ko‘nikmalar;*
- *shaxslararo va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini yordamida boshqalarga ta’sir ko‘rsatish va ularni maqsad sari yo‘naltirish;*
- *boshqalar bilan tegishli va mahsuldar tarzda ishlash;*

- *guruhlarning jamoaviy aqliy qobiliyatidan zarur hollarda foydalanish;*
- *yangilik kiritish va ish sifatini oshirish maqsadida madaniyatlar orasidagi tafovutni bartaraf etish va turlicha nuqtayi nazarlardan foydalanish;*
- *tolerantlik.*

Ushbu muhim kompetensiyalar qatoridan nizolarni samarali hal qilish, nizoni boshqarish kabilar ham o‘rin olgan⁷⁸.

XXI asrda uzlusiz shaxsiy va kasbiy kamolot hamda o‘zgarib, rivojlanib borayotgan dunyoning talablariga moslashishning samarali shakllaridan biri bu shaxslararo nizolarni samarali boshqarish ko‘nikmalaridir. Xristof Besemer⁷⁹, Vendi Suzuki (Wendy Suzuki)⁸⁰, Liza Parkinson⁸¹, Rojer Fisher (Roger Fisher), Uilyam Yuri (William Ury)⁸², Anita fon Xertel⁸³, Garold Abramson⁸⁴ tadqiqotlarida shaxs uyg‘un rivojlanishining omillari, inqirozlarini samarali bartaraf etish orqali shaxsiy rivojlanish muammolari tadqiq qilingan.

Nizo (ixtilof, nifoq, mojaro, ziddiyat, qarama-qarshilik, kolliziya, konflikt) zamonaviy dunyoning ajralmas elementi hisoblanadi. Nizolar ijtimoiy hayotning etnik, irqi, milliy, oilaviy, mehnat, tijorat, biznes, g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlarga oid masalalarida yuzaga kelishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim paradigmasi kontekstida O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutida ham xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, faoliyatga ilg‘or g‘oya va innovatsiyalarni implementatsiya qilish yo‘lida muayyan ishlar amalgalashmoqda. Xususan, mutaxassislar xalqaro hamda hududiy miqyosda konferensiya, intensiv kurslar, timbildung, treninglarda ishtirok etib, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirmoqda. Buning mahsuli o‘laroq mutaxassislarda zamonaviy korporativ muhit va unga qo‘yilayotgan talablar haqida yaxlit kartina shakllanmoqda. Xususan, mahalla va oila instituti sohasida zarur ko‘nikmalardan biri jamiyatda va oiladagi shaxslararo munosabatlarda kelib chiqadigan nizolarni bartaraf etishga qaratilgan konflikt-menejment hamda mediativ texnikalarni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtrish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli farmonida mahalla va oila tizimi oldida turgan eng muhim vazifalar qatorida *oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtrish, oila institutini mustahkamlash, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko‘maklashishni tashkil etish, xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish* kabilar belgilangan. Farmon bilan tasdiqlangan “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan tizimni samarali joriy etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 21-bandida *“oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, sudgacha oilaviy nizolarni oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish”* ko‘rsatilgan⁸⁵.

Bundan ma’lum bo‘ladiki, mahalla va oila tizimi oldida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilinishini ta’minlovchi demokratik tamoyillarni, fuqarolik va oila huquqi sohasida nizolarni hal qilish usullarini tizim amaliyotiga joriy qilish dolzarblik kasb etidi.

Aytish kerakki, “nizolarni hal qilishning muqobil usullari” (Alternative dispute resolution) umumiyl tushuncha bo‘lib, u an‘anaviy sud amaliyotidan tashqari ko‘pgina formal va noformal usullarga nisbatan

⁷⁸ www.21stcenturyskills.org.

⁷⁹ Христофф Бессемер. Медиация. Посредничество в конфликтах. – Калуга: Духовное познание, 2004. – С. 79.

⁸⁰ Судзуки В. Странная девочка, которая влюбилась в мозг (2-е изд.) – Москва: Alpina Publisher, 2017, – Р. 302.

⁸¹ Лиза Паркинсон. Семейная медиация. 2-е изд. – Москва: МЦУПК, 2016.

⁸² Roger Fisher, William Ury. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. 1981, 1988. Фишер Р., Юри У. Путь к согласию, или переговоры без поражения. – Перевод с английского: А. Горелова; Предисловие: В. А. Кременюк. – Москва, 1992. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. 10.02.2012.

⁸³ Хертель, Анита фон. Профессиональное разрешение конфликтов: Медиативная компетенция в Вашей жизни. – Санкт-Петербург: Издательство “Вернера Регена”, 2007. – С. 272.

⁸⁴ Гарольд Абрамсон. Сопровождение сторон в процедуре медиации. – Москва: МЦУПК, 2013. – С. 560.

⁸⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-куvvatlash ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиши чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сонли фармони. Тошкент, 2020 й.

ishlatiladi⁸⁶. Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy, iqtisodiy, shaxslararo munosabatlarning rivojiga xizmat qiladigan va ijtimoiy tizimning barcha shakllarida – oila, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, mehnat bozori, davlat ma’muriy amaliyotida keng qo’llaniladigan, hayotdagi turli xil nizolarni tinchlik, muzokara va murosa yo‘li bilan hal etishning ilg‘or va muqobil usuli mediatsiyadir. Mediatsiya ingliz tilidan tarjima qilinganda “vositachilik” ma’nosini anglatadi.

Keyingi yillarda oila sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar oilalarning mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan bo‘lgan oilaviy nizolarni o‘z vaqtida bartaraf etish hamda nizolar preventsiyasi mutaxassislarining nizo predmetini tushunish, nizolar bilan ishslash sohasida nazariy bilim va amaliy kompetensiyalarni, xususan, mediativ ko‘nikmalarini (*faol tinglash, empatiya, konstruktiv dialog, refreyming, murosaga keltirish* va h.k.) o‘zlashtirganiga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy, fuqarolik va huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudgacha hal etish mexanizmi sifatida mediatsiya, ya’ni maxsus vositachi — mediator ishtirokida nizolashuvchi tomonlarni suddan tashqari tartibda yarashtirish usullari xorijiy davlatlar tajribasida uzoq yillardan beri qo’llanib kelinadi. Endilikda mediatsiya milliy qonunchilikdan ham munosib o‘rin egalladi. U kelib chiqqan nizoni taraflarning o‘zaro maqbul qarorga erishish maqsadidagi ixtiyoriy roziligi asosida, xolis bo‘lgan shaxs, ya’ni mediator ko‘magida hal qilish usulidir. Uchinchi shaxs ko‘magida nizolarni hal qilish usullari qadim tarixga ega bo‘lib, jumladan, **Shumerlar davlati, Mesopotamiya, Yunoniston, Hindiston, Misr, Rimda** bahs-munozaralarni hal qilish uchun aynan vositachilik texnologiyasidan foydalanilgan.

Milliy tariximizda qadimdan yurt tinchligi, el osoyishtaligini ta’minlash, ijtimoiy nizolarni hal qilishda adolatli bo‘lishga alohida e’tibor bilan qaralgan. Hadisi Sharifda: “*Sizlarga namoz, ro‘za va sadaqa darajasidan ham afzal amal haqida gapiraymi? Bu amal – odamlar orasini yaxshilashdir, chunki odamlar oralarining buzilishi bor diyonatni yo‘q qiladi*”, deya marxamat qilinadi. Va yana aytildiki, “*Musulmonga o‘z birodaridan uch kechadan ortiq arazlash halol emas*” (Abu Ayub Ansoriy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi). Turli nizo va bahslarni hal etishda mahalla, urug‘-aymoqlar, oilaning kattalari va qarindoshlar aralashuvi va ko‘magiga tayanilgan.

Xalqimizda vositachilikning qozi, oqsoqol, dallol, miyonchi,sovchi kabi o‘ziga xos shakl va elementlari mavjud bo‘lgan. Xususan, qozilik mansabiga obro‘-e’tiborga sazovor shaxslar tayinlangan. Qozilarni tayinlashda quyidagi qoidaga amal qilingan: “Qozida besh xislat bo‘lsa, u mukammal bo‘ladi: o‘zidan oldingilar ilmini o‘rganish, ta’madan saqlanish, tomonlarga nisbatan halimlik, imomlarga iqtido qilish va ahli ilm bilan maslahatlashish”. **Burhoniddin Marg‘inoniy** “Hidoya” asarida vositachilikning tabiatи haqida so‘z yuritib, hakamlik qilishga rozilik bildirgan shaxs qozilarga xos barcha fazilatlar egasi bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi: “*Mabodo ikki odam birovni hakamlikka loyiq ko‘rib, uning chiqargan qaroridan mammunlik izhor etgan ekan, bu qaror shak-shubhasiz haqiqiyidir*”.

Zamonaviy ko‘rinishdagi mediatsiya XX asrning o‘rtalarida AQSH, Buyuk Britaniyada tarkib topgan. Bugungi kunga kelib, mediatsiya nizolarni hal etishning eng keng tarqalgan alternativ usuli hisoblanib, fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida deyarli barcha rivojlangan davlatlar amaliyotida qo’llanadi. BMT Bosh Assambleyasining 2018-yil 20-dekabrdagi Rezolyutsiyasi asosida “**BMTning mediatsiya natijasida xalqaro tinchlik kelishuvlari to‘g‘risidagi konvensiya**”si qabul qilingan. BMT xalqaro savdo huquqi bo‘yicha maxsus Komissiyasi tomonidan **ishbilarmomonlik sohasida nizolarni bartaraf etish maqsadida mediatsiya bo‘yicha Namunaviy qonun** ishlab chiqilgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mediatorlar faoliyatini tartibga soluvchi bir qator me’yoriy hujjatlar mavjud. Jumladan, 30 dan ortiq Yevropa tashkilotlari ekspertlari tomonidan **mediatorlar xulqining Yevropa kodeksi** ishlab chiqilib, qabul qilingan. Shuningdek, 2008-yildan “**Mediatsyaning ayrim tomonlari bo‘yicha Yevropa direktivasi**” amal qiladi.

Dunyo davlatlarida mediatsiyaga ikki xil yondashuv bo‘lib, xususan, **AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada, Germaniya** kabi mamlakatlarda suda tomonlarga mediator xizmatiga murojaat qilishni taklif qiladi. **Buyuk Britaniyada** mediatsiya davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanadi. Ushbu mamlakatda mediatsiyadan oilaviy, fuqarolik, tijorat, transchegaraviy, korporativ, kichik da’volar, voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatga oid nizolarda foydalaniladi. E’tiborlisi, oilaviy nizolarda mediatsiya xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi. Betaraf vositachilar ishtirokida yarashtirish tartibi hamda maxsus

⁸⁶ <https://www.findlaw.com/hirealawyer/choosing-the-right-lawyer/alternative-dispute-resolution.html>.

telefon xizmati ham mavjud. **Avstriyada** oilaviy nizolarda mediasiya deyarli majburiy o‘tkaziladi. **AQSHda** nizolarni hal qilishning milliy instituti tashkil etilgan va u mediasiyaning yangi usullarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, **Xitoy, Gonkong, Koreya, Hindiston** kabi mamlakatlarda ham mediasiya instituti tashkil etilgan va muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Mediatorlarning bevosita sudlarda ish olib borishi potensial sudlashuvlar sonini kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “**Mediatsiya to‘g‘risida**”gi qonuni 2018- yilda qabul qilindi hamda 2019-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi. Bu orqali mediasiya instituti O‘zbekistonning milliy qonunchilik tizimidan munosib o‘rin oldi. Ushbu qonunning maqsadi – mamlakatimizda nizolarni tartibga solishning muqobil usullarini rivojlantirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratish, nizolashuvchi taraflarning nizolarini mustaqil, o‘zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko‘maklashishdan iborat. *Konfidensiallik, ixtiyoriylik, shaffoflik, taraflarning hamkorligi va teng huquqligi, mediatorning mustaqilligi, xolisligi va betarafligi hamda o‘zaro hurmat* mediasiya jarayonining asosiy tamoyillari sifatida e’tirof etiladi.

Mahalla va oila tizimida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarining mediativ ko‘nikmalarini takomillashtirishning ahamiyatini hisobga olib, ushbu yo‘nalishda turkum treninglar tashkil etilmoqda. Misol tariqasida USAIDning O‘zbekistonda huquqiy islohotlar bo‘yicha dasturi (JRUP) doirasida vazirlikning hududiy boshqarmalari rahbar va mutaxassislari uchun oila institutini mustahkamlash, oilaviy nizolarni hal etishning muqobil usullari, O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyatini keng yoritish, mediasiya tartib-taomili haqida tayanch bilimlar berish, mediasiyani o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan treninglarni aytish mumkin. Trening o‘quv dasturidan *sohaga oid xorijiy tajriba, mediatorning kasbiy etikasi, mediatsiya bosqichlari, mediatsiyani o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish, “nizo”, “kokus”, “empatiya”, “refreyming”, “mediabellik” tushunchalari haqida nazariy bilimlar o‘rin olgan*. Trening doirasida mutaxassislar *stress va nizolarni boshqarish, keyslar bilan ishlash, kommunikatsiyaga kirishishda mediatsiya usullaridan foydalanish, aktiv tinglash, verbal va noverbal kommunikatsiya* ko‘nikmalariga ega bo‘lishdi. Trening ishtirokchilaridan olingan fidbek natijalari mazkur treninglarning tizim uchun yuqori amaliy ahamiyatini ko‘rsatdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, xodimlarning kasbiy kompetentligini muttasil rivojlantirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish, xususan, mediasiya usulining kasbiy amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimizda mahalla va oila institutini mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, oilaviy ajrimlar va nizolarning oldini olishga hizmat qiladi. Quyida muallif tomonidan sohaning keyingi rivojlanishiga xizmat qiladigan takliflar ilgari suriladi:

1. Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari faoliyatiga mediasiya tartib-taomilini oilaviy nizo va kelishmovchiliklarni hal etishning yangi va muqobil usuli sifatida tatbiq etish;
2. Mutaxassislarining oilaviy nizolarni hal qilishda mediasiya sohasiga oid nazariy bilim, jumladan, muloqotga kirishish, muzokaralar o‘tkazish, mediativ texnikalarni qo‘llashdagi ko‘nikmalarini tizimli takomillashtirish, oilaviy nizolarni sudsiga hal etish jarayonida qo‘llashga doir treninglar tashkil etish;
3. Adliya vazirligi bilan hamkorlikda oilaviy nizo va kelishmovchiliklarni sudsiga hal etishda mediasiya tartib-taomilini tatbiq etish maqsadida oilaviy mediatorlar hamda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari a‘zolariga mo‘ljallangan mediatorlarni tayyorlash kurslarini tashkil qilish;
4. Mahalla va oila tizimi mutaxassislarini uchun oila mediasiyasi, mediativ kompetensiyalar tizimiga oid ilmiy-uslubiy va multimedia resurslar tayyorlash;
5. Oila institutini mustahkamlashga oid oilaviy mediasiya, oilashunoslik yo‘nalishlarida tadqiqotlar, ilmiy loyihalarni amalga oshirish;
6. Oilaviy mediasiya sohasida xorijiy tadqiqot muassasalari bilan ilmiy-texnikaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
7. Oilaviy nizolarni sudsiga hal qilishda mediasiya instituti joriy etilgan mamlakatlar ijobiy tajribasini o‘rganish va milliy amaliyotga implementatsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.21stcenturyskills.org.
2. Христофф Бессемер. Медиация. Посредничество в конфликтах. Калуга: Духовное познание, 2004. – С.179.
3. Судзуки В. Странная девочка, которая влюбилась в мозг (2-е изд.) – Москва: Alpina Publisher, 2017, – Р. 302.
4. Лиза Паркинсон. Семейная медиация. 2-е изд. – Москва: МЦУПК, 2016.
5. Roger Fisher, William Ury. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. 1981, 1988. Фишер Р., Юри У. Путь к согласию, или переговоры без поражения. – Перевод с английского: А. Горелова; Предисловие: В. А. Кременюк. – Москва, 1992. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. – 10.02.2012.
6. Хертель, Анита фон. Профессиональное разрешение конфликтов: Медиативная компетенция в Вашей жизни. – Санкт-Петербург: Издательство “Вернера Регена”, 2007. – С. 272.
7. Гарольд Абрамсон. Сопровождение сторон в процедуре медиации. –Москва: МЦУПК, 2013. – С. 560.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-куватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сон фармони. – Тошкент, 2020 й.
9. <https://www.findlaw.com/hirealawyer/choosing-the-right-lawyer/alternative-dispute-resolution.html>.

* * *

Aripova Gulnora Shuxratullayevna,
*Toshkent kimyo texnologiya instituti,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

**MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK TAFAKKURINI
SHAKLLANTIRISHDA OILA, TA’LIM TIZIMI VA MAHALLA HAMKORLIGI ASOSIDA
PEDAGOGIK MAQSADNI SHAKLLANTIRISHNING QIYOSIY XARAKTERISTIKASI**

Annotatsiya. Maqolada millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini shakllantirishda oila, ta’lim muassasalari va mahalla institutlarining o‘rni, ular o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning zaruriyati qiyosiy tahlil qilingan. Muallif millatlararo tinchlik va diniy tolerantlik asosida pedagogik maqsadni shakllantirishga e’tibor qaratgan.

Kalit so‘zlar: millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, oila-ta’lim-mahalla tizimi, ijtimoiy hamkorlik.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ роли семьи, образовательных учреждений и махалли в формировании представлений о межнациональном согласии, религиозной толерантности, необходимости социального сотрудничества между ними. Автор акцентирует внимание на формировании педагогической цели, основанной на межнациональном мире и религиозной толерантности.

Ключевые слова: межнациональное согласие, религиозная толерантность, система семья-образование-махалля, социальное сотрудничество.

Annotation. The article provides a comparative analysis of the role of the family, educational institutions and makhalla in the formation of the ideas of interethnic harmony, religious tolerance, the need for social cooperation between them. The author focuses on the formation of a pedagogical goal based on interethnic peace and religious tolerance.

Keywords: interethnic harmony, religious tolerance, family-education-mahalla, social cooperation.

Milliy markazlar bazasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tafakkurini shakllantirishda ta’lim va tarbiya jarayonining uzlusizligi, davomiyligi, maqsadli tashkil qilinishi, kompleksliliqi, fuqarolik ta’limining davlat ta’lim standartlari bilan muvofiqlashuvi, ularning barchisi fuqarolik jamiyatni institutlarining pedagogik faoliyatiga integratsiya qilinganligi, jamiyatda tolerantlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitining mavjudligi kabi omillarga aloqador tarzda rivojlanadi. Mazkur pedagogik shart-sharoitlarda belgilangan maqsadni amalga oshirishda, ta’lim jarayoni xususiyatlari va metodlarini nazarga olgan holda, ularning bir-birining mazmunini to‘ldirishini nazarga olish darkordir. Masalan, mazkur jarayonda fuqarolik jamiyatni institutlari, oila, ta’lim tizimi, mahalla integratsiyasini oladigan bo‘lsak, mahalla faoliyatiga tortilganlik orqali bola turli inqirozli vaziyatlar yechimini ko‘radi, mahalladagi tadbirlar orqali bolaning ilmiy bilimlari rang-barang hayotiy voqealar bilan boyitiladi, bola pedagogik mazmunning turli qirralarini turli hayotiy vaziyatlar asosida o‘rganish va qabul qilish, muhim o‘zi mustaqil xulosalar va qarorlar qilishga o‘rganadi. Bu vaziyatlarni quyidagi jadval orqali ham ko‘rsa bo‘ladi

**MILLIY MARKAZLAR BAZASIDA OILA, TA’LIM TIZIMI VA MAHALLA HAMKORLIGI
 ASOSIDA PEDAGOGIK MAQSADNI SHAKLLANTIRISHNING
 QIYOSIY XARAKTERISTIKASI**

№	TA’LIM VA TARBIYA INSTITUTI	MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK XUSUSIYATLARI	SHAXS AXLOQINI SHAKLLANTIRISH-DAGI ROLI
1	OILA	<p>jamiyat va din munosabatlari, tolerantlik, millatlararo totuvlik, din va e’tiqod borasidagi birlamchi ma’lumotlar yetkaziladi, bolaning ilk ijtimoiylashuvi amalga oshiriladi, uning qadriyatlari tizimi shakllantiriladi.</p> <p>O‘zbekistondagi diniy konfessiyalar, xususan oila e’tiqodi, shuningdek, gumanitar qadriyatlar, xususan, mehr va muruvvat,adolat, kechirimli bo‘lish, zo‘ravonlikdan ochish, samimiylik, ishonch, kattaga hurmat, kichikka izzat, qayg‘urish, yordamga tayyorlik, mehnatdan ochmaslik, qariyalarga yordam berish, rahmdilik, ko‘ngli ochiqlik, samimiylik, anglash va tushunishga harakat qilish ko‘nikmalar; boshqa odamning qarashi va nuqtayi nazarini eshitish va anglash, uni qabul qilishga urinish, konflikt vaziyatlarni tahlil qila bilish va ulardan chiqib ketish usullarini bilish, boshqa millat, elat va xalqlar madaniyati, urf-odati, kundalik turmushiga qiziqishni kuchaytirish, ular haqida ma’lumotlarni yig‘ish, faol shaxsiy nuqtayi nazarini shakllantirish, konfliktlar yechimiga o‘rganish, konfliktlarga yo‘l qo‘ymaslik, atrofidagi millat va elatlarga nisbatan hurmat, ularning betakror ekanligi, ular madaniyati va tarixiga hurmat bilan munosabat ko‘rsatish</p>	<p>yoshlarning o‘z mamlakati tarixi, madaniyati va qadriyatlarini bilishga chaqiradi va ta’minlaydi, ularning barcha insonlarga nisbatan ochiq nazar bilan qarashi va samimiyl muloqot olib borishini har tomonlama ta’minlaydi, yoshlarni muomala qilish ko‘nik-malari bilan qurollan-tiradi, yoshlarning boshqalar dardi va yordamga muhtojligini his qilishga o‘rgatadi, emotiv xarakter shakllanishiga ko‘mak beradi, muhtojlarga nisbatan rahmdil munosabatni shakllantiradi, yoshlarni kek saqlash, o‘zini katta tutish, kibr, adovatli munosabatlardan saqlaydi, boshqalar urf va odatlarini hur-matlashga o‘rgatadi, o‘zini tenglar ichida teng tutishiga ko‘mak beradi, bolani ziddiyatlardan asraydi, oilaviy va jamiyatdagi hayotni mo‘tadillashtiradi.</p>

“Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari”
mauzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanı materialları to’plami

2	TA’LIM TIZIMI	fobiya, ksenofobiya, ekstremizm, radikalizm, madaniy dialog, polimadaniyat, monomadaniyat, olam va dunyoning madaniy boyliklari, insoniyat tarixidagi sivilizatsiyalar, diniy e’tiqod rang-barangligi, milliy rang-baranglik, olamning tabiiy va ijtimoiy rang-barangligi, millatlar va madaniyatlar rang-barangligini qabul qilish, turli xildagi odamlar va madaniyatlar ichida yashashni o’rganish, o’zining huquq va majburiyatlariga qo’shimcha ravishda boshqalarning ham huquq va majburiyatlari borligini anglash, o’zga millat vakili bilan muloqot qila olish qibiliyatini shakllantirish, bolani murakkab tuzilishli dunyoda faol yashashga amaliy jihatdan o’rgatish.	<i>yoshlar axloqining shakllanishi uchun yaxshi-yomon oppozitsiyasining real hayotda amal qilish prinsiplarini namoyon etadi, ularning asosida ijtimoiy elitar darajaning oilaga berilishini ta’minlaydi, shunga ko’ra yoshlarda ijtimoiy faollikni kuchaytiradi, ijtimoiy hodisalarga to‘g’ri baho berishni ta’minlaydi, madaniy va tabiiy rang-baranglikni ilmiylik, tarixiylik va emotsional his qilishga o’rgatadi, boshqa millatlar bilan muloqot to‘g’ri qilishini ta’minlaydi, bolani ijtimoiy muhitga ko’nikishi va yashashini ta’minlaydi.</i>
3	MAHALLA	yoshlarning jamiyat hayotiga integratsiyasini ta’minlaydi, ularning jamiyat hayotida o’z o’rnini topishiga xizmat qiladi, ish topishiga yordamlashadi, oilaning moddiy ta’mintodagi kamchiliklarni davlat organlariga yetkazadi, shuningdek, diniy aqidaparastlik, mahalla ishi orqali jamoaning ijtimoiy ishlarga jaib etish va mas’uliyatini oshirish, masalan, COVID-19 masalasida tashkilotchilik ishlarini amalga oshiradi, diniy riyokorlik, ekstremizm, turli yot guruhi, turli g’oyaviy va mafkuraviy tahdidlar, mahalla orqali bolani ijtimoilikka o’rgatish, jamoa bo’lib yashash qadriyatlarini e’zozlash, mahalla tadbirlarida faol bo’lish, hasharlar, to’y hashamlarga borish ko’nikmalarini egallash, “ayrilganni ayiq yer” mazmunini anglab yetish v.b.	<i>yoshlarda ijtimoiy faollikni mustahkam-laydi, ular hayotining jamoa fikri bilan uyg‘unlashishini kuchaytiradi, o’zgalar manfaatlarini ko’rish va anglashga o’rgatadi, birgalik, jamoa va o’z shaxsiy manfaatlarini uyg‘unlashtirishga o’rgatadi, tinchlik va totuvlikning qadrini bilishni ta’minlaydi, hamjihatlikka o’rgatadi.</i>
4	MILLIY MARKAZLAR	yoshlarning o’z millati tarixi va madaniyatini bilishga undaydi va rag’batlantiradi, titul millat va malakatdagi boshqa millat o’rtasidagi munosabatlarning qonuniy va huquqiy jihatlarini o’rgatadi, yoshlarni qo’llab-quvvatlash va ta’minalash faoliyatini olib boradi, turli dinlar tarixi, e’tiqod ahamiyati borasidagi tasavvurlarning shakllanishida oilaga ko’mak beradi, O’zbekistonni o’z tug‘ilib, unib, o’sgan vatani sifatida idrok qilishi uchun asos yaratadi, O’zbekiston ko’p millatli davlat ekanligini to‘g’ri va huquqiy jihatdan adekvat anglay boshlaydi, o’zini konfliktlardan, agressiyadan, adovatlar va kamsilitishdan saqlashga o’rganadi, o’z shaxsiy va ijtimoiy ishlarida faol bo’lishga o’rganadi, ijtimoiy faollik va mutaxassislik orqali jamiyat ravnaqiga foyda keltira boshlaydi.	<i>millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik mohiyatini yanada chuqurroq va amaliy jihatdan aniq anglay boshlaydi, mazkur tushunchalarni o’z hayoti, millati, dini va taqdiriga bo’lgan ta’sirini qabul qiladi, jamiyatda o’z o’rnini munosib ravishda topishga harakat qiladi, o’zi va atrofidagi turli millat vakillarini umumiylilik, vatanga mansublik, takomil uchun xizmat qilish, rag’batlanish asosida mehnat qilishni boshlaydi, o’z hayotini tinchlik, osudalik asosida tashkil qiladi, shukronalik asosida yashay boshlaydi, jamiyatdagи tinchlik qadriga yetadi va uni qadrlay boshlaydi, atrofga va hayotga pozitiv munosabatni ko’rsatadi oladi.</i>

Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tafakkurini milliy markazlar yoshlarida shakllantirishda bir komponentli ta’lim va tarbiya tizimidan (stixiyali), ko‘p komponentli ta’lim tizimiga (ta’lim tizimi va nodavlat ta’lim tizimi o‘rtasidagi integratsiya, bilim, malaka va ko‘nikmalar integratsiyasi, turli davlat va nodavlat tashkilotlarining maqsadlar integratsiyasi va amallar muvofiqlashuvi, shaxs kompetensiyasi, inson kapitali ustuvorligi, pedagogik maqsad bilan uni samarali amalga oshirishning shakl, vosita va usullari o‘rtasidagi integratsiya) o‘tish darkorligi kuzatiladi.

Binobarin, aynan, mana shunday yuqorida ta’kidlangan barcha unsurlar xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan ko‘p komponentli ta’lim va tarbiya jarayoni millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tafakkuriga ega bo‘lgan shaxs shakllanishini ta’minlab beradi.

Tadqiqotda milliy totuvlik va diniy bag‘rikenglikning ilmiy-pedagogik ta’rifini ishlab chiqish muhimligi inobatga olindi. Unga ko‘ra, milliy totuvlik va diniy bag‘rikenglik inson ruhiy, ma’naviy va mafkuraviy tinchligini saqlash va muhofaza qilish shart sharoitlariga qo‘yiladigan huquqiy norma va axloqiy sifatlar majmualardan biri bo‘lib, u insonning yashash shart-sharoitlarini tinchlik, osudalik, birodarlik, hamkorlik asosida tashkil etishga qaratilgan amallar majmuyidir. U tarixiy xususiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar yig‘indisidan iborat. Uning mazmuni inson hayot xavfsizligini muhofaza qilish, uning yashash tinchligini asrash, uning hayotini va tinchligini ta’minalashga qaratilgan g‘oyalilar, qarashlar, tushunchalar, sa‘y-harakatlar, bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar va faoliyatga tayyorlik yig‘indisiga teng keladi.

Xulosalarga ko‘ra, milliy totuvlik va diniy bag‘rikenglik tafakkuriga egalik demokratik va fuqarolik jamiyatlari hayotida kundan kun ahamiyat kasb etib borayotgan eng muhim talablardan biriga aylanib bormoqda. Insonda milliy totuvlik va diniy bag‘rikenglik madaniyati bo‘lsagina, u ijtimoiy muhitda o‘zi va boshqalarning rang-barangligini tan ola oladi, va mana shu rang-barang olam bilan kelishgan holda va rang-baranglikni tan olgan holda ijtimoiy inqirozlarsiz yashashga o‘rganadi. Bugungi ijtimoiy talab, inson millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik posboni bo‘lishi shart. Jamiyat va o‘zining shaxsiy hayot manfaatlarini muhofaza qilish millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik posboni bo‘lgan insonlar qo‘lidadir.

Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tafakkurini shakllantirish bu – totuvlik va bag‘rikenglik borasidagi eng zamonaviy tushuncha, ong, tafakkur, qadriyatlar, axloq, fe’l-atvor va madaniyatni bugungi ustuvor yo‘nalish sifatida yoshlarda mutanosib shakllantirish uchun maqsadli pedagogik jarayonni tashkil qilishdir.

* * *

Ismoilova Xurshida Toxirovna,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
bo‘lim boshlig‘i, katta ilmiy xodim

MAHALLADA XALQ MILLIY O‘YINLARI QADRIYATLARIMIZ TIMSOLI

Annotatsiya. Maqolada mahallalarda milliy o‘yinlar vositasida ijtimoiy faollikni oshirishning ilmiy o‘rganish, faolligini oshirish va ular orasida milliy o‘yinlarni rivojlantirish mazmuni yoritiladi. Ushbu maqolada o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari, mobil telefonda o‘yinlar o‘ynashni viloyatlar kesimida tahlili, milliy o‘yinlarni rivojlantirishni targ‘ib qilish borasidagi muammolar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, milliy o‘yinlar, qadriyat, mobil telefonda o‘yinlar, faollik, tarbiya, ma’naviy muhit.

Аннотация. В статье освещается научное исследование повышения социальной активности посредством национальных игр в махаллях, повышения их активности и содержания развития национальных игр среди них. Описаны результаты исследования, проведенного в данной статье, анализ игр на мобильном телефоне в отдельных регионах, проблемы содействия развитию национальных игр.

Ключевые слова: махалля, национальные игры, ценность, мобильные игры, деятельность, воспитание, духовная среда.

Annotation. The article covers the scientific study of increasing social activity through National Games in makhallas, increasing their activity and the content of development of National Games among them. The results of the research conducted in this article, the analysis of playing games on mobile phone in parts of the regions, the problems of promoting the development of national games are described.

Keywords: makhalla, national games, value, games on mobile, activity, upbringing, spiritual environment.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi “Ahолining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 735-sonli qarorida qayd etilgan muhim vazifalarni amalga oshirish maqsadida mahallalarda milliy o‘yinlar vositasida ijtimoiy faollikni oshirish, mahalla bolalari orasida milliy qadriyatlarimiz, milliy o‘yinlar va shaxs ijtimoiylashuviga ushbu o‘yinlarning ta’siri, hududlarda milliy o‘yinlarning tashkil etilishi nazariy va amaliy shart-sharoitlarini aniqlash lozim. Asosiy e’tibor o‘zbek mahallalarida milliy o‘yinlar mazmuni va tashkil etish metodikasi samaradorligini tekshirish, aniqlash imkonini beradigan metodikalarni tatbiq etish. Mahallangizda milliy xalq o‘yinlari tashkil etiladimi? Milliy xalq o‘yinlari qaysi paytlarda o‘tkazilishi kerak deb hisoblaysiz? Mahallangizda milliy xalq o‘yinlari tashkil etish uchun sharoit mavjudmi? va boshqa shu kabi qator savolnomalar asosida o‘rganish.

Mahallalarda milliy o‘yinlar vositasida ijtimoiy faollikni oshirishning nazariy va amaliy masalalari, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish masalalari M.Abrorov, S.Bulatov, O.Bo‘riyev, I.Jabborov, T.Javliyev, M.Inomova, Y.Ovlyakuliye, N.Ortiqov, Q.Tohir, O.Usmonov, A.Madrahimov, I.Xayrullayev, M.Quronov, D.Ro‘ziyevalarning ishlarida xalq og‘zaki ijodi namunalari, milliy urf-odat, marosim va an‘analarning mohiyati, ularda ilgari surilgan g‘oyalar, milliy madaniyat asoslari hamda ularning shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rnii va roli ochib berilgan.

Mahallalarda milliy o‘yinlar bolalarning jismonan va ruhan sog‘lom etib tarbiyalash, mahalla bolalarida xalqimizga xos bag‘rikengilik, jamoaviylik, jipslik tamoyillarini qaror toptirishga ko‘maklashadi. Mahallalardagi milliy o‘yinlarni tashkil etish milliy qadriyatlar tarkibidagi xalqning eng sevimli ma’naviy tadbirlaridan biridir. Kurash, ko‘pkari (ulqoq), “Oq terakmi, ko‘k terak”, “G‘ozlar va oqqushlar”, “Kuchlilar va chaqqonlar”, “Arqon tortish”, “Quvplashmachoq” “Durra”, “Otib qochar”, “Uchtalik to‘ptosh”, “Xakkalakam sharti”, “Otambaqala-Qoqbosh”, “Ikki tosh”, “Yong‘oq urish”, “Beshtosh” kabi o‘yinlar vositasida shaxs ijtimoiy faolligi oshiriladi. Yurtimizda xalq milliy o‘yinlarini o‘rganish va ularni qayta tiklash bilan yoshlarning ma’naviy va jismoniy kamolotini tarbiyalashda ulardan maqsadli foydalanish amalga oshirib kelinmoqda.


Yoshlar orasida sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish ularning ijtimoiy faolligini oshirishda, eng avvalo, yoshlar orasida ma’naviy va jismoniy kamolotni qaror toptirish darkor.

Bu boradagi yetarlicha bilim va tajribaga ega, milliy o‘yinlar va sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi yoshlar jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, dunyoqarashi teran bo‘lib rivojlanadilar.

Lekin, bugungi yoshlar milliy o‘yinlar o‘ynaydими? Afsuski, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida ko‘proq mobil telefonda o‘yinlar o‘ynashni tanlaganlar.

Mobil telefonda o‘yinlar o‘ynayman														
	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarkand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent viloyati	Farg‘ona	Xorazm	Toshkent sh.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi
	%	%	%	%	%	%	%	%	%	%	%	%	%	%
hech qachon	17	25	42	33	8	36	33	36	25	41	50	17	34	33
deyarli hech qachon	8	17	25	11	42	46	17	14	25	25	20	17	8	50
ba’zan	33	58	33	56	50	9	42	36	42	17	30	58	42	17
yeterli darajada	25	0	0	0	0	9	8	14	0	17	0	8	8	0
tez-tez	17	0	0	0	0	0	0	0	8	0	0	0	8	0

Мобил телефонда ўйинлар ўйнайман




Yuqorida жадвалидан ко‘риниб turibdiki, boshqa viloyatlarga solishtirganda Toshkent shahri, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm, Jizzax viloyatlarida mobil telefondagи o‘yinlar o‘ynaydиган yoshlar soni ko‘pchilikni tashkil etishi aniqlandi. Bu kabi, mobil telefon va kompyuter o‘yinlari mahallada yashovchi yoshlarning tarbiyasini izdan chiqarayotgan holatlari ham bo‘ladiki, bu esa tajovuzkorlik kabi salbiy ta’sirlar bilan namoyon bo‘lmoqda. Bu kabi mobil telefon va kompyuter o‘yinlari o‘rniga milliy harakatli o‘yinlar o‘ynashsa, ularning bo‘sш vaqtлari mazmunli va sog‘lig‘iga ham foydali bo‘ladi. Bu borada milliy o‘yinlar oilada, mahallada kichik yoshdan boshlab jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiyaning muhim vositasi sifatida qaralib, keng targ‘ibot ishlarini, amalga oshirish lozim.

“Arg‘imchoq”, “Tortishmachoq”, “Oq terakmi ko‘k terak”, “Bekinmachoq” va shunga o‘xshash o‘yinlar yoshlikdan otalikka, onalikka, mehnatga, hayotga tayyorlov vositasidir.

Shunday ekan, yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalashda mahallalarda milliy xalq o‘yinlarini keng tatbiq etish orqali yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga erishiladi. Ularda mehr-oqibat, chidamlilik, zukkolik, chaqqonlik va shu kabi qator fazilatlar o‘yinlar orqali rivojlantirishga erishilishi qadimdan ma’lum. Asrlar osha avlod-ajdodlarimiz milliy o‘yinlarni o‘ynashgan va e’zozlashgan. Mahallada yoshi ulug‘ ota-onalar tajribasini yosh avlodga o‘rgatishning o‘zida ham tarbiyaviy jarayonga benihoya ta’sir etadi. “Ajdodlarimiz o‘z o‘yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Ba’zi hollarda esa o‘yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Ayrim hollarda o‘z o‘yinida oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi, keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi. Psixologlar o‘yinni bog‘cha yoshi davridagi yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O‘yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o‘tishini ta’minlovchi sifatlar shakllanishini, ruhiyatda sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lishini e’tirof etadilar”⁸⁷.

Mahallada, oilada bolalarning turli salbiy muhit ta’sirida qolmasligi uchun bo‘s sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish uchun xalq milliy o‘yinlarining turli usullarini faol tatbiq etish zarur.



Xalqimiz orasida, mahallalarda har bir faslga mos milliy o‘yinlar mavjud bo‘lib ular qadimdan o‘ynalib kelingan. O‘zbek milliy o‘yinlari hayotiyligi, har tomonidan puxta o‘ylab yaratilganligi uchun ham katta-yu kichik va hatto xotin-qizlar tomonidan sevib o‘ynalgan. Ota-bobolarimiz o‘z farzandlarini qiyinchiliklar oldida dovdiramaslik, o‘z-o‘zini tahlil qilishga, qo‘rmaslik ruhida tarbiyalab, uni yechishga o‘rgatganlar. Ko‘p yillar davomida yiqqan malakalariga tayanib, o‘z farzandlariga o‘yinlar orqali tarbiya bergenlar va shuningdek, aqliy o‘yinlardan foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatganlar.

Mehnatkash xalqimiz og‘ir mehnatdan keyin kishilar mahallada bir joyga to‘planib turli milliy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lganlar, madaniy hordiq chiqargan, dam olgan. Bu o‘yinlar orqali ular kayfiyatlarini ko‘targan, tetiklashib kuch to‘plib olgan. Fasllarga mos bo‘lgan o‘yinlarni butun-butun qishloqlar o‘ynab, o‘zlarini shod etishga harakat qilganlar. Bu o‘yinlar katta bayramlarga ularni, o‘yinlarning rivojlanishiga katta yo‘l ochib bergen.

Mahalla milliy o‘yinlarning keng rivojlantirish aholining sog‘lomlashtirish maskani bo‘lib, milliy o‘yinlar qadim-qadimdan milliy qadriyatlarni timsoli ularni rivojlantirishda aynan mahalla yoshlarining kundalik hayotida o‘z aksini topgan. To‘g‘ri, bugungi kunda mahallalar o‘rtasida milliy o‘yinlar turli sayllar, tadbirlar doirasida o‘tkazilib, musobaqalar tashkil etilmoqda. Mahalla yig‘inlarida targ‘ibot ishlari olib borilib,

⁸⁷ Сиддиков Б. Ҳаракатли ўйинларнинг варианtlари / “Алпомиши халқ ўйинлари ва миллий спорт турларини ривожлантириш муаммолари” мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – Фарғона, 2000. – Б. 84.

mahalla yoshlari milliy o‘yinlarni sevib o‘ynamoqda. Bu o‘yinlarning nomini, qoidalarini yaxshi bilmaslik holatlari ham mavjud. Bu uzoq yillik tarixga ega milliy o‘yinlar yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda asosiy vazifani o‘tagan. Milliy o‘yinlar yoshga ko‘ra, hududlarga ko‘ra farqlanib har bir hudud sharoitiga moslashgan bo‘lib, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga ko‘maklashib kelmoqda. Mahallada bunday milliy o‘yinlarni tashkil etish orqali oila va ijtimoiy muhitda shaxsni tarbiyalash o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, etnografiyasi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlari o‘rganishning manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mahallada yoshlikdan milliy o‘yinlarni tashkil etilishi shaxs rivojlanishiga bir necha yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ishtirok etayotgan yoshlar o‘z tengdosh va tengdoshlari jamoasi bilan, aynan, mahallada yig‘iladi. Yutuq va muammolarini o‘rtoqlashadi.

Tadqiqotlarimizda kuzatishimiz jarayonida, mahallada milliy o‘yinlarni o‘ynab ulg‘aygan o‘g‘il, qizlar va ko‘p qavatlari uylarda istiqomat qilib ko‘chada milliy o‘yinlarni o‘ynamagan o‘g‘il va qizlarning fe’l-atvorida, dunyoqarashida, ma’naviy-axloqiy qarashlarida sezilarli farq bor. “Mahallalarda milliy xalq o‘yinlariga oid musobaqalar, bellashuvlar o‘tkazilishi, ularda g‘olib bo‘lgan yoshlarni munosib rag‘batlantirish tadbirlari amalga oshirilishi lozim. Masalan, mahallada milliy kurash bo‘yicha musobaqa o‘tkazilsa va g‘olib o‘quvchilarga “yosh polvonlar” nomi berilsa, bu ularning kelajakda xalq orasida nomdor polvonlar bo‘lib yetishishida muhim omil bo‘ladi”⁸⁸.

Demak, yoshlar ijtimoiy hayotda ma’naviy va jismoniy sog‘lom bo‘lishga intilish va milliy o‘yinlar o‘rnini muhim ekanligini anglashi darkor. Qolaversa, mahallalarda milliy o‘yinlar vositasida ijtimoiy faollikni oshirishning ilmiy o‘rganish faolligini oshirish va ular orasida milliy o‘yinlarni rivojlantirish targ‘ib qilishga e’tiborni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Mahallalarda milliy o‘yinlardan foydalanish orqali yoshlarning hayotga bo‘lgan qiziqishlari ortadi, ijodkorlik, yaratishga nisbatan rag‘bat kuchaytirish maqsadida:

- mahallada milliy o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha dasturni yaratish;
- fuqorolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kurslari uchun multimedya materiallarini tayyorlashni targ‘ib qilish;
- fuqorolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kurslari uchun “Mahallalarda milliy o‘yinlar vositasida ijtimoiy faollikni oshirish” mavzusida uslubiy materiallar tayyorlash;
- turli hududlardagi mahallalarda milliy o‘yinlarni o‘tkazish va qiyosiy tahlil qilish, ijobiy tomonlariga urg‘u bergen holda milliy o‘yinlarni o‘tkazishni ommalashtirish. Hududlar bo‘yicha mahallalarda milliy o‘yinlar va uning shaxs ijtimoiylashuviga ta’sirini rivojlantirish.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сиддиқов Б. Ҳаракатли ўйинларнинг вариантлари / “Алпомишиш халқ ўйинлари ва миллий спорт турларини ривожлантириш муаммолари” мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – Фарғона, 2000. – Б. 84.
2. Абдуллаев А. Миллий халқ ўйинлари ва соғлом авлод тарбияси. Замонавий таълим илмий журнали. – Тошкент, 2017. 9-сон– Б-66.

* * *

⁸⁸ Абдуллаев А. Миллий халқ ўйинлари ва соғлом авлод тарбияси. Замонавий таълим илмий журнали. – Тошкент: 2017. 9-сон. – Б. 66.

Karabayeva M.U.,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi

O‘SPIRINLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA MAHALLA VA OILA HAMKORLIGI

Annotatsiya. Maqolada o‘spirlarning kasb tanlashida oilaviy muhit, mahalladagi mehnatga yo‘naltirish holati, mamlakatimizda yoshlarning ish bilan ta‘minlanishi sohasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy hamkorlik, uning ijtimoiy zaruriyati yoritib berilgan. Muallif kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual shaxs turishiga e’tibor qaratgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlar, kasb, kasb tanlash motivatsiyasi, kasb maorifi, kasbiy saralash.

Аннотация. В статье описывается семейная среда при выборе профессии подростками, состояние занятости в махалле, социальное сотрудничество в сфере занятости молодежи в нашей стране, ее социальная необходимость. Автор подчеркивает, что процесс выбора профессии имеет общественное значение, но за ним стоит физическая личность.

Ключевые слова: подростки, профессия, карьерная мотивация, профессиональное образование, выбор профессии.

Annotation. The article describes the family environment in the choice of profession of adolescents, the state of employment in the mahalla, the social cooperation in the field of youth employment in our country, it’s social necessity. The author emphasizes that the process of choosing a profession is of social significance, but behind it is a physical individual.

Keywords: adolescents, profession, career choice motivation, vocational education, career selection.

Hozirgi kunda juda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi dunyo xaritasida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan yangi O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanshing va sivilizatsiya bilan uzviy bog‘ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o‘z ustida ishlashi, o‘z mukammalligi xususida qayg‘urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarini huzuridagi texnikumlarni o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha turdosh oliy ta‘lim hamda tarmoq tashkilotlariga biriktirish, o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida 2021-2022-o‘quv yildidan boshlab oliy ta‘lim muassasalarini huzurida 24 ta texnikum tashkil etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi⁸⁹.

Bunday dolzarb masalani har tomonlama hal etishda yoshlarni kasbga yo‘naltirishning ahamiyati juda ham katta. Yoshlarni kasbga yo‘naltirish uchun yoshlar psixologiyasini bilish, o‘z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorgarlikni ta‘minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro‘y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to‘g‘ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari suradi.

Pedagogika va psixologiya fanlarida o‘quv va kasbiy faoliyatning motivlari tarkibi yetarlicha ishlab chiqilgan. Lekin o‘quvchilar va ishlayotgan yosh mutaxassislarining ijtimoiy-kasbiy yo‘naltirish bilan bog‘liq kasbiy motivatsiyaning mazmuniy tomonlari yetarlicha o‘rganilmagan.

⁸⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-avgustdagи “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalarini o‘rtasida ta‘lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5241-son qarori.

Adabiyotlar va tadqiqotlar natijalari quyidagi kasbiy-ahamiyatli sabablarni ajratib olish imkonini beradi:

- kasb va o‘quv muassasasini tanlash sabablari;
- o‘qish, o‘quv kasbiy faoliyat sabablari;
- ish joyini tanlash sabablari;
- mehnat (kasbiy faoliyat) sabablari;
- kasbiy o‘sish va martabasi oshish sabablari⁹⁰.

Texnikum o‘quvchilarining motivatsiyalash tizimini shakllanishi ko‘proq mакtabda shakllangan o‘qishga, bilimlarni egallashga bo‘lgan munosabatga, bo‘lajak, kasbga va kasbiy faoliyat vazifalari va mohiyatini tushunishga bo‘lgan munosabatga bog‘liq. Texnikumda o‘qish davomida kasb tanlash va “kasbiy motivatsiya”ning nutq shakllanishi o‘quvchilar ongida aks etgan aniq ijtimoiy-kasbiy yo‘nalish ta’sirida ham shartlanadi, ya’ni:

- jamoatchilik fikri bo‘yicha kasbning nufuzi;
- mazkur kasb bo‘yicha iste’molchilar uchun mehnat natijalarining (mahsulotlar, xizmatlar) ahamiyati;
- mehnat bozorida kasbga (nomutaxassislikka) bo‘lgan talab;
- katta maosh olish imkoniyati;
- kasbiy faoliyatning ijodiy xususiyati;
- mazkur kasbga bo‘lgan qiziqish va yaxshi mutaxassis bo‘lishga intilishi;
- kasbiy o‘sish, mehnatda martaba oshirish istiqbollari⁹¹.

Yoshlarni kasbga yo‘naltirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligidan kelib chiqqan Sharq mutafakkirlari (Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qashg‘ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar)ning qarashlari alohida ahamiyatga ega.

N.P.Krilov tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, o‘z niyatlarini amalga oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalariga kirgan talabalarning ko‘pchiligi o‘zining kim bo‘lishini oxirigacha hal qila olmaydi. Bunga sabab mакtabni bitirgan o‘smirlarni mazkur oliy ta’lim muassasasiga olib kirgan kasb haqidagi tasavvurlari bilan bu kasbning haqiqiy mazmuni o‘rtasidagi muammo nomuvofiqlik hisoblanadi⁹².

Tabiiyki, bugungi yoshlarning ko‘pchiligidagi o‘zlarining kasbiy taqdirlarini tasodifan hal etishlari ma’lum ma’noda murakkab kechinmalarga, tanlagan kasb sohasi yuzasidan ikkilanishlarga, ichki nizolarga olib kelmoqda. Jumladan, A.N.Leontyev talqinidagi shaxs, faoliyat, ong va ijtimoiy faoliyot o‘rtasidagi psixologik mutanosiblikning mavjudligi shaxs munosabatlari tizimining pedagogik-psixologik mexanizmlarini yaratilishida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. V.D.Shadrikov esa, munosabat motivatsiyasi jarayonini faoliyat tizimining funksional psixologik modeliga bog‘lagan holda faoliyatli yondashuv motivatsiyasi kasbiy tayyorlarlikning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik istiqbollarini ochib berishini ta’kidlaydi⁹³.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Holbuki shunday ekan, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatiga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish darkor. Aks holda umumiyl xususiyatlari yo‘llanma, ko‘rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o‘ziga xos talablarni taqozo etadi. Hatto, oddiy kasb maorifi turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin, uni qondirmsandan turib tub maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Kasb maorifi o‘quvchilarini kasbning mohiyatini bilan, har bir kasbning shaxs oldiga qo‘yadigan talablari bilan tanishtirishdan iborat ta’sirchan axborotlar majmuasidir. Ma’lumotlarning aniqligi, to‘liqligi, xususiy va ijtimoiy ahamiyati ifodalanganligi bilan boshqa tarkiblardan ajralib turadi.

Kasb maorifi insonning yoshi, jinsi, saviyasiga ko‘ra xilma-xil tarzda amalga oshiriladi, shakllari esa verbal va noverbal, kuzatuv va tanishuv, ko‘rgazmali va grafik, uchrashuv kabi tadbiquqlarga ega.

Kasbiy maslahat yo‘llashning mohiyatini inson ongiga chuqurroq singdirish uchun, shaxning ishtiyoqi va qobiliyatlariga mos kasb-hunar (ixtisos) tanlashi uchun muhim obyektiv va subyektiv shart-sharoit yaratish

⁹⁰ Карапашев В.Н. Психология введеия в профессию. 2-е изд. – Москва: Смысл, 2003. – С. 22.

⁹¹ Jumayev U.S. O‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. – Buxoro, 2002. – B. 98-99.

⁹² Климов Е.А. Как выбирать профессию. – Москва: “Просвещение”, 1990. – С. 37.

⁹³ Климов Е.А. Как выбирать профессию. – Москва: “Просвещение”, 1990. – С. 46.

jarayonidir. Kasb egallovchi (tanlovchi) ehtiyoji, o‘qituvchi (murabbiy)ning kasbiy mas’uliyatidan kelib chiqqan holda ilmiy-amaliy xususiyati yo‘llanmalar berish jarayonidir.

Maslahat o‘zining maqsadga yo‘llanganligi, izchilligi, obyektivligi, axborotlar bilan to‘yinganligi bilan boshqa asosiy qismlardan keskin ajralib turadi.

Kasbiy saralash – muayyan kasbni muvaffaqiyatli ravishda egallab, o‘z oldiga qo‘ygan fuqarolik (xususiy) burchini yuqori savyada ado eta biladigan shaxslarni ajrata olishdan iborat jarayondir⁹⁴.

Kasbiy bilimlar, shakllangan ma’lum ko‘nikmalar, malakalarga asoslangan holda tekshirish mezonlariga suyanib omilkorlik bilan oqilona saralash o‘tkaziladi.

Saralash jarayoni o‘tkazilgandan keyin kasbiy moslashish davri boshlanadi. Odatda kasbiy moslashish deganda, yosh kasb egalarining mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga, uning shart-sharoitlariga, talablariga muvaffaqiyatli ravishda moslashish (bir necha bosqichlardan iborat) jarayoni tushuniladi.

Kasb mohiyatiga kirishish, bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar bilan tanishish, ularni egallah uchun oqilona usullar tanlash, ulardan amaliyotda unumli foydalanish, shart-sharoitlarga odatlanish, mahorat qirralarini o‘zlashtirish kabi muhim qismlar moslashish tarkiblarini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-avgustdagи “Oliy, o‘rtा maxsus va professional ta’lim muassasalari o‘rtasida ta’lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyilagini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5241-son qarori.
2. Карандашев В.Н. Психология введения в профессию. 2-е изд. –Москва: Смысл, 2003. – С. 22.
3. Jumayev U.S. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. – Buxoro, 2002. – Б. 98-99.
4. Клинов Е.А. Как выбирать профессию. – Москва: “Просвещение”, 1990. – С. 46.

* * *

Abirova Umida Nazarovna,
*Nizomiy nomli TDPU o‘qituvchisi,
Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat
markazi tadqiqotchisi*

YANGI O‘ZBEKISTONDA OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASALARI IJTIMOIY-PEDAGOGIK HAMKORLIGINING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va kollej ijtimoiy hamkorligini takomillashtirish yo‘llari va tavsiyalari berilgan hamda hamkorlikning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, tarbiya, oila, mahalla, ijtimoiy, ma’naviyat, ma’rifat, hamkorlik.

Аннотация. В статье представлены пути и рекомендации по совершенствованию социального партнерства семьи, общины и вуза в обучении молодежи Нового Узбекистана, а также степень изученности данного сотрудничества.

Ключевые слова: образование, воспитание, семья, сообщество, социальное, духовное, просвещение, сотрудничество.

Annotation. The article provides ways and recommendations for improving the social partnership of the family, community and college in educating young people in New Uzbekistan, as well as level of studiedness of the cooperation.

Keywords: education, upbringing, family, community, social, spirituality, enlightenment, cooperation.

⁹⁴ Sunnatova R.I., Parpiev U. Kasbga yo‘naltirish maslahatlari: metodlar, muammolar, imkoniyatlar. – Toshkent: “Fan”, 2001. – B. 88.

Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda ulkan islohatlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan islohatlarning bosh omili inson, inson manfaatlari uchun hisoblanadi. Shu jumladan, ta’lim-tarbiya sohasida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Shu bois dunyo mamlakatlari tomonidan Yangi O‘zbekistonda yoshlarning aqliy, ma’naviy-ma’rifiy va jismoniy kamoloti taraqqiyoti, ularning zamon talabalariga mos bilim olishlari, kasb-hunar egallashlari, iqtidori va qobiliyatlarini namoyon qilishi va yanada rivojlantirishi uchun yaratilgan imkoniyatlar e’tirof etilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning zamonaviy davlatchiligidan taraqqiyparvar o‘zgarishlar yaratayotgan Oliy Majlisga Murojaatnomalarida ilgari surilgan innovatsion g‘oyalalar mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yoshlarni hamkorlikda milliy va zamonaviy ruhda tarbiyalab ularga innovatsion g‘oyalarni singdirish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

Yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunni yangi tahrirda qabul qilindi. Shu asnoda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda.

Tadqiqotimiz obyekti xususiyatlaridan kelib chiqib, oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy-pedagogik hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samaradorligini oshirish jarayoni va bu jarayonning mazmuni, shakli va uslublari ilmiy tadqiqotlarda qay darajada aks etgani muhim ahamiyatga ega. Shu bois tadqiq qilinayotgan muammoni asoslash va uning ilmiy yechimini topish maqsadida ta’lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning pedagogik xususiyatlarini, jihatlarini ajratib olib tahlil qildik. Avvalo, tahlil qilishni bu yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, adapiyotlar, ularning bajarilishi va amalga oshirilishidan kelib chiqqan holda tadqiq etdik.

Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida olib borilmoqda. Jumladan, “Oila, gender, demografiya” ilmiy-pedagogik markaz (Rossiya), “Bo‘lg‘usi onalar maktabi” (Yaponiya), “Oila va muktab” Yapon markazi “Xokkaydo”, oilaviy muammolar, oila, muktab va jamoatchilik faoliyatini tadqiq etuvchi ko‘p tarmoqli ijtimoiy “Oila” markazi (Astraxan), yoshlarni oilada, jamiyatda zamon talabiga muvofiq tarbiyalashga qaratilgan “yoshlarga ahamiyat”, “yoshlarni ishi”, “yoshlarni xizmatlari” kabi harakat rejalarini va tizimli ilmiy loyihamish ishlab chiqilgan (German Institute for International and Security Affairs, German Council on Foreign Relations). Yoshlarga o‘z hayotini yaxshilash va vatan ravnaqiga o‘zining hissasini qo‘sishga undaydigan yoshlarni tashkilotlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan umummilliy konsepsiysi ishlab chiqilgan (Centre of scientific investigation of Central Asia, Institute for the study of Religion). Ta’lim muassasalarida yoshlarni bilan ishlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, vatanparvarlikni targ‘ib etuvchi loyihamish pedagog, jamoatchilik birlashmalari va davlat tashkilotlari vakillari, ta’lim muassasalari va qo‘sishma ta’lim markazlari xodimlari, ota-onalar, faol yosh volonterlarni jalb etgan holda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilgan, oila institutini ijtimoiy-sotsiologik jihatdan tadqiq etuvchi, yoshlarni oilaga tayyorlovchi, yoshlarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantiruvchi, oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish choratadbirlarini amalga oshirayotgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (O‘zbekiston), Mahalla va oilani rivojlantirish vazirligi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi (O‘zbekiston) faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasi oila, mahalla va ta’lim muassasasining ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hamkorligining bosh, ustuvor masalasi hisoblanadi. Buning uchun oila, mahalla va ta’lim muassasasi ijtimoiy hamkorligini ma’naviy-ma’rifiy faoliyat misolida takomillashtirishni yoritish, tahlil qilish jarayonida, “ma’naviy-ma’rifiy” tushunchasini yoritish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizning dunyodagi o‘rnini, darajasini belgilovchi omillardan biri bu ma’naviyatdir. Bu o‘zbek davlatining uch ming yillik tarixidagi rivojlanish jarayonida tasdiqlangan va shu boisdan milliy mustaqillikning dastlabki yillardanoq ma’naviy qadriyatlar masalasi, ularni asrash, tiklash va kelajak avlodga yetkazish eng dolzarb masalaga aylandi.

Shu maqsadda oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy hamkorligida olib boriluvchi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni negizini to‘la yoritish uchun “ma’naviyat” va “ma’rifat” tushunchalaring lug‘aviy ma’nolarini

tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Ma’naviyat arabcha so‘z bo‘lib “ma’nolar majmuyi” – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari yig‘indisini bildiradi. Butun insoniyat o‘zining ming yillik tarixiy taraqqiyotida hayotiy tajriba to‘plab, uni o‘rab turgan tabiat, borliq bilan hamkorlik qilib, tabiat hodisalari, hayat, Vatan, millat va xalq oldidagi burchlari va shaxsni shaxs bo‘lib shakllanishidagi barcha ma’lumotlarni, faoliyatni o‘zidan keyingi avlodga o‘rgatib kelgan. Shu jumladan o‘zbek xalqi ham o‘ziga xos bilimlar majmuyini asrlar davomida to‘plab keldi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi holatlar mavjudligi kuzatildi. Ayrim talim muassasalarida.

– talim muassasalarida ota-onalar yig‘ilishlari rejasi ishlab chiqilib pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanmagan. Ota-onalar yig‘ilishlari rejasi asosida tashkil etilmaydi.


– ta’lim muassasalarida yarim yillik semestr yakunlaridagi tashkil qilinadigan ota-onalar yig‘ilishlariga guruhdagi o‘ttiz nafar o‘quvchilardan 15-20 nafarining ota-onalar kelishadi. Ular ham a’lochi, yaxshi o‘qiydigan, tarbiyalii o‘quvchilarning ota-onalari. O‘zlashtirishlari past, tarbiyasi muammoli, nosog‘lom oila farzand oilalardagi ota-onalar yig‘ilishlariga kelishmaydi.

O‘rganilgan 1573 ta oilani o‘rganish ota-onalar tomonidan farzand tarbiyasida nazorat ostiga olinishi zarur bo‘lgan jahbalar holatini baholash imkoniyatini berdi. Hududlar kesimidagi statistik tahlil ota-onalarning o‘smlar bolalarining dars tayyorlashini nazorat qilishlarini asosiy vazifa deb bilishlarini ko‘rsatdi (1-jadval). Ayni vaqtida farzandlarining kimlar bilan do’st ekanliklari, bo‘sh vaqtlarini qanday o‘tkazishlari va kitobxonlikka qiziqishlariga e’tibor yetarli emasligini ko‘rsatdi.

I-jadval

Ota-onalar tomonidan farzand tarbiyasida nazorat ostiga olinishi zarur bo‘lgan jahbalar.

ОТА-ОНАЛАР ТОМОНИДАН ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА НАЗОРАТ ОСТИГА ОЛАДИГАН ЖАБҲАЛАРИ



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Besh muhim tashabbus doirasidagi ishlarning to‘rtinchisi yo‘nalishi bevosita yoshlarda kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan. Bu talab, o‘z o‘rnida, barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalariga bir necha talab va vazifalarni yuklaydi. Biroq ushbu yo‘nalishning ilmiy-pedagogik ta’minlanmaganligi tufayli bu boroda muayyan kamchiliklar kuzatildi. Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov tomonidan ishlab chiqilgan, o‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari, ko‘rsatkichlari, darajalari va fazilatlarini o‘lchashning uch komponentli o‘lcham sistemasi alohida ahamiyatga ega. Zero, O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy

g‘ururlik, millatlararo muloqot madaniyati, vijdonyilik, milliy odob va milliy mafkuraviy onglilikni uyg‘un shakllantirishda ilmiy va xalq pedagogikasining amaliy birligidan kelib chiqib yondashish, rivojlanayotgan shaxsning milliy tuyg‘usiga bevosita va bilvosita bog‘lanuvchi fazilatlar hisoblanadi.

Oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy hamkorligini takomillashtirishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, hamda bu borada xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan ilmiy markazlar faoliyatini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy hamkorligini takomillashtirishda ishchi reja tuzish, rejani uzviylik va izchillik asosida ijroga yo‘naltirish samarali natijadorlikni ta’minkaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. // 2017 йил 23 декабрь, № 258 (6952) 5-бет.
2. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп лугат. – Тошкент, “Шарқ”, 1998. – Б. 320. – Б115.
3. Қ.Қ.Куранбаев. Таалabalарнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари. – Тошкент, 2000. – Б. 4.
4. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2008. – Б. 11-12.
5. Куронов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: пед. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 1998. – Б. 363.
6. Убайдуллаева Р., Ата-Мирзаев О., Куронов М. Оила ва баркамол авлод тарбияси. – Тошкент: “Ижтимоий фикр”, 2012. – Б. 114-115.

* * *

Alimova Nargiza Rustam qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

YANGI O‘ZBEKISTONDA OILALARNI KITOBOXONLIK MADANIYATIGA TARG‘IB QILISHDA IJTIMOIY HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada kitobxonlik madaniyatining oilaviy qadriyat darajasiga chiqarish zaruriyati, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda kitobxonlikni targ‘ib etishda yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar, kitobxonlik targ‘ibotida ijtimoiy hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, kitob, kitobxonlik madaniyati, oilaviy kitobxonlik, “Yosh kitobxon oila” Respublika tanlovi.

Аннотация. В статье подчеркивается необходимость поднятия культуры чтения до уровня семейных ценностей. Освещены работы, проводимые в Республике Узбекистан в последние годы по популяризации чтения, налаживание социального партнерства в агитации культуры чтения.

Ключевые слова: семья, книга, культура чтения, семейное чтение, Республиканский конкурс «Юная семья читателей».

Annotation. The article highlights the need for the raise the culture of reading to the level of family values, the work being done in the Republic of Uzbekistan in recent ears to promote reading, the establishment of social partnership in the promotion of culture of reading.

Keywords: family, book, reading culture, family reading, Republican competition “Young reader family”.

Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do‘stlardir.
Viktor Gyugo

Kitob – insoniyatning eng yaqin do‘sti, ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim sharti, kishilik jamiyatida yaratilgan eng buyuk kashfiyot hisoblanadi. Azaldan kitoblarning har bir inson ma’naviy kamolotidagi o‘rnini beqiyos bo‘lib kelgan. Ayniqsa, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari to‘xtovsiz ravishda jadallahib

borayotgan bugungi globallashuv davrida insonlar o‘z hayotlarini to‘g‘ri yo‘lga solishlari uchun kitobga bo‘lgan ehtiyojlari yanada ortdi. Bu esa dunyoning barcha mintaqalarida kitobxonlik madaniyatining keng yoyilishiga olib keldi. NOP World xalqaro tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 2015-yilda dunyodagi eng ko‘p vaqtini kitob o‘qishga sarflaydigan millat – hindlar bo‘lib, taylor, xitoyliklar, filippinliklar, ruslar, shvedlar, fransuzlar ham dunyoning eng kitobsevar millatlari qatorida e’tirof etilgan. 2016-yilda esa kuchli uchlikdan eng kitobsevar millatlar sifatida xitoylik, rossiyalik va ispaniyaliklar o‘rin egallashgan (“GfK” xalqaro tadqiqot instituti o‘tkazgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra). Kitobga bo‘lgan mehr bugungi kunda jamiyatning rivojini belgilab beradi. Ushbu millatlarning moddiy va ma’naviy saviyasi ortishi, barqaror rivojlanishiga kitobxonlikning jamiyatda keng targ‘ib etilishi ham ta’sir ko‘rsatadi, albatta. Xo‘s, O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyati bilan bog‘liq vaziyat qanday? Yoshlarning kitob o‘qishini targ‘ib etish maqsadida bugun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda jamiyatda kitobxonlik madaniyatini keng targ‘ib etish, yoshlarni, xususan, yosh oilalarini kitobga mehr qo‘yishlarini ta’minalash, jamiyatda ziyyolilarning sonini oshirishga yo‘naltirilgan ko‘plab amaliy ishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 19-oktabrda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi saylovoldi ma’ruzasida kitobxonlik madaniyatini yoyishga, kitob, adabiyot mutolaasini targ‘ib qilishga nisbatan aytgan quyidagi fikrlari ushbu ezgu ishlarning debochasi bo‘lib xizmat qildi: “Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do’st bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Ushbu fikrlarning izchil davomi sifatida 2017-yil 13-sentabrda “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli, 2018-yil 12-mayda “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlарini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3721-sonli Prezident qarorlari, 2020-yil 14-dekabrda Vazirlar Mahkamasining “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-ton qarori qabul qilindi, kitobxonlik madaniyatini keng targ‘ib qilish uchun huquqiy-me’yoriy asoslar yaratildi. 2019-yil 19-martda yoshlarni bo‘sh vaqtlanri samarali sarflashlariga bag‘ishlangan videoselektorda davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, ularning to‘rtinchisi yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirildi. “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila”, “Duel” kabi Respublika tanlovlар tashkil etildi.

Umuman olib qaraganda, jamiyatda kitobxonlikni yoyish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning eng asosiy kutilayotgan natijasi – bu yoshlarda kitobga nisbatan mehr uyg‘otish, mutolaani sevimli mashg‘ulotga aylantirish hisoblanadi. O‘z navbatida yoshlarning kitobga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishda ularning oilalari ham katta ta’sir kuchiga ega. Davlatimizning kitobxonlik madaniyatini targ‘ib etish bilan bog‘liq faoliyati, asosan, oila-mahalla nodavlat-notijorat tashkilotlari hamkorligiga asoslangan tizim orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Bunday hamkorlikni joriy yilda ilk bor o‘tkazilayotgan “Yosh kitobxon oila” tanloving tashkil etish va o‘tkazishda ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu tanlov yosh oilalarini kitob o‘qishga chorlash hamda kelajakda ziyoli oilalar sonini ko‘paytirish va yosh oilalarning intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, joylarda adabiy muhit shakllanishiga erishish, yoshlar ongida Vatanimiz tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim-ko‘nikmalarini yanada yuksaltirish maqsadida tashkil etilib, ushbu tanlovnı tashkil etishda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi kabi davlat tashkilotlari hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi kabi nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorlikda faoliyat olib bordi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – tanlov ishtirokchilarining ko‘lamini oshirish, yoshlarni kitob o‘qishga chorlash, kitobxonlik, ziyolilikni eng keng tarqalgan fazilatlar darajasiga ko‘tarish bo‘ldi. Tanlov uchun tanlab olingan asarlar orasida yosh oilaning ma’naviy, axloqiy muhitini

barkamolligiga xizmat qiladigan “Baxtiyor oila” (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf), “O’tkan kunlar” (Abdulla Qodiriy), “Oila” (Abdurauf Fitrat), “Kelinlar daftariga” (Tohir Malik) kabi nodir asarlar ham bo‘lib, bu tanlovning saviyasini yanada oshishiga hissa qo‘shti.

Umuman olganda, yosh oilalarning kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar uzoq yillik strategik faoliyat bo‘lib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi” qabul qilinishi buni yana bir karra ko‘rsatib beradi. Mazkur dastur kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ijodkorlar, noshirlar va kitob tarqatuvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini izchil va samarali tashkil etish orqali faol kitobxonlar safini kengaytirish, aholi, ayniqsa, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida qabul qilingan. Umuman olganda, dastur oilaviy kitob o‘qish an’anasini joriy etishga yo‘naltirilgan. Dastur 3 bosqichda amalga oshirilib, 2025-yilga borib aholi, ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlangan davlatlar bilan taqqoslanadigan darajaga ko‘tarish hamda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirishga, ularning madaniy savodxonligi o’sishi orqali inson kapitali sifatini yaxshilashga erishish maqsad qilingan.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, so‘nggi yillarda yurtimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish, yoshlarni kitob o‘qishga rag‘batlantirish, jamiyatning savodxonligi, ziyolilagini oshirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, oilalarni kitobxonlik madaniyatiga targ‘ib qilishda davlat va nodavlat tashkilotlarining, mahalla fuqarolar yig‘inlari, yoshlar tashkilotlarining hamkorlikdagi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu yo‘nalishdagi faoliyatda yosh oilalarning ham kitobga bo‘lgan mehrini oshirishga, bolalar va xotin-qizlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga moslashgan tizimli ishlar amalga oshirilib, bu orqali jamiyatning ma’naviy saviyasini oshirishga harakat qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. Тадбиркорлар ва ишбилиармонлар харакати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг VIII съездидаги сайловолди маъruzasi// XXI acr, 2016, 20 октябр.
2. “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва kitobxonlik madaniyatini oshiriш ҳамда targ‘ib kiliш бўйича комплекс чора-тадбирлар dasturi tўғrisida”ги ПҚ-3271-сонли Президент қарори. 2017 йил 13 сентябр. (<https://lex.uz/docs/3338600>)
3. “Буюк алломалар, адаб ва mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng ўргaniш ва targ‘ib kiliш makсадida ёшlar ўrtasida kitobxonlik tanzovlariни tashkil этиш tўғrisida”ги ПҚ-3721-сонли Президент қарори. 2018 йил 12 май. (<https://lex.uz/docs/4887792>)
4. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 декабрда “2020-2025 йилларда kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ва қўllab-quvvatlash milliy dasturiini tasdiqlash tўғrisida”ги 781-сон қарори. КҲММБ: 09/20/781/1619-сон. 14.12.2020 й.
5. <https://animedia-company.cz/experts-have-identified-the-most-reading-country-in-the-world/>
6. <https://t.me/yoshlaragentligi/1464>



Jumanova G.I.,
ToshPMI Falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi

Sherboyev S.P.,
ToshPMI talabasi

OZOD VA OBOD VATANDA YANGICHA DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jamiyatni rivojlantirishda muhim omil odamlarning yangicha dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish, ya’ni ularni “tafakkur qulligi”dan ozod qilish masalasi falsafiy tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Falsafiy dunyoqarash, milliy manfaat, milliy yuksalish, ma’naviy kuch, global makon, axborotlar ummoni, falsafiy tafakkur.*

Аннотация. В этой статье дается философский анализ формирования и развития нового мировоззрения людей и развития общества, то есть освобождения их от «рабства мысли».

Ключевые слова: философское мировоззрение, национальный интерес, национальное возрождение, духовная сила, глобальное пространство, океан информации, философское мышление.

Annotation. This article provides a philosophical analysis of the formation and development of a new worldview of people and the development of society, that is, freeing them from the “slavery of thought.”

Keywords: Philosophical worldview, national interest, National Renaissance, spiritual power, global space, the ocean of information, philosophical thinking.

XXI asrga kelib jahon xalqlarining hayotida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”, “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”, “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”⁹⁵ nomli nutq va ma’ruzalar to‘plamidan iborat bo‘lgan kitoblarida yangi sharoitda islohotlarni izchillik bilan amalga oshirishning tarixiy zarurat ekanligi, uni amalga oshirishning yangicha shakl, usul va vositalari ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan.

Mustaqillik uchun ochiq yoki pinhona davom etgan kurashlardan so‘ng o‘zining haqiqiy mustaqilligiga erishgan o‘zbek xalqi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish orqali ozod va obod Vatanda, erkin va farovon hayot kechirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu maqsadga erishish uchun odamlarning yangicha dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish, ya’ni ularni “tafakkur qulligi”dan ozod qilish masalasi eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Bunga sabab O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi I.A.Karimov aytganidek: “tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa inson to‘la ozod bo‘lolmaydi”⁹⁶.

O‘zbekiston xalqi mustaqillikning o‘tgan “Milliy tiklanish” (1991-2016-yillar) davrida mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy mustaqilligini ta’minalash borasida ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Odamlar ongida, eski sovet mafkurasidan qutilib, yangicha o‘zbekona milliy falsafiy dunyoqarashning shakllanishiga zamin yaratildi. Zero, shunday ekan, o‘zbek xalqining milliy manfaatlarni o‘zida ifodalovchi yangicha milliy falsafiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish masalasi zaruriyat darajasiga ko‘tarildi. Mustaqillikning “Milliy yuksalish” davriga kelib esa O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “...bugun xalqimizning tafakkuri ham, dunyoqarashi ham, talab va ehtiyojlari ham butunlay o‘zgardi. Odamlarimiz hamma narsaga ziyrak va teran nazar bilan qaramoqda”⁹⁷. Bu degan so‘z jamiyat o‘zgarishi

⁹⁵ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.; Миллый тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.1-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.; Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018.

⁹⁶ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари//Унинг ўз. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Тошкент: Ўзбекистон, 1966. – Б. 34.

⁹⁷ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси; Мирзиёев Ш.М. “Миллний тикланишдан – миллний юксалиши сарі”. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2020. – Б. 9.

bilan odamlarning falsafiy dunyoqarashi ham o‘zgaradi. Bu o‘zgarish dialektik, ba’zida esa sinergetik shaklda yuz beradi.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish” davriga o‘tish davrida barcha aholi qatlmlarining, xususan, mamlakat aholisining 60% ini tashkil qiluvchi yoshlarning falsafiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, to‘g‘ri shakllangan va yo‘naltirilgan falsafiy dunyoqarash barcha ezgu-niyatlarni amalga oshiruvchi ma’naviy kuch, ya’ni inson tanasining ruhiy quvvati sifatida maydonga chiqadi. O‘zbekona yangicha milliy falsafiy dunyoqarashni shakllantirishning mantiqiy mag‘zini Sh.M.Mirziyoyevning: “Ruh siz tana o‘lik kabi bo‘lganidek, milliy ruhsiz tarix ham, voqelik ham ma’lumotlar va axborotlar yig‘indisidan iborat bo‘lib qoladi. Inson qalbida milliy g‘urur tuyg‘usi, o‘z xalqi va Vataniga mehr hissi uyg‘onmasa, har qanday noyob ma’lumot ham uning qalbiga chuqur kirib bormaydi. Biz bunga aslo yo‘l qo‘ymasligimiz lozim.

Bugungi global makonda, qarama-qarshiliklar inson, ayniqsa, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun kurash nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o‘rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas. Siz bilan biz yashayotgan zamonning achchiq haqiqati shundan iboratki, katta hayot ostonasiga qadam qo‘yayotgan yoshlarni agar sog‘lom kuchlar to‘g‘ri yo‘lga boshlamasa, g‘arazli niyatlar bilan yurgan buzg‘unchi kuchlar o‘z ortidan ergashtirib ketadi. Dunyodagi raqobatga bardoshli, jahon maydonida o‘z o‘rnimga ega bo‘laman, degan har bir xalq shu masalalar haqida jiddiy o‘ylaydi, bu borada amaliy choralarни ko‘radi. Zarur choralarни ko‘rmasa, hech shubhasiz, xalq va millat sifatida o‘zligini boy beradi”⁹⁸, – degan fikrlari tashkil qiladi. Shuning uchun ham odamlar, ayniqsa, yoshlarning falsafiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish hech qachon o‘zining dolzarbigini yo‘qotmaydigan masalalar qatoriga kiradi. “Falsafiy dunyoqarash – bu olam va odam munosabatlaridagi tabiat, jamiyat va insonning eng umumiyligi o‘zaro bog‘lanish, aloqadorlik va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish asosida kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta’sirida shakllanadigan va rivojlanadigan bir butun olam haqidagi ilmiy, tarixiy, mantiqiy, universal, maqsadli, g‘oyaviy, nazariy bilim va *amaliy xatti-harakatlarning yaxlit tizimidir*”. Jamiyat taraqqiyoti va falsafaning rivojlanish dialektikasi ana shu xususiyatlarga asoslanib, o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. *Bir tomonidan*, jamiyatning o‘zgarib borish tamoyili falsafiy g‘oya, nazariya va ta’limotlar o‘zgarishini taqozo qiladi. *Ikkinchi tomonidan*, o‘zgarayotgan falsafa jamiyat moddiy-ma’naviy hayot tarzini ilg‘ab olib, uning istiqbollarini belgilash, mafkurasini shakllantirishda nazariy, uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Falsafiy tafakkur ma’naviy taraqqiyot mahsulidir.

Tafakkur orqali inson faqat bugungi kunni emas, o‘tmishni ham, kelajakni ham biladi, farazlaydi, umumlashtiradi va tushunchalarda ifodalaydi. Inson tafakkuri orqali voqeа-hodisalar orasidagi o‘zaro aloqadorlik, qonuniyatlarini ochadi, taqqoslaydi, tahlil qiladi. Ingлиз faylasufi R.Dekart “Men fikr qilayapman, demak men mavjudman” degan so‘ziga binoan mulohaza qiladigan bo‘lsak, fikr qilishlik insonni tirikligidan, intiluvchanligidan va ogohliligidan dalolatdir. Ming afsuski biz yashayotgan kishilik jamiyatida har doim fikri qaram mantiqsiz mulohaza yuritadigan insonlar mavjuddir. Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezzulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g‘oya va ta’limotlar bilan yovuz va zararli g‘oyalilar o‘rtasida azaldan kurash mavjud bo‘lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko‘ramiz.

Axborot asri deb nom olgan XXI asrda tevarak atrofni go‘yo ulkan “axborot ummoni” o‘rab olgan va shu muhit shunchalik tez o‘zgarmoqdaki, ushbu axborotlar ummonida bemalol suza olish uchun, ularni tez qabul qilish, tez qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish mahoratiga ega bo‘lish talab etiladi. Shuni yodda saqlamoq kerakki, inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Chunki, yoshlарimizning fikrlash qobiliyati, teran tafakkur egasi bo‘lmish, yetuk dunyoqarashini anglab olish – dolzarb vazifadir. “Ma’naviyat – eng ta’sirchan va qudratli qurolimiz”, degan tamoyilga rioya qilishimiz zarur. Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Hayot falsafasidan kelib chiqib turmush tarzimiz, ijtimoiy hayot jabhalariga teran nazar tashlasak, ijobjiy jihatlarimiz qatorida salbiy holatga monand yoshlар ongu tafakkurida dunyoqarashga nisbatan qat’iyan

⁹⁸ Мирзиёев Ш.М. Ҳарбий-ватанпарварлик тарбиясини кучайтириш – долзарб вазифамиздир; Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4- жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. – Б. 136-137.

bo'shligi, fikr faqirligi, ruh qaramligi, iroda va qobiliyat sustligi, loqaydlik, boqimandalik, axloqiy kemtiklik, mantiqiy bilimsizlik, tanqidiy mulohaza, burch va mas'uliyatni chuqur his qilmaslik kabi salbiy illatlarni oz bo'lsada uchratish mumkin.

Falsafiy dunyoqarash tarkibida hissiyot va aql muhim o'rinni tutadi. Hissiyot dunyoqarashning emotsiyonall-ruhiy jihatni bo'lib, dunyoni tushunish esa, dunyoqarashning aqliy shaklidir. Hissiyot quvonch, shodlik, zavqlanish, hayot va kasb-kordan mammunlik yoki norozilik, xavotirlanish, asabiylashish, yolg'izlik, zaiflik, ruhiy tushkunlik, g'am-g'ussa, nadomat, o'z yaqinlari va vatani taqdirini o'ylash kabi xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ana shular barchasining uyg'unligi dunyoni his etishga olib keladi. Dunyoni his qilish esa, uni aqliy tushunishga, muayyan dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi. Har bir kishiga xos hissiyot va fikr, bilim va e'tiqod, intilish va kayfiyat, orzu-umid va qadriyatlar dunyokarash tarkibida yaxlitlashadi va olamni bir butun holda aks ettiradi. Bir butun, yaxlit dunyoqarashning shakllanishi bolalikdan boshlanib, inson hayotining oxirigacha davom etadi. Bu holat individual dunyoqarashning asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning shakllanishida bilim g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimda dunyoqarashning barcha belgilari mavjud. Bilim va dunyoqarash, aynan, bir narsa emas. Olamni tushunish bilimlar paydo bo'lishi uchun asosdir. Bilim inson ongida hissiy va aqliy bilish jarayonida hosil bo'ladi, u dunyoqarashning asosi, uning uzviy qismidir. Bilim muayyan sharoitda biror-bir hodisa yoki narsani baholashda qo'l keladi va aynan, ana shu jarayonda dunyoqarashga aylanadi. Bunday baho berish jarayonida mudom muayyan manfaatlar asos qilib olinadi. Shuning uchun ham ijtimoiy dunyoqarash turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifoda etadi, gohida ularni amalga oshirish uchun kurash maydoni bo'lib qoladi. Bu boroda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Dunyoqarashni – ilm, daromad, manfaat o'zgartiradi”, – deb aytgan so'zlari fikrimiz tasdig'i deyish mumkin. Biror partiya yoki guruh o'z maqsadlariga yetishish yo'lida butun jamiyat uchun xos bo'lgan umumi ijtimoiy dunyoqarash tarkibida ko'prok va salmoqliroq joy egallashga yoki uni o'z manfaatlari foydasiga o'zgartirishga harakat qildi. Umuman, hayotda maqsadga erishishning eng oson va qulay yo'li o'zgalar dunyoqarashini jamiyat foydasiga o'zgartira olishdir.

Falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan odamlar hayotining asosiy maqsadini o'z xalqi va umuminsoniyatning ozodligi va farovonligi uchun olib boriladigan kurash bilan bog'laydilar. Masalan, Zardo'sht (er.av. VI asrda yashagan), Muhammad ibn Abdulloh (570-632), Alisher Navoiy (1441-1501), Moxandas Karamchand Gandhi (1869-1949), Ibrohim Mo'minov (1908-1974), I.A.Karimov (1938-2016) va shu kabi buyuk insonlarning dunyoqarashi gumanistik xarakterga ega bo'lgan. Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumi ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. Kelajak insonini tarbiyalashda biz, avvalo, jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini va ayni paytda **milliy ma'naviyatimiz** xususiyatlarini hisobga olmog'imiz lozim. Bu masalani milliy va umuminsoniy falsafiy g'oyalarni, nazariyalarni ishlab chiqmasdan hal qilish mumkin emasligi esa tobora aniq bo'lib bormoqda.

Oliy va o'rta maxsus ta'limga tizimida olib borilayotgan islohotlar orqali ularning ma'naviy dunyosini yuksaltirishga, kitobxonlik hamda mutolaa madaniyatini shakllantirish ularni vatanparvarlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbir va tanlovlardan tashkil etish, yangi O'zbekistonga yangicha dunyoqarashli insonlar orqali oliy maqsadimizga erishishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.; Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.; Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари// Каримов И.А. Ватан саждагоҳ қаби муқаддасдир. Т. 3. – Тошкент: Ўзбекистон, 1966. – Б. 34.
3. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2020. – Б. 9.
4. Мирзиёев Ш.М. Ҳарбий ватанпарварлик тарбиясини кучайтириш - долзарб вазифамиздир// Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2020. – Б. 136-137.

TO'RTINCHI SHO'BA.

**MUSTAQIL VA FAROVON
OILANING SHAKLLANISHIGA
SALBIY TA'SIR ETUVCHI
OMILLAR VA ULARNING
OLDINI OLISHNING
ILMIY-AMALIY ASOSLARI**



Qodirova Feruzaxon Usmanovna,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Boshlang’ich ta’lim va defektologiya” kafedrasiga
professori, p.f.d.

OILALARDA NOGIRON BOLALAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Maqolada oilalarda, maxsus ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish, nogironligi bo’lgan bolalar bilan ishlashda hozirgi kunda dolzarb bo’lgan tarbiya yo’nalishlari va ularning mohiyati o’rganilgan.

Kalit so’zlar: *oila, nogiron bolalar, ta’lim, tarbiya, zamonaviy texnologiyalar.*

Аннотация. В статье исследуются пути эффективной организации воспитательной работы в семьях, специальных образовательных учреждениях, современные тенденции в образовании и их значение в работе с детьми с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: семья, дети с ограниченными возможностями, образование, воспитание, современные технологии

Annotation. The article explores the effective ways of organization of educational work in families, special educational institutions, the current trends in education and their importance in working with children with disabilities.

Keywords: family, children with disabilities, education, upbringing, modern technology

Hozirgi zamon bolasi ekologik ong, gigienik malakalar, iqtisodiy ko’nikmalar va huquqiy savodxonlikka ega bo’lmasa, mustaqil hayotda emin-erkin xavfsiz harakatlanishi qiyin kechadi. Chunki tez rivojlanayotgan murakkab zamon shaxs oldiga qator talablarni qo’ymoqdaki, bularsiz inson o’z kelajagini, bu bilan bog’liq ravishda oilasi farovonligini ta’minlashi oson kechmaydi. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limi va tarbiyasi masalasi davlat siyosatining alohida muhim yo’nalishi sifatida qaraladi. Demak, maxsus ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun hozirgi kunda dolzarb bo’lgan tarbiya yo’nalishlari va ularning mohiyati hamda maqsad va vazifalarini aniq anglamoq va amaliyotga zaruriy metodik tavsiyalar ishlab chiqmoq muhimdir.

Sanab o’tilgan vazifalar o’z mazmuni va mohiyatiga ko’ra turli tarbiya yo’nalishlariga oid g’oyalar, qarashlar hamda usul va vositalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Jumladan, maxsus ta’lim muassasalarida tarbiya yo’nalishlari quyidagilar:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Nafosat tarbiyasi.
4. Mehnat tarbiyasi.
5. Jismoniy tarbiya.
6. Vatanparvarlik tarbiyasi.
7. Ekologik tarbiya.
8. Iqtisodiy tarbiya.
9. Huquqiy tarbiya.
10. Gigienik tarbiya.
11. Jinsiy tarbiya.
12. G’oyaviy-siyosiy tarbiya.
13. Tolerantlik tarbiyasi.
14. Gender tarbiya.
15. Mediamadaniyat (ta’lim-tarbiya).

Aqliy tarbiya insonning bilish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, olamni anglash, dunyoqarashni shakllantirish, o‘zlashtirgan bilimlarini hayotga tatbiq etishida namoyon bo‘ladi. Ushbu tarbiyaning shakllanishi pedagogning o‘quvchilarga yetkazayotgan har bir o‘quv materiali ilmiy asoslangan, manbalarda o‘z aksini topgan, inson va tabiat, jamiyatdagi voqe-a-hodisalarining dialektik bog‘liqligini anglashga imkon beradigan mazmundan tashkil topishiga bog‘liqidir. Ish usullari, asosan, o‘quvchilarining bilimini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ish turlari va vositalariga tayanadi. Masalan, didaktik materiallar, audio va video vositalardan foydalanish, kichik ma’ruza, vaziyatni baholash, muammolarning mohiyatini tushuntirish, hayotiy misollar va asoslarni tahsil qilish va boshqalar.

Axloqiy tarbiya – insonning yashab turgan hududida umumqabul qilingan me’yor-qoidalarga rioya etishi va umuminsoniy qadriyatlar hamda urf-odatlarga sodiq munosabatda bo‘la olishidir. Ushbu tarbiya “Bola yaxshi, odobi undan yaxshi” – degan fikrning amaliy tavsifidir. Imkoniyati cheklangan bolalarga qanchalik bilim berilmasin, agar u jamoada, turli hayotiy sharoitlarda o‘zini tutishni bilmasa, muomalada tegishli qoidalarga rioya etmasa, u atrofdagilarning iliq munosabatiga sazovor bo‘la olmaydi. Bu esa, bolaning xulq-atvordagi chetlanishlarga, ya’ni injiqlik, qaysarlik, qo‘pollik, manmanlik va boshqa salbiy xislatlarning tarkib topishiga olib keladi. Shuning uchun pedagoglar o‘quvchilarini o‘qitish bilan bir qatorda ularga bilganlardan hayotda samarali foydalanishni va bu jarayonda xushmuomala, samimiy, odobli, orasta bo‘lishni o‘rgatishi lozim.

Agar bola jamoada yashash, ta’lim olish, shaxs sifatida shakllanish sharoitida bo‘lsa, unda uning ko‘pchilikka bo‘ysunishi, ayrim hollarda o‘z xohish istagidan voz kechishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa ularda qo‘nimlilikni, sabr-toqatni shakllantiradi. Sabr-toqat esa ota-bobolarimiz o‘gitlarida ta’kidlanganidek, baxtli bo‘lishning belgisidir.

Nafosat tarbiyasi insonning go‘zallikni his qilishi, anglashi va yarata olishidir. O‘quvchilarida did-farosat, ijodkorlikni shakllantirishga o‘rgatish ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashning o‘ziga xos yo‘nalishidir. Bu jarayon o‘quvchilarining xarakter-xususiyatlari, qiziqish-mayllari bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Nafosat tarbiyasi mezonlari asosida imkoniyati cheklangan bolalar hayotda o‘zini namoyon qilish, jamiyatda qulay harakatlanish, atrofdagilar bilan tez va samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Mehnat tarbiyasi – insonning moddiy-ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida aqliy va jismoniy quvvatini o‘rinli hamda maqsadli safarbar eta olishi. Mehnat tarbiyasi bolalarda:

- o‘zgalar mehnatini qadrlash;
- mehnatning mohiyatini tushunish;
- kasb-hunar egallashning ahamiyatini anglash;
- kasb egalari va ularning hayotiga oid tasavvurlarga ega bo‘lish;
- moddiy manfaat va moddiy ehtiyoj tushunchalarining ahamiyatini tushunish;
- mehnat va dam olish tartibiga rioya etish;
- o‘z kuchi va jismoniy quvvatidan kelib chiqib, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish.

Mehnat tarbiyasi orqali o‘quvchilarida tejamkorlik, ishni rejalashtirish, narsa-buyumlarni tartibli saqlash, o‘z-o‘ziga xizmat va ijtimoiy foydali mehnat ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Jismoniy tarbiya – insonning o‘z tana a‘zolarini chiniqtirishi, ularning ish faoliyatini tashkil etishda kuch va quvvatni to‘g‘ri taqsimlay olishi. Ushbu tarbiya mezonlari imkoniyati cheklangan bolalarning sog‘lom rivojlanishi, teran fikrlashini ta‘minlashga qaratilgan yondashuvlarga asoslanadi. Chunki xalqimizda bir maqol bor – “Sog‘ tanda – sog‘lom aql”. Salomatlik ham insonning ijtimoiy sifatlaridan biridir. Mutlaq sog‘lom kishi deb, ham jismonan, ham aqlan, ham ruhan salomat bo‘lgan kishiga nisbatan aytildi. Jismoniy sog‘lom odam, barcha a‘zolarini o‘ziga bo‘ysundirib, istagan jismoniy ish va mashqlarni osonlikcha bajara oladi. Ijtimoiy sog‘lom bo‘lgan inson, tinmay o‘z ustida ishlab, doim ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘ladi. Dangasalikni va nafsimi yenga olgan odamgina ijtimoiy sog‘lomdir.

Huquqiy tarbiya – insonning o‘z haq-huquqini anglashi, undan foydalanishi, burchga rioya etishi, o‘zgalar huquqini tan olishi va hurmat qilishi. Imkoniyati cheklangan bolalar huquqiy tarbiyaga oid quyidagilarni, ya’ni:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Prezident administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va boshqa davlat boshqaruv organlarining mohiyati va ahamiyati;
- huquqiy maqomlarning kishilar kundalik hayotida kerakligi;

– O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari hamda Bolalar huquqlariga oid hujjatlarning nomlari va ularning mohiyatiga oid ma’lumotlarni o’zlashtirgan bo‘lishlari lozim.

Ekologik tarbiya insонning tabiatni asrashi va o’zini uning bir bo‘lagi sifatida tushunishi, salomatligini muhofaza qilishi, mavsumiy o‘zgarishlarga mos yashash qoidalariga rioya etishidir.

Iqtisodiy tarbiya – insонning moddiy ehtiyoji va imkoniyatlari orasidagi tafovutni tushuna olishi, yaqin va uzoq kelajakka sarf va kirim rejalarini tuza olishi, oilaviy budgetni shakllantirishi, farovon hayot, obod turmush qoidalariga rioya etishi. Bu tarbiya hozirgi kunda dolzarb masalalarni hal etishda o’zini namoyon etmoqda.

Gigiyenik tarbiya – insонning o’z tanasini “eshita olishi” – toza yurish, vaqtida ovqatlanish, dam olish va me’yorida mehnat qilishi.

Jinsiy tarbiya – insонning boshqa jinsga bo‘lgan qiziqishi, u haqida bilishga intilishini me’yorda saqlay olishi. Bu tarbiya yo‘nalishi bo‘yicha maxsus ta’lim muassasalarida o‘g‘il va qiz bolalar bilan alohida vaziyatlarda davra suxbatlari, debatlar va boshqa turdagи tadbirlar uyuştirilishi lozim. Ushbu tarbiya masalalari yuqori sinf o‘quvchilari bilan olib boriladi. Asosan, “Odam savdosiga qarshi kurash”, “Qiz va yigit munosabatlari”, “Oilaviy hayotga tayyorlanish” mavzularida davra suxbatlari uyuştirish tavsiya etiladi.

G‘oyaviy-siyosiy tarbiya – insонning yashab turgan davlat siyosatiga hurmati, uni anglash va tan olishi hamda unga so‘zsiz rioya etishi. Maxsus maktab va maktab-internatlarda imkoniyati cheklangan bolalarning siyosiy savodxonligini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki imkoniyati cheklangan bolalar aksariyat hayotini muassasada o‘tkazishini inobatga olsak, ular mamlakatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, siyosiy voqealar va hokazolarni pedagoglar, muassasaning boshqa xodimlari va albatta, o‘z tengdoshlari nuqtayi nazari bilan bog‘liq holda tushunishiga to‘g‘ri keladi.

Vatanparvarlik – har bir tarbiyaning asosi bo‘lib, insонning o’z Vatanini sevishi, uni qadrashi, u uchun fidoyilik qila olishi, u bilan faxrlanishi va faxrini ko‘rsata olishi. Bu so‘z bizning xalqimizda keng ma’nomazmunga ega so‘zdir. Chunki vatanparvar inson bo‘lish orqali har bir bola o‘zining xulq-atvori bilan, o‘qishga mas’uliyati bilan, yaqinlari va o‘zgalarga iliq munosabati bilan, salomatligini qo‘llab-quvvatlashi bilan iqtisodiyotimizni, mudofaamizni mustahkamlashga hissa qo‘sadi va barcha millat vakillarining do’stona munosabatini ta’minlashda ishtirok etadi.

Tolerantlik tarbiysi – insонning boshqa millat va xalqlarga, o‘zga din vakillariga ijobiy munosabati. Bizning respublikamiz o‘z mohiyati bilan baynalmilaldir. Shuning uchun yoshlarda baynalmilalchilik, xalqlar do’stligi hislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlarni baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash asosida boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat va do’stona his-tuyg‘ular uyg‘otish, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maqsadi yotadi.

Gender tarbiya zamonaviy tarbiya yo‘nalishlaridandir. Uning O’zbekistonda joriylanishi, asosan, erkak va ayolning teng huquqligini ta’minlashga qaratilgan ishlar jarayonida amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir tarbiyaning o’z o‘rnii va ta’siri, shaxsda shakllanishi lozim bo‘lgan mezonlari mavjuddir. Biroq tarbiya yo‘nalishlari o‘z holicha yakka holda shakllanmaydi, ya’ni ular bir-biriga bog‘liq ravishda tarkib topadi. Aqliy tarbiya har bir tarbiyaning asosi, shaxsning bilimi bo‘lsa, axloqiy tarbiya uning odobidir. Nafosat tarbiyasi aqliy tarbiya yoki axloqiy tarbiyasiz shaxs oldiga o‘z talabini qo‘ya olmaydi. Chunki bilimi bor inson go‘zallikni anglaydi, yaratadi. Go‘zallik toza va musaffo joyda yaratiladi (ekologik tarbiya), go‘zal narsani yaratish uchun qandaydir vosita zarur, vositaning manzili va narxi bo‘ladi (iqtisodiy tarbiya), uni sotib olish jarayonida “xaridor va sotuvchilarning huquqlari to‘qnash kelishi mumkin” tarzida inson hayotining turli jabhalarida barcha tarbiyaning mezonlariga birday ehtiyoj tug‘ilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Акаторов Л.И. Социальная реабилитация детей с ограниченными возможностями здоровья. Психологические основы: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Л.И. Акаторов. – Москва: ВЛАДОС, 2003. – С. 368.
2. Аксенова Л.И. Маленькие ступеньки, ведущие в большую жизнь, // Дефектология. 1999. – № 3.



Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
bo‘lim boshlig‘i.

FAROVON OILANING SHAKLLANISHIDA HUQUQIY MADANIYATNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada oila institutining bugungi holati, unga ta’sir etuvchi omillar, farovon oilani shakllantirish, disfunktional oilalar bilan ishslash, jamiyatda farovon oila modelini shakllanishida huquqiy madaniyatning roli, shuningdek, oilada huquqiy tarbiya ahamiyati haqida fikr mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: oila instituti, farovon oila, disfunktional oila, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy norma, axloq normalari, majburiyat, mas’uliyat.

Аннотация. В статье дается представление о современном состоянии института семьи, влияющих на него факторах, формировании благополучной семьи, работе с неблагополучными семьями, роли правовой культуры в формировании благополучной модели семьи в обществе, а также о важности правового воспитания в семье.

Ключевые слова: институт семьи, благополучная семья, неблагополучная семья, правовая культура, правосознание, правовая норма, моральные нормы, обязанность, ответственность.

Annotation. The article gives an idea of the current state of the family institution, the factors influencing it, the formation of a prosperous family, works with dysfunctional families, the role of legal culture in the formation of a prosperous family model in society, as well as the importance of legal education in the family.

Keywords: family institution, prosperous family, dysfunctional family, legal culture, legal awareness, legal norm, moral norms, duty, responsibility.

Jahon miqyosidagi zamonaviy tendensiyalar: globallashuv, iqtisodiy integratsiya, davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha tafovutlarning yanada chuqurlashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiy etishi va global Internet tarmog‘ining keng quloch yoyishi, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarining kuchayishi, noan’anaviy oila-nikoh munosabatlariga huquqiy maqom berishga urinishlar kundan kunga oila institutini xavf ostiga qo‘yib kelmoqda.

Oila – murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanib, ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makondir. Oila erkak va ayol o‘rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-onva farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardan tashkil topgan ijtimoiy institut hisoblanadi.

Fan doirasida oilaga berilgan ko‘plab ta’riflarga duch kelamiz, olimlar tomonidan oilaning turli mezonlar bo‘yicha tasniflanishiga bo‘lgan urinishlarning guvohi bo‘lamiz. Dunyo miqyosidagi zamonaviy tendensiyalarning ta’siri ostida oila institutining shakli va turlari o‘zgarib, yangicha mazmunga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, an’anaviy oila shaklini saqlab qolishga bo‘lgan sa‘y-harakatlar ko‘zga tashlanishi bilan farovon oila tushunchasini jamiyatda qaror topishi yo‘lidagi chora tadbirlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, farovon oila va farovon bo‘lmagan, funksional va disfunktional, notinch hamda nosog‘lom muhit hukmron bo‘lgan oila o‘rtasidagi farqlar nimalardan iborat degan savol barchani qiziqtirishi tabiiy, albatta.

Farovon oila – er-xotinning bir-biriga va farzandlarga nisbatan o‘zaro majburiyatlari to‘la va aniq bajariladigan, jamiyatning axloqiy meyorlari va qoidalari qo‘llab-quvvatlanadigan, o‘zini o‘zi moddiy jihatdan ta’minlay oladigan, insoniyat madaniyatini kelajak avlodga yetkazib beradigan va uni rivojlantiradigan bir vaqtning o‘zida ham birlamchi ijtimoiy guruh, ham ijtimoiy institutdir. Farovon oila tushunchasi oila a’zolarining yetarli darajada qondiradigan ish, daromad, uy-joyga ega bo‘lishi hamda reproduktiv, tibbiy,

ta’lim, maishiy, madaniy, psixofiziologik ehtiyojlarining qondirilishi, sog‘lom turmush tarzini yuritishga asoslanishi bilan tavsiflanadi.

Disfunktional oila tushunchasi esa, jamiyat ijtimoiy stratifikatsiyasida pastroq ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan, oila a’zolarining o‘z funksional vazifalarini to‘la bajara olmayotgan, bolalar tarbiyasi va ijtimoiylashuv jarayoni murakkab hamda og‘ir kechayotgan oilani nazarda tutadi. Umuman olib qaraganda, olimlar orasida disfunktional oila yoki farovon oilaga aniq ta’riflar ishlab chiqilmagan bo‘lsa-da⁹⁹, qanday oilani farovon yoki disfunktional, deb atash mumkin degan savolga ushbu oilalarning belgi va xususiyatlarini keltirish bilan aniqlik kiritish mumkin. Disfunktional oilaga ijtimoiy tuzilishi buzilgan, oilaning asosiy funksiya va majburiyatları bajarilmaydigan yoki e’tibordan chetda qolgan, tarbiyada yaqqol yoki yashirin nuqsonlar mavjud bo‘lgan, buning natijasida “tarbiyasi og‘ir bolalar” paydo bo‘lishi, oila a’zolarida spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste’mol qilish moyilligi mavjud, oilada kriminogen muhitni shakllanish ehtimoli yuqori va boshqa shu kabi xususiyatlar xos. Bugungi kunda mazkur tipdagi oilalar bilan ishlash va ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlash (yo‘naltirish), jamiyat va davlat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Farovon oilalarning ko‘payishi va jamiyatda notinch disfunktional oilalarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun, birgina ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik ko‘mak ko‘rsatish yetarli hisoblanmaydi. Chunki oila shunday kichik guruhki, oila a’zolarining bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlari hamda oiladagi shakllangan ijtimoiy-psixologik muhit farzandlarning xulq-atvoriga va ularning kelajagiga sezilarli va jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Oila a’zolarining huquqiy madaniyatlik darajasi ham farovon oilaning shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Xo‘sish huquqiy madaniyat o‘zi nima hamda nima uchun farovon oila shakllanishida huquqiy madaniyat zarur?

Huquqiy madaniyat bu har bir jamiyatda huquqning ijtimoiy qadriyat sifatida mavjud bo‘lishi va rivojlanishida ifodalananadigan huquqiy ong va qonuniylik hamda yuridik amaliyotning haqiqiy holati, qonunchilikning sifat darajasi bo‘lib, u mazkur jamiyatning o‘ziga xos yuridik boyligi hamdir¹⁰⁰.

Huquqiy madaniyat jamiyat va shaxsning huquqiy holati timsolida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan alohida ijtimoiy hodisadir¹⁰¹.

Huquqiy madaniyat jamiyatning huquqiy madaniyati, shaxsning huquqiy madaniyati, bir kasbdagi insonlarning huquqiy madaniyati kabi turlarga ajratiladi. Huquqiy madaniyat fuqarolar tomonidan ularning jamiyat oldidagi burchlarini ongli ravishda amalga oshirishi hamda fuqarolik huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishning zaruriy sharti hisoblanadi. Fuqarolar tomonidan o‘z huquq va erkinliklarini hamda majburiyatlarini ro‘yobga chiqarishdagi qolqo (eskicha) qarashlar, nomaqbul xulq-atvor hamda biror shaxs ustidan tazyiq va zo‘ravonlikni oldini olishga imkon yaratadi¹⁰².

Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirishning va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida ko‘riladi. Mohiyati jihatdan, bu uning huquqiy tafakkur, yuridik texnika (uslubiyat) va huquqiy tajribaning mujassamlantirilishidir. U amal qilayotganda va uning tarkibiy kdsmlari rivojlanirilayotganda huquqning o‘ziga, huquqiy amaliyot, huquqiy munosabatlarga, qonuniylik va huquqiy tartibotga, huquqiy ijodkorlik va huquqni qo‘llash, shuningdek, boshqa huquqiy faoliyatlarga, butun ijobiy huquqiy borliqqa singib ketadi.

Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy qismidir. Bu faoliyat huquq, sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi, natijada shaxsning va jamiyatning

⁹⁹ Чубаркин М.М. Неблагополучная семья // <http://academy.edu.by/sites/logoped/family.htm>. Олиференко, Л.Я. Социально-педагогическая поддержка детей группы риска: учеб. пособие / Л.Я. Олиференко [и др.]. – Москва: Академия, 2002. – С. 256.

¹⁰⁰ Жиноят содир этишга мойил бўлган ёшларни аниқлаш ва ёш авлоднинг хукукий заводхонлигини юксалтиришга каратилган долзарб вазифалар комплекс социологик тадқикоти// Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси хузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқикот маркази. 2019 й., –Б. 4.

¹⁰¹ Таджиханов У., Сайдов А. Хукукий маданият назарияси. Дарслик. 2 томли. 1-том / Масъул муҳаррир академик Ш.З.Уразаев – Тошкент: Узбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998. – Б. 30

¹⁰² Смоленский М.Б. Правовая культура, личность и гражданско общество в России: Формула взаимо-обусловленности/ М.Б. Смоленский // Правоведение. – 2003. № 1. – С.197-204.

doimiy huquqiy boyishi sodir bo‘ladi. Shubhasiz, shaxsning yuksak huquqiy madaniyati jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydi. U insonning savodxonligi bilan yaqindan uyg‘unlashib ketadi. Shaxsning huquqiy ongiga nisbatan umumiy va o‘ziga xos jihatlar ham mavjuddir. Bu, shuningdek, huquqiy tarbiyaga ham bog‘liqdir¹⁰³.

Huquqiy madaniyat – shaxsning qonun, davlat tomonidan o‘rnatilgan tartib-qoidalarga riosa etishdagi xulqi, munosabatini bildiradi. Huquqiy madaniyat kishi umumiyligi madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqiy madaniyatli bo‘lish uchun qonunga riosa etish, qonun asosida ish tutish lozim. Huquqiy madaniyatlik nafaqat o‘z haq-huquqlarini bilish, uni anglab yetish, balki el-yurtga fidoyilik, halollik, o‘zgalar huquqini hurmat qilish, Vatanga sadoqat va ezgu ishlarni hayotiy tamoyilga aylantirib olinganligini ham bildiradi. Huquqiy madaniyatga ega bo‘lishda huquqiy ongning o‘rni muhimdir. Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir, ya’ni bu kishilarining huquq, qonunga bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlari, g‘oyalari yig‘indisidir. Demak, inson adolatni his etishi, jinoyat va g‘ayriqonuniy qilmishlarga nafrat bilan qarashi lozim.

“Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval “**Huquqni anglash mas’uliyat hissini rivojlantiradi**”, deb aytgan hikmatli so‘zлari hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Boshqacha aytganda, mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagagi ma’ruzasida “Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog‘i kerak”, deb ta’kidlaydi¹⁰⁴.

Huquqshunos olim, professor X.Oidlqoriyev: “Aslida, huquqiy madaniyat o‘z mohiyat-e’tibori bilan insonning siyosiy va huquqiy jihatdan ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) natijasidir. Bunda insonning ijtimoiy tajribasi, bilim va ko‘nikmalari to‘laligicha namoyon bo‘ladi. Inson o‘z manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qay darajada qobil, ayni vaqtida, jamiyat manfaatlarini taminlashga qanchalik samarali hissa qo‘sha oladi, degan savollarga javob ko‘p jihatdan uning ichki ma’naviyati, e’tiqodi va huquqiy madaniyatga bog‘liq. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi uning jamiyat huquqiy hayoti va amaliyotiga faol daxldorlik holatini ko‘rsatadi. Mazkur daxldorlik darajasi shaxs huquqiy bilimlarini qadam-baqadam o‘zlashtirib borgani sayin o‘sib boradi va uning huquqiy me’yorlariga ongli, ixtiyorli riosa etish savyasi orqali namoyon bo‘ladi”¹⁰⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi, PF-5618-soni “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni¹⁰⁶ bu boradagi ishlarning yanada rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Farmon bilan bir vaqtida, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi” tasdiqlandi. Farmonning maqsadi aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada oshirish, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, aholini, xususan, yoshlarni zararli axborotlar hurujidan himoya qilishda mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish hisoblanadi. Farmonda fuqarolar ongiga “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”, degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi. Bugungi kunda “Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati”, degan konseptual g‘oya asosida huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifasi sifatida qayd etildi. Xo‘sh, bu vazifa qay tarzda bajariladi? Farmonga muvofiq jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “Shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” tamoyili bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil qilinmoqda¹⁰⁷. Qolaversa, Konsepsiya alohida bob bilan, “Oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish” ustuvor yo‘nalishi belgilangan bo‘lib, bunda quyidagi yo‘nalishlarda ishlar olib borish belgilangan¹⁰⁸:

¹⁰³ Таджиханов У., Саидов А. Хукукий маданият назарияси. Дарслар. 2 томли. 1-том / Масъул мухаррир академик Ш.З.Уразаев. – Тошкент: Узбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998. – Б. 31.

¹⁰⁴ Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул килинганинг 27 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруzasи// <https://president.uz/uz/lists/view/3119>

¹⁰⁵ Одилқориев X. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 225.

¹⁰⁶ <https://lex.uz/docs/4149765>

¹⁰⁷ <https://lex.uz/docs/4149765>

¹⁰⁸ <https://lex.uz/docs/4149765>

- Oilada bolalarga huquqiy tarbiya va odob-axloqning boshlang‘ich qoidalarini o‘rgatish bo‘yicha ota-onalar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va tarqatish.
- Oila davrasida huquqiy savodxonlikni oshirishga mo‘ljallangan, har bir elementar huquqiy bilimlarni o‘rgatishga qaratilgan va kundalik hayotdagи muhim masalalar yuzasidan huquqiy qo‘llanma tayyorlash va tarqatish.
- Bolalar uchun huquqiy mavzularda va odob-axloqning oddiy va kundalik qoidalarini bilishni, vatanparvarlik, qonunlarni hurmat qilish, o‘zbek xalqining tarixi va milliy qadriyatlarini o‘rgatishni targ‘ib qiluvchi turli multiplikatsion filmlarni yaratish.
- Bolalar uchun huquqiy axborotni yetkazishga hamda kundalik turmushda qo‘llaniladigan normalar va odob-axloq qoidalarini o‘rgatishga qaratilgan audioertak, kinofilm va kinojurnallar ishlab chiqish.
- Oilaviy notinchlik hamda bolalar nazoratsizligi va qarovsizligini oldini olish, bolalar orasidagi huquqbazarlik va jinoyatlarning salbiy oqibatlari to‘g‘risida teleko‘rsatuvalr, tok-shouular tayyorlash.
- Kundalik turmushda ko‘p uchraydigan masalalarning huquqiy yechimlari va yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mohiyatini uyma-uy yurib targ‘ib qilish, shuningdek, huquqiy ma’lumotlarni yetkazishga qaratilgan flayer, buklet va boshqa tarqatma materiallarni oilalarga tarqatish.
- Yoshlar va ota-onalar o‘rtasida nikoh yoshi, aliment to‘lash shartlari, qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh va uning huquqiy oqibatlari to‘g‘risida muntazam ravishda huquqiy targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.

Tabiiyki, huquqiy tarbiya jarayonida oila muhim ahamiyat kasb etadi, aynan, oilada birlamchi ijtimoiylashish davrida huquqiy madaniyat va huquqiy bilimlar, qadriyatlarni o‘zlashtirish uchun shaxs rivojlanishiga maqsadli ta’sir ko‘rsatish va o‘rgatish, shaxsni jamiyatning ijtimoiy-huquqiy sohadagi faoliyatiga faol tayyorlash jarayoni kechadi.

Oila bolani jamiyatdagi xulq-atvor qoidalari, normalari bilan tanishtiradi, boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatlarda ham axloq me’yorlarini qo‘llashni o‘rgatadi. Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, oilaning tarbiyaviy salohiyati va uni amalga oshirish samaradorligi tabiatи obyektiv va subyektiv omillarning ko‘pligidan kelib chiqadi¹⁰⁹. Shuning uchun bizning nazarimizda, ota-onalar huquqiy madaniyatni, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish, ota-onalarning bola tarbiyasi bo‘yicha mas’uliyatini oshirish, ota-onalar uchun qulay mobil ilovalarni yaratish, qonunlarni va huquqiy bilimlar olish imkonini kengaytirish lozim.

Xulosa qilib aytish lozimki, jamiyatda farovon oila shakllanishida huquqiy madaniyatning roli katta bo‘lgani kabi kelajak avlodni huquqiy madaniyatli qilib tarbiya qilishda, oilaning ham o‘rnini katta. Farovon oila huquqiy madaniyatli oiladir, farovon oila oila a’zolarining har birining huquqi ta’minlangan va unda o‘sib kelayotgan yosh avlod qonunlarga hurmat ruhida tarbiya topgan oiladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси// <https://president.uz/uz/lists/view/3119>
2. Олиференко, Л.Я. Социально-педагогическая поддержка детей группы риска: учеб. пособие / Л.Я. Олиференко [и др.]. – Москва: Академия, 2002. – С. 256.
3. Жиноят содир этишга мойил бўлган ёшлиарни аниқлаш ва ёш авлоднинг хукуқий саводхонлигини юксалтиришга қаратилган долзарб вазифалар комплекс социологик тадқиқоти// “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази 2019 й., 4 б.
4. Таджиханов У., Сайдов А. Хукукий маданият назарияси. Дарслер. 2 томли. 1-том / Масъул мухаррир академик Уразаев Ш.З. – Тошкент: Узбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998. – Б. 31.
5. Самыгин П.С. Семья как институт правовой социализации молодежи в условиях социальной неопределенности развития Российского общества// <https://cyberleninka.ru/article/>

¹⁰⁹ Самыгин П.С. Семья как институт правовой социализации молодежи в условиях социальной неопределенности развития Российского общества. [www.https://cyberleninka.ru/article/](https://cyberleninka.ru/article/)

6. Смоленский М.Б. Правовая культура, личность и гражданское общество в России: Формула взаимо-обусловленности/ Смоленский М.Б. // Правоведение. 2003. № 1. – С.197-204.
7. Чубаркин М.М. Неблагополучная семья//
8. www.academy.edu.by/sites/logoped/family.htm

* * *

Ismaylova Ra’no Nurayevna,
psixologiya fanlari nomzodi
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot
instituti katta ilmiy xodimi

Ismoilova Xurshida Toxirovna,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
katta ilmiy xodimi, bo‘lim boshlig‘i

OILADAGI AVLODLARARO MUNOSABATLARDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TO‘SIQLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarda ijtimoiy-psixologik to‘siqlarning mayjudligi va ularning ta’siri nuqtayi nazaridan o‘rganadigan yondashuv ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ijtimoiy va psixologik to‘siqlarni va ularning oilaviy munosabatlardagi rolini tavsiflashdan iborat.

Kalit so‘zlar: oila, avlodlararo munosabat, ijtimoiy-psixologik to‘siqlar, “otalar” va “bolalar” avlodlari.

Аннотация. В данной статье обсуждаются социально-психологических барьеров в семейных отношениях и их влияния. Основная цель статьи – описать социально-психологические барьеры и их роль в семейных отношениях.

Ключевые слова: семья, отношения между поколениями, социально-психологические барьеры, поколения «отцов» и «детей».

Annotation. This article discusses the socio-psychological barriers in family relationships and their impact. The main purpose of the article is to describe social and psychological barriers and their role in family relationships.

Keywords: family, intergenerational relations, socio-psychological barriers, “fathers” and “children” generations.

XXI asrda oiladagi avlodlararo munosabatlardagi ijtimoiy-psixologik to‘siqlarni tadqiq qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘zbek jamiyatidagi ijtimoiy-psixologik vaziyatning hozirgi holatini “oila inqirozi”ning tez-tez uchrab turishi deb ta’riflash mumkin. Har xil omillar ta’sirida muammoli oilalar sonining ko‘payishini belgilovchi ko‘rsatkichlar – bu oilaning ichki ruhiy beqarorligi, har xil me’yoriy og‘ishlarning paydo bo‘lishi, ajralishlar sonining ko‘payishi, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi iliq munosabatlarning yo‘qolishidir.

“Otalar” va “bolalar” avlodlari o‘rtasidagi ziddiyat, uning sabablari va oqibatlari, konstruktivlikka o‘tish va avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish imkoniyati zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir.

Avlodlararo ziddiyatning vayronagarchilik sabablari ko‘p: turli yoshdagil kogortlar vakillarining qadriyat yo‘nalishlarining mos kelmasligi; ilmiy-texnik va ijtimoiy rivojlanish sur’atlarining o‘zgarishi, buning natijasida oldingi avlodlar tajribasining befoyda bo‘lib qolishi hamda oila tuzilmasini o‘zgartirishi bu avlodlar o‘rtasidagi uzuksizlikni yo‘qolishiga ta’sir qiladi.

Oilada ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar avlodlararo munosabatlarning eng yorqin namunasidir. Shuningdek, u ijtimoiy “merosxo‘rlik”ning obyektiv, subyektiv va jarayonlarini aks ettiradi.

Bu jarayonlarning natijasi sifatida destruktiv va ziddiyatli avlodlararo oilaviy munosabatlarning paydo bo‘lishi bu oilaning har bir a’zosining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida turli muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli oiladagi munosabatlarning shaxsga ta’siri va ijtimoiy-psixologik to‘siqlarning oqibatlari to‘g‘risidagi ishonchli nazariy va amaliy ma’lumotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Oila va oilaviy munosabatlardagi qiyinchiliklarni o‘rganishning turli yondashuvlari mavjud. Eng avvalo, “avlodlararo munosabatlarda ijtimoiy-psixologik to‘siqlar” tushunchasini ta’riflash kerak bo‘ladi. Ijtimoiy-psixologik to‘siqlar tabiatan o‘ziga xos psixologik to‘siqlarning turi hisoblanadi. Bunday to‘siqlar, odam atrofdagi real hayot ya’ni ijtimoiy jamiyat va narsalar dunyosi bilan muloqot, munosabat o‘rnatalganda paydo bo‘ladi va o‘zini namoyon qiladi. Shunday qilib, to‘siqlarning namoyon bo‘lishi bu o‘zaro munosabatlardagi salbiy ta’sirdir. Biror kishi uchun eng faol va murakkab o‘zaro ta’sir – bu boshqa odamlar bilan bog‘liq harakatlar, ya’ni keng ma’noda ijtimoiy o‘zaro ta’sir, muloqotdir.

Psixologik to‘siq shaxs holati bo‘lganligi sababli, odamning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi, chunki u odamni xayoliy xavflardan himoya qiladi, boshqa tomongan, bu insonning ichki cheklovi tufayli, uning ehtiyojlari va istaklarini ro‘yogga chiqarishga to‘sinqinlik qilishi mumkin.

B.D.Parigin, dastlab, barcha psixologik to‘siqlarni ijtimoiy-psixologik, deb atagan va ularni shaxs holatiga tegishli ekanligini hisobga olib, ularni “ichki va tashqi”larga ajratgan. V.N. Myasishev bir necha to‘siqlarni ajratadi: aks ettiruvchi, munosabat, muloqotdagi to‘siqlar. V.A. Labunskaya ijtimoiy-psixologik to‘siqlarni muloqotdagi to‘siq sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, quyidagi ijtimoiy-psixologik to‘siqlarni ham ajratish mumkin.

- Motivatsion to‘siqlar, shaxslarning muloqotga kirishidan bosh tortishi, Muomalaning to‘g‘ri, aniq ko‘rinishda olib borilishini xohlamasligi jarayonida namoyon bo‘ladi.
- Aqliy to‘siqlar bir shaxsnii boshqa shaxsga nisbatan bilim doirasining kengligi, mantiqiy fikrlashining chuqurligi va huquqiy savodxonligi mazmunan boy bo‘lgan taqdirda amalgalashadi.
- Muloqotga kirishuvchilarining psixologik va emotsiyal irodaviy holatlaridan kelib chiqadi (agressivlik, qo‘rquv, asabiylashish, xo‘rlanish va boshqalar).
- Tarbiyaviy jarayonlardagi to‘siqlar ichki ishlar organlari xodimlari tarbiyasi qiyin o‘smirlar, nosog‘lom oilalar va muqaddam sudlangan shaxslar bilan profilaktik chora tadbirlar olib borayotgan vaqtida uchraydi.
- Hayotiy tajriba to‘sig‘i mutaxassislar tomonidan eng ko‘p tilga olingan to‘siqdir. Hayotiy tajriba to‘sig‘i – bu o‘z hayoti, tajribalari, amaliy harakatlarning taassurotlari va ularning natijasi jarayonida shakllangan g‘oyalar va dunyoqarashlarning nomuvofiqligi natjasidir. Ushbu to‘siqni oilaviy muloqot ishtirokchilarining quyidagi so‘zlarida ko‘rish mumkin: “Men allaqachon qarib qoldim, sen meni o‘zgartira olmaysan”, “Bizning vaqtimizda ...”, “biz boshqacha edik, bizda hammasi boshqacha edi”, “Siz qanday yashaysiz, bilmayman ...” va boshqalar.
- Qadriyatga yo‘naltirilgan to‘siq – bu ota-onalar, bolalar va keksa avlod o‘rtasidagi intilishlar va orzu qilingan maqsadlarning bir-biriga va o‘zlariga nisbatan umumiy farqi. Qadriyatga yo‘naltirilgan to‘siq shaxsning maqsadlari va intilishlaridagi tafovutlarda namoyon bo‘ladi, bunga erishish inson uchun eng katta ahamiyatga ega, bu esa boshqa odam intilishlarining maqsadlarini idrok qila olmaslikka olib keladi. Bu to‘siq asosan “men yaxshiroq bilaman”, “endi o‘qish haqida o‘ylashing kerak” va hokazo kabi bayonotlarda namoyon bo‘ladi. Ota-onalarning xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan holatlardan biri bu “o‘smirning manfaatlarini e’tiborsiz qoldirish va o‘z e’tiborlarini faqat bola erishishi kerak bo‘lgan muvaffaqiyatga jamlash”dir.
- Ajralish to‘sig‘i shaxsning oila ichidagi o‘zaro munosabatlardan ajralib chiqishga, o‘zini boshqa odamlardan uzoqlashtirishga moyilligi bilan bog‘liq. Ushbu to‘siqning namoyon bo‘lishi sifatida, birinchi navbatda, “bolalar” tomonidan jismoniy va psixologik ajralishning namoyon bo‘lishida ko‘rish mumkin, “uydan qochish”, “har qanday boshqaruvni rad etish” va boshqalar.

Oiladagi munosabatlar uchun tabiiy bo‘lgan avlodlararo dunyoqarash, g‘oyalar va tamoyillar o‘rtasidagi tafovutlar oila ichidagi o‘zaro ta’sirning samaradorligini pasaytiradigan turli xil ijtimoiy-psixologik to‘siqlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Oiladagi avlodlararo munosabatlarda ijtimoiy-psixologik to‘siqlarning paydo bo‘lishining asosiy omili “bolalar” avlodining pozitsiyasi hisoblansa ham, oilaga psixologik yordam ko‘rsatish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-psixologik to‘siqlar oilaning barcha avlodlari vakillarining o‘zaro munosabatlaridagi dolzarb muammodir.

Oilada avlodlararo munosabatlarda eng ko‘p uchraydigan ijtimoiy-psixologik to‘siqlar hayotiy tajriba, muloqot, qadriyatlarga yo‘naltirilgan va ajralish to‘sig‘idir.

Hayotiy tajriba, muloqot, munosabat to‘sig‘i, qadriyatlarga yo‘naltirilgan to‘siqlar oilada avlodlararo munosabatlarda namoyon bo‘lsa, ajratish to‘sig‘i, asosan, “bobo va buvilar”, “ota-onalar” va “bolalar” avlodlari o‘rtasidagi munosabatlarga xosdir.

Oilada ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni yaratishda ota-onas mas’uldir. Ammo ayrim holatlarda oilada er va xotin o‘z vazifalarini to‘la tushunib yetmaydilar. Ko‘pchilik holatda ular o‘z vazifalarini oilani moddiy jihatdan ta‘minlashdan iborat, deb bir yoqlama tushunadilar. Oila tarbiyasida quyidagi holatlarni qoida sifatida har bir oila qabul qilishi oilada avlodlararo to‘siqlarni bartaraf etishga yordam beradi:

- ota-onani o‘z farzandlariga nisbatan doimo diqqat-e’tiborli bo‘lishi;
- farzandlar bilan doimo muloqotda bo‘lish;
- ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasida o‘zaro tushunishning mavjudligi;
- ota-onalarning o‘g‘il va qizlarga nisbatan xushmuomalada;
- otalik va onalik mehr-muhabbati samimiyy va obyektiv bo‘lishi;
- oila davrasida, muhitida doimiy o‘zaro hurmatning qaror topganligi;
- ota-onalarning barqaror ijobiy his-tuyg‘ulari, kayfiyatları, ularning tartibli xarakterga ega bo‘lishi;
- ota-onalar shaxsiy qiziqishlarining o‘zaro mos tushishi va tubdan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lganda ham bir-biriga hurmat ko‘rsatish;
- oila muhitida adolatni mavjudligi;
- ota-onalarning bilim-saviyalari va madaniy darajalarining yuqori darajada bo‘lishi;
- oilada yaxshi an’analar, rasm-rusumlar, urf-odatlarning mavjudligi va doimo ijobiy xatti-harakatlarga rioxaya qilinishi, ijtimoiy muhitga nisbatan faol bo‘lish.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лабунская В.А. Психология затрудненного общения: Теория. Методы. Диагностика. Коррекция / В.А. Лабунская, Ю.А. Менждерицкая, Е.Д. Бреус. Москва, 2001.
2. Бодалев А.А. Психологические трудности общения и их преодоление. // Педагогика. 1992. № 5-6. – С. 25-32.
3. Мясищев В.Н. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений человека // Психологическая наука в СССР. – Москва, 1960. Т. 2. – С. 110-125.
4. Парыгин Б.Д. Социальная психология: истоки и перспективы. – Санкт-Петербург: СПбГУП, 2010. – С. 536.
5. Узоков Х., Фозиев Э., Тожиев А. Оила этикаси ва психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992, – Б. 105.

* * *

Zohid Alimardonov,
O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig’i v.v.b., p.f.f.d. (PhD), dotsent

G‘ayrat Ikmatullayev,
O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

NOGIRON BOLALAR BILAN SHUG’ULLANISHDA “PEDAGOG-ONA”, “FAOL BOLA” PORTRETLARINI YARATISH MEZONLARI

Annotatsiya. Maqolada nogiron bolalarni tarbiyalashda “pedagog ona”, “faol bola” portretlarini yaratish mezonlari, nogiron bolalarni tarbiyalashning ijtimoiy zaruriyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *oila, nogiron bolalar, pedagog ona, faol bola, inklyuziv ta’lim.*

Аннотация. В статье описаны критерии создания портретов «мать-учитель», «активный ребенок» в воспитании детей инвалидов, социальная необходимость воспитания детей инвалидов.

Ключевые слова: семья, дети с ограниченными возможностями, «мать- учитель», «активный ребенок», инклюзивное образование.

Annotation. The article describes the criteria for creating portraits of “mother-teacher”, “active child” in the upbringing of children with disabilities, the social necessity of raising children with disabilities.

Keywords: family, children with disabilities, “mother-teacher”, “active child”, inclusive education.

Xalqimizda “to‘rt yoki yetti muchang sog‘ bo‘lsa....”, degan ibora juda ko‘p qo‘llaniladi. Ushbu ibora sog‘lom insonning yetarli darajada harakatchan emasligi yoki imkoniyatlariga yarasha jamiyatda o‘z o‘rnini egallay olmayotgani uchun uni ruhlantirish yoki kojish kabi maqsadlarda qo‘llaniladi.

Insonning jamiyatda o‘zining munosib o‘rin topishi uchun uning aqlan va jismonan sog‘lomligi muhim o‘rin tutadi. Jismoniy yoki aqliy nuqson mazkur jarayonning murakkablashuviga turki bo‘ladi.

Bugungi kunda jahonda 650 milliondan ko‘proq nogiron bor. Agar ularga kengaygan oilalarining a’zolari qo‘silsa, har kuni nogironlikdan bevosita yoki bilvosita azob chekayotgan odamlarning soni vahimali ko‘rsatkich – 2 milliardga yetadi.

Albatta, bu katta ko‘rsatkich. Ammo bundan aziyat chekayotgan inson ko‘rguligi bundan-da ayanchli. Ayniqsa, nogironligi bor farzand ota-onasiga bundan-da mushkul.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, “Yer aholisining 10 foizga yaqini nogironlardir. Bu ko‘rsatkich demografik o‘sish, tibbiyot yutuqlari va aholining qarish jarayoni natijasida muntazam ortib bormoqda”¹¹⁰.

Oilada nogiron farzandning tug‘ilishi yoki farzandning nogiron bo‘lib qolishi ota-onsa uchun juda og‘ir hodisa hisoblanadi. Bolaning nogiron bo‘lib tug‘ilishi chaqaloqlik paytida kichik bir kamchilikdek bo‘lib tuyulishi mumkin. Ammo uning o‘sib borgani sari ushbu muammoning ijtimoiy oqibatlari kattalashib boraveradi. Dastlab bola o‘zidagi mazkur muammoni anglab yetmaydi. Vaqt o‘tgani sari buni qalban his qila boshlaydi. Tengdoshlaridan o‘zining farqli jihatni unga ruhiy tushkunlik kayfiyatini, ko‘ngli o‘ksishiga olib kela boshlaydi.

Bola o‘zidagi nuqson sababli, odamovi, o‘zini chetga oladigan, jamoaga kirisholmaydigan bo‘lib qoladi. Ayniqsa, bog‘cha yoki maktab yoshidagi tengdoshlarining kamsitish yoki kesatiq gaplari bolaga qattiq ruhiy zarba beradi. Natijada bola asosiy vaqtini yolg‘izlikda, o‘z xayollari og‘ushida o‘tkazishga intiladi.

¹¹⁰ Ижтимоий яккалаб қўйишдан – тенгликка – Ногиронлар хукукларини амалга ошириш // Кэл Хани, “Eye-to-eye design”. – Брамптон, Канада. – Б. 3.

Boladagi nogironlik ota-onaga o‘zining ruhiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Ularning xayolida qiz bolani uzatish yoki o‘g‘il bolani qanday qilib uylantirish masalasi doimiy o‘ylantirib keladi. Bunday o‘y-xayollar ta’sirida ayrim otalar alamini spirtli ichimliklardan olishga harakat qilishi ham uchrab turadi. Ichkilik ta’sirida bo‘lsa ham, ushu o‘y-xayollardan vaqtinchalik bo‘lsa ham qutulishga harakat qilishadi. Afsuski, bunday nomaqbul xatti-harakat vaziyatni og‘irlashtirsa og‘irlashtiradi-ki, aslo muammoga yechim bo‘lmaydi. Aksincha, oila a’zolariga, ayniqsa, nogironligi mayjud farzandni yanada chuqurroq ruhiy tushkunlikka soladi.

Mana shunday vaziyatlarda ota-onan qanday yo‘l tutmog‘i darkor?

Afsuski, nogironligi bo‘lgan bolalar onalarining aksar qismi bolani yedirib-ichirish, toza-ozoda kiyintirishni o‘zining asosiy vazifasi sifatida biladi. Bolaning o‘qishi va tarbiyasini pedagog-o‘qituvchilarning zimmasida, deb hisoblaydi. Vaholanki, ular bolaning jamiyatga ijtimoiylashishida asosiy rol o‘ynashini anglab yetmaydilar. Buning uchun esa ulardan pedagoglik sifatlari talab etiladi.

Sog‘lom bola bilan shug‘ullanish uchun maxsus pedagogik bilimlar talab etilmaydi. Ammo nogironligi bor bolalar bilan ish olib borish uchun maxsus pedagogika, defektologiya, surdopedagogika kabi maxsus fanlardan bilim va ko‘nikmalar talab etiladi. Bunday bilim va ko‘nikmalarni ular maxsus tashkil etiladigan kurslar yoki internet yoki maxsus adabiyotlardan olishlari mumkin.

Shu nuqtayi nazaridan, mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan nogironligi bor farzandlari bo‘lgan ota-onalarni bepul tarzda maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish, ularni bepul tarzda adabiyotlar bilan ta’minalash muhim masala sanaladi.

Nogironligi bor bola hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun qanday yo‘l tutishi zarur?

Albatta, bunday bolalar, avvalo, taqdirga tan berib, hayotga pozitiv nuqtayi nazar bilan qarashlari lozim. Pessimistik kayfiyatga berilish, yashash uchun kurashishni susaytirish muammoning echimi bo‘lib xizmat qilmaydi. Aksincha, vaziyatning yanada chigallashuviga olib keladi.

Bu borada bolaning nogironligi bor maxsus internatlarda ta’lim olishi bu boradagi motivatsiyalarining oshishiga xizmat qiladi. Chunki bola o‘zi kabi imkoniyati cheklangan bolalar orasida hayot uchun kurashishni o‘rganadi.

Albatta, imkoniyati cheklangan insonlarning hayotda erishayotgan olamshumul yutuqlari haqida ko‘p eshitamiz. Ayniqsa, yaqinda Tokioda bo‘lib o‘tgan paralimpiya o‘yinlarida ishtirot etgan mamlakatimiz vakillari haqiqiy qahramonlik ko‘rsatdilar. “O‘zbekiston Paralimpiya o‘yinlarida 8 ta oltin, 5 ta kumush va 6 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi. O‘zbekiston terma jamoasi 160 dan ziyod davlatlar o‘rtasida 16-, Osiyo qit‘asida hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligida 4-, Markaziy Osiyoda esa 1-o‘rinni egalladi”¹¹¹.

Paralimpiya o‘yinlarida qo‘lga kiritilgan 19 ta medalning 11 tasi sportchi qizlar tomonidan qo‘lga kiritilgani haqiqiy qahramonlik timsolidir.

Mana shunday olamshumul yutuqlar yosh avlod vakillari uchun haqiqiy motivatsiya vazifasini o‘tamog‘i darkor.

Nogiron bolalar bilan shug‘ullanishda ona tom ma’noda “Pedagog-onsa”, bola esa “Faol bola” vazifasida bo‘lishi qo‘yilgan maqsadga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz.



¹¹¹ Президент паралампиячиларни табриклаб, ўйинлардаги қийинчиликлар хакида гапирди // <https://www.gazeta.uz/uz/2021/09/10/paralympics/>

Murodov Alisher,

*Ichki ishlar vazirligi akademiyasi,
Xuquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasi
boshlig‘i o‘rinbosari,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*

VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIK LARNING OLDINI OLISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada oiladagi nosog ‘lom muhitning voyaga yetmaganlarning ta’lim va tarbiyasiga salbiy ta’siri, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining sabablari, sharoitlari va uni keltirib chiqaruvchi omillar hamda uning oldini olishga oid fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oiladagi muhit, huquqbuzarliklar, jinoiy xulq-atvor, nizo, sabab sharoit, g‘ayriijtimoiy munosabatlar.

Аннотация. В статье представлены мнения и взгляды о негативном влиянии нездоровой среды в семье на образование и воспитание несовершеннолетних, причинных условиях и факторах правонарушений среди несовершеннолетних и их профилактике.

Ключевые слова: семья, обстановка в семье, правонарушения, преступное поведение, конфликт, причины и обстоятельства, антисоциальные отношения.

Annotation. The article presents opinions and views on the negative impact of an unhealthy environment in the family on the education and upbringing of underages, causal conditions and factors of offenses among minors and their prevention.

Keywords: family, family situation, offenses, criminal behavior, conflict, causes and circumstances, anti-social relations.

Oilada huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishiga hamda uni sodir etuvchi shaxslarda g‘ayriijtimoiy xususiyatlarning shakllanishiga oiladagi muhitning ta’siri o‘ziga xosdir. Shunisi e’tiborliki, oiladagi nosog ‘lom muhit nafaqat huquqbuzarliklar, balki og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarning sodir etilishiga ham shart-sharoitlar yaratadi. Zero, “hech kim onadan jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi. Jinoyatchilik nomaqbul ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy muhitdagina ildiz otishi mumkin”¹¹².

Ma’lumki, oiladagi nosog ‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit sabablarini o‘rganish borasida turli davrlarda turli soha mutaxassislari tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu muammoga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarning predmeti bo‘lib, har bir millat mentaliteti, o‘sha jamiyatda ustuvor bo‘lgan oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar hisoblangan. Chunki oilada tarbiyalanayotgan farzandlarning shakllanishi oila a’zolari o‘rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar xususiyatiga bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida, oilada ijobiy yoki salbiy munosabatlar, nizolar hamda ularning oqibatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanishiga zamin bo‘ladi.

Oilaning shaxsning ma’naviy shakllanishidagi ahamiyati shundaki, inson shaxsining poydevori shu joyda quriladi. Inson o‘zini o‘rab olgan dunyo haqidagi dastlabki bilimni, yaxshi va yomon haqidagi, axloq normalari haqidagi dastlabki tasavvurni, bиринчи tarbiyaviy saboqni oilada oladi, shaxs sifatida dastlabki qadamni oilada qo‘yadi. Shuning uchun inson tarbiyasi u tug‘ilgan kundan boshlanmog‘i lozim¹¹³. Chunki oila bolaga muayyan g‘oyaviy-siyosiy qarashlar asoslarini singdiradi, bola oilada axloq normalarini bilib oladi va ularni o‘zlashtiradi, undagi dastlabki ko‘nikmalar va xulq-atvor namunalari oilada shakllanadi¹¹⁴

¹¹² Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Тошкент, 1996. – Б. 147.

¹¹³ Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – Б. 97.

¹¹⁴ Ота-Мирзаев О.Б., Фаниева М.Х., Латипова Н. ва бошқалар. Оила маънавияти: ўкув кўлланма. – Тошкент, 2007. – Б. 9.

hamda bolaning xarakteri, tabiatи va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar, yaxshilik va eзgulik, olyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarining poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir¹¹⁵.

Shunday ekan, oilada olingen tarbiya uning butun umri davomida berilgan boshqa ta’lim-tarbiyaga o‘z ta’sirini o’tkazadi. Fikrimizcha, “tarbiyadan gap ochishdan ilgari oila va undagi ruhiy muhit haqida gap yuritish lozim bo‘ladi”¹¹⁶.

Aytish joizki, oiladagi muhit shaxsning shakllanishida o‘zining ijobiy yoki salbiy tomonidan ta’sirini ko‘rsatadi. Olib borilgan tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, g‘ayriijtimoiy salbiy xatt-harakatlarni sodir etgan voyaga yetmaganlarning 40-45 foizi ota-onasi ichkilikbozlikka berilgan, muntazam ravishda janjal va nizolar bo‘lib turadigan nosog‘lom oilalarda yashaydi.

“Ota-onalar tomonidan zulm ko‘rsatilgan bolalar va o‘smirlar” dasturi asosida ishlayotgan bir guruh amerikalik psixiatrlar tomonidan 76 nafar zolim ota-onalar shaxsi o‘rganib chiqilganda, ularning faqat 7 foizi ruhiy sog‘lom bo‘lib, qolganlari, ya’ni 25 foizi ichkilikbozlar, 68 foizi esa jamiyatga zid turmush tarzi yurituvchi shaxslar ekanligi aniqlangan¹¹⁷. Oiladagi bunday nosog‘lom muhit voyaga yetmaganlar ruhiy rivojlanishning yomonlashuvi, uzoq muddatli aqliy nosozlik va nosog‘lomlik kabilardan iborat bo‘lib, o‘z navbatida, jismoniy nosog‘likka ham olib kelishi mumkin¹¹⁸.

Shunday omillar mayjud bo‘lgan oilalarga jamiyat tomonidan yetarlicha yordam berilmasa, unda yashayotgan bolalarning bunday nosog‘lom muhitdan jabr ko‘rish xatari yuqori bo‘lishi, o‘z navbatida, qarindosh-urug‘lar tomonidan ko‘mak berilmasligi ham mazkur muammoni yanada og‘irlashtirishi tabiiy.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy shart-sharoitning jinoiy xulq-atvor bilan aloqasi murakkab xususiyat kasb etadi¹¹⁹. Ba’zi hollarda bunday xulq-atvor jinoyatning sodir etilishiga olib keladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, voyaga yetmaganlarda salbiy xulq-atvorning paydo bo‘lishi va ular tomonidan jinoyat sodir etilishini taqozo etuvchi kriminogen omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, oiladagi nosog‘lom turmush tarzi natijasida vujudga kelgan salbiy odatlarning oqibatidir. Ma’lumki, inson shaxs sifatida oilada shakllanadi, ijtimoiylashuv jarayonida oila individga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi uning muayyan ijtimoiy qiyofasini shakllantirishi lozim¹²⁰. Oiladagi muhit shaxsning shakllanishida o‘zining ta’sirini o’tkazishi bilan birga, unda ma’naviy-axloqiy fazilat va xususiyatlarning rivojlanish jarayonini ta’minlaydi, desak, mubolog‘a bo‘lmaydi.

Kriminologik nuqtayi nazardan qaraganda, oiladagi nosog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit kriminogen vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, tadqiqot davomida o‘rganilgan jinoyat ishlari tahliliga ko‘ra, 42 foiz jinoyat sodir etgan shaxslar oilasida nosog‘lom muhit hukmron bo‘lgan, 27 foiz oiladagi shaxslar o‘rtasida adovatning mayjud bo‘lganligi va faqatgina 14 foiz holatda zo‘rlik bilan sodir etilgan jinoyatlarning tasodifiy sodir etilganligi ma’lum bo‘ldi. Bu shundan dalolat beradiki, oiladagi nosog‘lom muhit oqibatida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklar oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbazarlik va jinoyatlarning sodir etilishiga turtki bergen. Zotan, oiladagi nosog‘lom vaziyat, urush-janjal, oila a’zolari o‘rtasidagi g‘ayriijtimoiy munosabatlар va boshqa noqulay sharoitlar shaxsning ma’naviy jihatdan salbiy shakllanishida asosiy manba bo‘lib hisoblanadi¹²¹.

Xususan, jinoyatchi shaxslarning 50 foizidan ortig‘i to‘liqsiz oilada o‘sigan, 32 foizining oilasi “nosog‘lom oila”lar qatorida bo‘lgan¹²². Zero, nosog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhittdagi shaxsning turmush tarzi yoki shunday holatda namoyon bo‘luvchi “salbiy harakatlari” muayyan jinoyatlarning sodir etilishiga olib keladi. Bu, o‘z navbatida, shaxs ongini buzadi, bu sohadagi ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarni o‘zgartiradi, ma’naviy qiziqish va ehtiyojlar doirasini toraytiradi¹²³.

¹¹⁵ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 52 б.

¹¹⁶ Йўлдошев М. Оилада руҳий мухит ва унинг тарбияга таъсири. – Тошкент, 2004. – Б. 5.

¹¹⁷ Клевцова Н.А. Убийства детей, совершаемые в семье. // Российский следователь. – Москва, 2009. №13. – С. 17.

¹¹⁸ Болаларга нисбатан зўравонлик бўйича бутунжаҳон хисоботи. – Тошкент, 2009. – Б. 174.

¹¹⁹ Абдурасулова Қ.Р. Профилактика – тарбиявий чора-тадбирлар асоси. Bola va zamon. – Тошкент, 2008. №14. – Б. 24.

¹²⁰ Хўжаниёзов Т. Оила тарихи ва хукуқ. – Тошкент, 2006. – Б. 252.

¹²¹ Криминология: Дарслик. – Тошкент, 1996. – Б. 142.

¹²² Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – Б. 77.

¹²³ Исмаилов И. Уюшган жиноий тузилмалар фаолиятининг олдини олишни назарий ва ташкилий-хукукий таъминлаш: юрид. фан. докт. ... дис. афтореф. – Тошкент, 2006. – Б. 24.

O’tkazilgan tahlillar shuni ko’rmatmoqdaki, bugungi kunda oilalarda sodir etilayotgan zo’ravonliklarning asosiy qismi muntazam ravishda ichkilikbozlikka ruju qo’yan shaxslar oilasida sodir etilmoqda. Bunday noxush holatlarga chek qo’yish, to’g’rirog’i, ularning oldini olish uchun, avvalambor, oila mustahkamligi va barqarorligiga, uning to’liq va mukammal bo’lishiga erishish uchun, eng avvalo, oilada sog’lom ma’naviy muhitni shakllantirish lozim. Oiladagi sog’lom ma’naviy muhit odamiylik, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish bilan bir qatorda, oilada tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlarning ruhiy xususiyatlariiga ijobjiy ta’sir ko’rsatish, oila mustahkamligini ta’minalashga xizmat qiladi.

Oilada nosog’lom turmush tarzining shakllanishida oiladagi shaxslar o’rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarning o’rni katta hisoblanadi. Ushbu munosabatlar shaxsda ijobjiy xususiyatlarni shakllantirishi mumkin.

Bizningcha, oiladagi nosog’lom muhitning shakllanish shart-sharoiti quyidagilar bilan chambarchas bog’liqlikda namoyon bo’ladi:

- a) oila muhitiga tashqi salbiy omillarning ta’sir etishi;
- b) qarindosh-urug’lar o’rtasida mehr-oqibat tuyg’ularining yo’qligi;
- c) oilada oila a’zolarining spirtli ichimlik, giyohvandlik vositalari yoki tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishga odatlanganligi;
- d) oila a’zolari o’rtasida doimiy janjal va kelishmovchiliklarning mavjudligi va h.k.

Shuningdek, shaxsning salbiy shakllanishini ta’minlovchi axloqqa zid omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) biologik, ya’ni nasldan naslga o’tuvchi xususiyatlar;
- b) oiladagi ma’naviy-ruhiy muhitning zaifligi;
- c) oila a’zolari o’rtasidagi axloqqa zid bo’lgan xatti-harakatlar;
- d) muntazam ravishdagi janjal yoki kelishmovlik;
- e) oilada ota-onaning farzand tarbiyasiga e’tiborsizligi yoki mas’uliyatsizligi;
- f) oilada milliy qadriyat va an’analarga hurmatsizlik bilan munosabatda bo’lish va h.k.

Oilada jinoyatlarning sodir etilishini ta’minlovchi nosog’lom ijtimoiy-ruhiy muhit jamiyat hayotining barcha sohalarida mavjud:

birinchidan, ular bir-biri bilan u yoki bu darajada bevosita yoki bilvosita bog’liqligini ta’minlovchi vosita bo’lib, biri ikkinchisini yoki ikkinchisi birinchisiga o’z ta’sirini o’tkazishiga olib keladi;

ikkinchidan, bu omillar, birinchi navbatda, shaxsning ongi va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi hamda unda salbiy ma’naviy-ruhiy xususiyatlarning shakllanishiga ta’sir qiladi;

uchinchidan, bu omillar jamiyatda shaxsga salbiy ta’sir etuvchi manbalarni shakllantiradi;

to’rtinchidan, oiladagi salbiy ijtimoiy-ruhiy muhit ta’sirida shaxsda shakllangan dunyoqarash jamiyatda vujudga kelgan ijtimoiy-ruhiy muhit bilan aloqada shaxsning u yoki bu yo’lni tanlashini taqozo etadi.

Shu bois oilada ma’naviy-ruhiy muhitni sog’lomlashtirish uchun uni oziqlantiruvchi salbiy omillarni aniqlash, ularga to’siq qo’yish hamda zararsizlantirish borasida zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish lozim.

Fikrimizcha, voyaga yetmaganlarning ma’naviy-ruhiy shakllanishiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi ijtimoiy-ruhiy muhitni sog’lomlashtirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, oiladagi ijtimoiy-ruhiy muhitni sog’lomlashtirishga qaratilgan (tarbiyaviy ta’sir choralariga ega bo’lgan) dasturlar ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

ikkinchidan, oila-turmush munosabatlari doirasida nizo keltirib chiqaruvchi janjalkash shaxslarning turmush tarzini o’zgartirish maqsadida ular bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan profilaktik suhbatlar o’tkazish;

uchinchidan, bugungi kundagi mayjud muammolarni bartaraf etish borasida oiladagi ijtimoiy-ruhiy muhitni sog’lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni ijtimoiy hayotga joriy etish;

to’rtinchidan, oilada axloqqa va qonunga zid xatti-harakatlardan tiyib turadigan qadriyatlarni tiklash, saqlash va rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni yanada kuchaytirish;

beshinchidan, doimiy ravishda “sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit”ni targ‘ib qilish borasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jumladan, mahalla tizimi hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish;

oltinchidan, bolalarni tarbiyalash borasidagi majburiyatlarni bajarmaganlik uchun ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning mas’uliyatini oshirish;

yettinchidan, shaxsga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi manbalarni aniqlash, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish, tahlil etish, zararsizlantirish va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – Б. 97.
2. Ота-Мирзаев О.Б., Ганиева М.Х., Латипова Н. ва бошқалар. Оила маънавияти: ўқув кўлланма. – Тошкент, 2007. – Б. 9.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 52.
4. Йўлдошев М. Оиласда руҳий мухит ва унинг тарбияга таъсири. – Тошкент, 2004. – Б. 5.
5. Клевцова Н.А. Убийства детей, совершаемые в семье. // Российский следователь. – Москва, 2009. №13. – С. 17.
6. Болаларга нисбатан зўравонлик бўйича бутунжаҳон ҳисоботи. – Тошкент, 2009. – Б. 174.
7. Абдурасулова К.Р. Профилактика – тарбиявий чора-тадбирлар асоси. Бола ва замон. – Тошкент, 2008. №14. – Б. 24.
8. Хўжаниёзов Т. Оила тарихи ва хуқук. – Тошкент, 2006. – Б. 252.
9. Криминология: Дарслик. – Тошкент, 1996. – Б. 142.
10. Исмаилов И. Уюшган жиноий тузилмалар фаолиятининг олдини олишни назарий ва ташкилий-хуқуқий таъминлаш: юрид. фан. докт. ...дис. афтореф. – Тошкент, 2006. – Б. 24.

* * *

G’ofurov Sherzod Raxmatullayevich,
IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi
va kriminologiya kafedrasи katta o’qituvchisi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

YOSHLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI CHORA-TADBIRLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining o‘ziga xos xususiyatlari, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar sababları va imkon beradigan shart-sharoitlari, huquqbuzarlik sodir etgan yoshlarning tasnifi va ularning toifalari hamda ushbu turdagı yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, huquqbuzarlik, yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasining chora-tadbirlar; yoshlar toifalari.

Аннотация. В данной статье освещаются особенности профилактики правонарушений среди молодежи, причины и возможные условия совершаемых ими правонарушений, классификация и категории правонарушений, совершаемых молодежью, а также меры, которые необходимо предпринять для профилактики правонарушений данного вида среди молодежи.

Ключевые слова: молодежь, правонарушения, меры профилактики правонарушений среди молодежи, категории молодежи.

Annotation. This article highlights the features of the prevention of offenses among young people, the causes and possible conditions of the offenses committed by them, the classification and categories of offenses committed by young people, as well as measures that need to be taken to prevent offenses of this type among young people.

Keywords: youth, offenses, measures for the prevention of offenses among young people, categories of youth.

Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi ushbu huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasidagi eng muhim, samarali va insonparvar yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Biz o‘tkazgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining yoshlarda qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik munosabatini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ushbu huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish (zararsizlantirish), huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash, yoshlarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga yo‘naltirilgan profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlarini amalga oshirish faoliyati ekanligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuniga muvoofiқ, huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari quyidagilardan iborat: huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagи profilaktikasi, huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi (6-modda).

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda¹²⁴ ham huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari bo‘yicha ushbu yondashuv qo‘llab-quvvatlangan.

¹²⁴ Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q.R.Abdurasulova, I.Y.Fazilov. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 175; Kriminologiya. Maxsus qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 563; Odam savdosiga qarshi kurashishning huquqiy choralar: O‘quv-amaliy qo‘llanma / Muhammedov O‘.X., Ismailov I., Qalandarov M.M., Payziyev D.Y., Abdulhakov Y.A., Fazilov I.Y. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – B. 29; Фазилов И.Ю. Одам савдосига карши курашнинг жиноят-хукукий ва криминологик муаммолари: Монография. – Ташкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – Б. 183.

Ayrim tadqiqotchilar nisbatan shunga yaqin qarashlarni ilgari surgan. Jumladan, Sh.A.Ganiyevning ta’kidlashicha, axloqiy huquqbazarliklar profilaktikasi quyidagicha:

- 1) umumiyl profilaktika;
- 2) maxsus profilaktika;
- 3) individual profilaktika¹²⁵.

Biroq yuqoridagi qonun normalarida ham, ilmiy-nazariy adabiyotlarda ham huquqbazarliklar profilaktikasi qanday mezonlarga ko‘ra turlarga tasniflanishi aniqlashtirilmagan.

Qayd etish joizki, S.B.Xo‘jaqulovning falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishida huquqbazarliklar profilaktikasini profilaktik ta’sir ko‘rsatish obyektlarining xususiyati bo‘yicha kriminologik va viktimalogik profilaktikaga ajratish asoslangan¹²⁶.

Biz ham ushbu yondashuvga qo‘shilamiz. Boisi profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlarini amalgaloshirish faoliyati jinoyat sodir etilishining oldini olish (*kriminologik profilaktika*)ga (bunda profilaktik ta’sir ko‘rsatish obyekti jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bo‘ladi) yoki jinoyatdan jabrlanishning oldini olish (*viktimalogik profilaktika*)ga (bunda profilaktik ta’sir ko‘rsatish obyekti jinoyatdan jabrlanish ehtimoli yuqori shaxslar bo‘ladi) yo‘naltiriladi.

Shu o‘rinda huquqbazarliklar profilaktikasi obyektlarining mazmun-mohiyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. “Profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari yo‘naltirilgan salbiy hodisa va jarayonlar hamda shaxslar huquqbazarliklar profilaktikasining obyektlari hisoblanadi. Huquqbazarliklar profilaktikasi obyektlari: a) profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari yo‘naltirilgan salbiy hodisa va jarayonlarga ko‘ra:

a) g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, huquqbazarlik, huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarga;

b) profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari yo‘naltirilgan shaxslar doirasiga ko‘ra: fuqarolar, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar, huquqbazarlik sodir etgan, shu jumladan, ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar, huquqbazarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar, huquqbazarlikdan jabrlanuvchilar, huquqbazarlikdan jabrlanish ehtimoli holatida bo‘lgan shaxslarga tasniflanadi”¹²⁷.

Tadqiq qilinayotgan masalalar nuqtayi nazaridan keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkin:

1) yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar profilaktikasi quyidagi mezon asosida turlarga ajratiladi: “*profilaktik ta’sir ko‘rsatish obyektlarining xususiyati bo‘yicha*”;

2) profilaktik ta’sir ko‘rsatish obyektlarining xususiyati bo‘yicha yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar profilaktikasi *kriminologik va viktimalogik profilaktikaga* ajratiladi.

Endi yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklarning kriminologik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tamiz.

Milliy qonunchilikda yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar kriminologik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi qator ta’riflar keltirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi 2010-yil 29-sentabrdagi qonuniga muvofiq, *voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi* – voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon beradigan sabablari va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi (3-m.); *yakka tartibdagagi profilaktika ishi* – ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek, ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyatdir (3-modda).

¹²⁵ Ганиев Ш.А. Ахлоққа қарши хукуқбазарликлар учун маъмурий жавобгарликни тақомиллаштириш: Докторлик диссертацияси. – Тошкент, 2016. – Б. 198.

¹²⁶ Хўжакулов С.Б. Хукуқбазарликлар умумий профилактикасини тақомиллаштириш (ички ишлар органлари фаолияти мисолида): Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 7-20.

¹²⁷ Хўжакулов С.Б. Хукуқбазарликлар умумий профилактикасини тақомиллаштириш (ички ишлар органлари фаолияти мисолида): Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 20.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq:

– huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarining huquqbazarliklarning oldini olish, huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo‘yicha faoliyati huquqbazarliklarning umumiy profilaktikasidir (22-modda);

– huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarining ayrim turdagи huquqbazarliklar profilaktikasiga, bu turdagи huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasidir. Huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirish uchun quyidagilar asos bo‘ladi: ayrim turdagи huquqbazarliklarning, shaxslar toifalarining ko‘payishi; jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi (24-modda);

– huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarining g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbazarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbazarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga doir faoliyati huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasidir. Huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi shaxsning, uning ijtimoiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-maishiy sharoitlari va turmush tarzi, shaxsning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorini, huquqbazarlik sodir etishga moyilligini, shuningdek, sodir etilgan huquqbazarlikning ijtimoiy xavflik darajasini tavsiylovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi. Huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini qo‘llash uchun shaxsning g‘ayriijtimoiy xulq-atvori to‘g‘risida, uning huquqbazarlik sodir etishga moyilliги yoxud u huquqbazarlik sodir etganligi haqida dalolat beruvchi ishonchli ma’lumotlarning mavjudligi asos bo‘ladi. Huquqbazarliklarning majburlovchi va cheklovchi xususiyatdagi yakka tartibdagi profilaktikasi qonunda nazarda tutilgan asoslarda qo‘llaniladi (28-modda).

Ko‘rinib turibdiki, yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar kriminologik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishda milliy qonunchilikda umumiy, maxsus va yakka tartibdagi profilaktika tushunchalariga berilgan ta’riflarga tayanish mumkin. Chunki huquqbazarliklar profilaktikasining ushbu turlari doirasida amalga oshiriladigan profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari shaxslar tomonidan huquqbazarlik sodir etilishining oldini olishga qaratiladi.

Mutaxassislarining fikr-mulohazalari mazmunan bir-biriga yaqin ekanligini qayd etgan holda, ularga yoshlar o‘rtasida g‘araz maqsadlarda zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini aniqlashtirishda nazariy-metodologik asos sifatida tayanish mumkin.

Qonun normalari va mutaxassislarining fikrlarini yoshlar o‘rtasida g‘araz maqsadlarda zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik xususiyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilish asosida xulosaga kelish mumkinki, yoshlar o‘rtasida profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari quyidagilarga yo‘naltiriladi:

- yoshlarda qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik munosabatini shakllantirish;
- yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish;
- yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish (zararsizlantirish);
- huquqbazarlik sodir etishga moyil bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash.

Qayd etish joizki, huquqbazarliklarning viktimologik profilaktikasi tushunchasiga qonunda ta’rif berilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbazarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo‘llashga doir faoliyati huquqbazarliklarning viktimologik profilaktikasidir (43-modda).

Muxtasar qilib aytganda, profilaktik ta’sir ko‘rsatiladigan shaxslar doirasi bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar aholiga, shu jumladan, fuqarolarning ma’lum bir guruhiba (*umumiy profilaktik chora-tadbirlar*) yoki muayyan shaxsga (*yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlar*) qaratiladi.

Tadqiq qilinayotgan masalalar nuqtayi nazaridan keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkin:

1) yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar profilaktikasining profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari quyidagi mezon asosida turlarga ajratiladi: “*profilaktik ta’sir ko‘rsatiladigan shaxslar doirasi bo‘yicha*”;

2) profilaktik ta’sir ko‘rsatiladigan shaxslar doirasi bo‘yicha yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar profilaktikasining profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari *umumiyl profilaktik chora-tadbirlar va yakka tartibdagiprofilaktik chora-tadbirlarga* ajratiladi.

Chuqur ishonch bilan aytish mumkinki, yuqorida ta’kidlangan ilmiy xulosa va tavsiyalarning inobatga olinishi yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar profilaktikasini samarali tashkil etishga, uning natijadorligini oshirishga salmoqli hissa qo‘sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Y. Kriminologiya. Umumi qism: IIV oliv ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 175.
2. Kriminologiya. Maxsus qism: IIV oliv ta’lim muassasalari uchun darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 563.
3. Muhamedov O‘.X., Ismailov I., Qalandarov M.M., Payziyev D.Y., Abdulhakov Y.A., Fazilov I.Y. Odam savdosiga qarshi kurashishning huquqiy choralar: O‘quv-amaliy qo‘llanma – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – B. 29;
4. Фазилов И.Ю. Одам савдосига қарши курашнинг жиноят-хуқуқий ва криминологик муаммолари: Монография. — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. — Б. 183.
5. Ганиев Ш.А. Ахлоққа қарши хуқуқбузарликлар учун маъмурий жавобгарликни такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси. – Тошкент, 2016. – Б. 198.
6. Хўжакулов С.Б. Хуқуқбузарликлар умумий профилактикасини такомиллаштириш (ички ишлар органлари фаолияти мисолида): Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 20.

* * *

Umaraliyeva Muxayyo Abdugaparovna,

*“Xalq ta’limi” jurnali bosh muharriri o‘rinbosari
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*

NOGIRON FARZANDLARI BOR OILALARDA TA’LIMIY-RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Maqolada nogiron farzandlar tarbiyalanadigan oilalarda ta’limiy, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish hamda uning psixologik aspektlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, nogiron bolalar, ta’limiy-rivojlantiruvchi muhit, psixologik aspektlar

Аннотация. В статье описана организация образовательной, развивающей среды в семьях с детьми с ограниченными возможностями, ее психологические аспекты.

Ключевые слова: семья, дети с ограниченными возможностями, образовательная и развивающая среда, психологические аспекты

Annotation. The article describes the organization of the educational, developmental environment in families with children with disabilities, its psychological aspects.

Keywords: family, children with disabilities, educational and developmental environment, psychological aspects

Bugungi kunda aksariyat oilalarda nogiron bolalarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtayi nazari bilan qarash munosabati ustuvorlik qilmoqda. Mazkur holat ularda sog‘lom bolalardagi kabi muomala, muloqot,

o‘z-o‘ziga xizmat va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko‘nikmalarining etarlicha shakllanmasligiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari bo‘yicha ta’lim muassasalarida o‘qish va tarbiyalanish hamda o‘z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo‘lgan ta’lim olish huquqiga egaligi belgilab qo‘yilgan.

Imkoniyati cheklangan bolalarning oilada ta’limiy muhitni yaratilishida to‘g‘ri tashxisning ahamiyati kattadir. Shuning uchun nogiron bolalarni o‘qitish va tarbiyalash qanchalik erta boshlansa, shunchalik ularning umumiy rivojlanishida sifat ko‘rsatkichlariga erishish imkoniyati keng bo‘ladi. Bolalar rivojlanishidagi sifat ko‘rsatkichlari ularda nutqiy ko‘nikma va malakalarning shakllanganligi bilan baholanadi. Ta’limning dastlabki davrida asosiy e’tibor bolalarning lug‘at zahirasini boyitish va mustahkamlashga qaratiladi. Ma’lum muhitda rivojlanayotgan bola o‘z faolliklarini anglay boshlaydi, ya’ni o‘z-o‘zini bilishi, anglashi sodir bo‘ladi. Bu jarayon ijtimoiy anglashdir. Asta-sekin muhit ta’sirida o‘z xatti-harakatlari orqali faoliyatini qayta o‘zgarishga yo‘naltiradi, bu davr unda dunyoqarashning kengayishi, tajribalarning ortishi, ma’lumotlar, voqeliklar haqida mustaqil fikrlaydigan hamda o‘z fikrini qarshi qo‘ya oladigan darajada shakllanganligi bilan bog‘liqidir.

Jahon sivilizatsiyasida ma’lum va mashhur bo‘lgan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyat paydo bo‘lishining tabiiy-ijtimoiy konsepsiyasini birinchi marta ilgari surdi. Forobiyning fikricha, inson jamoalari, jamiyat kishilarning yashashi va kamolotga erishishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga tabiiy intilishlari natijasida kelib chiqqan. “Har bir inson tabiatan shunday tuzilgan, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi. U bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi. Ularga ega bo‘lish uchun insonlar – fuqarolik jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi”, – deb yozadi Forobiy .

Abu Rayhon Beruniy talqinicha, jamiyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi kishilarning hamkorlikdagi faoliyati zaruratidan kelib chiqqan, insonning qadr-qimmati o‘z manfaatini a’lo darajada bajarishidan iborat. Shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o‘rnini mehnat bilan belgilanadi, inson o‘z xohishiga mehnat bilan erishadi.

Oila ijtimoiylashishning muhim instituti hisoblanadi, chunki oilaning o‘rnini hech qanday boshqa jamoa egallay olmaydi. Oilada insonning dastlabki ijtimoiy moslashish davri kechadi, 6 yoshgacha bola uchun bu asosiy ijtimoiy muhitdir. Asosiy ijtimoiy munosabat va odatlarni bola oilada egallaydi. Oila bolani jamoada o‘zini tutishga o‘rgatadi va unga diniy qadriyatlar, etnik qarashlar va ma’naviy qadr-qimmatlarning mohiyatini tushuntiradi.

Oila nogiron bolalarni rehabilitatsiya qilishda, ularni ijtimoiylashuvida va jamiyatga qo‘shilishida alohida ahamiyatga ega. Nogironning oilada paydo bo‘lishi har doim ziddiyatli vaziyatning rivojlanishi hamda to‘la psixologik zo‘riqish bilan bog‘liq. Nogiron bolaning butun hayoti oilada o‘tkaziladi. Oilada qanchalik do’stona, tinch oilaviy muhit yaratilsa, nogironning jamiyatga qo‘silib ketishi shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Nogiron farzandlari bor oilalarda tashqi muhit bilan muloqot qilish qobiliyati yaxshi rivojlanmagan, ular, asosan, bo‘sh vaqtini o‘tkazish ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi, ular faqat televizor tomosha qilish bilan chegaralanadi. Hamma ma’lumotlarning mazmuni va dasturlarining xilma-xilligi tufayli televizion eshittirishlar bo‘sh vaqtning yagona shakli bo‘la olmaydi. Bu holat nogiron bolaga bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlash zarurligini ko‘rsatadi, bu muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, hissiy sohani mashq qiladi, motivatsion faollikni rag‘batlantiradi va vosita ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Nogiron bolalarning bo‘sh vaqtini o‘tkazish uchun keng imkoniyatlar shaxsning psixologik rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiylashuv jamiyatga yanada ishonchli integratsiyani ta’minlaydi. Nogiron bolani tarbiyalayotgan oila ijtimoiy va psixologik yordamga muhtoj bo‘ladi. Bunday oilalarni ijtimoiy va psixologik rehabilitatsiyalashda ijtimoiy aloqalarni, ayniqsa, psixoterapevtik ta’sir ko‘rsatadigan aloqalarni saqlab qolish va kengaytirish katta ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda nogiron farzandlari bor oilalarda ta’limiy muhitni yaratish lozim. Imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari uchun seminar-treninglar, mahorat darslarini tashkil etish ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oiladagi psixologik iqlim shaxslararo munosabatlarga, ota-onalar va qarindoshlarning axloqiy va psixologik resurslariga, shuningdek, tarbiya, ta’lim olish va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish shartlarini belgilaydigan oilaning moddiy va turmush sharoitlariga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бола хуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ти Қонуни:// Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2008 й., 1-2-сон, 1-модда, 2009 й., 52-сон, 554-модда; 2016 й., 52-сон, 597-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент.: А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1993. – Б.160.
3. Богданова Т.Г. Структурная организация интеллектуальной деятельности лиц с нарушениями слуха на разных этапах психического развития. Автореф. дис. докт. психол. наук. – Санкт-Петербург, 2010.
4. Махмудова М. Ҳалқ педагогикаси мазмуни асосида талаба-ёшларни оиласвий ҳаётга тайёрлаш тизими. пед. фан. докт. дис. ...автореф. –Тошкент, 2004. –Б.40.

* * *

Salixova Gulnoza,
Nizomiy nomidagi TDPU
“Surdopedagogika” kafedrasи o‘qituvchisi

INKLYUZIV TA’LIM NOGIRON BOLALAR IJTIMOIYLASHUVIDA OPTIMAL TA’LIM TURI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv ta’limning ahamiyati, imkoniyati cheklangan bolalarning teng, munosib ta’lim-tarbiya olish zaruriyati, alohida e’tiborga muhtoj bolalar tarbiyasining zamonaviy muammolari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, nogironlar ijtimoiylashuvi, zamonaviy ta’lim, optimal ta’lim turi, ta’lim olish huquqi.

Аннотация. В статье подчеркивается важность инклюзивного образования, необходимость равного и достойного образования для детей с ограниченными возможностями, актуальные проблемы воспитания детей с особыми потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, социализация инвалидов, современное образование, оптимальный тип образования, право на образование.

Annotation. The article highlights the importance of inclusive education, the need for equal and decent education for children with disabilities, the current problems of raising children with special needs.

Keywords: inclusive education, socialization of the disabled, modern education, optimal type of education, right for education

Hozirgi paytda jiddiy e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan muammoga doir tadqiqot ishlarini o‘rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma’lum bo‘ldiki, imkoniyati cheklangan bolalarning teng, munosib ta’lim-tarbiya olishi hamma vaqt yaxshi, risoladagidek bo‘lishi, alohida e’tiborda tutilishi, nazardan chetda qolmasligi lozim.

Ushbu muammo haqida Sharq mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Abu Iso Muhammad at-Termizi, Ibn Sino, Forobi, Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Yusuf Xos Hojib, Imom G‘azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalar o‘z zamonlarida oilada, jamiyatda qizlar tarbiyasi va uning kamolotiga pedagogik-psixologik yondashuv muammosi to‘g‘risida yozilgan ilmiy

va ilmiy-pedagogik mushohadalari bizgacha etib kelgan noyob asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino asarlarida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda, alohida e’tiborga muhtoj bolalar tarbiyasiga oid tavsiyalar ham beriladi. Alloma nogiron bola tengqurlari qatori ta’lim-tarbiya olishga haqli ekanini aytib, ularda ilm olishga, kasb-hunar o‘rganishga intilish kuchliliginini ta’kidlaydi.

Sharq allommalarining bola shaxsini tarbiyalash, ularning rivojlanishida ta’lim-tarbiyaning ta’siri haqidagi qarashlari ilmiy tahlili tadqiqotchilar uchun asosiy manba bo‘lishi, shubhasiz.

Mahallalarda imkoniyati cheklangan bolalarning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik, psixologik xususiyatlarini, o‘ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish, ushbu yo‘nalish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, inklyuziv ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorlik jihatlarini asoslab berish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, alohida e’tiborga, yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo‘lib ulg‘ayishi, o‘z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko‘nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, ta’lim muassasalarida sog‘lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o‘qiy olishi, ular bilan o‘zar do‘stona munosabatga kirishishi, darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar yaratadi.

Bizning fikrimizcha, mahallalarda imkoniyati cheklangan bolalarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish – *imkoniyati cheklangan bolalar uchun ularning ehtiyojlari, imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda teng imkoniyatlarni ta’minalashdan iborat*.

Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, Yer shari aholisining 15 foizga yaqinining imkoniyati cheklangani va achinarisi, bu ko‘rsatkichning muntazam o‘sib borayotgani har bir insonga o‘zini atrofdagilar bilan teng his qilishi hamda o‘z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish bo‘yicha samarali ishlarni amalga oshirishga undamoqda.

Ushbu muammo yuzasidan jiddiy ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad – jismoniy holatidan qat‘i nazar, barcha insonlarga teng imkoniyatlar yaratishdir. Mamlakatimiz aholisining 40 foizini 18 yoshgacha, 65 foizini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qiladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni himoya qilish tizimini rivojlantirish darajasi jamiyatning insonparvarlik va uni ma’naviy-axloqiy rivojlantirish darajasi, O‘zbekistonning huquqiy majburiyatlari va mamlakatimiz tomonidan imzolangan Xalqaro konvensiyalarini aks ettiradi.

Yosh avlod haqida g‘amxo‘rlik muhim umuminsoniy qadriyatlardan biridir. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish bu boradagi ahamiyatlari yo‘nalishlardan biriga aylandi. Mazkur ta’lim imkoniyati cheklangan qiz bolalarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, bilim olish va rivojlanish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim – inklyuziyada barcha, dinidan, tilidan, madaniyatidan va sog‘lig‘idan qat‘i nazar biday, bir xil ta’lim muassassida o‘qiydilar. Ta’lim tizimining vazifasi esa har bir bola – ta’lim oluvchining holatiga, darajasiga moslashishi zarur bo‘ladi.

Milliy qonunchiligimiz imkoniyati cheklangan insonlarga ham o‘z salohiyatini yuzaga chiqarishda teng huquq beradi. Konstitutsiyamizda esa ta’lim olish huquqi kafolatlangan. Shunday bo‘lsa-da, mamlakatimizda jismoniy imkoniyatlari cheklangani sababli umumta’lim maktablariga bormayotgan bolalar ham bor.

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillaridan biri shundan iboratki, bu ta’lim bir tomonlama bo‘lmasligi kerak va jamiyat inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish uchun shart-sharoitlar yaratishi lozim. Oddiy bolalarning ota-onalari farzandlari alohida ehtiyojli bolalar bilan birga o‘qishidan xavotirga tushadi. Shu sababli biz bunday bolalarning ota-onalari bilan ham ishlashimiz lozim. Ta’kidlash joizki, alohida ehtiyojli bolalarning ota-onalariga ularning farzandlari hamjamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini etkazish, buni ularning ongiga singdirishimiz kerak. Zero, imkoniyati cheklangan insonlar ham katta yutuqlarga erishayotgani haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Buning uchun ularga o‘z salohiyatini yuzaga chiqarish, ota-onalarga esa tanlash imkoniyatini berish zarur.

Xulosa qilib aytganda, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, muayyan ta’lim ehtiyojlari ega bola o‘z tengqurlari orasida o‘qisa, bu ko‘proq samara beradi. Birinchidan, bolaning rivojlanishida, ikkinchidan, jamiyatda bunday bolalar atrofidagi bolalarning rivojlanishiga yordam beradi. Negaki, alohida ehtiyojli bolalar bilan birga o‘qiydigan qizlarda ularga yordam berish, javobgarlik tuyg‘usi shakllanadi, ko‘pincha yaxshi sharoitlarda o‘sib-ulg‘ayayotgan bolalarga xos ayrim salbiy sifatlar yo‘qoladi. Buning samarasida bolalar birligida ishslash, bir-birini qo‘llab-quvvatlashni o‘rganadi.

Bir muhitda tarbiyalanadigan bolalar o‘zlaridagi farqni sezmaydi, balki buni faqat ota-onalar sezadi, xolos. Shu bois bunday muloqot alohida ehtiyojli va boshqa bolalar, o‘qituvchilar, jamiyat, mahalla, oilalarga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni, ularning barchasida alohida ehtiyojli insonlarga nisbatan ijobjiy munosabat rivojlanadi. Umuman olganda, rahm-shafqat, muruvvat kabi xislatlar xalqimizga azaldan xos bo‘lib, buni bolalarga ham yoshlidan singdirish lozim. Bu borada inklyuziv ta’lim alohida o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.– Т., Ўзбекистон. 2016.
2. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси. 7 январ 2017 йил.
3. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва Халқ фарновонлиги гарови. – Тошкент, Ўзбекистон, 2017. – Б.48.
4. Шомахмудова Ш. “Махсус ва инклузив таълим” услугий қўлланма.– Тошкент, 2011.
5. Кодирова Ф.У. “Myaccasalarda tarbijavii iishlarни ташкил этиш ва режалаштириш”. / Услубий мажмуа. РТМ.– Тошкент, 2017. – Б.5.
6. Кодирова Ф.У., Матупаева Ш. Эшитишида муаммолари бўлган болаларни самарали мuloqotga тайёрлаш орқали инклузив таълимга эришиш. //Актуальные проблемы специального и инклузивного образования для детей с особыми потребностями. ТДПУ. Илмий-амалий халқаро конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2019. –Б.161-165.

* * *

Gulmira Tleuova,

*O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani
qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila”
ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi*

OILADA VOYAGA YETMAGANLARNING SHAKLLANISHIGA SALBIY TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO’LLARI

Annotatsiya. Maqolada oilada voyaga yetmaganlarning shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar, oiladagi nosog ‘lom muhit, voyaga yetmaganlar huquqbazarligini keltirib chiqaruvchi sabablar va unga imkon bergen shart-sharoitlar va ularning oldini olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: oiladagi nosog ‘lom muhit, g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, huquqbazarlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy-ruhiy muhit, sabab va sharoit.

Аннотация. В статье рассматриваются факторы, отрицательно влияющие на формирование несовершеннолетних в семье, нездоровая обстановка в семье, причины и условия, способствующие совершению правонарушений среди несовершеннолетних, даются предложения и рекомендации по их предупреждению.

Ключевые слова: нездоровая среда в семье, бесчеловечное социальное поведение, правонарушения, духовно-нравственное воспитание, социально-психологическая среда, причины и условия.

Annotation. The article examines the factors that negatively affect the formation of minors in the family, the unhealthy situation in the family, the causes and conditions that contribute to the commission of offenses among minors, offers suggestions and recommendations for their prevention.

Keywords: unhealthy environment in the family, inhumane social behavior, offenses, spiritual and moral education, socio-psychological environment, causes and conditions.

Oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbazarliklarning profilaktikasi jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi eng muhim, samarali va insonparvar yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi

huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktikasini samarali tashkil etish, ularning miqdorini minimal darajagacha tushirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun, eng avvalo, oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, oila-turmush doirasidagi jinoyatchilikning sababları va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash, o‘rganish va tahlil qilish, ularni oziqlantiradigan, ko‘payishini ta‘minlaydigan omillarni aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko‘rishni taqozo etadi. Zero, oiladagi ijtimoiy-ruhiy muhitning sog‘lom bo‘lishiga erishish, uning ma’naviy va axloqiy jihatdan sog‘lom bo‘lishini ta‘minlash jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan barqaror bo‘lishiga xizmat qiladi.

Oilada voyaga yetmaganlarning shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar juda ham rang-barang bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

Mazkur muammoni tahlil qilish va o‘rganishni quyidagi uchta yo‘nalishda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi yo‘nalish – oilada nosog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit. Oiladagi zo‘ravonlik va u bilan bog‘liq huquqbuzarliklar, eng avvalo, oiladagi nosog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhitning mavjudligi bilan taqozo etiladi.

Kriminolog olimlarning ta’kidlashicha, oiladagi muhitga xos bo‘lgan shart-sharoitlar orasida oilada shaxs shakllanadigan muhit katta ahamiyat kasb etadi. Rossiyalik olim Y.M.Antonyanning fikricha, oiladagi nizolarning asosiy sabablaridan biri ota-onaning farzanda mehr qo‘ymaganligi, ularning tarbiyasiga e’tiborsizligidir. Shaxsnинг bolalikda mehr-muruvvatdan mahrum qilinishi uning ruhiyatida bezovtalik, qo‘rqinch, nafrat kabi hissiyotlarni shakllantiradi. Bu hissiyotlar ongsiz ravishda qayd etib boriladi va murosasiz xulq-atvorning, jumladan, uning eng ashaddiy ko‘rinishi – oilada zo‘ravonlikning paydo bo‘lishiga olib keladi¹²⁸.

Agar oilada ma’naviy-axloqiy muhit nosog‘lom bo‘lib, er-xotin va boshqa oila a’zolari o‘rtasida mehr-oqibat, bir-birini mensimaslik, qo‘pollik, humatsizlik mayjud bo‘lsa, bunday oilalarda nizolar tez-tez kelib chiqadi. Har qanday voqeа-hodisaning, shu jumladan, jinoyatlarning sodir etilishida kriminogen omillarning ta’sir etishi muayyan oqibatning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, oilada nizolarning kelib chiqishida er-xotin munosabatining samimiy emasligi, oila-turmush sharoitida yuzaga keladigan muammolarga yuzaki qarash, bola tarbiyasidagi beparvolik, qaynona-kelin o‘rtasidagi g‘ayriijtimoiy munosabatlarning sodir etilishida kriminogen omillardan biri hisoblanadi.

Professor I.Ismailov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, oiladagi nosog‘lom vaziyat, urush-janjal oila a’zolari o‘rtasida g‘ayriijtimoiy nosog‘lom munosabatlarning va shaxs salbiy-ma’naviy shakllanishining asosiy manbayi bo‘lib hisoblanadi¹²⁹.

Agar oilada oilaviy munosabatlar yetarli darajada bo‘lmasa yoki shakllanmagan bo‘lsa, unda turli muammolar va nizolar vujudga keladi. Ma’lumki, oila-turmush munosabatlari har doim ham bir maromda bo‘lavermaydi. Uy-ro‘zg‘or yumushlarini bajarish, er-xotin va oila a’zolari o‘zlarining burchi, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyati hamda farzandlarning kattalar oldidagi burchlarini ado etish jarayonida oilaviy munosabatlar muhim o‘rin egallaydi.

Ayrim hollarda ularning fikr va qarashlaridagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, kelishmovchilik va anglashilmovchilik hamda shaxslararo nizolar tarzida namoyon bo‘lib, oilada turli ko‘rinishdagi nizolarni keltirib chiqaradi. Zero, oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalo, har qaysi xonadondagi ma’naviy-ruhiy muhitni o‘zaro hurmat, odob-axloq, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddaodir.

Oila-turmush munosabatlari doirasida zo‘rlik ishlatishga ko‘p hollarda oilaviy-maishiy nizolar sabab bo‘lib, bu ularning bir-biriga nisbatan tan jarohati yetkazish, haqorat qilish, qiy Nash, xavf ostida qoldirishga, ba’zida esa qasddan odam o‘ldirishgacha ham olib kelishi mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, oiladagi ushbu qilmishlarning sodir etilishiga olib keluvchi asosiy omil – bu oiladagi nosog‘lom muhitning oqibati. Oiladagi muhitning ta’siri bolalar tarbiyasining buzilishiga, ularning kattalarga taqlid qilishiga olib keladi.

¹²⁸ Антонян Ю.М. Причины преступного поведения. – Москва, 1992. – С. 114.

¹²⁹ Исмаилов И. Уюшган жиной тузилмалар фаолиятининг олдини олишни назарий ва ташкилий-хукукий таъминлаш: Юрид. фан. док-ри. дисс... – Тошкент, 2006. – Б. 160.

Taassufki, ba’zi ota-onalar o‘z farzandining tarbiyasida qo‘pollik yoki ularga nisbatan zulmkorlik bilan munosabatda bo‘lishi ularning ong-u tafakkuriga, albbatta, salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Boz ustiga, agar ota oilada o‘zini tutishni bilmasa, odob-axloq bobida farzandlariga o‘rnak bo‘lish o‘rniga qo‘pol xulqini namoyon etsa, bu holat, tabiiyki, bola ma’naviy olamining shakllanishiga, vaqt(soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk bir odat sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, oiladagi ma’naviy muhitning nosog‘lomligi oilada kriminogen vaziyatlarning kelib chiqishida muhim rol o‘ynaydi.

Huquqshunos B.A.Saidovning fikricha, oilaning sog‘lomligi undagi muhit, ota-onaning totuvligi, bir-birini tushunishi, qo‘llab-quvvatlashi, ularning o‘zaro izzat-hurmati bilan belgilanadi¹³⁰.

Oilada nosog‘lom ijtimoiy muhitning mavjudligi oilada turli nizolarning kelib chiqishiga, oila a’zolarining bir-biriga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘lishiga, ota-onaning farzandlar tarbiyasiga e’tiborsizlik bilan qarashiga, ularga shafqatsiz munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Bu borada o‘tkazilgan ayrim xorijiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, bir guruh amerikalik psixiatrlar tomonidan 76 ta zolim ota-onalar shaxsi o‘rganilib chiqilganida, ularning faqat 7 %i ruhiy sog‘lom bo‘lib qolganlari, ya’ni 25 %i ichkilikbozlar, 68 %i esa jamiyatga zid turmush tarzi yurituvchi shaxslar ekanligi aniqlangan¹³¹.

Tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, oiladagi nosog‘lom muhit, *birinchidan*, oilada turli nizo va kelishmovchiliklarning kelib chiqishiga, *ikkinchidan*, shaxs tarbiyasining buzilishi yoki uning izdan chiqishiga, *uchinchidan*, shaxsda salbiy xususiyatlarning shakllanishiga, *to‘rtinchidan*, oilada oila a’zolari va qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning buzilishi yoki yomonlashishiga, *beshinchidan*, oilalarning barbod bo‘lishiga, ota-onaning farzandga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lishiga olib keladi.

Ikkinci yo‘nalish – oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyaning zaifligi yoki sustligi. Shaxsning ma’naviyati uning axloqiy fazilatlari bilan belgilanadi. Tahlil qilinganida, oilada nizo keltirib chiqargan shaxslarning aksariyatida ma’naviyati va axloqiy fazilatlari yuqori darajada emasligi ma’lum bo‘ldi.

Oilaviy janjallar nizolar va salbiy emotsiyalarning reaksiyalarni keltirib chiqaradi va oiladagi psixologik muhitni buzadi. Oiladagi nizolar insonning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, u yerdagi muhit va tarbiyaning buzilishiga olib keladi.

Oilani ajratuvchi nizolar janjallarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan muammo va yechim, er-xotindan birining manfaatiga qaratilgan bo‘ladi. Bunday nizolarda bir tomon manfaatining hal etilishi ko‘pincha ikkinchi tomon manfaatining boy berilishi hisobiga amalga oshadi¹³².

Oilaviy munosabardagi nizo va kelishmovchiliklar, jismoniy zaiflik, ruhiy qiyinchiliklar ham shaxsda g‘ayriaxloqiy xulq-atvor shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi¹³³. Shaxsda bunday g‘ayriaxloqiy xulq-atvorning shakllanishiga oiladagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning zaifligi yoki sustligi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, inson xulq-atvoring shakllanishi, ko‘p jihatdan oilada ota-onsa yoki oila a’zolarining o‘rtasidagi munosabatga bog‘liq bo‘lib, bolalarning kattalarga taqlid qilishi ana shular asosida rivojlanib boradi. Bunday zo‘ravonliklar voyaga yetmaganlarda ruhiy rivojlanishning yomonlashuvni, uzoq muddatli aqliy nosozlik va nosog‘lomlik kabilardan iborat bo‘lishi mumkin bo‘lib, o‘z navbatida, jismoniy nosog‘lomlikka olib kelishi ham mumkin¹³⁴.

Modomiki, shunday omillar mavjud bo‘lgan oilalarga jamiyat tomonidan yetarlicha yordam berilmasa unda yashayotgan bolalarning zo‘ravonlikdan jabr ko‘rish ehtimoli ancha yuqori bo‘ladi. Qarindosh-urug‘lar tomonidan ko‘mak berilmasligi ham mavjud muammoni yanada og‘irlashtirishi tabiiydir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadi, ko‘p huquqbazarliklar, jinoyatlarning sodir etilishiga shaxsdagi salbiy xulq-atvor turtki bergen. Oiladagi noto‘g‘ri tarbiya shaxs ma’naviy shakllanishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bunday oilalarda ota-onsa bilan farzand o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshi emasligi ko‘pincha nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi¹³⁵.

¹³⁰ Ислом Каримов баркамол авлод ҳакида / Тузувчи: юрид. фан. номз., доц., Б.А.Сайдов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – Б. 16.

¹³¹ Клевцова Н.А. Убийства детей, совершаемые в семье. // Российский следователь, 2009. №13. – С. 16-17.

¹³² Шомуродов Ф., Расулова З. Оила энциклопедияси. – Тошкент, 2016. –Б. 251.

¹³³ Тахиров Ф. Ўзбекистон Республикаси қонуни бўйича жинсий жиноятлар учун жавобгарлик муаммолари: юрид. фан. докт. дис. – Тошкент, 2007. – Б. 276.

¹³⁴ Болаларга нисбатан зўравонлик бўйича бутунжаҳон хисоботи. – Тошкент, 2009. – Б. 174.

¹³⁵ Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти психологияси: Дарслик / И. Исмаилов, Ў.Х. Мухамедов, М. З. Зиёдуллаев, Ё. Фарғиев ва бошқ.; масъул мухаррир Ш. Т. Икрамов. – Тошкент, 2015. – Б. 236.

Oilada bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. Xalqimizning “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan dono maqoli, o‘laymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi.

Bizningcha, ushbu jinoyatni keltirib chiqargan sabab va sharoit sifatida oilada bola tarbiyasida yo‘l qo‘yilgan xatolikni ko‘rsatish mumkin. Chunki har qanday holatda ota yoki onaga farzandning munosabati bir xil bo‘lishi lozimligi o‘zbek oilalarida shakllantiriladigan asosiy jihatdir. Bu borada A.Avloniya ta’kidlaganidek: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidur”¹³⁶.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mazkur masala yuzasidan o‘z munosabatini bildirib shunday deydi: “Biz bir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim: ota-onha, jamiyat e’tiboridan chetda qolgan bola oilaga quvонch va foyda o‘rniga faqat tashvish keltiradi. Shu bois bola tarbiysi, yoshlar bilan ishlash biz uchun eng muhim va dolzarb vazifa bo‘lib qolishi shart”¹³⁷.

Oiladagi tarbiyada, eng avvalo, ota-onha tarbiysi, so‘ngra bolalar tarbiyasi muhim o‘rin tutadi¹³⁸. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, oilada tarbiya masalasida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar tuzatib bo‘lmash salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyaning zaifligi yoki sustligi, *birinchidan*, ota yoki onanining ma’naviy-axloqiy tarbiyasining pastligi bilan bog‘liq ekanligi, *ikkinchidan*, uning oilada o‘sib kelayotgan voyaga yetmaganlar xulq-atvorida salbiy xususiyatlarning shakllanishiga olib kelishi, *uchinchidan*, oilada nizoli kriminogen vaziyatlarni keltirib chiqarishi, *to’rtinchidan*, oilada oila a’zolari o‘rtasida salbiy munosabatlarning yuzaga kelishiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi.

Uchinchi yo‘nalish – oila a’zosi (a’zolari)da mayjud bo‘lgan g‘ayriijtimoiy xulq-atvor. Hayot tajribasi va kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, oilada sodir etilgan har qanday g‘ayriijtimoiy salbiy oqibatlar, balki har qanday jinoyatlarning sodir etilishida shaxsning salbiy xulq-atvori sabab bo‘ladi. Ayniqsa, ota-onanining salbiy-ma’naviy axloqi oila muhiti va farzandlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar oilada g‘ayriijtimoiy salbiy xulq-atvor mayjud bo‘lsa, u yerda salbiy xususiyatlarning shakllanish ehtimoli ancha yuqori bo‘ladi¹³⁹.

G‘ayriijtimoiy salbiy xulq-atvor shaxsning xulq-atvori va qonun talablari o‘rtasida muttasil ravishda keskinlashib boruvchi va ochiq-oydin nizoga aylanuvchi har xil qarama-qarshiliklar asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Zero, jinoyatchi shaxsining shakllanishiga axloqqa zid va g‘ayriqonuniy harakatlarning takrorlanib turishi ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi¹⁴⁰.

Shaxsga qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatchi shaxs va jabrlanuvchi shaxsiyatini qiyosiy tahlil qilib, axloqiy psixologik ziddiyatlar jinoyatchi shaxsining shakllanishiga zamin yaratishi mumkin¹⁴¹. Shaxsdagi g‘ayriijtimoiy axloqqa zid ma’naviy-ruhiy xususiyatlarning kelib chiqishiga turki bo‘lib, jabrlanuvchining xulqi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aynan jabrlanuvchining salbiy xulq-atvori ko‘pincha oilaviy nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Shaxsdagi salbiy xulq-atvor ko‘pincha bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishiga olib keladi¹⁴². Shaxsda ma’naviy-axloqiy fazilatlarning pastligi ham ko‘pincha oiladagi nizolarning kelib chiqishiga hamda uning hayoti va sog‘lig‘i uchun muhim bo‘lgan huquqbazarliklarning sodir etilishigacha olib kelgan.

¹³⁶ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент, 2006. – Б. 38.

¹³⁷ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент, 2017. – Б. 135.

¹³⁸ Эсанова З. Оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилишининг ҳуқуқий асослари: Ўзбекистонда оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилишининг концептуал масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: ТДЮУ, 2016. – Б. 8.

¹³⁹ Ижтимоий жиҳатдан хавфли ахволда бўлган оилалар bilan ishlashda profilaktika inspektorlari va fuksarolarning ўзини ўзи бошқариш organlari xuzuridagi жамоат tuzilmalarinining ўзаро ҳамкорлиги: Ўкув қўлланма / Р.Рахмонов, А.Муродов, С.Хўжақулов. – Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б. 9.

¹⁴⁰ Ниёзова С.С. Шахсга қарши зўрлик ishlatisib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikası. / Монография. – Тошкент: ТДЮУ, 2017. – Б. 89.

¹⁴¹ Котова Н.К. Виктимологические проблемы криминальной агрессии. – Астана, 2001. – С. 31.

¹⁴² Мирович С.М. Криминологическая типология личности корыстно-насильственных преступников // Вестник МГУ. –1991. №3. – С. 91.

Oilada er-xotinning oilaviy hayot to‘g‘risidagi tasavvurlarining o‘zaro mos kelmasligi nizo yoki ziddiyatlar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biridir¹⁴³. Ko‘pincha oiladagi zo‘ravonlikning zamirida er yoki xotinning bir-birini hurmat qilmaslik, haqorat qilish, ustidan kulish, kamsitish, mensimaslik kabi omillar jabrlanuvchida qasd yoki o‘ch olish niyatining shakllanishiga olib keladi. Aynan ushbu omillar ta’sirida judayam ko‘p jinoyatlarning sodir etilishi kuzatiladi.

Tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, shaxsning salbiy xulq-atvori oilada nosog‘lom muhitning shakllanishiga, oila a’zolari o‘rtasida turli nizolarning kelib chiqishiga, shaxsning axloqsiz va tarbiyasiz bo‘lishiga sabab bo‘lishi muqarrar. Qiziqarli tomoni shundaki, ushbu salbiy illatlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini doimiy ravishda taqozo etadi.

Shunday ekan, oilada sog‘lom va ma’naviy-ruhiy muhitni shakllantirish har bir ota-onaning burchi bo‘lmog‘i darkor. Chunki oilada tarbiyalanayotgan bolaga ota yoki onaning xatti-harakati o‘zining xususiyatiga qarab ijobjiy yoki salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Oilada voyaga yetmaganlarning shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni bartaraf etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim: *birinchidan*, oilada tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlarni milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalash; *ikkinchidan*, farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanmaydigan ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni aniqlash, ularni ro‘yxatga olish va ushbu toifadagi shaxslar bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni kuchaytish; *uchinchidan*, nosog‘lom turmush tarzi kechiruvchi oilalarda yashayotgan tarbiyasi og‘ir bo‘lgan voyaga yetmaganlar bilan ta’lim muassasasi va mahallalar kesimida muntazam ravishda nazorat ishlarni olib borish; *to‘rtinchidan*, nosog‘lom oilada tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlarga ma’naviy va ruhiy jihatdan yordam ko‘rsatish, ayniqsa, tarbiyachi pedagog va psixologlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish; *beshinchidan*, profilaktik hisobga olingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan, ilgari sudlangan voyaga yetmaganlar bilan oila, mahalla va ta’lim muassasalarini bilan o‘zaro hamkorlikda profilaktik ishlarni olib borish; *oltinchidan*, voyaga yetmaganlarni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qiluvchi shaxslar va guruhlarni aniqlash, ular bilan operativ profilaktik ishlarni olib borish; *yettinchidan*, farzandlar tarbiyasi uchun ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning mas’uliyatini oshirish maqsadida, ularning bu sohada qonun va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarmaganligi uchun javobgarligini kuchaytirish hamda uni ta’minalash mexanizmini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Антонян Ю.М. Причины преступного поведения. –Москва, 1992. – С. 114.
2. Исмаилов И. Уюшган жиной тузилмалар фаолиятининг олдини олишини назарий ва ташкилий-хуқукий таъминлаш: Юрид. фан. докт. ...дис – Тошкент, 2006. – Б. 160.
3. Ислом Каримов баркамол авлод ҳақида / Тузувчи: юрид. фан. номз., доц., Б.А.Сайдов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. 2015. – Б. 16.
4. Клевцова Н.А. Убийства детей, совершаемые в семье. // Российский следователь, №13. 2009. – С. 16-17.
5. Шомуродов Ф., Расулова З. Оила энциклопедияси. – Тошкент, 2016. –Б. 251.
6. Тахиров Ф. Ўзбекистон Республикаси қонуни бўйича жинсий жиноятлар учун жавобгарлик муаммолари: юрид. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 2007. – Б. 276.
7. Болаларга нисбатан зўравонлик бўйича бутунжаҳон ҳисоботи. – Тошкент, 2009. – Б. 174.
8. Хуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти психологияси: Дарслик / И.Исмаилов, Ў.Х.Мухамедов, М. З.Зиёдуллаев, Ё.Фарфиев ва бошқ.; масъул мухаррир Ш.Т.Икрамов. – Тошкент, 2015. – Б. 236.
9. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент, 2006. – Б. 38.
10. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент, 2017. –Б. 135.

¹⁴³ Кадирова А.Т. Ўсмирларда оиласидаги низолар тўғрисида ижтимоий тасаввурларнинг шаклланиши. Психол. фан. номз. ...дис. – Тошкент, 2007. – Б. 36.

11. Эсанова З. Оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари: Ўзбекистонда оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилишнинг концептуал масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: ТДЮУ, 2016. – Б. 8.
12. Ижтимоий жиҳатдан хавфли ахволда бўлган оилалар билан ишлашда профилактика инспекторлари ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳузуридаги жамоат тузилмаларининг ўзаро ҳамкорлиги: Ўқув қўлланма / Р.Рахмонов, А.Муродов, С.Хўжақулов. – Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б. 9.
13. Ниёзова С.С. Шахсга қарши зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятларнинг виктимологик профилактикаси. / Монография. – Тошкент, ТДЮУ. 2017. – Б. 89.
14. Котова Н.К. Виктимологические проблемы криминальной агрессии. –Астана, 2001. – С. 31.
15. Мирович С.М. Криминологическая типология личности корыстно-насильственных преступников // Вестник МГУ. – 1991. №3. – С. 91.
16. Кадирова А.Т. Ўсмирларда оиласий низолар тўғрисида ижтимоий тасаввурларнинг шаклланиши. психол. фан. номз. ...дис. – Тошкент: 2007. – Б. 36.

* * *

Alimov Sardor Komil o‘g‘li,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

AHOLI MIGRATSIYASINING OILADAGI IJTIMOIY-AXLOQIY MUHITGA SALBIY TA’SIRI VA OILAVIY AXLOQIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Aholi migratsiyasi globallashuv davrining o‘ziga xos fenomenlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda uning salbiy ta’sirini oilaviy munosabatlar tizimi, oilaning axloqiy mohiyatining o‘zgarishida kuzatishimiz mumkin. Maqolada migratsiyaning oiladagi ijtimoiy-axloqiy muhit, axloqiy qadriyatlar tizimiga salbiy ta’siri yoritib berilgan. Muallif migratsiya tufayli o‘zbek oilalarida ajrimlarning ortayotganligi, farzandlar tarbiyasi murakkablashganligi, oilaviy urf-odatlar o‘zgarib ketayotganligiga urg‘u bergen.*

Kalit so‘zlar: *oila, aholi migratsiyasi, migrant, oiladagi axloqiy muhit, farzand tarbiyasi, oilaviy qadriyatlar.*

Аннотация. Миграция населения – одно из специфических явлений эпохи глобализации, и сегодня мы можем наблюдать ее негативное влияние в изменении системы семейных отношений, нравственной сущности семьи. В статье освещается негативное влияние миграции на социально-этическую среду семьи, систему нравственных ценностей. Автор подчеркивает, что за счет миграции в узбекских семьях растет количество разводов, усложняется воспитание детей, меняются семейные традиции.

Ключевые слова: семья, миграция населения, мигрант, семейная моральная среда, воспитание детей, семейные ценности.

Annotation. Human migration is one of the specific phenomena of the era of globalization, and today we can observe its negative impact on the changes in the system of family relations, the moral essence of the family. The article highlights the negative impact of migration on the socio-ethical environment of the family, the system of moral values. The author emphasizes that due to migration, the number of divorces in Uzbek families is growing, the upbringing of children is becoming more complicated, and family traditions are changing.

Keywords: family, human migration, migrant, moral environment of family, upbringing of children, family values.

Axloqiy qadriyatlar inson va jamiyatning axloqiy mohiyatini o‘zida aks ettirib, ularning barqarorligi hamda umuminsoniy axloq tamoyillariga asoslanganligi axloqiy muhitning taraqqiyoti uchun zarur

hisoblanadi. Odatda, axloqiy qadriyatlar deyilganda, har bir kishi, millat, elat, xalqning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy-madaniy, kundalik maishiy turmush faoliyatida nisbatan turg‘un, barqarorlikni kasb etib, o‘zligini bildirib, namoyon etib, nihoyatda qadrlanadigan, ardoqlanadigan yuksak darajada shakllangan axloqiy sifat va fazilatlar (insonparvarlik, adolat, qonuniylik, vatanparvarlik, xushmuomalalik, halollik kabi) nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, axloqning asosiy tushunchalari, axloqiy tamoyillar va axloqiy me’yorlar birgalikda axloqiy qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Ushbu tizimning barqarorligi, bir vaqtning o‘zida umuminsoniylik va milliylikni birlashtira olganligi jamiyat ma’naviy taraqqiyoti va milliy yuksalishiga ijobji ta’sir etadi.

Axloqiy qadriyatlar tizimining oila institutiga daxldor bo‘lgan qismi oilaviy axloqiy qadriyatlarni tashkil etib, unda har bir oila tomonidan qadrlanadigan, ham umuminsoniy, ham milliy axloq mezonlariga mos keladigan ijtimoiy-axloqiy ideallar, g‘oyalar, tamoyillar, normalar o‘z aksini topadi. Oilaviy qadriyatlar tizimi butun jamiyat axloqiy muhitining barqarorligiga ta’sir etadi. Oilada bolaga salomlashishdan tortib to‘g‘ri oqatlanish, kiyinish, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot, jamoatchilik ichida o‘zini tutish singari ma’naviy-ma’rifiy, yurish-turish bilan bog‘liq qadriyatlar singdirib boriladi. Bola o‘zini anglash sari qadam qo‘yanidan tevarak-atrofni, yaqinlarini, unga g‘amxo‘rlik qilayotgan ota-onalarini tanishni va ularning xatti-harakatlariga taqlid qilish hamda o‘zlashtirishni boshlaydi. O‘zbek oilalariga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevish, adolat, poklik, to‘g‘rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-onadan farzandga bevosita singdiriladi. Urf-odat va an’analarimiz, madaniyatimizdan bahramand bo‘lgan o‘g‘il-qizlarimizning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko‘mak berish, so‘ngra o‘z oilalari uchun qayg‘urish hissi singib boradi.

Oila jamiyatdagi axloqiy muhit barqarorligi kafolati sifatida globallashuv davrida turli shakl va mazmundagi mafkuraviy, g‘oyaviy, axloqiy tahdidlarga uchramoqda. Oila institutining barqaror axloqiy muhitiga salbiy ta’sir etuvchi omillardan biri aholi migratsiyasi fenomeni hisoblanadi.

O‘zbekistonda aholi migratsiyasining ijtimoiy-axloqiy muhit, axloqiy qadriyatlar tizimidagi transformatsion jarayonlarga ta’sir ko‘rsatayotganligini jamiyatimiz hayotida turli ko‘rinishdagi g‘ayriaxloqiy, zararli tahdidlarning paydo bo‘layotganligi, “ommaviy madaniyat”ning milliy axloqiy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli ko‘rinishlarining kirib kelayotganligi, oilaviy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar, oilaning milliy axloqiy qiyofasi va mohiyati, uning muqaddasligiga munosabat o‘zgarayotganligi, to‘ylar, oilaviy marosimlarni o‘tkazishda jamiyatimiz uchun yangi qadriyatlarning kirib kelayotganligi kabi jarayonlarda kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimizdagi axloqiy qadriyatlar tizimiga migratsiya va qaytish migratsiyasi (ya’ni migrantlarning immigrant davlatdan o‘z vatanlariga qaytishlari) jarayonlarining bevosita ta’siri va buning natijasida axloqiy muhitda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni ikki qismga bo‘lishimiz mumkin:

1) migratsiya tufayli jamiyatimiz axloqiy muhitida sodir bo‘layotgan ijobji o‘zgarishlar, xususan, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar, millatlararo totuvlik, dinlararo tolerantlik, ijtimoiy munosabatlarning barcha darajalarida bag‘rikenglik axloqining qaror topib borayotganligi, migrantlar va ularning oilasiga nisbatan jamiyatda axloqiy mas’uliyatning shakllanayotganligi;

2) migratsiyaning jamiyatimiz etosferasi barqarorligiga salbiy ta’siri, xususan, migratsiya sababli terrorizm, ekstremizm va shu kabi buzg‘unchi mafkuralarning tahdidi ortganligi, “ommaviy madaniyat”ning turli ko‘rinishlari, axloqsizliklarning targ‘ib qilinayotganligi, milliy axloqiy qadriyatlarimizning qadrsizlanishi, oila institutining axloqiy mohiyati hamda qiyofasi transformatsiyaga, deformatsiyaga uchrayotganligi, to‘liqsz oilalar, ajrimlarning ortayotganligi va boshqalar.

Mamlakatimiz ijtimoiy-axloqiy muhitiga aholi migratsiyasining ijobji ta’siridan ko‘ra salbiy oqibatlari ko‘proq seziladi. Buning asosiy sabablaridan biri –migrantlar hamda yaqindagina vatanlariga qaytgan muhojirlar retsipyent mamlakatda davlat va jamiyatning turli tahdidlar, axloqsiz shakllaridan himoya qiluvchi oila, mahalla, ta’lim muassasalari kabi ijtimoiy nazorat institutlar ta’siridan tashqarida bo‘lishadi. Bu esa migrant sifatida chet elda yurgan yoshlarning turli zararli illatlar, destruktiv tashkilotlar ta’siriga tushib qolishiga olib kelishi mumkin. Turli ko‘rinishda individual axloqiy qadriyatlari deformatsiyaga uchragan muhojirlarning doimiy ravishda mamlakatimizda qolgan yaqinlari, oila a’zolari, tengdoshlari bilan muloqot qilishlari yoki O‘zbekistonga qaytishlari axloqiy muhitning barqarorligiga salbiy ta’sir etmay qolmaydi.

Aholi migratsiyasining mamlakatimizdagi etosferaga sezilarli salbiy ta’sirlaridan biri jamiyatimizda oila institutining axloqiy qiyofasi transformatsiyasi, oilaviy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar, ajrimlar sonining ortishi, to‘liqsiz oilalarning paydo bo‘lishi, farzand tarbiyasidagi axloqiy muammolar hisoblanadi. Xorijdagi vatandoshlarimiz, ayniqsa, mehnat migrantlari O‘zbekistonga qaytganlaridan so‘ng duch keladigan asosiy muammolardan biri oilaviy hayotda er va xotin, qarindoshlar orasida munosabatlarning yomonlashishi, bolalarga yetarlicha e’tibor bermaslik bilan bog‘liq oilaviy axloqiy muhitning inqirozida namoyon bo‘ladi. Buning asosiy sabablaridan biri boshqa axloqiy muhitning mezonlariga moslashgan sobiq migrantlar oilaviy axloqiy mezonlarni qayta qabul qilishga qiynaladi, oila a’zolari bilan hayotga qarashlari farq qila boshlaydi. Uzoq vaqt birgalikda yashamagan insonlarning hayotiy ideallari bir-biridan uzoqlashadi. O‘zaro munosabatdagi bu muammolar oilaviy janjallarga, hattoki ajrimga, farzandlarning tirik yetim bo‘lib qolishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa oilaviy axloqiy muhitning barqarorligiga va shu orqali butun jamiyatdagi axloqiy muhitning barqarorligiga salbiy ta’sir etadi.

Aholi migratsiyasining oila axloqiga yana bir salbiy ta’siri farzandlar tarbiyasida namoyon bo‘ladi. Odatda, migrantlarning aksariyatini 20-40 yosh oralig‘idagi insonlar tashkil etib, ularning ko‘pchiligi (uchdan ikki qismi) oilali hamda ularning balog‘atga yetmagan farzandlari bor. Migrantlar aksariyat holatlarda o‘z oilalarini, farzandlarini xorijga olib ketmaydi. Oilada ota yoki ona yoxud ularning har ikkisi farzandlardan uzoqda bo‘lishi oiladagi axloqiy qadriyatlar tizimining o‘zgarishiga olib keladi. Ayniqsa, otaning oilada farzand tarbiyasidagi roli beqiyos. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-yilda Vatanimizga qaytgan mehnat migrantlarining 81 foizini erkaklar, 19 foizini ayollar tashkil etgan. Migrant-erkaklar xorijda bo‘lgan vaqtida uning oilasi vaqtincha to‘liqsiz oilaga aylanadi, bu esa otalari uzoqda bo‘lgan bolalarning tarbiyasida muammolarni keltirib chiqarishi, hatto migrantlarning farzandlari axloqiy tushkunlikka tushib qolishlari ham mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg‘armasi bo‘lgan UNICEF tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, mamlakatimizdan tadqiqotda ishtirot etgan, ota-onalari xorijda bo‘lgan bolalarning taxminan 33 foizi o‘zini baxtsiz his qiladi, 21 foizi esa doimiy xavotirda yashaydi. Bu esa bolalarning ruhiy, axloqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir etib, ularda deviant xulq-atvor, turli axloqiy illatlar paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bunday bolalarning 8 foizi jamiyatda o‘rnatilgan tartibga, axloqiy qoidalarga amal qilmaydi, 6 foizi mushtlashadi, 18 foizi kattalarga nisbatan qo‘pol bo‘lsa, 37 foizi tengdoshlariga nisbatan shunday munosabatda bo‘ladi. Ba’zi holatlarda migrantlarning farzandlari ruhiy va jismoniylari tazyiqqa uchraydi. Bu esa bolalarning ruhiyatiga ta’sir etib, stress, tushkunlik keltirib chiqarishi mumkin, ba’zida esa bu holat bolalarning qasddan o‘zlariga zarar yetkazishlariga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Ba’zida mehnat muhojirlari o‘z farzandlarini ham o‘zlarini bilan xorijga olib ketishi mumkin. Bunday holatda migrantlarning chet eldag‘i farzandlari “ommaviy madaniyat”ning turli shakllari, milliy mentalitetimizga zid bo‘lgan g‘oyalari, mafkuralar domiga tushib qolishi, ularda destruktiv xulq-atvor shakllanish holatlari uchrab turadi. Migrantlarning farzandlari ortlariga qaytganlaridan keyin ham kichik yoshidan boshlab boshqa xalq va millat madaniyatiga xos odat, an‘analar, qadriyatlarning shakllanganligi sababli milliy qadriyatlar, urf-odatlarni qabul qilishda, uzoq yillar muomala qilmagan yoki ko‘rmagan qarindoshlari bilan munosabat o‘rnatishda muammolarga, tengdoshlari davrasida o‘z o‘rnini tiklashga va o‘z obro‘sini topish bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelishi, o‘zining kelajagi bilan bog‘liq istiqbollarni o‘zi yashagan o‘zga yurt bilan bog‘lashi mumkin. Bu esa bolalarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishini qiyinlashtirib, axloqiy, ruhiy tushkunlik holatini keltirib chiqaradi.

Migratsiya tufayli yuqorida muammolarga uchragan bolalarning barkamol, yuksak axloqli shaxs bo‘lib yetishishlarida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Jumladan, oilada shakllanishi lozim bo‘lgan shaxsnинг eng yuksak axloqiy fazilatlari kamtarlik, mardlik, mehribonlik, intizomlilik, tejamkorlik, muloyimlik, saxiylik, saxovatlilik, to‘g‘rilik, hayolilik, himmatlilik, vafodorlik kabi fazilatlar hisoblanib, ular migrantlarning farzandlari voyaga yetganlarida ham to‘liq shakllanmasligi mumkin. Bularning barchasi aholi migratsiyasi fenomenining oiladagi axloqiy muhitga nisbatan yuzaga kelgali salbiy oqibati hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bizda azal-azaldan oila qadriyat sifatida jamiyatimiz axloqiy qadriyatlar tizimining markaziy bo‘g‘inini tashkil etadi. Unga nisbatan munosabatning o‘zgarishi, oilaning mental axloqiy mazmunining transformatsiyasi hamda oldingidek qadrlanmay qolishi butun jamiyatimiz uchun axloqiy

qadriyatlar tizimining o‘zgarishiga, hatto tanazzuliga olib kelishi mumkin. Jamiyatda migrantlarning soni ortib borgani sari an’anaviy oiladagi ota-onada va farzand o‘rtasidagi an’anaviy axloqiy munosabatlardan, oilaviy qadriyatlardan uzoqlashgan avlod shakllanadi. Oilaning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri jamiyatning yuksak ma’naviyatli avlodini tarbiyalash hisoblanar ekan, migratsiya sababli parokanda bo‘lgan oila o‘zining bu vazifasini bajarishi mushkullashib boradi. Bu esa bizning jamiyatimiz axloqiy muhiti, axloqiy qadriyatlar tizimining barqarorligiga salbiy ta’sir etadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda axloqiy muhitning barqarorligi, umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi ustuvorligi jamiyat ma’naviyatining umumiylara taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Aholi migratsiya fenomeni tufayli ijtimoiy-axloqiy muhit hamda axloqiy qadriyatlar tizimining transformatsiyaga uchrashi, evrilishi, afsuski, salbiy oqibatlarni namoyon etmoqda. Bunday salbiy oqibatlar sirasiga oila axloqining inqirozi, farzandlar tarbiyasidagi qiyinchiliklar, xavfsizligimiz, osoyishtaligimizga qarshi tahdidlar xavfinining ortishi, “ommaviy madaniyat” niqobi ostida ko‘plab axloqsizliklarning o‘zbek oilalari hayotiga kirib kelishini ko‘rsatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Назаров К., Файзиходжаева Д. ва бошқалар. Фалсафа асослари. Ўкув қўлланма. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари” миллий жамияти, 2018. – 310 б.
2. Рахимова И. Оила – қадriyatlar beishi. (<https://urganchhokimiyat.uz/site/view?code=OILA-KADRIATLAR-BESIGI>)
3. Қайтиш миграцияси: халқаро ёндашувлар ва Марказий Осиёнинг минтақавий ўзига хос хусусиятлари. – Нур-Султон: IOM UN MIGRATION. 2020. –Б. 115-149. <https://publications.iom.int/system/files/pdf/return-migration-in-ca-uz.pdf>
4. Ўзбекистонда миграциянинг болаларга таъсирини ўрганиш бўйича қисқача ҳисобот. UNICEF. 2019. – Б. 7-8. <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2946/file/Effects-of-migration-on-children-of-Uzbekistan-Uzbek.pdf>
5. Wen M., Lin D. Child development in rural China: Children left behind by their migrant parents and children of nonmigrant families // Child development. – 2012. – Тошкент. 83. – №. 1. – С. 120-136.
6. Маджидова Д., Хусанова Д. ва бошқалар. Меҳнат мигранtlари оилаларида шахслараро муносабатларнинг педагогик-психологик омиллари. – Тошкент: “Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi”, 2021. – Б. 50.
7. Нажмиддинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умумinsonий ахлоқий маданиятнинг ўрни. – Тошкент: “Адолат”, 2016. – Б. 59.

* * *

Jamol Komilovich Jurakulov,
Toshkent pediatriya tibbiyat institutining
Yoshlar bilan ishlash ma’naviyat va
ma’rifat bo‘limi xodimi

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA INSONNING OILADA SHAKLLANISHIGA IJTIMOIY-MADANIY SALBIY TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING OLDINI OLUVCHI ILMUY-AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyatda insonning oilada shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy salbiy omillar; bugungi internet asrida bilim oluvchi insonning ta’lim-tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonni qamrab oluvchi hamda salbiy ta’sir etuvchi omillarning ahamiyatini o‘rganish, salbiy omillarning oldini olish, avvalo, oiladan boshlanishi haqida fikr yuritamiz.*

Kalit so‘zlar: *axborotlashgan jamiyat, tarbiya, ijtimoiy-madaniy ta’lim-tarbiya, internet, bilim, oilada bilimsizlik xayfning oldini olish, bugungi kundagi chora-tadbirlar.*

Аннотация. Социокультурные негативные факторы, влияющие на формирование личности в семье в информационном обществе – эта ссылка исследует значение негативных факторов, охватывающих и влияющих на процесс, связанный с обучением и воспитанием человека, получающего образование в современную эпоху интернета, мы думаем, что профилактика негативных факторов начинается в первую очередь с семьи.

Ключевые слова: Информатизированное общество, воспитание, социокультурное образование воспитание, интернет, знания, профилактика безграмотности в семье, меры предосторожности на сегодняшний день.

Annotation. *In an informed society, socio-cultural salivary factors affecting the formation of a person in the family-this is the study of the importance of the factors that influence negatively as well as covering the process associated with the educational upbringing of a cognitive person in today’s Internet age, the Prevention of negative factors we first think about the beginning of.*

Keywords: *Information Society, education, socio-cultural education education, Internet, knowledge, lack of knowledge in the family, prevention of HAF, today’s measures.*

“Kitob o‘qigan, o‘z ustida ishlagan odama qanot bo‘ladi. U befarq bo‘lmaydi. Uning kuchi bilimida bo‘ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. “Kattalar”ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o‘qinglar deymiz. Kitob o‘qisangiz savol berishni bilasiz”.

Sh.M.Mirziyoyev

Axborotlashgan jamiyatda inson shaxsining oilada shakllanishiga ijtimoiy-madaniy salbiy ta’sir etuvchi omillar bugungi kunda jamiyatimizda tobora ko‘p uchramoqda. Bugun internet hayotimizga tobora chuqur kirib kelmoqda, shu bilan birga, internetning yaxshi va yomon taraflari ham hayotimizni qamrab olmoqda. Bugun mobil telefoni bilan internetga ulanmagan, ijtimoiy tarmoqlardan yiroq bo‘lgan fuqarolar deyarli kamchilikni tashkil qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, axborotlashgan jamiyat va uning tarixi bilan qisqacha shaklda tanishib chiqsak, maqsadga muvofiq bo‘lib, o‘rganishlarimiz natijasida ijtimoiy-madaniy salbiy ta’sir etuvchi omillarning oldini oluvchi ilmiy-amaliy choralarini ko‘rib chiqamiz.

Bugungi davrda axborotning tobora oshib borayotganligi va insonlar hayotida hamda turli sohalarning ishlab chiqarishida keng qo‘llanilishi, rivojlanish asosini bilim, ilm-fan, inson kapitali kabi nomoddiy intellektual resurslar tashkil etuvchi yangi turdag'i jamiyat – “axborotlashgan jamiyat”ning shakllanishiga olib keladi. “Axborotlashgan jamiyat” tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan bo‘lib, ilk

marotaba 1966-yilda Yaponiyada ilmiy-texnik va iqtisodiy yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini yuritgan bir guruh olimlarning ilmiy ma’ruzalarida qo‘llanilgan. Ma’ruzada axborotlashgan jamiyat o‘zida yuqori sifatli axborotni mujassam etuvchi, uni saqlash, tarqatish va foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratgan jamiyat sifatida aks etgan.

Axborotlashgan jamiyat mohiyatini o‘zida aks ettiruvchi uchta asosiy ilmiy-nazariy yondashuv mavjud bo‘lib, ularning birinchisini amerikalik olimlar F.Maxlup [1], M.Porat, D.Bell [2]larning ilmiy yondashuvlari aks ettiradi. Ularning fikricha, axborotlashgan jamiyat mavjudligini asoslovchi mezon – bu axborotlashgan (nomoddiy) sektorning YAIMdagi ulushidir. Ikkinci ilmiy yondashuv “axborotlashgan portlash” nazariyasiga asoslanadi. Bu nazariyaga muvofiq, jamiyat qabul qila oladigan axborotning miqdoran oshishi iqtisodiyot taraqqiyotining sifat ko‘rsatkichlariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi va bu o‘z-o‘zidan axborotlashgan jamiyatni shakllantiradi.

Bunday konsepsiya yapon olimlari T.Umesao [3], Y.Xayoshi [4] va Y.Ito [5]larning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Uchinchi yondashuvga ko‘ra, axborotlashgan jamiyatning asosiy xususiyatlaridan biri – bu AKTning barcha sohalarda keng tarqalishidir. Bunday nazariya yevropalik iqtisodchilar E.S.Daff, S.Nor va A.Minkalarga tegishlidir [6]. Yaponiya axborotlashgan jamiyat instituti asoschisi va prezidenti Yonedzi Ma’suda axborotlashgan jamiyatni quyidagicha ta’riflaydi: Kompyuter texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining yaratilishi natijasida kirib kelgan axborotlashgan davr sanoatlashgan jamiyatga shunchaki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta’sir qilibgina qolmay, katta o‘zgarishlar natijasida tamomila yangi ko‘rinishdagi inson jamiyatini yaratadi. Ana shu jamiyat axborotlashgan jamiyatdir [7].

D.Bell, O.Tofflerlar konsepsiyasiga muvofiq, axborotlashgan jamiyat postindustrial jamiyatning bir ko‘rinishidir. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarini hisobga olib, ushbu konsepsiya tarafda orollari axborotlashgan jamiyatni iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarida asosiy fenomen sektorlar hisoblangan: qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat tarmoqlaridan keyingi bosqichda shakllangan axborotlashgan tarmoqning vujudga kelishi bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, sanoatlashgan jamiyatning asosi kapital va mehnat hisoblansa, axborotlashgan jamiyat negizida axborot va bilimlar yotadi.

Professor U.Martin axborotlashgan jamiyatni G‘arb mamlakatlarda yuzaga kelgan rivojlangan postindustrial jamiyat sifatida izohlaydi. Uning fikricha, axborotlashgan jamiyat shunday jamiyatki, aholi turmush darajasi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini ushbu jamiyatda axborotning muhimlilik va undan keng foydalanish darajasiga bog‘liq. Bunday jamiyatda mehnat va dam olish shakllari, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa muhim tarmoqlar axborot va ilm sohasidagi erishilgan yutuqlarga bog‘liq bo‘ladi [8].

Hozirgi zammon olimlarining yondashuvlariga asoslanib, axborotlashgan jamiyatga ta’rif beradigan bo‘lsak, ushbu jamiyat individlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda axborot almashinuvni natijasida yuzaga kelgan munosabatlar tizimidir. Bunday konsepsiya ko‘ra, axborot miqdorining oshishi axborotlashgan jamiyat shakllanishi uchun zarur sharoit yaratadi, AKTning keng qo‘llanilishi obyektiv zaruriyat, iqtisodiyotda nomoddiy ishlab chiqarish tarmog‘i ulushining oshishi – iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarish natijasi hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyatda axborot va uning “oliv” shakli ilmiy bilim davlat va korxona uchun raqobatbardoshlik ustunliklarini yaratuvchi strategik resurs hisoblanadi. Bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Bozor munosabatlarining an’anaviy shakli o‘zgaradi. Ijodiy mehnatning keng tarqalishi, mahsulot narxining unga sarflangan mehnat qiymati bilan emas, balki ushbu mahsulotning samaradorlik qiymati bilan o‘lchanishiga olib keladi.

2. Bilim sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishining oshishi. Buning asosiy sababi mahsulot ishlab chiqarishda ilmiy-tadqiqot va konstrukturlik loyiha natijalaridan keng foydalanishdir.

3. Intellektual tovar va xizmatlar bozorining rivojlanishi. Mutaxassislarning baholashiga ko‘ra, hozirda intellektual tovar va xizmatlarning jahon bozori an’anaviy bozorlarga nisbatan 5 barobar tez o‘sib kelmoqda.

4. Axborotni ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va foydalanish bilan bog‘liq faoliyat muhimliliginning oshishi. Ushbu faoliyatda muhim o‘rinni ta’lim egallaydi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab ta’limga ajratilgan mablag‘lar miqdori iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ajratilgan mablag‘larga nisbatan oshib bormoqda. Ko‘pgina mamlakatlarda ta’lim davlat

tomonidan moliyalashtiriladi, davlat ushbu tarmoqqa mudofaa, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy himoya bilan bir qatorda investitsiya qiladi”¹⁴⁴.

Axborotlashgan jamiyatimizdagi olialarning o‘tgan tarixi va bugungi kunigacha bo‘lgan oila, oilaviy tarbiya haqidagi tarixiy manbalarni quyidagi bosqichlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

1-bosqich – Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelgungacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar (yahudiylik, zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik);

2-bosqich – IX-XII asrlarda, ya’ni islom Uyg‘onish davridagi ta’limotlar (Qur’oni karim, hadislar, pandnomalar, mutafakkirlarning ta’limotlari: Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va h.k.);

3-bosqich – XIV-XV asrlar, ya’ni Amir Temur va temuriylar davrida mavjud bo‘lgan ta’limotlar;

4-bosqich – xonliklar davridagi ta’limotlar (XVI-XIX asrlar);

5-bosqich – Markaziy Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingen davrdagi ta’limotlar (XIX asr 60-yillarining oxiri va 1917-yilning oktabr inqilobi davrigacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar);

6-bosqich – ittifoq davridagi ta’limotlar (1917-yil oktabr inqilobidan 1991-yil avgust oyigacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar);

7-bosqich – Mustaqillik davri, ya’ni 1991-yilning sentabr oyidan hozirgi davrgacha.

Yuqorida davrlashtirilgan oila, oilaviy tarbiya kabi tushunchalar turli davrda turli talqinda bo‘lganligi tarixdan bizga ma’lum. Shu sababli bizzdan oldingi jamiyatlar hayotida insonning oilada shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy salbiy omillar yetarlicha bo‘lgan, ammo ta’sir doirasi kichik hajmda bo‘lib o‘tgan davr jamiyatni hayotida oilaviy tarzda muammolar hal etilgan, mabodo, muammo kattaroq bo‘lsa, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamdagi oilalarning yordami bilan hal etilgani bizga tariximizdan ayon. Bugungi zamonamizda, avvalo, internet asridagi bilim oluvchi insonning ta’lim tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonni qamrab oluvchi vosita bevosita internet bo‘lib qolmoqda hamda salbiy ta’sir etuvchi omillarning ahamiyati ham sezilarli tarzda ortib bormoqda. Bu jarayonga yechim izlashda, avvalo, biz barcha chora-tadbirlarni qo‘llamoqdamiz, ta’limda islohotlar qilinmoqda, yangi tizim, yangi imkoniyatlar internet orqali kirib kelishi masalani biroz murakkablikka olib kelayotgandek, nazarimizda.

Tariximizda, badiiy adabiyotimizda o‘z aksini topgan muqaddas dinimiz ko‘rsatmalariga amal qilgan holda ta’lim-tarbiya yanada uyg‘unlashmoqda. Shu o‘rinda tarbiya haqida adib Abdulla Avloniyning so‘ziga to‘xtalishni lozim ko‘rdik:

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Abdulla Avloniyning so‘zi bugungi axborotlashgan jamiyatimizda ham o‘z qiymatini aslo yo‘qotmasdan kelmoqda, avvalo bugungi kunda dunyo hamjamiyatida ta’lim-tarbiyaga juda katta e’tibor qaratilayotganligi ayni haqiqat, barcha zamonlarning jamiyatida tarbiya va ta’lim tizimi dolzarb bo‘lgani kabi bizning zamonamizda ham dolzarb va bahs-munozarali bo‘lib turganligi ayni haqiqatdir. Keling, bu borada yuqorida fikrimizni davom ettirgan holda Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida keltirgan so‘zleri bilan davom ettirsak: “Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘surmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdir. Zeroki, “Hassinu axloqiko‘m” amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg‘a amr o‘linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasি tarbiyadur. Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyi bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur, ba’zilar “tarbiyaning axloqqa ta’siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas”, – demishlar”¹⁴⁵.

Axborotlashgan jamiyatda insonning oilada kamolga yetaklovchi ijtimoiy-madaniy omillar, ta’lim va tarbiya jarayoni bugun O‘zbekistonda ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi, bu borada juda ko‘plab islohotlar amalga oshirilishi zamonaviy ta’lim va tarbiyaga birdek yondashilayotganligi muammo va kamchiliklarga barham berish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilayotganidan dalolatdir. Buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zleri bor. Qarang, bu

¹⁴⁴ infoCOM.Uz O‘zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari “Axborotlashgan jamiyat” shakllanishining ilmiy va nazariy asoslari 30.07.2015 Rukn: Sharh va fikr-mulohazalar. Muallif: Surayyo Otaqo‘ziyeva.

¹⁴⁵ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq kitobi. – Toshkent, 2008. (qayta nashr www.islom.uz kutubxonasi) – B. 8-9.

fikrlar miloddan avval aytildi. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bizning asrimizga kelib ham ushbu fikrlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan axborotlashgan jamiyatimizda insonning oilada kamol topshiga bog‘liq bo‘lgan barcha ijtimoiy-moddiy salbiy kamchiliklardan yoshlarni asosiy vazifamiz bo‘lib kelmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda insonning oilada shakllanishiga ijtimoiy-madaniy salbiy ta’sir etuvchi omillarga bugun barcha internetdagi salbiy ko‘rinishda faollik qilivchi internet saytlari, turli xildagi ijtimoiy tarmoqlarda faollik qiluvchi tarmoqlardan “Telegram, Instagram, Facebook, WhatsApp, Viber, Odnoklassniki, Tik tok” kabi birqancha ijtimoiy tarmoqlar bo‘lib, bularning foyda va zarari tengdek tuyulsa-da, axborotning aylanish tezligi, to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliq noma‘lum bo‘lgan axborotlar jamiyatimizdagi insonlarni, ayniqsa, yoshlarnimizni chalg‘itmoqda. Bu kabi tarmoqlar barchamizga kerak, ammo me’yor darajasini unitib qo‘ymoqdamiz, bizlarni virtual olam o‘z domiga tortib ketayotgandek go‘yo.

“Bir o‘ylab ko‘raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta’limga qaratilgan ulkan e’tibor tufayli emasmi? Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, Yangi O‘zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda”¹⁴⁶.

Jamiyatimiz uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar:

- ✓ diyonat, g‘ayrat, qanoat, shijoat;
- ✓ ilm, sabr, intizom, vijdon;
- ✓ vatanni sevish, ibrat, iffat;
- ✓ hayo, idrok, viqor, itoat;
- ✓ haqiqatparvarlik, xayrixohlik;
- ✓ munislik, sadoqat, muhabbat va kechirimplilikdir.

Ushbu fazilatlarni jamiyatda yoshlarnimiz tarbiyasida oiladan boshlamas ekanmiz, jamiyatimizda va davlatimizda tobora axborot tizimlaridan keng foydalanayotgan, axborotlashgan jamiyatimizdagi zamonaviy ta’limni rivojlantira olmaymiz.

Axborotlashgan jamiyatda insonning oilada shakllanishiga ijtimoiy-madaniy salbiy ta’sir etadigan omillarning oldini oluvchi ilmiy-amaliy asoslardan yana bir omili sifatida yaxshi xulqlarni tarbiya bilan qo‘lga kiritishimiz uchun oilada ota-onasiga, jamiyatda muallim ustozlarimizning hikmatli nasihatlarini jon qulog‘i bilan tinglovchi, doim xotirasida saqlovchi, axloqi yaxshi kishilar bilan do‘sslashmoqligi, axloqi buzuq yomon kishilardan yiroq yurmoqlik kabi barcha sifatlarni oiladagi tarbiya bilan zamonaviy ta’limni bog‘lashimiz kerak. Buning uchun, avvalo, ta’lim va tarbiyani, dastlab, oiladan boshlanishini esdan chiqarmaslik kerak.

Bugungi kundagi barcha yoshlarnimiz deyarli har kuni internetdan foydalanishadi, kinofilmlar, musiqlarni tinglaydi, turli ma’lumotlar qidiradi, global tarmoq hayotimizga tobora chuqur kirib kelayotganidan dalolat beradi. Internet nima ekanligini bilmaydigan insonni topish juda qiyin. Butun dunyo bo‘ylab millionlab, balki milliardlab odamlar internetdan, hatto televizorga nisbatan ham ko‘proq foydalanadi. Kelajakda ko‘pchilik uchun internet tirikchilik qilish manbayiga aylanib boradi.

“1980-yilda hech kimning xayoliga ham kelmagan, bugun “Internet” deb ataluvchi HTML protokoli, aslida yadroviy mavzular tadqiqotlarining natijalaridir. Dunyodagi birinchi internet sayti 1990-yilda yaratilgan”¹⁴⁷. Bu – internet, deb ataluvchi dastur hozirda dunyoni qamrab olganligi ayni haqiqat.

Aniqrog‘i, brauzer nima va uni qanday o‘rnatish kerakligi hamda shunga o‘xhash boshqa foydali ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi oddiy bir sahifa bo‘lgan, xolos. Dastlab, hujjatlar almashish usuli o‘ylab topilgan edi. U giperssilkalardan foydalanishni jamlagan. Mana, loyihadan keyin dunyo uzra “o‘rgimchak to‘ri” tug‘ilgan¹⁴⁸. Ushbu kunda bizning jamiyatimizga va davlatimizga ham kirib kelgan internet bugun yoshlarnimizni ham o‘z domiga tortmoqda.

Davlatimiz va jamiyatimizning ravnaqi uchun zarur bo‘lgan bilimlarni olish oila va ta’lim maskanida har bir yosh yigit-qizning zimmasidagi burchlaridan biri hisoblanadi. Buyuk bobokalonimiz muhaddis

¹⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. 30.09.2020. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

¹⁴⁷ www.odam.uz

¹⁴⁸ Internet to‘g‘risidagi qiziqarli faktlar www.odam.uz

“Imom al-Buxoriy: “Najot faqat ilmdadur”, – deb bejiz aytmagan. Chunki bilimsizlik – jaholatdan, jaholat esa takabburlik, mutelik va buzg‘unchilikdan kelib chiqadi”¹⁴⁹. Bilimsizlik oqibatida ko‘plab muammolar, tashvishlar kelib chiqadi. Bilimsizlikning oldini olsz uchun barcha islohotlarni jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oiladan boshlashimiz kerak, oiladagi ta’lim va tarbiyaning muhimligi barcha zamonlarda ahamiyatli hisoblanib bizning zamonaımızda esa dolzarb bo‘lmoqda. Oilada tinchlik, totuvlik bo‘lsa, farzandlar tarbiyasida va ta’lim oilishida yuksalish bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga 2020-yil 24-yanvardagi Murojaatnomasida ilm-ma’rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratib quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”¹⁵⁰. Ushbu fikrlar zamirida juda katta ma’nolar jamlangan. O‘zimizdagи turli illatlardan ertaga emas, bugun voz kechishimiz kerak.

Yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani ado etishda birinchi o‘rinda oilada totuvlik, tinchlik, hamjihatlik, ilm-ma’rifat va diniy qadriyatlarga hurmat-e’tiborlarni yoshlar ongiga singdirishda ota-onalar va ustozlarning mashaqqatli mehnatlariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini barchamiz yaxshi tasavvur qilamiz. **“Xalqimiz shuni yaxshi biliishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaivi bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi”**¹⁵¹.

Axborotlashgan jamiyatda insonning oilada shakllanishiga ijtimoiy-madaniy salbiy ta’sir etuvchi omillarning oldini oluvchi ilmiy-amaliy asoslarini bugun davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lamida ko‘rib o‘tamiz. Axborotlashgan jamiyatimizda bugungi kunda barcha tarmoqlar raqamlashtirilmoqda, shu bois “Raqamli iqtisodiyot” mamlakatimiz taraqqiyotining asoslaridan biri sifatida belgilangan. Shu maqsadda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish boshlandi. Jumladan, uning doirasida hududlarda 89 ta, tarmoqlarda 200 dan ortiq loyiha hayotga tatbiq etildi.

Yil boshidan buyon “IT Park rezidentlari” soni 35 foizga ko‘payib, ularda 6 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratilgan. Joriy yilning 8 oyida ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlar 26 million dollarga eksport qilingan. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot sohalarida yana 300 ta loyihami amalga oshirish rejalashtirilgan. Ushbu loyihami, umuman, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda “Bir million dasturchi” loyihasi amalga oshirilmoqda.

Hozirgacha bu loyiha doirasida 567 ming o‘g‘il-qiz bepul saboq oldi. E’tiborlisi, ularning 79 foizi mакtab o‘quvchilaridir. Davlatimiz rahbari loyihami har bir maktabga yetkazish, zarur hollarda ularni qo‘srimcha kompyuterlar bilan ta’minalash, bolalarni o‘qishga keng jalb etish muhimligini ta’kidladi. “Birorta mакtab “Bir million dasturchi” loyihasidan chetda qolmasligi kerak”, – dedi Shavkat Mirziyoyev. Shuningdek, bunday o‘quv kurslari joylardagi “Yoshlar markazi”, “Ishga marhamat” mono-markazlari negizida ham tashkil etiladi.

Bugungi kunda yurtimizda axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 100 ta mакtab faoliyat yuritmoqda. Kelgusi ikki yilda bunday muassasalarni 205 taga yetkazib, 30 mingdan ziyod o‘quvchilarni o‘qitish rejalashtirilgan. Shu bois mutasaddilarga ushbu maktablar uchun pedagoglar, texnika va o‘quv dasturlarini hozirdan puxta tayyorlash bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Yana bir yangilik – joriy yilning 1-oktabridan boshlab barcha hududlarda 14 ta IT-teknikum faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Ularda dasturiy injiniring, axborot xavfsizligi telekommunikatsiya kabi yo‘nalishlar bo‘yicha 8 mingga yaqin o‘quvchi tahsil oladi. Ushbu texnikumlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalari ham atroflicha o‘rganiladi. Kadrlar tayyorlashda o‘quv markazlari ham muhim o‘rin tutadi. Shu maqsadda “Aloqa bank” tomonidan ustavi 80 milliard so‘m bo‘lgan “Vençur” jamg‘armasi va IT bilimlarni rivojlantirish markazi tashkil etilishi belgilandi. Ushbu markazda kelgusi besh yilda 100 ming nafar yoshlarga dasturiy ta’minot, mobil ilovalar, tarmoq administratori kabi yo‘nalishlar bo‘yicha professional ta’lim beriladi.

¹⁴⁹ O‘zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi.

¹⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasidan. 24.01.2020-yil

¹⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasidan. 24.01.2020-yil

Bundan tashqari, hozirda 151 ta raqamli texnologiyalar o‘quv markazi faoliyat yuritib, ularda joriy yilda 27 mingdan ortiq tinglovchilar o‘qitildi. Ushbu markazlar faoliyatini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yana shunday o‘quv maskanlari tashkil etish muhimligi ta’kidlandi. Bugungi kunda 4 ta Prezident maktabida 576 nafar, 3 ta ixtisoslashgan va 9 ta ijod maktabida 1 ming 500 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda.

Davlatimiz rahbari tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhi asosiy ahamiyat kasb etishi zarurligini ta’kidladi. O‘quvchilarni mamlakatimiz tarixi, madaniyati va san’ati bilan kengroq tanishtirish, harbiy xizmatchilar ishtirokida vatanparvarlik darslari tashkil etish muhimligi qayd etildi. Ixtisoslashgan maktab o‘quvchilarini axborot texnologiyalari mutaxassisliklariga yo‘naltirish, ijod maktablarida veb-dizayn, kompyuter grafikasi, tasviriy va raqamli san’at, audiovizual asarlarni yaratish, tarjimonlik, jurnalistika va aktyorlik mahorati kabi to‘garaklar tashkil etish bo‘yicha vazifalar belgilandi. Umuman, Prezident maktablariga investitsion va innovatsion yo‘nalishlarni joriy qilish bo‘yicha yangi tizim tashkil etiladi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Tashqi ishlarni vazirligi xorijidan o‘quv dasturlari, adabiyotlar va jihozlar, malakali pedagoglar va moliyaviy grantlar jalb qilishga ko‘maklashadi. Shuningdek, xorijiy maktablar bilan o‘qituvchi va o‘quvchilarni almashish dasturlari amalga oshiriladi¹⁵².

Davlatimizda, axborotlashayotgan jamiyatimizda, oilalarimizda, hayotimizda ta’limga, tarbiyaga, diniy qadriyatlarga, ilmga, zamonaviy ta’limga etibor qaratsak, barcha muammolarni bartaraf etgan bo‘lamiz. Axborotlashgan jamiyatda insonning oilada shakllanishiga ijtimoiy-madaniy salbiy ta’sir etuvchi omillarning oldini oluvchi ilmiy-amaliy asoslari zamonaviy ta’imda o‘z aksini topmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.president.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 10-sentabr kuni axborot texnologiyalari sohasida salohiyatlari kadrlar tayyorlash va iqtidorli yoshlar bilan tizimli ishslash masalalari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi. 10.09.2021
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. 30.09.2020-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi. 24.01.2020-yil
5. www.lex.uz
6. ©2002-2021. infoCOM.Uz O‘zbekiston axborot kommunikatsiya texnologiyalari “Axborotlashgan jamiyat” shakllanishining ilmiy va nazariy asoslari. 30.07.2015 Rukn: Sharh va fikr-mulohazalar. Muallif: Surayyo Otaqo‘ziyeva.
7. Abdulla Avloniy: Turkiy guliston yoxud axloq kitobi (qayta nashr www.islom.uz kutubxonasi). – Toshkent, 2008. – B. 8-9.
8. Internet to‘g‘risidagi qiziqarli faktlar. www.odam.uz
9. O‘zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi. Copyright © 2015 – 2020.
10. Najmiddinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni. – Toshkent: “Adolat”, 2016. – B. 224.
11. www.falsafa.uz
12. www.falsafa.uz

¹⁵² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasidan 24.01.2020-yil

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZLARI

Egamberdiyeva N.M. Hurmatli anjuman ishtirokchilari!	4
Marufova G.M. Hurmatli anjuman ishtirokchilari!	7

YALPI MAJLIS MATERIALLARI

Nurmatova M.A. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi – zamonaviy oila mustahkamligining muhim omili.....	10
Musurmanova O. Zamonaviy oilani barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni	13
Jo‘rayev N. Oila – milliy qadriyatlar beshigi	17
Ismoilova J.X. Sharq allomalari oila va tarbiya haqida	20
Karamyan M.X. Ценностное измерение психосоциальной работы с семьей	25
Matibayev T. Mustaqil va faravon oilaning shakllanishiga er-xotin munosabatlaridagi nizolar salbiy ta’sir etuvchi omillar sifatida.....	29
Pulatova M.R. Hadislarda axloqiy qarashlar.....	33
Maxmudova M.M. Milliy qadriyatlar asosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash	38

BIRINCHI SHO‘BA.

ZAMONAVIY OILA INSTITUTINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ismailova Z. Yoshlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi asosida ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	42
Norqulov X.D., Jumayev Sh.S. Zamonaviy oila tarbiysi masalalari	47
Akramova F.A. Zamonaviy oila – jamiyat ravnaqining asosi sifatida: ijtimoiy-psixologik jihatlar	50
Abdusamatov X.U. Bola shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	54
Baratova Sh. Yuqori sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishning dolzarb muammolari.....	58
Shermanova F.D. Zamonaviy oilada mактабгача yoshdagи bolalarni mediata’lim muhitiga tayyorlash	61
Bayjonov F.B. O‘sirlardan kasb tanlash motivatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari	65
Yulchiyeva D.X. Oilada barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta’sir etishi xususiyatlari	67
Xodjayorova B.A. O‘quvchilarini ijtimoiylashtirishda insoniy munosabatlariga urg‘u berish ahamiyati.....	72
Abdurusalova F.R., Muxsumova Z.Z. Oila – ma’naviy tarbiya o‘chog‘i	76
Xakimova A.K. Yoshlarning axloqiy va ijtimoiy madaniyatini shakllantirishda oilaning roli	78

IKKINCHI SHO‘BA.

ZAMONAVIY OILALARDA YOSHLARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR VOSITASIDA TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI

To‘ychiyeva G.U., Rashidova Sh.R. Zamonaviy o‘zbek oilasida farzand tarbiyasi uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishdagi islom ta’limotining o‘rni	82
Begmatova D.M. O‘zbek milliy an’ana va qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni	87
Jabborov X.X. Zamonaviy oilalarda yoshlarni milliy qadriyatlarni vositasida tarbiyalashning psixologik omillari	90
Akramova F.A., Ummatova S.Sh. Zamonaviy oilaning asosiy omillari	96
Abdurahmonova Z. Oilada yoshlarni sanogen tafakkurini rivojlantirishda sharq allomalarining ilmiy qarashlari	99
Alimjanova D. Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarning o‘rni	103
Safoyeva R. Yoshlar tarbiyasida oilaviy burch va muhitning o‘rni	105
Abduazimova Z.A. Zamonaviy oilalarda yoshlarni ekologik va umuminsoniy qadriyatlarni vositasida tarbiyalashning muhim omillari	107
Tovbayeva M.S. Oilaviy munosabatlarda yoshlar shaxsini tarbiyalashning psixologik asoslari	110
Djurayeva B.A. Zamonaviy oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda mediamadaniyatning o‘rni	114
Namazbayeva L.Z. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda oila, ota-onasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning muhim o‘rni	118

Galdiyeva M.D. Yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash jamiyatning yuksalish garovi.....	122
Toshmatov B.E. Zamonaviy oila qadriyatlarining ahamiyati	126
Xolmurodov G‘., Abdusalamova S.B. Oiladagi farzand tarbiyasida qadriyatlar o‘rni	129
Tashpulatova D.M., Baxtiyorova S.E. Bo‘lajak o‘qituvchilarni boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish va ta’minalashga tayyorlash.....	131
Narimbetova Z.A., Sitina N.V., Baxrombekova L.F. Ta’lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishning oqilona maqsad mezonlari.....	133
Gimazutdinov R.G., Muxitdinov I.E. Sport – yoshlар va millat ruhiyatida	135
Narimbayeva L.K., Maximova O.A. Bog‘cha yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari	137
Muxitdinova D.A. Yoshlarni ijtimoiy hayotga izchil tayyorlashda mahalla va oila hamkorligi	139
Xudoyorova O., Muradov I., Muradova F. Yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishda o‘qituvchining innovatsion faoliyati va ta’lim texnologiyalari	143
Xurramov E.E., Madiyorova M.Sh., Temirova D.Z. Kichik yoshdagи o‘quvchilarda maktabga chiqish qo‘rquvi va xavotirining namoyon bo‘lishi.....	146
Xudoyorova O., O’tanova U., Aliqulov X. Barkamol avlod tarbiyasida oila va maktabning mas’uliyat tuyg‘usini oshirish yo‘llari	148
Musurmanova O. Zamonaviy oila va uning ma’naviy-axloqiy asoslari.....	151

UCHINCHI SHO‘BA.

YANGI O‘ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESSANSNI BARPO ETISHDA OILA-MAHALLA VA NNTLARNING MAHALLA VA OILA INSTITUTLARINI MUSTAHKAMLASHDAGI HAMKORLIGI

Xoliqova M. Mahalla va oila tizimi mutaxassislarining nizolarni samarali boshqarish bo‘yicha konflikt-menejment hamda mediativ kompetensiyalarini takomillashtirishning dolzarb masalalari	156
Aripova G.Sh. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tafakkurini shakllantirishda oila, ta’lim tizimi va mahalla hamkorligi asosida pedagogik maqsadni shakllantirishning qiyosiy xarakteristikasi.....	160
Ismoilova X.T. Mahallada xalq milliy o‘yinlari qadriyatlarimiz timsoli	164
Karabayeva m.U. O‘sirinlarda kasb tanlash motivatsiyasini oshirishda mahalla va oila hamkorligi.....	168
Abirova U.N. Yangi o‘zbekistonda oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy-pedagogik hamkorligining dolzarb masalalari	170
Alimova N.R. Yangi o‘zbekistonda oilalarni kitobxonlik madaniyatiga targ‘ib qilishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati	173
Jumanova G.I., Sherboev S.P. Ozod va obod vatanda yangicha dunyoqarashni shakllantirish masalalari.....	176

TO‘RTINCHI SHO‘BA.

MUSTAQIL VA FAROVON OILANING SHAKLLANISHIGA SALBIY TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING OLDINI OLISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Qodirova F.U. Oilalarda nogiron bolalar bilan ishslashning zamonaviy texnologiyalari	180
Saydivaliyeva X.X. Farovon oilaning shakllanishida huquqiy madaniyatning o‘rni va ahamiyati.....	183
Ismaylova R.N., Ismoilova X.T. Oiladagi avlodlararo munosabatlardagi ijtimoiy-psixologik to‘siqlar....	187
Alimardonov Z., Ikmatullayev G‘. Nogiron bolalar bilan shug‘ullanishda “pedagog-ona”, “faol bola” portretlarini yaratish mezonlari.....	190
Murodov A. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklarning oldini olish masalalari	192
G‘ofurov Sh.R. Yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarining o‘ziga xos xususiyatlari	196
Umaraliyeva M.A. Nogiron farzandlari bor oilalarda ta’limiy-rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning psixologik aspektlari	199
Salixova G. Inkluyuziv ta’lim nogiron bolalar ijtimoiylashuvida optimal ta’lim turi sifatida	201
Tleuova G. Oilada voyaga yetmaganlarning shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llari	203
Alimov S.K. Aholi migratsiyasining oiladagi ijtimoiy-axloqiy muhitga salbiy ta’siri va oilaviy axloqiy qadriyatlar transformatsiyasi.....	208
Jurakulov J.K. Axborotlashgan jamiyatda insонning oilada shakllanishiga ijtimoiy-madaniy salbiy ta’sir etuvchi omillarning oldini oluvchi ilmiy-amaliy asoslari	212

**“ZAMONAVIY OILADA, FARZAND TARBIYASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY
QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI TO‘PLAMI
(30-sentabr, 2021-yil)

**“ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ
ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОЙ СЕМЬЕ, ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ”**

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
(30 сентября 2021 года)

**“ISSUES OF FORMATION OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN MODERN FAMILY
AND UPBRINGING OF CHILDREN”**

COLLECTION OF MATERIALS OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
(September 30, 2021)

«Mahalla va oila nashriyoti»
Toshkent – 2021



1940

Nashr uchun mas’ul: **B. Mavlonov**
Muhabbir: **U. Yunusov**
Badiiy muhabbir: **F. Sobirov**
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 01.11.2021.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8
Nashriyot bosma tabog‘i 4,4.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

«SANBOOK EXCLUSIVE PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.